**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**B. A. USMONOV**

**O‘ZBEKISTON TARIXI**

# AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI SIYOSIY TARIXI

**O‘QUV QO‘LLANMA**

**Ta’lim yo‘nalishi:** 70220300 - Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha)

**Farg‘ona – 2024**

**Usmonov B.A. Ўзбекистон тарихи. Amir Temur va temuriylar siyosiy tarixi: Oʻquv qoʻllanma. – Fargʻona:**

Mazkur oʻquv qoʻllanmada Amir Temur va temuriylar davrida yuz bergan siyosiy jarayonlar birlamchi manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida keng qamrovli tahlil etilgan hamda atroflicha yoritilgan.

Oʻquv qoʻllanma bakalavriatning 5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar boʻyicha) yoʻnalishida tahsil olayotgan II bosqich talabalari uchun moʻljallangan boʻlib, “Oʻzbekiston tarixi” fani dasturining Amir Temur va temuriylar davri siyosiy tarixiga bagʻishlangan maʼruza va amaliy mashgʻulot mavzularini qamrab olgan.

**Maʼsul muharrir**

**D.Y.Yusupova –** tarix fanlari doktori, professor, akademik

**Taqrizchi:**

**M.Abdullayev –** tarix fanlari doktori, professor
**A.Nishonov** – tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 04-martdagi “55”-sonli buyrugʻiga asosan nashrga ruxsat berilgan.

**№ 958 588**

**© B.A.Usmonov, Fargʻona davlat universiteti**

# KIRISh

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi natijasida Vatanimiz tarixini chuqur va haqqoniy o‘rganish uchun keng imkoniyatlar ochdi. Mustaqillikni mustahkamlash va vatanimizni tenglar ichra teng bo‘lmog‘ini ta’minlashda ko‘p jihatdan ma’naviy barkamol, milliy tarixini chuqur biladigan, o‘zligini anglagan fuqarolar o‘rni muhimdir. Ma’naviy jihatdan yetuk barkamol shaxs tarbiyalashda esa tarix fanining o‘rni katta. Shuning uchun ham yurtimizda tarix fanini rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Xususan, “Xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo, Amir Temurning bebaho merosi, Vatan ozodligi va farovonligi yo‘lida o‘zini qurbon qilgan zamondosh vatandoshlarimizning qahramonligi asosida, O‘zbekiston xalqiga sodiq, qat’iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan o‘quvchilarni tarbiyalash”[1] lozimligi dolzarb vazifa etib belgilangan. Shu jihatdan, Amir Temur va temuriylar davri tarixini har tomonlama chuqur o‘rganish qo‘yilgan ushbu vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur uslubiy qo‘llanmaning asosiy maqsadi milliy mafkura va milliy g‘oya asosida tariximizning yorqin sahifalaridan biri bo‘lmish temuriylar davrining siyosiy tarixini tarixiy manbalar hamda e’tirof etilgan ilmiy adabiyotlar asosida chuqur o‘rganish, o‘quvchilarga va talabalarga yetkazishdir.

Amir Temur tarixiga oid ko‘pgina ilmiy va ilmiy-ommabop risola hamda tadqiqotlarda uning safdoshi, ma’lum bir vaqt ittifoqdoshi va keyinchalik raqobatchisi bo‘lgan Amir Husayn bilan birgalikda olib borgan faoliyatlari, ularning o‘zaro kurashi chetlab o‘tilgan. Sovet hokimiyati yillarida bu davr Amir Temur faoliyatining aynan vatan ozodligi uchun kurashi bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli ham majburan chetlab o‘tilgan bo‘lsa, mustaqillik yillarida nashr etilgan Sohibqiron tarixiga oid asarlarda nisbatan qisqa yoritilgan. Shuning uchun ham ushbu o‘quv qo‘llanmada Amir Temurning aynan shu davrdagi faoliyatiga nisbatan kengroq o‘rin ajratildi. Shuningdek, Amir Temur harbiy yurishlarining sabablari, jarayoni, natija va oqibatlari uning bosh strategik maqsadi Buyuk ipak yo‘lining to‘la xavfsizligini ta’minlash, Sharqu G‘arbning siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarini rivojlantirish g‘oyasiga bo‘ysunganligi xususida mulohazalar yuritilgan. O‘quv qo‘llanmada muallif Amir Temur va temuriylar davri siyosiy tarixining mazmun-mohiyatini, bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealarning kelib chiqish sabablari va tarixiy jarayonga ta’sir etgan omillar, ijtimoiy qatlamlar va ularning tarixiy siyosiy voqelikdagi o‘rni hamda manfaatlari, markazlashgan davlat topishining tarixiy sharoitlari va zaruriyatlari, siyosiy tarqoqlikning kelib chiqish sabablari va uning chuqurlashib borishining oqibatlari kabi masalalarni tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar, jahon tarixshunosligida e’tirof etilgan tamoillar va uslublar asosida tizimlashtirilgan holda bayon qilgan.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 28 июндаги ПК-4375 сонли “Ўсмирларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ҳамда Ўзбекистон Республикаси Қуролли кучлари ва давлат хизмати учун кадрлар заҳирасини тайёрлаш тизимини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. https://lex.uz/docs/4417961.

O‘quv qo‘llanmaning manbaviy asosini Amir Temur davri tarixiga oid tarixiy manbalar tashkil etadi. Qo‘llanmani tayyorlashda G‘iyosiddin Alining “Ro‘znomayi g‘azovoti Hindiston”, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning “Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur”, Fasih Xavofiyning “Mujmal-i Fasihiy”, Xondamirning “Habib us-siyar”, Rui Gonsales de Klavixoning “Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi”, shuningdek, “Temur tuzuklari”, “Zafar yo‘li” kabi birlamchi tarixiy manbalardan keng foydalanildi.

O‘quv qo‘llanmaning nazariy-uslubiy asosini shaxsning tarixda tutgan o‘rnini o‘rganishda ob’ektivlik, tarixiylik, ilmiylik, izchillik, xolislik kabi tamoyillar tashkil qiladi. Shuningdek, qo‘llanmani tayyorlashda ilmiy-uslubiy jihatdan I. Mo‘minov, B. Ahmedov, B.V. Lunin, A. O‘rinboev, T. Fayziyev, A. Ahmedov, A. Muhammadjonov, D. Yusupova, D. Alimova, Azamat Ziyo, O. Bo‘riev, Sh. O‘ljaeva va boshqa temurshunos olimlarning tadqiqotlari, ilmiy asarlari hamda maqolalariga tayanildi.

O‘quv qo‘llanma bakalavriatning 5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) yo‘nalishida tahsil olayotgan II bosqich talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, “O‘zbekiston tarixi” fani dasturining Amir Temur va temuriylar davri siyosiy tarixiga bag‘ishlangan ma’ruza va amaliy mashg‘ulot mavzularini qamrab olgan. Shuningdek, mazkur o‘quv qo‘llanma tarix, arxivshunoslik, arxeologiya, tarixshunoslik va manbashunoslik yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar va xalq ta’limi tizimining tarix fani o‘qutuvchilari hamda tadqiqotchilarga ilmiy metodik manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

# I BO‘LIM
# MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI

## MAVZU: TEMURIYLAR DAVRI TARIXINING MANBALARDA YORITILISHI.

**Reja:**

*1. Fors-tojik tilidagi manbalar.*
*2. Eski o‘zbek, arab va Yevropa tillaridagi manbalar.*
*3. Epistolyar manbalar.*
*4. Huquqiy hujjatlar.*

***Kalit so‘zlar:*** *"Ro‘znoma-ye g‘azovot-e Hindiston", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari, "Ta'rixnoma", "Muntaxab ut-tavorix-i Muiniy", "Majmua-yi Hofiz-i Abru", "Majma' ut-tavorix", "Zubdat ut-tavorix-i Boysunquriy", Sharofuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari, "Mujmal-i Fasihiy", "Tazkirat ush-shuaro", "Mu'izz al-ansob", "Matla' us-sa'dayn", "Ravzat us-safo", "Temur tuzuklari", "Kitob al-ibor", "Ajoyib al-maqdur", Ioann Grinlo, Paole Zane, Beltramus de Mignalelli, Emmanuil Piloti, Rui Gonsales de Klavixo, Yoxannes Shiltberger, Foma Metsopskiy, "Oqsoq Temur qissasi", "Rashahotu ayn-ul-hayot", "Masmu'ot", "Maqomot-i Xoja Ubaydulloh Ahror", "Silsilat ul-orifin", "Nasabnoma-yi Xoja Ubaydulloh Ahror", "Maktubot-i Temuriya", "Isnod va maktubot-i tarix-i Eron", "Majmua-yi marosalot", "Navoiy albomi", Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmasi.*

### *Fors-tojik tilidagi manbalar*

Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davri o‘zbek davlatchilik tarixining eng zarhal harflar bilan bitilgan sahifalaridir. Amir Temur tomonidan asos solingan markazlashgan davlat nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy jihatdan ham o‘z davrining eng taraqqiy etgan davlatiga aylangan edi.

Amir Temur tarixidan hikoya qiluvchi ilk tarixiy manba G‘iyosuddin Alining *"Ro‘znoma-ye g‘azovot-e Hinduston"* ("Hindiston g‘azovoti kundaligi") nomli asari bo‘lib, unda dastlab Amir Temurning Hindiston yurishigacha bo‘lgan davri qisqa satrlarda bayon qilingan. Asosiy e’tibor esa Hindiston yurishini yoritishga qaratilgan. Kitob Sohibqiron tomonidan Samarqanddagi Bibixonim jome’ masjidining bunyod etilishi voqeasi bilan yakunlanadi.

Ushbu asarga Amir Temurning Hindistonga yurishi kundaligini yuritgan qozi Nosiruddin Umarning qo‘lyozmasi asos qilib olinganligi ta’kidlanadi. Asar murakkab uslubda yozilganligi, Amir Temurga nisbatan mubolag‘alar ko‘p ishlatilgani uchun ham Sohibqironga ma’qul kelmagan. Lekin, adolat nuqtai nazaridan qayd etish lozimki, Nizomiddin Shomiy, Sharofuddin Ali Yazdiy kabi tarixchilar Amir Temurning Hindiston yurishi tarixini yoritishda ushbu asarga tayanganlar.

Hozirda "Hindiston g‘azovoti kundaligi" asarining yagona qo‘lyozma nusxasi O‘zR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Uning forscha matni L.A.Zimin tomonidan 1915-yilda Petrogradda, rus tiliga tarjimasi esa A.A.Semyonov tomonidan 1958-yilda Moskva shahrida nashr qilingan.

Amir Temurning shaxsiy topshirig‘i bilan yozilgan yana bir tarix asar Nizomiddin Shomiy qalamiga mansub “Zafarnoma”dir.

Muallif haqida nisabatan oz bo‘lsa ham birqator ma’lumotlar saqlanib qolgan. Nizomiddin Shomiy Tabriz shahri yaqinidagi Shanbi G‘ozon mavzesida tug‘ilganligi taxmin qilinadi. Chunki, u Shanbi G‘ozoniy nisbasi bilan ham yuritilgan. Amir Temur 1393-yilda Bag‘dodni egallaganda shu shaharda bo‘lgan Nizomiddin Shomiy Sohibqiron bilan ilk bor uchrashgan. Lekin, u Amir Temurning xizmatida qolmagan bo‘lsa kerak. Shomiyning o‘zi qayd etishicha, u taqdir taqozosi bilan 1400-yili Shomning Halab shahrida Sohibqiron bilan yana uchrashgan. Bu vaqtda Hijoz safariga ketayotgan Nizomiddin Halab himoyachilari tomonidan asir olingan. Uni asirlikdan Amir Temurning sarkardalaridan biri amir Jalol us Islom ozod qilgan va Sohibqiron huzuriga olib kelgan. Shu vaqtdan boshlab uning Amir Temur saroyidagi faoliyati boshlangan deyish mumkin. 1404-yilga qadar u Sohibqiron huzurida voqeanavis sifatida xizmat qilgan. Hijriy 804, milodiy 1401-1402-yilda Amir Temur unga o‘zining tarixini yozishni topshirgan. Muallifga asarni sodda, ravon va ayni paytda madaniyatli kishilarga ham ma’qul bo‘ladigan tilda yozish shaxsan Sohibqiron tomonidan buyurilgan. Nizomiddin Shomiy Amir Temurning bir qator harbiy yurishlarida ishtirok etgan. U Suriyaning Halab, Gruziyaning Birtis kabi bir necha qal’alarni Amir Temur qo‘shinlari tomonidan zabt etilishini esa o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan. Asar 1404-yilning bahorida “Yetti yillik yurish”dan qaytayotgan Amir Temurga topshirilgan. Asar muallifi Amir Temur bilan Samarqandga qaytmagan. Nizomiddin Shomiy ko‘p o‘tmay vaqot etgan. Hofizi Abru 1412-yil voqealari bayonida Nizomiddin Shomiyni marhum sifatida eslaganligi shundan dalolat beradi.

Asarning kirish qismida 1360-yilgacha Chig‘atoy ulusida hukmronlik qilgan Chingizxon avlodlari haqida ma’lumotlar berilgan. Shundan so‘ng Amir Temurning faoliyati yoritib berilgan. Asardagi tarixiy voqealar bayoni hijriy 806-yilning ramazon oyi (1404-yil, mart), Sohibqironning Arron (Qorabog‘) ga kelishi bilan yakuniga etgan. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari Amir Temur tarixini nisbatan xolis, aniq yoritib bergan asarlardan biri hisoblanadi va keyinchalik bitilgan ko‘plab tarixiy asarlar uchun asos bo‘lib ham xizmat qilgan.

Nizomuddin Shomiy o‘z “Zafarnoma”sini yaratishda G‘iyosuddin Alining "Ro‘znoma-ye g‘azovot-e Hinduston", Amir Temurning uyg‘ur yozuvi bo‘yicha kotiblari tomonidan bitilgan "Tarix-i xoniy" ("Xon tarixi") asarlaridan foydalangan. Shuningdek, bir necha yil Amir Temurning harbiy safarlarida ishtirok etganligi va ma’lumotlar to‘plashda unga asqotgan. Nizomuddin Shomiy "Zafarnoma"sining qo‘lyozma nusxalari Armaniston (Matenadaran), Angliya (Britaniya muzeyi), Turkiya ("Nuri Usmaniya" masjidi kutubxonasi), Fransiya va Iroqda saqlanadi. Asarning fors tilidagi matni 1937 va 1956-yillarda Pragada F.Tauer tomonidan nashr qilingan. "Zafarnoma"ning turk tilidagi tarjimasi 1949-yilda nashr etilgan. Asarni Yu.Hakimjonov o‘zbek tiliga o‘girgan bo‘lib, ushbu tarjima 1996-yilda Toshkentda nashr etildi.

Temuriylar davri tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy manbalardan biri Xoja Tojuddin as-Salmoniyning *"Tarixnoma"* asaridir. Ushbu asarda Amir Temur vafotidan keyin temuriy shahzodalar o‘rtasida yuz bergan

o‘zaro urushlar keng yoritilgan. Asar "Zayl-i Zafarnoma" ("Zafarnoma"ga ilova") va "Husni dil" nomlari bilan ham ataladi. Tojuddin as-Salmoniy xattot sifatida Muzaffariylar sulolasi devonxonasida *(dyevoni insho)* xizmat qilgan. Sheroz shahri Amir Temur tomonidan zabt etilgach, Tojuddin as-Salmoniy bir qator olimlar qatori Samarqandga ko‘chirilgan. Shundan boshlab u temuriylar saroyida xizmat qila boshlagan. 1409-yilda Shohrux mirzo tomonidan Samarqand zabt etilgach, ko‘pchilik olimlar bilan birga Hirotga ko‘chib o‘tgan. Aynan shu vaqtda as-Salmoniy Shohruxning topshirig‘iga binoan “Tarixnoma” asarini yozishga kirishdi. Lekin, unga asarni tugatish nasib etmagan. Ko‘p o‘tmay Tojuddin as-Salmoniy vazir Faxruddinga qarshi fitnada qatnashganlikda ayblanadi va zindonga tashlanadi.

Tojuddin as-Salmoniy o‘z asarida Amir Temur hayotining so‘nggi yillari va Shohrux mirzo davri yoritishni ko‘zlagan edi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ushbu asar Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”sini davom ettirishi lozim edi. Lekin unga taqdir faqat 1404-1409-yillar voqealarini qalamga olish imkonini berdi, xolos. “Tarixnoma”da Amir Temurning Xitoy yurishini boshlanishi, Xalil Sulton tomonidan Samarqand taxtini egallab olinishi, hukmronligi va halokati voqealari batafsil bayon etilgan.

Adabiyotlarda “Tarixnoma”ning 3 ta qo‘lyozma nusxasidan bittasi Angliyada (Britaniya muzeyida), ikkitasi Turkiyada (Istanbuldagi Sulaymon Fotih va Lal Ismoil Afandi kutubxonalarida) saqlanishi ta’kidlanadi. Tojuddin as-Salmoniyning ushbu asari nemis tiliga Gans Rober Ryomer tomonidan tarjima qilinib 1956-yilda nashr etilgan. Asarning turk tilidagi tarjimasi esa taniqli olim Ismail Aka tomonidan amalga oshirilgan va 1988-yilda chop etilgan. “Tarixnoma”ning rus tilidagi nashri yirik sharqshunos olim Z.M.Buniyatov tomonidan 1991-yilda Boku shahrida amalga oshirilgan.

Muiniddin Natanziy qalamiga mansub *"Muntaxab ut-tavorix-i Muiniy"* kitobi Amir Temur tarixiga bag‘ishlab o‘zidan avval yozilgan G‘iyosiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiy asarlaridan mustaqil manbalar asosida yozilganligi bilan ahamiyatlidir. Asarning ilmiy muomilaga kiritilgan ilk qo‘lyozmasida kitobning nomi va muallifi mavjud bo‘lmaganligi sababli bu noyob manba "Anonim Iskandar" nomi bilan shuhrat topdi. Ilmiy adabiyotlarda asarga ushbu nom akademik V.V.Bartold tomonidan berilganligi ta’kidlanadi. V.V. Bartold tomonidan olib borilgan keyingi tadqiqotlar natijasida asarning Parijda saqlangan qo‘lyozmasida, shuningdek, Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" kitobida asarning nomi va muallifning ismi-sharifini keltirilganligi aniqlandi.

Muiniddinning nisbasidan kelib chiqib, Eronning Isfahon viloyatidagi Natanz shahrida tavallud topganligi ta’kidlanadi. Davlatshoh Samarqandiyning yuqorida ta’kidlangan asarida qayd etilishiga ko‘ra, Muiniddin Natanziy avval Farg‘ona viloyatini boshqargan, keyinchalik Fors viloyati hokimi etib tayinlangan Sulton Iskandar mirzo saroyida xizmat qilgan. Amir Temurga nabira bo‘lgan mazkur shahzoda, Umarshayx mirzoning o‘g‘li edi. Natanziy o‘z asarini aynan Iskandar mirzoning topshirig‘iga binoan yozishga kirishgan va hijriy 816 (milodiy 1413/1414)-yilda tamomlagan.

Muiniddin Natanziyning ushbu asari umumiy tarix shaklida yozilgan bo‘lib, Eron, Old Osiyo, Movarounnahr, Dashti Qipchoq hududlaridagi davlatlar tarixini

asar yozib tugallangan davrgacha bo‘lgan tarixini qamrab olgan. "Muntaxab ut-tavorix-i Muiniy" asarining so‘nggi qismlari O‘rta Osiyoning XV asr tarixini tadqiq etishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Muallif 1399-1400-yillari Farg‘ona hokimi bo‘lgan Mirzo Iskandar va uning otasi, 1376-1393-yillari vodiyni boshqargan Mirzo Umarshayx faoliyatiga alohida e’tibor qaratgan. Tadqiq etilayotgan davr tarixiga oid asarlar orasida “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” asari Farg‘ona tarixi bo‘yicha eng ko‘p ma’lumot bera oluvchi manba hisoblanadi. Garchi Muiniddin Natanziy Farg‘ona toponimini qo‘llagan bo‘lsa-da, u ham ko‘plab mualliflar qatori vodiyni ko‘proq O‘zgand viloyati, Andigon nomlari bilan atagan. Boshqa asarlardan farqli ravishda ushbu manbada 12 tumandan iborat bo‘lgan Farg‘ona vodiysi 1376-yili Mirzo Umarshayxga juldu tariqasida iqto qilib berilganligi alohida qayd etilgan. Asarda Mirzo Umarshayxning Farg‘ona vodiysi xavfsizligiga jiddiy tahdid solgan Mo‘g‘uliston xonligiga qarshi olib borilgan yurishlardagi ishtiroki batafsil yoritilgan. Shuningdek, Farg‘ona lashkari bilan Mo‘g‘uliston hukmdori Qamariddin o‘rtasida 1376-yili bo‘lib o‘tgan jang tafsilotlari va janggoh nomi, Koshg‘arning egallanishi, Sharqiy Turkiston aholisining bir qismini vodiyga ko‘chirilishi kabi muhim ma’lumotlar o‘z aksini topgan.

Muiniddin Natanziy boshqa tarixiy manbalarda kam uchramaydigan ma’lumotlar o‘z asarida taqdim etishga harakat qilgan. U Amir Temur Niyoziy qishlog‘ida tavallud topganligini ta’kidlagan va Samarqanddagi sarbadorlar qo‘zg‘olonini keng yoritgan. "Muntaxab ut-tavorix-i Muiniy" ko‘plab turkiy harbiy atamalar keltirilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Bu o‘sha davr harbiy ishida asosan turkiy atamalar qo‘llanilganligidan dalolat beradi.

"Muntaxab ut-tavorix-i Muiniy"ning qo‘lyozma nusxalari anchagina keng tarqalgan. Ular Britaniya muzeyida, Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburdagi Osiyo xalqlari instituti kutubxonasida (ikki nusxa), Parijdagi Milliy kutubxonada, Eronning Tehron va Mashhadshaharlaridagi kutubxonalarda saqlanmoqda. "Muntaxab ut-tavorix-i Muiniy" asarining Parij va Londondagi nusxalari asosida tayyorlangan fors tilidagi to‘la matni fransuz olimi J.Oben tomonidan 1957-yilda Tehron shahrida chop etilgan. Asarning o‘zbek tiliga qilingan tarjimasi G‘.Karimiy tomonidan Tehron nashri asosida amalga oshirilgan bo‘lib, 2011-yilda Toshkentda nashr etilgan.

Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganishda tarixchi va geograf olim Hofizi Abru (1430-yilda vafot etgan) qalamiga mansub *"Majmua-ye Hofiz-i Abru"* ("Hofizi Abru majmuasi") va *"Majma’ at-tavorix"* ("Tarixlar to‘plami") nomli asarlar ham muhim ahamiyatga ega. Hofizi Abru taxallusi bilan shuhrat topgan muallifning to‘liq ismi-sharifi – Shahobuddin Abdulloh ibn Lutfulloh al-Husayniydir. Uning umri Amir Temur va Shohrux mirzo saroyidagi turli xizmatlarda o‘tganligi ham asarlarida keltirilgan ma’lumotlarning ishonchliligini oshiradi.

Hofizi Abruning asosiy ijodiy faoliyati Shohrux mirzo davriga to‘g‘ri keladi. Olim aynan uning topshirig‘iga ko‘ra ikkita asar yozgan. Ulardan biri geografiya faniga bag‘ishlangan bo‘lib, arab olim Hasan ibn Ahmad al-Muhallabiyning X asrda yaratilgan "Kitob masolik ul-mamolik" asarining qayta ishlangan fors tilidagi

nusxasidir. Asar garchi geografiyaga bag‘ishlangan bo‘lsada, unda geografik ma’lumotlarni keltirilgan hududlar bilan bog‘liq siyosiy voqealar borasida ham qisqa tarzda so‘z yuritilgan. Aynan ushbu asarda Amudaryo Kaspiy dengiziga qo‘yilishi, shuningdek, Buxoro, Samarqand, Nasaf, Kesh, Termiz, Xo‘jand shaharlari haqida keltirilgan ma’lumotlar biz uchun qiziqarlidir.

Muallifning Shohrux mirzo homiyligida yozgan navbatdagi asarlari Tabariyning "Tarix ar-rusul va-l-muluk", Rashiduddinning "Jome’ ut-tavorix" va Nizomuddin Shomiyning "Zafarnoma" asarlariga yozilgan *zayl* – ilovalar hisoblanadi. Manbashunoslik fanida shu uch asarga yozilgan ilovalar yagona nom bilan *"Majmua-ye Hofizi Abru"* deb yuritiladi. Rashiduddinning asariga yozilgan zaylda 1306-1393-yillari Eronning turli hududlarida yuz bergan tarixiy voqealar hikoya qilinganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu ilova orqali Eronning Amir Temur yurishlari arafasidagi siyosiy vaziyatini kengroq o‘rganish imkonini beradi. Shomiy "Zafarnoma"siga yozilgan ilovada esa Amir Temur hukmronligining so‘nggi yillari va 1416-yilga qadar temuriylar davlatida yuz bergan voqealar qalamga olingan. "Majmua-ye Hofiz-i Abru"dan olingan ayrim parchalar Xonbobo Bayoniy (1938), K.M.Maitra (1939) va F.Tauer (1959) tomonidan nashr qilingan.

Hofizi Abru Shohrux mirzoning o‘g‘li – Boysunqur mirzo topshirig‘iga ko‘ra, *"Majma' at-tavorix"* deb nomlangan asar ham yozgan. “Majma at-tavorix”deb nomlanib, Movarounnahr, Eron va Xurosonda islomiyatdan avvalgi davrdan boshlab to 1427-yilgacha yuz bergan voqealarga bag‘ishlanadi. Asar to‘rt jilddan iborat. Asarning 4-jildi “Zubdat ut-tavorixi Boysung‘uriy” ("Boysunqur tarixlarining sarasi"), deb nomlangan bo‘lib, Amir Temur va Mirzo Shohruxning 1427-yilgacha bo‘lgan tarixidan iborat. Ushbu qism (hijriy-736-yil) milodiy 1336-yil voqealari bilan boshlanadi. O‘z navbatida 4-jild ham to‘rt qismga bo‘linadi va Tehronda 1959-1960-yillarda Sayid Kamolxoj Sayid Javodiy tomonidan nashr etilgan. Asar Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari bilan bir vaqtda yozilganligini hamda keltirilgan ma’lumotlarining boshqa manbalarda uchramasligi uning manbaviy ahamiyatini yana ham oshiradi. Jumladan, Amir Temurning 1371-yilda Farg‘ona vodiysiga kelganligi, Farg‘onani boshqarish uchun yuborilgan Mirzo Umarshayx bilan birgalikda apardi va qarluq qabilalaridan tarkib topgan tumanlar vodiyga jo‘natilganligi, Anqoto‘ra 1388-yildagi Farg‘onaga qilgan bosqinida Sirdaryoning To‘qqiz Torim kechuvidan o‘tganligi kabi ma’lumotlar Amir Temur va Temuriylar davri manbalarida uchramaydi. Agar Mirxond, Xondamir va Muhammad Haydar Mirzolar o‘z asarlarini yozishda Yazdiy asariga suyangan bo‘lsa, Abdurazzoq Samarqandiy Amir Temur va Mirzo Shohrux davrini yoritishda Hofizi Abruga murojaat qiladi. Ushbu asarning qo‘lyoma nusxalari O‘zbekiston, Buyuk Britaniya, Fransiya, Turkiya, Eron va Afg‘oniston kutubxonalarida saqlanadi.

Amir Temur tarixi haqidagi eng mashhur asarlardir biri Sharafuddin Ali Yazdiyning (1454-yilda vafot etgan) "*Zafarnoma"* asaridir. Ushbu asar Nizomuddin Shomiyning shu nomdagi kitobi asosida yaratilgan bo‘lsada, unga ko‘plab qo‘shimchalar va aniqliklar kiritganligi, yangi materiallar bilan boyitganligi bilan ahamiyatlidir. Asar Amir Temurning nabirasi, Fors viloyati hokimi Ibrohim mirzo rahbarligida yaratilgan. Asarning manbaviy asosini mustahkamlash uchun muhim

siyosiy voqealar va janglarning ishtirokchisi bo‘lgan 1000 ortiq shohidlardan 50 nafar kotib tomonidan yozib olingan ma’lumotlar jamlangan. Ushbu ma’lumotlar qiyosiy tahlil qilinib, qayta qayta o‘rganilib, ishonchliligi tasdiqlangach, yangi yozilayotgan asarga kiritilgan. Qolaversa, kitobning bironta bo‘limi yakunlanganda, u saroyda tashkil etilgan majlisda ishtirok etgan davlat arboblari, olimlar va Temurning safdoshlari bo‘lgan amirlar tomonidan muhokama qilinib, bo‘limga tegishli qo‘shimchalar va aniqliklar kiritganlar.

Sharafuddin Ali asli Eronning Yazd viloyatida joylashgan Taft qishlog‘i tug‘ilgan bo‘lib, yoshligidan chuqur bilim olgan va keyinchalik tarix, falsafa, tasavvuf, astrologiya, adabiyot va she’riyat sohasida shuhrat topgan olim sifatida shakllangan. Uning "Sharaf" taxallusi bilan she’rlar yozganligi, va she’rlari "Devon-i Sharaf Yazdiy" to‘plamiga jamlanganligi ma’lum. Sharafuddin Ali Yazdiy Shohrux mirzo, uning o‘g‘li Ibrohim Sulton va nabirasi Sulton Muhammadlar xizmatida bo‘lgan va asosan shahzodalarning tarbiyasi bilan shug‘ullangan.

Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si muqaddima va asosiy qismdan iborat. Fanda "*Muqaddima-ye Zafarnoma*" nomi bilan mashhur bo‘lgan asarning birinchi qismida Chingizxon avlodari tarixi yoritilgan bo‘lib, Amir Temur davlati tashkil topishi arafasidagi siyosiy vaziyat va Movarounnahrning etnik holatini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Tarixchi olim R.Arslonzodaning ta’kidlashicha, asarning muqaddimasi 1419-yilda, asosiy qism esa 1425-yilda yozib tamomlangan.

Yazdiy ham Farg‘ona vodiysi haqida so‘z yuritar ekan, Andigon, Andukon, Andijon, Andijon viloyati toponimlaridan foydalangan. Mazkur “Zafarnoma”dagi Farg‘ona vodiysi tarixiga oid ma’lumotlar Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”siga nisbatan bir muncha kengroq bayon etilgan. 1376-yili Mirzo Umarshayxning Andijonga yuborilishi, amir Qamariddinning hujumi va qazoq hazorasining mo‘g‘ullar tomoniga qochib o‘tishi, Amir Temurning vodiyga katta qo‘shin bilan yordamga kelishi voqealari shular jumlasidandir. Ushbu asar Farg‘ona hokimi Mirzo Iskandarning Sharqiy Turkistonga qilgan yurishini batafsil yoritib berganligi bilan boshqa manbalardan ajralib turadi

Yazdiy "Zafarnoma"sining qo‘lyozma nusxalari keng tarqalgan. Asarning fors-tojik tilidagi matni Hindiston (1885, 1988), Eron (1957) va O‘zbekistonda (1972) nashr etilgan.

Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si bir necha marotaba o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Ilk tarjima 1519-yili Samarqand hukmdori Kuchkunchixonning topshirig‘iga ko‘ra Muhammad Ali ibn Darvish Ali al-Buxoriy tomonidan amalga oshirildi. Aynan ushbu tarjimaning yagona qo‘lyozmasi Istanbuldagi "Nuri Usmoniya" kutubxonasida saqlanmoqda. Ushbu qo‘lyozma A.Ahmedov, X.Bobobekovlar tomonidan kirill yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosiga tadbil etilib, zarur izoh va ko‘rsatkichlar bilan 1997-yilda nashr ettildi. Keyinchalik ushbu qo‘lyozma asosida A.Ahmedov tomonidan eski o‘zbek tilidan rus tiliga o‘girilib, 2008-yilda chop qiilingan. Asarning eski o‘zbek tiliga qilingan ikkinchi tarjimasi noma’lum tarjimon tomonidan Yaroqbiy Qo‘ng‘irot degan shaxsning topshirig‘iga ko‘ra amalga oshirilgan. Eski o‘zbek tiliga qilingan so‘nggi tarjima esa 1826-yilda

Xudoyberdi ibn Qoʻshmuhammad Soʻfi Xivaqiy tomonidan Shermuhammad Munisning tavsiyasi asosida bajarilgan.

Fasih Xavofiyning “Mujmali Fasihiy” asari Amir Temur va tyemuriylar davri tarixini oʻrganishdagi muhim manbalardan biridir. Oʻzining qisqa va aniq faktik ma’lumotlarga boyligi bilan ajralib turuvchi ushbu asar hamda uning muallifi haqida manbashunosligimizda bir qator tadqiqotlar yaratilgan. Fasih Ahmad ibn Jaloluddin Muhammad Xavofiyning (137-yilda tavallud topgan) asari umumiy tarix tipida yozilgan. Unda musulmon Sharqida eng qadimgi zamonlardan 1442-yilga qadar kechgan tarixiy voqealar, taniqli siyosiy arboblar, olimlar va shoirlarning tarjimayi holiga doir xronologik ma’lumotlar keltiriladi.

Fasih Ahmad Xavofiyning tarjimayi holiga oid ma’lumotlar kam. Ma’lumotlarga qaraganda u Hirotda tavvallud topgan va faoliyati ham asosan shu shaharda kechgan. Temuriy hukmdorlardan Shohrux mirzo va uning oʻgʻli Boysunqur mirzo saroyida devon va turli moliya idoralarida xizmat qilgan. Manbalarda ta’kidlanishicha, 1432-1442-yillar davomida u saroy xizmatidan chetlashtirilgan. Aynan shu davrda umri davomida toʻplagan ma’lumotlari asosida oʻz asarini yaratganligini taxmin qilish mumkin. Fasih Xavofiy 1442-yil 6 mayda Shohrux mirzo qabuliga kirish sharafiga erishadi va koʻplab olimlar fikricha, shu uchrashuvda muallif oʻz asarini hukmdorga taqdim etadi.

"Mujmal-i Fasihiy"ning forscha matni eronlik olim Mahmud Farrux tomonidan 1961-1963-yillarda nashr etildi. Asarning original qismi (1301-1442-yillar tarixi) D.Y.Yusupova tomonidan 1980-yili rus tilida, 2018-yili oʻzbek tilida nashr qilindi.

Tazkiralarning mazkur davr madaniy hayotini yoritishda oʻrni beqiyosdir. Koʻpgina ilm-fan, adabiyot va san’at namoyondalarining hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlar aynan tazkiralarda uchraydi. Amir Temur va Temuriylar davrida yozilgan ilk tazkiralardan biri Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asaridir. 1480-yilga qadar harbiy xizmatda boʻlgan muallif, umrining qolgan qismini ijodiy ishga bagʻishlagan va 1486-yilda oʻzining *"Tazkirat ush-shuaro"* ("Shoirlar zikri") nomli asarini yozgan. Unda VII – XV asrlarda yashagan 155 nafar shoir haqida ma’lumotlar jamlangan. Asarning oʻzbek tilidagi qisqartirilgan tarjimasi 1981-yilda Toshkentda "Shoirlar boʻstoni" nomi bilan nashr etilgan. Asarda Fargʻona vodiysidan etishib chiqqan shoirlardan faqat Kamol Xoʻjandiy haqida ma’lumot berilgan. Shunga qaramay, mazkur tazkirada Fargʻona hokimi Mirzo Umarshayx va temuriylar davri musiqa san’atining rivojiga katta hissa qoʻshgan Xoja Yusuf Andijoniyning faoliyatiga oid muhim ma’lumotlar mavjud.

Chingiziylar va tyemuriylar sulolalari shajarasi haqidagi muhim asar muallifi noma’lum boʻlgan *"Mu'izz al-ansob"* ("Sharafli nasablar")dir Ushbu asarning dastlabki varianti 1426-yilda Shohrux mirzoning topshirigʻi bilan tayyorlangan. Temuriy hukmdorlarning koʻpchiligi oʻz davrida asarni toʻldirib borilishiga e’tibor qaratishgan. Oxirgi qoʻshimchalar Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davrida kiritildi. Asarning 3 ta qoʻlyozmasi topilgan. Ularning biri Britaniya muzeyida, ikkinchisi Parijdagi Milliy kutubxonasida, uchinchisi Istanbuldagi Top-Kapu saroyi kutubxonasida saqlanmoqda. Parijda saqlangan

qo‘lyozma asosida "Mu'izz al-ansob"ning fors tilidagi matni va rus tiliga tarjimasi Sh.H.Vohidov tomonidan 2006-yilda Almatida nashr etilgan.

Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dayn va majmai bahrayn” asari davrning muhim manbalaridan biridir. Asarning qo‘lyozmalari va turli tillarga qilingan tarjimalari, muallifi haqida batafsil ma’lumotlar mavjud. XV asrning ko‘zga ko‘ringan olimi va davlat arbobi bo‘lgan Kamoluddin Abdurazzoq ibn Jaloluddin Ishoq Samarqandiy (1413-1482) Hirotda saroy xizmatida bo‘lgan ziyolilar oilasida tarbiya topgan. Uning otasi Shohrux mirzo davrida imom va qoziaskar lavozimlarida xizmat qilgan. Abdurazzoq Samarqandiy yoshligidan yaxshi ta’lim olib, tarix, fiqh va bir qator diniy ilmlarni o‘rgangan. 1438-yildan Shohrux mirzo saroyidagi devon al-inshoda xizmat qila boshladi. Diplomatik yozishmalarni tayyorlash va elchilar qabulini tashkil etish uning zimmasidagi vazifalardan biri bo‘lgan. Shuning uchun ham keyinchalik Shohrux mirzo elchisi sifatida 1441-1444-yillarda Kalikutga, Vijayanagar rojasisaroyiga, 1447-yili G‘ilon hukmdori Muhammad saroyiga yuborilgan. 1447-yili Shohrux mirzo topshirig‘iga ko‘ra Misrga yuorilayotgan elchilik missiyasiga rahbar etib tayinlangan. Ammo Shohrux mirzoning vafoti sababli ushbu elchilik amalga oshmagan. Abdurazzoq Samarqandiy Shohrux vafotidan keyin Hirot taxtini qo‘lga kiritgan Abulqosim Bobur xizmatiga kirib, uning 1454-yildagi Samarqand va 1456-yildagi Mozandaron yurishlarida qatnashdi. Keyinchalik Sulton Abu Sa’id mirzo saroyida ham xizmat qilgan va shu hukmdor tomonidan 1463-yili Shohrux mirzo xonaqohiga shayx etib tayinlangan.

“*Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn*” ikki jilddan iborat bo‘lib, birinchi jildda Amir Temur davri, ikkinchi jildda esa 1470-yilga qadar bo‘lgan Temuriylar davri voqealari bayon qilinadi. Asarning birinchi jildi shu kunga qadar tarjima qilinmagan va nashr etilmagan. Amir Temur davri voqealari Shomiy, Yazdiy, Natanziy va boshqa mualliflarning asarlarida batafsil yoritilgan bo‘lsada, “Matlai sa’dayn... ”da ham ushbu davrga oid qimmatli ma’lumotlar bor. Asarda 1427-yilgacha sodir bo‘lgan voqealar yuqorida eslatib o‘tilgan Hofizi Abruning "Majma' at-tavorix" asari asosida yozilgan. 1427-1469-yillar voqealari esa mustaqil asar sifatida hikoya qilingan

"Matla' us-sa'dayn" qo‘lyozma nusxalari 20 dan ortiq mamlakatlarida, jumladan, Avstriya (Vena), Buyuk Britaniya (London, Oksford), Germaniya (Gamburg, Myunxen), Hindiston (Kalkutta), Rossiya (Moskva, Sankt-Peterburg), Fransiya (Parij), Tojikiston (Dushanbe), O‘zbekiston (Toshkent) kutubxonalarida saqlanmoqda. Asar matnining ilmiy-tanqidiy nashri (ikkinchi daftar) pokistonlik olim Muhammad Shafi' tomonidan Lohurda (1941, 1949) nashr etilgan. "Matla' us-sa'dayn" asaridan ayrim parchalar fransuz, ingliz, rus va turk tillariga o‘girilib, e'lon qilingan. Abdurazzoq Samarqandiyning yo‘l xotiralari va qisman "Matla' us-sa'dayn" asarining 1405-1425-yillar voqealarini yorituvchi ikkinchi daftari A.O‘rinboyev tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinib, 1969-yilda nashr etilgan. O‘sha olim 2008-yilda o‘zbek tilida ikkinchi daftarning to‘liq matnini e’lon qildi.

Temuriylar davrining yirik muarrixlaridan biri Mir Muhammad ibn Burhonuddin Xovandshoh(1433-1498)dir. U tarix fanida ko‘proq "Mirxond" taxallusi bilan shuhrat topgan. Mirxondning kelib chiqishi Buxoro shahridan bo‘lib,

uning ota-bobolari shu shaharning ziyolilaridan bo‘lgan. Mirxondning otasi tyemuriylar davrida davlat xizmati bilan bog‘liq holda bo‘lsa kerak, Xurosonning Balx shahriga ko‘chib kelgan. Mirxond Balx shahrida tug‘ilgan. Uning ijodiy faoliyati esa asosan Hirot shahrida kechdi.

Mirxondning ijodiy faoliyatiga Alisher Navoiy homiylik qilgan. Uning nabirasi, taniqli muarrix Xondamir o‘zining "Xulosat ul-axbor" ("Qisqa xabarlar") asarida bergan ma’lumotiga qaraganda, Mirxond yoshlik vaqtidayoq ko‘p ilmlarni mukammal o‘rgangan, ayniqsa, tarix fanida kamolotga erishgan. Uning tarix fanidagi bilimlarini qadrlagan Alisher Navoiy o‘zi Hirotda qurdirgan "Ixlosiya" xonaqohida unga alohida xona ajratib, tarix sohasida ilmiy faoliyat olib borishni maslahat berib, uning uchun barcha sharoitni yaratib bergan.

Mirxondga shuhrat keltirgan asari 7 jilddan iborat *"Ravzat as-safo fi siyrat al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo"* ("Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalar siyrati to‘g‘risidagi jannat bog‘i") dir. Asarning dastlabki besh jildi kompilyativ xarakterda bo‘lib, boshqa asarlar asosida yaratilgan. Oltinchi jildning bir qismi va ettinchi jild original materiallar asosida yozilgan. Asarning oltinchi jildidan Amir Temurning hokimiyatga kelishidan to Abu Said vafotigacha bo‘lgan davr (1336-1469) voqealari o‘rin olgan. Yettinchi jildda Sulton Husayn Boyqaro davri tarixi yoritilgan. Yettinchi jildning qoralamasi Sulton Husayn Boyqaroning vafotidan keyin boshlangan o‘zaro urushlar davrida yo‘qolgan. Shuning uchun ham ushbu jild Xondamir tomonidan qayta yozilgan. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, asarning so‘nggi ikki jildi Amir Temur va temuriylar davri tarixiga bag‘ishlangan.

"Ravzat us-safo"ning qo‘lyozma nusxalari jahon bo‘ylab keng tarqalgan. Asarning fors tilidagi matni bir necha marta Bombay (1845, 1848), Tehron (1850-1856, 1860) va Lakhnav (1874, 1883, 1890) da nashr etilgan. "Ravzat us-safo"ning ayrim parchalari rus, fransuz, ingliz va nemis tillarida e’lon qilingan. Asar to‘liq hajmda Xorazmda Muhammad Rahimxon II hukmronligi davrida o‘zbek tiliga o‘girilgan.

Amir Temur va temuriylar davri madaniy hayoti haqida ma’lumotlarga ega yana bir tazkira Hasanxoja Nisoriyning qalamiga mansub “Muzakkiri ahbob”dir. Ushbu asar Movarounnahr va Xurosondagi ilmiy-adabiy muhit haqida muhim ma’lumotlar beradi. Muallif o‘z asarida Mirzo Bobur va uning amirlari hamda beklari ijodiga batafsil to‘xtaladi. Tazkirada Temuriylar saltanatining so‘nggi yillaridagi ilmiy-adabiy muhitda shakllanib, ijod olamiga kirib kelgan, shayboniylar davrida ijodiy salohiyatlari ko‘zga ko‘ringan ko‘pgina vodiylik shoirlarning hayoti va ijodi borasida so‘z yuritilgan. Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” tazkirasi ko‘rib chiqilayotgan davr madaniy hayoti tarixini o‘rganishda qimmatli manbalardan biri hisoblanadi.

Xondamirning “Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar” asari Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga oid eng yirik va ko‘p murojaat qilinadigan manbalardan biridir. “Habib us-siyar”da XIV asrning ikkinchi yarmi XV asrning birinchi yarmi tarixiga oid ba’zi qimmatli ma’lumotlar boshqa manbalardagi ayrim ma’lumotlarni to‘ldiradi. Xususan, Xondamir ham Natanziy kabi Mirzo Umarshayxning Koshg‘ar yurishi haqida ma’lumot beradi. Bu asarda Mirzo Sulton Abu Sa’idning o‘g‘li Mirzo Umarshayx, nabirasi Mirzo Boburlarning faoliyati nisbatan batafsil

yoritilgan. Shuningdek, asarda vodiydagi hunarmandchilik rivoji va uning ixtisoslashuviga oid qiziqarli faktlar keltiriladi.

Xondamirning “Makorim ul-axloq” va “Xulosat ul-axbor” asarlarida Temuriylar davridagi ilmiy-adabiy muhitni yoritishga xizmat qiluvchi ma’lumotlar uchraydi. “Makorim ul-ahloq”da Alisher Navoiy va Mir Sarbarahna o‘rtasida kechgan mutoiba haqida hikoya qilinsa, “Xulosat ul-axbor”da Mavlono Yusuf Badiiy va Sayyid Shamsuddin Muhammad Andijoniy haqida so‘z yuritiladi. E’tiborli tomoni shundaki, faqat “Xulosat ul-axbor”da Mir Sarbarahnaga Andijoniy nisbasi qo‘shilgan.

Shayboniylar davrida yaratilgan bir qator tarixiy asarlarda ham o‘rganilayotgan davr tarixiga ma’lumotlar uchraydi. Shulardan biri Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asaridir. Asarda Farg‘onada Shayboniylar sulolasi hukmronligi o‘rnatilishi jarayonlari yoritilib, “Boburnoma”da bayon qilinmagan ko‘pgina voqealar o‘z aksini topgan. Shayboniyxon qo‘shinlari tomonidan Xo‘jand qal’asining egallanishi, Mirzo Bobur va uning tog‘alari Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxonning qo‘shinlarini 1503-yili Axsi yaqinida bo‘lib o‘tgan Arxiyon jangida shayboniylar tomonidan tor-mor keltirilishi voqealari shular jumlasidandir. Marg‘ilon va Andijonning shayboniylar tomonidan zabt etilishi, Farg‘ona vodiysi shaharlarining himoyalanish tizimlari, Temuriylar qo‘shinida xizmat qilgan mo‘g‘ul harbiylarining Movarounnahrni ko‘pgina viloyatlarida shayboniylar hukmronligi o‘rnatilgach, Farg‘ona vodiysida to‘planishi kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, “Shayboniynoma” asarida Farg‘ona vodiysi iqtisodiy hayotiga oid faktlar ham uchraydi.

Shayboniylar davri tarixidan hikoya qiluvchi yana bir turkiy tilda bitilgan muallifi noma’lum manba “Tavorixi guzida” – “Nusratnoma” asaridir. Ushbu asarda Farg‘onada Temuriylar sulolasi hukmronligining tugatilishi batafsil yoritilgan. Unda vodiy shaharlari va ularning mudofaa imkoniyatlari, iqtisodiy hayotini o‘rganishga xizmat qiladigan bir qator ma’lumotlar mavjud.

Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Muhammadyor ibn Arab Qatag‘anning “Musaxxir al-bilod”, Abulg‘oziyning “Shajarayi turk” asarlarida ham Amir Temur va Temuriylar davrida yuz bergan siyosiy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot tarixiga oid ba’zi faktlar uchraydi.

***Memuar asarlar.*** Amir Temur va temuriylar davr tarixini o‘rganishda memuar manbalar ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur asarlarda so‘z yuritilgan voqelik muallif ishtirokida kechadi yoki voqeaga biror darajada bog‘liq vaziyatda uni yoritadi. Bu esa manbadagi ma’lumotlarning ishonchlilik darajasini oshirish bilan birgalikda voqelikka nisbatan sub’yektiv munosabatni namoyon etishi mumkin. Shuning uchun ham memuar asarlarning xulosalariga ma’lum darajada tanqidiy yondashuv talab etiladi. Ushbu asarlar davrning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixi yoritilganligi bilan ham ahamiyatli.

Amir Temur va temuriylar davri davlatchilik tarixini o‘rganishda *"Temur tuzuklari*" asari muhim ahamiyatga ega. Asar "Tuzuk-i Temuriy" ("Temur tuzuklari"), "Malfuzot-i Temuriy" ("Temur so‘zlari"), "Voqe'ot-i Temuriy" ("Temur sarguzashtlari") kabi nomlar bilan shuhrat topgan. Olimlarning fikricha, ushbu asar Amir Temurning o‘z qo‘li bilan yozilgan yoki uning aytganlari kotiblar tomonidan

qog‘ozga tushirilgan. “Temur tuzuklari” turkiy tilda yozilgan. Afsuski, asarning turkiy matni hozirgacha topilmagan. “Temur tuzuklari”ni turkiy tildagi qo‘lyozma nusxalaridan biri Yaman hukmdori Ja'far (XVII asr) kutubxonasida saqlanganligini Mir Abu Tolib at-Turbatiy ko‘rgan va undan nusxa ko‘chirib olgan. at-Turbatiy Hindistonda Shohjahon (1628-1657) farmoyishi bilan asarni turkiy tildan fors tiliga tarjima qilgan. Asar bilan tanishib chiqqan Shohjahon Hindistonning Dekan viloyati qozisi Muhammad Ashraf Buxoriyga mazkur tarjimani Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"si va boshqa birlamchi manbalar asosida ko‘rib chiqishni, aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etishni topshirgan.

Olimlar o‘rtasida “Temur tuzuklari” borasida turlicha fikrlar mavjud. Ingliz olimi E.G.Braun va taniqli rus tarixchisi V.V.Bartold "Temur tuzuklari"ni original asar, deb hisoblamaydilar. V.V. Bartoldning fikricha, asar XVII asrda Hindistonda yaratilgan.

Tarixchi olimlarning aksariyati “Temur tuzuklari”ni Amir Temur va temuriylar davrida davlatning boshqaruv tizimini, devonlar faoliyati, davlat mansabdorlarining vazifalari, harbiy tuzulmalari va jang olib borish uslublari va usullari tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida qadrlaydilar.

Amir Temur va temuriylar davri tarixini yorituvchi manbalardan biri Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sidir. Mazkur asar XV asr o‘rtalari, ikkinchi yarmi va XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda yuz bergan tarixiy voqealarni batafsil va aniq yoritib bergan nodir manbadir. Muallif o‘zi bevosita va bilvosita tarixiy voqealarda ishtirok etadi, bu holat asarning ishonchlilik darajasini yanada oshiradi. Faoliyati vodiy tarixi bilan bog‘lanib ketgan mo‘g‘ul xoni Yunusxonning yoshlik davridagi kechmishlari, XV asr o‘rtalarida Farg‘onaga mo‘g‘ul bosqinchi qabilalari tomonidan uyushtirilgan hujumlar va temuriy hukmdor Mirzo Sulton Abu Sa’id tomonidan ularga qarshi ko‘rilgan chora-tadbirlar kabi muhim tarixiy voqealar ilk bor “Boburnoma”da tilga olingan. Temuriylarning Farg‘ona mulkidagi boshqaruv tizimi, unda xizmat qilgan amaldorlar va ularning faoliyati, turmush tarzi, maishiy hayotiga oid qiziqarli ma’lumotlar faqatgina “Boburnoma”da uchraydi.

“Boburnoma” tadqiq etilayotgan davrdagi Movarounnahrning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ya’ni, qishloq xo‘jaligi, chorvachiligi, hunarmandchiligi, ichki va tashqi savdoning holati, shaharlar, qishloq qo‘rg‘onlari, ularning joylashgan o‘rni, mudofaa inshootlarining holati, aholining etnik tarkibi, tabiati, o‘simlik va hayvonot olami, shuningdek, madaniy hayoti va etishib chiqqan olimu ijodkorlar haqida muhim ma’lumotlar taqdim etadi.

Asarning manbaviy salohiyati uning keng o‘rganilganligi, ko‘plab xorij mamlakatlarida bir necha bor nashr etilganligi, rus, ingliz va boshqa tillarga tarjima etilganligida ham ko‘rinadi.

Mirzo Haydarning “Tarixiy Rashidiy” asari tadqiq etilayotgan davr va hudud tarixini yoritishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Mirzo Boburdan so‘ng, ikkinchi bo‘lib, Mirzo Haydar o‘z asarida vodiyga nisbatan Farg‘ona viloyati iborasini keng qo‘llaydi. Forsiy tilda bitilgan, o‘z vaqtida bir necha tillarga tarjima etilgan asar “Boburnoma”da keltirilgan bir qator ma’lumotlarni takrorlasa-da, ko‘plab o‘rinlarda uni to‘ldirishga xizmat qiladi. Xususan, Samarqand hukmdori

Mirzo Sulton Ahmadga qarshi kurashda bergan yordam uchun mo‘g‘ul xoni Yunusxonga Mirzo Umarshayx turli-yillarda Axsi, Marg‘ilon, O‘sh, Sayram shaharlarini in’om etishga majbur bo‘lganligi, 1485-yilgi sulh shartnomasiga ko‘ra mo‘g‘ul xonlari ixtiyoriga o‘tib qolgan Toshkent viloyatini qaytarib olish uchun Mirzo Umarshayx tomonidan amalga oshirilgan sa’y-harakatlar shular jumlasidandir. Shu bois mazkur asarni XV asrning o‘rtalaridan boshlab Farg‘onada yuz bergan tarixiy voqealarni batafsil yoritgan “Boburnoma”dan keyingi asosiy manba sifatida baholash mumkin. “Tarixi Rashidiy” asari Temuriylarning Mo‘g‘uliston xonligi bilan o‘zaro munosabatlari tarixini o‘rganishda, ushbu siyosiy jarayonlarda Farg‘onaning tutgan o‘rni va rolini aniqlashda ham muhim ahamiyatga ega.

“Tarixi Rashidiy”da XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Farg‘ona vodiysidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixiga oid ayrim ma’lumotlar mavjud. Zahiriddin Muhammad Boburning tavalludiga bag‘ishlab “tarix” yozgan Mavlono Munir Marg‘inoniy, xattot, sozanda, shoir va olim Mavlono Huluqiy, o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan ulamolaridan bo‘lgan muhtasib Mavlono Yusuf Koshg‘ariy, Andijon savdogarlarining yetakchisi Xoja Solih, sozanda Gadoyberdi kabi shaxslar haqidagi ma’lumotlar shular jumlasidandir.

Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ul vaqoye” asari ham memuar manbalardan biri hisoblanadi. Unda Temuriylar davri madaniy hayotiga oid qiziqarli ma’lumotlar aks etgan.

### *Eski o‘zbek, arab va Yevropa tillaridagi manbalar*

***Eski o‘zbek tillaridagi manbalar***. Temuriylar davlati tarixini o‘rganishda turkiy tilda yaratilgan bir qator asarlar ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada o‘zbek adabiy tili asoschisi, yirik shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy (1441-1501) asarlarini alohida ta’kidlash mumkin

Alisher Navoiy tomonidan yozilgan uchta biografik asar manba sifatida ahamiyatga ega. Ular *"Holoti Sayid Hasan Ardasher"* ("Sayid Hasan Ardasher tarjimayi holi"), *"Holoti Pahlavon Muhammad"* ("Pahlavon Muhammad tarjimayi holi") va *"Xamsat ul-mutahayyirin*" ("Besh hayrat") nomli asarlardir.

*"Holoti Sayid Hasan Ardasher"* asari Alisher Navoiyga yaqin bo‘lgan Sayid Hasan Ardasherning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan. *"Holoti Pahlavon Muhammad"* asari esa pahlavon kurashchi, tajribali tabib, shoir, musiqa nazariyasi bilimdoni, salohiyatli xonanda sifatida tanilgan Pahlavon Muhammad tarixiga bag‘ishlangan. *"Xamsat ul-mutahayyirin*" asarida esa Abdurahmon Jomiyning hayoti va ijodiy faoliyati hikoya qilingan.

Amir Temur va temuriylar davrining madaniy hayoti tarixini o‘rganishda Alisher Navoiy qalamiga mansub *"Majolis un-nafois"* ("Nafis majlislar") asarining o‘rni kattadir. Ushbu tazkirada muallif Amir Temur va tyemuriylar davrida Xuroson, Eron va Movarounnahrda yashab o‘tgan 49 nafar shoir va olim haqida ma’lumotlar beradi. Shoirlarning tarjimayi holi bilan bir qatorda ularning ijodidan ayrim namunalar keltiradi. Asarning e’tiborga molik jihatlaridan biri shundaki, unda she’riyat bilan shug‘ullangan temuriylar sullolasi vakillari haqida ham alohida bobda so‘z yuritilgan. Asarda Farg‘ona madaniy hayotiga oid muhim ma’lumotlar o‘rin olgan. Alisher Navoiyning bolaligi Farg‘ona vodiysida o‘tgan va faoliyatining

ma’lum bir davri vodiy bilan bog‘liq holda kechgan, turkiy tilda she’rlar bitgan Mirzo Iskandarning ijodi, farg‘onalik ijodkorlardan Mir Sarbarahna, mavlono Safoiy, mavlono Yusuf Badiiy kabilarning hayoti va ijodi borasida bildirgan fikrlari hamda bergan ma’lumotlari mazkur davrdagi ilmiy-adabiy muhitini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

***Arab tilidagi manbalar***. Arab tilida ham Amir Temur va temuriylar davri tarixiga bag‘ishlangan bir qator asarlar yaratilgan. Abdurahmon Abu Zayd ibn Xaldun (1332-1406) qalamiga mansub *"Kitob al-ibor"* ("O‘gitlar kitobi") nomli asar ijtimoiy taraqqiyot falsafasi, shuningdek, Mashriq va Mag‘rib tarixini o‘rganishga qo‘shilgan muhim hissadir. Ushbu asarda Amir Temur tarixiga oid bir qator voqealar ham hikoya qilingan. Ibn Xaldun Amir Temur bilan Damashq shahrida shaxsan uchrashgan va u bilan bir necha bor suhbatlashgan. Ibn Xaldun Amir Temurni tarixni yaxshi bilgan, o‘tkir farosatli, ilmiy bahslarga kirishishga moyil hukmdor sifatida tasvirlagan.

Arab tilidagi manbalardan Ahmad ibn Arabshoh (1389-1450) qalamiga mansub *"Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur"* ("Temur tarixida taqdir ajoyibotlari") asar alohida o‘rin tutadi. Ibn Arabshoh Damashq shahrida tavallud topgan va onasi, birodari, boshqa qarindoshlari bilan 1401-yilda, shahar Amir Temur tomonidan zabt etilgandan so‘ng, majburan Samarqandga ko‘chirilgan. U temuriylar potaxtida 1408-yilga qadar yashagan. Bu vaqtda Ibn Arabshoh Samarqand madrasalarida ta’lim olganligi taxmin qilinadi. U arab tilidan tashqari fors, turk, va mo‘g‘ul tillarini ham Samarqandda o‘rgangan bo‘lishi kerak. Ibn Arabshoh dastlab Mo‘g‘uliston va Xitoyga sayohat qilgan. So‘ngra Xorazm orqali Dashti Qipchoqqa (Yoyiq, Itil daryolari bo‘ylari, Saroy shahri, Qrim), u yerdan Turkiyaga borgan. Ma’lum vaqt o‘tgach Arabiston va Misrga borib, ma’lum vaqt istiqomat qilgan. U qayerga tashrif buyurgan bo‘lsa, o‘sha mamlakatlarda ma’lum muddat yashagan, mahalliy hukmdorlar saroylarida xizmat qilib, taniqli kishilar – davlat arboblari, olim va adiblar bilan muloqotda bo‘lgan. Ibn Arabshoh 1450-yilda Misr poytaxti Qohira shahrida vafot etdi.

Muallif "Ajoyib al-maqdur..." asarini hijriy 840 (milodiy 1436/1437)-yilda yozib tugatgan. Ibn Arabshoh Amir Temur tarixiga tanqidiy yondashgan, uning shaxsiga o‘ta salbiy baho berilgan, lekin ko‘p o‘rinlarda qator ijobiy xislatlarini e’tirof eishga majbur bo‘lgan. Asarda bir birini rad etadigan ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan.

"Ajoyib al-maqdur"ning qo‘lyozma nusxalari keng tarqalgan. E’tiborlisi shundaki, Turkiyadagi Ahmad as-Solis kutubxonasida asarning muallif hayotlik davrida ko‘chirilgan ikki nusxasi mavjud. Ularning birida muallif o‘z dastxati bilan matnni ko‘rib chiqqanligini tasdiqlagan. Damashqdagi "al-Ahmadiya" kutubxonasida ham asarning ikkita nusxasi saqlanmoqda. Boshqa nusxalar Halab, Qohira, Sankt-Peterburg, Manchester va boshqa shaharlarning kutubxonalarida ham mavjud.

"Ajoyib al-maqdur..." Yevropada keng shuhrat topgan asarlardan biridir. Uning ilk nashri Gollandiyaning Leyden shahrida Yakob Golius tomonidan 1636-yilda amalga oshirilgan. 1767-1772-yillarda S.Manger tomonidan Leyvardenda

amalga oshirilgan ikkinchi nashrida arab tilidagi matndan tashqari, asarning lotin tiliga qilingan tarjimasi ham ilova qilingan.

Mazkur asar Sharq mamlakatlarida ham keng o‘rganilgan. Uning ikki marta Qohirada (hijriy 1285-va 1305-yillarda) va uch marta Kalkuttada (1812, 1818 va 1840-yillarda ) nashr etilganligi ham shundan dalolat beradi. Ibn Arabshohning ushbu asari fransuz, ingliz va turk tillariga ham tarjima qilingan. "Ajoyib al-makdur"ning o‘zbek tiliga tarjimasi marhum arabshunos olim U.Uvatov tomonidan 1992-yilda Toshkent shahrida "Amir Temur tarixi" nomi bilan chop etilgan.

Amir Temur va temuriylar davrida yashab o‘tgan bir qator arab tarixchilari o‘zlarining umumiy tarixga bag‘ishlangan asarlarida temuriylar sulolasi vakillarining tarixiga oid ma’lumotlarni ham keltirib o‘tganlar. Jumladan, Ibn Hajar al Asqoniyning “Inba al g‘umr bi abno il umr” (Zamon voqealari haqida g‘o‘r kishilarga dastak), Badriddin Mahmud al Ayniyning “Iqd al jumonfi tarix ahl az zamon” (Zamon ahli tarixida marvarid marjonlari), Tayqiyuddin Ahmad ibn al Marqaziyning “as Suluk li ma’rifat duval al muluk” (Ulug‘ podshohlar davlatlarini bilishdagi etuk qo‘llanma), Shihobuddin Abulabbos Ahmad ibn Ali al Qalqashandiyning “Subh al a’sha fi sinoat al insha” (Insho san’atida ko‘zi ojizga dastak), Ibn Tangriberdining “An Nujum az Zohira fi mulki Misr val Qohira” (Misr va Qohira saltanati haqida porloq yulduzlar), Ibn ash Shihnaning “Ravzat al manozir fi axbar al avoil val avoxir” (Vaaval va keyin dunyodan o‘tganlar xabarlarida go‘zao manzaralar bo‘stoni ), Ibn Abdulloh as Sahoviyning “Az Zav’ al lomi’ fi a’yon al qarn at tosi” (to‘qqizinsi (hijriy) asr arboblari haqida yorqin nur), Ibn Abu Bakr as Suyutiyning “Husn al muhodara fi axbori Misr val Qohira” (Misr va Qohira xabarlari xususida go‘zal ma’ruza), Ibn Do‘qmoqning “Al Javhar as samiyn fi siyar al muluk va s salotiyn ” (Podshohlar va sultonlar siyratlari haqida qimmatbaho javhar), Ibn Al Furotning “Tarix ad duval va l muluk” (davlatlar va podshohlar tarixi) va boshva arab muarrixlarining asarlarida Amir Temur va temuriylar davri tarixining turli mavzulari bo‘yicha qiziqarli ma’lumotlar keltirilgan. Ular, ayniqsa, Amir Temur va temuriylarning Misr, Old Osiyo va Kichik Osiyo davlatlari bilan olib borgan aloqalarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

***Yevropa tillaridagi manbalar.*** XV asr boshlariga kelib G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ham Amir Temur to‘g‘risida qator tarixiy manbalar yaratila boshladi. Bu, albatta, Amir Temur bilan Yevropa davlatlari o‘rtasidagi aloqalarning rivojlanib borishi bilan bog‘liq edi. Usmonli turklar davlatining hujumlariga yetarli qarshilik ko‘rsata olmayotgan Yevropa davlatlari Amir Temur siymosida o‘z ittifoqchilarini ko‘rdilar va u bilan aloqa bog‘lashga intildilar. Ular Amir Temur huzuriga elchilar jo‘natish orqali Amir Temur va uni davlatini o‘rgana boshladilar. Bu o‘rganishlar kundaliklar, estaliklar tarzida qog‘ozga tushib, muhim tarixiy manbalarga aylana bordi.

Birinchilardan bo‘lib Amir Temur shaxsi va davlati haqida ma’lumot bergan evropalik muallif Rim papasi vakili, rohib Ioann (Jan) Grinlodir. U Armanistonning Naxichevan shahridagi cherkovda ruhoniy bo‘lib xizmat qilgan. Ma’lum vaqt o‘tgach Rim papasi Bonifasiy IX ning nazariga tushgan Ioann 1398-yilning avgust oyida papaning buyrug‘i bilan Naxichevan arxiyepiskopi lavozimiga tayinlangan. Uning qarorgohi Sultoniya shahrida joylashganligi uchun ham ba’zan Sultoniya

arxiyepiskopi sifatida ham atalgan. Arxiyepiskop Ioann bir necha marta Amir Temur bilan uchrashib, suhbatlashgan. Shunday suhbatlardan biri 1401-yilning avgust oyida boʻlib oʻtganligi maʼlum. Amir Temurning ham ishonchiga kira olgan Ioann Sohibqironning elchisi sifatida Rim papasi va Fransiya qiroli huzuriga yuborilgan.

Arxiyepiskop Ioannning *"Temur va uning saroyi haqida xotiralar"* nomli kitobi aslida fransuz tilida yozilgan boʻlib, soʻngra lotin tiliga tarjima qilingan. Asarning original nusxasi Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanmoqda. 23 bobdan iborat "Xotiralar"da Amir Temurning tarjimayi holi, uning shaxsiy xislatlari, hokimiyat tepasiga kelishi, harbiy yurishlari haqida hikoya qilingan. Asarda koʻplab ishonarsiz rivoyatlar, notoʻgʻri maʼlumotlar mavjud. Shuning uchun ham “Xotiralar”dan foydalanishda, unda keltirilgan maʼlumotlarga tanqidiy nuqtai nazardan yondashish zarur boʻladi. Asar B.Ermatov tomonidan oʻzbek tiliga tarjima qilingan va "Amir Temur va uning saroyi haqida xotiralar" nomi bilan 2007-yilda Toshkentda nashr etilgan.

Yigirma etti yil davomida Misrda mamluklar orasida yashagan va Misr sultoni Farajning yaqin odamlaridan biri Emmanuil Piloti arab tilini mukammal bilgan. U Amir Temurning 1401-yildagi Damashq shahrini zabt etishiga oid maʼlumotlar toʻplagan. Ushbu materiallar hozirgi kunda Venesiya arxivida saqlanmoqda. Lekin bu materiallar hozirgacha ilmiy muomilaga kiritilmagan va alohida tadqiq etilmagan. Yana bir Yevropalik mualliflardan biri Paole Zane esa Venesiyaning Damashq shahridagi konsuli vazifasida faoliyat olib borgan. U tomonidan Venesiya senatining topshirigʻiga binoan yigʻilgan Amir Temur haqida maʼlumotlar shahar arxivida saqlanmoqda. Bu maʼlumotlar ham alohda tadqiq etilmagan va ilmiy muomilaga kiritilmagan.

Italiyalik savdogar Beltramus de Mignanelli Amir Temur lashkari Damashq shahrining egallanishiga bagʻishlangan *"Temurlang hayoti"* nomli asarning muallifidir. U Amir Temur Damashqni egallagan vaqtda shaharda boʻlgan va koʻp voqealarni oʻz koʻzi bilan koʻrgan. Shuningdek, Beltramus de Mignanelli Anqara jangi va salibchilarning soʻnggi qarorgohi Izmir shahrining zabt etilishi voqealariga ham guvoh boʻlgan. Bu asar lotin tilida 1416-yilda yozilgan. *"Temurlang hayoti"ni* Venadagi Milliy kutubxonada saqlangan qoʻlyozma nusxa asosida Stefan Bazilkus 1764-yilda chop ettirgan. Asarning toʻliq nomi "Temurlang hayoti va Damashq xarobalari" boʻlib, muallif oʻzi guvoh boʻlgan voqealar asosida Amir Temur shaxsini xolisona tasvirlashga harakat qilgan.

Amir Temur va temuriylar davri tarixini oʻrganishda ushbu sulola hukmdorlari huzuriga kelgan xorijlik elchilarning yodnomalari va kundaliklari ham muhim ahamiyatga ega. Afsuski, bizga hozircha faqat ispan elchilari Xuan Eskamilyo va Rui Gonsales de Klavixo esdaliklari maʼlum xolos. Amir Temur qarorgohiga qilingan tashrif toʻgʻrisidagi yoʻl xotiralarining birinchisi ispan elchisi Xuan Eskamilyo qalamiga mansubdir. Ushbu safar kundaligi hozirgi kunda Madriddagi Qirollik muzeyida saqlanmoqda. Afsuski, bu safarnoma hali ham ilmiy tadqiq etilmagan va ilmiy muomilaga kiritilmagan.

Navbatdagi ispan elchisi esa Amir Temur poytaxti Samarqandga ham tashrif buyurganligi bilan ahamiyatlidir. Rui Gonsales de Klavixo Leon i Kastiliya qiroli

Genrix III ning topshirig‘i bilan 1404-yilda Sahibqiron saroyiga kelgan va bu haqida *"Samarqandga Temur saroyiga sayohat kundaligi. 1402–1404-yillar" nomli kitob yozgan*. "Kundalik" ikki qismdan iborat bo‘lib, dastlabki bo‘limda elchilarning Samarqandgacha bosib o‘tgan yo‘lidagi ko‘rgan kechirganlari, shu yo‘ldagi shaharlar va mamlakatlar haqida hikoya qilinadi. Asarning ikkinchi qismida Kesh va Samarqand shaharlari, u yerda Amir Temur va uningaroy ayonlari bilan olib borilgan uchrashuvlar, rasiiy qabul va mehmondorchilik marosimlari, Amir Temur mamlakati, uning aholisi, xo‘jaligi, qo‘shini to‘g‘risida qiziqarli ma’lumotlar beriladi. R. Arslonzodaning ta’kidlashiga ko‘ra, Klavixoning mamlakatdagi iqtisodiy ahvol, Samarqand bozorlarida turli mahsulotlarning ko‘pligi, bu yerga xorijiy mamlakatlardan olib kelingan tovarlar, Amir Temurning saroyidagi ayollar o‘rni, saroyda o‘tkaziladigan turli tadbirlar, hatto chet eldan kelgan boshqa elchilarni qabul qilish marosimlari haqidagi ma’lumotlar e’tiborga molikdir.

De Klavixo "Kundalik"ining ikkita nusxasi Madrid shahridagi Milliy kutubxonada saqlanmoqda. Ulardan biri XIV asrning birinchi yarmida, ya’ni, muallif tiriklik paytida tuzilganligi uchun ham noyob hisoblanadi. Ammo shu nusxaning boshi va oxiridagi sahifalari yo‘qolgan. XV asrning oxiriga mansub bo‘lgan ikkinchi nusxaning holati nisbatan yaxshi bo‘lganligi uchun asarning ko‘p nashrlari shu nusxaga asoslangan.

Klavixoning kundaliklarining birinchi nashri Argote de Molina tomonidan 1582-yilda Sevilya shahrida amalga oshirilgan. Bu asar katta shuhrat qozongan va ingliz, fransuz, rus, turk va fors tillariga tarjima qilinib, ko‘plab marotaba nashr etilgan. Asarning rus tilidagi nashridan o‘zbek tiliga qilingan to‘liq bo‘lmagan tarjimalari turli jurnal va to‘plamlarda e’lon qilingan. Klavixoning asari qadimgi ispan tilidan o‘zbek tiliga birinchi bor U.Jo‘rayev tomonidan o‘girildi va Toshkentda 2007-yilda nashr etilgan.

Amir Temur lashkarlari tomonidan asir olingan va keyinchalik Sohibqiron, hamda uning o‘g‘li Shohrux mirzo qo‘shinida xizmat qilganligi ta’kidlanadigan nemis askari Yoxannes Shiltbergerning esdaliklari ham diqqatga sazovordir. Shiltberger kelib chiqishi bo‘icha Myunxen shahridan bo‘lib, 1395-yili Nikopol yaqinida bo‘lib o‘tgan jangda nemis risarlaridan birining qurolbardori sifatida qatnashgan. Turk sultoni Boyazid-yildirim venger qiroli Sigizmund boshchilik qilgan evropa risarlarining birlashgan qo‘shinini tor-mor qilgan jangda Shiltberger ham turklar qo‘liga asirlikka tushib qolgan. Juda yosh bo‘lgan Shiltbergerga turklar rahm qilishgan va u turk sultonining shaxsiy soqchilari qatoridan joy olgan. 7-yil davomida turk sultoni qo‘lida xizmat qilgan Shiltberger Anqara jangida Amir Tyemur askarlari tomonidan asirga olindi. Ba’zi manbalarga ko‘ra, Shiltberger olti-yil davomida avval Amir Temurning o‘zi, uning vafotidan keyin esa o‘g‘illari Shohrux va Mironshoh qo‘lida asirlikda yashagan yoki qo‘shini safida xizmat qilgan. Keyinchalik u boshqa musulmon hukmdorlarga ham xizmat qilgan. 22-yillik sargardonlikda keyin 1418-yili o‘z yurtiga qaytib ketgan.

O‘z vatanida Shiltbrger *"Temurlang huzurida"* nomli esdaliklarini e’lon qilgan. Unda asosan Sohibqiron va uning o‘g‘illariga xizmat qilgan chog‘ida ko‘rgan-kechirganlarini bayon etgan bo‘lsa-da, Amir Temur haqida turli xalqlar orasida tarqalgan rivoyatlarni ham kiritgan. Shuning uchun uning esdaliklarida Amir

Temur hayotiga oid anchagina ishonarsiz rivoyatlar, mubolag‘alardan iborat paqamlar ko‘p uchraydi. Jumladan, muallif Amir Temurning janglarda qatnashgan askarlarining soni haqida mubolag‘ali raqamlarni keltirgan. Anqara jangida Amir Temur Boyazidga qarshi 1 million 600 ming askar bilan jang qilganligi, Halabga qilingan yurishda esa uning askarlarining soni 1 million 200 ming nafarni tashkil etganligi kabi ma’lumotlarni boshqa manbalar umuman tasdiqlamaydi.

Amir Temurning faoliyatiga oid bo‘lgan ma’lumotlar arman manbalarida ham uchraydi. E’tiborli tomoni shundaki, ularning mualliflaridan biri arman muarrixi Foma Mesopskiy Amir Temur zamondoshidir. U Amir Temur va temuriylari tarixiga bag‘ishlangan *"Temurlang va uning vorislari tarixi"* nomli asar yozgan. Foma Mesopskiy Amir Temurning Yaqin Sharq mamlakatlariga qilgan yurishiga guvoh bo‘lgan bo‘lsa ham faqat o‘zi ko‘rgan voqealar haqida so‘z yuritish bilan cheklanmay, boshqa shaxslarning hikoyalari hamda Amir Temur to‘g‘risidagi turli rivoyat va mish-mishlarni ham hikoya qilgan. U garchi Sohibqironnig shaxsi va faoliyatiga salbiy baho bergan bo‘lsa ham ko‘p hollarda Amir Temurning sarkardalik iste’dodi va xristian dini vakillariga nisbatan bag‘rikenglik siyosatini olib borganligini ta’kidlaydi. Foma Metsopskiy asari rus va ozarbayjon tillariga tarjima qilinib, T.I.Ter-Grigoryan va U.Bakixanova tomonidan Bokuda 1957-yilda nashr etilgan.

Amir Temur haqidagi tarixiy ma’lumotlar rus solnomalarida ham mavjud. Ularda qayd etilgan ma’lumotlar Volga bo‘ylarida Sohibqiron yurishlarlari davridan qolgan hikoyat va rivoyatlarga tayangan, degan xulosaga kelish mumkin. Rus solnoma va qissalaridagi Amir Temur tarixiga oid ma’lumotlar ham shu hikoyat va rivoyatlardan kelib chiqqan deyishga yetarli asoslar bor. Chunki rus solnoma va qissalarida Amir Temur Yevropa manbalaridagi kabi forsiy “Tamerlan” nomi bilan emas, balki aynan shu ma’noni beradigan turkiy “Aksak Temur” nomi bilan ataladi.

Rus adabiyotining ilk namunalaridan biri sifatida e’tirof etiladigan asarlardan birining Amir Temur tarixiga bag‘ishlanganligi ham e’tiborga molik holatlardan biridir. XIV asrning oxiri – XV asrning boshlarida yaratilgan *"Temur Oqsoq qissasi"* ("Povest o Temir Aksake") Vladimirdan Moskvaga olib kelingan Bibi Maryam ikonasi (portreti) Moskva va butun Rus erlarini Amir Temur istilosidan xalos etganligi haqidagi diniy rivoyatga asoslangan.

***Manoqiblar.*** Yirik diniy arboblar hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan bu kabi asarlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga oid muhim ma’lumotlarni taqdim eta olishi bilan ajralib turadi

Naqshbandiya tariqatining ko‘zga ko‘ringan arbobi, Amir Temurning ma’naviy piri – shayx Amir Kulolning hayoti va faoliyati *"Manoqib-i Amir Kulol"*da o‘z aksini topgan. Ushbu asarning muallifi, Amir Kulolning nabirasi Shihobuddindir. XVII asrda ko‘chirilgan "Manoqib-i Amir Kulol"ning nusxasi Toshkentda, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Asarning litografik nashri ham mavjud.

Temuriylar davri tarixiga oid manoqiblardan biri Faxruddin Ali Safiyning “Rashohotu ayn-ul-hayot” (Obi hayot tomchilari) asari bo‘lib, Xoja Ahror Valiyning hayoti, faoliyati hamda uning ta’limotiga bag‘ishlangan. Asarda temuriylar davlatining siyosiy tarixiga oid muhim voqealar, jumladan Samarqand

hukmdori Mirzo Sulton Ahmad, Hisor va Badaxshon hukmdori Sulton Mahmud mirzo va Farg‘ona hokimi Mirzo Umarshayxlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlar haqida boshqa manbalarda uchramaydigan ma’lumotlar tilga olingan. Asarda keltirilgan ko‘pgina ma’lumotlar Movarounnahrning temuriylar davridagi iqtisodiy va ijtimoiy hamda madaniy hayotini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Xoja Ahror Valiy hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan manoqiblardan yana biri “Silsilat ul-orifiyn va tazkirat ul-siddiqiyn” (Oriflar silsilasi va siddiqlar yodnomasi) bo‘lib, ko‘proq “Silsilat ul-orifiyn” nomi bilan mashhur. Muallifning to‘liq ismi – Muhammad ibn Burhonuddin ibn Xoja Muhammad Rizo. U manbalarda ko‘proq Muhammad Qozi nomi bilan ataladi. Asarning ma’lum qismi fors tilidan tarjima qilinib, “Tabarruk risolalar” kitobida e’lon qilingan. Ushbu asarda temuriy mirzolar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan nizolar haqida tarixiy asarlarda uchramaydigan ko‘pgina faktlar mavjud.

“Maqomoti Xoja Ubaydulloh Ahror”(Xoja Ubaydulloh Ahror hayoti) asari muhim manbalardan biridir. Unda ko‘pgina tarixiy shaxslar nomidan Xoja Ahror Valiy hayotiga oid voqealar hikoya qilinadi. Asardan Mirzo Sulton Ahmad, Mirzo Umarshayx kabi hukmdorlar nomidan hikoya qilingan voqealar o‘rin olgan. Farg‘ona hokimi Mirzo Umarshayxning Mo‘g‘ul xoni Yunusxon bilan birgalikda Toshkentni qamal qilganligi, 1485-yili Shohruxiyada tuzilgan sulh shartnomasining tashabbuskori Mirzo Umarshayx ekanligi haqidagi ma’lumotlar boshqa manbalarda uchramasligi bilan qimmatlidir.

Muhammad Mufti Ohangaroniyning “Mavlono Lutfulloh manoqibi” asari Mavlono Lutfulloh Chustiyning (1485 – 1571) hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan. Manoqibda Mavlono Lutfulloh Chustiyning ustozlari Mavlono Shoh Husayn Chorkuhiy, Mavlono Muhammad Qozi, Mavlono Xojagi Ahmad Kasoniylarning hayotiga oid ma’lumotlar berilgan. Ushbu manbada XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning birinchi yarmida vodiyda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar xususida, jumladan, maktablar, madrasalar, qozixonalar faoliyati va bog‘dorchilik, chorvachilikning holatiga oid ko‘plab ma’lumotlarni uchratamiz.

***Epistolyar manbalar***

Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o‘rganishda epistolyar manbalar, ya’ni Sohibqiron va uning vorislarining yaqin va olis xorij mamlakatlari hukmdorlari bilan olib borgan yozishmalari katta ahamiyatga ega. Tarixiy manba sifatida *fathnomalar* – Temur va uning vorislarining qo‘shni davlat va viloyatlar hukmdorlari va hokimlariga dushman ustidan qozonilgan g‘alaba to‘g‘risida yo‘llagan maktublari ham ahamiyatlidir. Afsuski, o‘sha davrda yozilgan maktublarning asl nusxalari juda oz miqdorda bizgacha yetib kelgan. Lekin dunyoning turli kutubxonalarida shunday to‘plamlar borki, ularda XIV-XV asrlarda yashagan davlat arboblari, taniqli ulamolar hamda fan va madaniyat arboblari olib borgan yozishmalar qisman bo‘lsa-da jamlangan.

Shunday to‘plamlardan biri *"Maktubot-i Temuriya"* ("Temur va Temuriylar maktublari") bo‘lib, O‘zR FA Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. To‘plam XVI asrda tuzilgan bo‘lib, Sohibqironning ma’naviy pirlaridan biri – shayx Zaynuddin Abu Bakr Toyobodiyni o‘zining muridi Amir Temurga yozgan maktubi bilan boshlanadi. "Temur tuzuklari"da ushbu maktubdan

parcha keltirilgan bo‘lib, unda shayx o‘z muridiga davlat boshqaruvini qanday tashkil etish kerak, degan masala bo‘yicha maslahatlar beradi. Sohibqironning e’tirof etishicha, u shayx Toyobodiyning bergan maslahatlarga butun hayoti davomida amal qilgan. To‘plamga Amir Temur va temuriylar (Shohrux, Sulton Husayn Boyqaro va b.) ning Ozarbayjon, Eron, Iroq, Fors, Turkiya va boshqa mamlakatlar hukmdorlari bilan olib borgan yozishmalari kiritilgan.

Taniqli eronlik sharqshunos olim Abulhasan Navoiy 1991-yilda *"Isnod va maktuboti ta'rixi Eron (az Temur to shoh Ismoil)"* ("Eron tarixiga oid maktublar: Temurdan shoh Ismoilgacha") degan kitob nashr ettirdi. Unga u "Maktubot-i Temuriya"dagi ko‘p xatlarni kiritdi. Bundan tashqari, kitobga Eron va qo‘shni mamlakatlar hukmdorlarining Haydar va Ero‘g‘lining "Majmua-yi munshaot" ("Xatlar to‘plami"), Shihobuddin Abdulla Marvaridning "Munshaot" ("Xatlar") va Faridunbekning "Munshaot" to‘plamlaridan olingan maktublar ham kiritilgan.

Epistolyar manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qator musulmon mamlakatlarining hukmdorlari Temurning g‘arbda g‘olibona yurishini to‘xtatish maqsadida kuchli koalitsiya tuzishga harakat qilganlar. Amir Temurning Bag‘dod hukmdori Sulton Ahmad Jaloyir, turk sultoni Boyazid I, Misr va boshqa davlat hukmdorlari bilan yozishmasi XIV asrning oxiri – XV asrning boshlaridagi xalqaro munosabatlar tarixiga ma’lum oydinlik kiritadi.

Temuriylar davri tarixiga doir muhim manba – bu *"Majmua-yi marosalot"* ("Maktublar majmui") bo‘lib, unda Abdurahmon Jomiy (1414-1492), Xoja Ubaydulloh Ahror (1404-1492), uning o‘g‘li Muhammad Yahyo (1500-yilda o‘ldirilgan) va kuyovi Mir Abdulavval Nishopuriy (1495-yilda vafot etgan) larning Alisher Navoiy, Sulton Husayn Boyqaro va Sulton Abu Said mirzolar nomiga yuborgan maktublari jamlangan. Ushbu to‘plam Alisher Navoiy tomonidan tuzilganligi bois fanda *"Navoiy albomi"* deb ataladi. "Navoiy albomi" O‘zR FA Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

"Albom"dagi Abdurahmon Jomiyning maktublari (ularning soni 344 dona) qisman shaxsiy xarakterga ega bo‘lsa, qisman ijtimoiy mazmun kasb etgan. Muallif soliq va to‘lovlarning ko‘pligi, soliq yig‘uvchilarning o‘zboshimchaligi, Temuriylarning o‘zaro urushlari tufayli xalq ommasining jabr tortishi, madrasa talabalarining sharoiti yomonligi haqida so‘z yuritib, Navoiydan ushbu ma’lumotlarni Husayn Boyqaroga yetkazish va ahvolni o‘nglash uchun chora ko‘rishni so‘rab murojaat etadi.

Mazmun jihatidan Xoja Ahrorning maktublari (ularni soni 128 dona) ham Jomiy xatlariga o‘xshashdir. Ulardan XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, Samarqand hukmdori Sulton Ahmad mirzo bilan Xuroson hukmdori Husayn Boyqaro o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, soliqlar va yig‘imlarning og‘irligi, xususan, Xoja Ahror bekor qilinishini talab etgan tamg‘a solig‘i to‘g‘risida ko‘p ma’lumotlar olish mumkin. Temuriy hukmdorlar nomiga yuborilgan maktublarida Xoja Ahror ularni o‘zaro urushlardan tiyilishga, fojiali oqibatlarga olib keluvchi harbiy yurishlar qilmaslikka da’vat etadi. Masalan, Ozarbayjon hukmdori Qora Yusufga qarshi yurishga taraddud ko‘rayotgan Temuriy Abu Saidga maktub yo‘llab, unga "hargiz Marvdan nari o‘tmang”, deb maslahat

beradi. Bizga ma’lumki, Abu Said bu maslahatga amal qilmadi va 1469-yilda yurish paytida fojiali halok bo‘ldi.

Amir Temurning tashqi siyosiy strategiyasini tadqiq etishda Sohibqironning Usmoniylar davlatiga qarshi kurashda undan yordam olish ilinjida bo‘lgan Yevropa davlatlari hukmdorlari bilan yozishmasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizgacha Amir Temurning Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi noibi Ioann Paleologga yuborgan maktubi saqlanib qolgan. Forsiyda yozilgan va haqiqiyligi shubha tug‘dirmaydigan ushbu maktub bizgacha italyan tiliga sal buzib o‘girilgan holda yetib kelgan. Zodagon savdogar orqali Konstantinopoldan Venetsiyaga yetkazilgan ushbu maktub 1793-yilda italiyalik tarixchi Muratori tomonidan nashr etildi. Maktubning mazmunidan ma’lum bo‘lishicha, Boyazid bilan muzokaralarda (katolik cherkovi missionerlari vositachiligida) Amir Temur undan Vizantiyaga yetkazilgan zararni qoplash va tortib olingan viloyatlarni qaytarib berishni talab qilgan. Vizantiya imperatorining noibidan esa Temur, kelishuvga muvofiq, 20 ta kema bilan Trabzonga kelishni so‘ragan. Ammo Vizantiya imperiyasining halokatini yarim asrga orqaga surgan Ankara jangidan so‘ng, Vizantiya imperatori Manuil nafaqat shartnomani bajarmadi, balki ochiqchasiga turklarga yordam bera boshladi.

Kichik Osiyoda bo‘lgan paytida Amir Temur G‘arbiy Yevropa hukmdorlari, jumladan, Fransiya va Angliya qirollari bilan diplomatik yozishmalar olib bordi.

Fransiya arxivida saqlanayotgan Temur va fransuz qiroli Karl VI o‘rtasida olib borilgan diplomatik yozishma Ankara jangidan keyingi davrga taalluqlidir. Ammo Temurning Karl VI ga yuborgan xatning asl nusxasidan xulosa qilish mumkinki, bundan ilgari ham ular o‘rtasida yozishma olib borilgan. Bu ikki hukmdorning maktublarini Rim kuriyasiga tayangan katolik monaxlar yetkazishgan.

Bizgacha Temurning Karl VI ga yuborgan bitta maktubi (fors-tojik tilida) yetib kelgan. Maktubning aslliligi hech qanday shubha tug‘dirmaydi, chunki unda Temurning muhri bor. Ushbu xatning faksimil nusxasi Bombayda 1928-yilda eronlik olim Mirzo Muhammadxon Qazviniy tomonidan nashr etildi. Maktubning sanasi – 1402-yil 1-avgust. Demak, bu maktub darhol turklar Ankara jangida tor-mor etilgandan so‘ng yuborilgan. Ammo, Temur xatda Boyazid ustidan qozonilgn g‘alaba to‘g‘risida lom-lim demaydi. Lekin, Temur umumiy dushman ustidan zafar qozonilganligini Karl VI ga ma’lum qilmasligi mumkin emas edi. Bunga bitta sabab bo‘lishi mumkin: aftidan, maktub Ankara jangidan oldin tayyorlangan, lekin maktubga sana qo‘yish va uni adresatga yuborish jangdan keyin bajarilgan. Maktubda mavhum tarzda: "Sizning huzuringizga yuborilayotgan rohib Ioann sodir bo‘lgan voqeani bayon etadi", deb aytilgan. Demak, Temurning G‘arbiy Yevropa bilan aloqalarida muhim rol o‘ynagan Ioann zimmasiga qirolga Kichik Osiyoda ro‘y bergan voqealar haqida og‘zaki axborot berish vazifasi yuklatilgan. Xatning uslubi juda oddiy. Unda odatiy balandparvoz iboralar va mubolag‘ali o‘xshatishlar yo‘q. Xatda Temurning Fransiya bilan savdo aloqalar o‘rnatish xohishi borligi aniq ko‘rinib turibdi.

Parijdagi Milliy kutubxonada Temurning Karl VI ga yuborgan yana bir maktubining lotin tilidagi tarjimasi saqlanmoqda. Arxivlarda maktubning fors tilidagi asl nusxasi topilmadi. Xatning sarlavhasida qo‘yidagi yozuv mavjud:

"Ushbu sharafli hukmdor Temurbeyning Fransiyaning shavkatli qiroliga yuborgan xatining forschadan lotin tiliga tarjimasi yoki bayonidir". Bu xatga ham oldingi maktub singari 1402-yil 1-avgust sanasi qo‘yilgan. Unda endi Temurning Boyazid ustidan qozongan g‘alabasi haqida so‘z yuritilgan. Demak, bu xat darhol Anqara jangidan keyin, birinchi maktub izidan yuborilgan bo‘lishi kerak.

Lekin xatning lotincha tarjimasi uning forsiydagi asl nusxasiga to‘liq mos emas, degan taxminni ilgari surishga asos bor. Birinchidan, ikkinchi maktub shakl va mazmun jihatidan birinchi maktubdan keskin farq qiladi. Sohibqiron Fransiya qiroliga qo‘yidagi so‘zlar bilan murojaat etadi: "Men, shavkatli va muzaffar va Yaratganning do‘sti, jahon uchun muruvvatli, ulug‘ janglarda g‘olib, malik va sulton, franklar va boshqa xalqlar qiroliga salom va tinchlik istayman". Ma’lumki, musulmon hukmdorlari ixtiyoriy ravishda xristian hukmdorlarga "sulton" unvonini ravo ko‘rmaganlar. Temur bundan mustasno emas, albatta. Buning ustiga, forscha xatda biz bu unvonni uchratmaymiz. Ikkinchidan, Tyemur, Fransiya qirolini arxiyyepiskop Ioann aytadigan so‘zlarga ishonishga da’vat etib, qo‘yidagi so‘zlarni qo‘shimcha qiladi: "ammo e’tiqod masalasida emas". Bunday kutilmagan cheklov rohibning kallasiga kelishi mumkin, ammo Temur va uning vaziri xayoliga kelmasligi shubhasizdir. Uchinchidan, xatni sanasi va uni jo‘natish vaqtini belgilashda tarixiy haqiqatga zid bo‘lgan noaniqliklar mavjud. Nihoyat, xatning dabdabali uslubda yozilganligi va fransuz qiroli sha’niga haddan ziyod izzat va ehtirom bildirilganligiga e’tibor berish lozim[3].

Bundan taxmin qilish mumkinki, ushbu lotincha tarjimaning muharriri yuqorida eslatib o‘tilgan rohib Ioann bo‘lsa kerak, chunki u xatga fransuz qirolining ruhiyatiga xush keladigan, o‘zining obrusi va bajarayotgan missiyasining ahamiyatini oshiradigan iboralarni kiritishni lozim topgan.

Karl VI ning Temurga yuborgan maktublaridan faqat bittasi saqlanib qolgan. Mazkur xatning sanasi – 1403-yil 15-iyun. Ikki hukmdor o‘rtasidagi yozishma bundan oldin ham shunday xatlar bo‘lganligidan dalolat beradi, ammo ular bizgacha yetib kelmagan. Mazkur maktubning haqiqiyligi shubha tug‘dirmaydi, chunki uning nusxasi Parijdagi Milliy kutubxonada saqlanmoqda. Bu xatning ham muharriri arxiyepiskop Ioann bo‘lsa kerak, chunki matnda bu rohibga ko‘p e’tibor berilgan va shakl jihatdan ham Temurning lotincha tarjimasidagi maktubiga o‘xshaydi. Xatda Fransiya va Temur davlati o‘rtasida savdo munosabatlarini rivojlantirishga ko‘p o‘rin ajratilgan. Qirolning xatidan anglash mumkinki, Fransiya fuqarolari Temur mulklariga erkin kirib borishlari mumkin bo‘lgan va ular bundan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishgan.

Amir Temur va uning o‘g‘li Mironshoh Angliya qiroli bilan ham yozishmalar olib borganlar. Yozishma ingliz qiroli tomonidan lotin tilida, Temur tomonidan esa fors-tojik tilida olib borilgan. Bizgacha ingliz qiroli Genrix IV (1399-1413) ning ikkita maktubi yetib kelgan: ulardan biri Mironshohga, ikkinchisi Amir Temurga yuborilgan. Maktublarning aslliligiga shubha yo‘q, chunki ularning nusxalari Angliya arxivlarida saqlanmoqda. Mironshohga atalgan maktub Londonda 1860-

---

[3] См.: Умняков И.И. Из истории международных отношений Средней Азии с Западной Европой в начале XV в. // Тамерлан: Эпоха. Личность. Деяния. – Москва: Гураш, 1992. – С. 517.

yilda Genrix IV ning ko‘p jildlik yozishmasi ichida nashr etildi. Uning Temurga yuborgan xatining matni (asl nusxasi Britaniya muzeyida saqlanadi) esa Londonda 1846-yilda nashr etilgan. Genrix IV ning Temur va Mironshoh bilan muloqotida yana o‘sha arxiyepiskop Ioann vositachilik qilgan. Aftidan, Vatikanning bu vakili nafaqat Sharqda katolik cherkoviga xizmat qilgan, balki ustomon diplomat ham bo‘lgan.

Genrix IV Mironshohga yuborgan maktubida unga katolik dini vakillariga doimiy ravishda do‘stona va xayrixohlik bilan munosabatda bo‘layotganligi uchun minnatdorchilik bildiradi. Qirol hatto uni "katolik dinining homiysi" deb ataydi. So‘ngra Genrix IV Mironshohning ikki davlat o‘rtasida do‘stona bitim tuzish haqidagi taklifini qabul qilishi va Ioannga uning nomidan shunday hujjatni imzolash vakolati berilganligini ma’lum qiladi. Mazkur xat Gertford shahrida fevral oyida yozilganligi qayd etilgan, ammo-yili ko‘rsatilmagan. Maktub 1401-yilda tuzilgan bo‘lishi mumkin. Genrix IV ning xati Mironshohga yetib borganligi to‘g‘risida ma’lumot yo‘q. Xatning shakl va mazmuniga ko‘ra, uning ham muharriri o‘sha Ioann bo‘lgan, deyish mumkin, chunki maktubla uning shaxsiga ko‘p e’tibor berilgan.

Amir Temurning Genrix IV ga yuborgan maktubi arxivlardan topilmadi, lekin u haqda Ioann yetkazgan ingliz qirolining xatida eslatib o‘tiladi. Genrix IV nomasida Temurning ingliz qiroliga do‘stona munosabati Angliyada yuqori qadrlanishi aytiladi va buning uchun minnatdorchilik bildiriladi. Xatda Temurning ikki davlat fuqarolari o‘rtasida erkin savdo munosabatlarin o‘rnatish haqidagi taklifiga rozilik bildiriladi. Maktubda Temurning umumiy dushman – turk sultoni Boyazid ustidan qozongan "muhim g‘alabasi" munosabati bilan "yyengil tortilganligi va katta quvonch tuyg‘usi" qamrab olganligi ma’lum qilinadi.

Genrix IV ning Temurga yuborgan maktubining lotincha matnida u qachon va qayerda tuzilganligi haqida axborot uchramaydi. Ammo unda Anqara jangida Temur turk sultonini mag‘lub etganligi esga olinganligi bois, mazkur xat 1402-yilda yoki 1403-yilning boshlarida yozilgan deb taxmin qilish mumkin. Shakl va mazmun jihatidan ingliz qirolining Temurga yozgan xati Temurning fransuz qiroli Karl VI ga yozgan maktubiga o‘xshab ketadi. Bundan kelib chiqib, bu xatni ham arxiyepiskop Ioann tahrir qilgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bu maktublar yoki ularning lotin tilidagi tarjimalari Yevropaning kutubxona, muzey va arxivlarida saqlanmoqda. Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VI ga yuborgan maktubining lotin tilidagi tarjimasining ko‘chirma nusxasi hozirgi kunda Toshkentda, Temuriylar tarixi davlat muzeyida saqlanmoqda. Bu nusxa O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovga bu mamlakatga rasmiy tashrifi chog‘ida Fransiya Prezidenti Jak Shirak tomonidan sovg‘a qilingan edi. Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmasi matbuot sahifalarida va turli boshqa nashrlar ichida e’lon qilindi. Hozirgi kunda ular Amir Temurning tashqi siyosati va diplomatiyasi to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar beruvchi manba hisoblanadi.

***Huquqiy hujjatlar***

Amir Temur va temuriylar davriga oid bir necha huquqiy hujjatlar saqlanib qolgan. 1469-yili Mirzo Umarshayx tomonidan Marg‘ilon ulamolaridan biri Mir Sayyid Ahmadga berilgan

suyurg‘ol yorlig‘idir. Ushbu yorlig‘ davlatchilik va iqtisodiy tarix, jumladan, davlatning boshqaruv tizimi, soliq tizimi, ma’muriy markazi kabi ko‘plab savollarga aniq faktlar taqdim eta oladigan qimmatli manba hisoblanadi.

Farg‘ona vodiysining so‘nggi o‘rta asrlar tarixiga oid huquqiy hujjatlar orasida “Yorliqlar to‘plami” nomi bilan yuritiladigan hujjatlar to‘plamida temuriylar davriga oid ba’zi bir hujjatlar mavjud. A. Juvonmardiyev tomonidan tadqiq etilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan mazkur hujjatlar to‘plami 146 ta yorliq, farmon, inoyatnoma, hukmnoma va boshqa turdagi hujjatlardan iborat bo‘lib, ulardan 23 tasini hokim va amlokdorlar tomonidan berilgan “patta”lar tashkil etadi.

Mazkur hujjatlardan faqat bittasi Temuriylar davriga oid bo‘lib, 1486-yilning 9-yanvarida Mirzo Sulton Ahmad tomonidan Sayyid Go‘yo Muhammadxo‘jaga Axsi atrofidagi bir necha mulklarni suyurg‘ol sifatida berilgani haqidagi yorlig‘dir. Unda avvaldan Sayyid Fozil Aliga tegishli bo‘lgan suyurg‘ol mulki uning o‘g‘li Sayyid Go‘yo Muhammadxo‘jaga berilganligi va ushbu mulklardan keladigan daromadlar daxlsiz ekanligi tasdiqlangan. Lekin Samarqand hukmdori Mirzo Sulton Ahmad tomonidan Farg‘ona hokimi Mirzo Umarshayx tegishli Axsi viloyati hududlaridan bir nechtasini suyurg‘ol sifatida in’om etilishi mazkur hujjat borasida savollarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ushbu hujjatlarni tadqiq etgan A. Juvonmardiyev ham o‘z asarining kirish qismida mazkur hujjat Mirzo Sulton Ahmadga tegishli ekanligini ta’kidlagan bo‘lsa, hujjatning o‘ziga berilgan izohda esa taqdim etuvchi Shayboniylar sulolasi vakillaridan Navro‘z Ahmadxon ekanligini qayd etadi. S. Jalilov esa bu hujjatlar to‘plamining eng qadimgi yorlig‘i XVI asr o‘rtalariga oid ekanligi ta’kidlaydi. Bundan kelib chiqadiki, u biz so‘z yuritayotgan yorlig‘ni Mirzo Sulton Ahmadga tegishli, deb hisoblamaydi.

“Yorliqlar to‘plami”ning boshqa hujjatlari XVI – XIX asrlarga oid bo‘lib, vodiydagi er-suv munosabatlari, soliq tizimi va qishloq xo‘jaligi haqida ko‘plab muhim ma’lumotlarga ega.

***Ta’lim texnologiyalari:*** *"baliq skeleti", Venn diagrammasi, T-sxema, "bumerang", muammoli ta’lim, keys-stadi, vizual materiallar, blits-so‘rov.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar:***

*1. Amir Tyemurning hayotlik chog‘ida u haqida qanday asarlar yaratildi?*

*2. Nizomuddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiylar "Zafarnoma"larining monandlik va farqli tomonlari xususida fikr yuriting.*

*3. Amir Temur va Temuriylar davlati tarixini yorituvchi fors-tojik tilidagi tarixiy asarlarni sanab o‘ting.*

*5. Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur" asari Temur to‘g‘risidagi boshqa tarixiy asarlardan nimasi bilan farq qiladi?*

*6. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asarida qanday ma’lumotlar keltiriladi?*

*7. Amir Temurning hayoti va faoliyati haqida ma’lumotlar yozib qoldirgan evropalik mualliflar va ularning asarlarini sanab o‘ting.*

*8. XV asrda yaratilgan manoqiblarni sanab o‘ting. Ularning mazmuni haqida nimalar deya olasiz?*

*9. Ispan elchisi de Klavixoning "Samarqandga Temur saroyiga sayohat kundaligi" asari qanday ahamiyatga ega?*

*10. Faxruddin Ali as-Safiyning "Rashahotu aynil-hayot" asari kimga bag'ishlangan?*

## MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXINING FANDA O'RGANILISHI.

### Reja:

*1. Xorijiy mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlar.*
*2. Rossiya imperiyasi va Sovet davrida e'lon qilingan ilmiy ishlar.*
*3. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlar.*

***Kalit so'zlar:*** *Djozef De-Gin, L.Lyangle, R.Grousset Jan Pol Ru, L.Keren, "Historie generale des huns, des turcs, des mongols, et des autres tartars occidentaux.", "Tamerlan, l'empire du seigneur de fer", B.F. Mans, "Tamerlane and symbolism of sovereignty", "Voyennaya derjava Amira Temura", Ismoil Aka, "Timur ve Devleti", A.Y.Yakubovskiy, I.M.Mo'minov, S.A.Azimjonova, O.D.Chexovich, M.Abduraimov, N.Mahmudov, A.Juvonmardiyev, B.G.G'ofurov, V.V. Bartold, B.Ahmedov, A.Muhammadjonov, A.Asqarov, U. Uvatov, A.Ahmedov, S.Jalilov, T.Fayziyev, D.Yu.Yusupova, Azamat Ziyo, O.Bo'riyev, Sh.O'ljayeva, B.Usmonov, "Temur va Ulug'bek davri tarixi", "Amir Temur jahon tarixida".*

Bugungi kun jahon tarixshunosligida temurshunoslik ko'plab ilmiy asarlar, tadqiqotlardan iborat ilmiy yo'nalishga aylangan. Ularni geografik va davriy tamoyillarga ko'ra 3 guruhga ajratish mumkin: 1) xorijiy mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlar; 2) Rossiya imperiyasi va Sovet davrida e'lon qilingan ilmiy ishlar; 3) mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlar.

***Xorijiy mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlar***

Xorijlik olimlar tomonidan Amir Temur va temuriylar davri tarixi bir necha asrlardan beri keng o'rganib kelinmoqda. Ular tomonidan yaratilgan asarlarda Temuriylar saltanati tarixiga oid bir qator masalalar jahon tarixining bir qismi sifatida tadqiq etilib, ilmiy xulosalar bildirilgan. Xorijiy mualliflar asosan Amir Temur va sulolaning boshqa yirik vakillari shaxsi, markazlashgan davlat barpo etilishi, harbiy yurishlar, diplomatik munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyot, temuriy hukmdorlar o'rtasidagi o'zaro urushlar oqibatida separatizmning kuchayib borishi kabi masalalariga katta e'tibor qaratganlar.

Jahon temurshunosligining rivojiga fransuz sharqshunoslari katta hissa qo'shib kelmoqdalar. Ulardan biri Bartelemi d'Erbeloning "Par la Compagnie des Libraires" (Sharq kutubxonasi)[4] asarida sharq mamlakatlari tarixi haqida so'z yuritilganda Amir Temur to'g'risida ham hikoya qilinadi[5]. Asarda Amir Temur va temuriylar davri tarixiga keng to'xtalib o'tilgan.

---

[4] O'zbekiston Milliy kutubxonasi nodir kitoblar kolleksiyasining birinchi nashrida asarning ruscha tarjimasi "Восточная библиотека", deb berilgan. Qarang: Коллекция редких книг националной библиотеки Узбекистана. (Выпуск 1) – Т., 2015. – С. 23 (keyingi o'rinlarda – Коллекция редких книг националной библиотеки Узбекистана).

[5] D'herbelot. Par la compagnie des libraires. M. DC. XCVII. – Paris, 1697. – P. 877-889.

Fransuz sharqshunosi Djozef De-Ginning “Historie generale des huns, des turcs, des mongols, et des autres tartars occidentaux.” (Xunlarning umumiy tarixi...) nomli asari[6] 5 tomdan iborat boʻlib, IV – V tomida Amir Temur va temuriylar davri tarixi haqida ham maʼlumotlar berilgan.

Fransuz tarixshunosligida Amir Temur tarixiga oid yaratilgan tadqiqotlar orasida L.Lyanglening “Temur hayoti” asari muhim oʻrin tutadi. Asarga qiziqish yuqori boʻlganligi uning XIX asrdayoq rus tiliga tarjima qilinib, nashr etilganidan seziladi. Muallif oʻz tadqiqotida Amir Temur faoliyatining deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan[7].

Zamonaviy fransuz sharqshunoslari Jan Pol Ru va R.Groussetlar moʻgʻullarning Fargʻonaga bostirib kirishi va Amir Temur tomonidan ularga qarshi olib borilgan kurash masalalarini yoritishda ayrim voqealarni tarixiy manbalarga hamohang holda toʻgʻri yoritgan boʻlsalar, baʼzan chalkashliklarga yoʻl qoʻyganlar[8].

R.Grousset Jan Pol Rudan farqli ravishda Mirzo Iskandarning 1399-1400-yilardagi Sharqiy Turkiston yurishiga ham toʻxtalgan. Lekin uning mazkur yurish Amir Temur topshirigʻi bilan amalga oshirilganligi haqidagi fikriga qoʻshilib boʻlmaydi[9]. Chunki Mirzo Iskandar oʻzboshimchalik bilan yurish tashkil etganligi uchun jazolangan edi[10].

Amir Temur va Temuriylar davri tarixining yirik tadqiqotchilaridan biri L.Keren oʻzining “Tamerlan, l’empire du seigneur de fer” (Amir Temur saltanati) asari temurshunoslikda muhim oʻrin tutgan ishlardan biridir. Unda Amir Temur shaxsiga xolis baho berishga harakat qilingan.

L.Keren va A.Saidov tomonidan 1996-yilda “Amir Temur va Fransiya” asari yozib tugallandi[11]. Ushbu tadqiqot tarixshunoslik jihatidan foydali hisoblanadi. Mazkur kitob A. Temur va Temuriylar sulolasi tarixining fransuz sharqshunoslik maktabi tomonidan oʻrganilishiga bagʻishlangan. “Amir Temurga adolatli buyuk ehtiromimiz” deb nomlangan qismida koʻplab yangi tarixshunoslik maʼlumotlari bilan tanishish mumkin boʻladi.

L.Keren[12] oʻz tadqiqotlarida A. Temurning tarixdagi buyuk xizmatlari, uning davlatida adolat va qonun ustuvorlik qilganligini manbalardagi maьlumotlar, tarixiy faktlar orqali ochib bergan[13]

Ingliz tilida ham Amir Temur tarixiga bagʻishlangan koʻplab ilmiy asarlar yaratilgan[14]. Ulardan biri Xilda Xukxemning “Tamburlaine the Conqueror”

---

[6] Коллекция редких книг националной библиотеки Узбекистана. – С. 8.

[7] Лянглэ Л. Жизн Тимура // Лянглэ Л. Соч. / пер. с фр. Н. Суворов. – Т., 1890.

[8] Grousset Rene. The Empire of the stappes. / Translated from the French by N. Walford - New Jersey: New Brunwick, 1970. – P. 423, 438(keyingi oʻrinlarda – Grousset Rene. The Empire of the stappes); Жан-Пол Ру. Тамерлан. / Пер. с французского. Соколова Е.А. – М.: Молодая гвардия, 2012. – С. 61-62 (keyingi oʻrinlarda – Жан-Пол Ру. Тамерлан).

[9] Grousset Rene. The Empire of the stappes. – P. 425-426. Жан-Пол Ру. Тамерлан. – С. 62-63.

[10] Шарафиддин Али Йаздий. Зафарнома. /Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари А.Ахмад ва Н.Бобобеков. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 226 (keyingi oʻrinlarda – Йаздий. Зафарнома).

[11] Керен Л., Саидов А. Амир Темур ва Франция. Тошкент: Адолат, 1996. – 88 б.

[12] Kehren L. Tamerlan et Byzance // La Timuride. – Paris, 1994. № 13. – P. 3-6; Керен Л. Амир Темур салтанати. Француз тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Б. Эрматов. – Тошкент: Манавият, 1999. – 224 б (keyingi oʻrinlarda – Керен Л. Амир Темур салтанати...) ва бошқалар.

[13] Керен Л. Амир Темур салтанати.... – Б. 169-170.

("Sarkarda Temur") tadqiqoti bo'lib, erkin uslubda, nisbatan badiiy bo'yoqlarga boyligiga tarixiy manba va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yozilganligi bilan e'tiborni jalb qiladi[15].

Xorij tadqiqotlari orasida Beatris Forbes Mansning Amir Temur va temuriylar davri tarixiga bag'ishlangan asarlarini alohida ta'kidlash o'rinli[16]. Muallif "Adminstration and the delegation of Authority in Temurs Dominions" (Temur tasarrufidagi davlatlarda boshqaruv va vakillik hokimiyati) maqolasida Amir Temurning davlat boshqaruv uslublarini tahlil qilgan. Uning fikricha, hukmdor tomonidan biror viloyat yoki o'lkani boshqarish uchun tayinlangan shahzodalar boshqaruvlarining dastlabki yillarida doimiy ravishda o'z hududlarida bo'lgan. Bu ularning joylarda davlat ishlarini yo'lga qo'yishi va o'z hokimiyatini mustahkamlashi bilan bog'liqligi ta'kidlanadi va 1377-yili Farg'ona hokimi etib tayinlangan Mirzo Umarshayxning 10-yildan oshiq vaqt davomida vodiyda qolganligi Oltin O'rda hamda Mo'g'ulistonning tahdidi bilan izohlanadi[17].

B.F. Mansning "The Ulus Chagatay before and after Temur's rise to power: the transformation from tribal confederation to army of conquest" (Chig'atoy ulusi Temur hokimiyatga kelishidan avval va keyin: qabilalar konfederatsiyasidan istilochi lashkarga o'tish) maqolasida Amir Temur tomonidan Movarounnahrning markazlashtirilishi masalalari ko'rib chiqilgan[18].

Muallif "Amir Temur hukmronligi va uning taraqqiy etishi" (The rise and rule of Tamerlane.) asari[19]da Amir Temur faoliyatining turli tomonlari qamrab olib, uni tarixiy manbalar asosida tahlil qillgan. Ammo ba'zi o'rinlarda muallif yanglish fikrlar ham bildirgan. Masalan, uning 1376-yili Farg'ona bilan birgalikda Koshg'ar viloyati ham Mirzo Umarshayx tasarrufida bo'lganligi to'g'risidagi fikriga qo'shilib bo'lmaydi[20]. Garchi Amir Temur farmoniga ko'ra Mirzo Umarshayx shu yili Koshg'arni ham zabt etgan bo'lsa-da, bu Temuriylar boshqarayotgan davlat tarkibiga kiritilmagan. Shuning uchun keyinchalik Koshg'arga Mirzo Umarshayx hamda uning o'g'li Mirzo Iskandar boshchiligidagi temuriylar qo'shini bir necha bor yurishlar qilgan[21]. Shu o'rinda aytib o'tish

---

[14] Абиджонова Д.С. Маверауннахр эпохи правления Амира Темура в англоязычной историографии 60 - 90-х годов ХХ в. Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент: ИИ АН РУз, 2000. – 26 с.

[15] Хилда Ҳукхэм. Властител семи созвездей. / Пер. с англ. Г. Хидоятова. – Т.:Адолат, 1995. – С. 86,122 (keyingi o'rinlarda – Хилда Ҳукхэм. Властител семи созвездей).

[16] Manz Beatrice Forbes. Adminstration and the delegation of Authority in Temurs Dominions. // Central Asiatik Journal. 1976. № XX. – P. 191-207 (keyingi o'rinlarda – Manz. Adminstration...); o'sha muallif. The Ulus Chagatay before and after Temurs rise to pover: the transformation from tribal confederation to army of conquest // Central Asiatik Journal. 1983. № XXVII. – P. 79-100 (keyingi o'rinlarda – Manz. The Ulus Chagatay…); o'sha muallif. The rise and rule of Tamerlane. – Cambridge University Press, 1989 (keyingi o'rinlarda – Manz Beatrice Forbes. The rise and rule of Tamerlane); O'sha muallif. Tamerlane and symbolism of sovereignty // Iranin studies, vol. 21/1-2, 1988. – P. 105-122; o'sha muallif. Power, Politics and Religion in Timurid Iran – Cambridge University Press, 2007 (keyingi o'rinlarda – Manz Beatrice Forbes. Power, Politics and Religion in Timurid Iran).

[17] Manz. Adminstration... – P. 191-207.

[18] Manz. The Ulus Chagatay… – P. 98.

[19] Muallifning Amir Temur shaxsi va davlatiga nisbatan madaniy-etnik qarashlari o'zbek tarixshunosligida tanqid qilingan. Qarang: Ртвеладзе Э.В., Алимова Д.А. Исследователские подходы к истории эпохи Темура и Темуридов (принципы работы над коллективной монографией)./ Темурийлар даври ёзма меросининг тарқалиши ва ўрганилиши. VIII Республика илмий-амалий конференция материаллари. Темурийлар тарихи давлат музейи. Тошкент – 2015 йил 20 октябр. 8-китоб. – Т.: «МАШУР-ПРЕСС», 2016. – Б. 6-11.

[20] Manz Beatrice Forbes. The rise and rule of Tamerlane. – P. 85.

[21] Йаздий. Зафарнома. – Б. 127, 225-226.

kerakki, muallif Amir Temur zabt etilgan hududlarni ikki qismga bo‘lgan. Birinchi qism Farg‘ona, Xorazm, Xuroson, Eron va Iroq hududlaridan iborat bo‘lib, Amir Temur bu hududlarni o‘z hokimiyati tasarrufiga kiritganligini, ikkinchi qismdan o‘rin olgan Hindiston, Anatoliya, Suriya, Mo‘g‘uliston, Dashti Qipchoqni esa o‘z ta’sirida saqlab turganligini ta’kidlagan[22]. 1404-yilga qadar Koshg‘ar ikkinchi qism tarkibida bo‘lgan[23].

B.F. Mansning “Tamerlane and symbolism of sovereignty” (Amir Temur va suverenitet ramzi) maqolasida Amir Temur hokimiyatining qonuniylashtirilishi, jahongirlik mafkurasining shakllanishi, yangi sulolaning yaratilishi masalalari tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan[24].

Beatris Forbes Mansning “Temuriylar Eronida hokimiyat, siyosat va din”(Power, Politics and Religion in Timurid Iran.) asarida ham biz o‘rganayotgan davr tarixiga oid bir necha qiziqarli fikrlar uchraydi[25]. Ushbu temuriylar davrida Eronda yoz bergan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

H.R. Romer qalamiga mansub “Temur Eronda” nomli tadqiqotda ham Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganishga qo‘shilgan muhim hissalardan biridir[26]. Asarda Amir Temur va temuriylar sulolasi boshqaruvida bo‘lgan Eron tarixiga ko‘proq e’tibor qaratilgan bo‘lsa ham, undan Amir Temurning o‘g‘li Mirzo Umarshayx va Mirzo Sulton Abu Sa’id farzandi Mirzo Umarshayxlar Farg‘ona viloyatida hokimlik qilganligi, Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati bilan bog‘liq vodiyda sodir bo‘lgan ayrim voqealar o‘rin olgan. Muallifning Amir Temur tomonidan Eronni hududlarini zabt etilishi va uning keyinchalik sulola vakillari tomonidan boshqarishiga oid asosli ilmiy xulosalari ko‘plab temurshunoslar tomonidan e’tirof etilgan. Lekin muallifning 1402-yilda Xalil Sultonga Farg‘onani boshqarish topshirilganligi haqidagi fikrini manbalar tasdiqlamaydi. Fikrimizcha, Romer 1402-yilda Xalil Sulton Turkiston atroflaridagi Xitoyga boradigan yo‘llarni muhofaza qilish uchun yuborilganligidan kelib chiqib, shunday xulosaga kelgan[27]. Lekin bu ma’lumot Xalil Sultonning Farg‘ona hokimi bo‘lganligini asoslamaydi.

Mariya Subtelni ham Temuriylar davri tarixiga oid tadqiqotlar olib borgan. U ko‘proq Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi misolida boshqaruv tizimidagi o‘troq hamda ko‘chmanchi hududlar davlatchilik an’analarining sintezlashuv jarayoniga e’tibor qaratgan[28].

K.Z. Ashrafyan tomonidan ingliz tilida e’lon qilingan “Central Asia under Timur from 1370 – to the early fifteenth century” (O‘rta Osiyo Temur hukmronligi davrida (1370-yildan XV asrning boshigacha)) nomli maqolada Amir Temur

---

[22] Manz Beatrice Forbes. The rise and rule of Tamerlane. – P. 90-91.

[23] O‘sha asar. – P. 87.

[24] Manz Beatrice Forbes.Tamerlane and symbolism of sovereignty // Iranin studies, vol. 21/1-2, 1988. – P. 105-122.

[25]Manz Beatrice Forbes. Power, Politics and Religion in Timurid Iran. – P. 26, 32-33.

[26]Roemer H.R. Timur in Iran // The Cambridge histore of Iran. Vol. 6. The Timurid and Safavid periods, ed. Peter Jackson and Laurence Lockhart. Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P. 42-97 (keyingi o‘rinlarda – Roemer H.R. Timur in Iran).

[27]O‘sha asar. – P. 100; Йаздий. Зафарнома. – Б. 262.

[28] Subtelny Maria. Timurids in Transition. Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. Brill Academic Pub. 2007. – 412 p.

faoliyatining asosiy qirralarini ochib berishga harakat qilingan[29]. Muallif Amir Temur Samarqandda o‘z hokimiyatini mustahkamlashi bilanoq Yangi Talas hududidan to Koshg‘argacha bo‘lgan hududlarga yurish qilganligini ta’kidlaydi. Chindan ham Amir Temur Movarounnahrning shimoliy-sharqiy qismida, jumladan Farg‘ona vodiysida mo‘g‘ullarning ta’sirini yo‘qotish uchun 1371, 1375-yillarda ushbu hududlarga harbiy yurishlar uyushtirgan. Lekin K. Z. Ashrafyan bu joylarni Oq O‘rda tarkibiga kirganligi haqida noto‘g‘ri ma’lumot bergan[30].

Venger olimi H.Vamberining “Buxoro yohud Movarounnahr tarixi” nomi ostida o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan asarida ham Amir Temur va Temuriylar davri tarixi keng tadqiq etilgan[31].

Amir Temur va Temuriylar davri tarixiy jarayonlari aks etgan xorijiy tadqiqotlar orasida Y. Bretshneyder[32], G. Kapus[33], L. Buvat[34], A. Chagatai[35], M. Brion[36], G. Bonivel[37], P. Enryuvs[38], B. Barbara[39], B. Amoretti[40], R. Ferriyer[41], I. Kennedi[42], T. Lenz[43] va boshqalarni ham ko‘rsatib o‘tish joiz. Kembrij universiteti olimlari tadqiqotlarining Eron tarixi bilan bog‘liq qator jildlarida[44] ham Amir Temur davriga oid bir qancha tahlillar mavjud, ammo ularda davlat boshqaruv masalalari echimiga alohida e’tibor berilmagan.

Temurshunoslik Turkiyada ham jadal rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunga qadar turk tilida 362 ta ilmiy ish e’lon qilinganligi ham buning yorqin dalilidir[45]. Turkiyada temurshunoslikning taraqqiy etishiga Ismoil Aka o‘z tadqiqotlari bilan

---

[29] Ashrafyan Z.K. Central Asia under Timur from 1370 – to the early fifteenth century // HCCA. 1988. – P. 319-345 (keyingi o‘rinlarda – Ashrafyan. Central Asia).

[30] Ashrafyan. Central Asia – P. 332.

[31] Вамбери Ҳ. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. / Нашрга тайёрловчи Сирожиддин Саййид. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – 96 б.; Вамбери Г. Исторія Бохары или Трансоксаніи съ древнѣйшихъ временъ до настоящаго. Перевод А.И. Павловского.Томъ первый. С.-Петербургъ, 1873. – С. 274.

[32] Bretschneider E. Notice of the medieval geography and history of Central end Western Asia. Drawn from Chinese end Mongol writings, end compared with observations of western authors in the middle ages.London, 1877. – 233 p.

[33] Capus G. A travers le Royaume de Tamerlan. Paris, 1892. – 434 p.

[34] Bouvat L. Timurlang / EI. Encyclopaedia Islam, 1934.Vol. 4. – P. 777-779.

[35] Chaghtai A. Indian links with Central Asia in in architecture / Indian Art and letters.London, 1937. XII. – P. 85-104.

[36] Brion M. Tamerlan: Presentation de Tamerlan par M. Brion; texts de Tamerlan: Ibn Arabchah, Cherefed–din, Ibn Khaldoun, l’ archeveque de Sultanieh, l’ ambassadeurClavijo. Le merechalboucicant.Paris, 1963. – 382 p.

[37] Boniville G. de. La terrible vengeance de Tamerlan / Melanges de l’ Universite Saint Josseph Beirut, 1975–76. XLIX. – P. 803-817.

[38]Andrews P. A. The tents of Timur: an examiniation of report on the quriltay at Samarkand, 1404 / Art of the European steppe land. ed. P. / Denwood, London, 1978. – P. 143-181.

[39]Barbara B. A carpet and related pictures.A legasy of Timur’s Samarqand / Oriental Art, 1984. XXX. № 2.P. 186

[40] Amoretti B. S. Religion in the timurid and safavid periods /The Cambridge history of Iran.The Cambridge University Press.1986.VI. chapter 12. – P. 610-656

[41] Ferrier R. Trade from the –14 th Century to the end of the safarid period / The Cambridge history of Iran. The Cambridge University Press,1986.Vol. VI. – P. 412-491.

B.Usmonov “Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining Rossiya tarixshunosligida yoritilishi” nomli tarixshunoslik yo‘nalishidagi tadqiqotida Rossiyada Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyatining o‘rganilish bosqichlari, ularga ta’sir etgan ijtimoiy-siyosiy omillar tahlil etilib, rus tarixshunosligining temurshunoslikda erishgan yutuqlari e’tirof etilgani holda, yo‘l qo‘yilgan qator xato va kamchiliklar ko‘rsatib berilgan[142]. Shuningdek, sovet tarixshunosligining milliy tarixga nisbatan xolis munosabatining namunasi sifatida targ‘ib qilingan A.Y. Yakubovskiyning Amir Temur faoliyati Rossiya va Sharqiy Yevropa xalqlari taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etganligi haqidagi fikrlari aslida XIX asr boshlaridayoq boshlaridayoq N.M. Karamzin, T.N. Granovskiy va S.M. Solovyevlar tomonidan ta’kidlanganligi aniqlangan. Ushbu tadqiqotda ilk bora ko‘pgina ilmiy adabiyotlarda XIV asrning 60 – yillarida Kesh hokimi bo‘lgan Hoji Barlosni Amir Temurning amakisi sifatida talqin etilishi, aslida noto‘g‘ri ekanligi ko‘rsatib berilgan[143].

B.Usmonov tomonidan bajarilgan “Amir Temur va temuriylar davrida Farg‘ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti” nomli doktorlik dissertatsiyasida Amir Temur va temuriylar davrida Farg‘ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy, madaniy tarixi o‘rganilgan. Unda numizmatik materiallarni yozma manbalar bilan solishtirish orqali XIV asrning 40-yillarida vodiyning g‘arbiy qismidagi Xo‘jand va Marg‘ilon shaharlari Movarounnahr davlati, Axsi va Andijon shaharlari joylashgan sharqiy qismi Mo‘g‘uliston tarkibiga kirganligi asoslanib, Farg‘ona vodiysining Amir Temur barpo etgan markazlashgan davlat tarkibiga kiritilishi bosqichlari, vodiyning ushbu davrdagi ma’muriy holati, bu yerda kechgan siyosiy jarayonlar, Movarounnahr hukumatining Mo‘g‘uliston davlati bilan munosabatlarida vodiyning tutgan o‘rni bo‘yicha bir qator e’tiborga molik fikrlar bildirilgan. Amir Temur tomonidan vodiyda tashkil etilgan dastlabki ma’muriy birliklar va ularning rahbarlari haqidagi ma’lumotlar aniqlangan. Shuningdek, ko‘plab tarixiy voqealarning sanalariga oydinlik kiritilgan[144].

B.Usmonovning “Amir Temur davlati” o‘quv qo‘llanmasida esa Amir Temur davlatining siyosiy va harbiy tarixi masalalariga to‘xtalingan[145].

---

[141] Абиджонова Д. С. Мавераунnахр эпохи правления Амира Темура в англоязычной историографии 60-90-х годов XX в.: Автореф. дисс. ...канд.ист. наук. Ташкент, 2001. – 26 с.

[142] Усмонов Б. Амир Темур ҳаёти ва давлатчилик фаолиятининг Россия тарихшунослигида ёритилиши (XVII-XX асрлар ): Тарих фан.ном. дисс. ... автореф. Ташкент, 2004. – 24 б.

[143] Усмонов Б. Россия тарихшунослигида Амир Темур сиймоси. – Тошкент: Фан, 2011. – 128 б.

[144] Усмонов Б. Амир Темур ва темурийлар даврида Фарғона водийсининг сиёсий, иқтисодий ва маданий тарихи. Тарих фан.док (DSc). дисс. ... автореф. Ташкент, 2020. – 84 б.; O‘sha muallif. Фарғона водийси Амир Темур ва темурийлар даврида. – Фарғона: “Фарғона”, 2019. – 288 б.

[145] Усмонов Б. Амир Темур давлати – Т.: Адабиёт учқунлари, 2016. – 124 б.

L.Begimqulovaning “XV asr boshlarida Movarounnahrda hokimiyat uchun kurash (kuchlar nisbati va natijalar tahlili)” mavzusidagi tadqiqot ishi va uning asorsida e’lon qilingan monografiyasida Amir Temur vafotidan keyin temuriylar oʻrtasida yuz bergan taxt uchun kurash masalasi oʻrganilgan boʻlib, taxtga da’vogar shahzodalar oʻrtasidagi kuchlar nisbati, ularni qoʻllagan siyosiy guruhlarning shakllanishi va ushbu guruhlar manfaatlaridagi umumiylik hamda ziddiyatlar kabi masalalar yoritilgan[146].

Temuriylar tarixi davlat muzeyida muntazam ravishda oʻtkazilayotgan “Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari ham Amir Temur va temuriylar davrini oʻrganishda muhim hissa boʻldi[147].

Amir Temur davri tarixshunosligi masalasini tadqiq etishda muhim ahamiyatga ega boʻlgan tadqiqotlardan biri “Amir Temur biblografiyasi”ning birinchi kitobini nashr etilishi boʻldi. Ushbu biblografiyaga oʻzbek tilidagi 2248, rus tilidagi 2085, ingliz tilidagi 655, fransuz tilidagi 221, arab tilidagi 29, fors tojik tilidagi 76, turk tilidagi 296 ta Amir Temur tarixiga bagʻishlangan tadqiqot, kitob, maqola va tezislar jamlangan[148].

Mustaqillik yillarida Amir Temur va Temuriylar davrining davlatchiligi tarixi, tarixshunoslik va manbashunoslik kabi masalalariga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi[149]. Tarix fanining ayrim masalalariga bagʻishlangan turli

---

[146] Бегимқулова Л.М. XV аср бошларида Мовароуннаҳрда ҳокимият учун кураш (кучлар нисбати ва натижалар таҳлили) – Фарғона: “Classik”, 2021. – 141 б.

[147]“Темурийлар тарихига оид манбалар: муаммолар, мулоҳазалар” мавзуида ўтказилган Республика миқёсидаги илмий анжуман материаллари. 1-китоб. Тошкент-2003. – 108 б.; “Амир Темур ва темурийлар даври: янги тадқиқотлар” мавзуида ўтказилган Республика илмий анжумани материаллари. 2-китоб. Тошкент-2005. – 191 б.; “Темурийлар салтанатида давлатчилик ва ренессанс” мавзуида ўтказилган Республика илмий анжумани материаллари. 3-китоб. Тошкент-2008. – 127 б.; “Темурийлар тарихига оид манбалар” мавзуида ўтказилган Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари. 4-китоб. Тошкент-2010. – 117 б.; “Темурийлар тарихига оид манбалар: тавсиф, таржима, тадқиқот” мавзусида ўтказилган Республика илмий амалий конференцияси материаллари. 5-китоб. Тошкент-2011. – 188 б.; “Амир Темур ва темурийлар даврида илм-фан ва маданият” мавзуида ўтказилган Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари. 6-китоб. Тошкент-2013. – 127 б.; “Темурийлар даврини ўрганишнинг умумбашарий аҳамияти” мавзуида ўтказилган Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари. 7-китоб. Тошкент-2014. – 280 б.; “Темурийлар даври ёзма меросининг тарқалиши ва ўрганилиши”. VIII Республика илмий-амалий конференция материаллари. 8-китоб. Тошкент-2016. – 235 б.; “Амир Темур ва Темурийлар давридаги илм-фан ва маданият ривожининг жаҳон тамаддунидаги ўрни”. Республика илмий-амалий конференция материаллари. 9-китоб. Тошкент-2017. – 238 б.; “Темурийлар даврида илм-фан ва маданият ривожини ўрганиш ва тарғиб қилишнинг умумбашарий аҳамияти”. Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари. 10-китоб. Тошкент-2019. – 237 б.

[148] Амир Темур библографияси. Биринчи китоб – Т.: Фан, 2020. – 576 б.

[149] Шпенева Л.Ю. Денежное обращение Ферганы и Шаша в эпоху Темуридов (медные монеты XV – нач. XVI в.). Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент: ИА АН РУз, 1997. – 26 с.; Улжаева Ш.М. XX асрнинг 50-60 йилларида Амир Темур ва Темурийлар даври тарихшунослиги (шўро адабиётлари мисолида): Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТИ, 1999. – 154 б.; Абиджонова Д.С. Маверауннахр эпохи правления Амира Темура в англоязычной историографии 60 – 90-х годов XX в. Автореф. дисс... канд. Ист. Наук. – Ташкент: ИИ АН РУз, 2000. – 26 с; Юсупова Д.Ю. Творческое наследие Хондамира как источник по истории культуры Централной Азии XVI в.: Авторев. дисс… докт. ист. наук. – Ташкент.: ИВ АН РУз, 2001. – 52 с; Усмонов Б.А. Амир Темур ҳаёти ва давлатчилик фаолиятининг Россия тарихшунослигида ёритилиши (XVIII – XX асрлар ): тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ШИ. 2004. – 166 б.; Каримова Н.Э. Взаимоотношения народов Централной Азии и Китая в XIV–XVII вв. ( по материалам китайских источников). дисс... док. ист. наук. – Ташкент: ИВ АН РУз, 2005. – 279 с.; Рахматуллева А.Р. Историография жизни и деятелности Амира Темура в Узбекистане (1991 – 2009). Автореф. дисс... канд. Ист. Наук. – Ташкент: ИИ АН РУз, 2010. – 31 с.; Файзиев Х.Т. Темурийлар салтанатида Шоҳрух Мирзонинг ўрни ва унинг ташқи сиёсати: Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: ТДШИ, 2011. – 193 б.; Абдуллаев У.А. Амир

tadqiqotlar Amir Temur va temuriylar davri tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi[150].

***Ta’lim texnologiyalari:*** *"baliq skeleti", Venn diagrammasi, T-sxema, "bumerang", muammoli ta’lim, vizual materiallar.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar:***

*1. Nima uchun Amir Temur siymosini o‘rganishda fransuz olimlari jonbozlik ko‘rsatishgan?*

*2. G‘arb tarixshunosligida Amir Temur va temuriylar sulolasining qaysi jihatlari keng tadqiq etilgan?*

*3. Turk tarixshunosligida Amir Temur hamda temuriylar sulolasini o‘rganishda qanday yutuqlar ko‘zga tashlanadi?*

*4. Rossiya imperiyasi davrida Temuriylar davlati tarixini o‘rganishda erishilgan yutuq va kamchiliklar nima deb o‘ylaysiz?*

*5. V.V. Bartoldning Amir Temur va temuriylar davri bo‘yicha olib borgan qanday tadqiqotlarini bilasiz?*

*6. Sovet hokimiyati yillarida Amir Temur va temuriylar sulolasining o‘rganishda qanday yutuq va kamchiliklar ko‘zga tashlanadi?*

*7. Bugungi kunda Amir Temur faoliyatini tadqiq etishda o‘zbek tadqiqotchilari qanday yutuqlarga erishmoqda?*

*8. O‘zbek olimlaridan B.Ahmedov va T.Fayziyevlarning olib borgan tadqiqot ishlari haqida qanday fikrlaringiz mavjud?*

---

Темурнинг Яқин Шарқдаги сиёсати: Тарих фан. номз... дисс. – Тошкент: ТДШИ, 2012. – 147 б; Хидиров С.М. Амир Темур давлатининг ташкил топиши ва давлат тузуми: юридик фан. номз...дисс. – Тошкент: ТДЮИ, 2012. – 192 б.; Омонов Q.Ш. Туркий расмий услубнинг юзага келиши ва такомили (илк ва ўрта асрлар).: Филология фан. док… дисс. автореф. – Тошкент: ТДШИ, 2016. – 48 б.; Буриев А. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси: Илмий маъруза шаклидаги тарих фанлари доктори(DSc) диссертиатсияси. – Т.: ЎзР ФА ШИ, 2019. – 112 б.

[150] Абулгазиева Б. О чорбагах Андижана Эпохи Тимуридов. // Мирзо Улуғбек ижоди ва унинг жаҳон цивилизатсиясида тутган ўрни. Мирзо Улуғбек таваллудининг 600 йиллигига бағишланган минтавий илмий анжуман маърузаларининг тезислари. – Самарқанд: “Сўғдиён”, 1994. – Б. 155-156; o‘sha muallif. Андижан эпохи Темуридов. // Амир Темур ва унинг дунё тарихида тутган ўрни. Амир Темур таваллудининг 660 йиллигига бағишланган ҳалқаро илмий конференция маърузалари баёни. – Самарқанд, 1996. – Б. 84-85; Раhимов О. Темур ва Темурийлар давридаги Фарғона тарихини ўрганилиши муаммолари. // “Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари”мавзусидаги республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Фарғона, 2000. – Б. 26-29; Қутибоев З. Хожа Аҳрор валий маънавияти – Т.: Фан. 2007. – 193 б.; Абдулаҳатов Н., G‘озиев Т. Бурҳониддин Марғиноний: тарихий ҳақиқат ва асотирлар – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – 488 б.; Матбабаев Б.Х., Машрабов З.З. Древний и средневековый Андижан – Т.: “Sharq”, 2011. – 256 с.; O‘sha mualliflar. Андижон тарихи (Қадимги даврлардан ХХ аср бошларигача). – Т.: “Sharq”, 2014. – 280 б.; O‘sha mualliflar. IX – XV асрларда Андижоннинг маънавий-маърифий обидалари // Имом Бухорий сабоқлари. Маънавий-маърифий, илмий-адабий журнал. 2015. № 2. – Б. 20-24.

## II BO‘LIM
## AMIR TEMUR DAVRINING SIYOSIY TARIXI.

### MAVZU: TEMURIYLAR SALTANATINING TASHKIL TOPISHI ARAFASIDA XALQARO SIYOSIY VAZIYAT.

**Reja:**

*1. XIV asr o‘rtalarida Chig‘atoy ulusi.*
*2. XIV asr o‘rtalarida Eron va Old Osiyo.*
*3. Amir Temur saltanatining tashkil topishi arafasida Xitoy va Hindiston.*

***XIV asr o‘rtalarida Chig‘atoy ulusi***

1334-yili Tarmashirin taxtdan ag‘darildi va hokimiyat birin-ketin Buzan, Changshi, Eson Temurlar qo‘liga o‘tdi. Bu vaqt amalda mamlakatda turk-mo‘g‘ul qabila boshliqlarining hukmronligi o‘rnatilgan edi. Shunday qilib, ko‘p o‘tmay Chig‘atoy ulusi ikkiga bo‘linib ketishi uchun qulay sharoit paydo bo‘ldi. Biri Movarounnahr, ikkinchisi Mo‘g‘ulistondagi siyosiy kuchlar alohida uluslar tashkil etish uchun kurasha boshladilar. Mana shu davrda Chig‘atoy ululi taxtiga Qozonxon o‘tiradi. Uning nomi manba va ilmiy adabiyotlarda Qozonxon, Qozon Sulton, G‘ozon Sulton nomlari bilan ham uchraydi. Uning taxtga chiqish sanasi haqidagi ma’lumotlarda biroz chalkashlik bor. Sharofuddin Ali Yazdiy va Fasih Xavofiylar uni hijriy 733-yili, ya’ni 1332/1333-yiliga Chig‘atoy taxti sohibiga aylanganligi ta’kidlaydilar. Ammo B.Ahmedov (“Tarixdan saboqlar”, “Amir Temurni yod etib” kitoblaridagi mavzuga oid tadqiqotlarida), G‘. Karimiy (“Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”da keltirilgan izohlarida), H. Karomatov (Shomiy “Zafarnoma”sida keltirilgan izohlarida) Qozonxonning 1343-yili taxtga o‘tirganligini qayd etganlar. Albatta, bu masalaga aniqlik kiritish uchun masala bo‘yicha alohida tadqiqot olib borilishi zarur.

Qozonxon davrida ulus markazi yana Movarounnahrga ko‘chirildi va u juda qatiqqo‘llik bilan Kebek va Tarmashirin siyosatini davom ettirmoqchi edi. U ham Kebekxonga o‘xshab Qarshi shahri yaqinida Zanjirsaroy degan qasr qurdirdi va mamlakatni shu yerdan turib boshqara boshladi. Aynan shu davrda 4 yirik qabilaning ta’siri kuchaya boshladi. Ulardan barlos qabilasi Qashqadaryo viloyatida, orlot qabilalari Balx atrofida o‘z ta’sirlarini kuchaytirib bormoqda edi.

Qozonxon davrida amir ul-umaro Amir Qazag‘anning obruyi tobora oshib bora boshladi. Fasih Xavofiy keltirgan ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, Xurosonning Jom viloyati shayxlarining va Amudaryoning janubiy qirg‘oqlarida yashovchi apardi va arlot qabilalarining amir Qazag‘on huzuriga Hirot maligi ustidan shikoyat qilib borishi mazkur hududda Qazag‘onbekning nufuzi ancha baland bo‘lgan. Movarounnahrninrg janubiy va janubiy sharqiy hududlarida hamda Shimoliy Xurosonda Amir Qazag‘onning ta’siri kuchli bo‘lgan. U 1444-1345-yillardayoq Movarounnahrning janubiy sarhadlaridagi yirik siyosiy-harbiy kuchga aylangan. Xurosonning markaziy hududlaridagi siyosiy jarayonlarga ham o‘z ta’sirini o‘rnatishga harakat qilgan. Aynan shu hududdagi kuch va qudratiga tayanib, o‘zining ta’sirini Movarounnahrning markaziy hududlariga qadar yoyishga intilgan. Bu esa shubhasiz Chig‘atoy ulusining xoni Qozonxonning jiddiy qarshiligiga uchragan.

Natijada xon va amir oʻrtasida kelib chiqqan nizo oxir-oqibat Amir Qazagʻanning gʻalabasi yakuniga etdi. Ular oʻrtasidagi 1345/1346-yili boʻlib oʻtgan dastlabki jangda gʻolib aniqlanmadi. Har holda har ikki tomon ham oʻz mavqeyini saqlab qoldi. Aynan birinchi jangda amir Qazagʻan bir koʻzidan yaralanganligi manbalarda qayd etilgan. Lekin qishning juda sovuq kelishi oqibatida Qozonxonga tegishli chorvalarning katta talofot koʻrishi Qazagʻanbekka uchun qulay imkoniyat yaratadi. Navbatdagi jangda magʻlubiyatga uchragan Qozonxon oʻldiriladi. Hokimiyatni toʻliq oʻz qoʻliga kiritgan amir qoʻgʻirchoq xonlarni taxtga olib chiqib, oʻzi esa markaziy hokimiyatni kuchaytirish yoʻlidan bordi. Amir Qazagʻan davrida Oʻgaday avlodidan Donishmandchaxon (1346-1348), Chigʻatoy avlodidan Bayonqulixon(1348-1358)lar taxtga oʻtirgan edi. Uning davrida Movarounnahr ulusining mavqeyi kuchayib, 1351-yili Hirot viloyatiga ham gʻolibona harbiy yurish uyuushtirilgan. Mamlakatda markazlashtirish harakatlarining paydo boʻlishiyoq yirik amirlarni choʻchitib yubordi.

Qazagʻanbek markazlashgan davlat tuzish yoʻlida harakat qilarkan, ishlab chiqaruvchi kuchlarni imkon qadar qoʻllab-quvvatlashga intilgan. Qagʻagʻanbek davrida Samarqand hokimi boʻlgan oʻgʻli amir Abdulloning davlatchilik borasidagi qarashlari shu davrdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarga nisbatan munosabatlarni ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Bu borada Natanziyning amir Abdullo boshchiligida uyushtirilgan Xorazm yurishi borasida bildirgan quyidagi fikrlari qiziqarli: “Oʻsha yili bu lashkarga hamroh boʻlgan ba’zi koʻpni koʻrgan qariyalar shunday naql qilishadi: (yoʻlga) otlanish va orqaga qaytish paytida yoʻl ustida joylashgan viloyatlar aholisi begona lashkar oʻtganidan qat’iyan va aslo zarracha ham ozor koʻrmagan va biron jonzodga hech bir jihatdan zarar etmagan”. Amir Abdullo markazlashgan davlatni mustahkamlash yoʻlida dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning taraqqiy etishidan manfaatdor edi. Aynan ular toʻlagan soliqlar orqali xazina toʻlib, hukmdorning oʻz qabilaviy lashkarlariga tayanuvchi amir va beklar oldida nufuzi mustahkalanardi. Lashkarni asosiy qismini tashkil etgan koʻchmanchi, yarim koʻchmanchi qabilalarning yetakchilari uchun esa shahar va qishloqlar aholisi talon-taroj ob’yekti sifatida koʻrishardi. Ular imkon boʻlishi bilan oʻtroq xalqni talashni, ulardan turli toʻlov hamda jarimalar undirishni oʻz oldilariga maqsad qilib olishgandi. Ularning nazarida harbiy yurishlar chogʻida olib boriladigan talon-taroj ishlari qoʻshinni ta’minlashning asosiy vositasi hisoblanardi. Natanziyning yuqorida keltirilgan ma’lumoti amir Abdulloning bu boradagi pozisiyasi amir va beklarning manfaatlariga qarshi ekanligini yaqqol koʻrsatib bergan. Ushbu yurish chogʻida talon-taroj ga yoʻl qoʻyilmaganligi birinchidan, amir Abdulloning amir va beklar oldidagi nufuzini, uning amru farmonlari toʻliq ijro etilganligini koʻrsatadi. Ikkinchidan, muvaffaqiyatli yurish natijasida qoʻlga kiritilgan katta tovon puli amiru beklar va lashkarning talon-taroj bilan shugʻullanishiga hojat qoldirmagan.

Amir Abdullo ishlab chiqaruvchi kuchlar manfaatlarini qoʻllab-quvvatlash oʻz otasi Qazagʻan bilan bir fikrda boʻlganligi ham e’tibor qaratish lozim. Movarounnahrda yangi mustaqil davlatga asos solish yoʻlida kurashayotgan amir Qazagʻan va uning vorisi Abdullo oʻtroq aholi manfaatlarini himoya qilishga jiddiy

e'tibor berganliklari ularning mo'g'ul xoni Kebekxon tomonidan olib borilgan markaziy hokimiyatni mustahkamlash siyosatini davom ettirishga uringanligilarini ko'rsatadi. Bu borada Muiniddin Natanziy qalamiga mansub ushbu ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega: "(Qazagon) u davrda hayot tarzi shundoq bo'lishini talab qilar va bundan lazzatlanardi: raiyat o'ziga tinch bo'lib, lashkar ko'chmanchilik qilib (o'zini ta'minlash), amirlar o'z qo'l ostidagilarning ahvolini yaxshilash, sulton qurilish ishlari va dehqonchilikni rag'batlantirish, ulamo diniy ilmlardan dars berib, mashoyixlar yaqin (ilmi) qoidalarini tahqiq qilish, imom va qozilar payg'ambar shariatiga rivoj berish, (xullas) har odam o'z holiga yarasha (biron yumushga) mashg'ul va har toifa o'z ishida farmonbardor va tirishqoq bo'lib, xalq nihoyatda osuda hayot kechirardi". Muarrix amir Qazag'an davlatida har bir tabaqaga yuklatilgan vazifa xususida juda muhim fikrlarni qoldirgan bo'lib, bu ma'lumotlar davrning ijtimoiy holatini anglash imkonini beradi.

Ular bu safar kuchayib borayotgan amir ul-umaroga qarshi xonni qayradilar. Natijada amir ul-umaroning dushmanlari va xonning odamlar tomonidan (ular bu qatlni amirning kuyovi oyrat qabilasidan bo'lgan Qutlug' Temurning qo'li bilan amalga oshirdilar) ov vaqtida Amir Qazag'an o'ldirildi. Lekin amir ul-umarolik lavozimi Amir Qazag'anning o'g'li Amir Abdulla qo'liga o'tkazildi. U xon bilan munosabatlarni yo'lga qo'ygandan so'ng, markaziy hokimiyat mustahkamlash maqsadida poytaxtni Solisaroydan (Amir Qazag'an shu yerdan davlatni boshqargan edi) Samarqandga ko'chirdi. Albatta, bu yirik amirlar manfaatiga zid bo'lib, ularning erkin mavqeiga xavf solardi. Sharafuddin Ali Yazdiy shunday hikoya qiladi: "Otasining zamonidagi ma'lum muddat Samarqandda yashaganligi va ul firdavsvish diyorning bog'-bo'stonlari yoqib qolganligi sababli, davlati bayrog'ining markazi o'sha yerda bo'lishini istadi. U Samarqandga yo'l oldi.... Amir Qutlu va boshqa amirlar hamda otasining arkoni davlati nasihat ila xayrixohlik bildirib, ota yurtni tashlab ketish aqlga to'g'ri kelmasligini qanchalik uqtirmasinlar, foyda bermadi"[151]. Natijada ko'p o'tmay Amir Abdulloh Bayonqulixonni taxtdan ketkazib o'rniga Temurshoh o'g'lonni xon qilib ko'targanligi bahonasida Movarounnahrning yirik amirlari qahriga uchradi va amir Bayon Sulduz hamda amir Hoji Barlos tomonidan tor-mor etilib, hokimiyatdan chetlashtirildi. Amir Bayon sulduz Samarqandda hokimiyatni qo'lga olgan bo'lsa-da, asosiy vaqtini bazmu jamshidlarda o'tkazgan "amirul umaro"ning hokimiyati amalda hech bir amir tomonidan tan olinmadi. Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik hukm surganligi, uning bir necha mustaqil viloyatlarga bo'linib, joylarda hokimiyatni yirik amirlar qo'lga olganligi ko'pgina tarixiy manbalarda aks etgan. Jumladan, Samarqandda amir Bayon sulduz, Keshda amir Hoji barlos, Balx va uning atroflarida Amir Husayn, Shiburg'onda Muhammad xoja Apardi *(Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylar 1358-yili Shibirg'on viloyati Muhammad Xoja Apardi qo'lida bo'lganligini ta'kidlaydilar. Lekin Fasix Havofiy uni 1355-yili 28 aprelda Dashti Rizo jangida halok bo'lganligini haqida ma'lumot beradi. Muiniddin Natanziy ham 1358-yili Shibirg'on nayman qabilasining ko'zga*

[151] Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Мовароуннаҳр воқеалари (1360-1370) / Маъсул муҳаррир, сўз боши муаллифи ва нашрга тайёрловчи А. Ўринбоев, таржимон О. Бўриев –Т.: Камалак, 1994. – Б. 58 (keyingi o'rinlarda – Яздий. Зафарнома).

*ko'ringan amiri Hamidxoja qo'liga o'tganligini ta'kidlagan. A.Y. Yakubovskiy (Yakubovskiy A.Y. O'zbekiston SSR tarixi. – B. 343.; Yakubovskiy A.Y. Timur. // Tamerlan – M.: Gurash, 1992. – S. 27.), B.Ahmedov ( Ahmedov. B. Amir Temurning davlatni idora etish siyosati. / Amir Temurni yod etib. – B. 5), A.Muhammadjonov (Muhammadjonov. A. Temur va Temuriylar saltanati. – B. 7.) va boshqalar ham o'z asarlarida Shomiy, Yazdiy va Xondamirga tayanishgan. Voqealarning keyingi tahlilidan kelib chiqib ham shu aytish mumkinki, Fasih Havofiyning ma'lumoti haqiqatga yaqindir. Lekin, shunga qaramay, ushbu masalani qayta ko'rib chiqish zarur.*) hukmronlik qilgan[152]. Ushbu davrdagi siyosiy tarqoqlik to'g'risidagi ma'lumotlar barcha tarixiy manbalarda deyarli bir xil tarzda keltiriladi. Lekin ularda Movarounnahrning shimoli-sharqiy hududlarida qanday viloyatlar tashkil topganligi haqida so'z yuritilmagan. Aksariyat mualliflar Xo'jand viloyatining amir Boyazid jaloyir tomonidan boshqarilganligini ta'kidlash bilan kifoyalanadi. Jumladan, Nizomiddin Shomiy "Xo'jand mamlakati amir Boyazid tasarrufida turardi", – deb cheklangan bo'lsa[153], Sharafuddin Ali Yazdiy "Xo'jandni amir Boyazid jaloyir boshqarardi", – deb ma'lumot beradi[154]. Muiniddin Natanziy esa o'zining "Muntaxab ut-tavorixi Muiniy" asarida jaloyir qabilasining yashash joyi Xo'jand ekanligi hamda "Jaloyirlar istiqomatgohi bo'lgan Xo'jand viloyatini amir Boyazid egallagan"ini ta'kidlaydi[155]. Toshkent, Axsi, Marg'ilon, Andijon viloyatlari haqida esa manbalarda so'z yuritilmagan. Manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda ushbu hududlar bu vaqtda Mo'g'uliston ta'sirida edi.

Jo'ji ulusi, ya'ni Oltin O'rda davlati ham ushbu davrda og'ir siyosiy vaziyatni boshdan kechira boshladi. 1359-yili Jo'ji ulusining so'nggi yirik hukmdorlaridan biri Jonibekxon vafotidan so'ng Chingizxon vorislarining eng yirik va qudratli davlati ikki yirik ulusga bo'linib ketdi. Biri Volga bo'yi, Shimoliy Kavkaz va Qora dengizning shimoliy qirg'oqlarini o'z tarkibiga qamrab olgan Oltin O'rda (Ko'k O'rda), ikkinchisi esa Dashti Qipchoqning Sharqiy qismini, ya'ni Yoyiq (hozirgi Ural) daryosidan to Oltoygacha, Janubiy Sibirdan Xorazm va Sirdayo bo'ylarigacha bo'lgan hududlardan iborat bo'lgan Oq o'rda uluslari edi. Ko'plab tarixiy adabiyotlarda Jonibekxon vafotidan To'xtamishxon Oltin O'rda taxtiga o'tirguncha bo'lgan 20-yil davomida 25 dan ortiq xonlar taxtga kelib ketganligi qayd etiladi. Bu esa ko'plab xonlarning humronlik muddati bir yilga ham etmaganligini, siyosiy holat o'ta beqaror bo'lganligini ko'rsatadi.

---

[152] Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А. Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О. Бўриев-Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.28 (keying o'rinlarda – Шомий. Зафарнома).; Йаздий. Зафарнома. – Б.19; Муиниддин Натанзий . Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи-Ғулом Каримий-Т.: Ўзбекистон. 2011. – Б. 51-52 (keying o'rinlarda – Натанзий . Мунтахаб ут-таворихи Муиний).; Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сийар фи ахбори афроди башар / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари – Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов, Изоҳлар муаллифлари – Ашраф Аҳмедов, Исмоил Бекжонов, – Т.: Ўзбекистон, 2013. – Б. 39 (keying o'rinlarda – Хондамир. Ҳабиб ус-сийар).

[153] Шомий. Зафарнома. – Б.28.

[154] Яздий. Зафарнома. – Б. 60

[155] Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. – Б. 50.

Hokimiyat uchun kurashni Murodxon va Abdullalar boshlab berishdi. 1361-yilda esa Oltin O‘rda taxti kelib chiqishi Oq O‘rdalik bo‘lgan Xizrxon tomonidan egallandi. Uning bir yilga yaqin davom etgan davlat rahbari sifatidagi faoliyati boshqa taxt da’vogarlarini qo‘llab quvvatlagan yirik amirlarning xiyonati sababli fojeali tugallandi. Hokimiyat esa uning o‘g‘li Temurxo‘ja qo‘liga o‘tdi. Lekin bir necha kun o‘tgach taxtning yangi sohibi oltin o‘rdalik yirik amirlardan Mamay boshchiligidagi siyosiy guruh tomonidan hokimiyatdan chetlashtirildi va ko‘p o‘tmay o‘ldirildi. Bu esa ikkiga bo‘lingan Jo‘ji ulusining G‘arbiy qismi bo‘lgan Oltin O‘rdaning ham yanada mayda qismlarga bo‘linib ketashiga olib keldi.

Mamayning faoliyati Jo‘ji ulusi xonlarning mavqeyi bir muncha pasayib, yirik amirlarning nufuzi ortib borayotganligini ko‘rsatadi. Temirxo‘janing taxtdan tushurilishi natijasida hokimiyat amalda xonlardan yirik amirlardan biri Mamay qo‘liga o‘tdi. Bu esa Chingizxon avlodlariga ma’qul emas edi. Oltin O‘rda taxt uchun shiddatli kurashlar domiga tortildi. Natijada Mamayning kuchayishidan cho‘chigan boshqa yirik amirlar Murodxonni qo‘llab quvvatladilar. Natijada Mamay Oltin O‘rdaning g‘arbiy qismiga chekindi va u yerda Chingizxon avlodidan bo‘lgan Abdullani xonlik taxtiga o‘tirgizdi. Shunday qilib, Murodxon va Abdullaxon o‘rtasida taxt uchun o‘zaro urush boshlandi.

Mashhur tarixchi olim B.Ahmedovning ta’kidlashicha, 1362-yilda oltin o‘rdalik yirik amirlardan Buloq Temur Bulg‘or va Volga daryosi bo‘yidagi talaygina shaharlarni o‘ziga qaratib olgan. To‘rg‘oy ismli yana bir yirik amir esa Moksha daryosi atrofidagi erlarda hukmron bo‘lib qoldi.

Uzoq davom etgan o‘zaro urushlar natijasida o‘nlab xonlar taxtga kelib ketdi. Lekin, oxir-oqibat Oltin O‘rdada yana Mamayning ta’siri kuchayib bordi. Mamay ham kutilmaganda uning 1380-yili Kulikovo jangida rus qo‘shinlaridan mag‘lubiyatga uchrashi bu vaqtda Oq O‘rda hokimiyatini o‘z qo‘liga kiritib olgan To‘xtamishxonga katta imkoniyatlar taqdim etdi. 1380-yili Jo‘ji ulusi yana yagona davlatga birlashdi va Yevroosiyo hududidagi eng kuchli, qudratli davlatga aylandi.

***XIV asr o‘rtalarida Eron va Old Osiyo***

1256-1336-yillar ichida Eron va Old Osiyoning katta qismi Elxoniylar (Halokuxon avlodlari) davlati hukmronligi ostida edi. Bu davlatga Chingizxonning nabirasi Halokuxon (1256-1265) asos solgan. Merosxo‘r farzandi bo‘lmagan Sulton Abu Sa’idxon vafotidan (1335-yil) keyin Elxoniylar davlati parchalanib ketdi. Uning o‘rnida biri-biriga yov bo‘lgan mayda-mayda davlatlar vujudga keldi. Masalan, Xurosonda Sarbadorlar davlati (1337-1381-yillar, markazi Sabzavor shaxri), Iroq, Qurdiston va janubiy Ozarbayjonda Jaloyiriylar davlati (1336-1432), Janubiy Eronda Muzaffariylar davlati (1314-1393), Iroqi Ajam va Ozarbayjonning bir qismida Cho‘poniylar davlati (1336-1356), Diyorbakr, Sharqiy Onado‘li va Janubiy Ozarbayjonning bir qismida Oq qo‘yunlu davlati (1378-1508) va, nihoyat, Iroqi Arab bilan G‘arbiy Ozarbayjonda Qora qo‘yunlu davlati (1378-1508) davlatlari paydo bo‘ldi. Ko‘rinib turibdiki, bu hududda ham ayni shu davrda yagona davlat mavjud emas edi. Davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar xalqning ahvolini tabora og‘irlashtirib borayotgan edi.

Salib yurishlari davrida Qichik Osiyoda Rum sultonligi nomi ostida yashagan saljuq turklari davlati XIII asr boshlariga kelib 10 ta amirlikka bo‘linib

ketdi. O‘g‘uz turklari qabilalarining O‘rta Osiyodan Kichik Osiyoga ko‘chib kelishi va ularning XIII asr o‘rtalaridayoq mahalliy saljuq turklari bilan aralashib ketishi natijasida Kichik Osiyoda ko‘p o‘tmay yangi davlat shakllana boshladi. Yangi davlatning asoschilaridan biri Erto‘g‘rul o‘g‘uz turklarining rahbari bo‘lib, Vizantiyaga qo‘shni bo‘lgan kichik beklikning egasi edi. Erto‘g‘rulning o‘g‘li va taxt vorisi Usmon (1282-1326) Vizantiyaga qarshi urush boshlab, uning Kichik Osiyodagi mulklarining ko‘pchiligini egallab oldi. Uning eng katta g‘alabasi shubhasiz, Bursa shaharini ham qo‘lga kiritganligi edi. Bursa shaharini Usmon o‘zining poytaxti qilib oldi. Kichik Osiyoda unga raqobat qiladigan yirik amirliklar ham unga birin-ketin bo‘ysundilar. Ularni birgalikda Vizantiya erlarini istilo qilish ishtiyoqi ham birlashtirgan edi, aslida. Vizantiya imperiyasining kuchsizligi, Bolqon yarim orolida yirik siyosiy kuchning mavjud emasligi Usmon turklarining XIV asrda dastlab Kichik Osiyoda, so‘ngra Yevropaning janubiy sharqida g‘olibona urushlar olib borishiga imkon yaratdi. Amir Temur taxt uchun kurash olib borayotgan vaqtda usmonli turklar Bolqon yarim orolidagi o‘z hududlarini tabora kengaytirish bilan mashg‘ul edilar.

Bu vaqtda Misrda mamluklar sultonligi hukm surar edi. Bu sultonlik hududlari Misrdan tashqari Falastin, Finikiya, Sinay yarim oroli va Suriyani o‘z ichiga olgandi. Misr davlati Suriya uchun kurashlarda Holukular davlatini mag‘lub eta olganligi ham bu davlatning qudratidan darak berar edi. Misr hukmdorlari Holukular davlatining ashaddiy dushmani bo‘lgan boshqa bir mo‘g‘ul davlati Oltin O‘rda bilan ittifoqchilik aloqalarini olib borishga intilganlar. Chunki Holukular yoki elxoniylar davlati Suriya masalasida Misr bilan Ozarbayjon masalasida Oltin O‘rda bilan raqobatlashar edi. Elxoniylar Suriyani o‘z qo‘llarida saqlab qola olmagan bo‘lsalarda, Ozarbayjonni Oltin O‘rda qo‘liga o‘tishiga yo‘l qo‘ymadilar.

### *Amir Temur saltanatining tashkil topishi arafasida Xitoy va Hindiston*

XIV asrda Dehli sultonligi hudud jihatdan Hindistondagi eng katta davlat hisoblansada, tabora kuchsizlanib borayotgan edi. Amir Temurning zamondoshi bo‘lgan Hind sultoni Feruzshoh davrida sultonlik o‘z vassallarining isyonlarini bo‘ysundirib turishgagina qudrati bazo‘r etayotgan davlat edi. Natijada Hindistonda juda ko‘p musulmon va hind feodal davlatlari bir-birlari bilan uzluksiz kurash olib borardilar. 50 va 60-yillar davomida Dehli Sultonining vassal rojalar bilan olib borgan urushlari natijasida Bengaliya, Sind, Orissa va Gujarat viloyatlari g‘oyat xonavayron bo‘lgan edi. To‘xtovsiz ichki feodal urushlari Dehli sultonligi tanazzulining asosiy sabablari bo‘ldi. 70-80-yillarda Dehli sultoni o‘z qo‘lida qolgan ozgina erlarni ham himoya qilishga qodir emasdi.

XIV asrda Xitoyda mo‘g‘ul imperatoriga qarshi saroyda bir necha marta fitna uyushtirildi. Aholining kengroq doiralari o‘rtasida o‘z oldiga mamlakatni chet eldan kelgan hukmronlardan ozod qilishni maqsad qilib qo‘ygan milliy tashkilotlar tuzildi. 1351-yilda Xenan va Shandun viloyatlarida “Oq nilufar” degan ittifoq tomonidan tayyorlangan “qizil peshanabog‘lilar” qo‘zg‘oloni boshlandi. 1356-yilda “qizil peshanabog‘lilar” mo‘g‘ul sulolasining poytaxti bo‘lgan Yanszin (Pekin) shahrini tahdid ostida qoldirdilar. XIV asrning 60-yillarida Xitoy

viloyatlarnning ko‘pchiligida mo‘g‘ullarga qarshi qo‘zg‘olonlar bo‘ldi. Milliy harakatni ishga soluvchi asosiy kuch dshqonlar bo‘ldi. Qo‘zg‘olonchi dehqon armiyasining rahbarlaridan Chju Yuan-chjan imperator deb e’lon qilindi (1369-yil). U ta’sis qilgan yangi dinastiya Min dinastiyasi deb ataladigan bo‘ldi. Bu dinastiya 1368-yildan to 1644-yilgacha Xitoyni idora qildi. Bu sulola dastlab Nankin shahrini o‘ziga poytaxt qilib oldi, lekin ko‘p o‘tmay (mo‘g‘ullar davridagi kabi) markaz yana Yanszin shahriga ko‘chiriladi, bu shahar endi Pekin degan yangi rasmiy nom oldi.

O‘z ichki ahvolini mustahkamlab olgan sulola yangi erlar bosib olish hamda Xitoyning tashqi bozorlarini kengaytirish maqsadida istilochilik yurishi uyushtirdi. Chju Yuan-chjan zamonidayoq Koreya bilan Tibet Xitoy imperatori hukmronligi ostida edi. Uning vorislari Annamni istilo qildilar va Indoneziyaga, Hindi-Xitoyga, Malakkaga harbiy ekspedisiyalar yubordilar. Bu mamlakatlardagi kichikroq hokimlarning bir qismi Xitoy imperatorining oliy hokimiyatini tan oldi. Xitoylar Indoneziya bilan Hindi-Xitoyga ko‘plab ko‘chib bora boshladilar. Min hukumati Hindi-Xitoy, Indoneziya, Hindiston va hatto Sharqiy Afrika qirg‘oqlariga sistematik tarzda yirik harbiy dengiz ekspedisiyalarini yuborib turdi. Admiral Chjen-Xe boshchiligidagi 1403-1433-yillar mobaynida yuborilgan yettita dengiz yurishlari ayniqsa katta bo‘lgan edi. Xitoy imperatorlari o‘z hududlarini g‘arb tomonga ham kengaytiririb borishga intilishlari keyinchalik Amir Temur davlati bilan to‘qnash kelishlariga olib kelishi mumkin edi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni alohida ta’kidlash mumkinki, Chig‘atoy ulusi parchalanib, uning o‘rnida Movarounnahr va Mo‘g‘uliston (Dug‘lat) amirliklari paydo bo‘ldi. Mo‘g‘uliston hukmdori To‘g‘luq Temur Chig‘atoy ulusini tiklash niqobi ostida Movarounnahrni bosib olishga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Eron o‘zaro nizolashayotgan bir qator davlatlarning urushlari natijasida tabora vayron bo‘lib borayotgan edi. Xuddi shu holatni Hindiston va Oltin O‘rda davlatlarida ham kuzatishimiz mumkin edi. Lekin, Oltin O‘rda To‘xtamish davrida o‘z qaddini qayta tiklab yana o‘z davrining buyuk davlatlaridan biriga aylandi. Amir Temur davlati paydo bo‘layotgan davrda Kichik Osiyoda Usmonli turklar davlati, Misrda mamluklar sultonligi, Xitoyda esa Min sulolasi o‘z hududlarini kengaytirib yangi buyuk davlatga asos solayotgan edilar. Keyinchalik, bu davlatlardan Oltin O‘rda, Usmonli turklar, Misr mamluklari davlatlari Amir Temur davlati bilan jiddiy to‘qnashdilar. Xitoy bilan boshlangan nizolar esa Amir Temur vafoti tufayligina jiddiy to‘qnashuv darajasiga yetib bormadi.

***Ta’lim texnologiyalari:*** *Klaster usuli, Venn diagrammasi, muammoli ta’lim, vizual materiallar, blits-so‘rov.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar:***

*1. Chig‘atoy ulusi nima uchun ikki qismga bo‘linib ketdi?*

*2. Qozonxon davrida mahalliy amirlarning siyosiy mavqeyini oshib ketishiga olib kelgan omillar nimalardan iborat edi?*

*3. XIV asrning o‘rtalarida Jo‘ji ulusida ham siyosiy tanazzul boshlanganligi nimalarda namoyon bo‘ladi?*

*4. Oltin O‘rda va Hulakular davlatlari o‘rtasida qaysi hudud bo‘yicha uzoq vaqt kurash olib borilgan?*

*5. Hulakular davlatining inqirozi natijasida Eron hududida qanday davlatlar vujudga keldi?*

*6. Xitoy hamda Hindistondagi siyosiy jarayonlarning bir-biriga o'xshash hamda farqli jihatlari nimalardan iborat edi?*

*7. Usmonli turklar va Misrda markazlashgan davlat tuzish uchun qanday harakatlar amalga oshirilgan?*

*8. XIV asrning yarmigacha bo'lgan vaqtda Movarounnahr, Oltin O'rda hududlarida mo'g'ul xonlarining mavqeyi zaiflashishiga qanday omillar sababchi bo'ldi?*

## MAVZU: MOVAROUNNAHRDA MARKAZLASHGAN DAVLATNING TASHKIL TOPISHI.

### Reja:

*1. Mo'g'uliston hukmdorlarining bosqinchilik yurishlari. Ozodlik uchun kurash.*
*2. Sarbadorlar harakati.*
*3. Amir Temur tomonidan Movarounnahrning birlashtirilishi. Farg'ona vodiysi va Xorazm uchun kurash.*

***Kalit so'zlar**: Movarounnahr, Amir Temur, Sarbadorlar harakati, amir Junayd Bobur mirzo, amir Shamsiddinbek, 1370-yil, amir Zindachashm, Tobon Bahodur, amir Malik, amir Hamdi, Mavlonozoda Samarqandiy, Muiniddin Natanziy, Mavlono Xo'rdakiy Buxoriy, Amir Jakubek, amir Sayfiddin, O'ljoy Turkon og'a, Amir Musabek, amir Sher Bahrom, Bahrom jaloyir, Malik Husayn, Suyurg'atmishxon, Urusxon, Qamariddin, Odilshoh jaloyir, amir Sari Bug'a, Umarshayx mirzo, Anqoto'ra, Husayn So'fi, Xonzoda begim, amir Muhammad, Amir Ishoq, L.A.Zimin, Jalovatiy, Yusuf So'fiy, Sulaymon So'fi, V.V. Bartold, A.Y. Yakubovskiy, 1372-yil, 1376-yil.*

***Mo'g'uliston hukmdorlarining bosqinchilik yurishlari. Ozodlik uchun kurash***

Movarounnahrda hokimiyat Amir Qazag'an qo'liga o'tgan vaqtda Yettisuv va Sharqiy Turkistonda dug'lat amirlarining ta'siri kuchayib borayotgan edi. "Dug'lat" mo'g'ulcha so'z bo'lib, cho'loq degan ma'noni bildiradi. Dug'lat qabilasiga Oqsuv shahri atroflari Chingizxon tomonidan in'om etilgan bo'lib, bu ulus "Manglay suba" (oftob, oftobga qaragan o'lka) deb atalgan. Dug'latlardan chiqqan birinchi mashhur davlat arbobi Amir Boydarxondir. U Chig'atoy xonlaridan Qaydu, Duva Chechanxonlar davrida katta obro'ga ega bo'lgan. Bu davrda unga tegishli ulusning hududi kengayib, Oqsuv, Koshg'ar, Xo'tan, Yorkend, Koson, Axsikat, Andijon, Otboshi, Kavsan shaharlari ham dug'lat amirlari tasarrufiga o'tgan edi. Biz tadqiq etayotgan davrda Farg'ona vodiysi shaharlari dug'lat amirlari ta'sirida bo'lmasada, ularning Yettisuv va Sharqiy Turkistonda ta'siri juda kuchli edi. Movarounnahrda vaziyatda unumli foydalangan Boydarxonning o'g'li Po'lodchi 1348-yili Eson Buqaxonning o'g'li Tug'luq Temurxonni xon deb e'lon qildi. Natijada, Chig'atoy ulusidan ajralib chiqqan Mo'g'uliston davlatiga asos solindi.

Tug'luq Temurxon va Amir Po'lodchi Mo'g'ulistonda o'z hokimiyatlarini mustahkamlab olganlaridan so'ng Movarounnahrni ham zabt etishga harakat qila boshladilar. Movarounnahrda vaziyat ham buning uchun juda qulay edi.

1360-yili Tug‘luq Temurxon katta qo‘shin bilan Movarounnahrga yurish boshladi. U o‘z amirlaridan Ulug‘ Temur, Hojibek va Bekkichiklarni ilg‘or sifatida yubordi. Bu uch amir Sirdaryodan o‘tishi bilan Xo‘jand hokimi Boyazid Jaloyir jangsiz taslim bo‘ldi. Amir Bayon sulduz ham o‘z viloyatini himoya qilish o‘rniga Hisor tomonga chekindi. Kesh hokimi Hoji Barlos esa dastlab qo‘shin yig‘ib, jangga kirmoqchi edi, lekin dushmanning ulkan lashkariga bas kelish qiyinligini anglagan holda Xurosonga chekinishga qaror qildi. Shu o‘rinda Hoji Barlos va Amir Temur munosabatlariga ham to‘xtalib o‘tsak. Hozirgi kunda mavjud ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar hamda darsliklarda Hoji Barlos Amir Temurning amakisi ekanligi ta’kidlanadi. V.V. Bartoldning yozishicha, “Zafarnoma” muallifi Nizomiddin Shomiy Hojini Temurning amakisi deb ataydi, lekin bu ifodani aftidan faqat bir urug‘ga tegishlilik mazmunida tushunish lozimdir, xuddi shunday mazmunda yana bir necha barlos harbiy boshliqlarini Temurning akalari, deb ataganlar[156]. Bu satrlar orqali V.V. Bartold Hoji Barlosni Temurning amakisi emas, balki barlos qabilasining boshqa harbiy boshliqlari kabi bir urug‘ga mansublik darajasida qarindosh bo‘lgan, degan fikr bildirmoqchi bo‘ladi. Muallifning bu fikri o‘z vaqtida R. Nabiyev tomonidan tanqid qilingan[157]. Lekin tarixiy manbalarni o‘rganish chog‘ida V.V. Bartoldning fikrlarida asos borligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Bu masala haqida Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida ikki xil ma’lumot mavjud. Sharafuddin Ali Yazdiy esa Hoji Barlos Temurning amakisi bo‘lganligi xususida quyidagicha yozadi: “Ota ketgan, amaki qochib qolgan. Begonadan o‘lka parishon bo‘lgan”[158].

Asarning boshqa joyida Hoji Barlos shajarasi ham keltirilgan: “Amir Hoji Barlos ibn Bo‘rilg‘iy ibn Namvala ibn Yisu-Munko ibn Qorachor no‘yon”[159]. Xuddi shu asarning, sharqshunos olim O.Bo‘riyev tomonidan nashr ettirilgan “Amir Temur ajdodlari” nomli muqaddima qismida Amir Temur shajarasi quyidagicha berilgan: “Temur Ko‘ragon ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Burkul ibn Ilangiz-bahodir ibn Iyjil no‘yon ibn Qorachor no‘yon”[160]. Sohibqironning nabirasi Mirzo Ulug‘bek esa o‘zining “To‘rt ulus tarixi” asarida bobosi shajarasini: “Amir Temur Ko‘ragon ibn Amir Tarag‘ay Amir Berkli Ibn Amir Alangiz no‘yon ibn Amir Ejil no‘yon barlos ibn Qorachor barlos” deb yozgan bo‘lsa,[161] Amir Hoji barlosni “Yeso Munko Ibn Qorachor nuyon avlodi” deb ma’lumot beradi[162]. Bu haqida Xofizi Abru yanada aniq ma’lumotlar keltirgan. Uning asarida ham Amir Temur va Hoji Barlos shajarasi faqat Qorachor no‘yonda birlashishi bayon qilingan bo‘lib, Sohibqironning amakisi Amir Balta ekanligi ta’kidlangan[163].

[156] Бартолд В.В. Сочинения. Т. 2. Ч. 2. – М.: Наука, 1964. – С. 39.
[157] Набиев Р.Н. XIV асрда Ўрта Осиёда сарбадорлар қўзғолони. – Т. Ўзфаннашр, 1942. – Б. 35.
[158] Яздий. Зафарнома. – Б. 65.
[159] Йаздий. Зафарнома. – Б. 59.
[160] Амир Темур аждодлари. (Шарафиддин Али Яздий “Зафарнома”сида терма таржима) форс тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳлар муаллифи О. Бўриев. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1992. – Б. 31.
[161] Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Форс тилидан Б. Аҳмедов, Н. Норкулов, М. Хасанийлар таржимаси. – Т.: Чўлпон, 1994. – Б. 324.
[162] Мирзо Улуғбек. O‘sha asar. – Б. 322.
[163] Хофизи Абру. Зубдат ут-таворих. О.Бўриев таржимаси // Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида –Т.:Ўқитувчи, 1996. – Б. 299-307.

Boshqa tarixiy manbalar va “Zafarnoma” ning boshqa nashrlarida ismlar o‘qilishida bir oz farq bo‘lsa-da, shajaralar deyarli shunday berilgan. Ko‘rinib turibdiki, aslida Amir Hoji Barlos Amir Temurning amakisi bo‘lmay, ularning shajarasi faqat beshinchi ajdodlari Amir Qorachor no‘yonda birlashadi. Demak, V.V. Bartold Amir Hoji Barlosni Temurning amakisi emas, deb bu masalaga aniqlik kiritadi. Shajarasi Amir Temur bilan Qorachor no‘yon birlashadigan amirlar qatoriga Jaku Barlos, Chug‘am Barlos kabilarni ham kiritish mumkin[164].

Bevosita Amir Temur va Hoji Barloslarning o‘zaro munosabatlariga to‘xtalib, shuni aytish mumkinki, tarixiy manbalarda qabiladosh bo‘lgan bu amirlarning aloqalari qachon boshlanganligi haqida ma’lumotlar uchramaydi. Lekin Amir Temur Movarounnahr hukmdori Amir Qazog‘onning kuyovi ekanligini hisobga olsak, hukmdor vafotiga ya’ni 1358-yilga qadar uning xizmatida bo‘lganligini taxmin qilishimiz mumkin.

Amir Qazog‘on o‘ldirilgach merosxo‘r sifatida hokimiyatni egallagan Amir Abdulloh aynan Amir Hoji Barlos va uning ittifoqchisi Bayon sulduz tomonidan tor-mor keltirilganligini yuыorida ta’kidladik. Aftidan bu janglarda Amir Temur qatnashmagan bo‘lsa kerak. Chunki tarixiy manbalarda bu xususida hech narsa deyilmaydi. Amir Abdulloh o‘ldirilgach, Movarounnahr mayda bekliklarga bo‘linib ketadi va Hoji Barlos Kesh va Qarshining mustaqil hokimiga aylanadi. Faqat shundan so‘ng Amir Temur Hoji Barlos huzuriga kelgan bo‘lishi mumkin. Har holda 1360-yili Mo‘g‘uliston hukmdori To‘g‘luq Temurxon Movarounnahrga bostirib kelganda u Hoji Barlos bilan birga edi.

Bu vaqtda Movarounnahr hokimlari To‘g‘luq Temurxonga qarshi birlasha olmadilar va har tomonga qocha boshladilar. Hoji Barlos ham dushman yetib kelmasdan oldinoq Xurosonga jo‘nashni ma’qul topadi. Lekin Amir Temur Hoji Barlosdan farqli o‘laroq, yurtni o‘z holiga tashlab ketishga ko‘nmaydi. Sohibqironning maqsadlari Amir Hoji Barlosga aytgan quyidagi so‘zlarida ham namoyon bo‘ladi: “Agar mamlakat hokimsiz qolur bo‘lsa, uning avzoyiga so‘zsiz ko‘p zahmat etgay, el va ulus ersa, g‘animlar qahri va bosqinchiligi ziyonidan butunlay xonavayron bo‘lgay.... Men Kesh tarafga qaytsam, ulusga taskin berib, ul erdan xon xizmatiga o‘tsam, amirlar va arkoni davlat bilan ko‘rishsam toki viloyat xarob bo‘lmasin”[165]. Shunday qilib, dahshatli yov qarshisida ozgina askari bilan bir o‘zi qolgan, endigina 25 yoshga kirgan Amir Temur mo‘g‘ul lashkariga yo‘l boshlovchilik qilib kelayotgan Hoji Muhammadshoh Yassavuriy, so‘ngra Bekijak (Bekkichik) va To‘q Temur bilan muzokara olib bordi. Ularni yurtni talash fikridan qaytardi, buning evaziga esa To‘g‘luq Temurxon xizmatiga kirishga majbur bo‘ldi. Natijada xon Kesh viloyatini boshqarishni Amir Temurga topshirdi. Amir Temurning bu xatti-harakati viloyatni talon-taroj dan asrash va uni barlos qabilasining qo‘lida saqlab qolishning birdan-bir yo‘li bo‘lib, Amir Temur diplomatiyasining yutug‘i edi. Uning o‘zi ham keyinchalik bu voqeani “Temur tuzuklari” asarida yodga olarkan, puxta o‘ylangan reja, yuz ming kishilik qo‘shindan kuchli, deb baholagan edi.

[164] Йаздий. Зафарнома. – Б. 23-25.
[165] Йаздий. Зафарнома. – Б. 65-66.

Bu orada Movarounnahrdagi mo‘g‘ul beklari orasida ixtilof yuz berib, ular Toshkent viloyatida turgan Tug‘luq Temurxon huzuriga qaytdilar. Mazkur ixtilof natijasida Mo‘g‘ulistondagi siyosiy vaziyat keskinlashganligi sababli xon ko‘p o‘tmay ortga qaytishga majbur bo‘ldi. Mo‘g‘ul amirlari o‘rtasida kelib chiqqan nizo natijasida Jeta lashkari ortga qaytgach, Movarounnahr amirlari yana o‘z viloyatlarini erkin boshqara boshlaydilar. Amir Boyazid jaloyir mo‘g‘ullardan ajrab chiqib, Amir Temur va Xizr Yasovuriyga kelib qo‘shildi. 1360-yilning yoziga kelib, mo‘g‘ul bosqini xavfining keskin kamayishi Movarounnahr amirlari o‘rtasida o‘zaro urushlarning boshlanishiga sabab bo‘ldi. Amir Husayn Bayon sulduzga qarshi kurashish uchun Temur, Boyazid jaloyir va Xizr Yasovuriydan ko‘mak so‘raydi. Fasih Xavofiy Amir Husayn Bayon sulduzga qarshi kurashda Amir Temur va Xizr Yasovuriydan[166], Xondamir esa Amir Temur va Boyazid jaloyirdan yordam so‘ralganligini qayd etadi[167]. Amirlar o‘zaro kelishib, Boyazid jaloyir mo‘g‘ul qo‘shinini kuzatib turish uchun Xo‘jandga qaytishini, qolgan ikki amir esa Husaynga yordamga borishlarini ma’qul ko‘rgan[168]. Chindan ham Tug‘luq Temurxon katta lashkar bilan Xo‘jand yaqinida turgan vaqtda Boyazid jaloyirni o‘ziga qarashli hududda bo‘lishi har jihatdan to‘g‘ri edi. Nizomiddin Shomiy amir Boyazid jaloyir Tug‘luq Temurxonga shaxsan uchrashish maqsadida yo‘lga chiqqanligini ta’kidlaydi[169]. Lekin Boyazid jaloyir Xo‘jandga yetib kelgan paytda mo‘g‘ul amirlari o‘rtasidagi nizo kuchayib, To‘g‘luq Temurxon Mo‘g‘ulistonga qaytib ketgan edi.

1360-yilning yozi va kuzida bo‘lib o‘tgan voqealar amir Boyazid jaloyirning Movarounnahrdagi mavqeini o‘sishiga sabab bo‘ldi. Sulduz qabilasi amirlaridan biri Tug‘luq sulduz amir Husaynga qarshi isyon ko‘tardi. Amir Husayn bu gal Tug‘luq sulduzga qarshi kurashda yana Amir Temur va Xizr Yasovuriydan yordam so‘radi. Sharafuddin Ali Yazdiy Amir Temur Xizr Yasovuriy va Boyazid jaloyirga ushbu voqea to‘g‘risida xabar berganligini, Xizr Yasovuriy yordamga yetib kelganligini ta’kidlaydi[170]. Nizomiddin Shomiy esa Tug‘luq sulduzning isyoni masalasida amir Boyazid haqida umuman so‘z yuritmagan[171]. Bu borada Muiniddin Natanziyning ma’lumotlari ahamiyatlidir. U Tug‘luq sulduz Boyazid jaloyir bilan til biriktirib, amir Husaynga qarshi isyon ko‘targanligini ta’kidlaydi[172]. Voqealar tahlili muarrixning ma’lumotlari tarixiy haqiqatga yaqinligini ko‘rsatadi. Sharafuddin Ali Yazdiy Amir Temur tomonidan xabar berilgan bo‘lsa ham amir Boyazid bu nizoga aralashmaganligini ta’kidlaydi. Aksincha, u Movarounnahrga qaytgan Hoji barlos bilan ittifoq tuzdi va Tug‘luq sulduzga qarshi qo‘shin tortgan Xizr Yasovuriy mulklariga hujum qilishni rejalashtirdi. Hoji barlos amir Boyazidning yordamida o‘z lashkarini qayta tuzishga erishdi. Garchi Natanziy bu ikki amir tomonidan amir Husaynga qarshi

---

[166] Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / Пер. предис. примеч. и указатели Д. Ю. Юсуповой. – Т.: Фан, 1980. – С. 89. (keying o‘rinlarda – Хавафи. Муджмал-и Фасихи)
[167] Хондамир. Ҳабиб ус-сийар. – Б. 40.
[168] Яздий. Зафарнома. – Б. 62-63.
[169] Шомий. Зафарнома. – Б. 30.
[170] Яздий. Зафарнома. – Б. 71-72.
[171] Шомий. Зафарнома. – Б. 31.
[172] Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. – Б. 54.

yurish qilganligi qayd etilsa-da[173], aslida ular Husaynning ittifoqchisi bo‘lgan Xizr Yasovuriyga qarshi yurish boshlagan edilar[174]. Hoji Barlosning asl niyati Boyazid yordamida Kesh viloyatini Amir Temurdan qaytarib olish bo‘lsa, Boyazidning maqsadi Samarqand shahrini egallash edi. Samarqand hokimi Bayon sulduz Mo‘g‘uliston xoni To‘g‘luq Temurxon qo‘shinidan qo‘rqib, Hisorga qochgan, keyinchalik esa Husayn bilan o‘rtalarida nizo chiqib, Husaynning ittifoqdoshlari Xizr Yasovuriy va Amir Temur tomonidan tor-mor keltirilgan. Natijada Samarqand atrofi to‘liq Xizr Yasovuriyning tasarrufiga o‘tgan. Boyazid jaloyir Tug‘luq sulduzning amir Husaynga qarshi ko‘targan isyonidan foydalanib, amir Husaynning ittifoqdoshi Xizr Yasovuriy mulklarini qo‘lga kiritadi.

Kesh yaqinidagi Oq Yorda amir Temur va Xizr qo‘shinlari tomonidan mag‘lub etilgan Hoji barlos amir Boyazid huzuriga qochib borgan. Uni ta’qib etib Samarqanga yaqinlashayotgan Amir Temur qo‘shini kutilmaganda parokandalikka uchraydi. Uning xizmatidagi navkarlar birin-ketin Hoji barlos lashkari safiga borib qo‘shiladi. Natijada Amir Temur va Xizr Yasovuriy o‘rtasida ishonchsizlik paydo bo‘lgan. Shundan so‘ng Amir Temur ham Boyazid va Hoji barlosga borib qo‘shilishga majbur bo‘ldi. Oxir-oqibat Xizr Yasovuriy mag‘lubiyatga uchraydi va Kesh viloyati Hoji barlosga boshqaruviga qaytgan.

Sharafuddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiy ushbu voqealardan so‘ng amir Boyazid jaloyirning hukumat taxtiga o‘tirganligini ta’kidlaydi[175]. Bu aslida mubolag‘a bo‘lsa-da, amir Boyazidning nufuzi bir muncha oshganligini ko‘rsatadi. Muiniddin Natanziy uni “Jand mamolikida xuddi ulug‘ amirlardek (mustaqil) hukmdor bo‘ldi”, – deb yozadi[176]. G‘ulom Karimiyning fikricha, Natanziy Jand haqida so‘z yuritganida Xo‘jand shahrini nazarda tutgan. Bu ham uning aslida Xo‘jandda qolganligini ko‘rsatadi. Manbalardagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ushbu voqealardan so‘ng amir Boyazid jaloyirning Movarounnahrdagi ta’siri kuchaygan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, uning ta’siri faqat Movarounnahrning sharqiy hududlarda e’tirof etilgan bo‘lib, markaziy va janubiy viloyatlarda amir Husaynning mavqeyi kuchli edi.

Hoji Barlosning hokimligi uzoq davom etmaydi. 1361-yili To‘g‘luq Temurxon yana Movarounnahrga qo‘shin tortadi va Hoji Barlos Xurosonga qochishga majbur bo‘ladi. Xurosonda esa Juvayn bo‘lukining Xurosha nomli joyida bir guruh kishilar tomonidan Hoji Barlos hamrohlari bilan birgalikda o‘ldiriladi. Garchi ma’lum muddat o‘rtada dushmanlik munosabati bo‘lgan bo‘lsa-da, keyinchalik Amir Temur Hoji Barlos qotillarini jazolaydi va Xurosha erlarini uning avlodlariga suyurg‘ol qilib beradi.

Ikkinchi marta Movarounnahrni zabt etgan Tug‘luq Temurxon ko‘pgina Movarounnah amirlarini qatl etdi. Bular ichida Movarounnahrning shu paytdagi eng kuchli amirlaridan Amir Bayon Sulduz va Boyazid Jaloyirlar ham bor edi. Amir Temur Tug‘luq Temurxonning yirik amirlaridan Hamidbekning (bu amir Sohibqironning otasi bu vaqtda marhum amir Tarag‘ayning do‘sti edi) yordami

[173] Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. – Б. 54.
[174] Яздий. Зафарнома. – Б. 72-73; Шомий. Зафарнома. – Б. 31.
[175] Йаздий. Зафарнома. – Б. 24; Шомий. Зафарнома. – Б. 31.
[176] Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. – Б. 54.

bilan yana xon xizmatiga kirdi. Xon Kesh viloyatini yana Amir Temurga taqdim etarkan, bu bilan Movarounnahrning boshqa amirlarini ham oʻz tomoniga ogʻdirishni maqsad qilgan edi.

Amir Husayndan boshqa deyarli barcha amirlar Tugʻluq Temurxon xizmatiga kirdi. Bu vaqtda Amir Husayn Balx, Qunduz va Badaxshon viloyatlarini oʻz tasarrufiga kiritib olgan boʻlib, eng kuchli amirlardan biriga aylangan edi. Bobosi Amir Qazagʻan kabi hukmdor boʻlishni orzu qilgan Husayn Tugʻluq Temurxon bilan Vaxsh daryosi boʻyida jangga kirishdi, lekin toʻliq magʻlubiyatga uchradi. Kayxusrav Xuttaloniyning jangdan avval oʻz qoʻshinlari bilan moʻgʻullar tomoniga oʻtib ketishi Amir Husaynni toʻqnashuv boshlanmasdanoq qochib qolishiga olib keldi. Hindikush togʻlarigacha boʻlgan hududlarni zabt etgan Tugʻluq Temurxon 1361-yilning bahori va yozini shu yerlarda oʻtkazdi. Movarounnahrdagi asosiy raqiblarni yoʻqotgan xon bu yerni oʻgʻli Ilyosxoʻjaga topshirib, Bekkichikni ulusbegi lavozimiga tayin etib, oʻzi Moʻgʻulistonga qaytadi. Amalda hokimiyatni boshqargan Bekkichik barchaga zulm oʻtkaza boshlaydi. Natijada Movarounnahrda moʻgʻullar zulmidan norozilik yanada kuchaya boshlaydi. Vaziyatni tahlil etgan Amir Temur Kesh viloyati hokimligidan voz kechib ozodlik uchun kurash yoʻlini tanlaydi. Magʻlubiyatdan keyin sarson yurgan Amir Husaynga qoʻshilish uchun Movarounnahrni yashirincha tark etadi. Turkman choʻllarida Amir Temur va Amir Husayn oʻzaro uchrashib, ozodlik uchun kurash yoʻlida ittifoq tuzishadi. Ular dastlab Xiva hokimini Toʻkalning zarbasiga duch kelishdi. Ikki amirni Ilyosxoʻjaga topshirib obroʻ orttirishni maqsad qilgan Toʻkal ming kishilik qoʻshini bilan 60 kishilik ittifoqchilarga hujum qiladi. Jangning oxirida Toʻkalning askarlaridan 50 kishi, ittifoqchilardan esa 7 kishi omon qoladi. Toʻkalning oʻzi Amir Temurning komon oʻqidan yaralanganligi uchun ta’qibni toʻxtatishga majbur boʻladi. Lekin koʻp oʻtmay omon qolgan 7 kishidan uch nafari otlarni olib qochib ketadi. Natijada juda ogʻir ahvolda qolgan amirlar turkman begi Alibek Jonikurboniyning qoʻlida bir muddat asirlikda ham boʻlishadi. Asirlikdan Alibekning akasi Muhammadning yordamida xalos boʻlgan amirlar bir muddat yana ajrashishadi.

Amir Temur yashirincha Movarounnahrga qaytib bu yerda oʻziga tarafdorlar topishga harakat qiladi, soʻngra yana Xurosonga qaytib Amir Husaynga qoʻshiladi. Bu vaqtda bir muncha askar toʻplagan amirlarni Seyiston hokimi yordamga chaqiradi. Amirlar yordamida oʻz dushmanlarini Seyiston hokimi oʻz ahdiga vafo qilmadi. U yerdan qaytayotgan amirlarga seyistonliklar (Ali Yazdiyda mekronliklar, Shomiyda sagziylar, ya’ni seyistonliklar deyilgan) kutulmaganda hujum qiladilar. Jangda Amir Temur qoʻlidan yaralanadi. Amirlar Seyistondan Xurosonga qaytishga majbur boʻlishadi. Amir Temur davolanayotgan paytda 90 kishilik lashkar bilan Amir Husayn Movarounnahr hududlariga yaqinlashadi. Lekin Bekkichikning ukasi Ajuni rahbarligidagi moʻgʻul qoʻshini Amir Husaynn tor-mor keltiradi. 12 ta omon qolgan askari bilan Amir Husayn yana Temurga kelib qoʻshiladi.

Bu vaqtda Movarounahr aholisining katta qismi bosqinchilar zulmidan qochib Amudaryoning janubidagi erlarga toʻplanayotgan edi. Ittifoqchi amirlar ularni hamda Xurosondagi oʻz tarafdorlarini birlashtirib ozodlik uchun

kurashuvchi yangi lashkar tuzishga erishadilar. Balx shahri yaqinida bo‘lib o‘tgan dastlabki jangda amirlardan Abu Sa’id, Mangli Bug‘a va Haydarlar boshchiligidagi dushmanning 6 ming kishilik qo‘shini tor-mor keltirildi. Lekin bu vaqtda itifoqchi amirlar qo‘lida faqat mingga yaqin askar bor edi, xalos. Shuning uchun ular Movarounnahrga o‘tmay Toxoriston va Badaxshon viloyatlariga borib, qo‘shin to‘play boshlaydilar. Chunki, u yerda Movarounnahrdan qochib kelgan anchagina xalq yig‘ilib qolgan edi. Tez orada ozodlik kurashchilarining soni 6 ming kishiga etadi. Bu vaqtda Ilyosxoja 20 ming kishilik qo‘shin jo‘natib, ittifoqchi amirlarni yakson qilishga ahd qiladi. Bu qo‘shin Vaxsh vodiysida Jaloniydan (Yazdiyda Chala boshidan) Pulisangin (Toshko‘prik)gacha bo‘lgan hududga daryo yoqasi bo‘ylab joylashadi. Amir Husayn 6 ming kishilik lashardan saralangan ikki ming kishini Amir Temurga ajratib berib, uni mangloy tarzida dushman ustiga yuboradi. Sohibqiron boshchiligidagi lashkar choshgohdan kechgacha jang olib borib, dushman hamlalarini bartaraf etdi. Birinchi kungi jang yakuniga etgach Amir Temur amir Muso, amir Muayyad va Uchqaro bahodirni 500 kishi bilan Pulisangin boshida qoldirdi. O‘zi esa 1500 askar bilan Vaxsh daryosining yuqori oqimi bo‘ylab yurdi. Asin maydoni (Yazdiyda shunday, Natanziy Hasan maydoni, deb yozadi) va Rasankash guzari oralig‘ida yarim kechasi lashkari bilan daryodan kechib o‘tdi. Dushmanning ortiga o‘tib olgan ozodlik lashkarining tog‘lar ustida juda ko‘p gulxanlar yoqishi mo‘g‘ul lashkarini vahimaga soldi va ular o‘z joylarini tashlab qocha boshladilar.

Dushmanni tinimsiz ta’qib etgan Sohibqiron qo‘shinlari yana bir hiyla bilan Kesh shahrini ham bosqinchilardan ozod qiladilar. Bu voqealar 1364-yili bo‘layotgan edi. Shundan so‘ng Ilyosxo‘janing o‘zi katta lashkar bilan Kesh yaqinidagi Toshariq mavzeiga yetib keladi. Dastlabki g‘alabalardan ruhlangan juda ko‘pchilik Amir Temur va Husayn lashkariga kelib qo‘shiladi va Toshariq jangida mo‘g‘ul qo‘shini to‘liq yakson etiladi. Ilyosxojaxon esa Mo‘g‘ulistonga qaytib ketishga majbur bo‘ladi. Bu vaqtda Tug‘luq Temurxon vafot etgan bo‘lib, Ilyosxojaxon Mo‘g‘uliston xoniga aylanadi. Amir Husayn va Temur qurultoy chaqirishib, Chig‘atoy avlodidan Qobulshoh o‘g‘lonni xon etib tayinladilar. Shunday qilib, Movarounnahr amalda mo‘g‘ul bosqinchilaridan ozod bo‘lib, Amir Husayn va Temur hukmronligi ostiga o‘tadi. Lekin yirik amirlar o‘rtasida birlik va o‘zaro ishonch yo‘q edi. Misol uchun Amir Temur o‘z otasining do‘stlari bo‘lmish janglarda asir olingan Iskandar o‘g‘lon va Amir Hamidlarning gunohidan o‘tishni so‘radi. Garchi Amir Husayn ularni avf etgan bo‘lsa-da, Fasih Xavofiyning ma’lumot berishicha Qobulshoh farmoniga ko‘ra qatl etildilar. Aslida xon Amir Husayonning izmidan tashqariga chiqa olmas edi. Shuningdek, amirlardan Junayd ham Husaynning bo‘yrug‘iga ko‘ra qatl etildi. Bu holat esa yirik amirlarning ko‘pchiligini Amir Husaynga bo‘lgan ishonchlarini pasayishiga olib keldi.

Mo‘g‘ulistonda o‘z hokimiyatini mustahkamlab olishga erishgan Ilyosxo‘jaxon 1365-yilning bahorida yana Movarounnahrni o‘z mulkiga qo‘shib olish uchun katta qo‘shin bilan yurish boshladi.

Amir Husayn va Amir Temur boshchiligidagi katta qo‘shin dushmanni Movarounnahrning sharqiy chegaralaridayoq kutib olishga qaror qilishib, Toshkent tomon yo‘lga chiqadilar. Har ikki tomon lashkari Toshkent viloyati hududida

to‘qnashadi. “Loy jangi” nomi bilan mashhur bo‘lgan bu jang 1365-yilning 22-may kuni (Shomiyda iyun) Toshkent va Chinosning o‘rtasida daryo yaqinida bo‘lib o‘tgan. Jang boshlanishi arafasida qattiq yomg‘ir yog‘ib hammayoq loy bo‘lib ketganligi, jang loy maydonda olib borilganligi uchun “Loy jangi” deb nom olgan. O‘sha davr manbalarida yozilishicha mo‘g‘ullar “yada” toshi (o‘sha davr mualliflarining fikricha sehrli tosh, Bobur mirzo ham bu haqida to‘xtalib o‘tgan) yordamida kutilmaganda yomg‘ir yog‘dirganlar va unga tayyor bo‘lmagan Movarounnahr qo‘shini jangda katta qiyinchilikka duch kelgan.

Jangning birinchi kuniyoq Amir Temur askarlari mo‘g‘ullarning ulug‘ amiri Shingum No‘yon (yuqorida ta’kidlangan Amir Hamidning inisi) qo‘shinini tor-mor keltiradi, bu holni ko‘rib Ilyosxo‘ja ham chekinishga majbur bo‘ladi. Shundan so‘ng Amir Temur mo‘g‘ullarning Shamsiddinbek boshchiligidagi qo‘shinini ham qochishga majbur qiladi. Lekin bu vaqtda qo‘shinning Amir Husayn rahbarlik qilayotgan qismidagi Amir Tilonchi va Zindachashmlar mo‘g‘ul sarkardalari Shirovul va Hojibekdan mag‘lubiyatga urchab, Amir Husayn oldiga chekinadilar. Natijada mo‘g‘ul qo‘shini Amir Husayn boshchiligidagi askarlarni jang maydonidan surib chiqara boshlaydi. Aynan shu vaqtda Amir Temurning ketma-ket g‘alabalari haqida xabar yetib keladi va Amir Husayn o‘z qo‘shinining chekinishdan to‘xtatadi. Vaziyat shunday ediki, Amir Temur boshchiligidagi qo‘shinlarning oldinga siljigani, Amir Husayn askarlarining chekinishi natijasida ikki qo‘shin orasida rahna paydo bo‘lganligi uchun Amir Husayn qo‘shinlari ham tezda hujumga o‘tishi Amir Temur chekintirayotgan dushman kuchlari o‘zini o‘nglab olmasidan ularni to‘la tor-mor etish zarur edi.

Shuning uchun ham Amir Temur dastlab o‘z navkari Tobon Bahodurni Amir Husayn huzuriga jo‘natib tezda hujumga o‘tishini iltimos qildi. Lekin Husayn kelgan choparni kaltaklatib, qaytarib yubordi. Shundan so‘ng Amir Temur bosiqlik bilan Husaynning o‘z navkarlaridan bo‘lmish Malik va Hamdilar orqali o‘z iltimosini yetkazdi. Lekin Amir Husayn bu safar ham “Men qochibmanmi, men ilgari chorlaysiz, agar g‘olib bo‘lsangiz ham mening qasosimdan omon qolmaysiz” deya ularni ham noumid qaytardi. Bu vaqtda chekinayotgan mo‘g‘ul lashkari o‘z kuchlarini qayta jamlashga erishdi va qarshi hujumga o‘tib Movarounnahr qo‘shinini ikki tomonga ajratib yubora boshladi. Natijada Amir Temur ham jangni to‘xtatishga va avvalgi o‘rniga qaytishga majbur bo‘ldi.

Aslida mo‘g‘ullarning tez chekinishi harbiy hiyla edi. Lekin Amir Husayn ham o‘z vaqtida hujumga o‘tganida chekinayotgan dushman avvaldan rejalashtirilgani kabi ma’lum hududda qayta yig‘ilishga ulgurmagan bo‘lardi. Amir Husaynning noo‘rin g‘ururi tayyor g‘alabani qo‘ldan chiqishiga olib keldi.

Shu kuni tunda Amir Husayn Temurni bir necha marta o‘z huzuriga chorladi, lekin Amir Husayndan ko‘ngli qolgan sohibqiron uning chorlovlariga rad javobini berdi. Bir-biridan xafa bo‘lgan ikki sarkardaning qo‘shini ertangi kungi jangda berilgan imkoniyatdan foydalanib o‘zini tiklab olgan dushmandan to‘la mag‘lubiyatga uchradi. Movarounnahr qo‘shini bu jangda o‘n ming kishidan ayrildi va tarqoq holda qochishga majbur bo‘ldi.

Ikki amir ham chekinib Keshga yetib kelganlarida Amir Husayn Amudaryoning ortiga qochishni taklif qildi. Lekin Amir Temur “Har kim borsa

borsun, Menga himmat qo‘ymaskim, viloyatga yotlar kirib, elga jafo qilg‘ay. Yana bir qatla cherik yig‘ishtirib, muxoliflar bilan urushurmen”, deya rad javobini beradi[177]. Amir Husayn esa agar mo‘g‘ullar ta’qib etsa Hindistonga qochish niyatida Soli saroy tomon yo‘lga tushdi.

Shundan so‘ng Amir Temur 15 qo‘shindan iborat lashkar to‘pladi. Lashkardan qo‘shinni ilgari yuborib, ortidan o‘zi ham yo‘lga tushadi. Lekin oldinga yuborilgan qo‘shinning bir qismi mo‘g‘ullar tomoniga o‘tib ketishi natijasida ilg‘or qilib yuborilganlar mag‘lubiyatga uchradi. Shundan so‘ng Amir Temur ham Amudaryoning ortiga chekinishga majbur bo‘ldi.

Shunday qilib, Samarqand shahri hokimsiz va himoyasiz qoldi. Aynan shu vaqtda Samarqandda sarbadorlar harakati nomi bilan shuhrat qozongan xalq harakati bo‘lib o‘tdi.

***Sarbadorlar harakati***

Mo‘g‘ullarning talonlari va ularning kelajakdagi og‘ir zulmlari arafasida turgan shahar aholisi Samarkandni mudofaa etish sharoitlarining qiyin bo‘lishiga qaramay, kurash boshlaydi. Xalq jome masjidiga jam bo‘lganda Mavlonozoda masjid minbari ustiga chiqib, nutq so‘zlaydi: “Yo masharalmuslimin. Bukun g‘olib kofirlar musulmonlarning xonumon va jonlari qasdiga kelganlar va boju-xiroj nomi bilan musulmonlardan juz’ya olib, uni o‘zicha xarj qiladigan hokim dushmanning paydo bo‘lishi bilan, kofirlar oldida musulmonlarni tashlab qochdi. Bu shaharning aholisi har qancha garov va hadyalar bersalar ham qutilaolmaydilar va qiyomat kuni buzrugonlar sizlardan javob talab qiladilar. Kim islomning ishiga mutasaddi va xosu avomnnng javobgarligini ustiga oladiki, biz uning oyoq ostiga bosh qo‘yib, xizmatiga hozir bo‘lsak?”. Bu so‘roqqa hechkim javob bermaydi. Mavlonozoda davom ettiradi. “Modomiki hech kim javobgarlikni ustiga olmas ekan, agar men qabul qilsam birga bo‘lib, yordam berasizlarmi?”[178]. Bu so‘nggi so‘roqqa hamma o‘z roziliklarini bildirib, uni boshliq qilib ko‘taradilar.

Mavlonozoda shahar aholisining turli tabaqalaridan qo‘liga qurol ko‘tarishga qodir bo‘lganlarning ro‘yxatini olib, raxnalarga qorovullar qo‘yadi. Bog‘lar ko‘chasini dushman otliqlari o‘tolmaydigan darajada band qiladi. Band (barrikada) boshlarini mahkam qilib, ko‘chalarga mergan kamonchilarni joylashtiradi. Kishilarning uylariga borishlari, yoki urush bo‘lgan erga o‘z joylarini tashlab ketishlari, qanday yo‘llar orqali bo‘lmasin, mo‘g‘ullar bilan so‘zlashish kabi intizomsizliklar qat’iy man etildi. Shahar ko‘chalaridan biri butunlay bo‘sh va ochiq qoldirilib mingtacha odamni pistirmaga qo‘yadi. Mavlonozodaning o‘zi ming piyoda tiyrandoz bilan Bog‘ ko‘chasining oxiriga borib turadi. O‘zlarining kelgusi “g‘alabalariga” ishongan mo‘g‘ullar hech qo‘rquvsiz bo‘shatib qo‘yilgan ko‘chaga kirib, uning oxiriga-Mavlonozodaga yaqinlashgandan keyin, rahbarlarning bergan maxsus signali bilan, mo‘g‘ullarga hamma tomonlardan birdaniga hujum boshlanadi. Qurollilar o‘z qurollari bilan, hujum etgan bo‘lsalar, qurolsizlar mo‘g‘ullarni qora kaltak va toshbo‘ron ostiga oladilar. Bunda mo‘g‘ullardan ming kishi yarador bo‘lib, yuz kishi asirlikka tushadi. Mo‘g‘ullar bu

---

[177] Йаздий. Зафарнома. – Б. 40.

[178] Авторы XV в. о самаркандских событиях 1365 г. // Гуревич А.М. О классовой борбе в Самарканде в 1365-66 гг. – Т., 1936. – С. 28.

mag‘lubiyatdan so‘ng, ikkinchi kuni yana hujum qiladilar, bu safar ular butun harbiy qoidalarni ishlatadilar. Lekin g‘alaba mudofaachilar tomonida qoladi. Mo‘g‘ullar shaharni kuch bilan olaolmagandan so‘ng had’ya, ehsonlar olib qaytishga rozi bo‘ladilar, lekin ularga bu ham muyassar bo‘lmadi. Nihoyat o‘zlarining odatlari bo‘yicha shahar atroflarini talab qaytadilar. Muiniddin Natanziy bu mag‘lubiyat dushmanga juda qattiq ta’sir qilganligi haqida quyidagicha bayon qiladi: “... mo‘g‘ul otliqlariga shunaqayam zarba berishdiki, hanuzgacha Mo‘g‘ulistonda bu voqeani dostonlarda yod etib yig‘inlarda eslab yurishadi. Bu voqea ularning dimog‘lariga yetkanda, taajjubdan fig‘onlari ettinchi osmonga chiqadi”[179].

Mo‘g‘ullarning yengilishining sabablaridan biri ko‘pchilik tarixchilarining ko‘rsatishlaricha, ularning otlariga vabo kelganligidadir. Mo‘g‘ullarning yengilishiga sabab shahar aholisining astoydil dushmanga qarshi qurol ko‘tarishlari va mudofaa choralarining yaxshi tashkil etilishidir. Sharafiddin Ali Yazdiy ham garchi mo‘g‘ullarning yengilishiga, ularning otlariga vabo kelishini sabab qilib ko‘rsatsada, mudofaachilarning jiddiy harakatlarini inkor qilmaydi. “Ma’lum muddat raiyat hech bir podshohning shon-shukuhisiz bosh-oyoq qurollangan g‘addor yov bilan adolat va haqiqat uchun mardlarcha kurashdilar. Dushmanga hujum qilishda va mudofaada shunday matonat ko‘rsatdilarki, g‘animlarning hukmronligi va istilo qo‘li ul shahar aholisining nomus va moli etagiga etmadi”[180]. Ikkinchi bir joyda u yana shunday deydi: “Podshohlarning himmati va ularning noiblari matonatiga mansub bo‘lmish yurtni muhofaza qilish va ana shunday lashkarga qarshi turishdek ishlar raiyatlar qo‘li bilan amalga oshdi”[181].

Samarqand sarbadorlari shahardagi katta mol-mulkka ega bo‘lgan boylarni talaydilar, ularni o‘ldiradilar. Bu haqda Sharafiddnn Ali Yazdiy mana bunday deydi: “(Lekin) bir muncha kuch va ixtiyorga ega bo‘lgan bir guruh (kishilar)ning tasavvuri boshiga mag‘rurlik shamoli kirib, ularning jasorat oyoqlarini o‘z mavqelaridan yuqoriroqqa qo‘ydilar, hamda hukmronlik va zo‘ravonlik qo‘llarini qon to‘kish va fitna fasod uyushtirishga cho‘zdilar” [182].

Mo‘g‘ullar hujumiga qattiq zarba berilgandan keyin, sarbadorlar 1366-yil ko‘klamiga qadar, bir qish davomida davlatni boshqardilar. Sharafiddin Ali Yazdiyning aytishicha, Temur bilan Husayn shahar atrofiga kelib tushganlaridan keyin “sarbadorlarni yo‘qotishni davlat va dinning zaruriy ishlaridan sanadilarki, bular bu muddat ichida bu bo‘sh maydonni (shaharni) isyon va tug‘yon qadami bilan o‘lchagan edilar. Ular turli yaramasliklar ya’ni qatl, tolonlar va shunga o‘xshagan narsalarni qilganlari uchun, ularning hammasini qo‘lga olishga farmon chiqardilar”[183]. Bu dalildan sarbadorlarning mamlakatni mo‘g‘ullar hujumidan himoya qila olmagan amaldorlarga va din namoyandalariga qarshi ekanlari ravshan ko‘rinadi. Shuning uchun ham taxtdan sarbadorlarni yo‘qotish Sharofuddin Ali

[179] Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи. – Б. 70.
[180] Яздий. Зафарнома. – Б. 113.
[181] O‘sha asar. – Б. 114.
[182] O‘sha joyda.
[183] Яздий. Зафарнома. – Б. 116.

Yazdiyning nazarida, davlat va dinning zaruriy hamda eng ahamiyatli ishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Qo‘zg‘olon boshliqlari haqida manbalarda juda oz ma’lumot bo‘lsa-da, ularning qaysi tabaqadan ekanliklari haqida qisqacha to‘xtab o‘tish mumkin. Qo‘zg‘olonning ikki boshlig‘i “Mavlonozoda unvoni bilan yuritilib, ularning biri Buxoro buzrukzodalaridan ekanligi haqida ba’zi manbalar aniq ma’lumot beradi. Masalan Muiniddin Natanziy uni Buxoro zadogonlaridan ekanligini, Samarqandga esa tahsil olish uchun kelib, xalq orasida katta e’tiborga ega bo‘lishga erishganligini ta’kidlaydi[184]. Manbalar Mavlonozoda Samarqandiyning ham, Mavlono Xo‘rdakiy Buxoriyning ham jasurlikda, qahramonlikda, boshqalardan ayrilib turganlarini yozadilar. Bundan tashqari Mavlono Xo‘rdakka harbiylik va tirandozlik xususiyatlari beriladi. Bular ham kelib chiqishlari ham xususiyatlari bilan Xuroson sarbadorlarining rahbarlari Amir Abdurazzoq bilan Amir Mas’udga juda yakindirlar. Samarqand qo‘zg‘olonining manbalarda ko‘rsatilgan uchinchi rahbari Abubakr Kalaviy Naddofdir. U hunarmandlardan chiqqan naddof ya’ni paxta tituvchi bo‘lgan. Hammadan avval Temur tarixini yozgan Nizomuddin Shomiy o‘z “Zafarnoma”sida Samarqand qo‘zg‘oloni haqida juda kam gapirgan bo‘lsa-da, qo‘zg‘olonchilarning kimlardan iborat ekanliklarini aniq ibora bilan yozadi. “Mavlonozodai Samarqandiy, Mavlono Xo‘rdaki Buxoriy va Abubakr Naddof,-har uchalasi boshliq bo‘lib, yovuz, kishilar bularning yonida to‘plangan edilar”[185].

Mo‘g‘ul askarlari Samarqandda mudofaachilardan yengilib qaytishlari bilan, Temur mo‘g‘ullar harakatidan xabar olish uchun yuborgan o‘z kishisi Abbos Bahodir orqali Samarqand voqeasidan xabardor bo‘ladi. Ba’zi manbalarda bu xabar qo‘zg‘olon boshliqlaridan biri Mavlonozoda tomonidan berilganini gapiradiki, bu haqiqatdan uzoq emas. Chunki voqealarning keyingi rivojiga nazar solsak, qo‘zg‘olon boshliqlari va qo‘zg‘olonchilar Amir Temur va Husaynlar tomonidan jazolanganida, Temur Mavlonozodani o‘limdan qutqazib olganligini ko‘ramiz. Bu esa ular o‘rtasida avvaldan aloqa bo‘lganligini taxmin qilish uchun asos bo‘la oladi.

Qo‘zg‘olonchilar g‘alabasidan so‘ng bu voqeadan xabardor bo‘lgan Amir Temur tezda buni Husaynga bildiradi. Husayn Shabartudan Soli Saroyga keladi. Amir Temur o‘z xonadonini Jayxundan (Amudaryodan) o‘tkazib, Keshga yuboradi. O‘zi esa Husayn tomoniga yuradi. Bular Bog‘lon chegarasida uchrashib, o‘zaro uzoq suhbatlar qilgandan so‘ng Samarqandni sarbadorlar ko‘lidan olish choralarini ko‘radilar. Amirlar 1366-yili erta bahorda Samarkandga kirishga qaror berishib, ungacha tayyorlik ishlarini olib borish uchun Amir Temur Qarshiga keladi va 1365-1366-yillarning qishini shu shaharda o‘tkazadi. Amir Husayn esa Soli Saroyda qoladi. Amir Temur Samarqand bilan bo‘lgan aloqalarni to‘xtovsiz ravishda davom etdiradi. Shu orada Qarshi shahri atrofini devor bilan o‘ratadi.

1366-yil ko‘klamida, avvalgi bitimlariga muvofiq Amir Husayn va Amir Temur Afg‘onistonning shimoliy viloyatlaridan askar olib, Samarqandga keladilar.

[184] Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи. – Б. 68.
[185] Шомий. Зафарнома. – Б. 50.

Amirlar Samarqandga kelmasdan avval, yo'lda uchraydigan har qanday qarshiliklarning oldini olish va sarbadorlar boshliqlarining “hurmat va ehtirom” lari uchun, o'zlari shaharning shimoli-sharqiy tomoni, ya’ni Cho'ponota etagi-Konigilga kelganlariga qadar, ularni qarshi olishga chiqmasliklari haqida xabar yuboradilar. Manbalarning hammasi deyarlik bu haqda bir mazmunda ma’lumot beradi. Misol uchun Muiniddin Natanziy Amir Husaynning ushbu topshirig'i haqida shunday hikoya qiladi: “Men sizga to'la ishonaman va sizni jamiki amirlarimdan ko'ra o'zimga aziz va qadrdon deb bilaman. Toki men humoyun o'rdu bilan Konigil dashtiga kelib qo'nmagunimcha, hargiz mening istiqbolimga chiqmangiz”[186].

Amir Husayn Konigilga kelgandan keyin sarbadorlarga to'la ishonch hosil etish uchun, birinchi kuni qarshi olishga chiqqanlarni yaxshi kabul etadilar. Ikkinchi kuni undan ham ortiqroq hadyalar bilan chiqkan sarbadorlar qo'lga olinib dorga osiladilar va qilichdan o'tkaziladilar. Bunda, yuqorida aytganimizdek faqatgina Mavlonozoda Samarqandiygina o'limdan qutqaziladi. Shunday qilib Samarqandda bir qish davomida hukumatni qo'lga olib turgan sarbadorlar harakati bostiriladi va Husayn bilan Temur Samarqandda o'z hukmronliklarini tiklaydilar.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Sarbadorlar va amirlarni qaysi masalalar yaqinlashtirgan hamda qaysi masalalarda ular bir-birlariga dushman edi.? Shubhasiz, ularni Vatan ozodligi uchun kurash g'oyasi yaqinlantirgan, ularning manfaatlari shu nuqtada umumiy edi. Lekin, ozod mamlakatni boshqarish masalasi ularni bir-biridan ajratuvchi bosqich bo'lgan. Amirlar o'zlari, sarbadorlarsiz hokimiyatni boshqarishni hohladilar. Bu harakat ma’lum ma’noda G'arbiy Yevropada tarixidagi shaharlarning sen’orlardan musmtaqil bo'lish harakatlarini ham yodga soladi. Ulardagi o'xshashlik jihatlarini o'rganish tarixshunosligimizning yaqin kelajakdagi vazifalaridan biriga aylanishi mumkin.

### *Amir Temur va Amir Husayn o'rtasida hokimyat uchun kurash*

Hokimiyat yana Amir Husayn qo'liga o'tgach u bir qator xatolarga yo'l qo'ya boshladi. Sarbadorlar hokimiyati tugatilishi bilan u xalqdan soliq yig'ish haqida topshiriq berdi. Amirlardan Jakubek, Sayfiddin, Oq Bug'a, Elchi Bahodur va Davlatshoh Baxshilar Amir Temurga murojat qilib, Loy jangidagi katta talofat va mo'g'ullar bosqini sababli ularning eli Husayn talab qilayotgan soliqni to'lay olmasliklarini bildirib, yordam so'raydilar. Amir Temur bor mol-mulkini yordam so'raganlarning solig'i uchun topshirdi va bu esa el-yurtda uning obro'sini yanada oshishiga sabab bo'ldi. Muarrixlarning ta’kidlashicha Amir Husayn soliq sifatida Amir Temurning xotini O'ljoy Turkon og'aga tegishli isirg'alarni ham garchi o'z singlisiniki ekanligini bilsa-da qabul qilgan.

Ko'p o'tmay Amir Musabek, Sher Bahrom, Ali Darvesh kabi yirik amirlar Amir Temur va Husaynbek o'rtasida nizo chiqarishga erishdilar. Lekin turli fisqu fasodlar bilan nizo chiqarib, Amir Temur tomonida bo'lishga ahd qilgan yuqorida nomi tilga olingan amirlar birinchilardan bo'lib Amir Husayn tomoniga o'tib ketdilar. Ko'p o'tmay Amir Temur tomonidan Samarqand hokimi etib tayinlangan

---
[186] Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи. – Б. 72.

Qora Hinduka Barlos ham Husaynbek xizmatiga o‘tadi. Bu orada kasallik sababli Amir Husaynning singlisi, Amir Temurning rafiqasi O‘ljoy Turkon og‘a vafot etadi. Natijada ikki amir o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalari ham uzilib, ao‘addiy dushmanga aylandilar. 1366-yili ikki amir ham bir-biriga qarshi lashkar yig‘ib yurish boshladilar. Amir Husayn hiyla yo‘li bilan Amir Temurni qo‘lga kiritish maqsadida sulh tuzish uchun o‘zaro uchrashuvni taklif etdi. O‘zaro uchrashuv uchun har ikki tomon ham faqat 100 tadan askari bilan kelishi kerak edi. Lekin Amir Husayn o‘zi kelmay 3 ming kishilik qo‘shin jo‘natib Amir Temurni qo‘lga olishni buyurdi. Amir Temur o‘z qo‘shinini G‘uzorda qoldirib, faqat 100 kishi bilan uchrashuv joyi Chakchakka kelgan edi. O‘zi bir amallab ozgina askari bilan omon qolgan bo‘lsada, bu xabarni eshitgan G‘uzordagi qo‘shin Temurni kutmay tarqalib ketishi natijasida Sohibqiron ikkinchi marta majburan Movarounnahrni tark etishga majbur bo‘ldi. Butun Movarounnahr Amir Husayn qo‘liga o‘tdi.

Turkman cho‘llaridan o‘ziga panoh topgan Amir Temur Qarshiga borayotgan savdogarlar karvoni ko‘zi oldida Xuroson sari yo‘lga chiqdi. Karvon uzoqlashgach esa ortga qaytib Qarshi shahrini qaytarib olish uchun yurish qilishga qaror qildi. Qarshida Amir Husaynning Musabek va Malik Bahodur boshchiligida 12 ming kishilik qo‘shini bo‘lib ular ham Amir Temurning Xurosonga ketganligi to‘g‘risidagi xabarni eshitib bexavotir edilar. Shundan foydalangan Amir Temur atigi 243 nafar askari bilan kutulmaganda yashirincha Qarshi qal’asiga hujum qilib, shaharni egallab oldi va Amir Husaynning 12 ming kishilik qo‘shinini ham tor-mor keltirdi. Shundan so‘ng Amir Temurning sarkardasi Mahmudshoh Sohibqiron farmoni bilan Buxoroga hujum qildi va uni ham qo‘lga kiritdi. 1366 – 67-yilning qishini Amir Temur Qarshida o‘tkazdi.

Bahor kelishi bilan Amir Husayn yana Temurga qarshi yurish boshladi. Amir Husaynga qarshi tura oladigan kuchga ega bo‘lmagan Amir Temur Buxoro tomon chekinishga majbur bo‘ldi. Bu yerda ham ko‘p qolmasdan yana turkman cho‘llaridan panoh topdi. Amir Husayn qo‘shinlari esa Buxoro shahrini qamal qilib, ko‘p o‘tmay egalladi.

Turkmanistondagi Maxonda o‘z kuchlarini qayta tashkil etgan Amir Temur yana Qashqadaryo vohasiga kirib bordi va Qarshi shahrini qaytarib oldi. Shundan so‘ng Samarqandni egallash uchun yurish boshladi. Lekin Samarqand yaqinida bo‘lib jangda Amir Husayn askarlari tor-mor keltirilgan bo‘lsa-da Samarqandni egallash niyati amalga oshmadi. Bu vaqtda Soli saroydan katta qo‘shin bilan yo‘lga chiqqan Amir Husayn yana Qarshi va Kesh shaharlarini qaytarib oldi. Natijada Amir Temur Movarounnahrning sharqiy hududlari tomon chekinishga majbur bo‘ldi. Bu vaqtda Xo‘jand hokimi Bahrom jaloyir Mo‘g‘uliston xonlari hukmronligini tan olgan bo‘lib, Toshkent va Farg‘ona vodiysida ham uning ta’siri kuchli edi. Lekin Bahrom jaloyir Amir Temurga hech qanday yordam bermadi. Amir Temurning nachor ahvolda qolganligidan foydalangan Amir Husayn fursatni g‘animat bilib, o‘z amirlarini 20 ming kishilik qo‘shin bilan Sohibqironga qarshi jo‘natdi. Aynan shu paytda Movarounnahrning yirik amirlaridan biri bo‘lgan va o‘zaro urushlar kuchayganligi uchun Mo‘g‘ulistonga chiqib ketgan Amir Kayxusrav 2 ming kishilik mo‘g‘ul askarlari bilan Amir Temurga yordam berish uchun kelayotganligi haqida xabar keladi. Amir Husayn Kayxusravning birodarini

qatl etganligi uchun ular o‘zaro xundor dushman edilar. Yordam kelayotganligi haqidagi xabardan vahimaga tushgan Amir Husayn sarkardalari Amir Temurning 500, mo‘g‘ullarning 2 ming kishilik askari tomonidan qilingan to‘satdan hujum natijasida qocha boshladilar. Lekin Amir Temur Husayn qo‘shinlarini ta’qib eta olmadi. Chunki yordamga kelgan mo‘g‘ullar xalqni talayotganligi sababli Amir Temur va Amir Kayxusrav ularga qarshi jang boshlashga majbur bo‘ldilar. Natijada mo‘g‘ullar tor-mor etilib, xalqning mol-mulki o‘zlariga qaytarib berildi[187].

Amir Husayn mag‘lub bo‘lgan sarkardalarini qattiq jazoladi va yana yangi lashkar tuzib Amir Temurga qarshi jo‘natdi. Lekin bu safar ular oz sonli dushmandan to‘la mag‘lubiyatga uchradilar. G‘olib chiqqaniga qaramay Amir Temurda Husayn lashkarini ta’qib etish uchun kuch yo‘q edi. 1367-1368-yil qishini Amir Temur Toshkentda o‘tkazishga majbur bo‘ldi. Amir Husayn omon qolgan qo‘shinlarini Samarqandga joylashtirib, o‘zi Soli Saroydagi qarorgohi tomon qaytdi.

1368-yilning bahori kelgach, Amir Husayn Amir Temur bilan yarashishga qaror qildi. Chunki har ikki tomonning ham g‘alaba qozonishga ko‘zi yetmas edi. Muzokaralardan so‘ng Amir Temur Husaynbek bilan sulh tuzdi. Bu sulh Samarqand yaqinidagi Kumushkent mavzesida tuzilganligi uchun ham Kumushkent sulhi deb ataladi. Sulhdan so‘ng Amir Temur Kesh shahriga qaytib keldi. Bir necha yildan beri turkman cho‘llarida, Maxonda yashayotgan oilasini ham Kesh shahriga ko‘chirib keltirdi. Amir Husaynning sulh tuzishga majbur bo‘lishining yana bir sababi Badaxshon hokimlari bilan nizoning kuchayib borayotganligi ham edi. Shuningdek har ikki amir ham mo‘g‘ullarning yangi hujumlaridan xavfsirar edilar.

Sulh tuzilgach, Amir Husayn Badaxshon tomon yurish qilish imkoniga ega bo‘ldi. Lekin Hirot hokimi Malik Husayn Balx viloyatini himoyasiz qolganidan foydalanib Amir Husaynning erlariga bostirib kirib, talon-taroj qila boshladi. Amir Husaynning iltimosiga ko‘ra Amir Temur tezda Balxga yetib keldi va Xuroson qo‘shinini bu yerdan quvib chiqardi. Shundan so‘ng Qunduz shahrida ikki amir uchrashdilar va Kobul tomon yurish boshlab, u yerni ham Amir Husaynga bo‘ysundirdilar. Kobul shahri egallangach, Amir Husayn Balx yaqinidagi Hiduvon qal’asini qayta tiklab, u yerni mamlakat markaziga aylantirmoqchi ekanligini bildiradi. Bu suhbatni Sharafuddin Ali Yazdiy quyidagicha bayon qiladi: “Hisor olgandan so‘ng Husaynbek Sohibqironga dedikim: “Xayolim borkim, o‘lturur yerim Balx bo‘lg‘ay va Hinduvon qal’asikim, buzulib turur, imorat qilayim”. Hazrat sohibqiron dedikim: “Abdullohkim, sizning amak bo‘lur erdi va Qazag‘anbekning voqi’asidin so‘ng niyat qildikim, “Samarqandda borub o‘lturumen”. Beklarikim davlathohlari erdilar, dedilarkim: “O‘z yeringizni qo‘yib, yot yerga bormoq maslahat yo‘qturur. Aning uchunkim, agar voqe’ bo‘lg‘ay, begona kishi hargiz kishiga yaramag‘usi turur”. Abdulloh alarning so‘zlarini eshitmay, oqibat yetti angakim, ko‘rdi. Va bu fikrkim siz qilibsiz, anga o‘xshar”[188].

---

[187] Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи. – Б. 83-84.
[188] Йаздий. Зафарнома. – Б. 59.

V.V. Bartold ham bu masalaga to‘xtalib, bunday yozadi: “Husayn Balxni qayta tiklamoqchi bo‘lganda, Temur bu hol qabila amirlarining qo‘zg‘olonini keltirib chiqarishi mumkin, deb uni yo‘ldan qaytarmoqchi bo‘lgan. Biroq, Husayn baribir shaharni quradi va qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Qo‘zg‘olonda qatnashgan Temur g‘olib chiqadi”[189].

Chindan ham Husaynning kuchayib ketishini xohlamagan amirlar Amir Temur tomoniga o‘tib ketadilar. Demak, Temur Amir Husaynning bu rejasidan o‘zining siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalanadi. Chunki o‘z navbatida g‘olib Temur ham keyinchalik Samarqandni o‘ziga poytaxt qilib, qal’a devori bilan o‘raganda, unga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘tariladi. Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida Zinda Chashm boshchiligidagi qo‘zg‘olon haqida hikoya qilingan[190]. Lekin amir Abdulloh va Husayndan farqli o‘laroq Amir Temur bu qo‘zg‘olonlarni bostira oladi.

Amir Husayn o‘z fikridan qaytmagach, 1368-yili Kobul yurishidan qaytgan amirlar Hinduvon qal’asini qayta tikladilar va Balx aholisini yangi shaharga ko‘chiradilar. Amir Temur ham o‘z qo‘shini bilan qurilish ishlarida qatnashadi. Shu vaqtda mo‘g‘ul qo‘shinlarining Movarounnarga yurish boshlayotganliklari to‘g‘risida xabar yetib kelgach Amir Temur o‘z qo‘shinlari bilan Samarqand sari yo‘lga chiqadi. 1368-1369-yil qishini mo‘g‘ul qo‘shini Toshkentda, Amir Temur Samarqandda, Amir Husayn esa Kesh shahrida o‘tkazdi. Mo‘g‘ullar bahor boshlanishi bilan yurishni davom ettirmoqchi edilar, Lekin kutilmaganda o‘zlari orasida nizo chiqib, ortga qaytib ketdilar. Amir Husaynning Keshdaligi va mo‘g‘ul qo‘shining hujum xavfi borligidan foydalangan Badaxshon shohlari yana Amir Husayn mulklariga bostirib kirib, Qunduz shahrini talon qildidar. Natijada Amir Temur va Amir Husayn Badaxshonga yana yurish boshladilar. Lekin Badaxshon to‘liq bo‘ysundirilmadi. Yirik amirlardan Shayx Muhammad Bayon Sulduz va Kayxusraflarning isyoni sabab yurish to‘xtatildi. Amir Temurga isyonni bostirish topshirilgach, Sohibqiron isyonchilarga zarba berishga erishdi. Shayx Muhammad Bayon Sulduz Xo‘jand, Kayxusrav esa Qorategin viloyatiga chekinishga majbur bo‘ldi. Hinduvon qal’asini mustahkamlagan Amir Husayn mavqeyining oshib borayotganligi ko‘plab yirik amirlarni cho‘chita boshladi. Natijada ularning turli ig‘volari bilan yana Amir Temur va Amir Husayn o‘rtasiga sovuqchilik tusha boshladi hamda ko‘p o‘tmay yana harbiy harakatlar boshlandi. Bu safar ko‘plab yirik amirlar kechagi isyonchi Shayx Muhammad Bayon Sulduz, Amir Kayxusrav kabi amirlar ham Amir Temur xizmatiga kirib Amir Husaynga qarshi yurish qilishni taklif qila boshladilar. 1369-1370-yillarning qishini o‘zaro urushga tayyorgarlik davri bo‘ldi deyish mumkin edi. Borgan sari Amir Temur tarafdorlarining safi kengayib bordi. Natijada 1370-yilning bahori boshlanishi bilan Amir Temur Balxga yurish boshladi. Amir Husayn qo‘shini birin-ketin Amir Temur tomoniga o‘ta boshladi. Amir Husayn Hinduvon qal’asiga yashiringach, bir necha kunlik janglardan so‘ng qal’a zabt etildi. Asir olingan Amir Husayn garchi avf etilgan bo‘lsa-da, uning xundor dushmani Amir Kayxusrav tomonidan qatl

[189] Бартолд В.В. Сочинения. Т.2. – М.: И.В.Л. 1963. – С. 232.
[190] Йаздий. Зафарнома. – Б. 69-70.

etildi. 1370-yilning 9-aprel kuni bo‘lib o‘tgan Movarounnahr amirlarining qurultoyida Amir Temur Movarounnahr hukmdori deb e’lon qilindi. Taxtga esa Chig‘atoy avlodidan Suyurg‘atmishxon o‘tqazildi.

O‘zaro urushlardan juda bezigan dehqonlar ommasi, hunarmandlar, savdogarlar, ruhoniylar va o‘troq feodallar, ya’ni katta er egallari nihoyat yagona davlat tashkil topishini orziqib kutayotgan edilar. O‘z mustaqilligi va erkinliklari cheklanishini hohlamagan yirik amirlar, o‘zaro nizolar orqali talon tarojlar tufayli katta boylikka ega bo‘layotgan asosiy yumishlaridan biri urush bo‘lgan ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qabilalarning yetakchilari Amir Husaynning markazlashgan davlat tuzish borasidagi harakatlaridan cho‘chib ham Amir Temur atrofida birlashayotgan edilar. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, garchi amir Temur ham Amir Husayn ishini takrorlab, Samarqandni devor bilan o‘rab uni markaziy davlatning kuchli tayanchiga aylantirgan bo‘lsa-da, ko‘plab markazlashtirish dushmanlari bo‘lgan ko‘plab amirlar, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qabilalarning yetakchilari Amir Temurni qo‘llab-quvvatlashda davom etdilar. Chunki, ular Amir Temur siymosida ularni olis yurtlarga g‘olibona yurishlarga boshlab bora oladigan yengilmas sarkardani ko‘rar edilar. Bu urushlar ularning markazlashgan davlat tashkil topishi natijasida ko‘radigan zararlari beqiyos darajada ortig‘i bilan qoplashi mumkin edi. Albatta, Amir Temurga qarshi ham ko‘plab isyonlar, suiqasdlar bo‘lib o‘tdi. Lekin Amir Husayndan farqli ravishda Amir Temur ularning barchasini bartaraf eta oldi.

### *Amir Temur tomonidan Movarounnahrning birlashtirilishi. Farg‘ona vodiysi va Xorazm uchun kurash*

Amir Temur Farg‘ona vodiysining geostrategik ahamiyatini yaxshi anglagan holda, uni mamlakatning sharqiy darvozasi sifatida mustahkamlash va rivojlantirishga doimo katta e’tibor qaratib kelgan.

Amir Temur hokimiyatni qo‘lga kiritgan dastlabki yillarda ko‘plab yirik amirlar uni hukmdor sifatida tan olmaslikka hamda uning markazlashgan davlat tuzishga qaratilgan sa’y-harakatlarini yo‘qqa chiqarishga urinib ko‘rdilar. Bunday yirik amirlar qatoriga Amir Muso, Amir Zinda Chashm, Amir Kayxusrav va boshqalarni kiritish mumkin. Bu amirlar Sohibqiron hokimiyatini nomigina tan olib, imkon topilganda mustaqillik tug‘ini ko‘targanlar. Shunday kuchlar Movarounnahrning sharqiy qismi, ya’ni Farg‘ona vodiysida ham mavjud bo‘lib, ular Amir Temurning tashqi dushmanlari Oq O‘rda xoni Urusxon va Mo‘g‘uliston hukmdori Qamariddinlar bilan aloqa bog‘lashga va ularga tayanishga intildilar.

Sohibqiron hukmronligining dastlabki yillarida Movarounnahrning shimoliy-sharqiy qismida uning ta’siri kuchli emas edi. Qamariddinning Toshkentga hujumi hamda Toshkent va Xo‘jand atrofidagi amirlarning isyonlari, ularning bir qismini 1371-72-yillarda Movarounnahrdan qochib ketishi kabi voqealar Amir Temurni Mo‘g‘ulistonga ikki marta yurish qilishga majbur qilgan. Bu yurishlar haqida quyida so‘z yuritamiz

Amir Temur amir Muso, Zinda Chashmlarining isyonlarini bostirgach, 1371-yili o‘zining Mo‘g‘ulistonga birinchi harbiy yurishini boshlaydi. Garchi bu yurish Mo‘g‘uliston yurishi, deb nomlansa ham aslida mo‘g‘ul amirlari tomonidan

egallab olingan Farg‘ona vodiysi va Toshkent viloyati hududlarini mo‘g‘ullardan ozod qilish maqsadida tashkil etilgan edi.

Sharafuddin Ali Yazdiy 1370-1371-yili Amir Temur qo‘shinlari Sirdaryodan o‘tishi bilan bu yerda turgan Kumaz va O‘rnak Temur taslim bo‘lganliklarini qayd etgan[191]. Nizomiddin Shomiy esa mazkur yurish 1371-1372-yili bo‘lib o‘tganligini ta’kidlab, Kumaz haqida so‘z yuritmasdan, bu yurish natijasida O‘rung Temurning taslim bo‘lganligi, Amir Temur uni yana shu hudud hokimi etib tayinlab, ortga qaytganligini bayon qiladi[192]. Ushbu yurish maqsadi va natijasi haqida Muiniddin Natanziy batafsil ma’lumot beradi. U ham 1371-1372-yili bo‘lib o‘tganini qayd etadi[193]. Lekin voqealarning-yilma-yil tahlili va Fasih Xavofiyning solnomasiga[194] asoslanib, ushbu yurish 1371-yili amalga oshirilganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Natanziy Amir Temurning ushbu yurishiga alohida to‘xtalib o‘tarkan, aynan ushbu yurishdan so‘ng Farg‘ona vodiysini tark etganligini ta’kidlaydi[195]. B.F. Mans o‘z asarida Amir Temur qo‘shinlari 1371-1372-yillari Farg‘ona chegaralarini mustahkamlaganini qayd etgan[196].

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, bu vaqtda Kumaz va O‘rnak Temur boshchiligidagi uch-to‘rt ming xonadon mo‘g‘ullar Toshkent vohasida hukmronlik qilishgan. Amir Temur dastlabki yurish natijasida Toshkent vohasidagi mo‘g‘ullarni itoat ettirishga erishgan bo‘lsada, ularni Toshkentdan quvib yubormadi. U Mo‘g‘ulistonga qilinajak keyingi yurishlarda ushbu harbiy kuchdan ham foydalanmoqchi bo‘lgan. Amir Temur shaxsan Farg‘ona vodiysiga kirmagan bo‘lsa ham uning yuborgan lashkari va Toshkent vohasidagi mo‘g‘ullarning taslim bo‘lganligi natijasida vodiydagi mo‘g‘ullar o‘z yurtlariga qaytib ketgan. Sharafuddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiylar Farg‘ona vodiysi haqida ma’lumot bermagan bo‘lsa ham Natanziyning ma’lumotlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin.

V.V. Bartold muarrix Musaviyga tayangan holda Amir Temur ushbu yurish davomida Yettisuvdagi Qo‘chqor mavzesiga qadar borganligini ta’kidlaydi.[197] Lekin biz yuqorida ko‘rib o‘tgan tarixiy manbalarda ushbu ma’lumot o‘z tasdig‘ini topmaydi. Bu vaqtda Amir Temur Mo‘g‘ulistonning markaziy hududlariga kirib borish imkoniga ham ega emasdi.

Shuningdek, Amir Temur ushbu yurishi davomida Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasida o‘z hukmronligini o‘rnatish bilan cheklanmay, bu hududlardagi tinchlik Mo‘g‘uliston davlatidagi vaziyatga bog‘likligini tushungan holda, u yerda o‘z tarafdori bo‘lishi uchun ham harakat qiladi. Shu maqsadda o‘zidan yordam so‘rab kelgan mo‘g‘ul amiri Kebek Temur bilan birga Mo‘g‘uliston chegaralariga yaqinlashib, chegara hududlarini chopqin qiladi. Garchi Natanziy Kebek Temurni Mo‘g‘ulistonni ishg‘ol etganligini qayd etgan bo‘lsada, aslida u Mo‘g‘ulistonning

[191] Йаздий. Зафарнома. – Б. 71.
[192] Шомий. Зафарнома. – Б. 89.
[193] Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. – Б. 116-117.
[194] Хавафи. Муджмал-и Фасихи. – С. 95.
[195] Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. – Б. 116-117.
[196] Manz Beatrice Forbes. The rise and rule of Tamerlane. – P. 60.
[197] Бартолд В.В. Очерк истории Семиречя. – С. 81.

Toshkent vohasi bilan chegaradosh bo‘lgan hududlarinigina bo‘ysundirgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning Amir Temurga itoat etgan, Toshkent vohasida yashayotgan Kumaz va O‘rnak Temurlarni boshqarishni ham Kebek Temurga topshirilganligi haqidagi ma’lumoti yuqoridagi fikrni bildirishimizga asos bo‘ladi. Amir Temurning maqsadiga ko‘ra, Toshkent vohasining Mo‘g‘uliston bilan chegaradosh hududlariga va Kumaz, O‘rnak Temur kabi mo‘g‘ul beklariga tayangan holda Kebek Temur Mo‘g‘ulistonni o‘ziga bo‘ysundirish uchun kurash olib borishi kerak edi. Shundagina Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysi mo‘g‘ullarning talonchilik hujumlaridan bexavotir bo‘lardi.

Kebek Temur va uning qo‘li ostidagi mo‘g‘ullar uchun Mo‘g‘ulistondagi ichki kurashdan Movarounnahrning dehqonchilik hududlarini talon-taroj qilish manfaatliroq edi. Shuning uchun ham Amir Temur qaytib ketishi bilan Kebek Temur itoatdan bosh tortadi. Natijada Sohibqiron Xo‘jand hokimi amir Bahrom jaloyirni Abbos bahodir, Xitoy Bahodir va Shayx Ali Bahodirlar bilan birga Kebek Temurga qarshi jo‘natadi. Lekin amirlar Kebek Temur bilan sulh tuzib, Toshkent vohasini mo‘g‘ullar qo‘lida qoldirib, natijasiz ortga qaytadilar. Bunga jaloyir elida chiqqan nizo sabab bo‘ladi.

Amir Bahrom jaloyir tomonidan Amir Temur hukmronligining tan olinishi jaloyir qabilasining ba’zi bir beklariga ma’qul kelmagan. Shu bois yuzbegi Tezachi boshchiligidagi jaloyiriylar Kebek Temur tomoniga o‘tib ketishga harakat qiladilar. Lekin ular shafqatsiz jazolanadi[198]. Ushbu voqea ayrim ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qabila sardorlarining markazlashgan davlat tuzilishiga imkon qadar qarshilik qilganliklaridan dalolat edi.

Amirlarning Kebek Temur bilan sulh tuzib kelishi Sohibqironni qoniqtirmaganligi uchun ham, shu yilning o‘zidayoq ikkinchi marta Mo‘g‘uliston sari yurish boshlanadi. Bu safar ham Amir Temur qo‘shinlari Toshkent viloyatidan tashqari Sayram va Yangi shaharlarini ham mo‘g‘ullardan ozod qilsalar-da, Mo‘g‘uliston ichkarisiga kirib bormaydilar. Buning sababini A.Ahmedov va H.Bobobekovlar quyidagicha izohlaydilar: “Amir Sohibqiron Jetaga qilingan ikkinchi yurishida ham aytarlik uzoqqa bormagan va hozirgi Jambul viloyati va Talos vodiysidan nariga o‘tmagan. Buning ob’yektiv sabablari bor edi. Birinchidan 1371-yilning yoziga kelib, u Movarounnahrda hokimiyatni qo‘lga olib, tashqi dushmanlarga qarshi yurish uyushtira olgan bo‘lsa ham, u yirik lashkar to‘play olmagan edi va ikkinchidan, amirlarning irodasini o‘ziga to‘liq bo‘ysundira olmagan edi, ular orasida ham muxoliflar va xoinlar mavjud edi”[199]. Aynan shu yurish vaqtida Qorasomon mavzeyida amir Muso, amir Ishoq, Shayx Abullays va amir Zindachashmlar tomonidan Amir Temurga qarshi suiqasd tayyorlanganligining fosh etilishi ham yuqoridagi fikrlarning asosli ekanligini ko‘rsatadi[200]. Ushbu yurish natijasida Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasida Amir Temur hokimiyati mustahkamlandi. Mo‘g‘ullarning bu hududlardagi ta’siri keskin kamaydi.

[198] Йаздий. Зафарнома. – Б. 71.
[199] Qarang: Яздий. Зафарнома. – Б. 324. 309 – изоҳ.
[200] Аҳмедов Б. Амир Темурни ёд этиб. – Б. 328.

Aynan mana shu yurishlardan keyin Amir Temur Farg‘ona vodiysiga Amir Hamdini hokim qilib tayinlagan bo‘lsa kerak. Sharafuddin Ali Yazdiy 1376-yil voqealarini hikoya qilarkan, Andijon viloyatining dorug‘asi Amir Temur tomonidan tayinlangan amir Hamdi ekanligini qayd etib o‘tadi[201]. Garchi muallif amir Hamdining qachon Andijon viloyatiga dorug‘a etib tayinlanganligi haqida ma’lumot bermagan bo‘lsa-da, uning 1371-yildan avval bo‘lmagani aniq. Chunki Amir Temur aynan shu yili Farg‘ona vodiysidan mo‘g‘ullarni haydab chiqarganligini yuqorida aytib o‘tdik. Manbalardagi ma’lumotlardan kelib chiqib, amir Hamdini Amir Temur tomonidan Farg‘ona vodiysini boshqarish uchun qo‘yilgan ilk rahbar, deya e’tirof etish mumkin.

Amir Hamdi Amir Husaynning xos navkarlaridan bo‘lib, keyinchalik Amir Temur xizmatida bo‘lganligi ma’lum. 1365-yili bo‘lib o‘tgan Loy jangi voqealari bayonida u Amir Husaynning bahodirlaridan biri bo‘lsa ham uning nomi Amir Temurga hayrixoh bo‘lgan shaxs sifatida tilga olinadi[202].

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak, 1371-yili Farg‘ona vodiysida to‘g‘ridan-to‘g‘ri oliy hukmdorga bo‘ysunadigan ikkita ma’muriy birlik tashkil topdi. Biri, avvaldan mavjud bo‘lgan Xo‘jand bekligi bo‘lib, uning hokimi amir Bahrom jaloyir edi. Uning vafotidan so‘ng Sohibqiron tomonidan marhumning mulki va viloyati o‘g‘li Odilshoh jaloyirga berildi. Ikkinchi ma’muriy birlik, aynan 1371-yili tashkil etilgan bo‘lib, unga Farg‘ona vodiysining Xo‘jand bekligi tarkibiga kiritilmagan barcha hududlari bo‘ysundirilgan. Chunki manbalarda boshqa ma’muriy birlik haqida so‘z yuritilmaydi. Ushbu ma’muriy birlik markazi Andijon shahri bo‘lganligi uchun ham Sharafuddin Ali Yazdiy uni Andijon viloyati deb ataydi. Bu viloyatni boshqarish yuqorida aytganimizdek, amir Hamdiga topshirilgan.

Oq O‘rda va Mo‘g‘ulistonni tor-mor etmasdan turib Turkiston, Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysida Amir Temur o‘z hokimiyatini to‘la o‘rnata olmas edi. Shuning uchun ham Sohibqiron Mo‘g‘ulistonni kuchsizlantirishga qat’iy intildi va uning hukmdori Qamariddinga qarshi 1375-yilda katta yurish boshladi. Qamariddin ustidan qator g‘alabalarga erishgan Amir Temur Mo‘g‘ulistondan qaytishda Farg‘ona vodiysining sharqiy chekkasidagi “Yassi Dabon”dan o‘tib O‘zgand, Marg‘ilon va Xo‘jand shaharlari orqali Samarqandga qaytadi. Bu yurishdan manfaatdor bo‘lmagan Xo‘jand hokimi Odilshoh boshliq bir guruh amirlar Xo‘jand shahrida Amir Temur sharafiga uyushtirilgan ziyofatda unga qarshi suiqasd qilishga qaror qildilar. Suiqasd amalga oshmagach, Keyingi yili Xo‘jand hokimi Odilshoh hamda Andijon dorug‘asi Hamdi va Sari Bug‘alar Amir Temurning Xorazmda bo‘lganligidan foydalanib, isyon ko‘tardilar va Samarqandga hujum qildilar. Sohibqiron isyonni bostirib, ularning mulkini tortib oldi, Farg‘ona viloyatini esa Umarshayx mirzoga suyurg‘ol qilib berdi.

Yuqorida aytganimizdek, Amir Temur esa mamlakatning sharqiy qismini isyonchilardan ozod etib, ma’muriy o‘zgarishlarni amalga oshiradi. Sharafuddin Ali Yazdiy Umarshayx mirzoga Farg‘ona vodiysini suyurg‘ol qilib berilishi

[201] Йаздий. Зафарнома. – Б. 79.
[202] Йаздий. Зафарнома. – Б. 39.

borasida “amirzoda Umarshayxni Andijonga yibardi”, deyish bilan cheklangan bo‘lsa[203], Nizomiddin Shomiy voqealar bayonini to‘g‘ridan-to‘g‘ri Umarshayxni Andijon shahrida ekanligidan boshlaydi[204]. Muiniddin Natanziy bu voqeaga alohida e’tibor qaratib, o‘z asarining bir faslini mazkur voqea bayoniga bag‘ishlaydi. “Olam Shahzodasining sa’y-harakatlari tufayli to‘la g‘alaba muyassar bo‘lgach, – deb yozgan edi muallif, – juldu (in’om) tariqasida O‘zjandning o‘n ikki tumani hazratga iqto qilib berildi va jahon bo‘ysunuvchi farmonga muvofiq amirzoda ul tarafga otlandi”[205]. Natanziy ma’lumotining yana bir muhim jihati shundaki, unda Umarshayx mirzoga Farg‘ona vodiysining o‘n ikki tumani in’om etilganligi alohida ta’kidlangan. Bu o‘n ikki tuman ichiga Xo‘jand bekligi ham kirgan. Sharafuddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiylar bergan ma’lumotdan esa yangi tashkil etilgan mulkning markazi Andijon shahri bo‘lganligi oydinlashadi. Bu fikrni voqealarning keyingi rivoji ham tasdiqlaydi[206].

Aynan shu isyon oqibatida Farg‘ona vodiysining ma’muriy tuzilishida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Avvalo, Xo‘jand bekligi tugatildi va u yerda yashovchi jaloyir qabilasi Movarounnahr bo‘ylab tarqatib yuborildi[207]. Xo‘jand bekligi va amir Hamdi boshchiligidagi Andijon viloyati birlashtirilib, yagona Farg‘ona mulki sifatida Umarshayx mirzoga suyurg‘ol qilib berildi. Bu Farg‘onada Amir Temur hokimiyati to‘liq o‘rnatilganligining rasmiy ifodasi edi.

Lekin Farg‘ona vodiysida Umarshayx mirzoning hukumati hali kuchsiz edi. Amir Temurdan mag‘lub bo‘lib, avval Oq O‘rdaga, so‘ngra Mo‘g‘ulistonga qochib borgan isyonchilar Qamariddinni Farg‘onaga hujum qilishga undaydilar. Qamariddinning hujumi paytida Umarshayx mirzo qo‘shinining bir qismi dushman tomonga o‘tib ketadi, uning o‘zi esa Andijon shahrini himoya qilish uchun askar qoldirib, asosiy kuchlar bilan O‘sh tog‘lariga yashirinadi.

Faqat Amir Temur yetib kelgandan so‘ng ahvol o‘nglandi. Farg‘ona vodiysi Umarshayx Mirzoga suyurg‘ol qilib berilishidan kelib chiqib, faqatgina 1376-yilda Farg‘ona vodiysi Amir Temur davlatiga to‘liq va uzil-kesil qo‘shib olindi, desak bo‘ladi. Shu o‘rinda qiziq holat ko‘zga tashlanadi. Amir Temur Movarounnahrni davlatning xolisa mulki sifatida devon boshqaruvida saqlagani holda, uning bir qismi bo‘lmish Farg‘ona vodiysini ushbu xolisa mulk tarkibiga kiritmagan. Buning o‘ziga xos sabablari bor edi, albatta.

1376-yildan keyingi voqealar rivojiga nazar tashlasak, Farg‘onaga hokim etib tayinlangan Umarshayx Mirzoning zimmasiga nafaqat bu o‘lkani boshqarish, balki Toshkent vohasi va Turkistonni mo‘g‘ullar hujumidan himoya qilish, u yerlardagi vaziyatni nazorat qilib turish, Mo‘g‘ulistondagi siyosiy holatni diqqat bilan kuzatib borish vazifalari ham yuklanganligiga amin bo‘lamiz. Aynan shu vazifalarni bajarishga intilgan Umarshayx Mirzo 1387-yili O‘trorda To‘xtamishga qarshi, Farg‘onada Mo‘g‘ulistonning yana bir xukmdori Anqoto‘raga qarshi jang qilishga majbur bo‘ldi. Mana shu xizmatlari tufayli u Sohibqiron olqishiga sazovor

[203] Йаздий. Зафарнома. – Б. 80
[204] Шомий. Зафарнома. – Б. 100.
[205] Натанзий. Мунтахаб ут-таворихи Муиний. – Б. 191.
[206] Йаздий. Зафарнома. – Б. 80; Шомий. Зафарнома, - Б. 100.; Хондамир. Ҳабиб ус-сийар. – Б. 87.
[207] Якубовский А.Ю. Темур. 1992. – С. 59.

bo‘lganligi Sharafuddin Ali Yazdity “Zafarnoma”sida ta’kidlanadi: “Va shahzoda ul bahodurlik qilgan uchun ani ko‘p inoyatlar bilan sarafroz qildi”[208].

Farg‘ona vodiysining Amir Temur davlati tasarrufiga o‘tishi mo‘g‘ullarning talonchilik hujumlariga barham berib, obodonchilikka, iqtisodiy rivojlanishga katta yo‘l ochdi. Temuriy shahzodalar ham obodonchilikka katta e’tibor berdilarki, bunga Umarshayx Mirzoning Farg‘ona vodiysiga hokim etib tayinlangan yiliyoq Andijon yaqinida Guliston nomli ajoyib bog‘ barpo etganligi misol bo‘la oladi.

Amir Temur va temuriy shahzodalar mamlakatning sharqiy darvozasi bo‘lmish vodiyni harbiy-strategik jihatdan ahamiyatini hisobga olib uning mudofaa imkoniyatlarini mustahkamlashga katta e’tibor qaratganlar. O‘sha davrda vodiyning eng yirik shaharlari va markazlari bo‘lgan Andijon va Axsi shaharlari tarixiy manbalarda Movarounnahrning eng mustahkam qal’alari sifatida ta’riflanadi. Axsi qal’asining mustahkamligini ta’minlashda uning tabiiy-geografik joylashuvi katta ahamiyatga ega bo‘lsa, Andijon shahri chindan-da mustahkam qal’a devorlari va chuqur handaqlar bilan o‘rab olingan edi. Keyinchalik Bobir mirzo Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo‘rg‘onlaridan so‘ng, Andijon qo‘rg‘onidek ulug‘ qo‘rg‘on yo‘qligini ta’kidlaganligi ham bejiz emas.

Yuqoridagi fikrlarga yakun yasab, shuni aytishimiz mumkinki, Farg‘ona vodiysining Movarounnahr markazidan biroz uzoq bo‘lganligi, Amir Temur davlatining ashaddiy raqibi Mo‘g‘uliston bilan chegaradoshligi bu yerda markazlashtirish siyosatiga qarshi bo‘lgan siyosiy kuchlarning to‘planishiga olib keldi. Shu boisdan vodiyni Temur davlati tarkibiga to‘la kiritish biroz qiyin kechib, kechroq amalga oshdi va tashqi siyosatdagi g‘alabalarga bog‘liq bo‘lib qoldi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Amir Temur Farg‘onani o‘z xolisa mulki – Movarounnahr tarkibiga kiritmadi. Chunki ko‘chmanchilarinng kuchli davlatlari bilan chegaradosh bo‘lgan hududda mamlakatning ichki tumanlari xavfsizligini ta’minlaydigan, zarur paytda qo‘shni davlatlar siyosatiga ta’sir ko‘rsata oladigan kuchli ulus barpo etish zarur edi. Farg‘ona vodiysi xuddi shunday ulusga aylantirildi.

Xorazmning Amir Temur davlati tarkibiga qo‘shib olinishi ham tashqi siyosiy g‘alabalar bilan bog‘liq edi. Ma’lumki, Chingizxon 1224-yili o‘zi bosib o‘lkalarni farzandlariga bo‘lib berganda Xorazm vohasining markaziy va shimoliy qismlarini Jo‘ji ulusi tarkibiga, janubiy qismini esa Chig‘atoy ulusi tarkibiga kiritgan edi. Keyinchalik, aniqrog‘i XIV asrning o‘rtalariga kelib, Jo‘ji va Chig‘atoy uluslarida markaziy hokimiyatning zaiflashuvidan foydalangan qo‘ng‘irot qabilasining sardorlaridan bo‘lgan Husayn So‘fi Xorazmda hokimiyatni qo‘lga oladi. Tarixchi olim B.Ahmedovning muarrix Natanziyga tayanib ma’lumot berishicha Husayn So‘fi Jo‘ji ulusining nufuzli amirlaridan Nongadoyning o‘g‘li bo‘lgan. (Sharofuddin Ali Yazdiy Husayn So‘fi To‘ngdayning o‘g‘li ekanligini ta’kidlaydi. Shomiy esa bu ismni Nangqudoy deb beradi. Bu hol bir ismning turlicha aytilishi bo‘lishi mumkin). U esa O‘zbekxon nomidan Xorazmni boshqargan Qutlug‘ Temur avlodidan edi. 1355-56-yillarda Qutlug‘ Temur o‘ldirilgan Xorazmda hokimiyat Nongadoy qo‘liga o‘tgan. Nongadoy esa 1361-yili

[208] Йаздий. Зафарнома. – Б.119.

Oltin O‘rda xoni Keldibek tomonidan o‘ldirilgan. Lekin Jo‘ji ulusidagi porakandalik Nongadoyning o‘g‘li Husayn so‘fi tomonidan Xorazmda hokimiyatni egallab olinishiga va mustaqil davlat tashkil topishiga qarshilik qila olmagan. Chig‘atoy ulusidagi o‘zaro urushlar, Mo‘g‘uliston hukmdorlarining Movarounnahrga bosqinchilik yurishlaridan oqilona foydalangan Husayn So‘fi 1365-1366-yillarda Janubiy Xorazmni ham o‘z qo‘liga kiritgan. Bu voqeani Nizomiddin Shomiy va Sharofuddin Ali Yazdiy ham Amir Temurning Xorazmga birinchi marta elchi yuborishidan (1371-yil ) 5-6-yil avval bo‘lganligini ta’kidlashgan.

Amir Temur 1371-yili Janubiy Xorazm ya’ni Xiva va Kat shaharlarini Chig‘atoy ulusiga qaytarilishini so‘rab Alfa Tavochi Xorazmga elchi qilib yuboradi. Bu haqida Sharofuddin Ali Yazdiy quyidagicha hikoya qiladi: “Alfa Tavochini bir jamoat kishi bilan elchilikka Husayn So‘fiyga yibardi va dedikim: “Xevaq (va Kot) zakoti Chigatoy ulusig‘a taalluq, turur va eyasi yo‘k, jihatidin sen olur erding. Daxl qilmag‘aysen va bizga taalluq kishiga tobshurg‘aysenkim, do‘stluq aromizda bo‘lgay”[209].

Alfa Tavochi Xorazmg‘a borib, hazrat sohibqiron aytqon so‘zlarni anga aytti va anga ko‘b mubolag‘a qildikim: “Albatta bu ishda daxl qilmag‘aysen”. Ammo Husayi So‘fiy necha mahal ermishkim, o‘z murodi bila hukumat surub, har na xotiri tilagandur, andoq kilib turur va hech kishi anga moni’ bo‘lmay turur. Bu jihattin yaxshi javob bermadi va dedikim: “Men bu viloyatni kilich bila olibmen, yana qilich bila mendin olg‘aylar” [210].

Mavlono Jaloliddin Kashi urushni oldini olish maqsadida Amir Temurdan o‘zini Xorazmga elchi qilib yuborish haqidagi iltimosini bajo keltiradi. Lekin Husayn So‘fi bu safar Jaloliddin Kashi boshchiligidagi elchilarni hibsga oldiradi. Bu esa urushning boshlanganligini bildirardi.

1372-yilning bahorida Xorazm sari birinchi yurish boshlandi. Dastlabki mayda janglardayoq Xorazm qo‘shinlari birin-ketin mag‘lubiyatga uchradi. Amir Temur qo‘shinning uncha ko‘p bo‘lmagan qismini Urganchni qamal qilish uchun qoldirib, asosiy kuchlarni Xorazm bo‘ylab tarqatib yubordi. Bu vaqtdan g‘alabadan umidini uzib, sulh tuzish taklifini bildirayotgan Amir Husayn So‘fi Amir Temurning yirik amirlaridan biri Kayxusravning hiylasiga uchib o‘z qo‘shinlarini jang qilish uchun shahar tashqarisiga olib chiqadi. Bu haqida Nizomiddin Shomiy quyidagicha ma’lumot beradi: “Husayn So‘fi qal’a va hisorga kirib olib, sulh tuzib, fitna o‘tini so‘ndirishga harakat qilmoqchi bo‘ldi. Lekin shu asnoda Kayxisrav bir elchini jo‘natib, uni qarshilik ko‘rsatishga tezladi. Yuborgan xabarida: “Zinhor unga ishonma, do‘stlik eshigini ocha ko‘rmagin. Lashkarlarni to‘plab, darvozani och-da, tashqari chiq, men esa bu tarafdan yetib boraman va birgalashib dushmanni daf qilamiz”, dedi[211].

Amir Husayn So‘fi uning so‘zlariga ishonib, lashkar va raiyatni shahardan tashqari olib chiqdi, nog‘ora chalib, Jo‘yi Qovun suvi labida saf tortib turdi. Zafar yor lashkar ilg‘or qilib, har tomonga tarqalib ketgan edi. Bu xabar Amir

[209] Йаздий. Зафарнома. – Б. 72.
[210] O‘sha joyda.
[211] Шомий. Зафарнома. – Б. 93.

Sohibhironning sharafli qulog‘iga etgach, to‘xtamasdan otlanib, xos lashkaridan yonida kim bo‘lsa, barisini tartibga soldi va burg‘u chalib (dushmanga) yuzlandi.” Shomiy ta’kidlaganidek, kutilmaganda yuzaga kelgan xiyonat va og‘ir vaziyatda Amir Temur qa’tiyat bilan jang maydoniga kirib keldi hamda dushmanni mag‘lubiyatga uchratdi. Bir ikki kun o‘tgach esa qal’adan elchi chiqib, Husayn So‘fining vafot etganlini, uning taxtiga birodari Yusuf So‘fi o‘tirganligini bildirib sulh so‘radi. Sulhga binoan Janubiy Xorazm (Kat shahri atroflari) Chig‘atoy ulusi tarkibiga qo‘shib olindi. Shuningdek, sulh shartiga ko‘ra Oltin O‘rda xoni O‘zbekxonning nabirasi, Oq So‘fining qizi Xonzoda begimni Amir Temurning katta o‘g‘li Jahongir mirzoga turmushga berilishi kerak edi.

Amir Temur Samarqandga qaytgach, Amir Kayxusrav xiyonati uchun qatl etildi. Kayxusravning o‘g‘li amir Muhammad, Xizr Yassavuriyning o‘g‘li Amir Ishoq va Amir Mahmudshoh Buxoriylar esa Amir Temurdan norozi bo‘lib Xorazmga qochib ketadilar. Ularning maslahati bilan Xorazm voliysi Yusuf so‘fi sulh shartlariga rioya etmadi va Kat shahrini qaytadan bosib oldi. Uning farmoniga ko‘ra bu shahar vayron qilinib, aholisi tarqatib yuborildi.

Natijada yana urush xavfi paydo bo‘ldi. Amir Temur Xorazmga yurish boshlaganda Yusuf so‘fi yana sulh so‘rab, Xonzoda begimni to‘y sarpolari bilan samarqandga jo‘natishga rozilik beradi. Bu voqealar Nizomiddin Shomiy talqinida 1374-yili mart oyida, Sharafuddin Ali Yazdiy bayonida esa 1373-yil yanvarida bo‘lganligi ta’kidlanadi. Bizning fikrimizcha, 1373-yili Amir Temur yurish boshlash uchun qo‘shin to‘plagan va sulh muzokaralari olib borilib, 1374-yili to‘y bo‘lib o‘tgan. Chunki har ikkala manba ham Jahongir mirzo va Xonzoda begimlarning to‘yi 1374-yili bo‘lib o‘tganligini tasdiqlaydi.

Tarixiy manbalarda amir Temurning Xorazmga uchinchi yurishi nima sababli yuz berganligi haqida hech narsa deyilmaydi. Lekin bu yurish oxiriga etmagan. Chunki, Amir Temurning Mo‘g‘uliston hukmdori Qamariddinga qarshi yuborilgan Odilshoh jaloyir boshchiligidagi 30 ming kishilik qo‘shini isyon ko‘taradi va Samarqandni qamal qiladi. Natijada Amir Temur ortga qaytishga majbur bo‘lgan.

Amir Temurning Xorazmga to‘rtinchi yurishi to‘g‘risida nashr etilgan materiallar ichida L.A.Ziminning maqolasi ham alohida ahamiyatga ega. Muallif “Temurning Xorazmga to‘rtinchi yurishi” maqolasida bu yurishning sabab va oqibatlari haqida fikr yuritadi. Bu maqola “Turkestanskiye vedoyemosti” gazetasining 1910-yil 266-sonida, to‘plamning esa 545 jildida chop etilgan. L.A. Zimin 1378-79-yil qishida Temurning O‘trordaligidan foydalanib, Xorazm hukmdori Yusuf So‘fi Buxoro atroflariga bosqin uyushtirganligi, talash mumkin bo‘lgan hamma narsani olib ketganligi, Temurning jo‘natgan elchisi Jalovotiyni hibsga olganligini bayon qiladi Shuningdek, L.A. Zimin elchi hibsga olingandan so‘ng vaziyatni keskinlashtirmaslik maqsadida Amir Temur tomonidan yuborilgan maktubga javoban Yusuf So‘fiy ikkinchi marotaba Buxoro atrofidagi ko‘chmanchilarni talon-taroj qilganligiga ahamiyat beradi. Muallifning yuqoridagi fikrlari tarixiy manbalarda ham o‘z aksini topgan. Bu voqealar haqida Sharafuddin Ali Yazdiy bunday yozadi: “Ul-yildakim, hazrat Sohibqiron qishda O‘rusxon muqobalasida o‘lturub edi, Yusuf So‘fiy hech andisha etmay fursat topib kishi

yubordikim, Buxoroni choptilar va har nimakim tobtilar, elttilar. Hazrat Sohibqiron Jalovatiyni elchilikka Yusuf So'fiy qoshiga yubordi va dedikim, "Qarindosh bo'lg'ondin muxolifat qilmoq yana ne jihatdin turur?" Yusuf So'fiy elchini tutib berkitdi"[212].

L.A. Zimin tarixiy manbalarga tayanib, Xorazmga qilgan to'rtinchi yurish Xorazm hukmdori Yusuf So'fiyning bosqinchilik hujumlari sababli amalga oshganligini va uning to'la tor-mor etilishi bilan yakunlanganligini ta'kidlaydi.

Chindan ham 1379-yili Amir Temur qo'shinlari Urganchni 3 oy qattiq qamal qildilar. Qamal vaqtida Yusuf so'fi vafot etib, shahar ham zabt etiladi. Yusuf so'fi vafotidan so'ng Xorazm hukmdoriga aylangan Sulaymon So'fi Amir Temur hukmronligini tan olishga majbur bo'ladi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish zarurki, Xorazmning Amir Temur davlati tarkibiga kirishi Oq O'rda davlati manfaatlariga ham zid edi. Amir Temur Oq O'rda davlati bilan muxolifatda bo'lib O'trorda turgan paytda Yusuf So'fining Buxoroga hujumi tasodifiy bo'lmay, garchi manbalarda bu haqda ma'lumot bo'lmasa-da, Oq O'rda va Xorazm hukmdorlarining o'zaro kelishuvlari natijasi bo'lsa kerak. Chunki, bundan har ikkisi ham manfaatdor edi. Amir Temur yordami bilan dastlab Oq O'rda, keyinchalik butun Jo'chi ulusi hukmdoriga aylangan To'xtamish ham aynan shu siyosatni davom ettirganligi ham shunga dalildir.

To'xtamishxon Xorazmni Oltin O'rdaga tegishli deb bilib, V.V. Bartold va A.Y. Yakubovskiylar ta'kidlaganidek, 1383-yil bu yerda o'z nomidan tanga zarb qildirgan edi. Xorazm To'xtamishxon uchun Amir Temurning ham markazlashtirilgan davlat tuzish, ham Eronni istilo qilish yo'lidagi harakatlariga halaqit berishi mumkin bo'lgan qulay hudud edi. Bu haqda Yakubovskiy shunday fikr bildiradi: "Sulaymon So'fi qat'iy ravishda To'xtamishxon tarafiga o'tdi. Temur bo'lib o'tgan voqealarni hisobga olib, shuni yaxshi angladiki, To'xtamish faqatgina uning Eronga nisbatan bosqinchilik niyatlariga jiddiy xavf tug'diribgina qolmasdan, balki Movarounnahrni birlashtirish ishiga ham tahdid solmoqda edi. Shuning uchun ham u To'xtamishga qarshi hal qiluvchi harakatlarni boshlash vaqti to'la etildi, deb hisobladi. Temurning bu yo'nalishdagi birinchi qadami Xorazmga qisqa muddatli beshinchi yurishi bo'lib, xorazmliklar va ularning shohi Sulaymon So'fini xiyonatlari uchun jazolash niyatida amalga oshirilgan edi"[213].

Haqiqatdan ham Xorazmga qarshi amalga oshirilgan so'nggi hal qiluvchi beshinchi yurish Sulaymon So'fining Oltin O'rda hukmdori To'xtamish, Mo'g'uliston hukmdori Anqoto'ralar bilan hamkorlikda Movarounnahrga qilingan bosqinchilik harakatlariga adolatli javob edi. Garchi Xorazm qo'shinlarining Movarounnahrga bostirib kirganligi manbalarda ma'lumot bo'lmasa-da, To'xtamish qo'shinlarining bir qismi Xorazm orqali Buxoroga bostirib kirganligini Sharofuddin Ali Yazdiyning "Zafarnomasi"da ta'kidlanadi.

Amir Temur qo'shinlarining kelayotganligini eshitgan Sulaymon So'fi va Chingizxon avlodidan bo'lgan Ilig'mish o'g'lonlar Xorazmni tashlab qochib ketadi. Xorazm to'liq zabt etiladi va Urganch shahri to'liq vayron qilinadi.

[212] Йаздий. Зафарнома. – Б. 85.
[213] Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и её падение. – М.-Л., 1950. – С. 334.

Urganch shahri aholisi esa Samarqandga ko‘chiriladi. Lekin oradan 3 yil o‘tgach Amir Temur farmoniga ko‘ra Urganch shahri qaytadan obod qilinadi. Shunday qilib, Xorazm ham 1388-yili Movarounnahr tarkibiga qo‘shib olinadi.

***Ta’lim texnologiyalari:*** *"baliq skeleti", Venn diagrammasi, T-sxema, "bumerang", muammoli ta’lim, keys-stadi, vizual materiallar, blits-so‘rov.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar:***

*1. Mo‘g‘uliston hukmdori Tug‘luq Temurning Movarounnahrga bostirib kirishi qanday siyosiy oqibatlarga olib keldi?*

*2. Amir Temur va amir Husayn o‘rtasidagi ittifoqning vujudga kelish sabablari va oqibatlari nima edi?*

*3. Loy jangidagi mag‘lubiyat sabablari sifatida nimalarni keltirish mumkin?*

*4. Sarbadorlar harakatining asosiy tayanchi qaysi ijtimoiy qatlamlar edi?*

*5. Amir Temur Movarounnahrni birlashtirish uchun dastlab qanday siyosiy tadbirlarni amalga oshirishni ko‘zladi?*

*6. Amir Temurning Mo‘g‘uliston bilan munosabatlarida qaysi hudud alohida ahamiyat kasb etdi?*

*7. Farg‘ona vodiysining to‘liq Amir Temur boshqaruviga o‘tishi qanday ijobiy tomonlari bor edi?*

*8. Amir Temur uchun Xorazm hududi qanday sabablar tufayli muhim edi?*

## MAVZU: AMIR TEMURNING MO‘G‘ULISTON YURISHLARI.

**Reja:**

1. *Mo‘g‘ulistonga qilingan dastlabki harbiy yurishlar.*
2. *Amir Temur davlatining Mo‘g‘uliston bilan munosabatida Farg‘ona hokimi Umarshayx mirzoning tutgan roli.*
3. *Amir Temur hukmronligining so‘nggi yillarida Mo‘g‘uliston bilan munosabatlar.*

***Kalit so‘zlar:*** *Chig‘atoy ulus, Mo‘g‘uliston davlati, Farg‘ona vodiysi, Toshkent, mo‘g‘ullar, Xizr Hoja, Sirdaryo, O‘zgand, Zinda Chashm, Bahrom jaloyir, Kumaz, O‘rnak Temur, Xo‘jand, amir Hojibek, amir Qamariddin, dug‘lat, Ila daryo, Otboshi, Odilshoh jaloyir, Dashti Qipchoq, ko‘chmanchilar, Andijon shahri, Umarshayx mirzo, Ashpara qal’asi.*

***Mo‘g‘ulistonga qilingan dastlabki harbiy yurishlar***

Mo‘g‘uliston davlati Chig‘atoy ulusining bir qismi bo‘lib, ular Movarounnahr hududlarini zabt etish orqali Chig‘atoy ulusini to‘liq qayta tiklashni da’vo qilardilar. Bu o‘rinda Tug‘luq Temurxon va Ilyosxo‘janing Movarounnahrga uyushtirgan harbiy yurishlari va ularning oqibatlarini yodga olish yetarlidir. Bu yurishlardan ko‘zlangan asosiy maqsad esa o‘troq dehqonchilik hududlarini talon-taroj qilish va katta boylik hamda yaylovlarga ega bo‘lish edi. Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysi mo‘g‘ul qabilalari doimiy talon-taroj qiladigan hududga aylanib qolgan edi.

Amir Temur ham Movarounnahrda mustaqil davlat barpo etgach, taxtga Chig‘atoy avlodidan soxta xonlarni chiqarish orqali Chig‘atoy ulusini qayta tiklashni da’vo qilib chiqdi. Uning maqsadi ham Chig‘atoy ulusini qayta tiklash niqobi ostida Mo‘g‘uliston davlatini tugatish edi. Chunki bu ko‘chmanchi

davlatning mavjudligi Movarounnahrni doimiy harbiy bosqinlar xavfi ostida qoldirar, Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysi aholisining tinch hayot kechirishiga yo‘l qo‘ymas, bu hududlarning ijtimoiy iqtisodiy taraqiyotiga katta zarar keltirar edi. Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzulishidan manfaatdor bo‘lmagan mo‘g‘ul xonlari turli bahonalar bilan Movarounnahrning ichki ishlariga aralashar va bu yerdagi markazlashtirish harakatining raqiblarini qo‘llab quvvatlar edi.

Shuningdek, Mo‘g‘ulistonni zabt etish yoki hech bo‘lmaganda qaram davlatga aylantirish orqali u yerda tinchlikni ta’minlash Buyuk Ipak yo‘lining Xitoyga boradigan tarmoqlarida tinchlik va xavfsizlik o‘rnatilishining kafolati ham edi. Mo‘g‘ulistonda barqaror tinchlikni mavjud emasligi ham savdo aloqalarining taraqiyotiga katta zarar keltirardi.

Bu masalalar bir necha olimlar tomonidan o‘rganilgan va ularda turlicha fikrlar bildirilgan. Amir Temurning cho‘l zonalariga qilgan yurishlaridan maqsadlari haqidagi V.V. Bartoldning qarashlari munozaralidir. Uning fikricha, Amir Temurning istilochilik intilishlari “Madaniy Old Osiyo tomon qaratilgan bo‘lib, mazkur erlarda o‘z hokimiyatini mustahkamlash uchun zarur choralar ko‘rdi, u yerlardan o‘z oila a’zolariga mulklar ajratdi; uning cho‘l viloyatlarga yurishlari faqatgina bosqin xarakterida bo‘ldi”.[214] V.V. Bartoldning so‘nggi xulosasiga qo‘shilib bo‘lmaydi, chunki cho‘l mintaqasi hisoblangan Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamishxon ustiga qilingan yurishlar Amir Temur davlati uchun iqtisodiy va siyosiy zaruriyat edi. Sohibqironning Oltin O‘rdaga qilgan yurishlarining asosiy maqsad faqat bosqin qilib, o‘lja olish emas, balki Oltin O‘rdani siyosiy va iqtisodiy jihatdan zaiflashtirish bo‘lgan.

Yana bir cho‘l mintaqasi hisoblangan Mo‘g‘ulistonga qilingan yurishlarni ham olib ko‘rish mumkin. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, Amir Temur Oltin O‘rda va Mo‘g‘ulistonga uyushtirgan deyarli barcha yurishlariga ularning Movarounnahr ishlariga aralashuvi yoki talonchilik hujumlari sabab bo‘lgan edi. V.V. Bartold Temur davlati va Mo‘g‘uliston o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur o‘rganganligi va o‘zining asarlarida bu masalaga katta o‘rin berganligini ta’kidlab o‘tish kerak. U Amir Temurning Mo‘g‘ulistonga qilingan yurishlarini keng bayon qiladi. Bu yurishlarda Sohibqironning asosiy maqsadi Farg‘ona vodiysi va Toshkent atrofida xavfsizlikni ta’minlash va bu viloyatlarga mo‘g‘ullarning tez-tez bo‘lib turgan talonchilik hujumlariga chek qo‘yish bo‘lganligini ko‘rsatadi. Buning uchun Amir Temur Mo‘g‘ulistonni zaiflashtirishi va bu yerda o‘ziga xayrixoh bo‘lgan kuchlarni hokimiyatga olib chiqishi kerak edi. Chindan ham Amir Temur bu maqsadlarga erishdi va Mo‘g‘uliston xoni Xizr Hojaning qizi To‘kal og‘aga uylandi. Amir Temurning Mo‘g‘ulistonga nisbatan qo‘llangan bu siyosati keyinchalik Ulug‘bek va Abusaid Mirzolar tomonidan ham davom ettirilgan. Lekin shu o‘rinda faqatgina Farg‘ona hokimi Iskandar Mirzoning 1399-yili Mo‘g‘uliston xoni Xizr xo‘janing vafotidan xabar topib, u yerga qilgan harbiy yurishi bosqinchilik xarakterida bo‘lganligini aytib o‘tishi zarur. Aynan shu qilmishi uchun Iskandar Mirzo Amir Temur tomonidan qattiq jazolangan edi.

---

[214] Бартолд В.В. Сочинения. Т.2.Ч.II. – М., 1963. – С. 266.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, V.V. Bartoldning Amir Temurning cho‘l viloyatlariga qilgan yurishlar faqatgina bosqin xarakterida bo‘ldi, degan fikrlari munozaralidir.

Avval ham ta’kidlanganidek, 1371-yili Amir Temur ikki marta Mo‘g‘uliston tomon lashkar tortadi.

Amir Temur Balxda Movarounnahr amiri sifatida e’lon qilingan 1370-yili Farg‘ona vodiysini g‘arbiy qismida joylashgan Xo‘jand bekligi ham uning boshqaruvi ostiga o‘tgan. Bu vaqtda Amir Temur qo‘li ostiga birlashtirilgan Movarounnahr davlatining shimoli sharqiy chegaralari Xo‘jand bekligi hududlari bilan tugallangan. Asrlar davomida Movarounnahr tarkibida bo‘lgan Toshkent vohasi hamda Farg‘ona vodiysining shimoliy va sharqiy hududlari Mo‘g‘uliston davlati tasarrufida qolayotgandi. Albatta, bu holat Amir Temurni aslo qoniqtirmasdi. U o‘z hokimiyatining dastlabki yillaridayoq bu hududlarni Mo‘g‘uliston hukmronligidan ozod qilish va Movarounnahr tarkibiga qaytarishni asosiy vazifa sifatida bildi. Ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida “Mo‘g‘uliston yurishlari” nomi bilan tarixdan o‘rin olgan harbiy yurishlarni amalga oshirdi.

Amir Temurning birinchi Mo‘g‘uliston yurishi haqida tarixiy manbalarda bir qator ma’lumotlar o‘z aksini topgan. Sharafuddin Ali Yazdiy hijriy 772-yili (milodiy 1370-1371) Amir Temur qo‘shinlari Sirdaryodan o‘tishi bilan bu yerda turgan Kumaz va O‘rnak Temur taslim bo‘lganliklarini qayd etgan. Nizomiddin Shomiyning ma’lumotlari esa yuqoridagilardan biroz farq qiladi. U mazkur yurish hijriy 773-yili (milodiy 1371-1372) bo‘lib o‘tganligini ta’kidlagan va Kumaz haqida so‘z yuritmagan. Shuningdek, ushbu yurish natijasida O‘rung Temur taslim bo‘lganligi Amir Temur uni yana shu hudud hokimi etib tayinlab, Samarqandga qaytganligini bayon qilgan. Birinchi Mo‘g‘uliston yurishining Mirxond tomonidan keltirilgan tasviri ham mazmun jihatidan Shomiyga yaqindir. Ushbu yurish maqsadi va natijasi haqida Muiniddin Natanziy batafsil ma’lumot bergan. U kuz faslida Amir Temur Mo‘g‘uliston tomonga qo‘shin tortib, O‘zgand va Farg‘ona viloyatlaridan mo‘g‘ullarni haydab yuborganligini ta’kidlaydi. Muiniddin Natanziy ham mazkur yurish voqealar hijriy 773-yili (1371-1372) bo‘lib o‘tganini qayd etadi Temuriylar davri tarixining yana bir yirik muarrixi Fasih Xavofiy o‘z solnomasida ushbu voqealar Sharofuddin Ali Yazdiy kabi hijriy 772-yili (milodiy 1370-1371) sodir bo‘lganligini bayon qilgan. Hofizi Abru va Abdurazzoq Samarqandiylar ham Shomiy, Natanziylar kabi ushbu voqealarni hijriy 773-yili (milodiy 1371-1372) yuz berganligini ta’kidlashgan**.** Xondamir esa Amir Temurning Mo‘g‘ulistonga qilingan dastlabki yurishini hijriy 774-yil (milodiy 1372-1373)-yil voqealari bayonida keltirgan. Manbalardagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, Amir Temurning Mo‘g‘ulistonga qilingan birinchi yurishining sanasi uch xil hijriy 772, 773, 774-yillar bilan qayd etilgan.

Ilmiy adabiyotlarda ham Amir Temurning Mo‘g‘ulistonga qilingan birinchi yurishining sanasi turlicha berilgan. V.V.Bartold va B.Ahmedov hijriy 772 (milodiy 1370-1371), B.F.Mans esa hijriy 772-773 (milodiy 1370-1372) sanasini qayd etgan. “Amir Temur jahon tarixida” asarida ushbu harbiy yurish alohida tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, uning sanasi milodiy 1371-yil bilan belgilangan.

Aslida Amir Temurning Mo‘g‘uliston yurishlari nomi bilan atalgan birinchi va ikkinchi harbiy safarlari qaysi yili sodir bo‘lganligi qiziqarli, albatta.

Aksariyat manbalarda Mo‘g‘uliston yurishi Amir Temur Shiburg‘on hokimi Zinda Chashmning isyoni amir Jakubek boshchiligida yuborilgan qo‘shin tomonidan bostirilganidan so‘ng boshlanganligini ta’kidlanadi. Ma’lumki, amir Jaku Shibirg‘onni qish faslida qamal qilib, o‘sha yerda qishni o‘tkazgan va bahorda Zinda Chashmni itoat etishga majbur qilgan. Bundan ko‘rinadiki, Mo‘g‘uliston yurishi bahorning oxiri yoki yozda boshlangan va kuzda ham davom etgan. Chunki shu yili Amir Temur Mo‘g‘uliston tomonga uch marta qo‘shin jo‘natgan. Ularning birinchi va uchinchisida Amir Temurning o‘zi ham ishtirok etgan bo‘lsa, ikkinchi yurishda Bahrom jaloyir, Abbos, Xitoy va Shayx Ali bahodirlar boshchiligidagi qo‘shin ishtirok etgan. Shuning uchun bu hujum ham birinchi yurish tarkibida, uning ikkinchi qismi sifatida belgilanadi. Muiniddin Natanziy Mo‘g‘uliston yurishi kuzda amalga oshirilganligini qayd etganida, Amir Temurning o‘zi ishtirok etgan uchinchi yurish vaqtini nazarda tutgan. Lekin ushbu bayonda birinchi yurish voqealarini yoritgan.

Hijriy 772-yil milodiy 1370-yilning 26-iyulidan boshlanib, 1371-yil 14-iyulda yakunlanganligi, hijriy 773-yil esa milodiy 1371-yil 15-iyul va 1372-yil 2-iyulni o‘z ichiga olganligini hisobga olsak, Amir Temurning birinchi va ikkinchi Mo‘g‘uliston yurishlari milodiy 1371-yili bo‘lib o‘tganligi oydinlashadi. Chunki Amir Temur hijriy 773-yilning bahorida (milodiy 1372-yilning bahoriga to‘g‘ri keladi) Xorazm yurishi bilan band bo‘lgan. Bundan ko‘rinadiki, birinchi Mo‘g‘uliston yurishi 1371-yil bahorining oxiri va yozning boshlarida amalga oshirilgan. Amir Temur Samarqandga qaytib kelgach, uning tomonidan Toshkent vohasiga hokim etib tayinlangan mo‘g‘ul amirlari isyon ko‘targan. Natijada, Amir Temur tomonidan isyonni bostirish uchun yuborilgan beklar boshchiligida birinchi Mo‘g‘uliston yurishining ikkinchi qismi amalga oshirilgan va isyonchilar bilan sulh tuzilgan. Ushbu voqealar 1371-yilning yozida bo‘lib o‘tgan. Sulhdan qoniqmagan Amir Temurning o‘zi rahbarligida 1371-yilning kuz oylarida ikkinchi Mo‘g‘uliston yurishi amalga oshirilgan va Toshkent vohasidan mo‘g‘ullar uzil-kesil haydab chiqarilgan.

Manbalarda Amir Temurning Mo‘g‘uliston tomon uyushtirgan birinchi harbiy yurishi yo‘nalishi bo‘yicha ham turli ma’lumotlar mavjud. Shomiy o‘z asarida aniq geografik hududni ko‘rsatmasdan “mo‘g‘ul viloyati” bo‘ysundirilganligini ta’kidlash bilan cheklangan. Lekin Shomiyning bu ma’lumoti ishonarsiz. Chunki bu vaqtda Amir Temur Mo‘g‘ulistonning ichkari hududlariga bostirib kirish va uni bo‘ysundirish imkoniga ega emas edi. Shuningdek, uning bu ma’lumotini boshqa manbalar va voqealarning keyingi rivoji ham tasdiqlamaydi. Bunga quyida amin bo‘lamiz. Yazdiy birinchi yurish davomida Amir Temur qo‘shinlari Sirdaryodan o‘tgach, mo‘g‘ul amirlari Kumaz, O‘rnak Temur kelib taslim bo‘lganligi va ularga Ko‘ppak Temur hokim etib tayinlanganligini ta’kidlaydi. Birinchi yurish tarkibiga kiritilgan, Amir Temur ishtirok etmagan navbatdagi yurish voqealari esa Xo‘jand atroflarida kechganligi uchun mazkur janglarda Movarounnahr qo‘shinlari Sirdaryo ortidagi hududlarda jang qilganligini taxmin qilish mumkin. Lekin Sirdaryo ortidagi hududlar deganda, Toshkent vohasi

yoki Farg‘ona vodiysining shimoliy qismini tushunishimiz zarurligi aniq emas. Bizningcha, bu o‘rinda Toshkent vohasini tushunish to‘g‘ri bo‘ladi. Sababi 1368-1369-yilning qishida Toshkent viloyatini bosib olgan mo‘g‘ul amirlari tarkibida Ko‘ppak Temur ham tilga olingan. Uning 1371-yili Amir Temur tomonidan bo‘ysundirilgan mo‘g‘ullar ustidan hokim etib tayinlanishi o‘z qabilasi bilan Toshkent atroflarida bo‘lganligidan dalolat beradi. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, bu vaqtda mo‘g‘ul amirlari Toshkent vohasida hukmronlik qilishgan. Amir Temur dastlabki yurish natijasida Toshkent vohasidagi mo‘g‘ullarni itoat ettirishga erishgan bo‘lsa-da, ularni Toshkentdan quvib yubormagan. U Mo‘g‘ulistonga qilinajak keyingi yurishlarda ushbu harbiy kuchdan foydalanmoqchi bo‘lgan.

Muiniddin Natanziy Amir Temur ushbu Mo‘g‘uliston yurishi natijasida O‘zgand va Farg‘ona viloyatlaridan mo‘g‘ullarni haydab yuborganligini ta’kidlaydi. Shuningdek, Hofizi Abru va Abdurazzoq Samarqandiylar esa Amir Temur Farg‘ona vodiysining O‘zgand nohiyasi orqali Mo‘g‘ulistonga yurish qilganligini qayd etishgan. Shomiy va Yazdiy ma’lumotlaridan farq qiluvchi ushbu xabarlarning qay darajada asosli ekanligini mulohaza qilib ko‘rish joiz. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu vaqtda Farg‘ona vodiysining shimoliy va sharqiy qismlari Mo‘g‘uliston tasarrufida edi. Shuning uchun ham Amir Temur ushbu yurishi davomida Farg‘ona vodiysini to‘liq o‘z tasarrufiga olishni va mo‘g‘ullarni bu yerdan haydab chiqarishni maqsad qilganligi tabiiy. Temur ushbu yurishi davomida Toshkent atroflarini bo‘ysundirganidan so‘ng Farg‘ona vodiysi tomon yurishni davom ettirgan ko‘rinadi. Faqat vodiyda mo‘g‘ullar bilan yirik janglar bo‘lmaganligi sababli bu yurish Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiylarning asarlaridan o‘rin olmagan bo‘lishi mumkin. Shu o‘rinda ta’kidlash zarurki, Amir Temur vodiy orqali ham Mo‘g‘uliston hududlariga o‘tmagan. Uning qo‘shini Farg‘onaning shimoli-sharqiy chegaralaridan ortga qaytgan.

Amir Temurning o‘zi qatnashgan ikkinchi yurishda, ya’ni 1371-yilning kuzida esa Sohibqiron qo‘shinlari Sayram va Yangi shaharlarini ham zabt etib, Oq O‘rda va Mo‘g‘uliston chegaralarigacha bordilar. Lekin bu safar ham amirlar xiyonati halaqit berdi. Amir Musabek, Amir Zinda Chashm va Xizr yassavuriyning o‘g‘li Amir Ishoqlar o‘zaro kengashib, O‘tror yaqinidagi Qora Samon mavzeyida Amir Temurga suiqasd qilishga qaror qildilar. Lekin sir fosh etilgach, Amir Temur faqat qayta xiyonat qilganligi uchun Zinda Chashmni jazolab, qolganlarni kechirdi.

Demak, Amir Temurning birinchi Mo‘g‘uliston yurishi 1371-yilda bahorining oxiri yozning boshlarida bo‘lib o‘tdi va Toshkent vohasidagi mo‘g‘ullar bo‘ysundirildi, Farg‘ona vodiysidan mo‘ullar haydab chiqarildi. Toshkent vohasidagi mo‘g‘ullar Amir Temur Samarqandga qaytishi bilan yana isyon ko‘targanidan so‘ng, amirlar boshchiligida birinchi yurishning ikkinchi qismidagi harbiy harakatlar amalga oshirildi. Amirlar isyonchilar bilan samarasiz sulh tuzib qaytishdi. Natijada 1371-yilning kuzida Amir Temur ikkinchi Mo‘g‘uliston yurishini amalga oshirdi.

1375-yili Amir Temur uchinchi bor Mo‘g‘uliston yurishini boshladi. Bu yurish aslida Amir Temur qo‘shinlarining birinchi bor Mo‘g‘uliston hududlariga kirib borishi edi. Dastlab Movarounnahr qo‘shinining ilg‘or qismi Jahongir mirzo

boshchiligida Sayram orqali Chorun mavzeyiga yetib bordi. Shu vaqtda Mo‘g‘ulistonda mo‘g‘ul amirlari Hojibek va Qamariddinning mavqeyi ancha yuqori edi. Dug‘lat qabilasining vakili bo‘lgan amir Qamariddin o‘zining katta kuchlari bilan Baraka G‘o‘riyonga chekinib, bu yerdagi daryolar va baland daralar orasida mustahkamlanmoqchi bo‘ldi. Lekin birinchi kungi jangdayoq mag‘lubiyatga uchragan mo‘g‘ullar Ila daryosining quyi oqimi bo‘ylab chekindilar. Bu atrofdagi ko‘plab hazora qabilalari Amir Temur hokimiyatini tan oldi. Ularning katta qismi Movarounnahrga ko‘chirildi. Amir Temur qo‘shinlarining ilg‘ori Qamariddin va uning tarafdorlarini Poytog‘ va Uch Parmon (Uchqarmon) mavzelarida tor-mor etdi. Qo‘shinning asosiy qismi esa Qora Qismoq mavzesiga yetib kelib joylashdi. G‘alaba musharraf bo‘lganiga ishonch hosil qilgan Movarounnahr qo‘shini dastlab Otboshi, undan keyin Arpa yozi mavzeyiga kelib tushdi va shu yerda lashkarga dam berildi. Amir Temur shu yurishdan qaytishda birinchi bor Farg‘ona vodiysiga qadam bosdi.

U Farg‘ona vodiysiga sharqdan kirib kelib O‘zgand, Marg‘ilon, Xo‘jand shaharlari orqali Samarqand tomon yo‘l oladi. Mazkur yurishdan manfaatdor bo‘lmagan Xo‘jand hokimi Odilshoh boshliq bir guruh amirlar Amir Temurga qarshi suiqasd tayyorlashga qaror qiladi. Suiqasd amalga oshmagach, Odilshoh Jaloyirning o‘zi o‘sha yilning qishida Zanjirsaroyda turgan Amir Temur huzuriga borib, aybiga iqror bo‘ladi va jazodan qutulib qoladi.

1376-yili muhim voqealar bo‘lib o‘tadi. Bu voqealar Amir Temurning Mo‘g‘uliston yurishlari bilan bog‘liq edi. 1376-yilning bahorida Amir Temur Xorazmga yurish qilish maqsadida barcha amir va beklarni o‘z qo‘shinlari bilan chaqirib, lashkar to‘playdi. Ushbu yurish boshlanishi arafasida Amir Temurga qarshi fitna chiqarayotganligi uchun Muhammad Bayon sulduz hibsga olinib, qatl etiladi. Shu vaqtda amir Boyazid Jaloyirning ikki o‘g‘li-o‘z vaqtida Xo‘jandni boshqargan Ali Darvesh va uning inisi Muhammad Darveshlar ham Amir Temur hayotiga suiqasd tayyorlaganliklari uchun o‘ldiriladi. Amir Temur muhim yurish oldidan yirik amirlardan biri bo‘lgan Xo‘jand hokimi Odilshoh Jaloyir va hozirgi Afg‘onistonning shimolidagi hududlarda katta mulkka ega bo‘lgan Turkon arlotlarning (Xo‘jand fitnasida u ham ishtirokchi bo‘lgandi) jinoyatidan yana bir bor ko‘z yumishga qaror qiladi. Chunki siyosiy va harbiy jihatdan katta nufuzga ega bo‘lgan bu qabila vakillari bilan Amir Temur ham ma’lum ma’noda hisoblashishga majbur edi. Lekin ularni turli tomonga bo‘lib yuboradi. Ya’ni, Turkon Arlotga Xorazm yurishida qatnashish belgilangan bo‘lsa, Odilshoh Jaloyirga o‘zga vazifa topshiriladi. 1376-yilning bahorida davlatga xiyonatda ayblanib qatl qilingan uch nafar amirdan ikki nafari jaloyir qabilasining vakillari edi. Bu ham ushbu qabila yetakchilarining markazlashgan hokimiyatning mustahkamlanib borishiga nechog‘liq qarshi bo‘lganliklarini ko‘rsatadi. Shu bilan birga bu holat ko‘p o‘tmay, Odilshoh Jaloyir boshchiligida Amir Temurga nisbatan ochiqdan-ochiq harbiy isyon boshlanishiga turtki bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas.

Amir Temur 1376-yili Xorazmga navbatdagi yurishni boshlar ekan, Odilshoh Jaloyir va Sari Bug‘ani 30 ming kishilik qo‘shin bilan Mo‘g‘ulistonga, uning hukmdori amir Qamariddinga zarba berish uchun jo‘natadi. Uch nafar amir suiqasd qilishda ayblanib, qatl etilgan vaqtda xiyonatchilarning sherigi bo‘lgan bu

ikki amirga to‘liq ishonib, bo‘lmasligini bilganligi uchun ularga o‘zining ishonchli amirlaridan Xitoy Bahodir va Elchi Bug‘a Bahodirni hamroh etib yuboradi. Natanziy Amir Temur Odilshoh Jaloyir, Sari Bug‘ani u yerga yigirma ming kishilik qo‘shin bilan yuborganligini, xos kishilaridan bo‘lmish Xitoy Bahodir va Elchi Bug‘a Bahodirlarni esa ularga hamroh qilganligini ta’kidlaydi. Bundan Odilshoh Jaloyir va Sari Bug‘aning qo‘shini 20 ming kishini, ularga hamroh bo‘lgan Xitoy Bahodir va Elchi Bug‘a Bahodirlarning qo‘shini esa 10 ming kishini tashkil etganligi oydinlashadi.

Sari Bug‘a va Odilshoh Jaloyir Elchi Bug‘a Bahodir va Xitoy Bahodirni hibsga olib, yana isyon boshlaydilar. Ular isyonga Andijon viloyati dorug‘asi amir Hamdini ham jalb qilishga erishadilar va u bilan birgalikda poytaxt Samarqand shahriga yurish boshlaydilar. Isyonchilarning Samarqand shahriga yetib kelib, uni hujum bilan bosib olishga intilishlaridan ko‘rinadiki, Sharafuddin Ali Yazdiy ta’kidlaganidek, isyonchilar jaloyir, qipchoq qabilalari va amir Hamdi qo‘shinlaridan iborat katta lashkar tuzishga erishgan edilar. Haydar mirzo ham o‘zining “Tarixi Rashidiy” asarida mazkur isyonda qipchoq va jaloyir qabilalarining faol ishtirok etganligini, Samarqand shahri uchun esa shiddatli janglar olib borilganligini ta’kidlaydi.

Isyonga avvaldan puxta tayyorgarlik ko‘rilganligi keyingi voqealar rivojida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Amir Temur o‘z qo‘shinlari bilan Xorazm tomon yo‘l olib, Natanziyning yozishicha Sabhonaga, Sharafuddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiylarning yozishlaricha, Sepoya mavzeiga yetib kelgan vaqtda qo‘shin safida bo‘lgan Turkon Arlot isyon ko‘taradi va lashkari bilan o‘z mulki bo‘lgan Faryob tomonga qochib ketadi. Amir Temur unga qarshi qo‘shin yuborgandan keyingina, isyonchilar Samarqandni qamal qilganligi haqida xabar oliy o‘rdaga yetib keladi. Bu ham Odilshoh Jaloyir va Sari Bug‘alarning isyoni Turkon Arlot bilan avvaldan rejalashtirilib, o‘zaro ittifoqlikda amalga oshirilganligini taxmin qilishga imkon beradi. Qo‘shinning bir qismini Turkon Arlotga qarshi yuborgan Amir Temur Xorazm yurishini to‘xtatib, qolgan askarlar bilan Samarqand tomon qaytadi. Dushmanga tezroq zarba berish maqsadida lashkardan ilg‘or ajratib, Jahongir mirzo boshchiligida isyonchilarga qarshi yuboradi. Isyonchilar o‘z kuchlariga shu qadar ishongan edilarki, Jahongir mirzo boshchiligidagi qo‘shin yaqinlashayotganini eshitgach, ularga yo‘ldayoq zarba berish maqsadida Samarqanddan shahzoda qo‘shiniga peshvoz chiqib boradilar. Ikki tomon lashkari Karmana shahri yaqinida uchrashib, shiddatli jangga kiradi. Jangda mag‘lub bo‘lgan isyonchilar Dashti Qipchoqqa chekinadilar.

Sharafuddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiylar o‘z asarlarida isyon haqida xabar topgan Amir Temur Samarqandga yordam uchun Jahongir mirzoni ilg‘or qilib jo‘natganligini bayon etgan. Lekin Muiniddin Natanziy ilg‘or qilib Umarshayx mirzo jo‘natilganligini ta’kidlab, jang voqealarini ham batafsil hikoya qiladi. Bizningcha, Jahongir mirzo rahbarligida jo‘natilgan qo‘shin safida Umarshayx mirzo ham bo‘lgan va u bu jangda qorovul qismni boshqargan bo‘lishi kerak. Natanziy o‘zining ushbu asarini Umarshayx mirzoning o‘g‘li Iskandar mirzoga taqdim etganligi sababli, Umarshayx mirzo faoliyatiga ko‘proq e’tibor qaratgan ko‘rinadi. Balki, ushbu isyon bostirilgach, Farg‘ona vodiysining aynan

Umarshayx mirzoga taqdim etilishi ham Natanziyning shunday xulosa chiqarishiga asos boʻlgan boʻlishi mumkin.

***Amir Temur davlatining Moʻgʻuliston bilan munosabatida Fargʻona hokimi Umarshayx mirzoning tutgan roli***

Karmana jangida magʻlub boʻlgan isyonchilar dastlab Oq Oʻrdaga qochib borib, u yerdan Amir Temurga qarshi kurashish uchun madad olishga harakat qiladilar. Ammo Oq Oʻrdada oʻz hokimiyatini yanada mustahkamlash uchun kurashayotgan va butun Joʻchi ulusini qayta tiklash orzusida boʻlgan Urusxon Movarounnahr masalasiga qiziqish bildirmaydi.

Amir Temur esa mamlakatning sharqiy qismini isyonchilardan ozod etib, ma’muriy oʻzgarishlarni amalga oshiradi. Muiniddin Natanziy bu voqeaga alohida e’tibor qaratib, oʻz asarining bir faslini mazkur voqea bayoniga bagʻishlaydi. “Olam Shahzodasining sa’y-harakatlari tufayli toʻla gʻalaba muyassar boʻlgach, – deb yozgan edi muallif, – juldu (in’om) tariqasida Oʻzjandning oʻn ikki tumani hazratga iqto qilib berildi va jahon boʻysunuvchi farmonga muvofiq amirzoda ul tarafga otlandi”. Natanziy ma’lumotining yana bir muhim jihati shundaki, unda Umarshayx mirzoga Fargʻona vodiysining oʻn ikki tumani in’om etilganligi alohida ta’kidlangan. Bu oʻn ikki tuman ichiga Xoʻjand bekligi ham kirgan. Sharafuddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiylar bergan ma’lumotdan esa yangi tashkil etilgan mulkning markazi Andijon shahri boʻlganligi oydinlashadi.

Aynan shu isyon oqibatida Fargʻona vodiysining ma’muriy tuzilishida katta oʻzgarishlar yuz berdi. Avvalo, Xoʻjand bekligi tugatildi va u yerda yashovchi jaloyir qabilasi Movarounnahr boʻylab tarqatib yuborildi. Xoʻjand bekligi va amir Hamdi boshchiligidagi Andijon viloyati birlashtirilib, yagona Fargʻona mulki sifatida Umarshayx mirzoga suyurgʻol qilib berildi. Bu Fargʻonada Amir Temur hokimiyati toʻliq oʻrnatilganligining rasmiy ifodasi edi.

Garchi Fargʻona vodiysining yagona ulus sifatida tashkil etilishi uning mudofaa qobiliyatini kuchaytirgan boʻlsa-da, bu yerda Umarshayx mirzoning hokimiyati hali kuchsiz edi. Amir Temurdan magʻlub boʻlib, avval Oq Oʻrdaga, soʻngra Moʻgʻulistonga qochib borgan isyonchilar – Odilshoh jaloyir va Sari Bugʻolar Qamariddinni Fargʻonaga hujum qilishga undaydilar. Isyonchilarning avval Dashti Qipchoqqa, soʻngra Moʻgʻulistonga qochib borganligini hisobga olsak, ularning Fargʻonaga yurishi 1376-yilning yoziga toʻgʻri keladi.

Umarshayx mirzo ochiq maydonda jang olib borishga qodir bir muncha katta lashkar borligi uchun boʻlsa kerak, Qamariddin qoʻshinlari bostirib kelayotganini eshitishi bilan Fargʻona vodiysining Moʻgʻuliston bilan chegarasi tomon yoʻlga chiqadi. Nizomiddin Shomiyning ma’lumotiga qaraganda, u qorovul qoʻshini sifatida qozoq hazorasidan tuzilgan lashkarni oldinga joʻnatib, oʻzi ularning ketidan borgan. Qozoq hazorasi esa, Umarshayx mirzo asosiy qoʻshin bilan yetib kelmasidan dushman tomonga oʻtib ketgan. Natijada Umarshayx mirzo jangga kirmay, qolgan kuchlari bilan togʻlar tomonga chekinib, Amir Temurdan yordam soʻraydi. Xondamir ham Umarshayx mirzoning togʻlarga yashiringanligini qayd etsa-da, boshqalardan farqli ravishda Amir Temur huzuriga vaziyatni bildirish uchun Donishmand ismli shaxs joʻnatilganligini ta’kidlaydi.

Andijonni shturm bilan egallashga ko‘zi yetmagan Qamariddin shaharni uch kun qamal qilgandan so‘ng ortga qaytishga qaror qiladi. Ular Umarshayx mirzo lashkarining to‘satdan hujum qilishlaridan xavfsirab, talon-taroj uchun tarqalmay, yagona lashkar sifatida yig‘ilgan holda, Mo‘g‘uliston tomon qaytib ketadi.

Amir Temur katta lashkar bilan Farg‘ona vodiysiga yetib kelgach, bosqinchilarni jazolash uchun Mo‘g‘ulistonga qarshi navbatdagi harbiy yurishini boshlaydi. Barcha manbalar Amir Temur dushmanga Mo‘g‘ulistonning Otboshi mavzeida yetib olganligini ko‘rsatadi. Lekin bu safar Mo‘g‘ulistonning markaziy hududlariga kirib borilmaydi. Amir Temur Jahongir mirzoning vafoti sababli shimoli-g‘arbiy hududlar orqali Sayhun daryosiga yetib boradi va Samarqandga qaytib ketadi.

Shu o‘rinda Muiniddin Natanziy tomonidan bayon qilingan Umarshayx mirzoning Koshg‘ar yurishiga to‘xtalib o‘tish joiz. Koshg‘ar mo‘g‘ul bosqinchilarning Farg‘ona vodiysiga janubi-sharqiy tomondan bostirib kirishi uchun eng qulay tayanch hududlardan biri edi. Amir Temur ko‘p bora Mo‘g‘ulistonga yurish qilgan bo‘lsa-da, bu yurishlar asosan ko‘chmanchi mo‘g‘ullarning asosiy harbiy kuchlari joylashgan Yettisuv va Mo‘g‘ulistonning markaziy, shimoliy va sharqiy hududlariga zarba berishga mo‘ljallangan bo‘lib, uning o‘troq aholi nisbatan ko‘proq bo‘lgan janubiy qismidan Movarounnahrga tahdid xavfi kamligi uchun ham yetarli e’tibor berilmagan.

Umarshayx mirzo esa Farg‘ona hokimi sifatida o‘z viloyatiga yaqin qo‘shni bo‘lgan Mo‘g‘ulistonning janubiy hududlari, jumladan, Koshg‘ar masalasiga alohida e’tibor qaratdi va yurishni shu tomondan belgiladi. Mo‘g‘ul shahzodalaridan Xizrxo‘ja o‘g‘lon, Shayxjon o‘g‘lon va yirik amir Xudoydod joylashib olgan Koshg‘ar shahri yaqinidagi qo‘rg‘on to‘satdan qilingan hujum tufayli egallanadi. Garchi shahzodadar va amir Xudoydod qochib ketishga ulgurgan bo‘lsa ham raqib to‘liq tor-mor keltiriladi. Ushbu yurish so‘nggida Umarshayx mirzo Koshg‘ar shahrining aholisi va aslzodalarini, jumladan, Mo‘g‘ulistonning nufuzli malikasi Mirak og‘oni O‘zgand yaqiniga ko‘chirib keltiradi. Ko‘chirib keltirilganlarning yashashi uchun Raboti Sarhang nomli qasaba bunyod ettiradi.

Amir Temur katta o‘g‘li Jahongir mirzoning vafoti munosabati bilan Samarqandda qolgan bo‘lsa-da, mamlakatning sharqiy hududlari, jumladan, Farg‘ona vodiysining xavfsizligini ta’minlash masalasini e’tibordan chetda qoldirmadi. Chunki Qamariddin o‘z qo‘shinlarini qayta to‘plab, yana Farg‘ona vodiysiga bostirib kirishi mumkin edi. Shuning uchun ham Amir Temur dushmanni o‘zini qayta tiklab olishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun Mo‘g‘ulistonga Umarshayx mirzo boshchiligida qo‘shin jo‘natadi. Bu yurishda Farg‘ona qo‘shinlariga Oq bug‘a bahodir va Xitoy Bahodir boshchiligida Samarqanddan yuborilgan qo‘shinlar ham hamrohlik qiladi.

Nizomiddin Shomiy Umarshayx mirzo boshchiligidagi qo‘shin Qurotu tog‘ida Qamariddin bilan jang qilib g‘olib chiqqan bo‘lsa ham uni asir ololmaganliklarini bayon qiladi. Barcha mualliflar ushbu yurish davomida katta o‘ljalar qo‘lga kiritilganligini ta’kidlaydilar. Ushbu yurish natijalari va ahamiyatiga Muiniddin Natanziy alohida urg‘u bergan: “Bu g‘alaba natijasida u

(Qamariddin)ning qudrati butunlay sindirildi va mo‘g‘ul ulusining shu choqqacha chig‘atoy chopqinidan omonda yurgan qismi ham asir qilindi. Shundan so‘ng Qamariddinda Mo‘g‘ulistonning hech bir mavze’ida istiqomat qilishga majol qolmadi. … Mo‘g‘ulistonning boshqa tansiq va nodir buyumlaridan ham nafis sovg‘a-salomlarni chiroyli tarzda hozirlab, dargoh tarafga otlandi. O‘sha sanadan boshlab Movarounnahr va boshqa o‘lkalarda mo‘g‘ul qul va kanizaklari paydo bo‘ldi”. Movarounnahrga Yettisuvdan qul va kanizaklarini keltirish yuz yildan oshiq davom etdi. Faqatgina XV asrning so‘nggi choragida Marg‘ilon shahrida Mo‘g‘uliston xoni Yunusxon bilan Xo‘ja Ahror Valiy o‘rtasidagi uchrashuvdan keyingina mo‘g‘ullarni qul qilib, Movarounnahrda sotishga chek qo‘yilgan.

Amir Temur shu yili yana Mo‘g‘uliston yurishiga otlandi. (Bu yurishni B.Ahmedov 1377-yilning bahorida bo‘lganligini ta’kidlaydi. Lekin Nizomiddin Shomiy va Yazdiy ham uni shu yili ya’ni 1376-yili yuz berganligini ta’kidlashgani uchun biz ham ushbu sanani to‘g‘ri deb o‘ylaymiz) Lekin bu yurish yakuniga etmaydi. Garchi Amir Temur qo‘shinlari Mo‘g‘uliston hududlarining ichkarisiga yetib borib Qo‘chqor mavzeyigacha (Qirg‘iziston Respublikasidagi hozirgi Qochkorka shahri) yetib borgan bo‘lsalar-da, Oq O‘rda shahzodalaridan To‘xtamish o‘g‘lonning yordam so‘rab kelayotganligidan xabar topgan Sohibqiron ortga qaytishga buyruq beradi. Oxirgi uch yurish (1-yurish Qamariddinni Farg‘onadan quvib chiqarish uchun boshlanib Jahongir mirzo vafotiga qadar, 2-yurish Jahongir mirzo vafotidan so‘ng Umarshayx mirzo boshchiligidagi, 3-yurish Sohibqiron boshchiligida Qo‘chqorchi mavzeyiga qadar yetib borilgan. Sharofuddin Ali Yazdiy aynan shu yurishni beshinchi yurish deb hisoblagan bo‘lsa-da, B.Ahmedov uni to‘rtinchi yurishga qo‘shib yuboradi.) bir yilda ya’ni 1376-yili sodir bo‘lganligi uchun to‘rtinchi yurish deb hisoblanadi.

Umuman olganda ushbu yurishlar Mo‘g‘ulistondagi Qamariddin qudratini sindirdi va Mo‘g‘ul qabilalarining Toshkent va Farg‘ona hududlariga qiladigan bochqinchilik yurishlariga vaqtinchalik bo‘lsa-da chek qo‘ydi.

B.Ahmedov 1383-yili amalga oshirilgan harbiy yurishni beshinchi yurish, deb hisoblaydi. Bu yurishning sabablari xususida manbalarda ma’lumot uchramadik. Bizningcha, bu Mo‘g‘ulistonda kuchlar nisbati o‘zgarib Bahrin qabilasidan chiqqan yangi yetakchi amir Qamariddin (yuqorida so‘z yuritilgan Qamariddin dug‘lat qabilasining yetakchisi edi.) atrofida mo‘g‘ul kuchlarining birlashuvi boshlanayotganligi bilan bog‘liq edi. Mazkur yurishda Sohibqiron shaxsan ishtirok etmagan. Dastlab Amirzoda Ali (Amir Temurning jiyani, singlisining o‘g‘li) boshchiligida Qamariddin ustiga qo‘shin jo‘natiladi. Lekin bu qo‘shin Qamariddin tomonidan tor-mor etilgach, Sayfulbek, Atalmish va Arg‘unshoh boshchiligida yangi lashkar jo‘natiladi. Ko‘p o‘tmay ularga yordam uchun Amir Jahonshoh boshchiligida yangi qo‘shin jo‘natiladi. Temuriy amirlar bu safar Issiqko‘l sharqidagi Ko‘ktepagacha yetib bordilar. Lekin bu safar ham Qamariddin asir olinmaydi.

Amir Qamariddin mag‘lubiyatga uchraganidan so‘ng Mo‘g‘ulistonda davom etgan o‘zaro nizolarda Amir Anqoto‘ra qo‘li baland kela boshladi. U o‘z hokimiyatini mustahkamlab olgach, Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxon bilan ittifoq tuzib, Movarounnahrga tahid soldi. 1387-yilning oxirida Amir Temurning

Erondaligidan foydalangan Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxon va uning yana bir ittifoqchisi Xorazm hukmdori Sulaymon So‘fi qo‘shinlari Movarounnahrga bostirib kirdi. Xorazm qo‘shinlari Buxoro atroflarini talagan bo‘lsa, Jo‘chi ulusi lashkari Sirdaryo bo‘yi shaharlari orqali yurish boshladi. O‘tror yaqinidagi Chukalak jangida temuriylar qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratgan bosqinchilar butun Movarounnahrni talon-taroj qila boshladilar.

Movarounnahrdagi vaziyatni o‘zi uchun qulay ekanligini ko‘rgan Mo‘g‘uliston amiri Anqato‘ra ham Sayram va Toshkent orqali bostirib kiradi. Nizomiddin Shomiy Umarshayx mirzo ushbu bosqindan xabar topganidan so‘ng unga qarshi kurashish uchun Xo‘jandga yetib kelganligini qayd etadi. Sharafuddin Ali Yazdiy esa Umarshayx mirzo To‘xtamishxon qo‘shinlariga qarshi kurashish uchun Andijondan yo‘lga chiqqan paytda Anqoto‘raning yurishi to‘g‘risida eshitganini qayd etarkan, voqealarni quyidagicha bayon qiladi: “... yana cherik jam’ etib, dushmanlar sori (To‘xtamishxon lashkari nazarda tutilmoqda – U.B.) borur edikim, xabar keldi: Jeta soridin Anka to‘rakim, Hojibek Arkanutning ag‘osining o‘g‘li erdi, hazrat sohibqironning shafqatlarini unutub, ahdni sindurub, qalin cherik bilan Mo‘g‘ulistondin Sayram va Toshkand ustiga kelib, musulmonlarning mollarini taladi. Amirzoda Umarshayx bu holatdin xabar bilib, O‘zgand cherikini yig‘ishturub, Xo‘jandga kelib, anda ma’lum qildikim, dushmanlar Sag‘imish yo‘lidin Andijong‘a mutavajjih bo‘lub tururlar.” Ushbu asarning noshirlari asl forscha matnda dushman kelgan yo‘lning nomini Chaqishmish deb berilganligini ta’kidlagan. Nizomiddin Shomiy esa dushman Chaqishmanddan O‘zgand (ya’ni Farg‘ona vodiysiga – U.B.)ga jo‘naganligini qayd etgan. Demak, bundan ko‘rinadiki, Chaqishmish va Chaqishmand nomlari asliyatga yaqindir. Ammo ushbu mavzening hozirgi o‘rni haqida aniq xulosa mavjud emas. Xondamir esa Umarshayx mirzo Xo‘jandga kelganda Anqoto‘ra boshqa yo‘l bilan Andijon tomon yo‘l olganligini qayd etib, ushbu yo‘lning nomini keltirmagan. B.Ahmedov mo‘g‘ullar kirib kelgan yo‘lni Chaqishmon yo‘li, deb atagani holda, uning qayerdaligiga aniqlik kiritmaydi. A.Ahmedov va H.Bobobekovlar Anqoto‘ra Sharqiy Turkiston orqali bostirib kirgan, degan xulosani bildiradi. Biroq bu fikr biroz munozarali. Chunki, Sayram va Toshkent orqali Xo‘jand viloyatigacha kirib kelgan mo‘g‘ullar, Umarshayx mirzoning Farg‘ona lashkari bilan Xo‘jandga yetib kelganligini eshitgach, ortga qaytib ketib, Sharqiy Turkiston orqali vodiyga sharqdan bostirib kirishlari uchun anchagina vaqt ketgan bo‘lardi. Shuningdek, ular ortga qaytganda Umarshayx mirzo ham Farg‘onaga qaytmay, Samarqand tomon yo‘lida davom etardi.

Nizomiddin Shomiyning Anqoto‘ra lashkari Xo‘jand viloyatini talon-taroj qilganligi haqida ma’lumotidan kelib chiqsak, ular Sayram, Toshkentdan so‘ng vodiyning g‘arbidagi O‘ratepa va Shohruxiyaga qo‘shni bo‘lgan hududlariga hujum qilganligi oydinlashadi. Bizningcha, To‘xtamishxon lashkari Zarafshon vohasini talon-taroj qilayotgan, Umarshayx mirzo ham o‘z qo‘shinlari bilan Xo‘jandga yetib kelgan bir vaqtda, Xo‘jand viloyatida turgan Anqoto‘ra Zarafshon vohasi tomon yurishni ma’qul ko‘rmay, himoyasiz qolgan Farg‘ona vodiysiga Sirdaryoning shimoliy qirg‘oqlari orqali yurish qiladi. Keyinchalik, 1494-yili ayni shu yo‘l bilan Toshkent xoni mo‘g‘ul Sulton Mahmudxon ham Farg‘ona vodiysiga

bostirib kirib, Axsikatni qamal qilgandi. Qish vaqtida vodiyga kirib kelishning boshqa yo‘li ham yo‘q edi. Amir Temurning mart-aprel oylarida Umarshayx mirzoni Samarqandga qo‘yib o‘zi Xorazmga beshinchi yurishini boshlaganligini hisobga olsak, Anqoto‘raning Farg‘ona vodiysiga kirib kelish voqeasi kechi bilan qishning oxirlariga to‘g‘ri keladi.

Sharafuddin Ali Yazdiy ikki tomon qo‘shini to‘qnashgan daryo nomini Axsikat suvi, Sayxun, Muiniddin Natanziy esa Sayxun, Shomiy esa Oqsoy suvi nomlari bilan qayd etgan. Farg‘ona vodiysining g‘arbiy va shimoliy hududlarida Sirdaryoning Axsikat suvi deb atalishi boshqa manbalarda ham uchraydi. Oqsoy suvi uning irmoqlaridan biri bo‘lishi mumkin. Agar Anqoto‘ra Sharqiy Turkiston orqali kirib kelganda, har ikki tomon ham Andijon tarafga Axsikat suvi yoqalab yaqinlashmagan bo‘lar edi.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Jeta mo‘g‘ullari 1388-yilning boshlarida Farg‘onaga Sharqiy Turkiston orqali kirib kelmagan. Ular bu safar vodiyga g‘arbdan, Xo‘jand tomondan Sirdaryoning shimoliy qirg‘oqlari bo‘ylab yurish boshlaganlar. Tarixiy manbalarda Chaqishmand, Chaqishmish, Sag‘imish nomlari bilan atalgan yo‘lni esa navbatdagi tadqiqotlarda chuqur o‘rganish talab etiladi.

Muiniddin Natanziyning bu voqealarni quyidagicha hikoya qiladi: “... bir qancha lashkarlar hozirlab, Samarqand tarafga yuzlandi. Vaziyat shunday bo‘lib turgan bir paytda, Inka to‘ra qariyb yigirma ming otliq bilan (Mo‘g‘ulistondan) Movarounnahrni zabt etish azmida yetib keldi. Amirzoda Umarshayx uni daf’ etishni muhim ishlardan ko‘ra ham zarurroq hisoblab, jo‘nash jilovini Samarqand yo‘lidan burib, ular tarafga qarab yo‘naltirdi. O‘zkandlik bir qancha xoinlar mo‘g‘ullarni boshlamishiy qilib, Sayxundan kechuv orqali o‘tkazishdi. Amirzoda Umarshayx (dushman) qamarg‘asiga qarshi turish maholligini sezdi va shaharda mustahkamlanib olishni afzal ko‘rib, ortga qaytdi”. Muiniddin Natanziyning ma’lumoti orqali ikki qo‘shin orasida bo‘lgan daryoning Sirdaryo ekanligi to‘g‘risidagi fikr mustahkamlanib, dushman qo‘shinining 20 ming kishidan iborat ekanligi va mag‘lubiyatning sabablaridan biri esa xoinlik bo‘lganligi oydinlashadi.

Aslida ham Chukalak jangidagi mag‘lubiyatdan keyin Umarshayx mirzo Anqoto‘raning yigirma ming kishilik lashkariga qarshi tura oladigan qo‘shin yig‘ishi amri mahol edi. Shunga qaramay, mudofaachilar bosqinchilarga qarshi qahramonona jang qiladilar. Shaxsan Umarshayx mirzoning o‘zi shahar tashqarisiga chiqib, dushmanga shiddatli hujumlar qiladi. Shaharni egallay olmay o‘z yurtiga chekinayotgan dushman O‘sh va O‘zgan viloyatlarini talon-taroj etganligi, Umarshayx mirzo esa ikki yuz otliq bilan dushmanni ta’qib etib barcha asirlarni ozod qilganligini manbalarda ta’kidlanadi.

Amir Temur Movarounnahrga qaytib kelgach, mamlakat mudofaasi uchun olib borilgan janglarni birma-bir tahlil etadi va bosqinchilarga qarshi mardonavor jang qilgan Farg‘ona qo‘shini hamda uning sarkardalari alohida taqdirlanadi. Umarshayx mirzo yuqoridagi xizmatlari uchun Amir Temurning olqishiga sazovor bo‘lganligini Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida: “Va shahzoda ul bahodurlik qilgan uchun ani ko‘p inoyatlar bilan sarafroz qildi,” – deb ta’riflaydi.

Amir Temur To‘xtamishga qarshi yurish boshlashdan avval Mo‘g‘iliston masalasini hal qilishni zarur deb topdi. 1389-yili Amir Temurning Mo‘g‘uliston

hududiga yangi katta yurishi boshlandi. Bu yurish oltinchi yurish bo‘lib, bu haqida quyida kengroq to‘xtalib o‘tamiz

1389-yilning mart oyida Umarshayx mirzo boshchiligidagi qo‘shin Temuriylar lashkarining Sirdaryodan o‘tishi uchun ko‘prik bunyod etadi. Movarounnahr lashkarining Sirdaryodan o‘tganini eshitgan Dashti Qipchoq lashkari o‘z yurtiga qaytib ketadi. Shundan so‘ng kengash o‘tkazilib, Dashti Qipchoq tomon yurishni davom ettirish yoki To‘xtamishxonning yana bir ittifoqchisi Mo‘g‘uliston xoni Xizr Xojaxon va uning amiri Anqoto‘rani tor-mor keltirish zarurligi to‘g‘risida maslahat qilinadi.

Qurultoy arafasida Mironshoh mirzo Xurosonga qaytariladi. Buning bir necha sabablari bor edi. Birinchidan, bu vaqtda Amir Temurning Movarounnahrda bandligidan foydalangan Muzaffariylar sulolasining vakillari Fors viloyatida yana o‘z mavqelarini mustahkamlanayotgandi. Ikkinchidan, 1388-yilda Tusda Xojibek Joniqurboniy boshchiligida yuz bergan isyon bostirilgan bo‘lsa-da Xurosonda vaziyat to‘la barqaror emasdi.

Shu sababli kengashda Amir Temur o‘g‘illaridan faqat Umarshayx mirzo ishtirok etadi. Asosiy raqib To‘xtamishxonga qarshi yurish boshlashdan avval uning ikkinchi qanoti Mo‘g‘ulistonni ham tor-mor keltirishi zarur edi. Bu masala yana shuning uchun ham muhim ediki, uzoq davom etadigan Dashti Qipchoq yurishini boshlashdan avval Farg‘ona vodiysi va Toshkent vohasi xavfsizligini to‘liq ta’minlash talab etilardi. Buning uchun esa aynan shu hududga qo‘shni bo‘lgan Mo‘g‘ulistonni tor-mor keltirish, ularning bu hududlarga bosqin uyushtirish imkoniyatlarini yo‘qqa chiqarish kerak edi. Umarshayx mirzo Farg‘ona hokimi sifatida, qolaversa, eng maqbul taklif sifatida Mo‘g‘uliston yurishini qo‘llab quvvatlagan.

Ushbu yurishda Umarshayx mirzo va uning boshchiligidagi Farg‘ona qo‘shini ham faol ishtirok etib, bir necha bor o‘z qahramonliklari bilan Amir Temur e’tirofini qozonadilar. Ulardan biri to‘g‘risida so‘z yuritar ekan, Sharafuddin Ali Yazdiy Umarshayx mirzoni 50 kishi bilan dushmanning 800 kishilik guruhini tor-mor keltirganligini qayd etgan. Amir Temur ushbu yurishdan qaytarkan, Mo‘g‘ulistonning janubiy qismi, ya’ni Sharqiy Turkistondagi dushmanlarni tor-mor keltirishni Umarshayx mirzoga topshiradi.

Umarshayx mirzo dastlab Ko‘plakbek boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinini tor-mor keltirib, Kuran va Uchfarmon mavzelarini egallaydi. Shundan so‘ng g‘olib lashkar ikkinchi bor Koshg‘arga yetib kelib, uni zabt etadi. Bu yurish orqali Farg‘ona vodiysiga sharqiy tomondan qo‘shnisi bo‘lgan ko‘chmanchi mo‘g‘ullarning kuch-qudratiga yana bir bor zarba beriladi. Ushbu yurish davomida Sohibqiron qo‘shinlari deyarli butun Mo‘g‘ulistonni kezib chiqdilar. Aynan shu yurish natijasida Mo‘g‘ul sarkardalaridan Anka to‘ra va Qamariddinlarning qudrati to‘liq sindirildi.

Amir Temur 1390-yili ettinchi marta Mo‘g‘uliston tomon katta qo‘shin jo‘natdi. Bu gal ham mo‘g‘ul qo‘shinlari tor-mor keltirildi. Lekin Qamariddin va Anka To‘rani asir olishning iloji topilmadi. Shunga qaramay ushbu yurishlardan so‘ng ular butunlay siyosiy va harbiy faoliyatda ko‘zga ko‘rinmadilar. Tarixiy manbalarda ular haqida ma’lumotlar berilmagan.

### *Amir Temur hukmronligining so'nggi yillarida Mo'g'uliston bilan munosabatlar*

Umuman olganda 1389, 1390-yillarda Mo‘g‘ulistonga uyushtirilgan katta harbiy yurishlar Farg‘ona vodiysining chegaralari yanada mustahkamlandi va mo‘g‘ullarning bosqinchilik hujumlariga butunlay chek qo‘yildi. Shundan so‘ng keyingi 20-30 yil davomida mo‘g‘ullarning Farg‘ona vodiysiga bosqini kuzatilmadi. Movarounnahr qo‘shinlari bilan janglardagi ketma-ket mag‘lubiyatlar mo‘g‘ullarga o‘z e’tiborlarini sharqqa qaratishga ham majbur qildi. Amir Temurga bo‘ysungan Xizrxojaxon davrida mo‘g‘ullar, mirzo Haydarning ta’kidlashiga ko‘ra, bu vaqtda Xitoy qaromog‘iga o‘tib qolgan Turfon va Qoraxo‘jaga hujumlar uyushtirganlar.

Amir Temur 1397-1398-yil qishini Toshkent viloyati Chinoz yaqinida yangi barpo etilgan qishloqda o‘tkazadi. Aynan shu qish faslida mamlakatning sharqiy hududlari uchun muhim bo‘lgan bir necha qarorlar qabul qilinadi. Birinchidan, Amir Temur Turkiston shahridagi Ahmad Yassaviy mozorini ziyorat qiladi va bu yerda muhtasham maqbara qurishga farmon beradi. 1397-1398-yillar davomida mazkur maqbara qurib bitkaziladi. Ushbu muhtasham maqbara Ahmad Yassaviy ruhiga buyuk hurmat belgisi bilan birgalikda bir necha siyosiy maqsadlarni ham ko‘zlagan edi.

Ikkinchidan, ushbu qishda Amir Temur Mo‘g‘uliston xoni Xizr Xojaxonning qizi To‘kal xonimga uylanadi va bu bilan ikki qo‘shni davlat o‘rtasidagi aloqalar yanada mustahkamlanadi. Bu shubhasiz, Farg‘ona vodiysi xavfsizligi uchun ham muhim edi.

Uchinchidan, 1398-yilning fevral oyida Sohibqiron farmoniga ko‘ra, valiahd shahzoda Muhammad Sulton mirzo bir necha nomdor amirlar bilan Mo‘g‘uliston bilan chegaralarni mustahkamlash uchun yuboriladi. Aslida bu Amir Temurning uzoq yillik orzusi Xitoy yurishiga tayyorgarlikning boshlanishi edi. Lekin shu bilan birgalikda Mo‘g‘uliston chegaralari dehqonchilik hududlarining barpo etilishi, harbiy qal’alarning qurilishi Movarounnahrning sharqiy hududlari, jumladan, Farg‘ona vodiysi xavfsizligini ta’minlash yo‘lidagi yana bir muhim qadam edi. Chunki tiklangan Ashpara qal’asi va uning atroflarini mo‘g‘ullar avvallari o‘z mamlakatlarining hududi, deb bilishar, bu joylar orqali Movarounnahrga bosqinchilik yurishlari uyushtirishardi. Shuning uchun ham mazkur bunyodkorlik ishlari mo‘g‘ul ko‘chmanchilarini Movarounnahr va Farg‘onaning o‘troq hududlaridan yanada uzoqlashtirilganligini bildirar edi. Valiahd shahzodaning 1398-yilning fevralidan to 1399-yilning may oyiga qadar Mo‘g‘uliston chegaralarida bo‘lishi bu vazifaga naqadar mas’uliyat bilan qaralganini ko‘rsatadi. Muhammad Sulton mirzo faqatgina Amir Temurning yetti yillik yurishga ketishi munosabati bilan Samarqandni boshqarib turish uchun chaqirib olinadi. Amir Temur Hindiston yurishiga ketgan vaqtda Samarqand boshqaruvi Mironshoh mirzoning o‘g‘li mirzo Umarga topshirilgan edi. Mironshoh mirzo o‘z mulklarida boshqaruvni izdan chiqarganligi ma’lum bo‘lganidan keyin, Amir Temur Movarounnahrni boshqarib tajriba to‘plagan mirzo Umarni o‘zi bilan Ozarbayjonga olib ketishga qaror qiladi va uning o‘rniga Muhammad Sulton chaqiriladi.

Amir Temur 1399-yili yetti yillik yurishni boshlashdan avval Movarounnahrning sharqiy chegaralaridagi viloyatlarda ma’muriy o‘zgarishlarni amalga oshirdi. U valiahd Muhammad Sulton mirzoni Mo‘g‘uliston chegaralaridan Samarqandga chaqirib olarkan, baribir mamlakatning sharqiy chegaralarini shahzodalarsiz qoldirmaydi. Farg‘ona vodiysini boshqarish marhum Umarshayx mirzoning o‘g‘li 15 yoshli Iskandar mirzoga topshiriladi. 1399-yilning yozidan bu yerda Iskandar mirzo hukmronligi boshlanadi. Iskandar mirzoga ham o‘z vaqtida otasi Umarshayx mirzoga bo‘lgani kabi Mo‘g‘uliston bilan chegaradosh hududlar xavfsizligiga e’tibor qaratish, Mo‘g‘ulistondagi vaziyatni doimo nazorat qilib borish, u yerda Temuriylarga nomaqbul vaziyatni paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, Mo‘g‘uliston chegaralarida, jumladan, Ashpara atroflarida turgan amirlar bilan o‘z harakatlarini muvofiqlashtirib borish vazifalari yuklangan edi. Iskandar mirzoga aynan shunday vazifalar topshirilganligini keyingi voqealar rivoji tasdiqlaydi.

1399-yili Mo‘g‘uliston xoni Xizr Xojaxonning vafot etishi natijasida xonlik hududida uning o‘g‘illari o‘rtasida taxt uchun kurash boshlanadi. Bu vaziyatni Mo‘g‘ulistonga yurish qilish uchun qulay fursat, deb bilgan amirlar yosh Iskandar mirzoni urushga undaydilar. Iskandar mirzo boshchiligidagi Farg‘ona lashkari O‘sh va O‘zgan shaharlari orqali o‘tib, dovon orqali Sharqiy Turkiston hududiga kirib boradilar. Yurish Iskandar mirzo Farg‘ona vodiysi hukmdori etib tayinlanganidan bir necha oy o‘tgach, kuz faslida boshlandi.

Tabiiyki, Amir Temur davlatining Mo‘g‘ulistonga qarashli Yettisuv o‘lkasi bilan chegaradosh hududlarda turgan temuriylar lashkari ham xonlikdagi vaziyatni kuzatib borayotgandi. Ular o‘z faoliyatlarini Mo‘g‘ulistonga chegaradosh yana bir hudud – Farg‘ona vodiysi kuchlari bilan muvofiqlashtirib borishlari zarur edi. Ashpara atrofida turgan beklar ham o‘z lashkarlari bilan Mo‘g‘ulistonga kirib borib, Koshg‘ar yaqinida Iskandar mirzo lashkariga borib qo‘shiladilar.

Temuriylar qo‘shini dastlab Koshg‘arni qo‘lga kiritadi va bu shahar yurishni davom ettirish chog‘ida asosiy tayanch qarorgoh vazifasini bajaradi. Abdurazzoq Samarqandiy Iskandar mirzo qo‘shini dastlab Uch-Barmanni qo‘lga kiritganligini, so‘ngra Oqsuvga chekingan raqib ta’qibga olinganligini ta’kidlaydi. Uch-barman Koshg‘ar yaqinida ekanligini nazarda tutsak har ikki muallif ham bir-biriga yaqin ma’lumotlar berayotganligini ko‘ramiz. Koshg‘ardan so‘ng Yorkent, Sariqqamish, Kalpin, Alako‘l, Yorqo‘rg‘on, Chahortoq, Kuyukbog‘, Uchturfon, Oqsuv hududlari birin-ketin zabt etiladi. Temuriylar qo‘shinining yurishini xarita orqali kuzatsak, quyidagi yo‘nalish hosil bo‘ladi. Qo‘shin Koshg‘arni egallagach, Yorkent shahri tomon, janubi-g‘arb tomonga siljib boradi. Yorkent hududi zabt etilgach, qo‘shin o‘z yo‘nalishini shimoli-sharq tomon o‘zgartiradi va Yorkentdaryo bo‘ylab harakatlana boshlaydi. Qo‘shinning bir qismi Koshg‘ardan to‘g‘ri Oqsuv tomon harakatlangan bo‘lsa kerak. Chunki bu yo‘l Oqsuvga olib boradigan eng yaqin yo‘l bo‘lib, uning atrofidagi o‘troq va yarim ko‘chmanchi, shuningdek, ko‘chmanchi aholini bo‘ysundirish uchun juda qulay edi. Tarixiy manbada sanab o‘tilgan bo‘ysundirilgan hududlardan biri – Kalpin Koshg‘arning shimoli-sharqidagi tog‘ vodiylaridan biri ekanligi A.Ahmedov va H.Bobobekovlar tomonidan ta’kidlangan. Agar shunday harakat yo‘nalishi ham tanlangan bo‘lsa,

lashkarning ikkinchi qismi taxminan Koshg‘ar-Oqsuv yo‘lidagi Maralboshi shaharchasi atrofida yana bir-biriga qo‘shilgan bo‘lishi kerak. Oqsuvgacha bo‘lgan hududdagi ko‘plab manzil va aholi yashash joylari nomlarining Sharafuddin Ali Yazdiy tomonidan birma-bir tilga olinishi, chekinayotgan raqibni ta’qib etish jarayonida har hududning Temuriylar qo‘shini tomonidan batafsil nazorat qilinganligidan dalolat beradi.

Mo‘g‘ulistonda o‘zaro urushlar avjiga chiqqanligi shundan ham ko‘rinadiki, tarqoqlik natijasida mo‘g‘ul qabilalari bilan yirik janglar ham sodir bo‘lmaydi. Aftidan ko‘chmanchi qabilalar imkon qadar mol-mulkini olib dashtu cho‘llarning ichkarisiga chekinishga harakat qilgan. Bizningcha, temuriylar zarbasiga asosan o‘troq va yarim ko‘chmanchi aholi duch kelgan. Manbalar ochiq maydonlarda olib borilgan yirik janglar yoki o‘sha davr tili bilan aytganda masof urushlari haqida ma’lumot bermaydi. “Va borib Yorkentni choptilar. Va andin o‘tib Sariqqamish va Kalpin va Alako‘l va Yorqo‘rg‘on va Chahortoq va Kuyukbog‘ barchani chobtilar. Uchda etkonda el-uluskim, bor edi, ba’zilari tobi’ bo‘lub, ba’zilari ko‘churib Oqsuv yo‘lidin elttilar” Yazdiy tomonidan ta’kidlangan aholining ko‘chirilishi Uchturfon-Oqsuv-Koshg‘ar yo‘nalishi bilan bo‘lgan bo‘lsa kerak, chunki aholi Oqsuv yo‘lidan olib ketilganligi aytilgan. Shuningdek, Oqsuv-Yorkent-Koshg‘ar yo‘lidan Oqsuv-Koshg‘ar yo‘li bir necha marta yaqin edi.

Mo‘g‘uliston amirlari Temuriylar qo‘shini bir necha hududlarni zabt etgach, o‘lja olib, mavjud mudofaa inshootlarini vayron qilib, qaytib ketishini kutgan bo‘lishi mumkin. Lekin temuriylar qo‘shini mamlakatning ichkarisi tomon chuqur kirib borishda davom etganidan so‘ng nihoyat jiddiy qarshilikka duch kela boshlaydi. Dastlab Uchturfondagi qal’a hujum bilan zabt etiladi. So‘ngra Oqsuvdagi uchta mustahkam qal’alar qirq kunlik janglar bilan bo‘ysundiriladi. Temuriylar qo‘shini Oqsuvga yetib kelganidan so‘ng dastlab shimoli-g‘arbga qarab yurib, Uchturfonga kirib borganlar va uni zabt etgach, yana ortga Oqsuvga qaytgan. Chunki, Oqsuvga yaqin uchta qal’ani keyinroq zabt etilishi, fikrimizcha, ularning shahardan g‘arbda joylashganligi bilan bog‘liq. Sharafuddin Ali Yazdiy ularni Uchturfondagi qal’adan keyin tilga oladi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, Temuriylar qo‘shini Uchturfondan o‘sha yo‘l bo‘ylab harakat qilib, ikkita dovon orqali Yettisuv hududiga, ya’ni Mo‘g‘ulistonning markazi bo‘lmish Issiqko‘l tomonga o‘tishlari mumkin edi. Lekin qishning yaqinlashib kelayotganligi hamda bu yurish faqat Farg‘ona vodiysidagi qo‘shin va Amir Temur Ashpara atrofida qoldirgan harbiy birliklarning bir qismi tomonidan olib borilayotganligi uchun ham tavakkal qilishni ma’qul ko‘rmagan. Yuqorida aytganimizdek, Iskandar mirzo qo‘shinni Uchturfondan yana Oqsuv tomonga qaytaradi. Bizningcha, u Xitoy chegaralari tomon borishni niyat qilgan.

Oqsuvdagi bir yo‘l bo‘yida ketma-ket joylashgan uchta mustahkam qal’ani Buyuk Ipak yo‘lining mazkur tarmog‘ida joylashgan kichik shahar-qal’alar sifatida tushunishimiz zarur. V.V.Bartold ham bu qal’alarda Xitoy bilan savdo qiluvchi yirik savdogarlar yashaganligini va ular katta o‘lpon to‘lab omon qolganlarini ta’kidlaydi. Chindan ham Iskandar mirzo mazkur qal’alar taslim bo‘lganidan so‘ng ularga omonlik berib, ularga zarar yetkazmaydi. Buni Sharafuddin Ali Yazdiy ham ta’kidlaydi: “Va Uchda bir mahkam qal’a bor erdi, anda kelib ko‘b urushub fath

qildilar. Va Oqsuvda uch qal’a bor erdikim, barchaning yo‘li bir erdi. Va andoq berk qal’alar erdikim, ta’rif qilsa bo‘lmas. Ul qal’alarga e’timod qilib ba’zi el anda kirib erdi, amirzodai mushori ilayhi beklar bila Oqsuvga bordilar. Anda etkonda urush asbobig‘a mashg‘ul bo‘ldilar. Qirq kung‘acha urush qildilar. Oxir qal’adagi el ojiz bo‘lub peshkashlar chiqarib amon tiladilar. Va shahzoda alarg‘a omon berib, andin Boy va Kusin sori chopqin yibardilar. Va Boy yayloq erdi va Kusin – qishloq. Amirzodaning cheriki Boy va Kusinni chopib, Xizrshohbekning harami Malik og‘a va qizi Ihsan Malikni asir ettilar”. B.Ahmedov o‘zining “Temur va Qamariddin” nomli monografiyasida malikalar nomini Hoji Mulk og‘a va Eson mulk shaklida keltiradi.

Abdurazzoq Samarqandiy faqat Oqsuv qal’asi uchun olib borilgan janglar haqida so‘z yuritib, mudofaachilar 12 kun qattiq qarshilik ko‘rsatgandan keyingiga taslim bo‘lganliklarini ta’kidlaydi. Baydagi mo‘g‘ul qo‘shinlariga shaxsan amir Xudoydod boshchilik qilganligini qayd etarkan, bu yerdagi janglar natijasida asirga tushgan malikalar ismini Hoji Mulk og‘a va Alin og‘a tarzida keltiradi.

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, B.Ahmedovning temuriylar qo‘shini ushbu yurish davomida Xo‘tandan to Xonbaliqqacha bo‘lgan yerlarni bosganligi va qishni Xo‘tanda o‘tkazganligi haqidagi fikri, bizningcha, haqiqatdan yiroq. Birinchidan, manbalarda Xonbaliqqacha yurish qilingani haqida qayd uchratmadik. Sharofuddin Ali Yazdiy Xonbaliqqacha bo‘lgan masofa haqida ma’lumot bergan, xolos. Ikkinchidan, muarrix Iskandar mirzo qishni Koshg‘arda o‘tkazganligini ta’kidlagan.

Boy va Kusinda malikalarning asir olinganligi, amir Xudoydod mo‘g‘ulning mag‘lub etilganligi raqibning asosiy kuchlari mana shu hududlardagi janglarda tor-mor keltirilganligidan dalolat beradi. Chunki bu jangdan so‘ng temuriylar qo‘shini deyari qarshilikka uchramaydi. Manbalardan ayon bo‘ladiki, temuriylar qo‘shini Oqsuvdan keyin ham sharq tomon yurishni davom ettirgan. Ular Oqsuvdan taxminan 150 km masofadagi Boy va undan taxminan 300 km uzoqlikdagi Kusin, ya’ni Kucha shaharlarini ham zabt etadi. Yurishni davom ettirgan qo‘shin Torimni ham zabt etib, u yerdagi aholini bir qismini ko‘chirib olib ketadi. Sharafuddin Ali Yazdiy Torim nomi bilan cheklangan bo‘lsada, bu Torim vohasidagi yagona shahar Chora ekanligi taxmin qilinadi. Chora shahri Temuriylar qo‘shini sharqqa tomon eng uzoq borgan hudud bo‘lib, Oqsuvdan taxminan 700-800 km uzoqlikdagi masofa edi. Garchi manbada Torim vohasi aholisining qayerga ko‘chirilganligi aniq aytilmasa-da, ular Farg‘ona vodiysiga ko‘chirilgan, deb taxmin qilish mumkin. Avval Umarshayx mirzo ham Sharqiy Turkiston aholisining bir qismini Farg‘ona vodiysiga ko‘chirganligi ma’lum. Iskandar mirzo ham bu ishni davom ettirgan ko‘rinadi.

Abdurazzoq Samarqandiyning ma’lumot berishiga ko‘ra Iskandar mirzo Mo‘g‘ulistonning eng chekka hududlariga qo‘shin tortish niyatida bo‘lgan. Lekin, Ashparadan kelib qo‘shilgan yirik amirlar Amir Temur ularga Chu vodiysida qishlashga topshiriq berganligi sababli ortga qaytishlari zarurligi bildirishadi. Natijada temuriylar qo‘shinining bir qismi Yettisuvga qaytgan bo‘lsa, qolgan qismi Iskandar mirzo boshchiligida yurishni davom ettiradi. Iskandar mirzo o‘z lashkar bilan Xo‘tanni zabt etgach qish kirib qolganligi va dovon yo‘li berkilganligi

sababli qishni Koshg‘arda o‘tkazib, bahorda Farg‘ona vodiysiga qaytadi. Sharafuddin Ali Yazdiyning ma’lumotiga qaraganda, Iskandar mirzo Xo‘tandan yana janub tomondagi Qorong‘utog‘, deb ataluvchi tog‘lar tomon yurishni davom ettirgan. Bu yurish natijasida Qorong‘utog‘ yon bag‘irlarida yashovchi qabilalar ham zabt etilgan. Shundan so‘ng, g‘olib lashkar Xo‘tan va Yorkent shaharlari orqali Koshg‘arga qaytib borgan.

Umuman olganda, ushbu yurish natijasida temuriylar qo‘shini bir necha ming kilometr yo‘l bosib, deyarli butun Sharqiy Turkistonni zabt etdilar. Iskandar mirzoga qadar hech bir temuriy sarkarda Sharqiy Turkiston bo‘ylab bunday keng ko‘lamli va uzoq davom etgan yurish tashkil etmagan edi. Amir Temur asosan Mo‘g‘ulistonning markazi Yettisuv hududi va uning shimolidagi erlar tomon yurish qilgan bo‘lsa, uning Sharqiy Turkistondagi yurishi Koshg‘ar atrofi bilan cheklangan edi. Umarshayx mirzo ham o‘zi Amir Temur farmoniga ko‘ra, Sharqiy Turkistonga qo‘shin tortib kelganda otasi kabi Koshg‘ar atrofini zabt etish bilan kifoyalangan.

Iskandar mirzoning qishni Koshg‘arda o‘tkazishi Sharqiy Turkistonda unga xavf soladigan raqib qolmaganidan ham dalolat beradi. Yuqorida aytganimizdek, avvallari ham temuriylar qo‘shini Sharqiy Turkistonga kirgan bo‘lsa-da, mamlakat ichkarisiga bu qadar kirib bormagan va bu darajada ko‘p qal’alarni bo‘ysundirmagan edi. Garchi Iskandar mirzo zabt etilgan qal’a va shaharlarning barchasini tark etgan bo‘lsada (chunki ularni doimo itoatda saqlab turish uchun mirzoning lashkari kamlik qilardi), Koshg‘ar shahrini o‘z qo‘lida saqlab qoldi. Shundan so‘ng mazkur shahar to Mirzo Ulug‘bek davrida dug‘lat amirlari tomonidan zabt etilgunga qadar temuriylar mulki tasarrufida bo‘ldi.

Umuman olganda Amir Temur tomonidan Mo‘g‘ulistonga qarshi olib borilgan harbiy yurishlar natijasida ushbu davlatning harbiy qudrati sindirildi va uning Movarounnahrga, ayniqsa uning sharqiy qismidagi Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysiga bostirib kirishiga butunlay chek qo‘yildi. Bu esa ushbu hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga juda katta ijobiy ta’sir o‘tkazdi.

***Ta’lim texnologiyalari:*** *"FSMU" usuli, Klaster usuli, vizual materiallar, blits-so‘rov.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar:***

*1. Amir Temur davlati uchun Mo‘g‘uliston davlatidan qanday xavf mavjud edi?*

*2. Amir Temur nima uchun Odilshoh jaloyir boshchiligida fitna ishtirokchilarining ayrimlarini jazolamagan deb o‘ylaysiz?*

*3. Nima uchun Umarshayx mirzo boshchiligida Farg‘ona ulusi tuzildi?*

*4. Farg‘ona hokimi Umarshayx mirzo Mo‘g‘uliston bilan bo‘lib o‘tgan janglardagi ishtirokini qanday baholaysiz?*

*5. Amir Temurga qarshi tuzilgan Mo‘g‘uliston, Oltin O‘rda, Xorazm o‘rtasidagi ittifoq ishtirokchilarning manfaatlari nima edi?*

*7.Mirzo Iskanadarning Mo‘g‘ulistonga harbiy yurishining sabab va oqibatlari nima edi?*

*8. Amir Temurning bo‘lajak Xitoy yurishidan avval qanday tadbirlarni amalga oshirdi?*

# MAVZU: AMIR TEMURNING DASHTI QIPCHOQ YURISHLARI.

**Reja:**

1. *Oltin O‘rda davlati bilan nizolarning paydo bo‘lishi.*
2. *Chukalak va Qunduzcha jangi.*
3. *Oltin O‘rdaning to‘la tor-mor etilishi va uning ahamiyati.*

***Kalit so‘zlar:*** *Jo‘ji ulusi, O‘zbekxon, Oq O‘rda, Dashti Qipchoq, Urusxon, To‘yxo‘ja, Mang‘ishloq yarim oroli, To‘xtamish, Sig‘noq, Oltin O‘rda, Mamay, ko‘chmanchilar, Kavkazorti, Ozarbayjon, Darband, Sirdaryo bo‘ylari, Tabriz, Ahmad Jaloyir, Sultoniya, Xorazm, Chukalak janggi, Ulug‘ tog‘, Yoyiq daryosi, Uchlar ittifoqi, Terek jangi, rus knyazliklari.*

***Oltin O‘rda davlati bilan nizolarning paydo bo‘lishi***

Amir Temur hokimiyatni egallagan dastlabki yillardan boshlab, Oq O‘rdadagi siyosiy vaziyatni doimiy ravishda diqqat bilan kuzatib borgan. Chunki Oq O‘rdada Urusxonning nisbatan kuchli hokimiyati o‘rnatilgan bo‘lib, Movarounnahr hududlarining xavfsizligi ko‘p jihatdan Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyatga ham bog‘liq edi. 1376-yili Mang‘ishloq yarim orolining hokimi To‘yxo‘janing Urusxon tomonidan o‘ldirilishi natijasida uning o‘g‘li To‘xtamishning Amir Temurdan madad so‘rab kelishi Sohibqiron uchun ayni muddao edi. Amir Temur To‘xtamish orqali Oq O‘rdadagi siyosiy vaziyatni nazorat qilib borishni rejalashtirgan holda uni taxtni egallash uchun Urusxonga qarshi olib borgan harakatlarini doimiy qo‘llab quvvatladi. 1376-yili To‘xtamish Amir Temur tomonidan berilgan qo‘shin bilan Sabron va Sig‘noq shaharlariga yetib keladi. Amir Temur bu ikki shaharni To‘xtamishga in’om etgan bo‘lib, u shu qal’alarga tayangan holda o‘z hokimiyatini barpo etishi zarur edi.

Dastlabki to‘qnashuvdayoq mag‘lub bo‘lgan To‘xtamishni Sohibqiron qayta qurollantirib yana Sabronga jo‘natdi. Afsuski, ikkinchi jang ham To‘xtamishning to‘la mag‘lubiyatga uchrashi bilan tugadi. Amir Temur tomonidan qo‘yilgan maxsus odamlargina uni o‘limdan saqlab qoldi. Shundan so‘ng Urusxon To‘xtamishni talab qilib Amir Temur huzuriga elchi jo‘natdi. 1376-yilning qishida Sohibqiron To‘xtamishni dushmanga berishdan bosh tortgan holda o‘zi Oq o‘rdaga yurish boshladi. Lekin bu yurish urushga yetib bormadi. Urusxonning vafoti natijasida Amir Temur O‘tror va Sig‘noq atroflarini dushmandan tozalash bilan cheklanib 1377-yilning martida ortga qaytdi. Amir Temur qaytishi bilan To‘xtamish yana mag‘lubiyatga uchrab Samarqandga yetib keldi. Bu safar To‘xtamishni o‘limdan Amir Temur tomonidan sovg‘a qilingan Xang O‘g‘laq nomli ot saqlab qoldi. Amir Temur To‘xtamishni yana qaytadan qurollantirib o‘z amirlarini qo‘shgan holda Dashti Qipchoqqa jo‘natdi. Natijada To‘xtamish Sig‘noq shahrini egallashga erishdi. Ko‘p o‘tmay Amir Temur huzuriga Oq O‘rdaning yirik sarkardalaridan O‘rung Temur kelib Urusxonning o‘g‘li Temur Malik joimiy maishatbozlik bilan bandligi To‘xtamishning hokimiyatni egallashi uchun qulay sharoit kelganligi haqida xabar beradi. Shundan so‘ng Amir Temur farmoniga ko‘ra 1379-yili To‘xtamishxon Dashti Qipchoq tomon yurish boshlaydi va g‘alaba qozonib Oq O‘rda taxtini egalladi. 1380-yili Oltin O‘rda hukmdori Mamayning

Kulikovo jangidagi mag‘lubiyatidan foydalangan To‘xtamish Jo‘ji ulusining G‘arbiy qismini ham bo‘ysundirishga erishdi.

Amir Temurning 1376-yildan boshlangan To‘xtamishxonni Oq O‘rda taxtiga chiqarish va u orqali shimoldan Movarounnahrga qo‘shni bo‘lgan ko‘chmanchi davlatda o‘ziga sodiq shaxsning taxtda o‘tirishiga erishish orqali o‘z vatani xavfsizligini ta’minlashni, ko‘chmanchilarning talon-taroj lariga chek qo‘yishni maqsad qilgan harakati 1379-yiligina o‘z natijasini berdi. Lekin To‘xtamishxonning 1380-yili Oltin O‘rda taxtini ham qo‘lga kiritib, Jo‘ji ulusini to‘liq qayta tiklashi Amir Temurning rejalarida yo‘q edi. Natijada yaqin kelajakda ikki ittifoqchining o‘zaro raqibga aylanish xavfi kuchaya boshladi. Bu har ikki buyuk davlatning geostrategik maqsadlari bilan bog‘liq edi.

Avvalo shuni alohida qayd etib o‘tish lozimki, Amir Temur va To‘xtamishxon munosabatlari, Oltin O‘rda va Movarounnahr davlatlarining o‘zaro to‘qnashuvlarining kelib chiqish sabablari masalasi ko‘plab tarixchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. A.Y. Yakubovskiy ham Amir Temur va To‘xtamishning o‘zaro munosabatlari mavzusiga ham keng to‘xtaladi. Avvalo, muallif Sohibqiron Oq O‘rda va Mo‘g‘ulistondagi siyosiy voqealarni o‘z hokimiyatining dastlabki yillaridanoq diqqat bilan kuzatib borganligini, o‘z mamlakatini xavfsizligini ko‘zlab Oq O‘rda taxtining da’vogari To‘xtamishxonni qo‘llab-quvvatlaganini ta’kidlaydi. Avval Oq O‘rda, so‘ngra butun Jo‘ji ulusi ustidan hukm yuritishga erishgan To‘xtamishxon valine’mati Amir Temurga ham qarshi chiqa boshladi. Bu haqda A.Y. Yakubovskiy shunday deb yozadi: “Temur To‘xtamishni nimaga tayyorlagan bo‘lsa, u shuning aksini qilayotgan edi. To‘xtamish Oltin O‘rdani O‘zbekxon (1312-1340) davrining eng yaxshi kunlariga qaytarishga urinib, Oltin O‘rda hududini kengaytirish uchun qator yurishlar boshladi, shu jumladan, Kavkazorti va Ozarbayjonga ham. To‘xtamishning buyuk davlatchilik siyosati Temurning Movarounnahrda o‘sib borayotgan davlati uchun nomaqbul edi. Temur faoliyatiga To‘xtamish faqat g‘ov bo‘lib qolmasdan, ayni vaqtda Temurning Movarounnahrdagi davlatiga o‘zining mohiyati jihatidan to‘la qarama-qarshi bo‘lgan davlatning manfaatlarini ifoda etardi”[215]. A.Y. Yakubovskiyning yuqoridagi fikrlariga shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, Amir Temur davlati va Oltin O‘rda o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvi, asosan, uch hududda yuz bergan edi. Bular Ozarbayjon (hozirgi Ozarbayjon Respublikasi va Shimoliy Eron), Xorazm va Sirdaryo bo‘yi hududlaridir. Ma’lumki, bu paytda Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i to‘liq Oltin O‘rda ixtiyorida bo‘lib, To‘xtamishxonning Ozarbayjonni qo‘lga kiritishi bu yo‘lning janubiy tarmog‘ini ham Oltin O‘rdaning nazoratiga o‘tishiga olib kelardi. Bu esa Movarounnahrning Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalarini faqat Oltin O‘rda hududlari orqali olib borishga majbur qilardi. Oltin O‘rdaga strategik jihatdan juda katta ustunlik beradigan bu rejani amalga oshirilishi Amir Temur davlatining bundan keyingi rivojlanishiga salbiy ta’sir qilib, Yevropaga chiqish yo‘lidagi umidlarini puchga chiqarishi aniq edi. Shuning uchun ham Amir Temur bunga aslo yo‘l qo‘ya olmas edi. Aslida To‘xtamishxonning Ozarbayjonga

[215] Якубовский А.Ю. Темур. – С. 62.

nisbatan tutgan siyosati Oltin O‘rda davlatining tashqi siyosatida yangilik emas. Dastlab Oltin O‘rda xoni Berkaxon Ozarbayjonni bosib olishga intilgan. U shu maqsadda shahzoda Buqoni katta qo‘shin bilan Ozarbayjon tomonga ravona qiladi. Lekin Dashti Qipchoq qo‘shini Elxoniylar lashkarlaridan to‘la mag‘lub bo‘ladi. Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asarida yozilishicha, “Bu xabar Barakaxonga yetib borgach, uch yuz ming otliq qo‘shini bilan o‘zi Eronni zabt etish uchun otlandi va Darbanddan o‘tib Kurd suvi qirg‘og‘ida otini jilovini tortdi. Abakaxon ham hisobsiz lashkar bilan suvning bu qirg‘og‘iga kelib tushdi. Bir necha kundan so‘ng Barakaxon Tiflis tomonga yo‘l oldi. Ko‘prikdan o‘tayotganda tasodifan ajal sayyodi pistirmadan otilib chiqib, jonining qushini qilich dahshatining to‘ri bilan sayd etdi. Lashkari tarqalib ketib, o‘z uy-joylariga ravona bo‘ldilar”[216].

Shundan so‘ng, ikkinchi bo‘lib, bu ishga Oltin O‘rdaning eng qudratli hukmdori bo‘lgan O‘zbekxon kirishdi. Lekin u ham Darbandni egallash va uning atrofini talon-taroj qilish bilan cheklanib orqaga qaytishga majbur bo‘ldi.

Uchinchi marta Ozarbayjonni bosib olish uchun O‘zbekxonning o‘g‘li Jonibekxon harakat qildi. Uning o‘zi katta lashkar bilan Ozarbayjon tomon yo‘lga chiqib, Elxoniylarning Malik Ashraf boshchiligidagi qo‘shinlarini tor-mor etdi. Malik Ashrafni qatl etib, Ozarbayjonni qo‘lga kiritgan Jonibekxon, o‘g‘li Berdibekni Tabrizga hokim etib tayinlab, o‘z yurtiga qaytdi. Lekin ko‘p o‘tmay Jonibek vafot etgach, Berdibek ham otasining taxtini egallash uchun Dashti Qipchoqqa qaytib ketdi. Shunday qilib, Oltin O‘rdaning Ozarbayjonni bosib olish yo‘lidagi dastlabki uch urinishi natijasiz tugadi. Demak, To‘xtamishxon bu ishni amalga oshirishga uringan to‘rtinchi Oltin O‘rda hukmdori edi.

XIV asrning 80-yillarida Eronning shimoliy-sharqiy hududlarini birin-ketin Amir Temur tomonidan zabt etilishi To‘xtamishxonni tashvishga solib qo‘ydi. U Amir Temurning Yevropa va Yaqin Sharqqa chiqish yo‘llarini kesib tashlash maqsadida Sohibqirondan ildamroq harakat qilib, Ozarbayjonning bosh shahri Tabrizni egallashga intildi. To‘xtamishning bu harakatini M. Abduraimov Xorazmni 1379-80-yillarda Temur tomonidan zabt etilgani uchun qasos olishga intilish, deb baholaydi. Bu paytda Tabriz shahri Bag‘dod hokimi Sulton Ahmad Jaloyirga bo‘ysunar edi. Aynan shu o‘rinda A.Y. Yakubovskiyning quyidagi juda qiziqarli fikrlariga e’tiborni qaratish joizdir: “O‘zining hukmdori Sulton Ahmadning talon-taroj lari va zo‘ravonliklaridan aziyat chekkan Tabriz aholisi Temur agentlari tomonidan mahorat bilan olib borilgan targ‘ibotni qabul qilish uchun yaxshi zamin edi. Tabrizda zodagonlar orasida O‘rta Osiyolik hukmdorning tarafdorlari ancha kuchli partiya ekanligi ayon bo‘ldi. Temur o‘zining bunday shuhratidan yaxshi xabardor edi va oldindan g‘alabaga to‘la ishonib, Sulton Ahmad bilan to‘qnashishga tayyorgarlik ko‘rardi. Raqiblar qo‘shini o‘rtasidagi jang 1385-yilda Sultoniya yaqinida yuz berdi. Temur g‘olib chiqdi, ammo muhimroq ish uning diqqatini boshqa tomonga tortdi va u Tabriz sari yurmadi,

[216] Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи – Т.: Чўлпон, 1994. – Б. 243.

vaholanki, Tabriz zodagonlari oʻrtasidagi tarafdorlari uni shunga koʻndirmoqchi edilar"[217].

Amir Temur sulton Ahmad Jaloyirni yengib, Sultoniyani egallagach, Toʻxtamishxon tezroq Tabrizni bosib olishga qaror qildi. Dashti Qipchoq lashkari Tabrizni egallab, uni ikki kun talon-taroj qilgach, ortga qaytdi. Bu voqea Amir Temurni juda tashvishga solib qoʻyganligi haqida Sharafiddin Ali Yazdiy shunday yozadi: "Bu xabar hazrat sohibqironga etdi, musulmonlar uchun koʻngli asru malul boʻldi va bu jihatdin Eron viloyatining zabtiga xotirin qoʻyib vojib koʻrdikim, ul viloyatlarni zabt qilgaykim, munday nari anga yaagʻi kirmagay. Aning uchunkim, Eron viloyatida andoq podshohkim Eron viloyatini zabt qilgʻay, yoʻq. Va bir necha podshohikim bor edi, barchasi bir-biriga yaagʻi erdilar, bir-biridan qoʻrqib, viloyatlaridan chiqa olmas edilar. Aning uchun mundoq balolar ra'iyat va faqiru miskinga tegar erdi"[218].

Chindan ham koʻp oʻtmay, Tabriz Sohibqiron qoʻshinlari tomonidan egallandi. Shundan soʻng u yerda hayot koʻp oʻtmay oʻz iziga tushganligini Nizomiddin Shomiy ta'kidlab oʻtadi. Uning yozishicha: "Ma'lum bir muddatgacha qubbat ul-islom boʻlmish Tabriz shahri xarob, noobod, ravnaqsiz va kimsasiz qoldi. Lekin Amir Sohibqironning yosoq va adolatli barakotidan yaxshilanib, Amirning adlu dodxohligi soyasida mazlum xalq yana manzillariga qaytib, hayot kechira boshladilar"[219].

Ma'lumki, Amir Temur va Oltin Oʻrda davlati manfaatlari toʻqnashgan hududlardan biri-Xorazmning shimoliy qismi, Joʻji ulusiga, uncha katta hududni tashkil etmagan janubiy qismi Chigʻatoy usuliga tegishli edi. XIV asr oʻrtalariga kelib Shimoliy Xorazmda hukmronlik qilgan Soʻfilar sulolasi vohaning janubini ham oʻziga boʻysundirib, mustaqil davlat tuzgandi. Keyinchalik Amir Temur Xorazmni Movarounnahrning tarkibiy qismi, deb hisoblab, oʻlkani oʻziga vassal sifatida boʻysundirdi, Toʻxtamishxon esa Xorazmni Oltin Oʻrdaga tegishli deb bilib, V.V. Bartold va A.Y. Yakubovskiylar ta'kidlaganidek, 1383-yil bu yerda oʻz nomidan tanga zarb qildirgan edi. Xorazm Toʻxtamishxon uchun Amir Temurning ham markazlashtirilgan davlat tuzish, ham Eronni istilo qilish yoʻlidagi harakatlariga halaqit berishi mumkin boʻlgan qulay hudud edi. Bu haqda soʻz borarkan Yakubovskiyning avval ham toʻxtalganimiz, quyidagi fikriga yana bir bor e'tibor qaratish zarur: "Sulaymon Soʻfi qat'iy ravishda Toʻxtamishxon tarafiga oʻtdi. Temur boʻlib oʻtgan voqealarni hisobga olib, shuni yaxshi angladiki, Toʻxtamish faqatgina uning Eronga nisbatan bosqinchilik niyatlariga jiddiy xavf tugʻdiribgina qolmasdan, balki Movarounnahrni birlashtirish ishiga ham tahdid solmoqda edi. Shuning uchun ham u Toʻxtamishga qarshi hal qiluvchi harakatlarni boshlash vaqti toʻla etildi, deb hisobladi. Temurning bu yoʻnalishdagi birinchi qadami Xorazmga qisqa muddatli beshinchi yurishi boʻlib, xorazmliklar va ularning shohi Sulaymon Soʻfini xiyonatlari uchun jazolash niyatida amalga oshirilgan edi"[220]. Yuqorida keltirilgan iqtibosdan shunday xulosa chiqarish

[217] Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и её падение. – М.-Л., 1950. – С. 330-331.
[218] Йаздий. Зафарнома. – Б. 106.
[219] Шомий. Зафарнома. – Б. 133.
[220] Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и её падение. – М.-Л., 1950. – С. 334.

mumkinki, A.Y. Yakubovskiy Temur va To‘xtamishning o‘zaro munosabatlarida Xorazmning tutgan o‘rnini juda to‘g‘ri ko‘rsatib o‘tadi.

O‘zaro manfaatlar to‘qnashgan hududlardan yana biri Sirdaryo bo‘yidagi shaharlar bo‘lib, bu hududlar To‘xtamishxon qo‘shinlari uchun Movarounnahrning ichki hududlariga hujum qilish, dehqonchilik vohalarini talash yo‘lida plasdarm vazifasini o‘tasa, Amir Temur uchun o‘z davlatining ichki hududlarini himoya qiladigan mudofaa devori sifatida muhim edi. Shu maqsadda Amir Temur bu yerdagi shaharlarni harbiy jihatdan mustahkam qal’alarga aylantirgan. A.Y.Yakubovskiy To‘xtamishning 1387-88-yilgi Movarounnahrga qilgan yurishi haqida yozarkan, chegaradagi Sabron shahrini juda mustahkam bo‘lgani uchun To‘xtamishxonning juda ko‘p sonli qo‘shinlari shturm bilan egallay olmaganligini ta’kidlab o‘tadi. Amir Temur To‘xtamishxonga qarshi uyushtirgan 1389 va 1391-yilgi yurishlari natijasida bu hududlarni ham o‘z davlati tarkibiga uzil kesil qo‘shib oldi.

A.Y. Yakubovskiyning yozishicha, To‘xtamishxon Amir Temur bilan iloji boricha tezroq to‘qnashishga intilgan bo‘lsa, Sohibqiron esa aksincha, to‘qnashuvni paysalga solgan. Buni u 80-yillarining birinchi yarmida To‘xtamishxon Amir Temurdan harbiy va moddiy resurslar jihatidan yaqqol ustun bo‘lganligi bilan izohlaydi. Chindan ham 80-yillarning ikkinchi yarmiga kelib Eron va Ozarbayjonda o‘z mavqeini mustahkamlab olgachgina Amir Temur To‘xtamishxonga qarshi kurash boshlash uchun yetarli imkoniyatga ega bo‘ladi.

N.M. Karamzin Amir Temurning istilochilik yurishlari sabablari haqida keng mulohaza yuritmagan bo‘lsa-da, uning quyidagi fikri ahamiyatga molik. N.M. Karamzin bunday yozadi: “To‘xtamish nonko‘rlarcha Amir Temurning qudratli saltanati bilan jangga kirishdi, uni Eron chegaralariga kelishga majbur qildi”. Bu o‘rinda muallif To‘xtamishxonning Tabriz shahriga hujumini nazarda tutgan bo‘lib, bu hujum Sharafiddin Ali Yazdiyning ta’kidlashicha, Amir Temurning dastlabki yirik harbiy yurishi hisoblangan-“uch yillik” yurishining boshlanishiga sabab bo‘lgan. Demak, tarixiy manbalarga tayangan holda muallifning bu fikrini ham to‘g‘ri, deb ta’kidlash joizdir.

Yuqoridagi tahlillardan ham ko‘rinib turibdiki, To‘xtamishxon Amir Temurning Erondagi g‘alabalariga jim qarab turolmasdi. 1387-yilning boshlarida, qish fasli yakunlanayotgan vaqtda To‘xtamishxon Amir Temurni Eron va Ozarbayjonni zabt etishiga halaqit berish va uni o‘zi bilan urushga jalb etish maqsadida Kaspiy dengizining g‘arbiy sohillari ya’ni Darband orqali Ozarbayjonga qo‘shin jo‘natadi. Amir Temur o‘g‘li Mironshoh mirzo boshchiligida qo‘shin jo‘natib imkon qadar dushman bilan janga kirishmaslikni, vaziyatni tinch yo‘l bilan yumshatishni tayinlaydi. Lekin Movarounnahr qo‘shinining jangga kirmaganligi raqibni o‘z kuchiga oshiqcha baho berib hujumga o‘tishiga sabab bo‘ladi. Oxir-oqibatda Mironshoh mirzoning o‘zi ham jangga kirib dushmanlar, Shimoliy Kavkaz sarhadlariga surib chiqariladi. Amir Temur Ozarbayjon mudofaasi uchun yetarli lashkar qoldirib asosiy kuchlarni Markaziy Eronni zabt etishga tashlaydi. Chunki u ham To‘xtamish bilan yaqinlashib kelayotgan asosiy urushgacha Eronni to‘lib zabt etib ulgurush uchun shoshilardi.

**Chukalak va Qunduzcha jangi**

Ozarbayjonda Amir Temurni katta jangga jalb etolmagan To‘xtamish endi asosiy e’tiborni Sharqqa qaratadi. Chunki u bu vaqtda G‘arbda Amir Temurga qarshi ittifoqchi topa olmaydi. Yuqorida ko‘rganimizdek, Ozarbayjonda Amir Temur tarafdorlari kuchli bo‘lgan bir vaziyatda To‘xtamishxon Ozarbayjonda Amir Temurga qarshi yirik jang boshlashga jur’at etolmaydi. Shuningdek, bu vaqtda Turkiya va Misr davlatlarining e’tiborini Amir Temurga qarshi jalb etish imkonsiz bo‘lib, ular bu davrda Movarounnahr davlati xavfini sezmagan edilar.

Sharqda esa Amir Temur davlatining dushmanlari yetarlicha edi. O‘zini mustaqilligini tiklash orzusida bo‘lgan Xorazm hukmdori Sulaymon So‘fi, deyarli 12 yildan beri Movarounnahrga bostirib kirishga jur’at etolmayotgan Mo‘g‘uliston hukmdori Anqoto‘ralar tez orada To‘xtamishning yoniga kirdilar. Natijada Amir Temurning asosiy harbiy kuchlar bilan Markaziy Erondaligidan foydalangan ittifoqchilar 1387-yilning dekabri va 1388-yilning yanvar oylarida Movarounnahrga uch tomondan bostirib kiirdilar. Birinchi yo‘nalish Xorazm va Oltin O‘rda qo‘shinlari Xorazm orqali Buxoro atroflari, umuman olganda Movarounnahrning g‘arbiy qismiga, ikkinchi yo‘nalish Oltin O‘rda qo‘shinlarining asosiy qismi Sirdaryo bo‘yi shaharlari orqali Samarqand shahri va Markaziy Movarounnahrga (bu yo‘nalishdagi dushman bilan Farg‘ona hukmdori Umarshayx mirzo O‘tror shahri yaqinidagi Chukalak maydonida janga kiradi va tengsiz jangda mag‘lub bo‘lib, vodiyga chekinadi), uchinchi yo‘nalish Sirdaryo bo‘yi shaharlari orqali dastlab Toshkent vohasi va Xo‘jandning g‘arbiy qismi, keyinchalik Farg‘ona vodiysiga Anqoto‘ra boshchiligidagi Mo‘g‘uliston qo‘shinlari bostirib kiradi (Ularga qarshi Chukalak jangidan qaytib kelgan Umarshayx mirzo kurash olib boradi).

1387-yilning oxiri 1388-yilning boshlarida To‘xtamishxon qo‘shinlari Sirdaryo bo‘yiga bostirib kirganida Farg‘ona hokimi Umarshayx mirzo o‘z lashkari va Samarqand amirlari boshchiligidagi qo‘shin bilan birgalikda O‘tror yaqinidagi Chukalak mavzeyida jangga kiradi.

Shuningdek, Nizomiddin Shomiy jang sanasini 1388-yil iyun-iyul (hijriy 790-yil), deb noto‘g‘ri belgilagan. Chunki, To‘xtamish qo‘shinlari Movarounnahrga kirib borganligi haqidagi xabar Amir Temurga yetib borgan vaqtda u Sherozda bo‘lgan. Ushbu xabar yetib kelganidan so‘ng bir necha kun o‘tgach, ya’ni, 1388-yilning 9-fevralida Sohibqiron Samarqand tomon yo‘l oladi. Sharafuddin Ali Yazdiyning To‘xtamish bosqini to‘g‘risidagi xabar Amir Temurga 17 kunda yetib kelganligi haqidagi aniq ma’lumotiga tayanib, aytish mumkinki, To‘xtamish qo‘shinlarining Movarounnahrga bostirib kirishi 1387-yilning dekabr oyi oxirlari va 1388-yilning yanvar oylariga to‘g‘ri keladi.

Ilmiy adabiyotlarda Chukalak jangi haqida ma’lumotlar juda kam. A.Y. Yakubovskiy O‘tror yaqinida bo‘lgan jangda Umarshayx mirzo tor-mor etilganligini qayd etish bilan cheklangan. M. Abduraimov esa jang O‘tror yaqinidagi Chug‘luq maydonida bo‘lganligini qayd etgan. Ba’zi asarlarda esa Umarshayx mirzo Sabronga borib (voqealar O‘trordan Sabronga ko‘chib qolgan) jangga kirganligi ta’kidlansa, boshqalarida bu masala umuman chetlab o‘tilgan. Ushbu masalani M. Abduraimov nisbatan aniq yoritganligini ko‘rishimiz mumkin.

Manbalarda keltirilgan Chukalak jangi tafsilotlari bir-biridan biroz farqli bo‘lsa-da, mazmun jihatdan yaqindir. Nizomiddin Shomiyning yozishicha, har ikki tomon saf tortib, jangni boshlagan, Umarshayx mirzo dushmanni ta’qib etib, o‘z lashkaridan ajralib qolgan natijada uning askarlari sarosimaga tushib, Farg‘ona vodiysiga qaytib ketgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning ma’lumoti bu voqeaga oz bo‘lsa-da oydinlik kiritadi: “... ikki cherik bir-biriga etdilar va yasollar tortib, o‘ng qo‘l va so‘l qo‘l tuzulg‘ondin (so‘ng) bir-biriga chopishtilar va kechag‘acha o‘ldirushti. Amirzoda Umarshayx bahodurlig‘idin o‘zining dushmanlarning g‘uliga urub, nari o‘ta chiqti va cherikdin ayrildi. Cherik eli chun ani ko‘rmadilar, mutavahhim bo‘lub, buzuldilar va Abbosbekka o‘q tegib zahmlik bo‘ldi. Shahzoda Umarshayx davlat bilan dushmanlarning ichidan salomat chiqib, Andijong‘a ketdi...”.

Sharafuddin Ali Yazdiyning ma’lumoti quyidagi fikrlarni ilgari surishga asos bo‘ladi. Birinchidan, Umarshayx mirzo dushman lashkarining markaziga hujum qilgan holda dushman safini yorib uning ortiga o‘ta olgan. Ikkinchidan, temuriylar qo‘shinining boshqa qismlari Umarshayx mirzoni o‘z vaqtida qo‘llay olmaganligi natijasida uning o‘zi dushman qurshovida qolgan. Natijada, temuriylar qo‘shinida vahima boshlangan. Uchinchidan esa, xuddi shu vaqtda Samarqand lashkarining sarkardalaridan Abbosbekning yaralanishi vaziyatni og‘irlashtirib, qo‘shinni chekinishga majbur qilgan. A.Ahmedov va H.Bobobekovlarning Umarshayx mirzoni o‘z qo‘shinidan ajralib qolishi mo‘g‘ullarning hiylasi natijasida yuz bergan bo‘lishi mumkinligi haqidagi fikri o‘rinlidir. Chunki mo‘g‘ullar yolg‘ondan chekinib, ta’qib etuvchi qo‘shinni asosiy qo‘shindan ajratib qo‘yish taktikasini yaxshi o‘zlashtirgan. Ular 1366-yilgi Loy jangida ham ushbu taktikani qo‘llaganlar. Bu anchagina xavfli hisoblanib, uni qo‘llovchilarni mag‘lubiyatga uchratishi ham mumkin edi. Faqat bunda ta’qib etuvchi tomon uyushgan holda harakat qilishi zarur. Loy jangida Amir Husayn Amir Temurni munosib qo‘llamagan bo‘lsa, Chukalak jangida ham na Samarqand lashkari, na Farg‘ona lashkari Umarshayx mirzoni yetarlicha qo‘llab-quvvatlay olmadi. Aksincha, uni asir tushgan gumon qilib, jang maydonini tashlab qochishni ma’qul ko‘rdilar.

Ushbu jang Muiniddin Natanziy tomonidan batafsil va yanada aniqroq bayon etilgan. U Umarshayx mirzo, temuriylar qo‘shini markazini boshqarishni Samarqand lashkari sarkardalaridan Abbosbekka topshirganligini, o‘zi esa ilg‘orga boshchilik qilib dushmanga hujum qilganligini ta’kidlaydi. Fikrimizcha, Umarshayx mirzo dushman safiga kuchli zarba berib, raqib lashkarini ikkiga bo‘lib tashlamoqchi, g‘olibona zarba bilan askarlarini ruhlantirib, jangni g‘alaba bilan yakunlamoqchi bo‘lgan. To‘xtamishxon qo‘shinining ko‘p sonli ekanligi temuriylar lashkarining ruhiyatiga ta’sir qilgan bo‘lsa kerakki, u bunday tavakkal ishga qo‘l urgan. U raqib lashkarining chap qanotiga ham, o‘ng qanotiga ham shunday zarbalar bergan. Jangning taqdirini aynan Umarshayx mirzo hal etayotganini to‘g‘ri tushungan raqiblar uning navbatdagi hujumi vaqtida chekinib, 100 ga yaqin askari bilan qurshab olishga erishadilar. Aynan dushman chekinayotgan vaqtda Temuriylarning boshqa harbiy qismlari ham o‘z hujumlarini kuchaytirganda, dushmanning tartibli chekinishi qochishga aylanib ketishi mumkin

edi. Lekin aksincha, ular Umarshayx mirzoning qurshovdan chiqib olishiga yordam berish tugul, kutib turishni ham hohlamay, chekinishga qaror qiladi. Umarshayx mirzoning qurshovdan yorib chiqishi va yana qaytib dushmanga bir necha bor zarbalar berishi chekinayotgan temuriylar qo‘shinini butunlay halok bo‘lishdan saqlab qoldi, xolos.

Yuqorida ham ta’kidlaganimizdek, Umarshayx mirzoning qurshovga tushib qolishi, temuriylar qo‘shinning markaziga boshchilik qilgan Abbosbekning yaralanishi (u ko‘p o‘tmay vafot etgan) natijasida temuriylar qo‘shini boshqaruvini yo‘qotgan va chekina boshlagan. Chekinayotgan qo‘shin shu darajada vahimada qolgan-ki, uning ta’siri keyinchalik Samarqand va Andijon shahridagi voqealarda yaqqol seziladi.

Chukalak jangidan qochib kelgan askarlar Umarshayx mirzo to‘g‘risida noxush xabarlarni tarqatadilar. Natijada Andijonda bir necha kun porakandalik, sarosima hukm suradi. Deyarli 15-yilga yaqin vaqt ichida mo‘g‘ul bosqini, talon-taroj i xavfidan qutulib, tinch hayotga o‘rganib qolgan vodiy aholisi o‘rtasida mo‘g‘ullarning navbatdagi bosqinidan xavfsirab, vahima ko‘tarilishi tabiiy hol edi. Vodiy amaldorlari – bu yerda qoldirilgan dorug‘alar esa voqealar rivojini boshqarish o‘rniga o‘zlari ham uning oqimiga tushib qoladilar. Garchi Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiylar asarida bu voqealar bayoniga o‘rin berilmagan bo‘lsa-da, Muiniddin Natanziy quyidagilarni hikoya qiladi: “U kelishidan ilgari, janggohdan qochib undan ajragan xos mulozimlaridan bir guruhi o‘zlarining egri tasavvurlari hosilasi bo‘lgan yomon ovozalarni (shaharga) yetkazishdi. Chunonchi, amirzoda Umarshayxning haramlari shaharni o‘z holiga tashlab, tog‘ga yo‘l olishdi. Shahar aholisi bir necha firqaga bo‘linib, g‘alayonga keldi. Amirzoda Umarshayx yetti otliq bilan yetib kelib, viloyat aholisiga taskin berdi...”. Umarshayx mirzo tezda viloyatdagi tartibsizlikka chek qo‘yadi va qaytadan qo‘shin yig‘adi.

Bu vaqtda Movarounnahrga qaytib kelgan Amir Temur qo‘shinlari bosqinchilarni mamlakatdan quvib chiqaradilar. Lekin hali To‘xtamishxon xavfi olib tashlanmagan edi.

Amir Temur 1388-yilning 9-fevral kuni Amir Temur Sherozdan Samarqand tomon yo‘lga chiqadi. Bu vaqtda ittifoqchilar qo‘shini Movarounnahrdagi biror bir qal’a yoki shaharni zabt eta olmagan bo‘lsalarda, qishloqlarni shafqatsiz talon-taroj qildilar, Qarshi yaqinidagi mashhur Zanjirsaroyga o‘t qo‘ydilar. Amir Temurning kelayotganligi to‘g‘risidagi xabarni eshitgan ittifoqchilar ortga qaytib ketishga majbur bo‘ldilar.

Amir Temur bu safar Eronni zabt etishni to‘xtatib, butun e’tiborni To‘xtamishxonga qarshi qaratishga majbur bo‘ladi. U Dashti qipchoq va Mo‘g‘uliston bilan chegaralarni mustahkamlash uchun katta kuchlarni jalb etgan holda, asosiy zarbani Xorazmga berdi va 1388-yili uch ittifoqchilardan birini butkul bo‘ysundirdi.

1388-yili Xorazmga qarshi yurish boshladi. Amir Temur poytaxt mudofaasini va butun Movarounnahr sarhadlarini himoya qilishni bu safar Umarshayx mirzoni o‘ziga topshiradi. Xorazm yurishi vaqtida Amir Temurga qarshi kuyovi Muhammad Mirka isyon ko‘taradi. Shaxsan Umarshayx mirzoning

o‘zi isyonni bostirishda jonbozlik ko‘rsatib, mamlakat sarhadlarida tinchlik o‘rnatadi. Amir Temur Xorazm yurishidan qaytib kelganidan keyingina Umarshayx mirzoga Farg‘ona vodiysiga qaytishga ruxsat beradi.

1388-yilning dekabrida To‘xtamishxon yana o‘z qo‘shinlari bilan Movarounnahr hududiga bostirib kiradi. Qo‘shinning ilg‘or qismlari Sirdaryo cho‘llariga qadar yetib keladi. Bu vaqtda Amir Temur qo‘shinga dam berish uchun o‘z viloyatlariga tarqatib yuborgan, uning huzurida to‘rt ming kishilik lashkar bor edi, xolos. Buning ustiga juda qalin qor yog‘ib, aholiga va hayvonlarga katta talafot etadi. Lekin Amir Temur qor tepib yo‘l ochib, dushman ustiga yurish qilish haqida farmon beradi va o‘zi qo‘shinni boshlab boradi. Umarshayx mirzo ham vodiy qo‘shini bilan Sirdaryoning janubiy qirg‘oqlari bo‘ylab yurib, Samarqand va Jizzax viloyati chegaralarida asosiy lashkarga borib qo‘shiladi. Muiniddin Natanziy shu hududdagi Zarnuq mavzeida bo‘lib o‘tgan jang va ushbu jangdagi Sohibqironning harbiy hiylasi va Umarshayx boshchiligidagi vodiy qo‘shinining faoliyati xususida qiziqarli ma’lumot beradi: “Iqbol ko‘magi va yaxshi tasodif tufayli amirzoda Umarshayx ham ming kishi bilan Sulton Sohibqiron yoniga yetib keldi. Sultoni g‘oziy uning muborak poyqadamini kunba-kun ziyoda bo‘luvchi davlatining natijasi, deb bilib, hayallamasdan nag‘ora va burg‘u sadolari bilan suron ko‘tarishni va otlarning jilovini qo‘yib yuborib, dushman ustiga tashlanishni buyurdi”. Umarshayx mirzoning atigi ming kishi bilan kelganligi qalin qor yoqqan bir sharoitda asosiy kuchlarning yurish tezligiga qaramay o‘zi ilg‘or qism bilan shoshilinch kelganligidan dalolat beradi.

1389 va 1390-yillarda To‘xtamishxonning Amir Temurni Dashti Qipchoqqa yurish qilishga chaqirish maqsadidagi kichik hujumlarini qaytargan holda asosiy zarbani Mo‘g‘ulistonga qaratdi hamda Oltin O‘rdaning ikkinchi yirik ittifoqchisini ham safdan chiqardi. Natijada 1391-yilga kelib faqat Oltin O‘rdaning o‘zigina Amir Temur lashkari qarshisida qoldi.

Amir Temur 1388-1390-yillarda Oltin O‘rdaning ikki qanoti bo‘lgan ikki ittifoqchisini safdan chiqarib, endi 1391-yili asosiy dushmanga qarshi barcha kuchlarni jalb etish imkoniga ega bo‘ladi. To‘xtamishxon shu uch-yil davomida ya’ni, 1388-1390-yillarda katta lashkar bilan Movarounnahrga bostirib kirishga jur’at etmaydi. Uning maqsadi Amir Temur qo‘shinlarini Dashti Qipchoq hududiga yurish qilishga majbur qilib, uni dashtda qirib tashlash edi. Buni yaxshi tushungan Amir Temur sabr toqat bilan uning barcha mayda hujumlarini qaytargan holda, dastlab raqibning ittifoqchilarini tor-mor etdi va shundan keyingina Dashti Qipchoqqa yurish boshlashga qaror qildi.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, jahon tarixida Amir Temurgacha ham, undan keyin ham ko‘chmanchilar yashaydigan hududlarga Sohibqiron kabi chuqur kirib borgan va ularning lashkarini o‘z hududlarida tor-mor etgan yoki Dashti Qipchoq dashtini janubdan shimol tomonga kesib o‘tgan hamda g‘olib bo‘lib qaytgan sarkarda, davlat arbobi bo‘lmagan.

Amir Temurning To‘xtamish ustiga yurishi 1391-yilning 19-yanvar kuni boshlanadi. Lekin dastlab juda sekin harakat qilindi. Bunga To‘xtamish elchilarining kelganligi va ular bilan olib borilgan muzokaralar sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak. Faqat 21-fevraldan boshlab yurish amalda davom ettirildi va uch

hafta ichida Dashti Qipchoq hududiga kirib borildi. Garchi qish oxiri va erta bahor bo‘lsada, suv yo‘qligi sababli Amir Temur qo‘shini katta tolofat ko‘radi. Faqat 14-mart kuniga kelib, Sariq O‘zan mavzeyiga yetib kelganlarida selga duch kelishib, suvsizlik balosidan qutiladilar. 28-mart kuni esa qo‘shin Kichik tog‘, bir necha kun o‘tib esa Ulug‘ tog‘ (hozirgi nomi Ulutau) etaklariga yetib keladi (Nizomiddin Shomiy bu voqeani 28-aprelda bo‘lganligini ta’kidlaydi).

Amir Temur tabiat qiyinchiliklariga qarshi kurashib, katta talofat ko‘rib, ruhan tushgan qo‘shinni ruhlantirish uchun tosh minora qurdirib, unga ushbu yurish tarixini yozdiradi. Ushbu tog‘da ikki yozuv yozdirilgan bo‘lib, arabcha yozuvdan faqat “Bismillohir rahmonir rahim” so‘zlari aniq o‘qilgan, qolgan so‘zlar o‘qilmagan. Uyg‘ur yozuvida bitilgan yozuvda esa turkiy tilda “yetti yuz to‘qson uchinchi-yil (1391) yozida Turon sultoni Temur 200 ming kishilik qo‘shin bilan To‘xtamishga qarshi yurishga ketayotganligi aytilgan. Ushbu tosh bitiklar XX asrning 30-yillarida Jesqazg‘andan 50 km g‘arbdagi Qarsaqpay koni yaqinida, Qaramo‘la tog‘i yon bag‘ridan topilgan.

Yurish boshlanganiga to‘rt oy o‘tgach lashkar ocharchilik xavfiga duch keladi. Qahatchilik shu darajaga yetadiki, bir quyning narxini yuz oltin tangaga baholasalarda topish amri-mahol edi. Amir Temur ocharchilik muammosini katta ov uyushtirib yechishga muvaffaq bo‘ladi.

Shuningdek, qo‘shin ruhiyatini yanada ko‘tarish uchun katta harbiy ko‘rik, ya’ni parad o‘tkazadi. Ushbu harbiy parad ikki kun davom etadi. Parad yakunlangach, 12-may kuni yana yurish davom ettiriladi. Amir Temur qo‘shinlari Tobol daryosiga yetib keladilar. To‘xtamishxon esa Amir Temur qo‘shinlarini tobora kuchsizlantirish uchun umuman jangga kirmasdan o‘z hududlarining ichkarisiga chekinib, kuch yig‘ib boraveradi. Dushmanning pistirmadan hujum qilishidan cho‘chigan Movarounnahr lashkari juda ehtiyotkorlik bilan notanish hududlardan olg‘a siljib boradi. Yoyiq (hozirgi Ural) daryosini ham mavjud uchta kechuv joyidan emas, balki butunlay boshqa joydan hozirgi Magnitnogorsk shahri yaqinidan kechib o‘tadi.

Yurishning 6 oyidagina dushmanning qorovul qo‘shini bilan dastlabki jang bo‘lib o‘tadi. Xuddi shu vaqtda Amir Temur qo‘shini qutb yozi bo‘ladigan shimoliy hududlarga yetib keladi. To‘xtamishxon jangga kirmasdan chekinarkan, Amir Temur qo‘shinlarini o‘zlari uchun noqulay iqlim hukmron bo‘lgan shimol tomonga borishga majbur qilar edi.

Sharofuddin Ali Yazdiyning yozishicha Amir Temur To‘xtamishni jangga kirishga majbur qilish uchun o‘g‘li Umarshayx mirzoning 20 ming kishilik qo‘shin bilan raqibni ta’qib etishga jo‘natarkan “Tez surib o‘zungni To‘xtamishqa etkurgil, to anga zarurat bo‘lib, turg‘ay”,-deya topshiriq beradi[221]. Natijada, Umarshayx mirzo dushmanga yetib olib, ularni To‘xtatishxon lashkariga yetib oladi. Nihoyat, 18-iyun kuni Amir Temur lashkari Qunduzcha mavzeida To‘xtamishxonning asosiy kuchlarini jang qilishga majbur qiladi.

Ushbu jangda Amir Temur birinchi marta lashkarni etti korpusga (qul, g‘ul) bo‘lib jangga kiritish usulini qo‘llaydi va raqibni tor-mor keltiradi.

[221] Йаздий. Зафарнома. – Б. 136.

Amir Temur qo‘shinning asosiy harbiy kuchlarini markazga to‘playdi. Markazning o‘zi ikki qismdan iborat bo‘lib, uning o‘ng qanotiga Sulton Mahmudxon boshchiligidagi lashkar qo‘yiladi. Sulton Mahmudxonga bu lashkarni boshqarish uchun amir Sulaymonshoh yordamlashishi kerak edi. Markazning chap qanotiga Amir Temurning o‘zi joylashadi. Bu yerda uning asosiy yordamchisi Muhammad Sulton mirzo edi. Markazdagi ikki qismning orqasiga 20 qo‘shindan iborat zahira lashkar joylashtiriladi. O‘ng qanotning boshqarish Mironshoh mirzoga topshirildi. Unga Muhammad Sultonshoh yordamlashmog‘i belgilandi. O‘ng qanot kanbuli esa amir Hoji Sayfuddinga topshirildi. Uning vazifasi dushmanning qanotni aylanib o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslik va o‘zi dushmanning ortiga qanotdan aylanib o‘tib zarba berish edi. Lashkarning chap qanoti Umarshayx mirzoga topshirildi. Chap qanot kanbuliga Amir Berdibek va Xudoydod Husayniy kabi tajribali sarkardalar qo‘yildi.




**1-rasm.** *Qunduzcha jangi taktik sxemasi.*

Jang amir Hoji Sayfuddin boshchiligidagi qanbulning hujumi bilan boshlandi. Jo‘ji ulusi lashkari hiyla ishlatib, Movarounnahr qanbulini oldinga o‘tkazib yubordi va ularning ortiga chiqib olib, zarba berdi. Qanbulni qutqarish uchun Mironshoh mirzo amir Jahonshohni jangga kiritdi va kanbulni halokatdan saqlab qoldi. Bu vaqtda Jahonshoh jang maydoniga yetib borishi bilan Mirzo Mironshoh o‘zining barcha jangchilarini ham o‘z ro‘parasidagi dushmanga qarshi zarba berish uchun olg‘a boshladi.

Markazda Sulton Mahmudxon va Amir Temur boshchiligidagi harbiy qismlar ham birin-ketin dushmanga zarba berishni boshladilar. Amir Temur boshchiligidagi harbiy qismlar tez oldinga borib dushman saflarini buzib yubordilar va ularning mudofaasiga ancha chuqur kirib bordilar. Amir Temur boshqarayotgan qismlar aynan To‘xtamish boshchiligidagi harbiy qismlarni chekintirayotgan edi.

Qo‘shinning chap qanotidagi jangni amir Berdibek va Xudoydod Husayniy yetakchiligidagi qanbul boshlab berdi. So‘ngra Umarshayx mirzo boshchiligidagi kuchlar ham dushmanga zarba bera boshladi. Markazda chekinishga majbur bo‘lgan To‘xtamishxon jangni qutqarib qolish maqsadida epchillik bilan tezda o‘z

kuchlarini qayta guruhladi. Amir Temur boshchiligidagi qismni oldinga siljishi natijasida Movarounnahr qo‘shinining chap qanoti va markazi o‘rtasida kengayib ketgan bo‘shliqni to‘sib turish sulduzlardan iborat harbiy qismga topshirilgan edi. To‘xtamishxon aynan shu yerga bostirib keldi va ularni batamom yakson qildi. Bu g‘alabadan so‘ng Jo‘chi ulusi lashkarining mazkur qismi ro‘parasidagi chekinayotgan dushmanni ta’qib etayotgan Amir Temur boshchiligidagi qismning ortiga o‘tib oldi. Movarounnahr lashkarining markazi ancha oldinga ketib qolgani uchun vaziyatdan bexabar qoldi.

Bu vaqtda urush g‘alaba bilan yakunlanayotganiga to‘la ishongan Amir Temur uchun bu xabar ishonchsiz tuyuldi va ko‘p ham e’tibor bermadi. Lekin Umarshayx mirzoning chopari yetib kelib, tahlikali vaziyatni ma’lum qilganidan so‘ng dushmanni ta’qib etishni to‘xtatdi. Amir Temur xotirjamlikni saqlagan holda zahirada qoldirilgan 20 qo‘shindan iborat lashkarga Umarshayx mirzo ixtiyoriga yetib borib, dushmanga qarshi chiqish topshirig‘ini berdi. O‘zi ham dushman ortidan quvayotgan lashkarini qayta safga tizib, tartib bilan ortga burildi. Uning maqsadi To‘xtamishning mazkur hiylasini o‘ziga qarshi ishlatib, uni qurshab olish edi. Bu vaqtda To‘xtamishxon hujumini chap qanotdan yordamga yetib kelgan Mirzo Umarshayx va zahiradan yetib kelgan qismlar arang to‘xtatib turgan edi. Amir Temurning shaxsan o‘zi bu yerga yetib kelgandan so‘ng vaziyatni yaxshi tushungan To‘xtamishxon qurshovga tushib qolmaslik uchun chekinishga majbur bo‘ldi. Bu chekinish esa qochishga aylanib ketdi.

Mazkur jangda Amir Temur tomonidan qo‘shinning avvalgidek uch qismga emas, etti qismga bo‘lib janga kiritilishi, bir harbiy qismni alohida zahiraga olinishi g‘alabani ta’minlovchi omillardan biri bo‘ldi.

Movarounnahr lashkarining ushbu yurishi 11 oy davom etib 1391-yilning oxirida qo‘shinning Toshkent shahriga yetib kelishi bilan yakuniga yetadi.

### *Oltin O‘rdaning to‘la tor-mor etilishi va uning ahamiyati*

Amir Temur Jo‘ji ulusi taxtini Temur Qutluq O‘g‘longa beradi. Lekin Amir Temur qaytib ketgach, hali ham ko‘pgina tarafdorlarga ega bo‘lgan To‘xtamishxon yana ulus taxtini qaytarib oladi.

O‘z kuchsizligini anglagan To‘xtamishxon Amir Temurga qarshi yangi harbiy ittifoq tuzishga jiddiy urinadi. Uning vakillari 1394-yili Damashqda Misr sultoni Barquq va turk sultoni Boyazidning elchilari bilan muzokaralar olib borib, harbiy ittifoq tuzadi. Garchi harbiy ittifoq tuzilgan bo‘lsa-da, amalda u harakatga kelmaydi. Misr va Turkiya sultonlari Amir Temur va To‘xtamishni o‘zaro kurashi o‘zlariga foyda bo‘lishini yaxshi tushungan holda, garchi katta va’dalar berib, Dashti Qipchoq xonini Ozarbayjonga bostirib kirishga da’vat qilgan bo‘lsalar-da, voqealarning keyingi rivoji shuni ko‘rsatdiki, ular ko‘proq voqealarni kuzatishni ma’qul deb bilishdi. Aslida Yevropadagi voqealar bilan band bo‘lgan Sulton Boyazidning To‘xtamishga yordam berishi imkonsiz edi. Misr sultoni Barquq esa Bag‘dod sultoni Ahmad Jaloyir, turkmanlar sardoni Qora Yusuf kabi Amir Temurdan o‘ch olish niyatida bo‘lgan sobiq hukmdorlarni qo‘llab-quvvatlab, ularni qayta tuzilgan lashkarlar bilan o‘z hududlarini qaytarib olish uchun jo‘natishning o‘zini yetarli deb hisoblardi. Aslida har ikki sulton ham 1395-yili Amir Temur davlatining haqiqiy kuchiga baho bera olmagan edilar.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Turkiya va Misr sultonlari bilan ittifoq tuzgan To‘xtamishxon tomonidan yuborilgan lashkar 1394-yilning oxirlarida yana Shirvon mamlakatiga, ya’ni Shimoliy Ozarbayjonga bostirib kiradi. Shaxsan Amir Temurning o‘zi boshchiligida lashkar kelayotganini xabardor bo‘lgan raqiblar ortga qaytib ketishadi. Amir Temur esa halqaro vaziyatni tahlil etgach, Misr va Turkiya sultonlarining To‘xtamishxonga amalda yordam berolmasliklariga ishonch hosil qilgan bo‘lsa kerakki, 1395-yilning 28-fevral kuni Ozarbayjon orqali Dashti Qipchoq sari yangi yurish boshlaydi.

Yurish boshlanishi bilan birgalikda, Sohibqiron Shamsuddin Olmaliqiyni To‘xtamishxonga elchilikka jo‘natib, urushni oldini olmoqchi bo‘ladi. Manbalarda ta’kidlanishicha. To‘xtamishxon ham o‘z ittifoqchilarining yordamidan umid qilib vaqtdan yutish maqsadida muzokaralarga kirishishga qaror qilib, Amir Temur bilan sulh tuzishga moyillik bildiradi. Lekin, Oltin O‘rdaning yirik amirlarining keskin qarshiliklari natijasida To‘xtamishxon ham muzokaralar oxirida sulhdan bosh tortadi. Shamsiddin Olmaliqiy elchiliki natijasiz qaytib kelgandan so‘ng Amir Temur harbiy tayyorgarlikni ko‘zdan kechirish uchun yana bir bor ko‘rik (harbiy parad) o‘tkazadi.

Garchi sulhdan bosh tortgan bo‘lsa-da, muzokaralarni yana tiklab vaqtdan yutishni istagan To‘xtamishxon Shamsiddin Olmaliqiy ketidan o‘zning ham elchisini yuboradi. O‘rtoq ismli bu elchi yetib kelgan vaqtda Amir Temur harbiy ko‘rik o‘tkazayotgan edi. To‘xtamishxonning elchisi Amir Temur qarorgohiga kirmasdan ortga qaytib ketadi va Amir Temur lashkarining urushga shayligi haqida To‘xtamishga xabar beradi.

Ko‘p o‘tmay har ikki tomonning qorovul qo‘shinlari o‘rtasida jang bo‘lib, Oltin O‘rdaliklar tor-mor keltiriladi. Shirvon chegarasida turgan Oltin O‘rda lashkari shimolga tomon chekinadi va To‘xtamishxon o‘z viloyatlariga yana xabar yuborib, ko‘proq lashkar yig‘ishga harakat qiladi. Dastlab To‘xtamishxon qo‘shini Terek daryosi bo‘yiga joylashdi, lekin Amir Temur lashkari yaqinlashgach Quray soyi (hozirgi Rossiyaning Qabarda-Barqar avtonom respublikasidagi kichik daryo) tomonga chekindi. Movarounnahr lashkari esa qiyinchiliksiz Terek daryosini kechib o‘tdi.

Aslida bu chekinish To‘xtamishxonning hiylasi ham bo‘lishi mumkin. U bu chekinish orqali vaqtdan yutib, viloyatlardan qo‘shimcha chaqirilgan lashkar hisobiga qo‘shining sonini ko‘paytirib oldi, eng asosiysi Terek daryosidan bexovotir kechib o‘tishga qiziqqan Movarounnahr lashkari daryodan o‘tgach noqulay iqlim sharoitiga duch kelib, oziq-ovqat va em-xashak tanqislishgiga uchradi. Amir Temur oziq ovqat va em hashakka boy bo‘lgan Cho‘lot viloyatiga (Nizomiddin Shomiyda Julot) ko‘chishga buyruq beradi. Lekin, ko‘chish boshlanib bir kun yo‘l yurishlari bilan To‘xtamishxonning katta lashkar bilan jang qilish uchun yetib kelganligi ma’lum bo‘ladi va Amir Temur lashkari o‘zi uchun noqulay sharoitda Terek daryosi bo‘yida jangga kirishga majbur bo‘ladi.

Sharofuddin Ali Yazdiyning talqinida ushbu jang 1395-yilning 15-aprelida bo‘lib o‘tganligi ta’kidlanadi[222].

[222] Йаздий. Зафарнома. – Б. 175.

Tarixchi Mirxondning ta’kidlashiga ko‘ra, jangdan avval Amir Temur qo‘shini safida bo‘lgan asli Jo‘ji ulusidan bo‘lgan Kuncha o‘g‘lon To‘xtamish qo‘shinlari tomonga o‘tib ketadi. Bu kutilmagan holat Amir Temur qo‘shinining ruhiga salbiy ta’sir etganligi e’timoldan holi emas. Lekin Kuncha o‘g‘lonning xiyonati xusususida Shomiy va Yazdiy ham ma’lumot bermagan.




**2-rasm.** *Terek jangining taktik sxemasi.*

Jang Kuncha o‘g‘lon, Bek Yaruq o‘g‘lon va Dovud So‘fiy nomli Dashti Qipchoq lashkaridagi eng obro‘li sarkardalarini Sohibqiron qo‘shunining o‘ng qanotiga bergan kuchli hujumlari bilan boshlandi. Bu yerga Amir Temurning shaxsan o‘zi zahira kuchlari bilan yetib kelib, dushmanni chekintirdi. Ularni ta’qib etish uchun 50 kishini yubordi va qolganlarni o‘z marralarini egallash uchun qaytardi. Mo‘g‘ullar esa o‘z odatlariga ko‘ra chekinayotib, kutilmaganda yana qaytadan hujumga o‘tdilar va raqibni ta’qib etishga kirishib, asosiy kuchlardan ajralib qolgan Movarounnahr lashkarini bir qismini qirib tashladilar. Omon qolib qochganlar esa Turon lashkarining o‘ng qanoti va uning kanbulida katta vahima tug‘dirdilar natijada askarlar o‘z marralari yo‘qotib dushman oldida ojiz qoldilar. Natijada To‘xtamish qo‘shinida Amir Temur turgan joyga hujum qilish uchun juda qulay sharoit tug‘uladi. Dushmanning oldingi qismlari deyarli Sohibqironning oldigacha yetib kelishga erishadilar. Amir Temurning sabot va matonat bilan o‘z marrasida mahkam turishi va dushmanni pisand qilmasligi, yaralanish xavfiga ham be’tibor jangni boshqarishi Turon askarlarini ruhlantirdi. Xondamirning yozishicha, Amir Temurning ko‘zidan yaralanishiga ozgina qoladi. Qolaversa, Amir Temur tomonidan tashkil etilgan yetti qo‘lning mustaqil harbiy qism sifatida vaziyatdan kelib chiqib erkin harakat qilishga o‘rgatilganligi g‘alabani ta’minladi. Bu vaqtda Amir Temur o‘z qurolli kuchlarining asosiy qismidan ajralib qolib, umumiy boshqaruvni yo‘qotgan edi. Shu vaqtda Amir Temur sarkardalarining mustaqil to‘g‘ri harakat qila olishi g‘alabani ta’minladi.

Birinchi bo‘lib amir Shayx Nuriddin yordamga yetib keldi va otliqlarni piyoda jangga kiritib dushman hujumini komon o‘qlari yomg‘iri bilan qaytarishga erishadi. Shuningdek, sarkardalardan Muhamad Ozod, Alishoh va To‘kal Bovurchi arobalardan tashkil etilgan ko‘chib yuruvchi mudofaa chizig‘ini tashkil etganlari ham himoyalanishda juda qo‘l keladi. Ollohdod Vafodor boshchiligidagi harbiy qism ham amir Shayx Nuriddin askarlari safiga qo‘shilib yordam bera boshladi.

Shu vaqtda Turon lashkari markazining chap qanoti, chap qanot harbiy qismlari va chap qanot kanbuli Jo‘ji ulusi lashkarining hujumlarini qaytarib o‘z marralaridan ilgari borayotgan edilar. Dushman o‘zining asosiy zarbasini Turon lashkarining o‘ng qanoti va o‘ng qanot kanbuliga hamda markazning o‘ng qanotiga qaratganligi uchun ham Amir Temur qo‘shinining qolgan qismlari nisbatan erkin jang qilayotgan edi. Natijada Movarounnahr lashkarining chap qanot kanbuli va markazning chap qanoti o‘z askarlarining bir qismini o‘ng qanotga yordamga tashlashga erishdi. Bu vaqtda deyarli qurshovda qolayotgan Amir Temur boshchiligidagi qismlarga chap qanot kanbulidan amir Xudoydod Husayniy yordamga keldi. U dushman qo‘shinining ortiga o‘tib hujum qila boshladi.




**3-rasm.** *Terek jangining taktik sxemasi.*

Ko‘p o‘tmay markazning chap qanotini boshqarayotgan Mirzo Muhammad Sultonning o‘zi asosiy kuchlar bilan yetib keldi va Jo‘ji ulusining chap qanotini chekintira boshladi. Shundan keyingina Turon qo‘shining chap qanotidagi vaziyat o‘nglandi. Ular o‘z marralarini to‘liq qaytarib olishga erishdilar.

Chap qanotda o‘z maqsadiga erisha olmagan Jo‘ji ulusi lashkari o‘z askarlarini qayta guruhlab, bu vaqtda o‘ng qanotga yordamga askar berishi natijasida kuchsizlangan markazga hujum boshladi. Ko‘p sonli lashkar qarshisida qolgan Amir Hoji Sayfuddinbek ham markazda dushman hujumini otliqlarni piyoda jangga kiritib, komon o‘qlari yordamida qaytarishga erishadi. Natijada dushmanning markazdan yorib o‘tish maqsadidagi urinishlari ham yordam bermadi.

Dushman markazdan hujumni kuchaytirgan vaqtda o‘zining o‘ng qanotidan ham keskin zarbalar bera boshladi. Chunki o‘ng qanotga yordam berilgani uchun Movarounnahr qo‘shinining markazi singari chap qanoti va shu qanot qanbuli ham ancha zaiflashgan edi. Bu qanotda amir Temurxoja matonat bilan himoyalandi. Unga Mirzo Rustam yordamga yetib kelib, dushmanni chekinishga majbur qildi va o‘z jasorati bilan bobosi nazariga tushdi. Jo‘ji lashkarining bu tomondagi hujumlari Yag‘libiy katta o‘rin tutdi. U o‘z lashkarining oldingi qismida hujumga borarkan Amir Temurning sarkardalaridan Usmon bahodirni jangga chorladi. Lekin

Yag‘libiyning hujumi ham natijasi yakunlandi. Usmon bahodir dushmanni chekintira boshlaganligi Movarounnahr lashkari ruhiyatini ko‘tarib yubordi.




**4-rasm.** *Terek jangining yakuniy bosqichi.*

Mudofaa janglari orqali dushmanga katta talofat yetkaza olgan Movarounnahr qo‘shini shundan keyin janggohning barcha qismlarida baravariga hujumga o‘tib raqibni to‘la tor-mor keltirishga erishadi. Ushbu jangdagi qahramonligi va topqirligi uchun amir Shayx Nuriddin alohida taqdirlanadi.

Dushmanni ta’qib etgan Amir Temur qo‘shini Volga bo‘yi hududlari, janubiy Rossiya, Shimoliy Kavkaz, Qrim hududlarini zabt etib, 1396-yilning bahorida Ozarbayjonga qaytib keldi.

Shu o‘rinda Amir Temurning Oltin O‘rdaga qilgan yurishlarining ahamiyati, nima uchun Moskva shahriga yurish qilinmaganligi (Sharofuddin Ali Yazdiy va Shomiylar ta’kidlaganidek, Amir Temur qo‘shinining oldingi qismlari Moskva knyazligi hududlarini talon-taroj qilish bilan cheklangan, xolos) haqidagi rus tarixchilarining fikrlarini ham tahlil qilib o‘tsak.

N.M. Karamzin Amir Temur tomonidan Oltin O‘rda xoni To‘xtamishga va Turkiya sultoni Boyazidga qarshi olib borilgan yurishlarning oqibatlari haqida ham diqqatga sazovor fikrlarni bildiradi. Shu paytgacha ko‘plab tarixchilar yuqorida ta’kidlangan yurishlar oqibatlari haqida fikr yuritganda, asosan, sovet tarixchilari B.L Grekov va A.Y.Yakubovskiylarning mazkur yurishlar Rossiya va Yevropa davlatlari taraqqiyoti uchun alohida ahamiyatli bo‘lganligi, xususan, Vizantiyaning qulashini 50 yil orqaga surib yuborganligi haqidagi fikrlarni bildiradilar. Lekin N.M. Karamzin misolida rus tarixshunosligida bu fikr ancha oldinroq tug‘ilganligini ko‘rishimiz mumkin. Muallif minglab emas, balki o‘n minglab askarlarga ega bo‘lgan, bir vaqtning o‘zida ham Sharqni, ham G‘arbni tor-mor qila olgan Botu ulusining aholisi ichki kelishmovchiliklar, o‘zaro urushlar hamda Dmitriy Donskiy va Amir Temur zarbalari natijasida tarqalib, kamayib ketganligini ta’kidlaydi. U Terek jangidan so‘ng To‘xtamishni Amir Temur tomonidan ta’qib qilinishini bayon qilar ekan: “Mo‘g‘ullarning (N.M. Karamzin Temur qo‘shinlarini ham shunday ataydi – B.U.) mo‘g‘ullarga bergan zarbalari volgalik (ya’ni, volgalik mo‘g‘ullar – B.U)lar kuchini zaiflashtirdi va ruslarni Vatan ozodligi baxti yaqinligi fikri shodlantirishi kerak edi”,-deb yozadi. Voqealar bayonida u Amir Temurning

halokatli zarbalari oqibatida Qipchoq O‘rdasi ayanchli ahvolga tushib qolganligiga, yana o‘zaro urushlar maydoniga aylanganligiga e’tibor qaratadi.

Ko‘plab rus tarixchilari qatori N.M. Karamzinni ham Amir Temurning nima sababdan janubga qaytganligi qiziqtirgan. Lekin u boshqa rus tarixchilaridan farqli ravishda Amir Temur Moskva buyuk knyazi bilan to‘qnashuvdan qo‘rqqani uchun ortga qaytgan, degan fikrni asossiz deb biladi. Uning yozishicha, garchi Moskva knyazi o‘z qo‘shini bilan Oka daryosi tomon yo‘lga chiqqan bo‘lsa-da, xalqning ruhi juda past bo‘lgan, kechayu-kunduz faqat ibodat bilan mashg‘ul bo‘lib, xristianlik o‘limiga tayyorlanardi. Shuning uchun ham buyuk knyaz Vasiliyning farmoniga ko‘ra, Vladimir shahridan bir vaqtlar Andrey Bogolyubskiyga bolgarlar ustidan g‘alaba keltirgan Bibi Maryam ikonasi Moskvaga keltiriladi. Xuddi shu kuni esa Amir Temur janub tomon yo‘lga chiqadi va butun rus aholisi buning sababini Bibi Maryam ikonasi sharofatidan deb biladi.

Lekin N.M. Karamzinning fikricha, yomg‘irli kuz mavsumi boshlanishi arafasida, undan so‘ng qahraton rus qishi kutilayotgan vaqtda, Hindiston, Suriya, Misr kabi Sharqning boy o‘lkalari kabi rivojlanmagan Rossiyaga yurish qilish o‘zini iqtisodiy jihatdan oqlamas edi. Bunga Amir Temur mazkur o‘lkaning janubini, xususan, Yelets shahri va Ryazan knyazligini egallagandayoq amin bo‘lgan. Xulosa qilib N.M. Karamzin quyidagilarni yozadi: “Rossiya, baxtimizga, uning (ya’ni, Amir Temur – B. U.) uchun bu jozibadorlikka ega emas edi”.

Amir Temur haqida fikr bildirgan rus tarixchilaridan yana biri Moskva universitetining professori T.N.Granovskiydir. U ham Amir Temurning To‘xtamishxonni tor-mor keltirib, Rossiyaning janubiy hududlariga kirib kelishi to‘g‘risida o‘z qarashlarini bayon etadi. Sohibqironning Rossiya markazi tomon harakat qilib, kutilmaganda janubga qaytganligini Moskva knyazi Vasiliy Dmitriyevichning harbiy tayyorgarligidan qo‘rqqanligi uchun emas, deb ta’kidlaydi. Shuningdek, Kulikovo jangida ruslardan mag‘lubiyatga uchragan Mamayni Temur bilan taqqoslab bo‘lmasligini qayd etadi.

Mashhur rus tarixchisi S.M. Solovyev (1820-1879) ham Amir Temur haqida bir qator e’tiborga molik fikrlar bildirgan. Garchi u ham Amir Temur tarixi bilan maxsus shug‘ullanmagan bo‘lsa-da, “Rossiya tarixi” asarida Sohibqiron haqidagi qaydlari uchraydi. Bu ham albatta, Amir Temurning Oltin O‘rda xoni To‘xtamishxonga qarshi uyushtirilgan harbiy yurishlar tufaylidir. U Amir Temur 1395-yili Terek daryosi bo‘yida To‘xtamishxon qo‘shinlarini tor-mor etib, mo‘g‘ullarni ta’qib etish jarayonida janubiy rus erlarini, xususan, Yeles shahrini egallaganini va bu yerda 15 kun turib ortga qaytganligini bayon qiladi. S.M. Solovyev “Oltin O‘rda Temur tomonidan tor-mor etilgandan so‘ng, u ko‘p vaqtgacha Moskva knyaziga xavfli bo‘lmay qoldi,” - degan xulosaga keladi. Amir Temur yurishidan keyingi 12 yil davomida mo‘g‘ul-tatar otryadlari bilan ruslar o‘rtasida atigi 3 marta chegara mojarolari bo‘lib, ularda, asosan, ruslar g‘olib kelganligini ham S.M. Solovyev alohida qayd qilib o‘tadi. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Sohibqironning To‘xtamishxonga qarshi olib borgan yurishlari oqibati haqida S.M. Solovyev ham N.M.Karamzinning xulosalariga yaqin fikrlar bildirgan.

Muallif Amir Temurning harbiy yurishlari haqida soʻzlar ekan, Toʻxtamishni taʼqib etish chogʻida janubiy rus erlarida boʻlishiga ham katta ahamiyat beradi. Oʻsha paytdagi Sharqiy Yevropadagi siyosiy vaziyatni va Rossiyaning ichki imkoniyatlarini chuqur tahlil etgan V. Cherevanskiy, Rossiya Amir Temurning koʻp sonli gʻolib lashkari oldida ojiz va himoyasiz ekanligini tan oladi. U oʻzidan avval yashagan rus tarixchisi N.M.Karamzin kabi Amir Temurning Rossiya markaziga bostirib kirmay, kutilmaganda janubga qaytganligiga Rus davlatining harbiy quvvati sabab boʻlmaganligini taʼkidlaydi. Buning asosiy sababi sifatida rus tabiati va Rossiyaga uyushtiriladigan yurish oʻzini iqtisodiy jihatdan oqlamasligini koʻrsatadi.

***Taʼlim texnologiyalari:*** *"B,B,BX" texnologiyasi, Venn diagrammasi, "bumerang", vizual materiallar.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar:***

*1. Amir Temur hokimiyatining dastlabki yillarida Oltin Oʻrda bilan munosabatlari qanday edi?*

*2. Amir Temur Toʻxtamishxonni Oltin Oʻrda taxtini egallashida yordam berishidan qanday maqsadlarni koʻzlagan edi?*

*3. XIV asrning soʻnggi choragida Oltin Oʻrda davlati qoʻshni davlatlarga taʼsiri qanday boʻlgan?*

*4. Amir Temur davrida Oltin Oʻrda va Turon davlatlarining manfaatlari qaysi hududlarda toʻqnashgan?*

*5. Nima uchun Amir Temur Oltin Oʻrda davlatini butunlay davlat sifatida tugatishni koʻzlamadi?*

*6. Chukalak jangi haqida manbalarda qanday qaydlar mavjud?*

*7. Amir Temur Toʻxtamishxon bilan olib borgan janglarida qanday taktikalardan unumli foydalandi?*

*8. Amir Temurning Toʻxtamishxon ustidan qozonilgan gʻalabalari qanday oqibatlarga olib keldi?*

## MAVZU: AMIR TEMURNING UCH VA BESH YILLIK HARBIY YURISHLARI.

**Reja:**

*1. Xurosonning zabt etilishi.*
*2. Uch yillik harbiy yurish.*
*3. Besh yillik harbiy yurish.*

**Kalit soʻzlar:** *Shirvon oʻlka, Ozarbayjon, Kurdiston, Armaniston, Gurjiston, Muzaffariylar sulolasi, Fors oʻlkasi, Umarshayx mirzo, Pir Muhammad mirzo, Qora Yusuf, Sulton Ahmad jaloyir, Bagʻdod, Shoh Mansur, Mazondaron, Xuroson.*

***Xurosonning zabt etilishi***

Koʻpchilik tarixchilarning eʼtirof etishicha, 1381-yildan boshlab Amir Temur faoliyatining ikkinchi davri boshlanadi. Bu davrda Sohibqiron asosan oʻz davlati hududlarini kengaytirishga, Buyuk Ipak yoʻli tarmoqlari ustidan oʻz hukmronligini oʻrnatishga harakat qildi. Bu vaqtga kelib Movarounnahrning gʻarbiy, shimoliy va sharqiy hududlarida xavfsizlikni taʼminlashga erishgan Amir Temur oldida Xuroson erlarini oʻz davlati tarkibiga qoʻshib olish uchun qulay vaziyat paydo boʻlgan edi.

Elxoniylarning so‘nggi hukmdori Abusaidxonning vafotidan so‘ng Eron bir necha mulklarga bo‘linib ketgan va o‘zaro urushlar girdobida qolgandi. Xurosonning yirik shaharlaridan biri bo‘lgan Hirotda Kurdlar sulolasining vakili Malik G‘iyosiddin hukmronlik qilayotgandi. U Amir Temur tomonidan yuborilgan Hoji Sayfuddinbek boshchiligidagi elchilarni turli bahonalar bilan Hirotda ushlab turish bahonasida shahar atrofini mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘rab olishga erishdi. Natijada elchilari Hirot voliysining ruxsatisiz Samarqandga qaytdilar va urushning boshlanishi muqarrar bo‘lib qoldi.

Movarounnahrda o‘z hokimiyatini mustahkamlab borayotgan Amir Temur o‘z davlatini chegaralarini janub tomon kengaytirishni rejalashtirib, jiddiy tayyorgarlik olib borayotgandi. Amudaryoning janubi tomonidagi hududlarga qilinadigan yurishlar uchun Balx shahri plasdarm vazifasini bajarishi kerak edi. Bu holatni yaxshi tushungan Amir Temur 1380-yili o‘g‘li Mironshoh mirzoni Xuroson hukmdori, deb e’lon qildi va uni 25 ming kishilik qo‘shin bilan Balxga jo‘natdi. Shu vaqtdan boshlab bu yerga Movarounnahrning turli hududlaridan kelayotgan katta lashkar to‘plana boshladi. 1381-yilning fevral oyida Amir Temur farmoniga binoan Movarounnahr lashkari Xuroson tomon yo‘lga chiqdi. Amir Temur qo‘shinlari daryodan kechib o‘tib, Andxud shahriga yetib kelishgach, Sohibqiron shu yerlik avliyo Bobo Sanguni ziyorat qiladi. Sharofuddin Ali Yazdiy bu voqeani quyidagicha hikoya qiladi: “Va Bobo Sangu, jazaba va holatikim, anda bor edi, bir qo‘yning to‘shini hazrat qoshiga tashladi. Ul hazrat shu kun tutib, to‘shni olib dedikim, “Xurosonkim, yer yuzining to‘shi tutur, bizga tangri bergusi tutur”[223].

Amir Temur qo‘shinlari dastlab Malik G‘iyosiddinning ukasi boshqarayotgan Saraxs qal’asini jangsiz buysundirdilar. Shuningdek, Sohibqiron qo‘shinlari Malik G‘iyosidin qo‘shinlarini birlashishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida tezlik bilan Kusuy va Jom viloyatlari tomon harakat qildi. Natijada Kusuy hukmdori Pahlovon Mahdiy ham ilojsiz qolib, jangsiz taslim bo‘lishni ma’qul ko‘rdi.

Sohibqiron boshchiligidagi harbiy kuchlar yurishni davom ettirib, Xurosonning yirik qal’alaridan biri hisoblanadigan Fushanj qal’asini qamal qildilar. Qal’ani egallash uchun 3 kun tayyorgarlik ko‘rildi va to‘rtinchi kuni hujum bidan qal’a zabt etildi. Sohibqironning o‘zi ham bu jangda jiba (sovut)siz qatnashib, o‘z askarlarini mardonavor jang qilishga chorlab turdi. Jangning shiddati shunda ham ko‘rinadiki, Amir Temur ikki bora qalqoni bilan kamon o‘qlari o‘zini himoya qilishga ulgurib qolgandi.

Shundan so‘ng barcha qo‘shinlar Hirot tomon yurib, yangi bunyod etilgan hisorni qamal qildi. Dastlabki janglardan so‘ng Amir Temur tinch aholi agarda jangda qatnashmasa ularga zarar yetkazilmasligi haqidagi xabarni Hirotda tarqatishga erishgach, qarshilik keskin pasayib ketdi va Malik G‘iyosiddin taslim bo‘lishga majbur bo‘ldi. Shunday qilib Yazdiyning ta’kidlashicha 1381-yilning aprel oyida Xuroson poytaxti Xirot shahri egallandi. Hirotning yana bir mustahkam qal’asi Ashkalchada turgan Malik G‘iyosiddinning o‘g‘li Amir G‘uriy ham o‘z qal’asini g‘oliblarga topshirib, taslim bo‘lishni ma’qul ko‘rdi.

[223] Йаздий. Зафарнома. – Б. 89.

Sohibqiron farmoniga ko‘ra Hirotning tashqi qal’asi buzib tashlandi. Naqqoshlik san’atining oliy namunalari bo‘lmish temir darvozalar Kesh shahriga yuborildi. Shuningdek, Hirotlik mashhur ulamo Mavlono Qutbiddin va yana 200 nafar o‘z ishining ustalari hunarmandlar Samarqand shahriga ko‘chirildi.

Hirot zabt etilgach, Sohibqiron amir Jahonshoh Jakuni Nishopur tomon jo‘natib, o‘zi asosiy kuchlar bilan Xuroson yurishida qatnashishni istamagan Alibek Joniqurboniyning mulklari bo‘lmish Tus va Kalot tomon yurdi. Yurish xabari kelishi bilan Alibek va Sabzavor hokimi Xoja Ali Muayyid Sarbador kelib taslim bo‘ldilar. Mazondoron hokimi Amir Valibekka qarashli Isfaroin shahri esa jang bilan egallandi. Amir Temur Samarqandga qaytish oldidan Saraxsni o‘g‘li Mironshoh mirzoga in’om etdi. Xurosonning qolgan hududlarini esa o‘z hokimlari ixtiyorida qoldirib, ularni qaram mulk sifatida saqlashni ma’qul ko‘rdi.

Keyingi yili Amir Temur yana Xurosonga yurish qilishga majbur bo‘ldi. Mazondoron hokimi amir Vali Sohibqiron hukmronligi tan olgan Sabzavor shahriga hujum qilganligi ushbu yurishning boshlanishiga sabab bo‘ldi. Amir Temur dastlab imkon qadar itoatsizlik qilayotgan amir Alibekning ustiga bostirib bordi va Kalot qal’asini qamal qildi. Qamal vaqtida Sohibqiron farmoniga binoan Kalot yaqinidagi Qahqa qal’asi qayta tiklanadi. Akademik V.V. Bartold bu qal’a Amir Temur tomonidan yangi qurilganligini ta’kidlagan bo‘lsada, professor A. Ahmedov Yazdiyning ma’lumotlariga asoslanib, Sohibqiron tomonidan qayta tiklanganligini to‘g‘ri ta’kidlaydi[224]. Kalotni qamalda qoldirgan holda Sohibqiron qolgan qo‘shinlari bilan yurishni davom ettirdi va Turshiz viloyatiga kirib borib, uning qal’asini zabt etdi. Bu mastahkamligi bilan mashhur qal’aning boshlig‘i Amir Ali Sadidiy bo‘lib, sadidiylar jamoasining yetakchisi edi. Sadidiylarlarning kelib chiqishi G‘ur viloyati bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu jamoa bahodirligi va qal’alarni himoya qilishdagi mahorati bo‘yicha shuhrat topgan edi. Urush tugagach Amir Temuri sadidiylarni Dashti Qipchoq chegarasidagi Turkiston viloyatining qal’alarni himoya qilish uchun shimoliy chegaralarga ko‘chirdi.

Amir Temurning Xurosondagi faol harakatlari Fors shohi Shujo‘ni xavotirga soldi va u Umarshoh boshchiligida o‘z elchilarini jo‘natdi. Elchilar o‘zaro do‘stlikni mustahkamlash borasida kelishib, aslida esa Amir Temur qo‘shinlarning salohiyati va maqsadlari haqida dastlabki ma’lumotlarni olib ortga qaytdilar.

Bu orada Mazondaron hokimi Valibek ham itoat etganligini bildirib elchi jo‘natdi. Amir Temur Samarqandga qaytayotganida Kalot qal’asi ham egallandi va uning hokimi Alibek Joniqurboniy bor urug‘ aymog‘i bilan Samarqandga ko‘chirildi.

Bu safar avvalgidek faqat Saraxs emas, butun Hirot viloyati Mironshoh mirzoga taqdim etildi. Shuningdek, Hirot hokimi Malik G‘iyosiddin, uning o‘g‘li Amir G‘uriy va inisi Malik Muhammad Andijon va Samarqadga ko‘chirildi. Lekin ko‘p o‘tmay ular qatl etildi. Buning sababi o‘sha vaqtda Hirotda yuz bergan noxush voqealar edi.

Mironshohning hali Hirotga kelib ulgurmaganligi va bu yerda temuriylarning hokimiyati u qadar mustahkam emasligidan foydalangan

[224] Йаздий. Зафарнома. – Б. 328.

G‘uriylarning Malik G‘iyosiddinga dushman bo‘lgan qabilalari (Amir Temur ularni G‘ur viloyatini hukmdori etib tan olgan edi) Hirotga kirib keldilar hamda shaharni egallab oldilar. Mironshoh tezda yetib kelib isyonni bostirdi. Shu isyon sababli G‘uriylar sulolasi hukmronligi to‘liq tugatildi.

1383-yili Amir Temur yana Mazondaron tomon yurish boshladi. Bu vaqtda Sabzavor hokimi etib tayinlangan Shayx Dovud Sabzavoriy ham isyon boshladi. Lekin tez orada bu isyon ham bostirildi. Isyon bostirilgach Amir Temur Hirot va Sabzavor aholisini isyonda ishtirok etganligi uchun jazolashga qaror qildi. Jazo tariqasida har ikki shahar aholisidan moli omon puli yig‘ib olindi. Shuningdek, Sabzavor qal’asi ham buzib tashlandi va shahar aholisidan ikki ming kishi o‘ldirildi.

Sohibqiron esa Mazondoronning ichkarisiga kirib bormay Seyiston tomon yurishni davom ettirdi. Seyistondagi janglarda Amir Temurning o‘zi ham bir necha bor jangga kirib, mardlik namunasini ko‘rsatdi. Nihoyat 1383-yilning 22-25-dekabr kunlari Seyiston ham fath etildi va Shoh Qutbiddin yaqinlari bilan Samarqandga ko‘chirildi.

Shundan so‘ng Amir Temur qo‘shinlari Seyistondan Qandahor tomon yurdilar va yo‘llardagi bir necha qal’alarni egallab, afg‘on qabilalarini bo‘ysundirib, Qandahor viloyatini ham temuriylar davlati tarkibiga kiritib Samarqandga qaytdilar. Shunday qilib, 1381-1383-yillar davomida Xuroson, Seyiston va Qandahor viloyatlari zabt etildi.

1384-yilning bahoridan Mazondaronni bo‘ysundirish uchun hal qiluvchi yurish boshlandi. Bu yurish boshlanishidan avval Amir Temurning nabirasi Pir Muhammad Jahongir Fors shohi Jaloliddin Shujo‘ning qiziga uylanib ikki sulola o‘rtasida ittifoq mustahkamlandi. Natijada bo‘ysunmas Mazondaron hukmdori Amir Valibek ikki sulola o‘rtasida yakkalanib qoldi. Bu esa Shimoliy Eronning eng bo‘ysunmas hududi bo‘lmish Mazondaron viloyatini ham Amir Temur davlati tarkibiga kiritilishiga olib keldi.

Mazondaron viloyati zabt etilgach Amir Temur har o‘n jangchidan uchta yaxshisini olib Ray shahri tomon yurish boshlashni buyurdi. Sohibqiron qo‘shinlari Ray egallagan paytda Bag‘dod hukmdori Sulton Ahmad Jaloyir Sultoniya shahrida turgan edi. U Amir Temur qo‘shinlari xabarini eshitishi bilan o‘g‘lini qo‘shin bilan Sultoniyada qoldirib o‘zi Tabriz shahriga chekindi. Sohibqiron sarkardalaridan Umar Abbos 60 kishilik harbiy qism bilan Sultoniya atrofida paydo bo‘lishi bilanoq raqiblar shaharni tashlab Tabriz tomon qochdilar. Amir Temur qishni Ray shahrida o‘tkazdi. Erta bahorda Sultoniya shahri tomon yurdi va uni hokimligini Fors viloyati shohlarining yirik sarkardalaridan bo‘lgan, Sohibqiron xizmatiga kirgan Sariq Odilga berdi.

Shundan so‘ng 1385-yili Rustamdor viloyati va Omul hamda Sori o‘lkalari bo‘ysundirildi. Bu o‘lkalarning hokimlari Sayyid Kamoliddin va Sayyid Raziuddinlarga Astrobod hokimi Luqmon podshohga bo‘ysunish haqida farmon berildi.

***Uch yillik harbiy yurish***

XIV asrning 80-yillarida Eronning shimoliy-sharqiy hududlarini birin-ketin Amir Temur tomonidan zabt etilishi To‘xtamishxonni tashvishga solib qo‘ydi. U Amir

Temurning Yevropa va Yaqin Sharqqa chiqish yo‘llarini kesib tashlash maqsadida Sohibqirondan ildamroq harakat qilib, Ozarbayjonning bosh shahri Tabrizni egallashga intildi. To‘xtamishning bu harakatini M. Abduraimov Xorazmni 1379-80-yillarda Temur tomonidan zabt etilgani uchun qasos olishga intilish, deb baholaydi. Bu paytda Tabriz shahri Bag‘dod hokimi Sulton Ahmad Jaloyirga bo‘ysunar edi. Shu o‘rinda, A.Y. Yakubovskiyning quyidagi fikrlariga yana bir bor e’tiborni qaratish lozim topdik: “O‘zining hukmdori Sulton Ahmadning talon-taroj lari va zo‘ravonliklaridan aziyat chekkan Tabriz aholisi Temur agentlari tomonidan mahorat bilan olib borilgan targ‘ibotni qabul qilish uchun yaxshi zamin edi. Tabrizda zodagonlar orasida O‘rta Osiyolik hukmdorning tarafdorlari ancha kuchli partiya ekanligi ayon bo‘ldi. Temur o‘zining bunday shuhratidan yaxshi xabardor edi va oldindan g‘alabaga to‘la ishonib, Sulton Ahmad bilan to‘qnashishga tayyorgarlik ko‘rardi. Raqiblar qo‘shini o‘rtasidagi jang 1385-yilda Sultoniya yaqinida yuz berdi. Temur g‘olib chiqdi, ammo muhimroq ish uning diqqatini boshqa tomonga tortdi va u Tabriz sari yurmadi, vaholanki, Tabriz zodagonlari o‘rtasidagi tarafdorlari uni shunga ko‘ndirmoqchi edilar”[225].

Amir Temur sulton Ahmad Jaloyirni engib, Sultoniyani egallagach, To‘xtamishxon tezroq Tabrizni bosib olishga qaror qildi. Dashti Qipchoq lashkari 1385-yilning qishida bir haftalik janglardan so‘ng Tabrizni egallab, uni ikki kun talon-taroj qilgach, ortga qaytdi. Avval ham to‘xtalganimizdek, bu voqea Amir Temurni juda tashvishga solib qo‘yganligi haqida Sharafiddin Ali Yazdiy shunday yozadi: “Bu xabar hazrat sohibqironga etdi, musulmonlar uchun ko‘ngli asru malul bo‘ldi va bu jihatdin Eron viloyatining zabtiga xotirin qo‘yib vojib ko‘rdikim, ul viloyatlarni zabt qilgaykim, munday nari anga yaag‘i kirmagay. Aning uchunkim, Eron viloyatida andoq podshohkim Eron viloyatini zabt qilg‘ay, yo‘q. Va bir necha podshohikim bor edi, barchasi bir-biriga yaag‘i erdilar, bir-biridan qo‘rqib, viloyatlaridan chiqa olmas edilar. Aning uchun mundoq balolar ra’iyat va faqiru miskinga tegar erdi”[226]. Chindan ham ko‘p o‘tmay, Tabriz Sohibqiron qo‘shinlari tomonidan egallandi. Bu Amir Temurning 1386-yili boshlangan yurishida amalga oshdi. Bu yurish davomida Sohibqiron qo‘shinlari karvonlarni talon-taroj qilganligi uchun Luriston viloyatining bir qator kentlarini, ayniqsa Xurramobodda qaroqchi guruhlarni tor-mor etib Ozarbayjon sari yurdi. Tabrizni Sulton Ahmad Jaloyir himoya qila olmay Bag‘dodga chekindi va Ozarbayjon poytaxti jangsiz Amir Temur davlati tarkibiga kiritildi. Shundan so‘ng u yerda hayot ko‘p o‘tmay o‘z iziga tushganligini Nizomiddin Shomiy ta’kidlab o‘tadi. Ushbu havolaga avval ham to‘xtalgan bo‘lsak-da, unga yana bir bor murojat qilishni lozim topdik. Shomiyning yozishicha: “Ma’lum bir muddatgacha qubbat ul-islom bo‘lmish Tabriz shahri xarob, noobod, ravnaqsiz va kimsasiz qoldi. Lekin Amir Sohibqironning yosoq va adolatli barakotidan yaxshilanib, Amirning adlu dodxohligi soyasida mazlum xalq yana manzillariga qaytib, hayot kechira boshladilar”[227].

[225] Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Золотая Орда и её падение. – М.-Л., 1950. – С. 330-331.
[226] Йаздий. Зафарнома. – Б. 106.
[227] Шомий. Зафарнома. – Б. 133.

Tabriz egallanganidan so‘ng Amir Temur qo‘shinlari Armaniston va Gurjiston hududlariga kirib bordi. Shiddatli janglar bilan Gurjiston poytaxti Tiflis (Tbilisi) shahri egallanib, ushbu mamlakat podshohi Buqrot asir olindi. Sohibqiron qo‘shinlari tog‘larda joylashgan gruzin qal’alarini birin-ketin egallab, butun mamlakatni zabt ettilar. Shundan so‘ng Qorabog‘ni o‘z qarorgohiga aylantirgan Amir Temur Buqrot Islom dinini qabul qilgach, uni yana o‘z mamlakatinining hukmdori etib tayinladi. Shu kunlarda Shimoliy Ozarbayjon ya’ni Shirvon hukmdori amir Shayx Ibrohim ham o‘z ayonlari bilan kelib itoatga kirdi.

Amir Temurning Kavkazortidagi g‘alabalari To‘xtamishni tashvishga soldi va u o‘z qo‘shinlarini bir qismini Darband dovoni orqali Kavkazortiga jo‘natdi. Lekin bu qo‘shin Mironshoh mirzo boshchiligidagi harbiy kuchlar tomonidan yo‘q qilindi. Amir Temur boshchiligidagi asosiy kuchlar esa bu vaqtda turkman qabilalarini bo‘ysundirish bilan band bo‘ldi. Shuningdek, armanlarning Van va Vaston viloyatlari ham zabt etildi.

To‘xtamishxonning Kavkzorti va Eronga bostirib kirish yo‘llarini to‘liq kesib qo‘yishga erishgan Sohibqiron o‘zining asosiy kuchlarini Fors viloyatini bo‘ysundirish uchun tashlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. 1387-yili Amir Temur Shoh Shujoning o‘g‘li Zaynalobiddin hukmronlik qilayotgan Isfahonga qo‘shin tortib bordi. Shahar jangsiz taslim bo‘lgach, tuzilgan sulh shartnomasiga ko‘ra shaharga “Taqa bahosi" deb atalgan moli omon solig‘ini olishga, lashkarni esa shaharga kiritmaslikka farmon berildi. Soliqni yig‘ib olish uchun Nur Mulk Barlos, Muhammad Sultonshoh va Bayon Temur kabi sarkardalar mas’ul etib tayinlandi va shaharga soliqni yig‘ib olish uchun 3 mingtagina skar kiritildi. Shahar ayonlari esa Sohibqiron qarorgohida ushlab turildi. Muhassillar shaharga kirgan kuni kechasi shahar aholisining bir qismi Ali Ko‘chapo boshchiligida isyon ko‘tarib, sulh shartnomasini buzib soliqchilarni va ular bilan kirgan 3 mingdan ortiq askarni qirib tashladilar. Amir Temur sarkardalaridan Bayon Temur ham shu isyonda halok bo‘ldi. Bu xabar tongda Amir Temurga yetkazilgach, shaharni jang bilan egallashga farmon berildi. Shahar qo‘lga kiritilishi bilan Xoja Imomiddin Voiz yashagan mahallani qo‘riqlagan holda boshqalarni qatli om qilishga ruxsat berildi. Natijada 70 mingdan ortiq aholi halok bo‘ldi. Ushbu dahshatli voqea 1387-yili 15-noyabr kuni bo‘lib o‘tadi.

Aynan mana shu voqea Amir Temur shaxsini qoralash uchun keng foydalaniladi. Ko‘pgina tarixchilar Amir Temur o‘z davrining odami sifatida isyonni shafqatsizlik bilan bostirishga majbur bo‘lganligini ta’kidlaydilar. Shu o‘rinda X.Vamberining quyidagi so‘zlarini eslash o‘rinli “u (ya’ni Temur – B.U.) askariga Isfahonni talon-taroj qilishga ruxsat berganda, ulamolar mahallasiga shafqat qilishni amr etgan… Endi shu kishini vahshiy, marhamatsiz deb atash mumkinmi? Binobarin, Temurni Chingiz ila bir safga qo‘shib, uni vahshiy, zolim, qaroqchi deb ataganlarning fikrlari ikki marotaba xatodir”[228].

Amir Temur Amir Hojibek va Tumanshohlarni (Shomiyda Nubinshoh) Isfahonni muhofaza qilish hamda boshqarish uchun qoldirib, Sheroz tomon yurdi. Bu vaqtda Sherozda bo‘lgan shoh Zaynalobiddin shaharni tashlab chiqishga

[228] Вамбери Х. Мовароуннахр ёхуд Бухоро тарихи – Т.: Ғ.Ғулом нашр, 1990. – Б. 48.

majbur bo‘ldi. Bundan foydalangan Muzaffariylar sulolasining yana bir vakili Shoh Mansur Zaynalobiddin qo‘shinlarini o‘z tomoniga og‘dirib oladi. Natijada Shoh Mansur Sherozni qo‘lga kiritgan bo‘lsa-da, uni o‘z qo‘lida saqlab qola olmadi va uni Amir Temurga qoldirib, chekindi. Sohibqiron qo‘shinlar 1387-yilning 13-dekabr kuni Sherozga kirib keldilar. Shahar aholisi jangsiz taslim bo‘lib, shaharga ming tuman (10 mln) ko‘ppaki miqdorida moli omon solig‘i solindi.

Amir Temur Fors viloyatini Muzaffariylar sulolasi qo‘lida saqlab qolishni lozim topdi. Natijada Shoh Yahyo Sheroz, Sulton Muhammadni Isfahon, Sulton Ahmadni Kermon viloyatini hokimi etib tayinladi. 1388-yilning 9-fevral kuni Fors viloyatini tark etib, Samarqand tomon yo‘lga chiqdi. Shu bilan Amir Temurning 1585-1387-yillarni o‘z ichiga olgan 3 yillik yurishi yakuniga yetdi. Bu yurish natijasida Shimoliy va Markaziy Eron, Ozarbayjonda Amir Temur hokimiyati o‘rnatildi. Shuningdek, Shirvon, Armaniston, Gruziya mamlakatlari ham Amir Temur hukmronligini tan olishga majbur bo‘ldilar. Lekin, bu mamlakatlarning aksariyati Sohibqiron qo‘shinlari Xorazm, Oltin O‘rda va Mo‘g‘uliston hukmdorlarining ittifoqiga qarshi kurash olib borgan-yillarda (1388-1391) o‘z mustaqilliklarini tiklab oldilar.

***Besh yillik harbiy yurish***

Natijada, Amir Temur 1392-yilning 7-iyunida 5 yillik yurishga tayyorgarlik ko‘rishga farmon berdi va lashkarning to‘planish markazi sifatida tanlangan Buxoro tomon yo‘lga chiqdi. Shu yilning 22-iyunida esa Eron tomon yangi yurish boshlandi. Buxoro yaqinidagi Jo‘yi Zar mavzeyida (hozirda Buxoro viloyati Shofirkon tumani hududida) Sohibqironning kasallanganligi sababli yurishni to‘xtatishga majbur bo‘lindi. Kasallik jiddiyligi sababli Amir Temurning valiahdi Muhamad Sulton ham qarorgohga chaqirildi. Bu vaqtda lashkarning manglay qismi bilan Amudaryoni kechib o‘tgan shahzoda, lashkarni o‘sha yerda qoldirib, ortga qaytishga majbur bo‘ldi. 1392-yilning 7-iyul kuni, ayni barot kechasi Amir Temurda sog‘ayish alomatlari paydo bo‘ldi. 17-iyul kuni biroz o‘ziga kelgan Sohibqiron Muhamad Sultonga o‘z lashkariga qaytib yurishni davom ettirishni buyurdi. Asosiy lashkarga esa faqat 22-iyul kuni yurishga qayta tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida topshiriq berilib, biroz tayyorgarlikdan so‘ng 27-iyul kuni qo‘shin safarni davom ettirdi. Lashkarning asosiy qismi ham Amudaryodan kechib o‘tgach, Moxon orqali Obivardga yetib bordi. Xabushon mavzeyida (hozirda Eron shimolidagi Kuchon) Muhamad Sulton boshchiligidagi harbiy qismlar asosiy lashkar bilan birlashdi. Lashkar 19-sentyabr kuni Astrobodga yetib keldi va asosiy janglarga tayyorlana boshladi.

Amir Temurning maqsadi Mazondaron viloyatining Astrobodning janubiy g‘arbidagi hududlarida o‘z hokimiyatini mustahkamlash va bu yerdagi diniy nizolarga *(Diniy nizolar shundan iborat ediki, Sharafuddin Ali Yazdiyning ta’kidlashicha, bir guruh musulmonlar islom dinidagi sunnat amallarni, namozga azon chaqirishni ham rad etishar va o‘zlariga qarshi chiqqanlarga zo‘rovonlik qilishardi. Shuningdek, juma namozi va jamoat bo‘lib namoz o‘qishni ham ta’qiqlashgan edi.)* barham berish edi. Amir Temur dastlab Kaspiy dengizining janubini qaytadan bo‘ysundirishga majbur bo‘ldi. Bu hududlar ham Sohibqiron

To‘xtamish va uning ittifoqchilariga qarshi kurash bilan band bo‘lganda, o‘z mustaqilliklarini tiklab olgan edi.

Mazondaron yurishi juda qiyin tabiiy sharoitlarda olib borilgan. O‘tib bo‘lmas o‘rmonzor va butazorlar orqali yo‘l ochish lozim edi. Amir Temur farmoni bilan lashkar uchga bo‘linib, har biri kengligi bir o‘q otimi (o‘rtacha uch yuz metr) bo‘lgan uchta yo‘l ochib olg‘a yurdilar. Lashkar daraxtlarni kesib, ularni oyoq ostiga yotqizib botqoqzorlar orqali o‘tishga majbur bo‘lgan. Shu tariqa yo‘l ochib dastlar Sori shahriga yetib borlidar. Shahar jangsiz taslim bo‘ldi. Uning hokimi Sayyid Kamoluddin esa Mahona qal’asidagi Sayid Rizouddin tomon chekinib, u bilan birlashdi. Bu qal’a Soridan taxminan 30 km narida, Kaspiy dengizi sohilida joylashgan edi. Lashkar botqoqliklarni daraxtlar bilan to‘ldirish orqali yo‘l ochib, 24-sentyabr kuni Mahona qal’asiga yetib keldilar. Qal’a atrofi baland devor va dengiz suvi bilan to‘ldirilgan handaq bilan o‘ralgan edi. Handaqning tashqarisidagi esa mustahkamlangan yog‘och devor ham muhim mudofaa ob’yekti edi. Qal’ani shturm bilan egallash maqsadidagi urinishlar samara bermagach, Amir Temur Jayhun kemachilarini olib kelib, ular yordamida dushman kemalarini qo‘lga kiritishga erishdi. Shundan so‘ng shahar dengiz orqali ham qamalga olindi. Aynan dengiz orqali qilingan hujum samara berdi va qal’a 19-oktyabr kuni jang bilan zabt etildi.

Shu tariqa, 1392-yilning oktyabr oyiga kelib Omul va Sori hukmdorlari Sayyid Kamoluddin va Sayyid Rizouddinlar qo‘li ostidagi bir qator qal’alar jang bilan egallandi. Sayyid Kamoliddin oilasi bilan Xorazmga, shu sulola vakillaridan Sayyid Murtazo va Sayyid Abdullohlar Toshkent shahriga surgun qilindi.

1392-yilning noyabr va dekabr oylarida Amir Temur Jurjon viloyatida Shasmon mavzeyida yangi saroy qurdiradi. 1393-yilning 9-yanvarida Amir Temur yurishni davom ettirishga farmon berdi. Lashkar Domg‘on, Semnon, Ray va Shahriyor orqali o‘tib bordilar. Mazkur shaharlar janglarsiz yana Amir Temur davlati tarkibiga qaytarildi. Ularning hokimlari itoatda ekanligini bildirganligi uchun aksariyati o‘z o‘rnida qoldirildi. Mirzo Muhammad Sulton va Mirzo Pir Muhammadlar boshchiligidagi lashkar manglay qismi sifatida oldingi safda bordi va Qazvin shahrini jang bilan egalladi. Shundan so‘ng shahzodalar boshchiligidagi lashkar Sultoniya shahri tomon yurib, uni jangsiz zabt etdi. Bir hafta davomida shu yerda kuch to‘plagan manglayga avval rejalanganidek, Bag‘dod sari emas, balki Kermonshoh tomon borishga topshiriq berildi. Amir Temur Kurdistonda o‘z hokimiyatini mustahkamlamasdan avval Bag‘dod sari borish xavfli ekanligi xulosaga kelgan edi. Bu vaqtda mazkur o‘lkada ko‘chmanchi turkman va yarim ko‘cmanchi hamda o‘troq kurd qabilalari hukmronlik qilishardi. Ular amalda hech kimga bo‘ysunmas, atrof viloyatlarni, karvon yo‘llarini hamda hajga boruvchi ziyoratchilarni taorn-taroj qilish ularning asosiy mashg‘ulotlaridan biriga aylangan edi.

Kurdistonga kirib borgan shahzodalar boshchiligidagi manglay dastlab Kermonshoh shahrining shomoliy-g‘arbidagi Songur qal’asini egalladilar. Kurdiston hokimi Ibrohimshoh itoatda ekanligini bildirib, Sultonshoh ismli o‘g‘lini Mirzo Muhammad sulton huzuriga yubordi. Lekin Kurdistonning ko‘plab hududlari amalda Ibrohimshohga ham bo‘ysunmas edi.

Shahriyorda turgan Amir Temur Kurdistonni boʻysundirish oson emasligini tushungan holda, asosiy qoʻshin bilan Burujird (hozirda Eronning Hamadon shahridan 90 km janubda joylashgan) tomon yoʻl oldi. Yana bir qoʻshin Mirzo Umarshayx rahbarligida Koʻshki Choʻpon (hozirda nomi Koʻshkak, Eronning gʻarbi) sari yurish boshladi. Ava hududidagi Kiv qalʼasi jang bilan egallandi va uning hokimi Muhammad Qummiy asir olindi. Muhammad Qummiyga boʻysungan Marun mavzesining hokimi Muzaffar Farrohiy esa jangsiz taslim boʻldi. Shundan soʻng Mirzo Umarshayx lashkari yana Amir Temur boshchiligidagi asosiy qoʻshin bilan birlashdi. Bu vaqtda Burujirdda turgan Sohibqiron bu shaharga Sayfuddin Qoʻldoshni, Nahovandga esa Shayx Mikoilni qutvol etib tayinladi va Xurramobod tomon yurishni davom ettirdi. Xurramobod dorugʻasi Izzudin shaharni tashlab qochdi. Uni taʼqib etish Mirzo Umarshayxga topshirilgach, u taʼqibni davom ettirib, Tustar (hozirgi nomi Shushter) shahrini egalladi. Lekin togʻlar orasida Izzudinni qoʻlga tushurish imkonsizligi sababli, yana asosiy lashkarga kelib qoʻshildi. Amir Temur boshchiligidagi asosiy qoʻshin tomonidan1393-yilning 1-mart kuni Dizful (hozirda ham shu nomdagi shahar, asl nomi Dizpul) shahri boʻysundirildi. Shundan soʻng asosiy lashkar ham Tustarga yetib keldi. Sheroz hukmdori Shoh Mansur tomonidan tayinlangan Tustar hokimi Isfandiyor va shahar qutvoli Ali Fors oʻlkasiga chekindi. Amir Temur Tustarni boshqarishni Xoja Masʼud Sabzavoriyga topshirdi. Bu vaqtda Mirzo Umarshayx boshchiligidagi lashkar Huvayza shahrini zabt etdi, uning dorugʻasi Islom ham Sherozga qochdi. Lashkar oʻgʻrugʻi bilan Shahriyorda qolgan Mirzo Mironshoh huzuridagi lashkar bilan Shoh Mansurga itoat etuvchi Koshon shahrini egalladi. 1393-yilning mart oyida Mirzo Muhamad Sulton va mirzo Pir Muhammad boshchiligidagi lashkar ham Kurdiston hamda Luriston viloyatlarini hududlari boʻylab amalga olishgan yurishlarini yukunlab, Tustarda oliy qarorgohga kelib qoʻshildilar.

Amir Temur lashkari Kurdiston, Luriston, Xuziston viloyatlarini zabt etilib, bu yerda temuriylar hokimiyati mustahkamlangach, Fors viloyatnini qayta boʻysundirishga qaror qildi. Chunki oʻz hududlarining janubida Shoh Mansur boshchiligidagi kuchli raqibni qoldirib, Iroq yoki Eron Ozarbayjoni tomon yurish xato boʻlar edi.

Amir Temur lashkari 1393-yilning 10-mart kuni Sheroz tomon yurish boshladi. Bu vaqtda Husayzada boʻlgan Mirzo Umarshayxga oʻgʻruqni olib asosiy lashkar ortidan Sherozga yurish topshirildi. Bu vaqtda Markaziy Eronda hokimiyatni Shoh Mansur qoʻlga kiritib olgan boʻlib, u muzaffariylar sulolasining eng mard va yengilmas vakili edi. Shoh Mansur Sheroz, Isfahon va Abarkoʻhni, Shoh Yahyo Yazdni, Sulton Ahmad Kermonni va Sulton Abu Ishoq Sirjonni boshqarayotgan edi.

1393-yilning 15-mart kuni Rom Hurmuz shahriga, Tustar sahrosi va bir necha aholi mavzelari orqali 25-mart kuni Qalʼai Safedga yetib kelgan lashkar togʻda joylashgan nihoyatda mustahkam shaharni jang bilan shu kuni egallashga muvaffaq boʻldi. 28-mart kuni Sheroz yaqinida boʻlib oʻtgan jangda Shoh Mansur qoʻshining tor-mor etilishi va uning oʻzini halok boʻlishi, aslida muzaffariylar sulolasi taqdirini ham hal qildi. Amir Temur hayotiga toʻgʻridan toʻgʻri xavf

solingan bu jang Potila jangi nomi bilan tarixga kirgan. Shoh Mansurning hujumga o‘tishini kutmagan Amir Temur o‘ng qo‘lga Mirzo Pir Muhammadni, chap qo‘lga Mirzo Muhammad Sultonni tayinladi. Markazni boshqarishni esa o‘ziga qoldirib, Temur Xoja va Oq Bug‘a boshchiligidagi qismlarni hirovulga joylashtirdi. Qarovul qsmni esa Usmonbekka topshirdi. Shu tartibda lashkar saf tortib, tepaliklar, bog‘lar oralab Sherozga yaqinlasha boshladi. Usmonbek dushmanning oldingi qismlarini pistirmada turib o‘tkazib yubordi. Natijada ular qurshab olib, tor-mor keltirildi. Shundan so‘ng taxminan 7-8 km oldinga yurilgach, kutilmaganda bog‘ ichidan 3-4 ming kishilik mukammal qurollangan fors lashkari Shoh Mansur boshchiligida chiqib keldi va markazdagi 30 ming kishilik qo‘shinga hujum qildi. Hujum shu qadar shiddatli bo‘ldiki, ular tezlik bilan temuriylar qo‘shini saflarini yorib o‘tib, shaxsan Amir Temur turgan joygacha yetib keldilar. Shoh Mansurning o‘zi Sohibqironga ikki bor qilich bilan zarba berdi. Har safar qilich zarbini Odil oftobachi o‘z qalqoni bilan qaytarishga erishdi. Amir Temur bilan qo‘shin markazida turgan shahzoda Shohrux boshchiligidagi bir guruh bahodirlar zarbasidan Shoh Mansur chekinishga majbur bo‘ldi. Shu jarayonda uni Shoh Mansurning o‘zi ham halok bo‘ldi. Bu vaqtda mirzo Muhammad Sulton boshchiligidagi so‘z qanot, Mirzo Pir Muhammad boshchiligidagi o‘ng qanot dushmanni saflarini tor-mor etib, oldinga yurdilar. Shoh Mansur o‘limidan so‘ng Fors lashkari butunlay tarqalib ketdi. Muzaffariylarning boshqa vakillari Amir Temur huzuriga kelib taslim bo‘ldilar.

Muzaffariylar o‘rtasida taxt uchun kurashlar Fors viloyatini xarobazorga aylantirayotganligi uchun ham aholining iltimosiga ko‘ra bu sulolaning hukmronligiga barham berildi. Barcha muzafariylar o‘z mulklaridan mahrum bo‘ldilar. Ularning bir qismi qatl etildi, bir qismi esa Samarqand shahriga surgun qilindi. Bu haqida Sharafuddin Ali Yazdiy shunday hikoya qiladi: “Bu mahaldakim, viloyat sohibqiron tasarrufida bo‘ldi, barcha viloyatlarning sodot va qazot va arboblari kelib, bu voqealarni arz qildi va dedilarkim, “Umidimiz sizdin ulturkim, bu viloyatlarda yana Oli muzaffarni qo‘ymag‘aysiz. Va agar yana bularg‘a bu viloyatlarda daxl bersangiz, viloyat buzulur va faqiru miskin xarob bo‘lur”. Muzaffariylar sulolasi tugatilgach, ularga tegishli mulklar, ya’ni Markaziy Eron to‘liq Umarshayx mirzoga suyurg‘ol etib berildi.

Shundan so‘ng Amir Temur 1393-yilning 10-may kuni Isfahon orqali Shimoliy Iroq hududlari tomon yo‘lga chiqdi. 1393-yilning yozida Ray, Ozarbayjon, Shirvon, Boku va Darband hududlar turk sultonligi erlarigacha Mironshoh mirzoning suyurg‘oli deb e’lon qilindi. O‘sha davr tili bilan aytganda Xulaguxon taxtiga Mironshoh Mirzo o‘tqazildi.

Sohibqiron Hamadonda turgan vaqtida Bag‘doddan shayxulislom Shayx Nuriddin Isfaroiniy elchi bo‘lib keldi. U Bag‘dod sultoni Ahmadning itoatda ekanligini bildirib, sovg‘a-salomlarini yetkazsa-da, Amir Temur Bag‘dodga yurishni to‘xtatishni istamadi. Elchi Shayx Nuriddin Isfaroiniyning ilmini e’zozlab, hurmatini joyiga qo‘ygan Sohibqiron uning ketishiga ruxsat berdi.

1393-yilning 21-avgust kuni Amir Temur qo‘shinlari Bag‘dod sultonligini zabt etish uchun harbiy yurishni boshladilar. Sohibqiron qo‘shinlarining yaqinlashib kelayotganligini eshitgan Sulton Ahmad o‘z mamlakatini tashlab

Damashq tomonga qochib ketishga qaror qildi. Shahardan birinchi bo‘lib Amir Temur huzuriga keyinchalik “Zafarnoma” asarining muallifiga aylangan Nizomiddin Shomiy yetib keldi va Sohibqiron xizmatiga kirdi.

Bag‘dod deyarli jangsiz egallangan bo‘lsa-da, shahar aholisi, savdogarlar va haj safariga boruvchi yo‘lovchilarning iltimosiga ko‘ra Takrit qal’asini zabt etishga kirishdi. Bu qal’aga joylashib olgan bir guruh qaroqchilar Misr va Damashq yo‘lidan o‘tuvchi yo‘lovchi hamda savdogarlarni tinimsiz talon-taroj qilar, hech bir hukmdor ularga bas kela olmagan edi. Bu qal’a haqida turli xil rivoyat va afsonalar to‘qilgan bo‘lib, ularda bu yengilmas qal’a “Qal’ai Salosil” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Bir necha kunlik shiddatli janglardan so‘ng bu qal’a ham shturm bilan zabt etildi. Sohibqiron qal’ani er bilan yakson qilishga farmon berarkan, shahar devorlaning bir qismini tarix uchun saqlab qolishni buyurdi. Nizomiddin Shomiy “toki bundan keyin olam ahliga bu qal’aning qay darajada mahkam va mustahkam bo‘lganligi hamda mardlik bilak kuchi bilan va podshohona ra’yu tadbir tufayli uning qay tarzda egallanganligi ma’lum bo‘lsin”, - deb yozgan edi.

Ko‘p o‘tmay Movarounnahr lashkari Iroqning Basra va Vosit shaharlarini ham egalladi. Basrani boshqarish Amir Temur lashkaridagi sarbadorlarning yetakchilaridan biriga topshirilgan bo‘lsa, Bag‘dodni boshqarish ham sarbadorlarning yetakchilaridan biri Xoja Mas’ud Sabzavoriyga topshirildi. Nizomiddin Shomiy Xoja Mas’udni Bag‘dod ahlini juda mehribonlik bilan boshqarganligini alohida qayd etadi.

Bag‘dod shahridan so‘ng Amir Temur qo‘shinlari Diyorbakr viloyati *(Frot va Dajla vohasining shimolidagi hudud, hozir Turkiyaning janubiy sharqiy qismi)* tomon yo‘lga chiqdi. Iroqning shimoliy hududlarini bo‘ysundirish juda murakkab kechgan. Mordin hokimi Sulton Isa Amir Temurga bo‘ysunib, unga hamrohlik qilgan bo‘lsa-da, aka-ukalarning o‘zaro kelishuviga ko‘ra uning shaharda qolgan ukasi amalda mustaqil faoliyat olib borishni davom etdi. Amir Temur Mordinni qamal qilishga kirishdi.

Aynan shu vaqtda Sherozdan yo‘lga chiqib asosiy qo‘shinga qo‘shilish uchun kelayotgan Umarshayx Mirzo Xormatur mavzeyi yaqinida tasodifan kelib tekkan kamon o‘qi tufayli halok bo‘ldi. 1394-yilning yanvarida sodir bo‘lgan bu fojeadan so‘ng Fors viloyatini boshqarishni marhumning o‘g‘li Pir Muhammad mirzoga topshirildi.

Mordinni qamalda ushlab turish uchun qo‘shinda em-xashak va oziq-ovqat tanqisligining kuchayib borishi halaqit berdi. Qishning oxirida (1394-yil 12-fevral) tinimsiz yomg‘ir yog‘ishi atrofni botqoqlikka aylantiridi. Natijada lashkar katta mifdorda ot va ulovidan ajraldi. Amir Temur qo‘shining mushkul vaziyatda qolganligidan xabar topgan atrofdagi hokimlar imkon topishi bilan Movarounnahr lashkariga zarar yetkazishga intila boshladi. Amir Temurning Sultoniyada turgan o‘g‘ruq uchun yuborilgan peshkashlari Shayx ismli mahalliy sarkarda tomonidan o‘zlashtirildi. Yaqinda itoat izhor etgan Jazira hokimi Malik Izzudin ham yana muxolifatchilikka kirishdi. Sohibqiron lashkari bilan Mordindan uzoqlashdi, Eski Mosul mavzesiga chekinib va qo‘shinning ta’minotini yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rdi. Shundan so‘ng 1394-yilning 4-mart kuni kutilmagan yurish bilan Jazira viloyatiga kirib bordi va uni to‘liq zabt etdi. Bu yerda qo‘lga kiritilgan o‘zjalar

bilan lashkardagi muammolar to‘la hal etilgach, Mordin shahri qaytadan qamalga olinib, bo‘ysundirildi.

1394-yilning 25-aprel kuni Amir Temur qo‘shinlari Homid qala’sini zabt etishga kirishdilar. Manbalarda qal’a qurilganiga o‘sha vaqtda 4300 yil bo‘lganligi ta’kidlanadi. Nihoyatda mustahkam bo‘lgan ushbu qal’ani tarixda hech kim shturm bilan egallay olmaganligi qayd etilgan. Uch kunlik janglardan so‘ng qal’a ishg‘ol etilishi noyob hodisa sifatida manbalarda tilga olingan. Amir Temur askarlari qal’ani keyinchalik yana qarshilik ko‘rsatmasligi uchun buzib tashlamoqchi bo‘ldilar. Ammo uning toshdan qurilgan devorlarini buzish imkoni bo‘lmagan.

1394-yil davomida Sohibqiron qo‘shinlari Gurjiston, Diyorbakr, G‘arbiy Ozarbayjondan to turk sultonligi erlarigacha bo‘lgan erlardagi ba’zi bo‘ysundirilmagan qal’alarni zabt etdilar. Avnik, Alanjiq, Oydin kabi qal’alari shular jumlasidandir. Bu davrda Amir Temurning ashaddiy raqibiga aylangan Qora quyunli turkmanlar sardori Qora Yusuf tor-mor keltirildi va u ham Damashq tomonga qochib ketdi. Turkiya chegarasidagi Arzinjon viloyati hukmdori Taxurtan esa Amir Temur hukmronligini tan olib, uning vassaliga aylanishni ma’qul ko‘radi.

Amir Temur 1394-yilning kuziga kelib yana Gurjiston tomon yurish qilishga qaror qildi. Bu vaqtda Usmonli turk sultonligi, Misr sultonligi va Oltin O‘rda davlati Amir Temurga qarshi o‘zaro ittifoq tashkil etgan edi. Sohibqiron bu ittifoq a’zolarining maqsadlarini chuqur tahlil etgach, ularning har birini alohida tor-mor etish imkonini izlagan. Misr sultonligining bu ittifoqdan maqsadi Amir Temurni Iroq va Ozarbayjondan Sharq tomon surib tashlash, bu yerlarda undan yordam so‘rab kelgan Qora Yusuf va Sulton Ahmad jaloyirlarning hokimiyatini tiklash edi. Bu orqali Misr sultonlari Amir Temurning o‘z qo‘llari ostidaggi Suriya hududlaridan uzoqlashtirishga va Iroq va Ozarbayjonda o‘z ta’sirlarini o‘rnatishga erisha olar edilar. Agar Amir Temurning o‘zi Misr sultonligiga bostirib kirmasdan boshqa tomonga lashkar tortsa, Misr mamluklarining Amir Temurga qarshi katta lashkar bilan kelishi amri mahol edi. Chunki Misr sultonligini Qora Yusuf va Sulton Ahmad jaloyirni qo‘llash orqali Amir Temur bilan oraliq hududga ega bo‘lishning o‘zi qoniqarli natija bo‘lardi.

Usmonli turklar sultonligi ham bu vaqtda Yevropadagi istilolar bilan band bo‘lib, Amir Temur ularning ustiga yurish boshlamasa o‘z kuchlarini Yevropadan Osiyoga tashlashni xohlamas edi. Usmonli sultonligi Turkiyaning hali bo‘ysundirilmagan sharqiy hududlarini Sohibqiron boshqaruviga o‘tishini istamagan va shu boisdan Oltin O‘rda hamda Misr sultonligining Amir Temurga qarshi kurashini qo‘llab-quvvatlash orqali Sohibqironni band qilib turishni ma’qul ko‘rardi. Yevropadan hali qo‘li bo‘shamagan Usmonli turklar oz sonli kuchlar bilansh sharqiy hududlar himoyasini ta’minlashni hoxlardi.

Bunday sharoitda yana qayta kuch to‘plab, Amir Temur qo‘li ostidagi hududlarga shimolda xavf solayotgan To‘xtamishxonga qarshi kurashga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘ri yo‘l edi. Chunki Amir Temur Misrga yurish boshlagan taqdirda To‘xtamishxon Ozarbayjonga yurish qilib, ortdan zarba berishi mumkin edi va Oltin O‘rdaning katta lashkari bu borada ulkan xavf tug‘dira olardi. Amir Temur Oltin o‘rdaga qarshi kurashga krishishi bilan Misr tomonidan qo‘llangan Qora Yusuf va Sulton Ahmad jaloyir Iroq va G‘arbiy Ozarbayjonga yurish

boshlashi mumkinligi tushunardi. Ammo bu hududda mudofaada turish orqali Oltin O‘rdaga hal qiluvchi zarbani bera olish imkoniga ega bo‘lish Amir Temur uchun manfaatli edi. Shuning uchun ham shimoliy chegaralarni mustahkamlashga intilgan Amir Temur 1394-yilning kuzida yana Gurjiston yurishini boshladi. Bu safar janubdan kirib borgan Movarounnahr lashkari tez orada Tiflisni egalladi. Shundan so‘ng Ozarbayjonning shimoli-g‘arbidagi Sheki viloyati ham bo‘ysundirildi. Bu vaqtda To‘xtamishxonning Shimoliy Ozarbayjonga bostirib kirganligi eshitgan Amir Temur Shirvon o‘lkasiga kelib tushdi. Amir Temur kelishi arafasida To‘xtamish qo‘shinlari Shirvonni tark etgan edi. Movarounnahr lashkari shu hududda To‘xtamishxonga qarshi yangi yurishga tayyorgarlik ko‘ra boshladi.

Shunday qilib besh yillik yurish davomida Shimoliy Eron to‘liq zabt etiladi va u yerdagi mahalliy Sayyidlar sulolasi hukmronligi barham topadi. Shuningdek, yana bir yirik hukmdorlar sulolasi bo‘lmish Muzaffariylar sulolasi ham tugatilib, Fors o‘lkasi Umarshayx mirzo, so‘ngra uning o‘g‘li Pir Muhammad mirzo boshqaruviga o‘tkazildi. Shirvon, Ozarbayjon, Kurdiston, Armaniston, Gurjiston hududlarida Sohibqiron hukmdorligi mustahkamlanib, Iroq mamlakati bo‘ysundirildi. Yuqorida ta’kidlangan hududlar esa Mironshoh mirzo boshqaruviga topshirildi.

***Ta’lim texnologiyalari:*** *"baliq skeleti", Venn diagrammasi, T-sxema, "bumerang", muammoli ta’lim, keys-stadi, vizual materiallar, blits-so‘rov.*

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

*1. Xurosonning bo‘ysundirish uchun Amir Temur qanday tadbirlar amalga oshirdi?*

*2. Uch yillik yurish davomida Erondagi janglar natijasida Amir Temur qaysi mahalliy sulolalarga xotima berdi?*

*3. Eron hududi qanday jihatlarga ko‘ra Amir Temur uchun muhim edi?*

*4. Amir Temur Gurjiston hududlarini qanday sababga ko‘ra o‘z hokimiyatiga qo‘shib olmaganligi haqida mulohaza yuriting?*

*5. Amir Temurning olib borgan harbiy yurishlarini Kavkaz, Erondagi qaysi ijtimoiy qatlamlar qo‘llab quvvatladi?*

*6. Besh yillik yurish davomida qaysi davlatlar Amir Temurga qarshi ittifoq tuzishga harakat qilishdi?*

*7. Egallangan hududlarning boshqaruvini Amir Temur kimga topshirdi?*

*8. Amir Temur davlati hududlarining kengayishi Buyuk Ipak yo‘li uchun qanday oqibatlarga olib keldi?*

## MAVZU: AMIR TEMUR DAVRIDA DAVLAT HUDUDLARINING G‘ARB TOMON KENGAYIB BORISHI.

**Reja:**

*1. Misr va Usmonli turklar davlatlari bilan munosabatlarning keskinlashuvi.*
*2. Old Osiyo va Suriyaning zabt etilishi.*
*3. Yevropa davlatlari bilan aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi. Manfaatlar umumiyligi.*
*4. Anqara jangi va uning tarixiy ahamiyati.*

***Kalit so'zlar:*** *Misr, Usmonli turklar, Suriya, Kavkaz, Gurjiston, Tiflis, mamluklar, qora quyunli, Barquq, Old Osiyo, Qora Yusuf, Tabriz, Sulton Ahmad ibn Uvays, Bag'dod, Buyuk Ipak yo'li, Qorabog', Yevropa, qirollar, Anqara jangi, Damashq, Xalab, qora totorlar, diplomatik aloqalar*.

### *Misr va Usmonli turklar davlatlari bilan munosabatlarning keskinlashuvi*

Kirish qismida ham ko'rib chiqqanimizdek, XIV asr oxirida vujudga kelgan muayyan xalqaro vaziyatda Osiyo, qisman Afrika va Yevropa hududida Usmonli Turklar sultonligi, Amir Temur saltanati, Misr mamluklar saltanati va Oltin O'rda kabi yirik davlatlar manfaatlari o'zaro to'qnashdi. 1395-96-yillarda Oltin O'rdaning uzil-kesil tor-mor keltirilishi natijasida Amir Temur G'arbiy yo'nalishda tashqi siyosiy faollikni bemalol oshira olish imkoniga ega bo'ldi. Xuddi shu vaqtda ya'ni 1399-yili Misr, Mo'g'uliston va Xitoy hukmdorlarining vafot etishi natijasida mazkur hududlarda boshlangan siyosiy beqarorlik Amir Temurga yanada qulaylik tug'dirdi.

1382-yili Misrda hokimiyat tepasiga kelgan Sulton az-Zohir Barquq boshliq cherkas mamluklari davlati o'z davrining qudratli saltanatlaridan biri edi. O'rta yer dengizining sharqiy sohillari, jumladan Suriya ham uning tarkibiga kirardi. Iroq va Hijoz esa Misrga ma'lum darajada qaram hududlar hisoblangan. Amir Temur davlati hududlaring G'arbga qarab kengayib borishi, ushbu davlatlardan tashqari yana ko'plab Old Osiyodagi hokimliklar va amirliklar tomonidan mamluklar davlatini e'tirof etilishiga olib keldi. Ushbu e'tirof mamluklar davlati bilan tuzilgan ittifoq (aslida qaramlik) shartnomalarida aks etardi. Misol uchun hali Amir Temur Shimoliy Eronni bo'ysundirish uchun kurashayotgan vaqtdayoq, ya'ni 1383-yili Sinjar, Qaysariya va Takrit hokimlari Misr sultoniga maktub yo'llab, xutbani uning nomiga bag'ishlaganliklari bildirishgan. Bunga javoban esa Sulton Barquq ularni o'z noiblari etib tayinlagan edi.

Dastlab Amir Temur bilan Sulton Barquq o'rtasidagi rasmiy aloqalar tarixiga to'xtalib o'tsak. Bu aloqalar 1385-yildan boshlangan bo'lib, 1385-yildan to 1405-yilgacha Amir Temur hamda Misr sultoni Barquq va Faraj, shuningdek, ularning Suriyadagi noiblari o'rtasida taxminan 25 marta maktub va elchilar almashuvi bo'lgan.

1385-yil noyabr oyida Amir Temur maxsus elchi orqali Sulton Barquqqa maktub yo'llagan va Elchi Qohirada yaxshi kutib olinib, do'stlik ruhida kuzatib qo'yilgan. Lekin bu munosabatlar tezda keskinlashib ketdi.

1388-yilda Misr lashkari bilan Amir Temur qo'shinlarining dastlabki kichik to'qnashuvi bo'lib o'tgan. Sivos turkmanlari mamluklarning hujumi tufayli himoya so'rab Amir Temurning G'arbiy Erondagi noiblariga murojat qilganlar. Jangda kam sonli temuriy qo'shin mag'lub etilgan.

1388-yil oxirlarida Amir Temur qo'shinlarining Movarounnahrda Xorazm, Oltin O'rda va Mo'g'uliston lashkarlari bilan kurash olib borayotgan vaqtida Tabrizni egallab olgan Qora Yusufning Misr sultoni Barquqqa maktub yo'llab, Tabrizda uning nomi bilan pul zarb etib, masjidlarda uning nomi bilan xutba o'qitishi va uning Misr sultoni Barquqning Tabrizdagi noibi etib tayinlanishi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning kelajakda keskinlashuvidan darak berardi.

Iroq hokimi Sulton Ahmad ibn Uvaysning zolimligi va shaxsiyatidagi koʻplab kamchiliklar, Qora Yusuf bilan birgalikda karvonlarni, muqaddas haj safariga borayotgandarni talab, karvon yoʻllarida qaroqchilik ham qilishi ularning siyosiy obroʻyiga ham jiddiy putur yetkazgan edi. Natijada ular Misr sultoni tomonidan har qancha qoʻllab-quvvatlanmasin, biror bir natijaga erisha olmadilar va besh yillik yurish vaqtida oʻz mulklaridan batamom ayrildilar. Buni haqiqat ekanligi arab tarixchisi Ibn Arabshoh quyidagi hikoyasida ham oʻz isbotini topgan: “Sulton Ahmad Iroq erlariga egalik qilgach, jinoyatkor qoʻlini choʻzib, shafkatu ezgulik qanotlarini yigʻib oldi. U oʻziga va raiyalariga zulm qilib, kechayu kunduzini jabru jafoyu, fasod ishlari (qilish) bilan oʻtqazdi. Keyin u fisqu fujurda me’yoridan oshib, zohirona jinoyatlaru ochiq-oydin yovuzliklar qila boshladi. U qon toʻkishni ezguliklarni talash va nomuslarni tahqirlashda vosita qildi.

Aytishlaricha, Bagʻdod ahli undan nafratlanib, uning dastidan Temurdan madad soʻrab arz qilganlar. Natijada, ular (undan) “shunday suv quyinglarki, u eritilgan mis kabi yuzlarni kabob qiladi”, qabilida madad olganlar. (Sulton) Ahmad aql-xushini yigʻib olishga ham ulgurmasdanoq, uning ustiga balo kelib, totorlar bostirib kelib, chigʻatoy askarlaridan suvoriylar va piyodalar uni yanchib tashladilar. Bu mashhur shavvol (oktyabr) oyining mazkur shanba kunida (boʻlgan) edi. Dushman (Temur) otliqlari Sulton Ahmad piyodalari ustiga tashlanib, shahar devorlari tomon shitob bilan yopirildilarki, bu mavj urgan dengiz ularni toʻxtatib qola olmadi. Shahar ahli Sulton Ahmad jangchilariga qaratib kamonlardan oʻq otdilar. Sulton Ahmad oʻzi uchun yagona najot yoʻli – qochish ekanligini fahmladi va oʻzi ishonadiganlarga bosh boʻlib (shahardan) chiqdi va Shomga qarab ravona boʻldi. Bir toifa yaramas chigʻatoyliklar uning orqasidan quvlab ketdilar. Sulton Ahmad qocha-qocha ularga xamla qilib ularni chekintirar, keyin esa oʻzi orqaroqqa qochib (qaytib), ularni jangga chorlar edi. Ular oʻrtalarida shiddatli jang boʻlib, ikki tomondan ham koʻp odamlar oʻldirildi. Nihoyat, Sulton Ahmad Hilla (shahri)ga yetib borib shahar koʻprigidan Dajla (Tigr) daryosidan oʻtgach, koʻprikni buzib, asirlik kulfatidan xalos boʻldi. Totorlar Sulton Ahmadni quvlashda davom etdilarki, oz boʻlmasa, ularning burunlari (Sulton Ahmadning) dumiga tegayozgan edi. Chigʻatoyliklar daryoga yetib kelgach, koʻprik buzilganligini koʻrdilar. Shunda ular oʻzlarini suvga tashlab, (daryoning) narigi qirgʻogʻidan chiqdilar va Sulton Ahmad qochishini, ular quvlashini davom ettirdilar”[229].

Shuningdek, Misr sultoni Barquq Mordin hokimlarini ham Amir Temurga qarshi qo’llab-quvvatlashga harakat qilgan.

Amir Temur 1393-yili Bagʻdoddan Qohiraga, Sulton Barquqqa ogʻzaki maktub bilan oʻz elchilarini joʻnatdi. Ular davlatlar oʻrtasida doʻstona munosabatlar oʻrnatilishi, savdo va tijorat ahllari bemalol bordi-keldi qilishlari, oʻrtada hech qanday adovat va ixtilof boʻlmasligi haqidagi fikrlarni bildirishdi. Aslida elchilikning yana bir maqsadi Misrga rasman qaram va ittifoqdosh hisoblangan Iroqning Amir Temur tomonidan zabt etilishiga Sulton Barquqning munosabatini bilish boʻlgan boʻlsa kerak.

[229] Йаздий. Зафарнома. – Б. 276.

Sulton Barquq elchilarni qatl etadi va 1394-yili Damashqda Misr , Turkiya va Oltin O‘rda davlatlari o‘rtasida ittifoq shartnomasi tuziladi.

Amir Temur To‘xtamishga qarshi yurish bilan band bo‘lgan vaqtda ya’ni, 1395-1396-yillarda turk qo‘shinlari Mosulgacha yetib kelgan bo‘lsa, Misr sultonining qo‘shinlari Dajla daryosidan o‘tib Bag‘dodga kirib keldi. Ular o‘zlari bilan Qohiradagi qochoq Sulton Ahmad ibn Uvays Jaloyirni Bag‘dodga olib kelib, Misr sultonining noibi sifatida o‘z taxtiga o‘tqazdilar. Shu vaqtda Avnik qal’asi hokimi Atalmish Qavchin Qora Yusuf tomonidan asir olindi va Misr sultoniga in’om etildi.

Amir Temur Dashti Qipchoq yurishidan qaytib kelgach Xitoy yurishiga tayyorgarlik ko‘rish uchun 1397-yili nabirasi Muhammad Sultonni 30 ming kishilik qo‘shin bilan Mo‘g‘uliston chegaralariga yubordi. O‘zi esa 1398-1399-yillari Hindiston yurishi bilan band bo‘ldi.

Amir Temur Hindiston yurishini 1398-yilning mart oyida boshlaydi. Ba’zi mualliflarning asarlarida Amir Temurning Hindistonga yurishiga uning bosh strategik maqsadi Buyuk Ipak yo‘li ustidan hukmronlik o‘rnatish va uning to‘la xavfsizligini ta’minlash, Sharqu G‘arbni o‘zaro iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga aloqasi bo‘lmagan, faqat bosqinchilik va o‘ljani qo‘lgakiritishga qaratilgan harbiy yurish sifatida baho beriladi. Ushbu fikrlarga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. Hindiston yurishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri aslida Hindistonga olib boruvchi karvon yo‘llari xavfsizligini ta’minlash bo‘lib, bu yo‘ldagi afg‘on qabilalarining doimiy beboshligi savdo rivojiga katta to‘siq edi. Ushbu yurish davomida Sohibqironning asosan afg‘on qabilalariga qarshi kurashlar bilan band bo‘lganligi, bu yerdagi buzib tashlangan qal’alar va boshqa mudofaa inshoatlarini tiklashga katta e’tibor qaratganligi ham fikrimizni quvvaatlaydi. Asrlar mobaynida vayronaga aylangan Afg‘onistondagi Eryob qal’asi[230] ham, Qorabog‘dagi Baylokon shahri[231] ham qaytadan bunyod etiladi. Albatta, bu shaharlar faqat ma’murchilik, obodonchilik maqsadida bunyod etilgan emas. Bu kabi shahar, qal’alarni bunyod etish va qayta tiklashda avvalo, iqtisodiy va harbiy maqsadlar ko‘zlanganligi shubhasizdir. Buni yuqorida ta’kidlangan shaharlarning iqtisodiy va harbiy-strategik jihatdan muhim joylarda joylashganligi ham tasdiqlaydi. Misol uchun Eryob qal’asi Hindistonga boradigan savdo yo‘li xavfsizligini ta’minlashda va shu atrofdagi viloyatlarni, aholini tobe’likda saqlashda muhim o‘rin tutgan. Afg‘on qabilalari bo‘ysundirilgachgina, Amir Temur qo‘shinlari Hindiston hududiga kirib bordi va Dehli yaqinida 1398-yil 17-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan jangda Dehli Sultoni Mahmudxon Dehlaviyning 10 ming otliq, 40 ming piyoda va 120 jangovar fillardan iborat qo‘shini tor-mor keltirildi. 1399-yilning bahorida Hindiston yurishidan qaytdi. Ushbu yurish natijasida Hindistonga boradigan savdo yo‘llarining xavfsizligi to‘la ta’minlandi, ushbu yo‘l xavfsizligini ta’minlovchi shahar va qal’alar qayta tiklandi va Dehli sultonligi hududlari Amir Temur davlati tarkibiga qo‘shib olindi.

[230] Гийасиддин Али. Дневник похода Тимура в Индию – М.: ИВЛ, 1958. – С. 72-73.
[231] Йаздий. Зафарнома. – Б. 278.

Bu esa Old Osiyoda Misr va Turkiya sultonlarining mavqeyini bir muncha mustahkamlanishiga olib keldi. Buning ustiga Amir Temur davlatining g‘arbiy chegaralari noibi Mironshoh mirzoning noto‘g‘ri xatti-harakatlari natijasida temuriylar davlatining G‘arbiy Erondagi mavqeyi ham kuchsizlanib qoldi. Hatto Gurjiston hokimlari Ozarbayjonga bostirib kirib, Alanchuq qal’asida qamalda bo‘lgan Sulton Ahmad Jaloyirning o‘g‘li Tohirni ozod qilishga ham erishadilar.

Natijada Amir Temur Old Osiyoda o‘z mavqeyini mustahkamlash, Yevropa davlatlari bilan bevosita aloqalarga kirishi imkoniga ega bo‘lish, Buyuk Ipak yo‘li ustidan hukmronlikni G‘arbiy yo‘nalishda to‘la qo‘lga kiritish maqsadida 1399-yili o‘zining mashhur “yetti yillik yurish”ini boshlaydi.

***Old Osiyo va Suriyaning zabt etilishi***

Dastlabki zarba Gurjistonga qaratiladi va 1399-yilning oxiri va 1400-yili Gurjistonning Zarit, Svanet kabi yirik qal’alari ham bo‘ysundiriladi. Gurjiston hukmdori Gurgen Amir Temurning noibiga aylanadi.

Shundan so‘ng Movarounnahr lashkari Sivos hududlariga kirib borib, go‘yoki Turkiya hududlari tomon harakatlanayotgandek taassurot qoldirsada, to‘satdan janubga burilib, Misr sultonligi tarkibida bo‘lgan Suriyaga yurish boshladi.

Shu o‘rinda Amir Temur nima uchun Turkiyaga yurishni davom ettirmay, janubga, Misrga tomon yurish qilishga qaror qildi degan savol tug‘ilishi tabiiy. Sharofuddin Ali Yazdiy ham o‘z asarida Amir Temur qo‘shinlari Turkiya sultonligi tarkibida bo‘lgan Malatiya va Sivosni egallagan bo‘lsa-da, Sulton Boyazid bunga qarshi amalda hech qanday chora ko‘rmaganligi va shuning uchun Turkiyaga yurishni davom ettirmay, Misr sultonligiga hujum boshlaganligini ta’kidlaydi. Malatiya va Sivosning qo‘ldan ketganligiga Sulton Boyazidning e’tiborsiz bo‘lishi uning Yevropadagi masalalar bilan naqadar band ekanligini ham ko‘rsatadi. Bunday sharoitda Amir Temurni Shom va Suriyaga qilinajak yurishiga ham Boyazidning halaqit bermasligi haqiqatga juda yaqin edi. Agar Amir Temur Kichik Osiyo sari yurishni davom ettirsa, Boyazid majbur o‘z kuchlarini unga qarshi qaratishgan bo‘lardi Bunday sharoitda Amir Temurning Usmonli turklarga qarshi kurashdagi eng kichik mufaqqiyatsizligi ham Misr sultoni Farajning Amir Temurga qarshi katta yurish boshlashiga olib kelishi yoki juda bo‘lmaganda uning tomonidan Amir Temur davlati tarkibiga yaqinda qo‘shib olingan Old Osiyodagi mulklarning sobiq egallarini faol qo‘llab-quvvatlashiga yo‘l ochishi mumkin edi. Sohibqiron uchun ushbu vaziyatda Yevropadagi muammolari bilan band bo‘lgan Sulton Boyazidni o‘zi bilan urushga jalb etishdan ko‘ra, mazkur vaziyatda tashqi siyosatda Amir Temurdan boshqa muammosi bo‘lmagan Misr sultoni Farajni zararsizlantirish eng maqbul yo‘l edi. Shuningdek, Amir Temur o‘z raqiblarining kuchlariga baho berarkan Sulton Boyazidning Farajdan ko‘ra ustun ekanligini, so‘nggi yillarda zabt etilgan Turkiya va Misr sultonliklariga qo‘shni bo‘lgan hududlarda temuriylar hokimiyatining hali mustahkam emasligini ham hisobga olgan ko‘rinadi. Shuning uchun ham u avval nisbatan kuchsizrog‘ini safdan chiqarishni hamda Iroq va Old Osiyodagi yaqinda zabt etilgan hududlarni yana bir bor harbiy nuqtai nazardan tozalashni ma’qul ko‘rdi. Amir Temurning Misr yurishidan qaytarkan, Iroq va Old Osiyo hududlarini yana bir bor o‘z qo‘shini

bilan “qayta zabt etganligi” shundan dalolat beradi. Aslida Sulton Boyazidning Yevropada bandligi, Farajning kaltabinlik bilan urushni tezlashtirib yuborishi Amir Temurga Usmonli turklar bilan to‘qnashuvgacha Misr va Iroqdan o‘z “qo‘lini bo‘shatib olishi” uchun imkoniyat yaratdi. Oldinroqqa o‘tib aytish mumkinki, Amir Temur bu imkoniyatdan juda unumli foydalandi.

Amir Temur o‘z odatiga ko‘ra dastlab Misr sultoniga yana bir bor elchi bilan o‘z maktubini yubordi. Ushbu xatda 1393-yili jo‘natilgan Amir Temur elchilarini qatl qilinganligi hamda Avnik qal’asining hokimi bo‘lgan Atalmish Qavchinning hali ham Misrda asirlikda saqlanayotganligiga e’tiroz bildirilgan. Shuningdek, Atalmish Qavchinni asirlikdan ozod qilinsa Misrning Shom ustidan hukm yuritishiga Amir Temurning e’tirozi bo‘lmasligi, aks holda urush muqarrarligi ham ta’kidlangan.

Afsuski, otasi Sulton Barquq kabi Faraj ham Amir Temur elchilarini qamoqqa olishga buyruq beradi. Bu holat Misr sultoni Faraj va uning saroy ayonlarini kaltabinligini hamda raqib kuchiga yetarli baho bera olmaganligini ko‘rsatadi. Aslida u ham muzokaralar orqali urushni ortga surishga intilishi, Turkiya sultoni Boyazidning e’tiborini Yevropadan Sharqqa, Amir Temur xavfiga qarshi tortishga yana ham jiddiyroq urinib ko‘rishi mumkin edi.

U esa aksinsa, urushni tezlashtirdi. Ittifoqchilarni alohida, alohida tor-mor keltirish Amir Temur uchun ayni muddao edi, aslida.

Amir Temur qo‘shinlari Suriyada dastlab Bihishti qal’asini qamal qildilar. Qal’a shiddatli janglardan so‘ng 1400-yilning 27-sentyabr kuni zabt etildi. Bir necha kun o‘tgach ikkinchi bir qal’a Ayntob jangsiz taslim bo‘ldi (Shomiyda bu qal’alar Behasti va Antob deb nomlangan)[232]. Bu vaqtda Misrga tegishli bo‘lgan Damashq, Xo‘ms, Xama, Antakiya, Tarabulus, Nabulus, Ba’albak, Kan’on, G‘azza, Ramla, Quddus kabi shahar va viloyatlaridan yig‘ilgan qo‘shin Xalab shahriga to‘planadi. Ularga Xalab hokim Temurtosh va Damashq hokimi Shadun (Shomiyda Sudun)lar rahbarlik qilishardi. Tarixiy manbalarda Halab hokimi Temurtosh sulh tuzish tarafdori bo‘lganligi, lekin Damashq hokimi Shadun boshchiligidagi ko‘plab amirlar Sohibqiron qo‘shini bilan ochiq maydonda jang qilib g‘olib chiqishlariga ishonganliklari ta’kidlanadi. Amir Temur qo‘shinlarining Ayntobdan Halabga deyarli bir oyda juda sekin harakatlanib yetib kelganligi ham Misr-Suriya qo‘shinlarining dadilligini oshirib yuboradi. Ular Amir Temur qo‘shinlar bilan Halab qal’asining tashqarisida jang qilishga qaror qiladilar.

Aslida Amir Temur go‘yoki o‘zini cho‘chayotgandek ko‘rsatib o‘z raqiblarini Halabning mustahkam toshlardan qurilgan qal’a devorlarining ortidan ochiq maydonga olib chiqishga erishadi. 1400-yilning 28-oktyabri kuni Halab yaqiniga yetib kelgan Amir Temur qo‘shinlari dastlabki ikki kun kichik razvedka janglari olib borish bilan cheklandilar. Dastlabki kuni Sohibqiron nabiralaridan Sulton Husayn mirzo, ertasiga esa Abo Bakr mirzolar qahramonlik ko‘rsatadilar. 30-oktyabr kuni esa asosiy jang boshlanib dushman qo‘shini to‘la tor-mor keltirildi. Raqibning asosiy kuchlari Halabga ham kirmay Damashq tomon qochishga qaror qilishdi. Ular shu darajada tartibsiz chekinishga majbur

232 Йаздий. Зафарнома. – Б. 235.

bo‘lishdiki, Halab qal’asi darvozalarini ham berkitib ulgurishmadi. Natijada shu kuni nihoyatda mustahkam qal’aga ega bo‘lgan Halab shahri ham osonlik bilan zabt etildi. Shadun va Temurtosh yashirinib olgan Halabning tarixiy manbalarda tog‘dek baland deb tasvirlangan ichki qal’asi ham bir necha kundan so‘ng jangsiz taslim bo‘ldi[233].

Halabdan so‘ng Sohibqiron lashkari birin-ketin Hama, Xo‘ms va Ba’albak viloyatlarini va ushbu viloyatlardagi o‘nlab qal’alarni zabt etdilar. Halab zabt etilganidan deyarli ikki oy o‘tgachgina (22.12.1400) Amir Temur qo‘shini Damashq tomon yurish boshlaydi. Bu vaqtda o‘z qo‘shini bilan Damashqqa yetib kelgan Sulton Faraj ikki nafar fidoiylarini Amir Temurga suiqasd uyushtirish uchun darvesh kiyimida Amir Temur saroyiga jo‘natadi. Ular darvesh sifatida bir necha bor Amir Temur qabulida bo‘ladilar, lekin o‘z maqsadlariga erisha olmaydilar. Keyinchalik ularning harakati Amir Temur devonbegisi Xoja Mas’ud Semnoniydan shubha uyg‘otgach, ularni zaharli xanjar bilan yashirincha qurollanganligi fosh etilib, suiqasdning oldi olinadi.

Amir Temur qo‘shini Damashq shahriga yaqinlashgach, undan uzoq bo‘lmagan Qaraqba dashtiga joylashadi. Amr Temur urushni oldini olish maqsadida bu safar Bo‘ron podshoh degan kishini (Shomiyda elchining nomi keltirilmagan) Misr sultoni Faraj huzuriga elchi qilib jo‘natadi va Farajdan Atalmishni ozod qilib, urushni oldini olishni taklif qiladi.

Faraj bu safar ham sulh tuzmay, ayyorlik qilishga qaror qiladi. Misr sultoni Amir Temur elchisini bu gal juda katta hurmat bilan kutib oladi va besh kun ichida Atalmishni Amir Temur saroyiga yetkazishga va’da berib sulh tuzishga rozilik bildirarkan, o‘z elchisini ham hamroh qilib, Sohibqiron saroyiga jo‘natadi. Garchi sulh tuzilganiga 10 kun o‘tsa ham Faraj o‘z va’dasini bajarmaydi. Aksincha, vaqtdan yutib o‘z askarlari safini tinmay kengaytirishga urinadi.

Bunday sharoitda katta lashkar berkingan Damashq qal’asini shturm bilan egallash juda katta vaqt va qurbon talab qilardi. 1401-yilning 5-yanvar kuni Amir Temur 10 kun davomida shu yerda turilgani uchun Qabarqa dashtida otlarga yetarli ozuqa qolmaganligini bahona qilib, bu yerdan uzoq bo‘lmagan G‘uta dashtiga ko‘chishga qaror qildi. Bu ko‘chish tashqaridan qaraganda betartib chekinish kabi amalga oshirildi. Bu esa o‘z navbatida Damashqda turgan ko‘p sonli Misr lashkarini chalg‘itdi. Ular shahar tashqarisiga chiqib Movarounnahr lashkari tomon hujum boshladilar va sulh shartlarini buzdilar.

Aslida Amir Temur hiyla bilan dushman lashkarini qal’a devorlari ortidan ochiq maydonga olib chiqishga shu tariqa erishgan edi. Qisqa davom etgan jangda dushman qo‘shini tor-mor keltirildi. Misr sultoni Faraj esa Damashqni o‘z holiga tashlab qochib ketdi. Damashq fath etilgach, bu yerda 1401-yilning 20-mart kuniga qadar to‘xtab turdi.

Shundan keyin Amir Temur Misr tomon yurishni davom ettirmasdan ortga qaytishga qaror qoldi. Chunki, Misr sultonligining asosiy harbiy kuchlari Halab va Damashq ostonalaridagi janglarda tor-mor keltirilib uning harbiy qudrati batomom sindirildi. U ortiq Amir Temur davlatiga xavf sola olmas edi. Shuningdek, Amir

---

[233] O‘sha asar. – Б. 236-237.

Temur Misr yurishi bilan band bo‘lgan vaqtda Amir Temur hokimiyatini tan olgan Arzinjon viloyati Sulton Boyazid tomonidan yuborilgan qo‘shin tomonidan zabt etilgan va uning hokimi Tahurtan o‘z o‘rnida qoldirilgan bo‘lsa-da, uning farzandlari garov sifatida Usmonli turklar sultonligining o‘sha vaqtdagi poytaxti Bursa shahriga olib ketilgan edi. Garchi Sulton Boyazid Yevropa masalalari bilan band bo‘lsa-da, imkoni boricha o‘z ittifoqchisi Misr sultonini qo‘llab-quvvatlashga intilganligi shundan ham nomayon bo‘ladi.

***Yevropa davlatlari bilan aloqalarning yo‘lga qo‘yilishi. Manfaatlar umumiyligi***

Amir Temur davlati hududlarining g‘arbga tomon kengayib borishi uning G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan ham aloqalar o‘rnatishiga olib keldi. Egey va Qora dengiz portlarining Usmonli turklar davlatining qo‘liga o‘tib borishi g‘arb va sharq o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarga jiddiy salbiy ta’sir o‘tkaza boshladi. Buning ustiga Yevropa davlatlaridan yig‘ilgan birlashgan qo‘shinning Nikopol ostonalarida Sulton Boyazid-yildirim (Chaqmoq) tomonidan to‘la tor-mor keltirilishi Yevropani yangi istilo xavfi ostida qoldirdi. Xuddi shu vaqtda Amir Temur davlati mavqeyining jahon siyosiy sahnasida ortib borishi Yevropa uchun yagona najot yo‘li bo‘lib ko‘rindi. Tez orada Vizantiya va Trapezund imperatorlari, Genuya va Venesiya respublikalarining rahbarlari Amir Temur bilan aloqaga chiqib, o‘zaro ittifoq tuzish harakatini boshlab yubordilar. Yuqoridagi davlatlar bilan 1394-yildan to 1402-yilgacha olib borilgan muzokaralar natijasi o‘laroq, Usmonli turklarga nisbatan harbiy itifoq vujudga keldi. Ittifoq shartlariga ko‘ra ular Amir Temur qo‘shinining quruqlikdagi harbiy harakatlarini dengiz orqali qo‘llab-quvvatlashi, turk qo‘shinlarining Yevropaga qochib o‘tishiga yo‘l qo‘ymasliklari va Sohibqiron lashkarining bir qismini Bosfor orqali Yevropaga o‘tkazib qo‘yishi lozim edi. Lekin oldinroqqa borib aytish mumkinki, Anqara jangida Sohibqiron kuchlari to‘la g‘alabaga erishgach, ittifoqchilar o‘z majburiyatlari bajarmaydilar, aksincha chekinayotgan turk qo‘shinlarini Yevropaga o‘tkazib ularni omon qolishida yordam beradilar. Chunki, ular ham Usmonli turk davlatini butkul yo‘q bo‘lib ketishini hohlashmas va qudratli Amir Temur davlati bilan chegaradosh bo‘lib qolishdan cho‘chishar edi. Lekin Vizantiya va Trapezund Amir Temur hukmronligini tan olib, unga boju xiroj to‘lab turadilar. Ispaniya, Franyiya va Angliya davlatlari bilan aloqalar esa Anqara jangidagi Sohibqiron qo‘shinlarining g‘alabasidan keyin juda tez rivoj topib ketdi.

***Anqara jangi va uning tarixiy ahamiyati***

Amir Temur Misr yurishidan ortga qaytib Usmonli turklarga qarshi kurashga tayyorgarlik ko‘rishni boshlaydi. Buning uchun avvalo quyidagi muammolarni hal etish lozim edi:

- 10 yildan beri qamal qilinayotgan, lekin haligacha zabt etilmagan Alanchuq qal’asini fath etish;
- rasman Amir Temur hokimiyatini tan olgan, amalda esa unga qarshi kurashish uchun doimo imkon kutadigan Mordin hokimligini to‘la zabt etish;
- Gurjistonni usmonli turklar bilan bo‘lish kutilayotgan urush vaqtida Amir Temur davlatiga ortdan zarba berishini oldini olish;

- To‘xtamishga qarshi yurish vaqtida temuriylar davlati tarkibidan chiqib ketgan Iroqni qayta zabt etish.

Balki, Amir Temur ushbu muammolar borligi uchun ham Misrga yurishni davom ettirmagandir. Alanchuq qal’asiga, Mordin hokimligiga va Iroqda yana qayta tiklangan Jaloyiriylar davlatiga Misr sultonligi moddiy, harbiy va ruhiy jihatdan katta yordam berib turar edi. Mazkur sharoitda ularning bunday yordamdan mahrum bo‘lishi, ushbu masalalarni Amir Temur tomonidan tezda hal etilishiga katta yordam berdi.

Dastlab, 10 yillik qamaldan so‘ng Alanchuq qal’asi taslim bo‘ldi. Mordin shahri qamal qilinib, uni zabt etish Sohibqironga bo‘ysungan turkmanlar sardori Qora Usmonga topshirildi. Gurjiston bilan voqealar rivoji urushgacha yetib bormadi. Dastlab elchilar almashildi, keyin esa Gurjiston hukmdori Gergen o‘z ukasini elchi qilib yuborib, Amir Temur hukmronligini tan olganligini bildirib sulh tuzdi. Sohibqiron esa asosiy e’tiborni Iroqqa qaratib, Bag‘dod shahriga o‘zi boshchiligida navbatdagi harbiy yurishni boshladi. Bu vaqtda Iroqda hokimiyat Sulton Ahmad Jaloyirning ishonchli kishisi Farajning qo‘lida edi. Amir Temurning Bag‘dod shahrini shturm bilan egallash niyati amalga oshmadi. Shundan so‘ng shaharni qamal qilishga to‘g‘ri keldi. Qirq kunlik qamaldan so‘ng, 1401-yil 9-iyul kuni uyushtirilgan hujum natijasida shahar zabt etildi. Bag‘dod shahri zabt etilganidan so‘ng Amir Temur Ozarbayjonga qaytib qishni o‘sha yerda o‘tkazdi va Sulton Boyazidga qarshi yurish qilishga tayyorgarlik ko‘ra boshladi.

Bu vaqtda Sulton Boyazid o‘z huzurida qachoq sifatida yashayotgan Jaloiriylar davlati sultoni Ahmadni katta qo‘shin bilan Bag‘dodga jo‘natdi. Uning maqsadi Amir Temurni Kichik Osiyoga yurishini oldini olish, o‘z davlati tarkibidagi muammolar bilan band etish edi. Tezda uning atrofiga Iroqning turli chekka hududlarida yashirinib yotgan tarafdorlari qayta to‘planib, Jaloiriylar davlatini qayta tiklash uchun navbatdagi kurashni boshladilar. Ular Bag‘dod va Iroqning yana boshqa shaharlarini ham egallab, mudofaa inshoatlarini qayta tiklay boshladilar. Qish fasli bo‘lishiga qaramay Amir Temur Iroqni zabt etish uchun uchinchi yurishni (birinchisi 1393-yili, ikkinchisi 1401-yili) boshlashga qaror qiladi. Bu yurishda Amir Temurning o‘zi ishtirok etmaydi. Amir Temur huzurida o‘tkazilgan kengash qaroriga ko‘ra qo‘shin to‘rt guruhga bo‘linib, to‘rt yo‘ldan Bag‘dod sari yurish boshlaydi. Ularga shoshilmasdan, har bir hududdagi dushmanni butkul tor-mor keltirib, keyingina olg‘a siljish haqida topshiriq beriladi. Qo‘shinning to‘rt guruhga bo‘linishining sababi sulton Ahmad Jaloyirning o‘z askarlarini Iroqning qal’a va shaharlariga bo‘lib yuborganligi, ulardagi qal’a devorlari va mahalliy aholi yordamiga tayanib kurashmoqchi ekanligida edi. Lekin, Sulton Ahmad Jaloyir hokimiyati aholi tomonidan yetarli qo‘llab quvvatlanmaganligi sababli bo‘lsa kerak, Iroq shahar va qal’alari juda tezlik bilan zabt etiladi. Temuriylar qo‘shini shunchalik tez harakat qiladi-ki, ular Bag‘dodga yetib kelganida bundan kech xabar topgan Sulton Ahmad Jaloyir tungi kiyimida qochib ketishga majbur bo‘ladi. Ushbu yurish natijasida Iroq hududi to‘la zabt etiladi va Amir Temur vafotiga qadar temuriylar davlati tarkibida qoladi. Bu Sulton Boyazidning Amir Temur e’tiborini o‘z davlatidan chetga tortishga qaratilgan so‘nggi urinishi bo‘lib, u ham to‘la muvaffaqqiyatsizlikka uchradi.

Amir Temur hali Misr va Suriya yurishi boshlanmasdan oldinoq, aniqrog‘i 1400-yilning yozida Turkiya Sultoni Boyazidga elchi yuborib, uning Yevropadagi tashqi siyosatini qo‘llab-quvvatlashini, lekin buning uchun Turkiya sultonligi Sharqdagi chegaralarini kengaytirishga harakat qilmasligi zarurligini bildirgan edi. Bu maktub mazmuni Sharofuddin Ali Yazdiy tomonidan quyidagicha hikoya qilinadi: “ ... sen farang kofirlari bila g‘azog‘a mashg‘ulsen. Va agar biz ul sori borsak. Musulmonlar tashvishda bo‘lurlar va kofirlar shodmon bo‘lg‘aylar. Zinhor-zinhorkim atolaringning tariqalarini saqlag‘il va ayog‘ingni haddingdan uzotmag‘il, o‘zingga mag‘rur bo‘lmag‘il. Vassalom”[234]. Lekin bunga javoban Sulton Boyazid bu vaqtda Amir Temur davlati tarkibida bo‘lgan Ozarbayjon shaharlari bo‘lmish Sultoniya va Tabrizgacha bostirib borishga va’da beradi. O‘shanda Amir Temur Sivos va Malatiya hududlarini bo‘ysundirish bilan cheklanib, o‘z yurishini Misr tomonga burgan edi.

1402-yilning qishida Amir Temur Turkiya yurishiga jiddiy tayyorgarlik ko‘rayotgan vaqtda, bu safar Turkiya sultonining o‘zi elchi jo‘natdi. Uning maqsadi urushni oldini olish ekanligi uning do‘stlik to‘g‘risidagi taklifidan ham sezilib turadi. Amir Temur esa elchiga quyidagicha javob beradi: “Sizning podshohingiz doim farang kofirlari bila g‘azo qilur. Biz ham sizlar bilan do‘st tururbiz va ko‘nglumizda ul andisha yo‘q tururkim, ul sori cherik elitgaybiz va Islom viloyati xarob bo‘lg‘ay, kofirlar mundin shod bo‘lg‘aylar. Ammo Qora Yusuf turkmonkim, musulmonlar ichida kirib turur, yo uldurkim ani o‘ldurub musulmonlarning xotirini andin jam’ etsun yo ulkim ani band qilib bizga yibarsun. Bu ishdan birini qilsa aromizda do‘stliq bo‘lg‘usi turur”[235].

Lekin elchilar Amir Temur bu taklifiga javoban amalda bir bir fikr bildirish vakolatiga ega emasliklari ma’lum bo‘ladi. Shundan so‘ng Amir Temur yana bir bor rasmiy xat yozib o‘z shartlarini bayon qiladi va shartnoma tuzish uchun katta vakolatlarga ega ulug‘ beklaridan birini jo‘natishni so‘raydi. Nizomiddin Shomiy ham o‘z asarida Amir Temur xuddi shu shartlarni bildirganligini bayon qiladi. Birgina farqi Shomiy talqini bo‘yicha yuqoridagi ikki taklifdan tashqari uchinchi taklifni ham bildiradi, ya’ni Amir Temur Sulton Boyaziddan Qora Yusufni hech bo‘lmaganda mamlakatdan chiqarib yuborishni talab qiladi[236].

Lekin, qish yakuniga yetsa ham Sulton Boyazidning javobi ma’lum bo‘lmaydi 1402-yilning aprel oyida Amir Temur yana bir bor Sulton Boyazidga Chimboy Elchikday boshchiligidan elchilarni jo‘natdi. Bu safar ham yuqoridagi takliflar takrorlanib, qo‘shimcha Kemox qal’asini ham topshirish talab qilinadi. Amir Temur bu yangi talabni Kemox qal’asi avvaldan hozirda o‘ziga bo‘ysunuvchi Arzinjon viloyati hokimlari tomonidan idora qilinganligi bilan asoslaydi.

Amir Temur qo‘shini 1402-yilning aprel oyidan boshlab Turkiya tomon Janubiy Gurjiston orqali, Tbilisining janubidagi Shamkur sahrosi bo‘ylab asta-sekin siljiy boshlaydi. Dastlab Turkiya chegarasidagi Tartum qal’asi zabt etiladi. So‘ngra Sohibqiron shu yerda ikki oy davomida Turkiya elchilari kelishini kutib turadi. Lekin hech qanday javob elchiligi bo‘lmagach, yurish davom ettiriladi va

---

[234] Йаздий. Зафарнома. – Б. 253.
[235] Йаздий. Зафарнома. – Б. 256.
[236] Шомий. Зафарнома – Б. 327.

Kamox qal'asi zabt etiladi. Ushbu qal'ani boshqarish Arzinjon viloyati hokimi Tahurtan zimmasiga yuklatiladi. Kamox qala'si zabt etilgachgina Sulton Boyazidning elchilari yetib kelishdi. Sulton Boyazid bu safar ham biror bir taklifni qabul qilmagan, shuningdek, Kamox qal'asini zabt etilishiga ham norozilik bildirgan edi. Yazdiydan farqli ravishda Shomiy Qora Yusufning Turkiyadan chiqib ketganligi to'g'risida ovoza tarqalganligi, lekin uning naqadar haqiqat ekanligini aniqlab bo'lmaganligini ham qayd etadi. Shomiy talqini bo'yicha Amir Temur agar Qora Yusuf Turkiya chindan ham tark etgan bo'lsa, uning oilasini o'z huzuriga jo'natishni so'ragan. Lekin bu shart bajarilmagan[237].

Shundan so'ng Amir Temur harbiy ko'rik o'tkazib, ko'rikka turk sultoni elchilarini ham taklif etadi. Ko'rikdan keyin elchilarga ruxsat berarkan, Sulton Boyazidga yanada og'ir sulh shartlari taklif qilinadi. Bu shartlarga ko'ra Sulton Boyazid Amir Temurning vassaliga aylanishi kerak edi. Bu shartlarni Sharofuddin Ali Yazdiy quyidagicha bayon qiladi: "Yildirim Boyazidqa aytingkim, chun sening viloyatinga g'azo va jihod rasm turur, bizga qattiq kelurkim, ul viloyatda bizdin tashvish bo'lg'ay. Bovujud ulkim, sen ma'lum yo'ldin chiqibsen. Hanuz tahammul qilurmen, to Tahurtanning kishilarini yibarg'aysen va o'g'lonlaringdin birini bizga yibarg'aysenkim, bizdin ancha marhamat va shafqat ko'rgaykim, senkim atosisen, ko'rmag'on bo'lg'ay. To mamlakati Rum senga musalam bo'lg'ay va sen farog'at bila taxt ustida qaror tobqaysen va andag'i el-ulus farog'atda bo'lg'ay, vassalom"[238].

So'nggi muzokaralarda Qora Yusuf haqida so'z bormaganligi, uning haqiqatdan ham Turkiya hududlarini tark etganligidan bo'lsa kerak.

Shu o'rinda qayd etib o'tish joizki, yuqorida ham bir necha bor ta'kidlaganimizdek, Tahurtan Arzinjon viloyati hokimi edi. U usmonli turklarga qarshi kurashda Amir Temur madadiga umid qilib Old Osiyoda birinchilardan bo'lib uning hokimiyatini tan olgandi. Amir Temur Damashqda turgan vaqtda usmonli turklar qo'shini Arzinjonni zabt etib, Tahurtanni farzandlarini asirlikka olib ketishgan, Tahurtan esa Sulton Boyazid nomidan Arzinjonni boshqarishga qoldirilgan edi.

Sulton Boyazid Arzinjonni zabt etgan bo'lsa-da, uni o'z davlati tarkibiga to'liq qo'shib olib, u yerga o'z odamini hokim qilib qo'yishga jur'at etmadi. Chunki, bu ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni juda ham keskinlashtirib yuborishi mumkin edi. Sulton Boyazid Tahurtanning farzandlarini garovda saqlash orqali uni o'ziga bo'ysungan holda ushlab turmoqchi, undan Amir Temur bilan munosabatlarda vositachi sifatidan foydalanmoqchi edi. Shunday vaziyat paydo bo'ldiki. Tahurtan bir vaqtda Sulton Boyazidning ham Amir Temurning ham vassali sifatida faoliyat olib bordi. Tarixiy manbalarda Sulton Boyazid undan o'zi bilan Amir Temurni yarashtirib qo'yishni talab qilganligi haqida ham ma'lumotlar bor. Qisqasi, Arzinjon viloyati o'sha vaqtda ikki buyuk davlat o'rtasidagi oraliq hududga (bufer zonaga) aylanib qolgan edi. Amir Temur Turkiyaga o'z harbiy

[237] Шомий. Зафарнома – Б. 328.
[238] Йаздий. Зафарнома. – Б. 257.

yurishini boshlaganda Tahurtan o‘z lashkari bilan Amir Temur qo‘shini safiga qo‘shildi va bu yurishda to‘liq ishtirok etdi.

Amir Temur va Sulton Boyazid o‘rtasidagi elchilar almashinuvi ko‘plab tarixchilar tomonidan o‘rganilgan. Lekin ba’zi tarixchi olimlar ushbu elchilik aloqalari borasida fikr bildirisharkan ba’zi bahstalab mulohazalar ham bayon etishgan. Misol uchun qator ijobiy xususiyatlarga qaramay, N.M. Karamzin voqea va hodisalarni biroz badiiylashtirib bayon qilganligi uchun ham ushbu masalada ishonarsiz fikrlar bildirgan. Masalan, u Amir Temurning 1400-yili Turkiya sultoni Boyazidga jo‘natgan maktubida “Sen kimsan? Turkomon chumolisi: filga qarshi turmoqchimisan?” jumlalarini keltiradi. Temur davri tarixchilaridan Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy asarlarida berilgan xuddi shu maktubda bunday jumlalar yo‘q. Faqat Ali Yazdiy bayon qilgan maktubda: “... va sening naslu nasabing kemachi turkmanlarga etar va bu bizga ravshan turur, muhtoji bayon ermas” jumlalari bor, xolos[239]. Chindan ham raqibni N.M. Karamzin bayon qilganidek, haqorat qilish Amir Temur diplomatiyasida uchramaydigan holdir, aksincha, bunday haqoratli maktubni sulton Boyazid tomonidan Amir Temurga yuborilganligi ma’lum. Hatto unda: “Agar biz tomonga kelmasang, sening xotinlaring uch taloq bo‘lsin”, degan so‘zlar ham bor edi.

Turkiya elchilari qaytib ketgach, Sohibqiron qo‘shinlari Horuk qal’asini zabt etdilar. Shundan so‘ng Turkiyani markazi tomon yurish boshlanadi.

Rus harbiy tarixchisi M.I. Ivanin tomonidan chuqur o‘rganilgan harbiy yurishlardan biri 1402-yili Sulton Boyazidga qarshi qilingan yurishdir. Bu yurishni boshlashdan avval Amir Temur yon tomonlarni, ya’ni Kavkazorti va Suriyani bo‘ysundirib, Misr sultonini sulh tuzishga majbur qila oldi. Hatto orqa tomonni to‘liq xafvsizlantirish uchun Bag‘dodni qaytadan zabt etdi. Sulton Boyazid Amir Temur bilan jangni Turkiyaning janubiy qismida bo‘lishini hohlardi, chunki bu yerdagi jangda Temur yengiladigan bo‘lsa, Suriya va Misr qaytadan qo‘zg‘olib, Boyazidga yordamga kelishi mumkin edi. Bu esa Temurga qayta kuch to‘plashga imkon bermas va butunlay halokatga olib kelardi. Boyazidda esa yengilgan taqdirda ham mamlakat ichkarisiga chekinib, qayta kuch to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lardi. Lekin M.I. Ivanin ta’kidlaganidek, “Amir Temur Gurjistondan Boyazid qo‘shinlarining orqasiga qilgan mahoratli harakatlari bilan urushni Kichik Osiyoning shimoliy qismiga ko‘chirishga erishdi”. Amir Temur Turk davlatining markaziga juda katta tezlik bilan harakat qildi. Amir Temur lashkari 3 kun ichida 150 km masofani bosib o‘tdi. M.I. Ivanin uning bu harakatini quyidagicha baholagan edi: “Shunchalik katta qo‘shin bilan qilgan bu harakatni o‘z o‘ljasini ko‘rib, unga tashlangan yo‘lbars harakati bilan tenglashtirsa bo‘ladi”.

Anqaraga yetib kelgan Amir Temur shaharni qamal qilishni buyurdi. Amir Temur shu yerda dushman bilan jang qilishga qaror qildi. Bu yer Temur uchun juda qulay bo‘lib, yengilgan taqdirda kelgan yo‘li bilan chekina olar edi. Boyazid uchun esa Anqara mamlakat markazi bo‘lib, agar u shunday holatga tushsa, chekinib, qayta kuch to‘plashining iloji yo‘q edi.

---

[239] Йаздий. Зафарнома. – Б. 232.

Ivaninning ta'kidlashicha, Sulton Boyazid bu yerga yetib kelgan paytda Amir Temur qo'shinlari ancha dam olib jangga hozirlikni tugatgan bo'lib, Boyazid qo'shini esa yo'l yurib horigan edi. Uning ustiga Boyazid jangdan bir necha kun avval kunning issiq paytida katta ov uyushtiradi. Shu ov paytida issiqdan va suvsizlikdan 5000 kishi halok bo'ladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, jang natijasi aslida, jangdan avval hal bo'lgan edi. Boyazid qo'shinlari jang davomida qurshab olindi va qirib tashlandi. Boyazidning o'zi asir olindi. Shunday qilib, M.I. Ivanin Anqara jangi taqdiri Amir Temurning jang oldi tayyorgarliklari bilan hal bo'lganligini ta'kidlaydi.

Chindan ham Sharofuddin Ali Hazdiy va Nizomiddin Shomiylar ham o'z asarlarida Amir Temurning jang maydoniga raqibidan avval yetib kelganligi va juda qulay o'rinlarni egallab olganligini, usmonli turklar kelib o'rnashishi kutilgan hududlardagi quduqlar ko'mib tashlanganligini bayon qilganlar[240].

1402-yilning 20-iyul kuni Amir Tyemur qo'shinlari jang maydoniga saflanadilar. Bu safar qo'shin yanada mukammal tartibda jang maydonida saf tortadi. O'ng va chap qanot, shuningdek markazning o'zi ham bir necha yirik harbiy qismlarga bo'linadi. Misol uchun Sharofuddin Ali Yazdiy markazning ham alohida o'ng va chap qanoti hamda markazi bo'lganligini bayon qiladi[241]. Xuddi shu tartib o'ng va chap qanotda ham bo'lgan bo'lishi kerak. Markazning ortiga qirq harbiy qismdan iborat zahira joylashtiriladi. Tepasiga o'z davrining to'plari, tosh otuvchi manjanaqlari va kamon o'qchilari o'tqazilgan jangovar fillar esa markazning old qismidan o'rin oladi.

Jangni dastlab o'ng qanotning Abubakr mirzo boshchiligidagi oldingi qismi (kanbul) boshlab beradi. Ular dushman tomon yaqinlashib raqib saflarini kamondan yoppasiga o'qqa tuta boshladilar. Shundan so'ng har bir harbiy qism jangdagi maydonidagi vaziyatga qarab berilgan qo'mondonlik buyrug'i bilan birin-ketin jangga kiradi. Eng oxiri markazning markazidan joy olgan Mirzo Muhammad Sulton boshchiligidagi kuchlar jangga kiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, Amir Temur qo'shini dastlab qanotlardan zarba berib, raqibni qurshab olishga harakat qilgan. Markazda turgan Mirzo Muhammad Sulton boshchiligidagi qo'shin esa jangga kirgandan so'ng ortga chekindi. Natijada dushmanning shaxsan Sulton Boyazid boshchiligidagi markiziy qismi ilgari yurib bir necha tepaliklarni egalladi. Bu vaqtda o'ng qanotda turgan Shohrux mirzo, chap qanotda turgan Mironshoh mirzo boshchildigidagi harbiy kuchlar hal qiluvchi zarbalarni berib raqib qanotlarini yorib o'tdilar. Jang oxiriga kelib, jang uchun tuzilgan reja to'la amalga oshdi, ya'ni Sulton Boyazid o'zining asosiy kuchlari bilan qurshab olindi. Dushman qurshovni yorib chiqishga urinayotgan vaqtda Amir Temur qo'shini raqibni qurshovdan chiqib ketishi uchun yo'l ochib beradi. Bu esa dushman qarshiligini keskin pasaytirib yuboradi va ular o'zlarini qurshovdan chiqish yo'liga uradilar. Bu yerda esa ularni Movarounnahr qo'shinining kamonchilari kutib olishadi. Sulton Boyazid ham qurshovdan chiqib qochishga ulgurgan bo'lsa-da,

[240] Йаздий. Зафарнома. – Б. 257.
[241] O'sha asar. – Б. 259.

ko‘p o‘tmay Sulton Mahmudxon tomonidan asir olinadi. Jang Amir Temur qo‘shinlarining yaqqol g‘alabasi bilan yakun topadi.

Asir olingan turk sultonining Temur saroyidagi hayoti ko‘plab tarixchilarning e’tiborini jalb qilgan. Jumladan, rus tarixchisi V.N. Tatishchev Amir Temurning Turkiya sultoni Boyazidga qarshi yurishlari haqida so‘zlar ekan, Sohibqironning g‘alabasi bilan tugagan Anqara jangida asir olingan turk sultoni qafasga solinib, g‘olib Temur bilan birga olib yurilganligi to‘g‘risidagi afsonaviy ma’lumotlarni keltiradi. Shu o‘rinda, aynan shu afsona hatto hozirgi kunga qadar Yevropaning ham ilmiy, ham badiiy adabiyotida keng tarqalganligini eslatib o‘tish lozim. Amir Temur bilan bog‘liq shunga o‘xshash boshqa rivoyatlar haqida tarixchi olim T. Fayziyev ham ma’lumot beradi[242]. Lekin, ko‘pgina ishonchli tarixiy manbalar, jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida bu voqea quyidagicha bayon qilinadi: “...Yildirim Boyazidni dargohi olampanohga kelturdilar. Sohibqiron farmonladikim, “ilkini echib, hurmat bila keltursunlar!” Bas, ani hazrat qoshida izzat bila kelturib, hazrat ani ko‘rib, ko‘p izzat tutib, o‘z qoshida o‘lturguzdi...-yildirim Boyazid uchun podshohona oq uy tikib edilar. Sohibqiron-yildirim Boyazidga inoyat va shavkatlar qilib, har kun anga o‘z qoshida kelturub, suhbat tutib, ko‘ngul berur edi”[243].

Ushbu g‘alabadan so‘ng Amir Temur qo‘shinlari Kichik Osiyoning barcha shahar qal’alarini birin-ketin zabt etdilar. Bular ichida ayniqsa, salibchilarning Kichik Osiyodagi so‘nggi qarorgohlari Izmir qal’asining egallanishi eng muhim voqealardan biri bo‘ldi. Chunki bu qal’a o‘zining bo‘ysunmasligi bilan shuhrat qozongan edi.

Amir Temur Kichik Osiyoda turgan vaqtda Misr sultoni Faraj elchi yuborib, o‘zining Sohibqironga to‘la bo‘ysunganligini, Suriya va Misrda uning nomiga xutba o‘qilayotganligini bildirdi. Amir Temur ham o‘z navbatida Sulton Farajni Misrdagi noibi etib tayinladi.

Shunday qilib “yetti yillik yurish” davomida Amir Temur qo‘shinlari Iroqni, Kichik Osiyoni, Kavkaz ortini, O‘rta yer dengizining sharqiy sohillaridagi davlatlarni va Misrni bo‘ysundirdi. Amir Temur davlatining g‘arbiy chegaralari yanada kengaydi va xavfsizligi ta’minlandi. Amir Temur davlati Yevropa davlatlari bilan bevosita aloqalar qilish imkoniga ega bo‘lib, ikki o‘rtada siyosiy va iqtisodiy aloqalar rivojlandi. Buyuk Ipak yo‘lining g‘arbiy va janubiy qismlarida to‘la xavfsizlik ta’minlanib, iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi uchun keng sharoit yaratildi.

Amir Temurning “yetti yillik yurish”da erishgan yutuqlari, jumladan Usmonli turklar davlatining tor-mor keltirilishining xalqaro ahamiyati haqida ko‘pgina olimlar o‘z mulohazalarini bildirganlar.

Karamzin Vizantiya davlati haqida yozar ekan, Kichik Osiyo, Frakiya va boshqa mulklarni qo‘ldan berib, faqat poytaxt Konstantinopol shahrinigina saqlab qolgan hamda Usmonli turklar tomonidan qamal qilingan, na xazinaga, na o‘zini

[242] Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Б. 34-35.
[243] Йаздий. Зафарнома. – Б. 261.

himoya qilish uchun qo‘shinga ega bo‘lgan bu davlatni “birgina Boyazidning omadli raqibi Tamerlan qutqarganligini” alohida ta’kidlaydi.

A.Y. Yakubovskiy ham Amir Temur harbiy yurishlari ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tadi. Amir Temur tomonidan Oltin O‘rdani tor-mor keltirilishi Janubi-Sharqiy Yevropa va Rossiyaning keyingi taraqqiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo‘lganligini,[244] Usmoniylar saltanatini tor-mor etilishi esa turklar tomonidan Konstantinopolni egallanishini 50 yil orqaga surganligini, Yevropa xalqlari uchun ikkinchi bor yordam berganligini ta’kidlaydi. Adolat yuzasidan aytganda, sobiq sovet imperiyasi davrida bu fikrlarni aytishning o‘zi katta jasorat talab etardi va shuning uchun ham bu fikrlarning qiymati, ahamiyati yuqoridir.

Amir Temur “yetti yillik yurish” qaytib kelishi bilan Xitoy yurishini boshlab yuborishga harakat qiladi. Bu yurish shoshilinch tashkil etilgandek ko‘rinsa-da, aslida Amir Temur Xitoy yurishiga 1398-yildan boshlab jiddiy tayyorgarlik ko‘radi. U shu yili fevral oyida valiahd Muhammad Sultonni 40000 kishilik qo‘shini bilan mamlakatning shimoli-sharqiy hududlariga jo‘natib, uning zimmasiga harbiy inshootlar qurish, dehqonchilik ishlarini yo‘lga qo‘yish vazifasini yuklaydi. Bu haqida Sharafuddin Ali Yazdiy shunday yozadi: “Oftob Hut burjiga yetkanda (19-fevral) Sohibqiron hukm qildikim, “Amirzoda Muhammad Sulton Mo‘g‘uliston sarhadiga borib zabtg‘a mashg‘ul bo‘lsunlar!” va Ashparada qal’a solib, ziroat qildurg‘ay va Berdibek, Sari Bug‘a va amir Hoji Sayfuddin va Xudoydodi Husayniy va amir Shamsiddin Abbos va o‘zga beklarni qirq ming kishi bilan shahzodaning mulozamatiga qo‘ydi. Bas, alar yurub, Qulon uqbasidan o‘tib, Ashparag‘a yetib, anda tushdilar va imorat va ziroatqa mashg‘ul bo‘ldilar”. Bu istehkomlar bo‘lajak Xitoy yurishida asosiy tayanch nuqtalar bo‘lishi, barpo etilayotgan dehqonchilik vohalari esa yurish vaqtida qo‘shinni oziq-ovqat bilan ta’minlashi kerak edi.

Amir Temur 1401-yili Misr yurishidan qaytgach, Iroqning shimolidagi Mardin qal’asini qamal qilayotgan vaqtda o‘zining ishonchli amirlaridan biri Ollohdodni Mo‘g‘uliston chegarasidagi Ashpara qal’asining hokimi qilib tayinlab, unga Mirzo Muhammad Sulton boshlagan ishlarini davom ettirish vazifasini qo‘yadi. Sohibqironning Turkiyadagi harbiy yurishlari davom etayotgan 1403-yildayoq Ashpara hokimi Ollohdod Amir Temur buyrug‘iga ko‘ra Xitoyga olib boradigan yo‘llar geografiyasi, iqtisodiy resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘playdi va yo‘llar xaritasini tuzib, bularning hammasini Sohibqiron huzuriga jo‘natadi. Bu ma’lumotlar haqida Ibn Arabshoh shunday yozadi: “Xuddi Temur buyurgandek, sharqu g‘arbini, uzoq-yaqinligini, o‘ngu chapligini, tekisu tog‘ligini, bo‘yiyu eni, pastu balandini, daraxtsiz va daraxtli joylarini, yerini, buloqma-buloq manzilma-manzil qilib ochiq-oydin ko‘rsatdi”[245].

Bu davrda Sohibqiron o‘zining asosiy kuchlarini Xitoy yurishiga tashlanishiga xalaqit berishi mumkin bo‘lgan g‘arbiy hududlardagi siyosiy raqiblari Bag‘dod, Misr va Turkiya hukmdorlari bilan kurash olib borib, ularni to‘la tor-mor etadi. Shundan so‘nggina 1404-yil oxirida Xitoy yurishiga otlanadi.

---

[244] Якубовский. А.Ю. Тимур. – С. 62.

[245] Ибн Арабшоҳ. Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари. / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У. Уватов тайёрлаган. К. I. –Т.: Меҳнат, 1991. – Б. 118-119.

Demak, ko‘rinib turibdiki Amir Temur birgina Xitoy yurishining o‘ziga uzoq yillar, 1398-yildan boshlab 7 yil davomida puxta tuzilgan bosh reja asosida tayyorgarlik ko‘rib borgan.

Amir Temurning Xitoyga yurishi uning bosh strategik maqsadi Buyuk Ipak yo‘li ustidan hukmronlik o‘rnatib, uning xavfsizligini to‘liq ta’minlash, savdo karvonlarining Xitoydan to O‘rta yer dengizining sharqiy sohillaridagi dengiz portlariga qadar xavf xatarsiz borib kelishlarini uchun sharoit yaratish edi. Amir Temur “Yetti yillik yurish” natijasida g‘arbiy chegaralarda bu maqsadiga to‘liq erishgan bo‘lsa-da, sharqiy yo‘nalishda masala oxirigacha echilmagan edi. Xitoy va Movarounnahr o‘rtasida joylashgan Mo‘g‘uliston davlatidagi doimiy siyosiy beqarorlik, markaziy hokimiyatning zaifligi karvonlar xavfsizligiga jiddiy salbiy ta’sir etardi. Amir Temur Xitoygacha bo‘lgan hududlarda o‘z hukmronligini o‘rnatib, ushbu masalani shu yo‘l bilan echmoqchi edi. Mazkur yurish boshlanishi arafasida Movarounnahrning sharqiy chegaralaridan to Xitoygacha bo‘lgan hududlarni nabilalari Mirzo Ulug‘bek va Mirzo Ibrohimga bo‘lib berilganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi. “Va Sohibqiron, - deb yozadi Sharofuddin Ali Yazdiy,- Toshkent va Sayram va Jeta viloyatini Xitoy sarhadig‘acha amirzoda Ulug‘bek mirzog‘a berdi. Va Andigon va Axsikat va Taroz va Koshg‘ar va Xo‘tanni amirzoda Ibrohimg‘a berdiva nishonlar berib, ol tamg‘a bosturdi”[246]. Mazkur in’om etilgan hududlarning kattagina qismi Amir Temur davlati tarkibiga kiritilmagan, lekin qaram bo‘lgan Mo‘g‘uliston, ya’ni Jeta davlati hududlari bo‘lib, ushbu hududlar Xitoy yurishi davomida zabt etilishi va Sohibqiron nabiralari ixtiyoriga berilishi lozim edi. Mirzolar Toshkent, Sayram, Farg‘ona vodiysi hududlariga tayangan holda kelajakda yangi tashkil etilgan ikki ulusni boshqarishlari mo‘ljallangandi.

Demak, yuqoridagilardan ham ko‘rinib turibdiki, Xitoy yurishidagi asosiy vazifalardan biri Xitoy chegaralarigacha bo‘lgan hududlarni Amir Temur davlati tarkibiga kiritish bo‘lib, bu Sohibqironning bosh strategik maqsadining to‘la amalga oshishini bildirar edi.

Shuningdek, Xitoy imperatori ham o‘zining g‘arbiy hududlar uchun da’vogarligini yashirmas va o‘zining Amir Temurga jo‘natgan maktublarida Sohibqironni “O‘g‘lim” deb ataganligi ham bu da’voning naqadar jiddiyligini ko‘rsatardi. Amir Temurning ushbu yurishi Xitoy imperiyasi hududlarining Movarounnahr tomon yaqinlashuvi xavfini oldini olishda ham muhim ahamiyatga ega edi.

1404-yilning 27-noyabr kuni Amir Temur rahbarligidagi 200 ming kishilik lashkar Samarqanddan Xitoy tomon yo‘lga chiqadi. Sohibqironning maqsadi Toshkent viloyati va Dashti Qipchoq, Mo‘g‘uliston bilan chegaradosh hududlarda qishni o‘tkazib, bahordan yurishni davom ettirish edi. Shuning uchun ham qo‘shin Toshkent, Sayram, Shohruxiya, Yassi va Sabron viloyatlarida qishni o‘tkaza boshladi. Amir Temurning o‘zi esa 1405-yil 14-yanvar kuni O‘tror shahriga yetib keldi va shu yerda qishlashga qaror qildi. Lekin 11-fevraldan boshlab Sohibqironning sog‘lig‘i yomonlasha boshladi va 18-fevral kuni vafot etdi.

---

[246] Йаздий. Зафарнома. – Б. 292.

Amir Temur vafotidan so‘ng boshlangan o‘zaro taxt uchun kurashlar Xitoy yurishini davom ettirishga imkon bermadi.

***Ta’lim texnologiyalari:*** *Aqliy hujum, Venn diagrammasi, FSMO usuli, "bumerang", muammoli ta’lim.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar:***

*1. Amir Temurga qarshi tuzilgan ittifoqlar nima uchun o‘z maqsadiga erisha olmadi?*

*2. Amir Temur qanday sababga ko‘ra Qora Yusuf va Ahmad jaloyir uzoq vaqt ta’qib qildi?*

*3. Nima uchun “besh yillik” yurishdan so‘ng Amir Temur Usmonlilar davlati bilan to‘qnashuvga kirmadi?*

*4. Amir Temur va sulton Boyazid o‘rtasidagi elchilik aloqalari haqida nimalar ma’lum?*

*5. Nima uchun Amir Temur Misr davlatini o‘z mulklari qatoriga qo‘shib olmadi?*

*6. Amir Temurning Shom mamlakatiga yurishlari haqida qanday qiyinchiliklarga uchradi?*

*7. Yevropa qirollari bilan Amir Temur o‘rtasidagi diplomatik aloqalar jarayoni qanday kechdi?*

*8. Qanday omillar Amir Temurga “Anqara jangi” da g‘alaba olib keldi?*

## MAVZU: AMIR TEMUR SHAXSI: INSON, DAVLAT ARBOBI VA SARKARDA.

**Reja:**

*1. Amir Temur oilasining kelib chiqishi va uni shaxsiyatini shakllantirgan davr xususiyatlari.*

*2. Amir Temur bunyodkor shaxs.*

*3. Amir Temur shaxsiyatiga oid turli qarashlar va ziddiyatlar.*

***Kalit so‘zlar:*** *Barlos, Qashqadaryo voha, Amir Tarag‘ay, “To‘rt ulus tarixi”, Qorachor no‘yon, Tekina Moh begim, Shayx Shamsiddin Kulol, Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘i, “Yasoq”.*

***Amir Temur oilasining kelib chiqishi va uni shaxsiyatini shakllantirgan davr***

Amir Temur barlos qabilasiga mansub oilada 1336-yilning 8-aprel kuni tavallud topgan. Barlos qabilasi dastlab Mankaziy Osiyo cho‘llarida yashagan qabiladir. Ularning kelib chiqishi ba’zi maьlumotlarga qaraganda aslida turkiy bo‘lib, keyinchalik mo‘g‘ul qabilalari ta’sirida mo‘g‘ullashgan. Chingizxon bosqini davrida Ili dayyosi bo‘ylariga ko‘chib kelganlar. XIII asr o‘rtalarida esa Qashqadaryo vohasiga kelib o‘rnashganligi ma’lum. Aynan shu davrda barloslar to‘liq turklashib ketgan, deyish mumkin. Ya’ni, Ili daryosi bo‘yida yashagan vaqtlaridayoq boshlangan turkiylashish Qashqadaryo vohasida o‘z yakuniga etgan. XIII asr oxiri XIV asr boshlarida barloslar ham Movarounnahrga kelib o‘rnashgan

boshqa ko‘chmanchi qabilalar kabi o‘troqlashgan va islom dinini qabul qilgan. Ular bu hududda o‘troq va yarim ko‘chmanchi tarzda hayot kechirganlar.

Amir Temurning shajarasi bir necha tarixiy manbalarda biroz farq bilan keltiriladi. “Amir Temur ajdodlari” nomi bilan sharqshunos olim O.Bo‘riyev tomonidan nashr ettirilgan “Zafarnoma” muqaddimasining qisqartirilgan nashrida Amir Temur shajarasi quyidagicha berilgan: “Temur Ko‘ragon ibn Amir Tarag‘ay ibn Amir Burkul ibn Ilangiz-baxodir ibn Iyjil-no‘yon ibn Qorachor-no‘yon”. Sohibqironning nabirasi Mirzo Ulug‘bek esa o‘zining “To‘rt ulus tarixi” asarida bobosi shajarasini: “Amir Temur Ko‘ragon ibn Amir Tarag‘ay Amir Berkli Ibn Amir Alangiz no‘yon ibn Amir Ejil no‘yon barlos ibn Qorachor barlos” deb yozgan bo‘lsa, Fasix Havoviy “Amir Temur ibn amir Tarag‘ay ibn Ilongiriy Iyjil ibn Qorachor” tarzida keltirgan. Xondamir Amir Temur shajarasi haqida so‘z yuritar ekan, uni quyidagicha keltiradi: “Sultonlar va xaliflar tayanchi Amir Temur Guragon ibn Amir Taragay ibn Amir Bargul ibn Ilangiz nuyon ibn Amir Iyjal ibn Korachor nuyon”. Shohrux mirzo davrida tuzilgan shajarada bu haqida quyidagicha ma’lumot berilgan: “Temur ibn Taragay ibn Burakil (Burkal) ibn ibn Iydjil ibn Qarachar”. Shajara tomonidan olib ko‘riladigan bo‘lsak, Ili daryosi bo‘yiga Qorachor no‘yon, Qashqadaryo vohasiga esa Burkil yoki Ilangiz davrida ko‘chib kelishgan bo‘lishi mumkin.

Amir Temurning onasi haqida ma’lumotlar juda kam saqlangan bo‘lib, uning Buxoro sadrlari xonadoniga mansub Takina xotun ismli ayol bo‘lganligi ta’kidlanadi. Amir Temurning opasi Qutlug‘ Turkon og‘a bo‘lib, amir Dovudning xotini edi. Singlisi (uning onasi Tarag‘ayning boshqa xotini Qadoq xotun) Shirinbek og‘a amir Muayyidning xotini bo‘lgan. Akalari Jo‘ki, Olimshayx, Suyurg‘atmishlar yoshligida vafot etgan bo‘lib, Temurning oiladagi yagona o‘g‘il farzand bo‘lib voyaga etgan.

Yuqorida aytganimizdek, Sohibqironning otasi Tarag‘aybek Shahrisabz va uning atrofidagi qishloqlarda yashovchi barlos qabilasining beklaridan biri edi. Uning onasi Tekina Moh begim buxorolik bo‘lib, diniy ulamolar oilasida tarbiya topgandi. Tarag‘aybekning oilasi Shahrisabzdan uncha uzoq bo‘lmagan Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida istiqomat qilardi. Barlos qabilasining ko‘plab beklari kabi uning umri ham dastlab Chig‘atoy ulusidagi jangu jadallarda kechdi. Lekin Tarag‘aybek otasi Bargulbek kabi harbiy ishlarga ko‘p mayl bildirmasdi. Shuning uchun ham faqat Chig‘atoy ulusi ayonlarining Ili daryosi bo‘yida o‘tkaziladigan qurultoyiga taklif qilinganidagina ushbu nufuzli kengashda qatnashish uchun uzoq safarga chiqar, boshqa vaqtlarda imkon qadar o‘z oilasi davrasida bo‘lishni afzal bilardi.

Bir necha farzandlarining bolaligidayoq vafot etganligi ham Tarag‘aybekni oilasiga ko‘proq bog‘lab qo‘ygandi. Sarkarda Tarag‘aybek mulk sifatida ham o‘troq dehqonchilik yerlariga, ham chorvachilik yaylovlariga ega edi. Ko‘p o‘tmay u harbiy faoliyatini butunlay to‘xtatishga qaror qildi. O‘z qishlog‘ida asosan xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanib, ko‘proq olimu ulamolar suhbatida bo‘ldi. Uning jangu jadallardagi shafqatsizliklardan zada bo‘lgan qalbi bunday suhbatlarda orom olar, shuuri nurga, ziyoga to‘lib borardi.

Amir Temurning yoshlik yillari xususida tarixiy-ilmiy adabiyotlarda ko‘p to‘xtab o‘tilmagan. Lekin, shunga qaramay, ba’zi fikr va mulohazalar mavjud.

Misol uchun rus olimi A.Y. Yakubovskiy dastlab Sohibqironning yoshlik-yillari haqida fikr yuritib, Amir Temur bolaligidan turk va tojik tillarini egallaganligini, faqat koʻchmanchilar hayotini emas, balki oʻtroq, dehqon aholi hayotini ham, shuningdek, oʻrta asr jamiyatida juda katta obroʻga ega boʻlgan musulmon ruhoniylari bilan yaqinligi tufayli, shahar hayotini ham yaxshi bilganligini ta'kidlaydi. Muallif mashhur Shayx Shamsiddin Kulol Sohibqironning otasi Taragʻay Bahodirning piri boʻlib, Amir Temur hayotida ham muhim rolь oʻynaganligiga, keyinchalik Amir Temur oʻzining barcha yutuqlarini ushbu shayx duolari ijobati, deb bilishiga ham e'tiborni qaratadi. Shu oʻrinda alohida ta'kidlash lozimki, muallifning yuqoridagi fikrlaridan, ya'ni Amir Temurning chorvadorlar hayotini, jumladan, yilqichilikni juda yaxshi bilishidan, koʻchmanchi oilada tarbiya koʻrgan, degan fikr tugʻilmasligi kerak. Ularning yilqi va boshqa chorva podalaridan tashqari katta miqdorda ekin yerlari boʻlganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Masalan, “Zafar yoʻli” asaridagi quyidagi ma'lumotni olaylik: “... otam Amir Taragʻayning hamda uning hukmidagi odamlarning barchasida ekinlar moʻl hosil berdi, qoramollar ham koʻp tugʻdi”. Koʻrinib turibdiki, Amir Taragʻay xoʻjaligida dehqonchilik muhim oʻrin tutgan, bu esa oʻtroq hayot tarzi bilan bogʻliqdir. Shuningdek, uning Shahrisabz ma'naviy hayoti bilan yaqinligi ham koʻproq oʻtroq hayot tarzini taqozo etgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, Amir Temur oʻtroq, yoki hech boʻlmaganda yarim oʻtroq, yarim koʻchmanchi tarzda hayot kechirgan oilada tugʻilgan, deb aytish mumkin. Tarixiy manbalarda Amir Taragʻay ma'rifatli, olimu ulamolar suhbatidan doimo bahramand boʻlib turgan shaxs boʻlganligi haqida ham ma'lumotlar bor. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida Amir Taragʻay haqida: “..ahli solihu taqvo bilan inoq va doʻst boʻlishga yaratilgan va umrining ancha qismi ul oliy martabaning saodat nishonli majlisi va suhbatiga toʻla moyil edi” deyilgan. Boshqa manbalarda uning tarix fanini yaxshi bilganligi ta'kidlanadi. Amir Temur “Tarjimai holi”da u oʻz otasidan tarixiy oʻgitlar va hikoyalarni koʻp bora tinglaganligini hikoya qiladi. Yuqoridagi barcha ma'lumotlarga tayanib, Amir Temur oʻz davri ma'naviy yutuqlaridan toʻla bahramand boʻlgan ma'rifatli oilada tugʻilganligini, bu esa uning tarbiyasi va kamolotga etishishida muhim oʻrin tutganligini alohida qayd etish kerak.

Koʻplab tarixchilar Amir Temurning Shahrisabzdan uzoq boʻlmagan Xoʻjailgʻor qishlogʻida uncha boy boʻlmasa-da, yetarlicha obroʻga ega boʻlgan barlos begi Taragʻay oilasida tugʻilganligini qayd etarkan, uni tengdoshlari orasida katta obroʻ va muhabbatga ega ekanligi, yetakchi sifatida oʻzini erta namoyon qilganligiga ahamiyat beradi. Shu oʻrinda A.Y. Yakubovskiyning Klavixo va rus solnomalaridagi ma'lumotlarga tayanib, dastlab Amir Temurda ham otasi kabi bor-yoʻgʻi 3-4 nafar navkar boʻlganligini, keyinchalik esa yosh Temurning uddaburonligi tufayli ularning soni koʻpayib borganligini qayd etganligiga e'tibor qaratish mumkin: “Uning shaxsiy botirligi, saxiyligi, odamlarni aql bilan saralab, oʻziga yordamchilar tanlay olishi, shuningdek, unda yoʻlboshchilik sifatining yorqin namoyonligi unga Qashqadaryo vohasi barloslari oʻrtasida, ayniqsa, yosh koʻchmanchi harbiylar orasida yoʻlboshchi sifatida shuhrat keltirdi”.

Amir Temur katta harbiy tashkilotchilik talantiga, kuchli iroda va hukmdorlik dahosiga ega edi. U murakkab o‘rta asr feodal jamiyatini boshqarishda juda muhim rol o‘ynagan, o‘zining ulkan feodal davlatini qattiqqo‘llik bilan tutib turgan. Amir Temur bilimni, ayniqsa amaliy foyda keltiruvchi bilimni qadrlagan, tibbiyot, astronomiya. matematika va ayniqsa, me’morchilikka qiziqqan, o‘z davrining ilg‘or kishisi sifatida o‘zini namoyon eta olgan. Sohibqironning tarix faniga qiziqqanligi va uni juda yaxshi o‘zlashtirganligi arab tarixchisi ibn Arabshoh tomonidan alohida ta’kidlangan. Yana bir tarixchi Hofizi Abru esa Amir Temurni turk, arab va eronliklar tarixini yaxshi bilganligini qayd etgan.

Akademik V.V. Bartold Amir Temur tarixini o‘rganar ekan, uning shaxsiy fazilatlari haqida ham qator ijobiy fikrlar bildiradi. U Sohibqironning turkiy tildan tashqari fors tilini ham yaxshi bilishini, olimlar bilan ko‘plab suhbatlar qurganligini ta’kidlaydi. “Olimlar bilan ko‘plab muloqotlar qilish tufayli u ma’lum ilmiy bilimlarga ega bo‘ldi va hatto tarix sohasidagi bilimlari bilan Ibn Xaldunni hayratda qoldirdi. O‘sha davrdagi eng mohir shatranj ustalari bilan dona surardi, me’morlar esa inshootlarni bunyod etish chog‘ida Amir Temurning badiiy tasavvurlarini amalda tadbiq etishlari zarur edi”,-deb yozadi. V.V. Bartoldning yuqoridagi fikrlari Ibn Arabshohning “Ajoyib-al maqdur” nomli asarida ham o‘z tasdig‘ini topgan. Misol tariqasida Ibn Arabshohning quyidagi satrlarini keltiramiz: “Temur olimlarga mehribon bo‘lib, sayidu shariflarni o‘ziga yaqin tutardi.”. Albatta, V.V. Bartoldning Amir Temurning olimu ulamolarga bo‘lgan ijobiy munosabati to‘g‘risidagi fikrlari Ibn Arabshohning ma’lumotlariga asoslangan.

***Amir Temur bunyodkor shaxs***

Amir Temurning me’morchilik sohasidagi bunyodkorlik faoliyati ham e’tiborga molik. Samarqand, Shahrisabz va Turkiston shaharlarida barpo etilgan me’morchilik obidalari Amir Temurning bu boradagi yuksak salohiyatidan dalolat beradi. Amir Temur barpo etgan bog‘lar o‘z davridayoq shuhrat qozongan edi. Sohibqironning me’morchilik, bunyodkorlik faoliyati evropalik Klavixoni hayratda qoldirgan.

Me’morchilik haqida so‘z ketar ekan akademik V.V. Bartoldning bu boradagi mulohazalarini yodga olish o‘rinli. V.V. Bartoldning Amir Temur davri me’morchiligi haqida qarashlari ham diqqatga sazovordir. U Amir Temur va temuriylar davri me’morchiligini musulmon dunyosi me’morchiligining eng yaxshi namunasi deb biladi. V.V. Bartold bu davr me’morchiligi o‘z o‘lchamlari jihatidan fors namunalaridan ancha yuqori turganligini ta’kidlaydi. Muallif Amir Temur qurdirgan muhtasham binolar va ularni qurishda Sohibqironning shaxsan o‘zi ishtirok etishi uning yuksak badiiy did egasi bo‘lganligini ko‘rsatadi, degan xulosaga keladi. V.V. Bartold Temurning bunyodkorlik faoliyatini, ya’ni u barpo etgan ajoyib bog‘larni, qazdirgan sug‘orish inshootlarini, ayniqsa, Amir Temur o‘zlashtirish mumkin bo‘lgan erlarning biror qarichini ham bekor yotishiga yo‘l qo‘ymasligini bayon qilar ekan, bularning barchasi uni hayratga solganligini tan oladi. Buyuk olim Sohibqiron bog‘lari oddiy fuqarolar uchun ham saylgoh bo‘lib xizmat qilganligini, fuqarolar bu bog‘larda dam olganliklarini aytib o‘tarkan, “Temur o‘z imperiyasining madaniy aholisi uchun begona jahongir bo‘lib qolmagan”, degan xulosaga keladi. Shu o‘rinda Ibn Arabshohning Temur bog‘lari

haqidagi ma’lumotlariga tayanib, V.V. Bartold qarashlarining to‘g‘riligiga yana bir karra ishonch hosil qilamiz.

Amir Temur ishlab chiqaruvchi kuchlar va mehnat resurslariga katta e’tibor bergan, Movarounnahrga dunyoning turli burchaklaridan olimlar, ulamolar, san’atkorlar va hunarmandlarni ko‘chirib keltirgani holda, Movarounnahrdan biron-bir ijtimoiy foydali mehnatga layoqatli bo‘lgan kishining chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymagan. Bu holatni Amir Temur Movarounnahrning butun iqtisodiy va madaniy salohiyatini bunyodkorlik, o‘lka ravnaqi yo‘lida sarflashga, jipslashtirishga uringanligidan, deb ham baholash mumkin.

Amir Temur shaxsi boshqa yirik hukmdorlar bilan solishtirilgan holda ham o‘rganilgan. A.Y. Yakubovskiy Amir Temurni Mahmud G‘aznaviy bilan qiyoslarkan, umrining asosiy qismini istilochilik yurishlarida o‘tkazgan G‘azna hukmdori to‘plagan behisob boyliklar davlat ravnaqi uchun sarf etilmaganligini ta’kidlaydi. Sohibqiron haqida esa quyidagilarni bayon qiladi: “Temur esa boshqa gap, u yaxshi hisobdagi xo‘jayin sifatida qiymatga ega hamma narsani Movarounnahrga, uning bir o‘zi qo‘lida tutib turgan ulkan saltanatning markaziga tashir edi. Bu yerga u faqat turli boyliklarni keltirish bilan cheklanmadi. U asir qilib olingan mutaxassislar-hunarmandlar, rassomlar, me’morlar, olimlardan yanada ko‘proq foydalandi-Movarounnahrda bunday mutaxassislar ozligi uchun emas, balki yangi madaniy kuchlarning kelib qo‘shilishi, hunarmandchilikning rivojlanishiga, san’at va ilmning yuksalishiga xizmat qiladi, deb hisoblaganligi uchun shunday yo‘l tutdi”. Umuman olganda, A.Y. Yakubovskiy Temurni chuqur ziddiyatlarga ega bo‘lgan shaxs, deb biladi va uni O‘rta Osiyodagi faoliyatini ijobiy baholaydi.

Ko‘plab olimlar va yozuvchilar Amir Temurni buzg‘unchi, bosqinchi sifatida tasvirlashga intilib kelganlar. Lekin V.V. Bartold birinchilaridan bo‘lib, bu qarashlarni biryoqlama, noto‘g‘ri ekanligini ko‘rsatib berdi. Muallif Amir Temur Turkistondan tashqarida faqat buzg‘unchilik bilan shug‘ullangan, degan fikrlarni rad etadi va Qobul vodiysida, Mug‘on cho‘llarida ham ko‘plab qurilishlar qilganligini misol keltiradi. I. Mo‘minovning “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida o‘rni va roli” risolasida ham V.V. Bartoldning yuqorida keltirilgan fikrlari ta’kidlab o‘tilgan. Akademik V.V. Bartold Amir Temur va Chingizxon o‘rtasidagi tafovutni va o‘xshashlik tomonlarini o‘rganishga harakat qildi. Manbalarni chuqur o‘rgangan muallif shunday xulosaga keladi: “Chingizxon bilan Temur o‘rtasidagi tafovut keyingisining keng ilmligi bilan belgilanadi”. V.V. Bartold har ikki mashhur jahongirni bir-biriga solishtirar ekan, ular o‘rtasidagi farqni, asosan, Temurning ilm va madaniyat ahliga bo‘lgan ijobiy munosabati belgilab berishini ta’kidlab o‘tadi.

Shuningdek, Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish yo‘lidagi faoliyati yuzasidan V.V. Bartold bergan quyidagi xulosa ham juda muhimdir: “Temur doimo davlat tartibi g‘oyasi tarafdori edi. Bir-biriga qarshi turgan mayda hokimliklar mavjudligida bu tartibni amalga oshirib bo‘lmas edi”. Shuning uchun ham u Movarounnahrda mayda hokimlarga qarshi izchil markazlashtirish siyosatini olib bordi. Bu kurashlar natijasida markazlashgan davlat barpo etib, Movarounnahrdagi nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy yuksalishga sharoit

yaratdi. Chindan ham bunday yuksalish faqat Amir Temur xohlagan “davlat tartibi” g‘oyasini amalga oshirilgandagina yuz berish mumkin edi.

### *Amir Temur shaxsiyatiga oid turli qarashlar va ziddiyatlar*

Amir Temurning shaxsi haqida so‘z yuritilarkan akademik N.I.Konradning fikrlariga ham e’tibor qaratish lozim. U asosan, Sohibqironning ma’naviy dunyosiga e’tibor beradi, unda Iskandar Zulqarnayn va Kanishkaning ruhi mujassam bo‘lgan, deb hisoblaydi. Garchi u Temurni Chingizxon avlodi deb hisoblasa-da, qadimiy, boy madaniy merosga ega bo‘lgan o‘lkada tug‘ilgani, tarbiya topgani va hukmronlik qilganligi uning ideallarini shakllanishiga ta’sir qilgan, deb ta’kidlaydi.

Akademik I. Mo‘minov o‘z risolasida, asosan, Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rnini, uning markazlashgan davlat tuzish va iqtisodiy, madaniy jihatdan yuksaltirish yo‘lidagi intilishlarini yoritib bergan edi. Risolada Amir Temur shaxsi mohir siyosiy arbob, yengilmas sarkarda, adolatni sevuvchi va ilm-fanga homiylik qiluvchi ma’rifatparvar hukmdor sifatida gavdalantirilgan. Bu esa sobiq sovet tarixshunosligida o‘ziga xos isyon edi.

Amir Temur shaxsi haqida ziddiyatli fikrlar ko‘plab uchraydi. Shu o‘rinda ularning ba’zilariga izoh berib o‘tish lozim. Bu shu kabi boshqa fikrlarga ham raddiya bo‘la oladi Shuningdek, V.V. Bartoldning Amir Temur shaxsi haqida bildirgan ayrim fikrlarida ham bahsli jihatlari bor. Muallif Amir Temurning buyuk qurilishlari haqida gapirar ekan, bunday buyuk qurilishlar sabablarini uning psixikasidagi nosog‘lom shuhratparastlik bilan bog‘laydi. Go‘yoki Amir Temur shu darajada shuhratparast ediki, hatto bu kasallik darajasiga ko‘tarilgan emish. Bu fikrni asossizligini isbotlashning hojati ham yo‘q. Tarix faqat shuhratparastlik bilan buyuk ishlarni amalga oshirish mumkin emasligini ko‘p marotaba isbotlagan. Amir Temurning “buyuk shuhratparastligi” mahsuli bo‘lgan me’morchilik obidalari yurtimiz shuhrati uchun bunyod etilgan bo‘lib, V.V. Bartoldni ortiq darajada hayratga solgan bo‘lsa, bundan ajablanish noo‘rin. Yana uning qo‘yidagi so‘zlarini ham keltiramiz: “Shuhratparast Temur uchun shunday intilish xos ediki, u o‘zining olamshumul buzuvchilik hamda yaratuvchilik xatti-harakati bilan dunyoni lol qoldirmoqchi bo‘lar, bunda u o‘z harakatlarining boshqa ellarga ta’siriga katta baho berib, natijalarning puxtaligiga kam e’tibor berar edi”. Lekin V.V. Bartoldning nazarida bunyodkorlik ishlarining “kam e’tibor berilgan natijalari” bugungi kunda ham jumlai jahonni lol qoldirayotganligini eslatib o‘tish kifoya.

Boshqa bir joyda V.V. Bartold Amir Temur savodsiz bo‘lgan degan fikr bildiradi. Afsuski, rus tarixshunosligida bu fikr ancha keng tarqalgan. Lekin manbalarda bu fikrni inkor etuvchi ko‘plab ma’lumotlar bor. Akademik B.Ahmedov Ibn Arabshoh, Hofizi Abru va Abdurazzoq Samarqandiylarning Amir Temur tarix, falsafa, tabobat va ilmi-nujum (astronomiya) fanlarini yaxshi bilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlariga tayanib, bu fikrni rad etadi. O‘z fikrini yanada asoslash uchun Amir Temurning Qur’ondan fol ochishini dalil sifatida keltirib, Alisher Navoiyning Sohibqiron haqidagi quyidagi fikrlarini ta’kidlaydi: “Temur Ko‘ragoniy...-agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xo‘b mahal va mavqe’da o‘qibdurlarkim, aningdek bir baytni o‘qigoni ming yaxshi bayt aytqoncha bor”. Shuningdek, professor A.Ahmedov

ham Amir Temurning “Tarjimayi hol”idagi “Yetti yoshdan madrasaga borib o‘qishda katta muvaffaqiyatlarga erishgani” haqidagi ma’lumotga tayanib, Sohibqiron savodli bo‘lganligini ta’kidlaydi. Yuqoridagilarga qo‘shimcha qilib, “Tuzuklar” ham uning savodli ekanligini tasdiqlovchi dalil ekanligini eslatib o‘tish zarur. “Temur tuzuklari”da Amir Temurning o‘z qo‘li bilan turkiy bayt yozganligi haqida ma’lumot bor: “Amir Husaynga ushbu mazmunda turkiy bayt yozib yubordim:

*Yorga etkur, ey sabo, kim makr qilmishdir mang‘a,*
*Qildi ersa kimga makrin qaytadur bir kun anga.*

Bu xatim Amir Husaynga borib yetgach, ko‘p xijolat bo‘lib uyaldi, mendan uzr so‘radi”. Qolaversa, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”sida Sohibqironning otasi Amir Tarag‘ayning olimu ulamolar bilan do‘st bo‘lganligi va ularning majlisida doimo qatnashganligi aytiladi. Shunday ekan, bunday otaning farzandi savodsiz bo‘lishi mumkin emas.

Tarixchi olimlar, jumladan, V.V. Bartold Amir Temurning islom diniga bo‘lgan munosabati to‘g‘risida ham talay bahsli fikrlar bildirgan. U Amir Temurning dinga alohida e’tibor berganligini, din peshvolari va darveshlarni hurmat qilganligini, ruhoniylar mulkini boshqarishga aralashmaganligini ta’kidlaydi. Shundan so‘ng V.V. Bartold “Temur uchun din siyosiy maqsadlarga erishish uchun qurol bo‘lgan”, degan xulosaga keladi.

V.V. Bartolddan o‘zga ko‘plab tarixchilar ham shunday fikrlar bildirishgan. Bunga asosiy sabab Amir Temurning Mozandaronda sunniylarni qo‘llagani holda, Suriyada shialarga yaxshi munosabatda bo‘lganligidir. Lekin masalaga boshqa tomondan yondashish ham mumkin. Ko‘pchilik aholisi shialardan iborat bo‘lgan Suriyada shialikka qarshi siyosat olib borish Amir Temur davlatining manfaatlariga katta zarar keltirishi muqarrar edi. Shu tufayli Amir Temur ularning e’tiqodini hurmat qilgan va diniy masalani siyosatga aralashtirmagan. Aslida, bizningcha, siyosatga dinni aralashtirmaslik ijobiy talqin etilishi zarurdir.

Juda ko‘p tarixiy manbalarda Amir Temur chin musulmon, islom himoyachisi sifatida talqin etiladi. Bu talqinlarni haqiqatligini isbotlovchi tarixiy faktlarni ko‘plab keltirish mumkin. Lekin shunga qaramay, Bartold quyidagi fikrlarni bayon qiladi: “Harbiy hamda fuqarolar boshqaruvining tuzilishi faqatgina Chingizxon qonunlari asosida belgilanardi; keyinchalik din peshvolari uni e’tiqodli musulmon sifatida tan olishdan bosh tortdilar, chunki u Chingizxon qonunlarini din ko‘rsatmalaridan yuqori qo‘ygan edi”. Yana boshqa joyda esa “o‘z maqsadlari yo‘lida Mo‘g‘ul imperiyasining, shu jumladan, Chig‘atoy xonligining g‘oyalari va an’analaridan foydalanishga harakat qildi. Mo‘g‘ul harbiy an’analari oldida islom an’analari. Temur uchun faqat ikkinchi darajali ahamiyatga ega edi. Shunday bo‘lsa-da, u islom an’analaridan o‘z harakatlarini oqlash uchun, o‘z saltanatining obro‘sini ko‘tarish uchun ustamonlik bilan foydalandi. Boshqa mamlakatlarda ham islomga rahnamolik qilish Temur uchun o‘z siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchungina kerak edi”, degan xulosaga keladi.

Avvalo shuni aytish kerakki, Amir Temur hech qachon Chingizxon qonunlarini, mo‘g‘ul an’analarini, islom qonunlaridan, jumladan, shariatdan ustun qo‘ygan emas. To‘g‘ri, Amir Temur Chingizxon qonunlaridan, mo‘g‘ul harbiy

an’analaridan keng foydalangan. Bu, ayniqsa, harbiy ishlarda va davlat boshqaruvida namoyon bo‘ladi. Buning bir qancha ijtimoiy-siyosiy sabablari bor. Dastlab turk va mo‘g‘ul qabilalarining juda qadimdan yaqin qo‘shni bo‘lganligi va bir xil tarixiy sharoitda yashab, bir xil tarixiy bosqichlarni bosib o‘tganligini e’tiborga olish lozim. Shundagina Chingizxon qonunlarining asosini tashkil etgan, tarixda ko‘proq mo‘g‘ul harbiy an’analari nomi bilan mashhur bo‘lgan an’analar aslida turkiy xalqlarga ham tegishli ekanligini anglash mumkin. Hatto Chingizxon qo‘shinlarining asosiy qismini turkiy qabilalar tashkil etgani ham ehtimoldan holi emas. Chingizxon qonunlari ham aslida Movarounnahr va Xitoy shimolidagi keng dashtliklarda yashagan ko‘chmanchi qabilalarning ming-yillar davomida tarix sinovidan o‘tgan harbiy va fuqarolik hayotini tartibga soluvchi qonunlar asosida yaratilgani ma’lum.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ko‘chmanchi qabilalar, asosan, turkiy qabilalar bo‘lganligi, ular Turk hoqonligi nomi bilan mashhur hoqonlik barpo etganliklarini bilamiz. Demak, Chingizxon qonunlari turkiy qabilalar uchun ham begona bo‘lmagan va ularning hayot tarziga mos kelgan. Shu sababli ham Amir Temur “Yasoq”dan va mo‘g‘ul an’analaridan keng foydalangan. Chingizxon qonunlari, ya’ni “Yasoq”ning yaxshi tomonlarini islom dinidagi Movarounnahr xalqlari hayotiga moslashtira va singdira olganligi Amir Temurning yirik yutug‘i bo‘lib, buni faqat ijobiy baholash mumkin. Bu esa Sohibqironning etuk siyosiy arbob va qonunshunos ekanligini ko‘rsatadi. Chunki u g‘ayridin Chingizxonning qonunlari deb ulardan ko‘ra-ko‘rona voz kechmagan, aksincha, mutaassib, johil ruhoniylardan bu qonunlarni himoya qildi.

V.V. Bartolddan farqli o‘laroq, X. Vamberi bu borada ancha ijobiy fikrlar bildirgan. Masalan, u “Temur boshqarish ishlarini o‘z qo‘liga olgach, juda holdan toygan mamlakatda qonun va tartib ishlarini joriy etdi. U islom diniga muxlis bo‘lish bilan birga, Chingizxon nizomlarini ham juda hurmat qilar edi. Bu qonunlar Turonning hikmat hukumati bo‘lganligi uchun, turk xalqlarining ijtimoiy va siyosiy ahvoliga muvofiqligi uchun Temurga ma’qul edi.”

“Turkestanskiy sbornik”da jamlangan maqolalar ichida S.Lidskiyning “O‘rta Osiyoning buyuk jahongirlari” («Velikiye zavoyevateli Sredney Azii») maqolasi o‘ziga xos ahamiyatga ega. Muallif Amir Temur va Aleksandr Makedonskiyni bir-biri bilan qiyoslaydi. Uning fikricha, Amir Temurga nisbatan Aleksandr Makedonskiy keng ma’lumotli va davlatni boshqarishda katta talantga ega bo‘lgan. Bizningcha, S. Lidskiyning bu fikri bir yoqlama bo‘lib, uning noxolisligi sezilib turibdi. Aslida esa manbalarda Amir Temurning ko‘plab fanlardan xabardor bo‘lganligi, olimlar bilan ilmiy bahslar olib borganligi haqida ma’lumotlar ko‘p. Tadqiqotimiz davomida bu haqda bir necha bora to‘xtaldik. Amir Temurni Aleksandr Makedonskiydan muallif ta’kidlagan sohalarda, qolishadigan joyi bo‘lmagan. Lekin shunga qaramay, S. Lidskiy ham Amir Temurni faqat insoniyatni qirg‘in qiluvchi qonxo‘r sifatida emas, balki o‘z davri va mamlakatining sharoitidan kelib chiqib, xalq baxt-saodati uchun iloji boricha harakat qilgan rahbar sifatida baholash kerak, degan xulosaga keladi. Bu fikr ancha haqiqatga yaqin bo‘lib, tarixiy shaxslarga baho berishda, o‘sha davr mezonlariga tayanish lozimligini ko‘rsatib turibdi. Shu bilan birgalikda muallifning quyidagi

fikrlari ham e'tiborga molik. U Amir Temur siyosiy yo'llar bilan maqsadga erishishi mumkin bo'lgan hollarda, hyech qachon qilichdan foydalanmaganligi, qaysi xalq o'z hukmdorlarining zolimligi va adolatsizligi tufayli undan norozi bo'lsa, o'sha davlatga urush e'lon qilganligini ta'kidlaydi. S. Lidskiy Amir Temurni islom dini qoidalariga doimiy amal qilganligini, ayniqsa, janglar arafasida kechasi bilan ibodat qilib chiqishi, bu esa uning qo'shinlariga g'alabaga bo'lgan ishonchini oshirib, ruhlantirganligini qayd etadi.

Shuningdek, u Amir Temurning davlat boshqaruv uslubiga ham e'tibor bergan. Muallif Temur davlat boshqaruvini yaxshi tashkil qilishning birinchi sharti sifatida mohir rahbarlarni odamlar orasidan tanlay bilish, deb hisoblaganligini, soliq yig'ish ishlariga hokimlik mavqyei qamchi va tayoqdan past bo'lgan rahbarlarni qo'ymaslik kerakligini ta'kidlaganini hamda soliq yig'ishda xalqni og'ir ahvolga solib qo'yish davlatga ham putur yetkazishi mumkinligiga e'tibor qaratganligini qayd etadi.

S. Lidskiy o'z maqolasida Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlariga, me'morchilik obidalariga ham to'xtalib o'tadi. Sohibqironning ilm-fanga homiylik qilganligi, ayniqsa, tarix faniga jiddiy qiziqqanligiga e'tiborni qaratadi.

Amir Temurning shaxsi va faoliyatiga ijobiy baho bergan maqolalardan biri I. Sluskiyning "Temurlangni himoya qilib" ("V zashitu Temirlana") nomli maqolasidir. Bu maqola "Turkestanskiy kuryer" gazetasining 1909-yil 104-sonida hamda "Turkestanskiy sbornik"ning 508-jildida bosilib chiqdi. I. Sluskiy maqolada Amir Temur haqidagi "Na rubeje" gazetasida berilgan maqolaga e'tiroz bildiradi. Chunki bu gazetada, I. Slusskiy ta'biri bilan aytganda, "buyuk Temurlang ruhiga bo'hton yog'dirilgan edi". U o'z fikrini quyidagicha isbotlaydi: "Temurlang Sharqning butun dunyoga mashhur ilm ahllarini, me'morlarini bir joyga to'pladi. Samarqandda amalga oshirilgan ishlar hozirgacha kishilarni hayratga solmoqda. Osiyoning yarmiga hukmronlik qilgan Temurlangning tashabbusi bilan uning qo'l ostidagi nasroniylar ham, butparastlar ham va musulmonlar ham o'zaro tinch-totuv munosabatda bo'lishgan. U savdo-sotiq, sanoatga homiylik qilgan, uning davrida Samarqandga Pekin, Hindiston, Genuya, Venesiyadan savdogarlar kelib turishgan. Chunki unga qarashli barcha viloyatlarda karvon yo'llari xavfsizligi ta'minlanib, qaroqchilik yo'qotilgan edi. O'ziga xos yagona kutubxona asoschisi, me'morlar, olimlar, shoirlar, sanoat va barcha tinch fuqarolar homiysi bo'lgan Temur Ko'ragon tarixda yuksak mavqyega ega va uni varvarlar yo'lboshchisi, deb atash mumkin emas". Ko'rinib turibdiki, I. Sluskiy Amir Temurning ko'plab ijobiy xislatlarini ta'kidlagan. U Sohibqironning ilm ahllari va me'morlarga, savdogarlar va hunarmandlarga homiylik qilishini eslatib o'tadi. Lekin uning eng e'tiborni jalb etadigan, boshqa mualliflarda uchramaydigan fikri Amir Temur davlatida nasroniylar, budparastlar va musulmonlarning tinch-totuv yashaganligi haqidagi bayonidir. Tarixiy manbalarda ham bu to'g'rida deyarli ma'lumot uchramaydi. Lekin, shunga qaramay, har holda Samarqandga keltirilgan hunarmandlar orasida nasroniylar, budparastlar ham bo'lgan, deb taxmin qilishimiz mumkin. Ular Samarqandda qaysi dinga e'tiqod qilishgan, majburan islom diniga o'tkazilganmi yoki o'z dinlariga bemalol e'tiqod qilganlarmi? Bu haqda manbalarda aniq

ma’lumotlar yo‘q. Manbalardan faqat Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” asarida Temur askarlari orasida turli din vakillar bo‘lganligi aytiladi. Bu haqda ibn Arabshoh bunday yozadi: “Temur askarlari orasida budparast turklar, olovga sajda qiluvchi majusiy ajamlar, kohinlar, sehrgarlar, zolimlar, munkirlar bor edi. Budparastlar o‘zlarining sanamlarini ko‘tarib yurar, kohinlar esa o‘z kalomlarini sajь bilan ifoda qilardilar” Ibn Arabshohning ma’lumotlariga ehtiyotkorlik bilan yondashish, tanqidiy o‘rganish zarurligi qat’iy xulosa chiqarishga imkon bermaydi. I. Sluskiy rus tarixchisi T.N. Granovskiyning fikrlariga va ispan elchisi Klavixoning shu to‘g‘ridagi ma’lumotlariga tayangan bo‘lishi mumkin. Chunki ular ham Samarqand shahrida olovga sig‘inuvchi hindlar musulmonlar bilan birga yashaganliklarini ta’kidlab o‘tganlar.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Amir Temurning bolalik-yillari haqidagi rus, tatar, arman manbalaridagi ma’lumotlarni keltirib o‘tgan muallif asosiy e’tiborni baribir Sohibqironning “Tarjimai holi”ga qaratadi va voqealar rivojini shu asosda yoritadi. Asarda Amir Temurning maktab va madrasada juda yaxshi bilim olganligi, shuning uchun diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallaganligi ta’kidlab o‘tilgan. V.Cherevanskiy Amir Temurni “Temur tuzuklari” va “Tarjimai hol”ning muallifi deb tan olib, bunday yozadi: “Yozilgan narsa avlodlarga meros sifatida qilingan ishdan ko‘ra uzoqroq yashaydi”, degan gapga amal qilgan Temur o‘z farzandlariga va nabiralariga “Hasbi hol” va “Tuzuklar” kabi ikki muhim adabiy yodgorlik qoldirdi. Ayrim gap-so‘zlarga ko‘ra, ushbu har ikki insho aynan uning qalamiga mansub. Uning nafaqat turkiy, balki forsiy tilini ham yaxshi bilishini e’tiborga olsak, bu gapga ishonish mumkin”. Shuningdek, muallif Amir Temurning kutubxona va kitoblarga bo‘lgan munosabati haqida ham qator ijobiy fikrlar bildiradi. “O‘ljalar orasida,-deb yozadi V. Cherevanskiy,-Bursada qo‘lga kiritilgan kutubxona ham bo‘lgan, deb taxmin qilish mumkin. Shafqatsiz g‘azabning uchqunlari chirsillab turgan lahzalarda olimlarga shafqat in’om qilib, ularni askarlardan avaylagan Temur yilnoma va kitoblarni sevimli kishilarning ijod mahsulidek e’zozlardi. Odamlarning aytishlaricha, Armaniston va Bursa kutubxonalari bezarar, omon qolgan bo‘lib, foydalanish uchun faqat chuqur bilimli ulamolargagina kirish ruxsat etilgan, minorada saqlagan. Vaqt va O‘rta Osiyoning talon-taroj qilinishi bu bebaho xazinaning izlarini tekislab yubordi”. Muallif bu fikrlarini bildirayotganda arman manbalariga suyangan bo‘lsa kerak, chunki arman tarixchilari Amir Temur Armanistondan qaytayotganda arman yilnomalarini yig‘ib, olib ketganligini ta’kidlaganlar.

Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, tarix ko‘p bora qancha kitoblarni yoqib kul qilgan buyuk fotihlarni ko‘rgan. Xristian diniga mansub arman tarixchilarining asarlarini Samarqandga keltirib saqlanishi esa Amir Temurning yana bir o‘ziga xos jihatini namoyon qiladi.

Ko‘plab tarixchilar qatori V. Cherevenskiy ham Amir Temurning me’morchilikka bo‘lgan havasini ko‘p bor qayd etadi. Sohibqiron o‘zining har bir g‘alabasini biror bino yoki bog‘ qurish bilan nishonlaganligini ta’kidlaydi. Amir Temurning me’morchilikka qanchalik qiziqqanligini muallif quyidagicha izohlaydi: “Biroq elchilar Temur Samarqandga kelishi bilan bizni qabul qiladi, deb xato o‘ylagandilar. Ular va hatto o‘z vazirlaridan avval Temur me’morlarni,

bog‘bonlarni va sangtaroshlarni qabul qildi. Ular Sohibqiron oldiga rang-barangligi bilan eng nozik did talablarini ham rom eta oladigan tarhlar, rejalar va namunalarni olib kelishdi”.

M.I. Ivanin Amir Temurning nihoyatda jasurligini ta’kidlaydi va bir necha misollar keltiradi. Quyida ulardan birini keltiramiz: “Amir Temur o‘zining o‘ta ehtiyotkorligi va mulohazakorligiga qaramasdan, Iskandar Zulqarnayn kabi, xuddi oddiy jangchiday eng mardonavor ishlarga ham qo‘l urishni sevardi. Kunlardan bir kun Gang daryosining qarama-qarshi qirg‘og‘ida 10000ga yaqin hind piyoda va otliq jangchilari turganini eshitib, u o‘z ixtiyorida bo‘lgan 1000 kishilik xos navkarlari bilan daryodan suzib o‘tib dushmanga tashlandi va ularni tum-taraqay qochishga majbur qildi.”

M.I. Ivanin yana Amir Temur o‘z askarlariga nihoyatda mehribon bo‘lganligini, ularga doimo yordam bera olganligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, “Temur bosqinchi sifatida qahri qattiq bo‘lsa ham, lekin o‘z jangchilariga nisbatan juda jonkuyar va mehribon edi. Panjob daryosini kechib o‘tayotganda bir necha madorsiz jangchining g‘arq bo‘lganini eshitishi bilanoq, muhtoj bo‘lgan jangchilarga darhol o‘ziga tegishli, suvda suza oladigan ot va xachirlarni berishni buyurdi”.

***Ta’lim texnologiyalari:*** *aqliy hujum, insert, SWOT, "bumerang", muammoli ta’lim, keys-stadi, vizual materiallar, xotira mashqi.*

**Nazorat savollari va topshiriqlar:**

*1. Amir Temurning ota-onasi haqida qanday ma’lumotlar mavjud?*

*2. Tarixiy manbalarda Amir Temurning yoshlik yillari to‘g‘risida qanday qaydlar uchraydi?*

*3. Ibn Arabshohning Amir Temur shaxsi haqidagi fikrlarida nima uchun salbiy jihatlar ko‘p uchraydi?*

*4. Ispan elchisi Klavixoning esdaliklarida Amir Temur siymosi haqida qanday qaydlar uchraydi?*

*5. Keyingi davrlardagi hukmdorlarda Amir Temurga taqlid qilish holatlarini qanday izohlaysiz?*

*6. Amir Temur shaxsi bo‘yicha tadqiqotchilarning fikrlari qanday?*

*7. Amir Temur tomonidan qurdirilgan qanday tarixiy obidalar bizning kunimizgacha ma’lum?*

*8. Amir Temurning tarixiy shaxs sifatidagi faoliyatidan bugungi kundagi yosh avlodga nimalarni o‘rgatish mumkinligi haqida fikr yuriting.*

## MAVZU: QO‘SHINNING TUZILISHI, QUROLLANISHI VA JANG QILISH USLUBLARI.

**Reja:**

1. *Qo‘shinning tashkil etilishi, tarkibi va bo‘linmalari.*
2. *Amir Temur lashkarining qurollanishi.*
3. *Jang qilish uslublari, taktikalar.*

***Kalit so‘zlar:*** *ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi, otliq qism, tavochi, M.I. Ivanin, o‘nlik, yuzlik, minglik, tuman, “Temur tuzuklar”, amir, o‘qdon, kamar, nayza, gurzi, qalb, manglay, barong‘or, javong‘or, qanbul, hiravul, taxsh*

*(arbalet), kamon, tir, falaxun (sapqonga o‘xshash qurol), tiri nay cho‘pi (naysimon, havoning siqilishi hisobiga uzoqqa otadigan qurol), tiri charx, arroda (tosh otuvchi qurol), manjanaq.*

***Qo‘shinning tashkil etilishi, tarkibi va bo‘linmalari***

Amir Temur qo‘shini asosan ko‘chmanchi, yarim ko‘chmanchi va qisman o‘troq aholi vakillaridan tashkil topgan edi. Qo‘shinning asosiy qismini otliq qism tashkil etgan bo‘lsa, qolgan qismi piyoda va boshqa yordamchi qismlardan iborat bo‘lgan. Qo‘shinni yig‘ish, tayyorlash va ta’minlash masalalari bilan tavochi lamozimidagi mansabdor shug‘ullangan. Lashkar tuman, viloyat va uluslar kesimida yig‘ilgan va tartiblangan. Har bir tuman, viloyat va ulus kesimida yig‘ilgan qo‘shinga shu tuman, viloyat va ulus rahbari yoki u tomonidan tayinlangan shaxs (oliy hukmdor ruxsat bergan holatlarda) boshchilik qilgan. Yurishlar davomida harbiy sharoitdan kelib chiqib harbiy qismlar boshqa tuman, viloyat va uluslarning qismlari bilan aralash holda qayta tashkil etilishlari, qayta taqsimlanishlari holatlari ham uchragan. Ko‘chmanchi qabilalardan tuzilgan harbiy qismlar odatda qabilaviy bo‘linish asosida tashkillangan va harakatlangan. Lekin ular ham harbiy sharoit nuqtai nazaridan qayta taqsimlanishi, guruhlanishi holatlari ham uchraydi. Har bir jangchi yurish vaqtida ikki ot (asosan otliq qismlar uchun taalluqli bo‘lishi mumkin), kamon o‘qlari bilan, xanjar, qilich, jang boltasi, bir oyga etgulik em-xashak va oziq ovqat, chodir, qozon, kurak, o‘roq, igna, meshga ega bo‘lishi lozim edi. Aksariyat holatlarda qo‘shin ortidan o‘rda bozor harakatlangan. O‘rda bozorning savdogarlari qo‘shinni yetarli mahsulot bilan ta’minlab turishgan. Askarlar va ularning sarkardalari zarur mahsulotlarni shu o‘rda bozordan xarid qilishi mumkin bo‘lgan. O‘rda bozorning mavjud bo‘lishi qo‘shinni ortiqcha yuk bilan harakatlanishini oldini olgan va ta’minotdagi qallobliklarni oldini olgan.

Rus harbiy tarixchisi general-mayor M.I. Ivanin Amir Temur qo‘shinlarining doimiy g‘alabalari sabablarini ularning tarkibi, tuzilishi va harbiy taktik qoidalarining mukammalligidan, deb biladi. U bu qoidalar haqida shunday yozadi: “Amir Temurning bu yoki boshqa yurishlarini tasvirlashda avval o‘quvchini uning harbiy qarorlari va harbiy siyosiy qoidalari bilan tanishtirib o‘tmoqchiman. Bu qoidalarni uning o‘zi avlodlari uchun yozib qoldirgan”. M.I. Ivanin Amir Temur qo‘shinlari piyoda va otliq askarlardan tashkil topganligini, lekin piyodalar ham uzoq cho‘l safarlarida otlar bilan ta’minlanganligini, otliq askarlarning katta qismi esa kerak bo‘lganda piyoda tartibda jang qilishga ham o‘rgatilganligini bayon qilar ekan, shuning uchun Sohibqiron qo‘shinlari har qanday tabiiy sharoitda jangovar qobiliyatini saqlab qolganliklarini ta’kidlaydi.

Shuningdek, M.I. Ivanin Amir Temur qo‘shinlarida asosiy qo‘shin turlaridan tashqari ko‘p miqdorda yordamchi qismlar ham bo‘lganligiga ahamiyat beradi: “1) pontonchilar (ko‘chma ko‘priklar qurish ishlari bilan shug‘ullanuvchilar) va kemachilar (ular asosan, Amudaryo va Sirdaryoda kemachilik bilan shug‘ullanuvchi kishilardan tanlab olinib, kemalar va ko‘priklar qurish uchun ishlatilardi); 2) naftandozlar (Gregorian yoki yunon olovini otuvchilar); 3) qamal qilish mashinalari va tosh otuvchi qurollar ishlatishni biladigan jangchilar. M.I.

Ivaninning fikricha, Amir Temur boshchiligida qamal qilingan ko'plab qal'alar gregorian olovlarini otish va uloqtiruvchi qurilmalardan mohirona foydalanish natijasida qo'lga kiritilganligi qo'shinning shu turi juda katta malakaga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Amir Temur olib borgan qamal jarayonlari u yunonlar va rimliklar qal'alarni ishg'ol qilish uchun qo'llangan usullarni yaxshi bilganligini ko'rsatadi. Boyazidga qarshi bo'lgan jangda Amir Temur gregorian olovini otuvchi moslamalarni fillar ustiga o'rnatib, jangga kiritdi; 4) tog'larda olib boriladigan janglar uchun Amir Temur tik qoyaliklarga chiqa oladigan, tog'larda bo'ladigan janglarga ko'nikkan, tog' aholisidan tashkil topgan maxsus piyoda qismga ega edi. Bu qism jangchilari Amir Temurga daralar, tog' yo'llari va tog'larda joylashgan qal'alarni qo'lga kiritishda katta xizmat ko'rsatdi".

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Amir Temur qo'shinlarni tashkil etishda muhandislik harbiy qismlariga ham katta ahamiyat bergan. Xuddi shu hislatni temuriylarning harbiy yurishlarida ko'plab uchratish mumkin. Bobur mirzoning Hindistonni zabt etishida juda ko'plab daryolarni ko'chma ko'priklar yordamida kechib o'tganligi va dushman ustiga kutilmaganda bostirib borish imkoniyatiga ega bo'lganligi ma'lum. Amir Temurning harbiy taktikasini evropaliklar yaxshi o'rganganliklari va o'zlari ham qo'llaganliklarini quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin. M.I. Ivanin ta'kidlagan, Amir Temur Boyazidga qarshi jangda gregorian olovini otuvchi moslamalarni fillar ustiga o'rnatib jangga kiritganligi keyinchalik ingliz qo'shinlari 1858-yilgi Dehli shahrida bo'lib o'tgan sipohiylar qo'shinlarining qo'zg'olonini bostirish chog'ida qo'llaydilar. Ular Dehli shahrini shturm qilish chog'ida to'plarni tuyalar va fillar ustiga o'rnatib jangga kirganlar hamda g'olib chiqqanlar.

Amir Temur qo'shinlari ham qadimgi turkiy odatlarga ko'ra o'nliklar, yuzliklar, mingliklar va tumanlarga bo'lingan bo'lib, ular o'nboshi, yuzboshi, mingboshi va amirlar kabi harbiy boshliqlar tomonidan boshqarilgan. "Temur tuzuklar"da 12 ming kishilik qo'shinni safga tizish tuzugi keltirilgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, zarur hollarda bu 12 ming kishilik qo'shin bir tumanni tashkil etgan bo'lishi mumkin. Amirlarning 12 darajaga bo'linganligini ham shu bilan izohlash o'rinlidir. Chunki o'n ikkinchi darajali amir 12 ming va undan ko'proq qo'shinga boshchilik qilardi.

Amir Temurning qurol-yaroq saqlash, harbiy yurish zahiralari yaratish, unvon berish, boshliqlar huquqi va maosh tayinlash tartiblarini "Temur tuzuklari"da to'liq bayon qilgan. Ivaninning fikricha, "Amir Temur qo'shinida, u o'z bitiklarida bu haqda hech narsa demagan bo'lsa-da, ellikboshi va yuzboshilar ham bo'lgan bo'lsa, ehtimol". Shuningdek, askarlarning o'zlari bilan olib yurishlari shart bo'lgan o'q miqdori "Temur tuzuklari"da qat'iy belgilangan bo'lsa-da, jang oldidan o'qlar soni maxsus buyruqqa binoan ko'paytirilishi mumkin edi. "To'xtamishga qarshi bo'lgan yurishda har bir jangchiga 30 tadan o'q olish buyurilgan edi".

M.I. Ivanin Amir Temurning qo'shinlariga tayinlangan maosh va mukofotlash tartibiga katta e'tibor qaratgan. Lekin bir necha bahsli fikrlar ham bildirilgan. Masalan, M.I. Ivanin yozadi: "Pul munosabatlari bilan yaxshi tanish bo'lmagan ko'chmanchi xalqlar buyumlar qiymatini odatda ot, qo'y, tuya va

boshqa narsalarning bahosi bilan o‘lchaydilar. Shu tufayli Amir Temur jangchi maoshini shu jangchiga tegishli otning narxiga teng qilib belgilardi”. Bizningcha, muallifning bu fikri noto‘g‘ridir. Bu haqida ushbu asarning Toshkent nashri muharrirlari Yunus Muzaffar va Urfon Otajonlar qo‘yidagicha fikr bildirishgan: “Amir Temur pul qadri va narx-navo o‘zgarganda jangchilar zarar ko‘rmasliklari uchun maoshni shunday tayinlagan. Narx-navo o‘zgarishi tufayli qimmatchilik bo‘lib ketadigan hollarni nazarda tutib ot narxini maosh uchun mezon qilgan. Bu hol Amir Temurni iqtisodiyotni nihoyatda chuqur bilishidan va avom muhofazasini o‘ylab ish yuritganidan dalolat beradi”.

Mazkur fikrlarga qo‘shilgan holda, “shu jangchiga tegishli otning narxiga teng” so‘zlariga e’tiborni qaratmoqchimiz. Demak, maosh har bir jangchining o‘z otining narxi bilan belgilangan. Har bir jangchining oti boshqasinikidan farq qilgan. Bu hol o‘z navbatida jangchilarning maoshi har xil bo‘lishiga olib kelgan. Natijada jangchi doimo sifatli otga ega bo‘lishga, otni doimo yaxshi holatda saqlab turishga majbur bo‘lgan. Chunki, uning maoshi shunga bog‘liq edi.

M.I. Ivanin piyoda askarlar otliq askarlardan ko‘ra ko‘proq maosh olganliklariga e’tibor beradi. Uning fikricha, piyoda askarlarning katta maosh olishi ularni xizmati sharafliroq va otliq jangchilarnikidan mashaqqatliroq bo‘lgani bilan bog‘liq. Piyoda askarlar saralangan va sinalgan jangchilardan iborat bo‘lganligi, ularni ta’minlash xazinaga qimmatga tushishi sababli ular ko‘p sonli bo‘lmagan. Maosh, asosan, pul bilan to‘langan bo‘lsa kerak. Chunki arpa va bug‘doy bilan maosh to‘lash doimiy harbiy harakatda bo‘lgan, juda ko‘p hollarda oilasi bilan ko‘chib yurgan qo‘shin harakatini sekinlashtirib, og‘irlashtirib qo‘yishi mumkin edi. Maosh uchun berilishi kerak bo‘lgan arpa va bug‘doy juda katta miqdorni tashkil etganligi shubhasiz. Kichik Osiyoga yurishdan avval 200 mingdan oshiqroq qo‘shinga 7-yillik maosh birdaniga berilganligi fikrimizni isbotlaydi. Agar juda muhim bo‘lgan bu yurishdan avval don bilan maosh berilganda, Amir Temur qo‘shini bunchalik tezkor harakat qila olmagan bo‘lardi. Maosh to‘lashning natura usuli ayrim hollarda qo‘llangan bo‘lishi kerak.

Amir Temur qo‘shinlariga doimiy aniqlik, tezkorlik, bir zaylda saf tortish va muntazamlik xos bo‘lgan. Bu narsaga erishish esa yuz minglab askardan iborat lashkar uchun oson emas edi. Amir Temur lashkar harakatlarining aniqligiga har bir qismga maxsus rangli kiyimbosh kiydirish yo‘li va alohida bayroqlar bilan ta’minlash orqali erishgan. Shu sababli qismlar bir-biri bilan aralashib ketmagan. Ivaninning fikricha, “...Qizil bayroqqa ega qismlar shu rangdagi qalqon, egar, jabduq, o‘qdon, kamar, nayza, gurzi va boshqa aslahalarga ega bo‘lsalar, sariq, oq va hokazo rangda kiyingan qismlar jangchilari shu rangdagi qurol-yarog‘ va boshqa aslahalar bilan jihozlangan edilar. Qismlar qurollarning xillari bilan ham ajralib turardilar”.

Amir Temur qo‘shini markaz (g‘ul, qul, qalb), Manglay (avangard, oldingi qism), barong‘or (o‘ng qanot), javong‘or (chap qanot), qanbul (qanotlardagi maxsus qismlar), hiravul (aryergard-(frans. arriere — orqasida, garde — soqchi, qo‘riqchi, qorovul) – Yevropa davlatlari armiyalarida harbiy yurish, hujum yoki chekinish vaqtida asosiy kuchlarning ketidan boruvchi va ularning shu tomondan xavfsizligini ta’minlovchi qism. Turkiy xalqlar harbiy qo‘shinida soqa deb

yuritilgan.). Shuningdek, sharoitga qarab ilg‘or deb ataluvchi harbiy qismlar ham tashkil etilgan. Ular asosiy qo‘shindan ajralib chiqib, tezlik bilan oldinga siljishi orqali ham razvedka ishlarini olib borishi yoki dushmanga to‘satdan hujum qilish uchun tashkillangan.

***Amir Temur lashkarining qurollanishi***

Askarlarning qurollanishi ular xizmat qilayotgan qo‘shin turidan kelib chiqqan. Otliq harbiy qismlar yengil va og‘ir qurollangan kavaleriya qismlaridan iborat edi. Og‘ir qurolangan otliqlarning o‘zlari va otlari ham to‘la ko‘p qatlamli zirhli himoya vositalari (temir bilan qoplangan, bo‘yin qismi sim to‘r bilan himoyalangan dubulg‘a, qalqon, Jiba ya’ni, sim to‘rdan to‘qilgan kiyim, otlar ham sim to‘rdan to‘qilgan himoya vositasi bilan ta’minlangan) bilan ihotalangan va kamon, qilich, nayza, xanjar, jang boltasi va boshqa hujum qurollari bilan qurolangan.

Yyengil qurollangan otliqlar esa dubulg‘a, jiba va qolqon bilan himoyalangan bo‘lib, ularni otlari deyarli himoya vositalari bilan ta’minlanmagan. Bu kabi harbiy qismlarning qolqonlari ham, asosan, charm qoplangan taxtadan iborat bo‘lgan. Qurollari esa kamon va qilichdan iborat bo‘lib, bu kabi harbiy qismlar tez harakat qilishga, erkin manevr qilishga mo‘ljallangan. Qo‘shinning asosiy qismini yengil qurollangan otliqlar tashkil etgan.

Piyoda askarlar ham mukammal himoya vositalari bilan ta’minlangan. Ular uzoq mosafada jang qilish uchun kamon, o‘rta mosofada jang qilish uchun piyodalar nayzasi (o‘rtacha olti metrli), yaqin masofada jang qilish uchun qilich va xanjarlar bilan qurollangan. Ularning qalqoni to‘ra deb atalgan va diyarli odam bo‘yli bo‘lgan. Himoyalangan holatlarda to‘ralar bir biriga bog‘lanib, ular orasidan olti metrli nayzalar chiqarib qo‘yilgan. Qal’alarga hujum qilishda ham piyodalarning to‘rasi asosiy himoya vositasi bo‘lib, ularning panasida qal’a devoriga yaqinlashilgan.

Umuman olganda qurollar ikki turga bo‘lingan. Yaqin masofada jang olib borish qurolari nayza, qilich, shamshir, xanjar, gurzi, bolta va boshqa qurollar ishlatilgan bqlsa, uzoq masofadan jang qilishda taxsh (arbalet), kamon, tir, falaxun (sapqonga o‘xshash qurol), tiri nay cho‘pi (naysimon, havoning siqilishi hisobiga uzoqqa otadigan qurol), tiri charx, arroda (tosh otuvchi qurol), manjanaq kabi qurollar ishlatilgan.

Amir Temur va temuriylar qo‘shinida o‘t otar qurollar ham qo‘llanilgan. Ular qatorida taxsh (u bilan ichida poroxi bor yadrolarni otish mumkin edi), kamoni ra’d, qozon, to‘fang kabi qurollardan foydalanilgan.

Tiri charx va arrodalardan qanday foydalanilganligi va shaharlarni jang bilan egallanishi yoki uning himoya qilinishini 1972-yilgi Kot jangi misolida ham ko‘rishimiz mumkin. 1372-yilda Kot shahrining Sohibqiron lashkari tomonidan zabt etilishi tasviri ushbu qal’aning mudofaa inshootlari va imkoniyatlari haqida birmuncha tasavvur beradi. “...Kot hisoriga etdilar, – deb yozadi Nizomiddin Shomiy, – u yerda Bayramxoja Yasovul Husayn So‘fi tomonidan shixna edi, Muayyad qozi esa hukmronlikka sherik edi. Lashkar u yerga yetkanida nochor hisor darvozasini mahkam berkitdilar va arroda, tiri charxlarni tayyorlab turdilar. Amir Sohibqiron buyrug‘iga ko‘ra askarlar o‘tin va xas-xashak yig‘ib kelib,

xandaqni to‘ldirdilar. ...Xumori Yasovulga ishora qilgan edi, u farmonga bo‘ysunib, handaqqa tushdi. ...Buni ko‘rgan lashkarlar to‘xtovsiz xandaqqa tushdilar va suvdan kechib o‘tdilar. Shayx Ali bahodir birinchi galda fasilga ko‘tarildi”[247]. Sharafuddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy va Xondamirlarning asarlarida ham voqea deyarli shunday bayon qilingan[248]. Muiniddin Natanziy va Fasih Xavofiylar esa Kot qal’asida bo‘lib o‘tgan jang tafsilotlariga to‘xtalmaganlar[249].

Manbalardagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, Kot shahri qal’a devori, ya’ni hisor bilan o‘rab olingan. Afsuski, hisorning bo‘yi va eni haqida ma’lumot berilmagan. Jang haqidagi matnlardan kelib chiqsak, qal’a devorlari juda ham baland bo‘lmagan. Deyarli barcha mualliflar qal’aning darvozasi haqida so‘z yuritganlar. Ya’ni, qal’a darvozasiga nisbatan ko‘plik qo‘shimchasini qo‘llamaganlar. Bu esa Kot qal’asining yagona darvozasi bo‘lganligi xususidagi xulosaga olib keladi. Lekin yozma manbalarga tayanib, masalaga to‘la aniqlik kiritib bo‘lmaydi. Shahar mudofaa devoridan tashqari handaq bilan ham himoyalangan. Qal’aga hujum boshlanishidan avval handaq Amir Temurning farmoniga ko‘ra o‘tin va xas-hashak bilan to‘ldirilgan. U anchagina keng va chuqur bo‘lganligi uchun to‘liq to‘ldirishga muvaffaq bo‘linmagan. Shuning uchun ham Ko‘cha Malik ismli bek handaqqa tushishdan bosh tortgan[250]. Nizomiddin Shomiyning ta’kidlashicha, handaqqa kirgan askarlar ham suvdan kechib o‘tishga majbur bo‘lganlar[251]. Janglardagi eng katta yo‘qotish ham aynan handaqdan o‘tish jarayonida yuz bergan. Chunki uni kechib o‘tayotgan askarlar qal’a devorlari ustidan yog‘dirilayotgan o‘q va toshlardan o‘zlarini himoya qila olmaganlar. Shubhasiz, handaq Kot shahri mudofaa inshootlarining eng muhim qismlaridan biri bo‘lgan.

Shu o‘rinda Kot shahri himoyachilari tomonidan ishlatilgan harbiy texnikalar haqida ham to‘xtalib o‘tish lozim. Chunki ularsiz Kot shahrining mudofaa imkoniyatlarini to‘la tushunib bo‘lmaydi. Yuqorida ko‘rganimizdek, Nizomiddin Shomiy kotliklar arroda va tiri charxlarni jangga tayyorlaganliklarini ta’kidlagan. Ma’lumki, arroda murakkab harbiy texnika bo‘lib muhosara vaqtida qal’a devorini buzish uchun qo‘llanilgan, g‘ildirak ustiga o‘rnatilgan, katta toshlarni otishga moslangan maxsus qurilmadir[252]. Tiri charx esa aylanib o‘q otuvchi harbiy qurilma hisoblanadi. Unda ko‘p holarda temirdan yasalgan uchi uchli o‘qlar dushman tomonga otilgan. Shuningdek, snaryad shaklidagi ichiga porox solingan o‘qlar yoqilgan holatda raqib ustiga uloqtirilgan. Ba’zi vaqtlarda

---

[247] Шомий. Зафарнома. – Б. 92; نظام الدين شامى. ظفرنامه. خردادنامه: طهران، 1944. – ص. 62

[248] Йаздий. Зафарнома.– Б. 73; شرف الدين على يزدى. ظفرنامه. بتصحيح و تحشيه سالک مسالک صدق و سداد خير خواه عباد مولوى محمد الهداد. جلد اول. کلکته. 1887. ص237; حافظ ابرو. زوبة التواريخ. مقدمة، تصحيح و تعليقات: کمال حاج سيد جوامى. در چهار جلد. تهران، 1380. ص498;

249 Натанзий . Мунтахаб ут-таворихи Муиний. –Б. 121; Хавофий. Мужмали Фасиҳий: – Б. 124; Хондамир. Ҳабиб ус-сийар…– Б. 81.

250 Шомий. Зафарнома. – Б. 92; نظام الدين شامى. ظفرنامه. خردادنامه: طهران، 1944. – ص. 60; Йаздий. Зафарнома.– Б. 73-74; شرف الدين على يزدى. ظفرنامه. بتصحيح و تحشيه سالک مسالک صدق و سداد خير خواه عباد مولوى محمد الهداد. جلد اول. کلکته. 1887. ص237; حافظ ابرو. زوبة التواريخ. مقدمة، تصحيح و تعليقات: کمال حاج سيد جوامى. در چهار جلد. تهران، 1380. ص498;

251 Йаздий. Зафарнома.– Б. 73; شرف الدين على يزدى. ظفرنامه. بتصحيح و تحشيه سالک مسالک صدق و سداد خير خواه عباد مولوى محمد الهداد. جلد اول. کلکته. 1887. ص237; حافظ ابرو. زوبة التواريخ. مقدمة، تصحيح و تعليقات: کمال حاج سيد جوامى. در چهار جلد. تهران، 1380. ص498;

[252] Шомий. Зафарнома. – Б. 506.

esa neft to‘ldirib, yondirilgan tarzda ham irg‘itilgan[253]. Bizningcha, kotliklar bu jangda tiri charx orqali uchi uchli o‘qlarni raqib ustiga yog‘dirganlar. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, aslida bu qurollar asosan qal’alarni shturm bilan egallashda qo‘llanilishga mo‘ljallangan. Lekin ular shaharni himoya qilishda ham juda katta samara bergan. Bu haqida Sharafuddin Ali Yazdiy ham alohida to‘xtalib o‘tgan:

*“Chu ikki tarafdin urush bo‘ldi tang,*
*Yarash eshigin bog‘ladilar chu sang.*
*Ravon ettilar o‘q va tosh qal’din*
*O‘q va tosh bilan to‘ldi ro‘yi zamin”*[254].

Kot shahri himoyachilarida arroda va tiri charxlarning mavjudligi hamda jang vaqtida ulardan samarali foydalanilganligi qal’aning harbiy imkoniyatlari yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi.

Amir Temur qo‘shinidagi shaharlarni qamal va shturm qilish qurollarining ishlatilishi va Urganchning mudofaa inshootlari hamda ularning imkoniyatlari Amir Temurning 1379-yilgi hujumi vaqtida ham ko‘zga tashlangan. Shu yurish davomida Sohibqiron birinchi bor qal’ani to‘liq o‘rab olishni buyurgan va uni uch oy o‘n olti kun qamal qilgan[255]. “Ertasi kuni,-deb yozadi Natanziy,-Amir Sohibqiron ko‘chishni buyurib, qal’a devori yaqiniga kelib joylashdi. Shundan so‘ng manjaniq va arrodalar uchun tepaliklar bunyod etish hamda ra’d va qarobug‘rolarni sozlashga boshladilar. Manjaniqning sopqonidan otilgan dastlabki tosh qarshidagi minoraning qubbasini urib tushirdi. Boshqa bir tosh Yusuf So‘fi qasrining peshtoqiga borib tegdi va uch qavatni vayron etib, qariyb yuz gaz devorni qulatdi. ... Shahar muhandislari manjaniq toshlariga qarshi tadbir sifatida ichiga somon va paxta to‘ldirilgan teri qoplar tayyorlashni o‘ylab topishdi. Amir Sohibqiron neft idishlaridagi (yonuvchan) moddani o‘q uchida ularning bu moslamasiga qaratib otishni buyurdi” [256].

Natanziyning bu ma’lumotlari bir necha xulosalarni keltirib chiqaradi: Birinchidan, shaharning mudofaa devorlari anchagina baland bo‘lganligi uchun Amir Temur o‘z qamal texnikalari samaradorligini oshirish maqsadida sun’iy tepaliklar qurib, ularning ustiga manjaniq, arroda, ra’d va qarobug‘rolar o‘rnatilgan. Shu jangda Amir Temur ilk bor o‘t sochar qurollardan foydalangan.

Ikkinchidan, qamal texnikalari va o‘t sochar qurollar orqali zarbalar asosan qal’aning minoralari va burjlariga berilgan. Chunki qal’a himoyachilari uchun burj va minoralar orqali hujum qiluvchilarni o‘qqa tutish qulay edi.

Uchinchidan, qal’a himoyasining nozik tomoni sifatida hokim qasrini qal’a burjiga yaqin qurilganligini ko‘rishimiz mumkin. Manjaniqdan otilgan toshlarning qasrga yetib borganligi ham buni tasdiqlaydi, qolaversa Shomiy ham hokim qasri

---

[253] O‘sha asar. – Б. 517.
[254] Йаздий. Зафарнома.– Б. 73; شرف الدين علی يزدی. ظفرنامه. بتصحيح و تحشيه سالک مسالک صدق و سداد خير خواه عباد مولوی محمد حافظ ابرو. زوبة التواريخ. مقدمة، تصحيح و تعليفات: كمال حاج سيد جوامی. در چهار جلد. تهران، . ;الهداد. جلد اول. كلكته. 1887. 237ص 498ص 1380
[255] Хондамир. Ҳабиб ус-сийар...– Б. 95.
[256] Натанзий . Мунтахаб ут-таворихи Муиний. – Б. 123.

qal’a burjida solinganligini ta’kidlagan[257]. Aynan qasrning vayron bo‘lishi ham shahar himoyachilarining jangovar ruhiga salbiy ta’sir qilgan.

***Jang qilish uslublari, taktikalar***

Amir Temurning jangda qo‘llagan taktik qoidalari va uning jangovar saflari rus harbiy tarixchisi M.I. Ivanin tomonidan keng o‘rganilgan. “O‘sha davrlarda,-yozadi u,-deyarli barcha xalqlar urush vaqtida tartibli saflarda tizilmasdan, to‘da-to‘da bo‘lib, taktik mulohazalarsiz jang qiladigan, o‘z jasurligiga berilib ketib, dushmanga tartibsiz ravishda tashlanadigan bir vaqtda Amir Temur lashkarlari tartibli saflarga tizilgan va bir necha qismlardan iborat bo‘lgan. Ular jangga birin-ketin kiritilib, nihoyat, so‘nggi hujumlar bilan dushman kuchsizlantirilib, holdan toydirilgach, eng saralangan jangchilardan tuzilgan, har doim g‘alabani ta’minlashi mumkin bo‘lgan, kuchli va bardam rezerv jangga kiritilardi”.

Amir Temurning 12 mingdan ko‘p bo‘lmagan, 12 mingdan 40 minggacha bo‘lgan va 40 mingdan oshiq bo‘lgan harbiy qismlarni jangovar safga tizish va harbiy xarakatlari to‘g‘risidagi tuzuklarini juda chuqur tahlil etgan edi. U bu tuzuklarni janglarda Amir Temur qanday qo‘llaganligini ham o‘rganadi. Shuningdek, M.I. Ivanin Amir Temur qo‘shinlarini g‘alabalarida zahira qism, ya’ni tarhning ahamiyati katta bo‘lganligini ta’kidlaydi. Katta miqdorda saralangan rezerv kuchlarini tuzish Amir Temur tomonidan kashf etilganligini va o‘sha vaqtdagi xalqlarda bu tushuncha hali deyarli bo‘lmaganligini alohida hayrat bilan bayon qiladi.

Amir Temur qo‘shinlari janglarda doimiy ravishda g‘olib chiqib, yengilmas qo‘shin sifatida mashhur bo‘lishiga qaramay, Sohibqiron o‘z lashkarini joylashtirishda, harbiy safarga chiqilgan vaqtda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan harakat qilardi. M.I. Ivanin Amir Temurning qo‘shinni lagerda joylashtirish to‘g‘risidagi tuzuklarini ham bayon qiladi. Bu tuzuklar qo‘shinni to‘satdan qilinadigan hujumlardan saqlashga qaratilgan edi, chunki o‘sha davrda Sharq xalqlarida tungi hujum — **shabixun urush** usuli juda ko‘p qo‘llanilardi. Shuningdek, harbiy safarga chiqilgan vaqtda ham asosiy kuchlarni kuchaytirilgan qorovul qismlar qo‘riqlab borardi. Aynan shu o‘ta ehtiyotkorlik sababli Misr sultoni qo‘shinlarining Damashq yaqinida Amir Temur qo‘shinlariga to‘satdan hujumi kutilgan natijani bermadi. Aksincha, hujum qilgan tomonning o‘zi batamom tor-mor keltirilib, sulton qo‘shinlari Misrga qochib ketdilar. Ibn Arabshoh jang oqibati haqida shunday yozadi: “Misr askarlari qochishga azm qilgan bo‘lib, ularda na sabotu, na qaror qolgan edi”.

Qo‘shni davlatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar 1000 kishilik yengil bo‘linmalar orqali to‘planardi. Bizningcha, bu usul faqat harbiy yurishlar chog‘ida qo‘llanilgan bo‘lsa kerak. Amir Temur savdo karvonlari yordamida ham turli mamlakatlar haqida ma’lumotlar to‘plashga intilgan. Amir Temur o‘z mamlakatiga kelgan savdogarlar, sayyohlar va olimlarni alohida homiylik bilan kutib olar, yashirin ravishda maxsus kishilar tayin etib, ular orqali o‘zini qiziqtirgan ma’lumotlarni bilib olardi. Bu maxsus kishilar chet elliklarning doimiy xizmatida bo‘lib, ularni ko‘nglini olishga intilardi. Kerakli ma’lumotlar to‘plash uchun esa boshqa

[257] Шомий. Зафарнома. – Б. 111.

mamlakatlarga, asosan, darveshlar jo‘natilar edi. Manbalarda Amir Temurning nafaqat qo‘shni mamlakatlar, balki olisdagi yurtlar haqida ham barcha zarur ma’lumotlarga ega bo‘lganligini tasdiqlovchi ma’lumotlar bor. Bu esa Amir Temur qo‘lida anchayin katta razvedka apparati bo‘lganligini ko‘rsatadi. Masalan, Amir Temur va Ibn Xaldun o‘rtasidagi suhbatni olaylik. Ibn Arabshoh bu suhbatni quyidagicha bayon qiladi: “So‘ngra Temur o‘z odatiyu fe’liga ko‘ra Ibn Haldundan Marg‘ib shaharlari va erlari vasfini so‘rab, uning mavze’lariyu yo‘llari, qishloqlariyu so‘qmoqlari, qabilayu xalqlarini (batafsil), aniq bayonlab berishni so‘ragan. Bundan maqsad Ibn Haldunni imtihon qilish bo‘lib, Temur bu narsalarga muhtoj emas edi. Chunki uning tasavvur xazinalarida butun mamlakatlar suratlari mavjud edi”. Demak, Amir Temur Yaqin Sharqqa yurish boshlashidan oldinroq Marg‘ib mamlakatlari haqida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lgan. Bu Amir Temurga kelajak yurishlarning rejalarini tuzishda qo‘l kelgan. Albatta, Amir Temur bu o‘rinda yirik razvedka tashkilotiga tayangan bo‘lishi kerak.

Xivaga qilingan 1839-yilgi harbiy yurish barbod bo‘lganligi sababli ham M.I. Ivanin Amir Temur qo‘shinlarini harbiy yurishlar vaqtida qurol-yarog‘, oziq-ovqat zahirasi bilan ta’minlanishi masalasini keng o‘rganadi. Avvalo, uning harbiy safar vaqtida qo‘shin va qo‘shin ortidagi zahiralarning miqdori haqidagi fikri e’tiborga molik: “Amir Temur qo‘shinlari ketidan juda ko‘plab aravalar, bevosita jangda qatnashmaydigan amaldorlar, qo‘shin sonidan deyarli uch marta ko‘p bo‘lgan otlar borishi kerak edi. Qo‘shimcha qurol-yaroq aftidan yukchi ot va tuyalarga yuklatilardi. O‘zining oxirgi yurishlarida Amir Temur qo‘shinida Gregorian olovini, tosh va boshqa narsalar otadigan mis qozonlar, manjanaq, qamal uchun ishlatiladigan moslamalarni o‘rnatish uchun kerakli asbob-uskunalar bor edi, bularga yana talon-taroj qilingan mol-dunyolar, asirlar va chorva mollarini ham qo‘shadigan bo‘lsak, qo‘shin ketidan qanchalik ko‘p aravalar borishini tasavvur qilsa bo‘ladi”.

Agarda M.I. Ivanin fikriga tayanadigan bo‘lsak, 200 ming kishilik qo‘shin yurishga chiqqan vaqtda qo‘shin ortidan kamida 500 ming ot borishi kerak edi. Bunchalik katta karvonni qo‘riqlash, yuqori tezlikda harakat qilish Amir Temurdan kuchli tashkilotchilikni talab qilardi. Shuning uchun ham M.I. Ivanin Amir Temurning lashkari va lashkar ortidagi qismlari o‘z davri uchun juda tez harakat qilganligini ta’kidlaydi va uning harbiy salohiyatiga qoyil qoladi.

Muallif o‘z asarida Amir Temurning davlatlarni bosib olish uchun qo‘llangan harbiy-siyosiy qoidalari, davlatni boshqarish, vazirlarni tayinlash, soliq solish va rasmiy saroy marosimlarini tashkil etish to‘g‘risidagi tuzuklarini bayon qiladi. Lekin bu bayonida u “Temur tuzuklari” bilan cheklangan, boshqa manbalarga murojaat qilmagan. Bu yerda u “Temur tuzuklari”ni sharhlashga, kengroq tushuntirishga intilgan, xolos. M.I. Ivanin Amir Temur tuzuklarini bayon qilish oxirida quyidagi xulosaga keladi: “Mana shu qoidalar va chora-tadbirlar orqali Temur ulkan muvaffaqqiyatlarga erishdi. Uni dushmanlar ofati, fuqarolar otasi, jangchilar sajda qilsa arziydigan birdan-bir kimsa deb atashardi. O‘rta Osiyo xalqlari uchun Amir Temur buyuk hukmdorlar namunasi edi”.

M.I. Ivanin Amir Temurning harbiy yurishlarini juda chuqur tahlil qiladi, har bir harakatining mohiyati va sababini aniqlashga intiladi. U Amir Temurning

1391-yilda To‘xtamishxonga qarshi Oltin O‘rdaga qilgan yurishini ham jiddiy tahlil qilgan. 1390-yil kuzida urush boshlagan Sohibqironning oldida dushman eriga olib boradigan uch yo‘l borligini, ularning geografik tuzilishini, qulay va noqulay tomonlarini juda keng bayon qiladi. M.I.Ivanin tahlil qilgan bu yo‘llar quyidagilar edi: “1) Orol va Kaspiy dengizi o‘rtasidagi Ust-Yurt tepaliklari orqali; 2) Orol dengizining sharqiy tomonidan O‘rol daryosi o‘rta qismlari tomon; 3) Orol dengizining sharqiy tomonidan Shimoliy Tobol daryosigacha taxminan hozirgi Troisk va Zvenogolovsk qal’alarigacha Orenburg chegaralari bo‘ylab”[258].

Tarixdan ma’lumki, Amir Temur uchinchi yo‘lni tanlaydi. M.I. Ivanin tahlilida ham shu uchinchi yo‘l eng xavfsiz va qulay yo‘l ekanligi ta’kidlanadi. Harbiy safar chog‘ida Amir Temurning katta miqdordagi qo‘shinini oziq-ovqat bilan doimiy ta’minlab borishi, og‘ir vaziyatlardan ustamonlik bilan chiqib ketishi muallifning diqqat markazida turadi. Shuningdek, Amir Temurning To‘xtamishni o‘zi uchun qulay joylarga chekinishga majbur qilishi, jang maydonini tanlashi haqidagi mulohazalari ham keng tahlil qilingan. M.I. Ivaninning fikricha, Amir Temur To‘xtamishni o‘rmonzorlar orqali chekinishga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi. Chunki o‘rmonzorlar pistirmalar qo‘yish, to‘satdan hujum qilish uchun qulay edi. “Mohir sarkarda bo‘lgan Amir Temur o‘rmonning bu afzalliklarini yaxshi bilganligi uchun To‘xtamishni bu afzalliklardan unumli foydalanishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida chap tarafidan aylanib o‘tishga qaror qildi. Bu harakat bilan Amir Temur To‘xtamishxonning chekinish yo‘lini, ya’ni Volga daryosining burilish joyidagi (Samara va Chistopol shaharlari o‘rtasida) ko‘plab chorva mollari o‘tlab yurgan, yangi qo‘shinlar kelib qo‘shilishi mumkin bo‘lgan, ko‘chma poytaxti tomon borgan yo‘lni kesib qo‘yardi”. Yuqorida bayon qilingan vaziyatda To‘xtamish janub tomonga ham chekina olmas edi. Chunki bu chekinish uni daryoning yuqori qismidan kelishi mumkin bo‘lgan madad kuchlaridan uzoqlashtirib yuborar, daryo bo‘yidagi barcha boyliklar esa Amir Temur qo‘liga o‘tib ketar edi. Amir Temur bu boyliklar yordamida urushni yanada uzoqroq vaqt davom ettirishi mumkin bo‘ladi. Natijada To‘xtamish Qunduzcha jangiga kirishishga majbur bo‘ldi. Chunki bu yerda jang qilish To‘xtamish uchun ham bir oz qulay bo‘lib, Volga daryosining o‘tloqlik tomonidan to‘plangan behisob boyliklarni himoya qilish, jang boy berilganda esa janub tomonga chekinib, qo‘shinni saqlab qolish imkonini berardi. Lekin Amir Temur jang davomida To‘xtamishni janubga chekinish yo‘lini ham to‘sib qo‘yishga erishdi va uni butkul tor-mor qildi. Chekinishga ulgurganlar ham shunchalik tez ta’qib qilindiki, 200 chaqirim masofa mo‘g‘ul qo‘shinining murdalari bilan qoplandi. M.I.Ivanin To‘xtamish qo‘shini safida rus askarlari bo‘lganligini ham ta’kidlaydi. U bu harbiy yurishni o‘rganish chog‘ida Amir Temur qo‘shinlari o‘tgan yo‘llardan yuradi, sinchiklab o‘rganadi: “Men o‘zim ta’riflayotgan erlarda bo‘lganimda qalin o‘rmonlar ichida, shak-shubhasiz hujumlardan himoyalanish uchun qazilgan qadimgi chuqur xandaqlarni ko‘rganman”. Jang bo‘lgan erlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan muallif Amir Temurning bu harbiy yurishini harbiy san’atning durdonasi

[258] Иванин М. Икки буюк саркарда. – Б. 166.

sifatida tahlil qila olgan va uning harbiy dahosi ekanligini yana bir bor ta’kidlab o‘tgan.

M.I. Ivanin Amir Temurning 1398-1399-yilda Hindistonga qilgan yurishini ham keng tahlil qilgan. Bu yurish davomida Amir Temur qo‘shinlarining bir qismi 48 ta kemada Gang daryosidan suzib ketayotgan dushmanga hujum qiladi. Muallifning shu jang haqidagi quyidagi fikrlari e’tiborga molikdir: “Amir Temur ularga hujum qilishni buyurdi. Uning qo‘rqmas jangchilari daryoning tez oqimiga qaramay, o‘z otlari bilan suvga tashlandilar. Ularning ba’zilari dushmanni kamondan nishonga olgan bo‘lsalar, boshqalari kemaga yetib olib, unga tirmashib chiqdilar va qilich yalang‘ochlab dushmanga tashlandilar. Bunday jasur harakatdan qo‘rqib ketgan gebrlar hech qanday qarshilik ko‘rsata olmadilar va Temur qo‘shinlari kemalarni deyarli qarshiliksiz egallab oldilar. Tezoqar daryo to‘lqinlarida otliqlarning kemada suzib borayotgan dushman bilan olib borilgan bu jangi harbiy tarixda yuz bergan birdan-bir voqeadir”.

M.I. Ivanin tomonidan chuqur o‘rganilgan harbiy yurishlardan biri 1402-yili Sulton Boyazidga qarshi qilingan yurishdir. Bu yurishni boshlashdan avval Amir Temur yon tomonlarni, ya’ni Kavkazorti va Suriyani bo‘ysundirib, Misr sultonini sulh tuzishga majbur qila oldi. Hatto orqa tomonni to‘liq xafvsizlantirish uchun Bag‘dodni qaytadan zabt etdi. Sulton Boyazid Amir Temur bilan jangni Turkiyaning janubiy qismida bo‘lishini xohlardi, chunki bu yerdagi jangda Temur yengiladigan bo‘lsa, Suriya va Misr qaytadan qo‘zg‘olib, Boyazidga yordamga kelishi mumkin edi. Bu esa Temurga qayta kuch to‘plashga imkon bermas va butunlay halokatga olib kelardi. Boyazidda esa yengilgan taqdirda ham mamlakat ichkarisiga chekinib, qayta kuch to‘plash imkoniyatiga ega bo‘lardi. Lekin M.I. Ivanin ta’kidlaganidek, “Amir Temur Gurjistondan Boyazid qo‘shinlarining orqa tomonidan qilgan mahoratli harakatlari bilan urushni Kichik Osiyoning shimoliy qismiga ko‘chirishga erishdi.” Amir Temur Turk davlatining markaziga juda katta tezlik bilan harakat qildi. Amir Temur lashkari 3 kun ichida 150 km masofani bosib o‘tdi. M.I. Ivanin uning bu harakatini quyidagicha baholagan edi: “Shunchalik katta qo‘shin bilan qilgan bu harakatni o‘z o‘ljasini ko‘rib, unga tashlangan yo‘lbars harakati bilan tenglashtirsa bo‘ladi”.

Anqaraga yetib kelgan Amir Temur shaharni qamal qilishni buyurdi va shu yerda dushman bilan jang qilishga qaror qildi. Bu yer Amir Temur uchun juda qulay bo‘lib, yengilgan taqdirda kelgan yo‘li bilan chekina olar edi. Boyazid uchun esa Anqara mamlakat markazi bo‘lib, agar u shunday holatga tushsa, chekinib, qayta kuch to‘plashining iloji yo‘q edi. Boyazid bu yerga yetib kelgan paytda Amir Temur qo‘shinlari ancha dam olib, jangga hozirlikni tugatgan, Boyazid qo‘shini esa yo‘l yurib horigan edi. Uning ustiga Boyazid jangdan bir necha kun avval kunning issiq paytida katta ov uyushtiradi. Shu ov paytida issiqdan va suvsizlikdan 5000 kishi halok bo‘ladi.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, jang natijasi aslida, jangdan avval hal bo‘lgan edi. Boyazid qo‘shinlari jang davomida qurshab olindi va qirib tashlandi. Boyazidning o‘zi asir olindi. Shunday qilib, M.I. Ivanin Anqara jangi taqdiri Amir Temurning jang oldi tayyorgarliklari bilan hal bo‘lganligini ta’kidlaydi.

***Ta'lim texnologiyalari:*** *aqliy hujum, insert, SWOT, "bumerang", muammoli ta'lim, keys-stadi, vizual materiallar, xotira mashqi.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar:***

*1. Amir Temur qo'shinidagi askarlar ta'minoti uchun nimalarga e'tibor bergan?*
*2. Amir Temur qo'shini mudofaa va hujum vaqtida qanday harakatlangan?*
*3. "Temur tuzuklari" ga ko'ra Amir Temur qo'shiniga juda katta e'tibor berganligi haqida qanday qaydlar uchraydi?*
*4. Ibn Arabshoh Amir Temur qo'shini haqida to'xtalib, qanday ma'lumotlar qayd etgan?*
*5. Amir Temur jang olib borish taktikasida qanday o'zgarishlar qila olgan?*
*6. Qanday sababga ko'ra Amir Temur Qunduzcha jangida qo'shinni yetti qismga bo'ldi?*
*7. O'rta asrlar ko'p uchraydigan shabixun urushi atamasi qanday ma'noni bildiradi?*
*8. Qunduzcha, Terek, Anqara janglarida Amir Temur tomonidan qo'llanilgan jang taktikalariga e'tibor bering va mulohaza yuriting.*

# III BOLIM. TEMURIYLAR DAVRINING SIYOSIY TARIXI

## MAVZU: 1405-1409-YILLARDA MOVAROUNNAHRDA HOKIMIYAT UCHUN KURASH.

**Reja:**

1. *Valiahd masalasi.*
2. *Samarqand taxtining Xalil Sulton tomonidan egallanishi.*
3. *Farg'ona vodiysida Amir Xudoydod hukmronligining o'rnatilishi.*
4. *Movarounnahrda Xalil Sulton hokimiyatining nisbatan mustahkamlanishi.*
5. *Movarounnahrda Mirzo Shohrux hokimiyatining o'rnatilishi.*

***Kalit so'zlar:*** *Xalil Sulton, Panipat jangi, Anqara jangi, Xitoy yurishi, Pir Muhammad Jahongir, Balx, Kobul, G'azni, Qandahor viloyatlari, valiahd, Tog'ay Turkan og'o, Shohrux mirzo, "besh yillik urush", "yetti yillik urush", ichiki nizolar, Xalil Sultonning hokimiyat tepasiga kelishi, Shodi Mulk og'o, Baxt Mulk og'o, Amir Shayx Nuriddin, Amir Shoh Malik.*

***Valiahd masalasi***

Amir Temur vafotidan (1405) keyin boshlanib ketgan taxt uchun kurash Temuriylar saltanatining ijtimoiy-siyosiy hayoti va taraqqiyotini xavf ostiga qo'ydi. Sohibqiron davlatni boshqarishda o'g'illari, nabiralari va yirik amirlariga tayangan edi. Saltanat tayanchi bo'lgan ushbu kuchlar merosning ko'proq qismiga ega bo'lish maqsadida o'zaro siyosiy raqiblarga aylandilar. Bunda esa taxt uchun da'vogar bo'lgan shahzodalarning Amir Temur faoliyatining so'nggi yillarida saltanatning ichki siyosiy vaziyatida egallagan mavqei katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Dastlab Amir Temur vafotidan keyingi davr voqealarida muhim rol o'ynagan shahzodalardan biri Xalil Sultonning saltanat hayotida tutgan o'rniga e'tibor qaratildi.

Dehli yaqinida bo'lib o'tgan Panipat jangida Xalil Sulton birinchi marta harbiy sarkardalik mahorati va jasorati bilan ko'zga tashlandi. Shomiy, Yazdiy va Xondamirning ta'kidlashiga ko'ra, Xalil Sulton birinchilardan bo'lib dushman safi tomon ot choptirgan. 15 yoshli shahzoda jang chog'ida o'z askarlari bilan jangovar fillar ustiga shiddatli hujum qilganligi ham e'tiborga molik. Bu ayniqsa, Amir Temur qo'shinlari jangovar fillar oldida biroz sarosimaga tushgan vaqtda sodir bo'lganligi juda muhim edi. Xalil Sulton jang chog'ida bir jangovar filni Amir Temur oldiga haydab kelib, unga topshirganligi qo'shin ruhiyatini keskin ko'tarib yuborgan va oxir-oqibat g'alabaga olib kelgan.

Amir Temur 1402-yildagi Anqara jangi tugashi bilanoq Xitoy yurishiga tayyorgarlikning navbatdagi bosqichini boshlaydi. Yurishga tayyorgarlik ko'rish amirzoda Xalil Sultonga topshiriladi. U Turkistonga yetib borib, Oqsulotga joylashadi. Uning Xitoy chegaralari tomon chopqin qilganligi xususida ma'lumotlar yo'q. Shuning uchun Xalil Sulton asosan Movarounnahrning shimoli-sharqiy hududlaridagi Xitoyga olib boradigan yo'llar xavfsizligini ta'minlash va qo'shin safarni boshlaganda muammoga duch kelmasligi uchun ta'minot masalalarini hal qilish bilan shug'ullangan bo'lishi kerak.

Amir Temur 1404-yili Samarqandga yetib kelgach, Xalil Sulton yirik amirlar bilan birgalikda hukmdor huzuriga boradi va to‘y bahonasida tashkillangan qurultoyda qatnashadi. Qurultoyda Xitoy yurishi muhokama qilinib, tashkiliy masalalar bo‘yicha topshiriqlar beriladi. Manbalarda ta’kidlanishicha, Xitoy yurishiga 200 ming kishilik lashkar safarbar etiladi. Qo‘shinning o‘ng qanotiga rahbarlik qilish Xalil Sultonga yuklatiladi. Amir Temur Xitoy yurishida ko‘proq Mirzo Sulton Husayn va amirzoda Xalil Sultonga katta umid bog‘layotgandi. Bu esa Xalil Sultonning Amir Temur saroyidagi mavqei yuksalib borayotganligidan dalolat beradi.

Lekin kutilmaganda Xalil Sulton shaxsiy hayoti bilan bog‘liq muammolar paydo bo‘lib, uning obro‘yiga katta salbiy ta’sir qildi. Amir Temur Xalil Sultonni jiyanining qiziga uylantirgan bo‘lib, bu unga bo‘lgan e’tibor va kelajagidan umidvorlikning belgisi edi. Manbadagi ma’lumotdan ko‘rinadiki, Xalil Sultonning xotini Amir Temurga juda yaqin bo‘lgan va uning huzuriga kirib, arzini shaxsan yetkaza olgan. Mazkur holatda Amir Temur nabirasidan ranjiganligi tabiiy. Ayniqsa, Mirzo Pir Muhammad kafilligi bilan Shod Mulk omon qolganidan keyin ham o‘zboshimchalikning takrorlanganligi, Sohibqironni qattiq xafa qilganligi aniq. Lekin Xitoy yurishi arafasida yuz bergan bu ko‘ngilsizlikka qaramay Amir Temur bo‘lajak harbiy safarni muhim shaxslaridan biri bo‘lgan yosh shahzodani jazolamaslikni ma’qul ko‘radi. Garchi Xalil Sulton hali ham lashkarning o‘ng qanoti rahbari sifatida qolgan bo‘lsa-da, uning Amir Temur huzuridagi obro‘yiga katta putur yetkan edi.

Lekin kutilmaganda, Amir Temur O‘trorga ko‘chib kelganidan so‘ng ko‘p o‘tmay kasallanadi va bir hafta davom etgan xastalik natijasida Sohibqironning ahvoli kundan kunga og‘irlashib boradi. Amir Temur vafoti arafasida o‘z vasiyatini e’lon qiladi: “Endi Pir Muhammad Jahongirkim, valiahd qilibmen va o‘rnumg‘a qoyimmaqom etibmenkim, Samarqand viloyati aniki bo‘lg‘ay. Va istiqlol va tamkin bila o‘lturub, mamolik tadbirin va cherik va ra’iyat holidin xabardor bo‘lg‘ay. Sizlar, kerakkim, anga mute’ bo‘lub, ittifoq bila aning ishiga mashg‘ul bo‘lg‘aysiz, to olam buzulmag‘ay va musulmonlarga tashvish va zahmat bo‘lmag‘ay. Va necha yillik sa’yi qilg‘onim zoye’ bo‘lmag‘ay. Va andoq kerakkim, sizning ittifoqingiz bilib, el yiroqdin hisob olg‘aylar va hech kishiga ul quvvat bo‘lg‘aykim, muxolifat qila olg‘ay”. Bu vaqtda Amir Temur huzurida bo‘lgan amir Shohmalik va amir Shayx Nuriddin boshchiligidagi beklar hamda haram ahli vasiyatga sodiq bo‘lishga qasam ichadilar. Shu bilan birgalikda vasiyatni Sohibqironning o‘z tilidan eshitishlari uchun Toshkentda turgan amirzoda Xalil Sulton boshchiligidagi beklarni chaqirtirishni taklif qiladilar. Bu kelajakdagi nizolarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin edi. Lekin Sohibqiron vaqt o‘tganligini aytarkan, Mirzo Shohruxni ko‘rishni xohlaganligini bildiradi. Balki, bu bilan Amir Temur Mirzo Pir Muhammadning valiahd etib tayinlanishi bo‘yicha Mirzo Shohruxga izoh berishni istagandir. Shundan so‘ng kasallik yanada kuchayib, Amir Temur 1405-yilning 18-fevral kuni vafot etadi.

Amir Temurning vafot etishi temuriy shahzodalar o‘rtasida toj-taxt uchun shiddatli kurashning boshlanishiga olib keldi. Amir Temurning vasiyati bo‘yicha valiahd etib tayinlangan Mirzo Pir Muhammadning huquqi esa tan olinmadi.

Mirzo Mironshohni istisno etganda shahzodalar ichidan eng yoshi kattasi Pir Muhammad Jahongir edi. 1376-yili tavallud topgan shahzodaning otasi Amir Temurning katta o‘g‘li Mirzo Jahongir, onasi esa Baxt Mulk og‘o begim edi. Baxt Mulk Og‘o begim Chig‘atoy ulusida katta mavqega ega bo‘lgan qabilalardan biri yasovuriylardan bo‘lib, amir Ilyos yasovuriyning qizi bo‘lgan. Ilyos yasovuriy XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrning yirik amirlaridan biri bo‘lgan Hizr yasovuriyning inisi bo‘lib, uzoq yillar Amir Temur xizmatini qilgan yirik beklardan biridir. Sohibqiron Pir Muhammad Jahongirga ham katta e’tibor qaratgan va uni 1384-yili Fors shohi, muzaffariylar sulolasi vakili Shoh Shujoning qiziga uylantirgan. 1392-yili esa Pir Muhammad Jahongirga Balx, Kobul, G‘azni, Qandahor viloyatlari Sind daryosiga qadar bo‘lgan hududlar bilan birga in’om etilgan. Unga bu hududlarning in’om etilishi ham bejiz emas edi. 1387–1388-yillari To‘xtamishxon, Anqoto‘ra va Xorazm hukmdori Sulaymon So‘fining Movarounnahrga bostirib kirishi vaqtida saltanatning janubiy hududlarida bir qator beboshliklar bo‘lib o‘tgandi. Jumladan, Xuttalon hokimi Muhammad Mirakning isyoni, Burolday va Boyazidlarning o‘z qabilasi bilan itoatdan bosh tortishi, Kobul hokimi Abu Sa’idning qo‘zg‘olon ko‘tarishi kabi voqealarni olish mumkin. Bu esa ushbu hududda Amir Temur hokimiyatini mustahkamlash zaruriyatini keltirib chiqardi. Natijada Amir Temur yosh shahzodani notinch hududlarga hokim etib tayinlash orqali isyonlarni bartaraf etish, yangi qo‘zg‘olonlarni oldini olishni maqsad qilgan edi. Kutilganidek, mazkur viloyatlarda mustahkam hokimiyatning o‘rnatilishi va xavfsizlikning ta’minlanishi ko‘p jihatdan Mirzo Pir Muhammadning faoliyati bilan bog‘liq bo‘ldi.

U Amir Temurning “besh yillik” hamda Hindiston yurishlarida faol ishtirok etgan. Mirzo Pir Muhamad davlat ishlarida ham harbiy sohada ham katta tajriba sohibi bo‘lgan. Shuningdek, uning (Mirzo Mironshohni hisobga olmaganda) shahzodalar ichida eng yoshi katta taxt da’vogari ekanligi ham turkiy odatga ko‘ra katta ahamiyat kasb etardi.

Amir Temur vafot etgan vaqtda 27 yoshda bo‘lgan to‘rtinchi o‘g‘il Mirzo Shohrux 1377-yilda tug‘ilgan edi. Uning onasi Tog‘ay Turkan og‘o bo‘lib, bu ayol haqida ma’lumotlar kam. Mirzo Shohruxning harbiy faoliyati ham Mirzo Pir Muhammad kabi “besh yillik” yurishdan boshlangan va birinchi bo‘lib Fors hokimi Shoh Mansurga qarshi janglarda 16 yoshida o‘zini ko‘rsatgandi. 1394-yilda Amir Temur “besh yillik” yurishni davom ettirayotgan vaqtda 17 yoshli yosh shahzoda Samarqandni boshqarish uchun yuborildi. U Samarqand noibi sifatida 1397-yilga qadar faoliyat olib bordi. Poytaxtni boshqarib, tajriba to‘plagan shahzoda shundan keyingina Xuroson hokimi etib tayinlangan. Xurosonga endigina hokim etib tayinlanganligi sababli 1398-yilgi Hindiston yurishiga jalb etilmagan Mirzo Shohrux 1399-yildan boshlab “yetti yillik yurish”da ishtirok etdi. 1404-yilda Xurosonga qaytgan Mirzo Shohrux biroz noqulay vaziyatga duch keladi. Amir Temur tomonidan yuborilgan taftishchilar Xuroson devonidagi soliq yig‘ish ishlarida o‘zboshimchalik yuz berib, soliq majburiyati izdan chiqqanligini

aniqlaydilar. Biroq bu vaqtda Mirzo Shohrux Amir Temur bilan yurishda boʻlgani uchun mazkur ishlarda aybdor sanalmagan. Shunday boʻlsa-da, u 1404-yilning kech kuzida valiahd masalasi koʻrilishi kerak boʻlgan qurultoyga chaqirilmaydi. X.Fayziyev bu holatni Mirzo Shohruxning valiahdlikka loyiq koʻrilmaganligi bilan izohlagan. Manbalarda esa Amir Temur tomonidan Iroq va Ozarbayjonning xavfsizligi uchun Mirzo Shohruxning Xurosonda qolishi lozim topilganligi qayd etilgan. Bizningcha, bu borada X.Fayziyevning fikrlari asosli koʻrinadi.

Yuqoridagi tahlildan koʻrinadiki, yoshi ulugʻligi, boshqaruvdagi tajribasi, Amir Temurning katta oʻgʻli Mirzo Jahongirning farzandi ekanligi, avval valiahd etib tayinlangan marhum Muhammad Sultonning ukasi boʻlganligi kabi omillar evaziga Mirzo Pir Muhammad Kobuliyning valiahd etib tayinlanish ehtimoli yuqori edi. Uning 1404-yil kuzida oʻtkazilgan qurultoyga chaqirilishi ham shundan dalolat beradi. Aynan shu qurultoyda Mirzo Pir Muhammadning valiahd sifatida e’lon qilinishi kutilgan edi. Lekin Amir Temur nima uchundir valiahd tayinlashni keyinga qoldirgan. Mirzo Pir Muhammadning 1399-yildan boshlab oʻz mulkida qoldirilganligi, “yetti yillik yurish”ga jalb etilmaganligi oqibatida Amir Temur atrofidagi yirik amirlar bilan aloqalarining uzoqlashganligi bunga ta’sir qilgan boʻlishi mumkin.

Mirzo Shohruxning 1404-yildagi soʻnggi qurultoyga chaqirilmaganligi Amir Temur nazarida valiahdlikka nomunosib koʻrilganidan dalolat bersa ham, aslida saroyda uning mavqei yuqori edi. Bunga Mirzo Shohrux Amir Temurning davlatchilik, harbiy faoliyat olib borayotgan yagona oʻgʻli ekanligi, yirik amirlar, ayniqsa, soʻnggi yillarda Sohibqironning yaqin shaxslariga aylangan amir Shohmalik hamda amir Shayx Nuriddin hamda haram ahli bilan inoqligi, qolaversa boshqaruv va harbiy ishlarda ham yetarli darajada tajriba toʻplay olganligi kabi omillar ta’sir qilardi. Mirzo Shohruxning qaror qilishda shoshilmasligi, mulohazakorligi, koʻpchilikning maslahati bilan ish tutishga moyilligi, shuningdek diniy ulamolar orasida oʻz ta’siriga ega boʻlganligi ham koʻpchilikka, ayniqsa, yirik amirlarga ma’qul edi. Amir Temurning saroyida yashayotgan Mirzo Shohruxning oʻgʻillari Mirzo Ulugʻbek va Mirzo Ibrohimga amir Shohmalik hamda amir Shayx Nuriddinning otaliq etib tayinlanganligi hamda ushbu shahzodalarga Fargʻona, Toshkent, Sayram, Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarining in’om etilganligi ham koʻp narsadan dalolat berardi. Ayniqsa, bir necha yillardan beri Amir Temur bilan birgalikda harbiy yurishlarda ishtirok etayotgan amirzoda Xalil Sulton va Mirzo Ahmadga hali biror bir viloyat boshqaruvi topshirilmagan holatda ularga bu suyurgʻollarning in’om etilishi e’tiborga molik hodisa boʻlib, Mirzo Shohruxning ta’sir kuchi ancha kengligining amaliy koʻrinishi edi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Amir Temur vafot etishi arafasida Mirzo Shohruxning hokimiyatni egallashga boʻlgan imkoniyatlari amalda yuqori edi. Mirzo Pir Muhammadning valiahd etib tayinlanligi uning imkoniyatlarini bir muncha kuchaytirgan boʻlsa-da, yirik amirlar va saroy oʻrtasida katta ta’sirga ega emasligi unga halaqit berar edi. Xalil Sulton imkoniyat jihatidan uchinchi oʻrinda tursa-da, Xitoy yurishiga jalb qilingan qoʻshinning katta qismi uning ixtiyorida ekanligi uning yutugʻi boʻlgan. Shuningdek, amir Shohmalik va amir Shayx

Nuriddindek tajribaga ega, lekin Amir Temur bilan ular kabi yaqin bo‘lmagan, bu ulug‘ amirlarga zimdan raqobatchi bo‘lgan ko‘plab beklar uchun ham Xalil Sulton bilan yaqinlashish manfaatli edi.

***Samarqand taxtining Xalil Sulton tomonidan egallanishi***

Amir Temur vafot etgach, amir Shohmalik va Shayx Nuriddin hamda haram ahli voqeani yashirishga intildi. Dastlab so‘l qanot qo‘mondoni Mirzo Sulton Husayn, o‘ng qanot qo‘mondoni amirzoda Xalil Sultonga maktub yuborib, sohibqiron kasal ekanligi sababli Oliy o‘rdaga zudlik bilan yetib kelishlari so‘raldi. So‘ngra Mirzo Pir Muhammadga uning valiahd etib tayinlanganligi va tezda Samarqandga yetib kelishi zarurligi xususida maktub jo‘natildi.

Amir Temurning bemor ekanligi xususida xabardor qilingan Mirzo Sulton Husayn va Xalil Sulton O‘trorga kelmaydi. Birinchidan, bu voqea Amir Temurning aslida vafot etganligi xabari ularga ham yetib borganligidan dalolat beradi. Ikkinchidan esa, bunday sharoitda Oliy O‘rdaga yetib kelish ularning shaxsiy hayoti uchun ham xavf tug‘dirardi. Taxt da’vogari bo‘lgan shahzodalarni nazoratga olish maqsadida ular Oliy O‘rdaga chaqirilgan bo‘lishi ehtimoli katta edi.

Shundan so‘ng amirlar Chukalak mavzesida to‘planib, qo‘shin orasida yoshi ulug‘i bo‘lgan amirzoda Xalil Sultonni podshoh etib ko‘targan holda Xitoy yurishini davom ettirishni va Xitoy yurishidan qaytgandan so‘ng, vasiyat bo‘yicha ish ko‘rishni maslahat qiladilar. Aslida bu harakatlardan asosiy maqsad qo‘shinni bir joyga jamlash, butun nazoratni amir Shohmalik va amir Shayx Nuriddin qo‘lida bo‘lishini ta’minlash edi. Chunki bu vaqtda ular qo‘lida faqat g‘ulga tegishli harbiy qismlar bor edi, xolos.

Shu bilan birgalikda, yirik amirlar va haram ahli Mirzo Shohruxni birinchi bo‘lib Samarqandga yetib kelishiga umid qilib, unga hokimiyatni topshirishga kelishib ham oladilar. Bu ishni amalga oshirish uchun Amir Temurning xotinlari Saroymulkxonim va Tukal xonimning Samarqandga borishi ma’qul ko‘riladi. Bundan ko‘rinadiki, og‘olar va amir Shohmalik, amir Shayx Nuriddin Mirzo Sulton Husayn va Xalil Sultonlarni imkon qadar uzoq vaqt shu yerda olib qolishga, iloji bo‘lsa Xitoy yurishi bahonasida ularni mamlakatdan uzoqroqqa olib ketishga harakat qilishgan. Bu bilan ular Mirzo Shohruxni Samarqandga kelib, taxtni egallab olishi uchun sharoit yaratishga intilganlar.

Haram ahli Samarqand tomon yo‘lga chiqqach, lashkarning markaziy qismi Mirzo Ibrohim bayrog‘i ostida amir Shohmalik va amir Shayx Nuriddinlar boshchiligida O‘trordan yo‘lga chiqadilar va Uch ariq mavzeidagi Qaldirama ko‘prigida to‘xtaydilar. Shu yerdan yana Mirzo Sulton Husayn va Xalil Sultonlarga maktub jo‘natib, ularni O‘tror yaqinidagi Chukalak mavzesiga yetib kelishlarini so‘raydilar.

Birinchi bo‘lib taxt uchun keskin harakatni Mirzo Sulton Husayn boshlaydi. U Amir Temur vafoti to‘g‘risidagi xabarni eshitganidan so‘ng o‘z qo‘shinlarini tarqatib yubordi va ikki ming kishi bilan Samarqand sari yo‘l oldi. Amir Shohmalik va amir Shayx Nuriddin Mirzo Sulton Husaynning isyonidan xabar topishlari bilan Samarqand amirlarini va shahar tomon yo‘l olgan haram ahlini

ogohlantirish uchun chopar jo‘natdilar. Shuningdek, Xalil Sultonga ham bo‘lgan voqea yetkazilib, unga qo‘shin bilan Aqar yayloviga borishni tayinlab o‘zlari ham o‘sha yerda borishnilarini va maslahatlashib chora-tadbir ko‘rishlarini bildirdilar. Lekin Xalil Sultonga bu xabar yetkazilganiga qaramay amir Shayx Nuriddin va amir Shohmalik Samarqand tomon yo‘l oldi hamda tezda Samarqand sari ketayotgan haram ahliga borib qo‘shildilar.

Bu vaqtda hali ham Toshkentda turgan o‘ng qanot beklari amirzoda Xalil Sulton nomiga qasamyod qildilar. Garchi Yazdiy Xalil Sulton nomiga bay’at qilinishiga asosiy sabab sifatida Mirzo Sulton Husaynning Samarqand taxtini egallab olish maqsadida isyon ko‘targanligi oqibatida o‘ng qanot amirlari orasida sarosima sodir bo‘lganligini ko‘rsatsa-da, buning sabablari anchagina keng edi.

Birinchidan, Mirzo Sulton Husayn isyoni o‘zaro taxt uchun kurashni boshlab berdi. Bu vaziyat o‘ng qanot qo‘shinlari amirlariga o‘z nomzodini ilgari surishga yo‘l ochdi. Ular o‘zlarining hokimiyatdagi mavqelarini mustahkamlash va yanada kengaytirib olishni, boshlanayotgan yangi davrda o‘z o‘rinlariga ega bo‘lib olishni mo‘ljallayotgan edilar.

Ikkinchidan, so‘l qanot qo‘shinining tarqab ketishi, g‘uldagi asosiy amirlarning Samarqandga tomon yo‘l olishi o‘ng qanot amirlarini shoshiltirganligi tabiiy edi. Ular Toshkentda vaziyatni kuzatuvchi sifatida qolishdan va toju taxt masalasi kimning foydasiga hal bo‘lsa, so‘ngra unga bo‘ysunishdan mafaatdor emasdilar.

Uchinchidan, Amir Temurning qizi O‘gi begimning o‘g‘li bo‘lgan Mirzo Sulton Husaynning Samarqand taxtini egallab olish ehtimoli juda kam bo‘lib, uning ortidan ko‘pchilikning ergashmasligi aniq edi. Bunday sharoitda haram ahli va amir Shayx Nuriddin, amir Shohmalik qo‘llagan shahzodaning taxtni egallashi tabiiy bo‘lib, hokimiyatning yuqori qismida katta o‘zgarish bo‘lmasdi. Ayni shu holat yirik amirlardan keyingi mavqeda turuvchi va yuqori mavqega chiqishni istagan ko‘plab beklarga ma’qul bo‘lmagan. Bunday beklar Toshkentda turgan o‘ng qanot amirlari orasida ham kam emasdi.

To‘rtinchidan, Toshkentda turgan amirlarning ko‘pchiligi aynan 1402-yildan beri Xalil Sulton bilan birga edilar. Bular orasida amir Xudoydod Husayniy, amir Soadat Temurtosh kabi beklar bor edi. Ularning o‘zaro yaqinligi toj taxt uchun kurash yo‘lida o‘zaro ittifoq tuzishlariga ma’lum darajada asos bo‘lgan.

Toshkentda Xalil Sulton nomiga bay’at qilinishi amir Shayx Nuriddin va amir Shohmalikni tashvishga solib qo‘ydi. Ular zudlik bilan Toshkentdagi beklarga maktub jo‘natib, Amir Temur vasiyati bo‘yicha ish tutish to‘g‘risida ko‘rsatma berdilar. Sharafuddin Ali Yazdiy g‘ul amirlarining maktublarini olgandan so‘ng Toshkentdagi beklar o‘z qilgan ishlaridan pushaymon bo‘lganliklarini ta’kidlagan bo‘lsa-da, bunga ishonish qiyin.

Amir Shohmalik va amir Shayx Nuriddin Toshkentdagi beklarni o‘z tomonlariga og‘dirib olish, ularni hech bo‘lmaganda betaraf vaziyatga tushirish niyatida ularning har biriga alohida maktublar yozadilar. Xudoydod Husayniy, Yodgorshoh Arlot, Shamsuddin Abbos va boshqa amirlarga jo‘natilgan bu maktublarda Amir Temur vasiyatiga sodiq qolish, Mirzo Pir Muhammad nomiga yangidan ahd qilish va bunga Xalil Sultonni ham ko‘ndirish talablari aks etgan edi.

Shuningdek, g‘ul amirlari valiahd nomiga qilingan yangi ahdnomalarni tasdiqlab o‘zlariga jo‘natilishini, bu ahdnomalar Mirzo Pir Muhammadga yuborilishini ham ta’kidlaydilar.

Maktublardan so‘ng Toshkent qarorgohidagi amirlar Mirzo Pir Muhammad nomiga yangi ahdnomalarni tuzib, uni tasdiqlaydilar. Sharafuddin Ali Yazdiy va G‘iyosiddin Xondamirning yozishicha ahdnomani Xalil Sulton ham imzolashga majbur bo‘lgan. Xalil Sulton yangilangan ahdnomani g‘ul amirlariga ularning ta’siriga tushib qolgan amir Burunduq emas, amir Atalmish olib borishini talab qiladi. Amir Burunduqning amir Shohmalik va amir Shayx Nuriddinga qaytib kelishga va’da berganligi uning ulug‘ beklar ta’sirida ekanligidan dalolat berardi. Shuningdek, Xalil Sulton amir Atalmishga ahdnomalarni amir Shohmalik va amir Shayx Nuriddinga ko‘rsatganidan so‘ng ularga topshirmay, o‘zi Mirzo Pir Muhammadga olib borishni so‘raydi. Bu uning amirlar Shohmalik va Shayx Nuriddinga ishonmasligidangina emas, balki Mirzo Pir Muhammad bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqa bog‘lab, uning saroyidagi vaziyatdan to‘liq xabardor qilishga intilganidan dalolatdir.

Shu bilan birgalikda, Xalil Sulton taxt uchun jiddiy harakatni boshlab yuboradi. U dastlab Toshkent va Sayramda turgan zahiradagi barcha ot, xachir va tuyalarni, shuningdek, mablag‘ hamda qurol-yarog‘ni o‘zi bilan hamfikr bo‘lgan bek va navkarlarga tarqatdi. Amir Burunduqni lashkardan ajratish maqsadida uni avvalroq daryodan kechib o‘tish uchun jo‘natdi va o‘zi ham lashkar bilan uning ortidan Samarqand tomon yo‘l oldi. Bu vaqtda Xalil Sulton huzuridagi yirik amirlar o‘zaro til biriktirib, unga qarshi chiqishga kelishib oladilar. O‘zaro kelishuvga ko‘ra amir Burunduq amir Shohmalik va Shayx Nuriddinga borib qo‘shilishi, amir Xudoydod Husayniy va Shamsuddin Abbos esa o‘z askarlari bilan Ochiq Farkat mavzesiga yo‘l olib, u yerdan vaziyatga qarab ish tutishlari kerak edi.

Birinchi bo‘lib amir Burunduq, Rustam Tag‘ay Bug‘a va Abdulkarim Hoji Sayfuddin o‘z askarlari bilan Sirdaryodan o‘tadilar. Ular Xalil Sultonning daryodan o‘tishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ko‘prikni buzib tashlaydilar. Xuddi shu vaqtda amir Xudoydod Husayniy va Shamsiddun Abboslar ham o‘z qo‘shinlari bilan Xalil Sultondan ajralib chiqib, Ohangaron yaylovlari tomon yo‘l oladilar. Lekin Xalil Sulton o‘zi bilan birga qolgan lashkar bilan ko‘prikni qayta tiklab, daryodan o‘tadi va Samarqand tomon yurishni davom ettiradi.

Bu vaqtda Xalil Sulton lashkarining asosiy qismini Xitoy yurishiga jalb etilgan qaro totorlar hamda Old Osiyodan keltirilgan boshqa harbiy qismlar tashkil etgan. Chunki hali movarounnahrlik biror bir yirik amirlar bilan yaqin aloqaga kirishga ulgurmagan bu harbiy qismlarni Movarounnahrning biror bir viloyatini egallash va boshqarishdan ko‘ra amirzoda Xalil Sulton va’da qilayotgan boyliklar ko‘proq qiziqtirishi tabiiy edi. Asli movarounnahrlik bo‘lmagan bu harbiy qismlar uchun Xalil Sulton atrofida uyushish va u orqali mavqega ega bo‘lish kelajak uchun yagona yo‘l bo‘lgan.

Sharafuddin Ali Yazdiy amirzoda Xalil Sulton haram ahli va g‘ul amirlari Samarqand tomon yo‘l olgan hamda Toshkentda Mirzo Pir Muhammad nomiga qayta ahdnomalar tuzilgan vaqtdayoq Samarqand hokimi Arg‘unshoh bilan yashirincha o‘zaro bitimga erisha olganligini ta’kidlaydi. Shuning uchun ham Xalil

Sulton valiahd nomiga ahdnomalarni tasdiqlagan bo‘lsa-da, taxtni egallash uchun ochiq harakatni boshlab, Samarqand sari yo‘l olishga jur’at etgan.

G‘ul amirlari Shayx Nuriddin, Shohmalik va haram ahli 1405-yilning 2-mart kuni Samarqand yaqiniga yetib keladilar. Dastlab amir Shohmalik avvalroq yetib kelib, shaharga kirishga urinib ko‘radi. Lekin Samarqand hokimi amir Arg‘unshoh va amir Xoja Yusuf faqat Mirzo Pir Muhammadga Samarqandga kirish uchun ruxsat borligini, u yetib kelgunga qadar hech kim shaharga kiritilmasligini bildiradi. Ertasi kuni, ya’ni 3-martda amir Shayx Nuriddinning shaharga kirish maqsadidagi urinishi ham samarasiz yakunlandi. Xalil Sultonning lashkar bilan Samarqandga kelayotganligi xabari yetib kelgach, 5-mart kuni amirlar Shayx Nuriddin, Shohmalik va shahzodalar Mirzo Ulug‘bek, Mirzo Ibrohim Buxoro tomon yo‘l oladilar.

Shu o‘rinda g‘ul amirlari va shahzodalarning to‘g‘ri Mirzo Pir Muhamad huzuriga bormay Buxoroga yo‘l olishlari ikki xil fikrni vujudga keltiradi.

Birinchisi, ular Mirzo Pir Muhammad kelgunga qadar Movarounnahrning yirikligi jihatidan o‘sha vaqtdagi ikkinchi shahri Buxoroni o‘z qo‘llarida tutib turishni maqsad qilishgan. Bu Samarqand amirlari o‘z so‘zlarida turmay shaharni boshqa shahzodaga topshirgan taqdirda kelajakdagi kurashlarda asqotishi mumkin edi.

Ikkinchisi, ular Mirzo Pir Muhammad nomiga ahd qilsalarda, unga qo‘shilmay Buxoroga borib Mirzo Shohruxning qanday yo‘l tutishlarini kutishni va shunga qarab harakat qilishni mo‘ljallagan edilar. Bizningcha, ular vasiyatga xilof ravishda ikkinchi fikrda bo‘lishgan va shu niyatda Buxoroga yo‘l olishgan.

Taxminan 9-mart kuni Xalil Sulton Samarqandga yaqinlashgach, dastlab u bilan Samarqand hokimi Arg‘unshohning yaqin kishilaridan biri amir Xoja Yusuf shahardan 30-35 km masofadagi Sheroz qo‘rg‘onida sovg‘a-salomlar bilan ko‘rishadi. Aslida bu ko‘rishuvdan maqsad yana bir bor shaharni Xalil Sultonga topshirilish shartlarini kelishib olish va ahdlarni mustahkamlash edi. Arg‘unshoh shaharni ochib berishdan avval o‘zining va atrofidagi beklarning kelajakdagi faoliyati borasida rejalarini taxt da’vogariga tasdiqlatib olishni xohlagan ko‘rinadi. O‘zaro kelishuv yangidan mustahkamlangandan keyingina Arg‘unshoh Samarqand ulug‘lari bilan birgalikda Xalil Sultonni rasmiy kutib olish va unga poytaxt hamda xazina kalitlarini topshirish marosimini o‘tkazadi. Shunisi e’tiborliki, bu tadbirlarning barchasi kechi bilan 9-yoki 10-mart kuni bo‘lib o‘tgan. Lekin shahzoda Samarqand shahriga faqat 18-mart kuni kirib keladi.

Manbalardan amirzoda Xalil Sultonning bir muddat shahar tashqarisida qolishining sababi taxtga o‘tirish uchun omadli vaqtni kutganligi va munajjimlar tomonidan belgilangan kuni Samarqand shahriga kirib borganligi bilan izohlanadi.

Xalil Sulton rasman taxtni egallashga jur’at etmagan. Shuning uchun ham vaziyatdan chiqish uchun marhum valiahd Muhammad Sultonning o‘g‘li to‘qqiz yoshli Mirzo Muhammad Jahongirni taxtga o‘tqazishni ma’qul ko‘rgan. Ushbu voqea quyidagi jihatlarga ko‘ra ahamiyatli edi:

birinchidan, Xalil Sulton Amir Temur tomonidan tayinlangan valiahd bo‘lmaganligi uchun ham rasman taxtni egallashga botinmadi;

ikkinchidan, u Amir Temurning xon tayinlash usulini davom ettirib, amalda esa bobosi kabi hokimiyatni o‘zi boshqardi;

uchinchidan, Amir Temur Chig‘atoy ulusining merosxo‘ri sifatida taxtga uning naslidan bo‘lgan Suyurg‘atmishxon va Sulton Mahmudxonni chiqargan edi. 1402-yili Sulton Mahmudxon vafot etganidan so‘ng xonlik taxtiga hech kim chiqarilmagandi. Xalil Sulton Chingizxon avlodlaridan xon chiqarish odatini bekor qilib, taxtga temuriylar sulolasi vakillarini tayinlashni joriy qildi;

to‘rtinchidan, u Muhammad Jahongirni taxtga chiqarish orqali valiahd Mirzo Pir Muhammadning hamda Mirzo Shohruxning taxt uchun kurashish imkoniyatlarini pasaytirishga harakat qilgan. Xalq orasida marhum valiahd Muhammad Sultonning obro‘yi yuqori bo‘lib, Mirzo Pir Muhammad so‘nggi soniyalarda e’lon qilingan valiahdligi uchun hali u darajada mashhur emasdi;

beshinchidan, 1398–1399-yillarda Mo‘g‘uliston chegaralarida, 1399–1401-yillarda Movarounnahrda valiahd Muhammad Sultonning xizmatida bo‘lgan ko‘pgina amirlar bu vaqtda Movarounnahrda bo‘lib, Xalil Sulton taxtga uning o‘g‘li Muhammad Jahongirni chiqarish orqali ularni tinchlantirish va o‘z tomoniga og‘dirib olishni ko‘zlagan edi. O‘tror hokimi amir Berdibek, Farg‘onada hokimiyatni egallab olgan amir Xudoydod Husayniy ham shunday amirlar qatorida bo‘lgan. Hatto 1409–1411-yillarda amir Xudoydod Husayniy, amir Shayx Nuriddin boshchiligida Movarounnahrda bo‘lib o‘tgan hokimiyat uchun kurashlarda Mirzo Shohruxdan o‘lkani Muhammad Jahongirga topshirilishi talab qilinganligi ham bejiz emas edi.

### *Farg‘ona vodiysida Amir Xudoydod hukmronligining o‘rnatilishi*

Xalil Sulton va boshqa shahzodalar o‘rtasida toj-taxt uchun kurash boshlanganidan foydalangan Xudoydod Husayniy ko‘p o‘tmay, Farg‘ona hamda O‘ratepani egallab oldi. Garchi Ibn Arabshoh Sirdaryo ortidagi hududlar avvaldan bu yerlarning hokimi bo‘lgan Xudoydod Husayniyga Xalil Sulton tomonidan in’om etilganligini qayd etgan bo‘lsa-da, bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Fikrimizcha, o‘zaro urushlar bilan band bo‘lgan va hokimiyatini mustahkamlashga uringan Xalil Sulton yuqorida aytilgan hududlar amir Xudoydod tomonidan egallab olinganidan so‘ng uni Farg‘ona hokimi sifatida tan olgan.

Amir Temur vafot etgan paytda Andijon hokimi Saodat ismli amir edi. U tarixiy manbalarda amir Saodat va amir Saodat Temurtosh nomlari bilan tilga olingan. Amir Saodat Mo‘g‘uliston bilan chegaradagi hududlarni mustahkamlashga, shu hududda joylashgan Bosh Humra qal’asini qayta tiklashga jalb etilgan amirlardan biri edi. 1405-yilning may oyida Xalil Sulton tomonidan Sulton Husayn mirzo rahbarligida Amudaryo bo‘yida turgan G‘azni hukmdori Pirmuhammad mirzoning qo‘shinidan xabardor bo‘lib turish uchun jo‘natilgan lashkar sarkardalari safida Amir Saodatning ham borligi uning tez orada Farg‘ona vodiysidan chiqib ketganligi va Xalil Sulton xizmatiga kirganligini ko‘rsatadi. Amir Saodatning amir Ollohdodga hamroh bo‘lganligidan hamda ularning yaqin do‘st ekanligidan kelib chiqib, Ashpara hokimi Ollohdod o‘z hududlarini tashlab, Samarqandga kelgan paytda, taxminan aprel oyida, u bilan birga amir Saodat ham Farg‘ona vodiysini, jumladan, uning asosiy shaharlaridan biri Andijonni tark etgan,

degan xulosa qilish mumkin. Chunki u o‘ziga nisbatan katta mavqega ega bo‘lgan Xudoydod Husayniyga qarshi turishga ko‘zi yetmagan.

Farg‘ona hokimiga aylangan amir Xudoydod Husayniy doimiy ravishda o‘z hokimiyatini mustahkamlashga, qo‘li ostidagi hududlarni kengaytirishga intilgan. U Movarounnahr taxtini egallagan Xalil Sultonni tan olmaydi.

Ibn Arabshoh Turkiston atrofidagi erlarni Xudoydod Husayniyga bo‘ysunganligini e’tirof etgan bo‘lsa ham aslida bu yerlarda Temur vafotidan bir necha oy o‘tgach, Shayx Nuriddin hukmronligi o‘rnatildi. U Sirdaryo bo‘ylarida Xalil Sulton hokimiyati mustahkam emasligi va Samarqand hukmdorining Xuroson chegarasidagi muammolar bilan bandligidan foydalangan. Qolaversa, Shayx Nuriddinning o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurti bo‘lmish Turkiston atroflarida katta nufuz va obro‘ga egaligi ham Turkiston, Sig‘noq va boshqa Sirdaryo bo‘yi shaharlarina bo‘ysundirishida qo‘l kelgan. Xudoydod Husayniy Shayx Nuriddin bilan birgalikda Samarqand atroflariga bir necha bor bosqinlar uyushtirib turganlar.

### *Movarounnahrda Xalil Sulton hokimiyatining nisbatan mustahkamlanishi*

Xalil Sulton Samarqandda hokimiyatni qo‘lga kiritganidan so‘ng zudlik bilan o‘z mavqeini mustahkamlashga kirishdi. Buning uchun, birinchi navbatda, Amir Temur davrida to‘plangan davlat xazinasidan behisob in’omlar berish yo‘li bilan ko‘plab amirlar va beklarni o‘z tomoniga og‘dirib olishga intildi. Buning natijasida Amir Temurdan meros qolgan qo‘shinning katta qismi uning qo‘li ostida to‘plandi.

Xalil Sulton oldidagi birlamchi vazifalardan biri Mirzo Shohrux bilan munosabatlarga aniqlik kiritib olish edi. U Buxoroni o‘z hukmronligi ostiga olish maqsadida Rustam Tag‘ay Bug‘oni o‘z tomoniga og‘dirishga intilayotgan vaqtda Hirotdan elchi kelib, Mirzo Shohruxning so‘zlarini yetkazdi. Mirzo Shohrux o‘zining yoshi kattaligi sababli Xalil Sultonni o‘ziga bo‘ysunib, huzuriga yetib kelishga chorlagan va unga xazina, mamlakat hamda askardan orzu qilganicha in’om etishga tayyorligini bildirgan edi. Xalil Sulton bu vaqtda Amudaryo sohilida turgan Xuroson hukmdorining maktubiga hali kuchlar nisbatiga to‘la aniqlik kiritilmagan vaziyatda o‘ta bosiqlik va yuqori diplomatik saviyada javob qaytaradi. Ushbu javob maktubidan Xalil Sultonning Movarounnahrdan voz kechmasligi ayon bo‘lgach, Mirzo Shohrux Hirotga qaytishga qaror qildi. Movarounnahr hokimi tomonidan uning oliy hukmdorligi rasman bo‘lsa-da tan olinishi bilan cheklanishga majbur bo‘ldi.

Aynan Mirzo Shohrux bilan yuqoridagi maktub almashinuvlar davrida Buxoro hokimi amir Rustam Xalil Sulton hukmronligini tan olishni ma’qul ko‘rdi. Buxoro masalasi hal etilganidan so‘ng Xalil Sulton lashkar bilan Movarounnahr janubiga yo‘l oladi. Uning maqsadi Mirzo Pir Muhammad va Mirzo Shohrux bilan chegaralarni mustahkamlash bo‘lgan. Uning janub tomon yurish qilishiga Mirzo Pir Muhammadning o‘z qo‘shini bilan Balxga yetib kelganligi sabab bo‘lgan bo‘lsa kerak. Chunki Mirzo Shohrux Hirotga qaytgan edi. Voqeadan xabar topgan Mirzo Shohrux ham qo‘shin to‘play boshlaydi. Shu vaqtda Xalil Sulton lashkari safidan Pir Ali Toz o‘z askarlari bilan ajralib chiqib, Balxda turgan Mirzo Pir Muhammad xizmatiga kiradi. Aslida ota meros mulklari Movarounnahr janubida bo‘lgan Pir Ali Tozning bu harakatini o‘zi yaxshi bilgan viloyatda mavqeini tezda

mustahkamlab olishga umid qilganligi bilan bog‘lash mumkin. U tez orada Mirzo Pir Muhammadning eng ishonchli amirlari qatoriga kiradi va katta vakolatlarga ega bo‘ladi. Keyinchalik esa bu yerlarni o‘zi mustaqil boshqarishga intilib, hukmdoriga qarshi isyon ko‘taradi.

Pir Ali Tozning xiyonati Xalil Sultonni yana diplomatik muzokaralar yo‘lini tanlashga majbur qiladi. 1405-yilning may oyida tuzilgan sulh shartlariga ko‘ra Xalil Sulton Xonika begimni xazinalari bilan Balxga Mirzo Pir Muhammad huzuriga jo‘natishi, Mirzo Ulug‘bek va Mirzo Ibrohimga tegishli Samarqandda qolgan xazinalarni Hirotga yuborishi, buning evaziga Amudaryoning shimolidagi hududlar Xalil Sulton ixtiyorida bo‘lishi zarur edi.

Ushbu sulh shartlarida Mirzo Pir Muhammadga oid masalalarning ham ko‘rilganligi 1405-yilning may oyida Mirzo Shohrux valiahd shahzoda bilan Xalil Sultonga qarshi o‘zaro ittifoq tuzishga ulgurganligini ko‘rsatadi. Xurosonda o‘z hokimiyatini mustahkamlashga ehtiyoj sezayotgan Mirzo Shohrux Xalil Sultonning kuch-qudrati oshib borayotganligi sababli valiahdning Samarqand taxti uchun kurashini qo‘llab-quvvatlash orqali Movarounnahrda ham o‘z ta’sirini o‘rnatishni ma’qul ko‘rgan edi.

Xalil Sulton Mirzo Pir Muhammadning Balxda turganligidan tashvishlanib, Mirzo Sulton Husayn boshchiligida qo‘shinni Amudaryo sohiliga yuboradi. Mirzo Sulton Husayn Amudaryo bo‘yida turgan vaqtda Xalil Sultonga qarshi isyon ko‘taradi va o‘z ixtiyoridagi lashkar bilan poytaxt tomon yurish boshlaydi. Xalil Sulton ham 1405-yil 28-iyun kuni Samarqanddan isyonchilarga qarshi yo‘l oladi. Manbalarda ta’kidlanishicha, u yurish oldidan xazinadan katta miqdorda mablag‘ ajratib lashkarni rag‘batlantiradi. 1405-yil 6-iyulda bo‘lib o‘tgan Jigdolik mavzesida bo‘lib o‘tgan jang Samarqand qo‘shini g‘alabasi bilan yakunlanadi. Harbiy harakatlar boshlanishi bilan amirlar Arg‘unshoh va Ollohdod lashkarlari bilan Xalil Sulton tomoniga o‘tib ketishi jang taqdirini hal qiladi. Mag‘lubiyatga uchragan Mirzo Sulton Husayn Xurosonga Mirzo Shohrux qoshiga qochadi va keyinchalik o‘sha yerda o‘ldiriladi.

Ushbu g‘alabadan so‘ng Movarounnahrning janubiy chegaralarida ma’lum muddat tinchlik o‘rnatiladi. Bu ko‘proq Mirzo Shohruxga qarshi yirik amirlardan biri Sulaymonshohning isyon ko‘tarishi va unga qarshi kurash, Shoh Ali va Shoh G‘iyosiddin, Mavdud Garmseriyning Hirot hukmdoriga bo‘ysunishdan bosh tortishi kabi voqealar bilan bog‘liq edi.

Bu vaqtda Xalil Sultonning o‘zi ham bir qator muammolarga duch keladi. Amir Temur farmoniga ko‘ra Kichik Osiyodan Movarounnahrning shimoliy-sharqiy chegaralariga ko‘chirib keltirilgan va Xitoy yurishi davomida Mo‘g‘ulistonga joylashtirilishi rejalashtirilgan qaro totor qabilalari o‘z yurtlari tomon yo‘l oladilar. Xalil Sulton ularni qo‘li ostida ushlab qolishga erisha olmaydi. Katta harbiy kuchga ega bo‘lgan ushbu qabilalarni bo‘ysundirish oson emas edi. Mirzo Shohrux ham Xuroson erlari orqali qaytayotgan qaro totorlarni harbiy kuch yordamida Ozarbayjon tomon o‘tkazib yuborishga erishadi.

Tarixiy manbalarda 1405-yil davomida Xorazm viloyati Xalil Sulton yoki Mirzo Shohruxga bo‘ysunganligi xususida aniq ma’lumot uchratmadik. Xorazmda Amir Temur vafotidan so‘ng biror bir shahzoda nomiga xutba o‘qitilganligi hamda

Xorazm noibining bu haqida Samarqand yoki Hirotga xabar berganligi xususida ma'lumot yo'q. Bu esa Xorazm amirlari shahzodalarning o'zaro urushlarini betaraf holda kuzatganliklarini va kimning qo'li baland kelsa uni hukmdor sifatida tan olishni mo'ljallaganliklarini ko'rsatadi. Ma'lumki, 1406-yilning boshlarida Xorazm Oltin O'rdaning yirik amirlaridan biri Idiku tomonidan zabt etiladi. Ushbu voqeadan so'ng, uning hokimi va amirlari, jumladan, amir Musoko va amir Namadaklar Mirzo Shohrux huzuriga qochib kelganlar. Bu esa ma'lum ma'noda Xorazmda ham Xuroson hukmdori ta'siri bo'lganligidan dalolat berish bilan birgalikda Xalil Sulton bu viloyatda hech qanday mavqega ega bo'lmaganligini ko'rsatadi.

Bu vaqtda Hisor, Xuttalon va Badaxshon hududlarining ham kimga bo'ysunganligi haqida aniq ma'lumotlarga ega emasmiz. Lekin 1407-yilning fevrali Mirzo Pir Muhammadni xiyonatkarona qatl etgan Pir Ali Tozning keyinchalik Xuttalonga chekinganligi bu viloyatning Xalil Sulton ixtiyoridagi mulklar qatoriga kirmaganligini ko'rsatadi. Pir Ali Tozning kelib chiqishi aslida Xuttalondan ekanligiga hamda uning 1405-yilning may oyida Xalil Sulton lashkaridan Mirzo Pir Muhammad tomoniga o'tib ketganligiga e'tibor qilsak, Xuttalon viloyati valiahd shahzoda ta'sirida bo'lganligi va uni Pir Ali Tozga yaqin bo'lgan amirlar boshqarganligini taxmin qilishimiz mumkin. Badaxshon viloyati ham hudud jihatdan Mirzo Pir Muhammadga tegishli bo'lgan viloyatlarga qo'shni bo'lib, Xalil Sulton ixtiyoridagi mulklar bilan chegaradosh emasligidan ushbu viloyatni valiahd shahzoda ta'sirida bo'lganligi kelib chiqadi. Hisor viloyati esa Xalil Sulton mulklari qatorida bo'lgan bo'lishi kerak. 1409-yili Xalil Sultonni asir olib, Samarqandni egallab olgan amir Xudoydod Husayniy Hisorni bo'ysundirish uchun qo'shin yuborgan edi. Bu esa uning Xalil Sulton ixtiyorida bo'lganligini ko'rsatadi. Mirzo Pir Muhammadga tegishli viloyatlar u o'ldirilgach Mirzo Shohruxga bo'ysunganligini e'tiborga olsak, Hisorning Xalil Sulton qo'li ostida bo'lganligi oydinlashadi. Chunki Hisor Mirzo Shohrux ixtiyorida bo'lganida amir Xudoydod Husayniy u yerga qo'shin jo'natishga jur'at etmagan bo'lur edi.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinadiki, Xalil Sulton 1405–1406-yillar davomida Movarounnahrda ham o'z hukmronligini to'liq o'rnata olmadi. Xalil Sulton qo'li ostidagi hududlar Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Hisor vohalari bilan cheklangan edi. Unga qarashli mulklarning shimoli-sharqiy chegarasi Jizzax, janubiy chegarasi Termiz, g'arbiy chegarasi Buxoro hududlaridan o'tardi.

Mirzo Shohrux Xurosondagi isyonlarni bostirish bilan band bo'lsa-da, o'ziga qarashli Amudaryo bo'yidagi hududlarni mustahkamlashga katta e'tibor qaratadi. Shu maqsadda Andxud va Shibirg'on viloyatlari Mirzo Ulug'bekka in'om etiladi. Bu bilan u Mirzo Ulug'bekning otalig'i bo'lmish amir Shohmalikni ushbu viloyatlarni boshqarishga tayinlagan edi. Bir tomondan Mirzo Pir Muhammad va boshqa tomondan Xalil Sulton qo'li ostidagi hududlar bilan chegaradosh bo'lgan bu viloyatlar stratsgik jihatdan muhim ahamiyatga ega edi. Amir Shohmalik bu yerga yetib kelishi bilan faol harakatlarni boshlaydi. Dastlab u Amudaryo ustidan ko'prik qurdirdi va uning daryodan o'tgan ayg'oqchilari Xalil Sultonning beklaridan bo'lgan Iso va Xizr Xoja qavchinni tutib keldilar. Ularning biri Hirotga, biri esa Balxga Mirzo Pir Muhammad huzuriga yuboriladi. Asirlardan birining

Balxga jo‘natilishi Mirzo Shohrux Mirzo Pir Muhammadni Xalil Sultonga qarshi kurashda o‘zining ittifoqchisi sifatida ko‘rayotganligini bildirardi. Shuningdek, asirning Mirzo Ulug‘bek va amir Shohmalik tomonidan yuborilishi Mirzo Pir Muhammadning Amir Temur vasiyatiga ko‘ra valiahdlik huquqi e’tirof etilayotganligidan dalolat edi. Ko‘rinadiki, bu vaqtga kelib Mirzo Shohruxning Movarounnahr borasidagi rejalarida o‘zgarish sodir bo‘lgan. U endi Movarounnahrni o‘zi bo‘ysundira olmasligini tushunib etgan va bu kurashda Mirzo Pir Muhammadni qo‘llab-quvvatlashga qaror qilgan. X.Fayziyev katta xazina va qo‘shinga ega bo‘lgan Xalil Sultonga qarshi Mirzo Shohrux o‘zi kurasha olmaganligini tushunganligini ta’kidlaydi. Mirzo Pir Muhammadni qo‘llash esa Mirzo Shohrux nomidan Mirzo Ulug‘bek va amir Shohmalik orqali amalga oshirilishi mo‘ljallangan. Bu bilan u Mirzo Pir Muhammad Xalil Sultonga qarshi kurashda muvaffaqiyatga erishsa, Movarounnahrning bir qismiga Mirzo Ulug‘bek va amir Shohmalikni joylashtirmoqchi edi. Agarda bo‘lajak kurashda Samarqand hokimi ustunlikka erishsa, Mirzo Shohrux o‘zi uchun Xalil Sulton bilan muzokaralar olib borish, ikki o‘rtada hakamlik qilish erkinligini saqlab qolardi.

Amir Shohmalikning faollashganligi Xalil Sultonni qo‘shin bilan Amudaryo bo‘yiga kelishga majbur qildi. Samarqand lashkarining qarovul qo‘shinlari ham ko‘prikdan o‘tib, Shohmalikka tegishli qo‘shinning bir qismini tor-mor keltirib, uning yaqinlaridan biri bo‘lgan Davlatxojani qatl etdilar. Lekin ikki tomon ham kurashni davom ettirmay, sulh tuzishga qaror qilishdi. Bunga Mirzo Shohruxning Xuroson janubidagi isyonlar bilan band bo‘lganligi bir tomondan, Xorazmni zabt etgan Dashti qipchoq qo‘shinining Buxoro atroflariga ham yetib kelganligi ikkinchi tomondan ta’sir qilgan edi. Shuning uchun ham Xalil Sulton zudlik bilan Samarqandga qaytib ketishni ma’qul ko‘rgan.

Movarounnahrga ko‘chmanchilarning hujumlari, odatda, qish vaqtida amalga oshirilgan. Xorazmning aynan qishda zabt etilgani ham shundan dalolat beradi. Buni hisobga olgan amir Shohmalik Samarqand ustiga yurish qilishga shoshiladi va Balxda Mirzo Pir Muhammad bilan uchrashadi. Ular dastlab Xalil Sulton huzuriga maktub bilan elchi yuboradilar. Abdurazzoq Samarqandiy Xalil Sultonga yuborilgan maktubning mazmunini quyidagicha keltirgan: “Mirzo Pir Muhammad hazrat sohibqironning valiahdidir; taxt unga tegishli, chunki u og‘a, mirzo Xalil esa inidir. ... Hazrat sohibqiron taxtu mamlakat Xalil Sultonga qoladi, deb qachon vasiyat qilgan”. Xalil Sulton esa bunga javoban “Amir (Temur sohibqiron) hazratlariga mamlakatni bergan u qodir (egam) menga ham inoyat qildi”, deya maktub jo‘natdi. Xalil Sulton tomonidan berilgan javob anchagina batafsil, badiiy uslubda ibn Arabshoh tomonidan ham keltirilgan. Unda Xalil Sulton Amir Temur tomonidan ko‘plab shahzodalarga mulk in’om etilgani holda unga biror viloyat berilmaganligini, shu sababli o‘zi uni qo‘lga kiritishga qaror qilganligiga urg‘u bergan. Faqat u bu maktub almashunuvlarni 1405-yilning birinchi yarmidagi voqealar qatorida noto‘g‘ri keltirgan. Umuman olganda muzokaralar natija bermagach, Mirzo Pir Muhammad va amir Shohmalik qo‘shin bilan daryodan o‘tib, Samarqand tomon yo‘l oldilar.

X.Fayziyevning ta’kidlashicha, amir Shohmalik Mirzo Shohrux ko‘rsatmasiga ko‘ra Movarounnahr yurishini qirq kunga kechiktirishni Mirzo Pir

Muhamaddan so‘ragan. Bundan ko‘zlangan maqsad Garmser viloyatiga ketgan Xuroson qo‘shinlarining qaytib kelishini kutish edi. Shundan keyingina Mirzo Shohrux barcha kuchlar bilan Amudaryo bo‘yiga yetib kelishi mumkin edi. Lekin Mirzo Pir Muhammad yurishni kechiktirishni xohlamaydi. Chunki xuddi shu vaqtda shimoldan Farg‘ona hukmdori amir Xudoydod Husayniy ham mo‘g‘ullar yordamida Movarounnahr sarhadiga kirib keladi. Lekin mo‘g‘ullar bilan Farg‘ona hukmdori o‘rtasida nizo chiqib, yurish amalga oshmaydi. Bundan foydalangan Xalil Sulton tezlik bilan Qarshi shahriga yetib kelib, Mirzo Pir Muhammad va Mirzo Ulug‘bekning Buxoro tomon yurish yo‘lini to‘sib qo‘yadi. V.V. Bartold Buxoro shahrida Mirzo Shohruxning tarafdorlari ko‘pligi sababli ham ittifoqchilar dastlab Buxoroni qo‘lga kiritishga harakat qilganliklarini ta’kidlaydi. Garchi manbalarda ittifoqchi mirzolar Samarqand tomon yurish qilganliklari haqida hikoya qilinsada, ittifoqchilar qo‘shinining Kesh yo‘lidan emas, Buxoroga yaqin Qarshi yo‘lidan yurganliklari V.V. Bartoldning fikrlari asosli ekanligini ko‘rsatadi.

X.Fayziyev va N.Xidirovaga tayangan holda Mirzo Shohrux Buxoro shayxlarining yirik vakili Xoja Muhammad Parso bilan yozishmalar olib borganligini qayd etgan. Shuningdek, uning ta’kidlashicha Mirzo Shohruxning o‘zi ham yurishda qatnashmoqchi bo‘lgan va yurishni Buxoro orqali davom ettirishni talab qilgan. Lekin shuni qayd etish kerakki, Mirzo Shohruxning bu yurishda qatnashishiga bir necha voqealar to‘sqinlik qilardi.

Birinchidan, Xuroson qo‘shinining bir qismi hali ham Garmser viloyatida bo‘lib, ular Hirotga faqatgina Movarounnahr yurishi tugaganidan keyin qaytib kelgan. Lekin shunga qaramay Movarounnahr yurishi boshlanishi bilan Mirzo Shohrux ham o‘z huzurida mavjud bo‘lgan lashkari bilan Movarounnahr chegaralariga yaqin bo‘lgan Bodg‘is viloyatiga joylashgan. Uning Mirzo Ulug‘bek va amir Shohmalik ixtiyoriga berilgan lashkari esa yurishda ishtirok etgan.

Ikkinchidan, Mirzo Shohrux uchun ushbu yurishni Mirzo Pir Muhammad qo‘li bilan amalga oshirish va uni Mirzo Ulug‘bek hamda amir Shohmalik orqali qo‘llab-quvvatlash, boshqarib turish qulay hamda samarali edi.

Tarixiy manbalardagi ba’zi ma’lumotlar Mirzo Pir Muhammad va ittifoqchilari qo‘shinining yurish yo‘nalishi xususida fikr yuritish imkonini beradi. Ibn Arabshoh Mirzo Pir Muhammad Amudaryoni kechib o‘tib, avval Hisori Shodmonga yetib kelganligini qayd etgan. Bundan ko‘rinadiki, yurish Xuttalon, Surxon vohalari orqali olib borilgan va Hisor viloyati ham bo‘ysundirilgan. Hisordan Kesh orqali Samarqandga borish qulay edi. Lekin yuqorida ko‘rib o‘tilgan sabablar tufayli, ya’ni yurishni Buxoro orqali davom ettirish istagi sabab ular Nasaf tomon yo‘l olishgan.

Nasaf yonidagi jang Xalil Sultonning harbiy qudrati va sarkardalik mahorati kuchli ekanligidan dalolat beradi. Movarounnahr qo‘shinining o‘ng qanotini amir Burunduq barlos, chap qanotini esa amir Sulaymonshoh boshqaradi. Xalil Sulton esa umumiy qo‘mondonlik bilan birgalikda markazni boshqarishni ham o‘ziga qoldiradi. Ittifoqchilar lashkarining asosiy qismini Mirzo Shohruxga tegishli lashkar tashkil etganligi ularning safidan ham anglashiladi. O‘ng qanotga Mirzo Shohruxning yirik amirlaridan biri Nushervon barlos, chap qanotga esa Mirzo Ulug‘bek, amir Shohmalik va Yodgorshoh Arlot boshchilik qiladi. Ko‘rinadiki,

lashkarning o‘ng va chap qanoti Mirzo Shohrux jo‘natgan harbiy qismlardan iborat edi. Markazda esa Mirzo Pir Muhammadning o‘zi joylashadi.

Jang boshlanishi bilan Xalil Sulton boshchiligidagi Movarounnahr lashkarining markazi ittifoqchilar qo‘shinining Mirzo Pir Muhammad rahbarligidagi g‘uliga hujum qiladi va raqibni chekintiradi. Markazning chekinishi har ikki qanotni ham sarosimaga solib qo‘yadi. Natijada birinchi bo‘lib arlotlardan tashkil topgan harbiy qism jang maydonidan qochadi. Yodgorshoh arlotning chap qanotda joylashganligidan kelib chiqsak, birinchi bo‘lib chap qanot qochishni boshlab berganligi oydinlashadi. Abdurazzoq Samarqandiy ham juvong‘or va barong‘or tarqalib ketganligini, g‘ulning o‘z eridan qo‘zg‘alib jo‘naganligini ko‘rgan Mirzo Ulug‘bek va amir Shohmalik ham jangni to‘xtatganliklarini ta’kidlaydi. Lekin muallif bu yerda Mirzo Ulug‘bek va amir Shohmalikni ehtiyot qilib yozgan ko‘rinadi. Chunki uning o‘zi balxliklarning aslaha yuklari samarqandliklar qo‘liga tushganligini qayd etgan. Bu esa markaz chekinsada jang maydonidan qochmay, jangni davom ettirganligidan dalolat beradi. Umuman olganda, Xalil Sulton rahbarligidagi Mavorounnahr lashkarining markazi tomonidan berilgan zarba jang taqdirini hal qiladi.

Xalil Sulton lashkarining ilg‘or qismlari Amudaryodan ham o‘tib, Shibirg‘on va Andxud viloyatlarini talon-taroj qiladilar. Lekin Mirzo Shohruxning ushbu hududga yaqin bo‘lgan Bodg‘is viloyatida turganligi sababli, Amir Sulaymonshoh, amir Arg‘unshoh va Ahmad chuhra boshchiligidagi Movarounnahr lashkarining ilg‘or qismi Amudaryo ortiga qaytishni ma’qul ko‘radi.

V.V. Bartold Mirzo Shohruxning bu vaqtda Mirzo Pir Muhammad bilan avvaldan kelishgan holda Murg‘ob daryosi bo‘yiga yetib kelgan bo‘lib, Movarounnahrga yurish qilishga tayyor turganligini ta’kidlaydi. Abdurazzoq Samarqandiy Mirzo Shohrux qish fasli oxiriga etganida Bodg‘is tomon yo‘lga chiqqanligini va manziliga etmasdan Nasaf jangi xususidagi xabarni eshitganligini qayd etgan. Fasih Xavofiy ham Mirzo Shohruxning Bodg‘is tomon yo‘lga chiqishi xabarini Nasaf jangidan avval keltirgan. Lekin Hofiz Abru Mirzo Shohrux Movarounnahr amirlarining Shibirg‘on va Andxudga hujumini eshitganidan so‘ng bu yerga yetib kelganligi ta’kidlagan. Bizningcha, Mirzo Shohrux Bodg‘is yaylovi tomon Mirzo Pir Muhammad qo‘shinlari Amudaryoni kechib o‘tganidan so‘ng yo‘lga chiqqan. Mirzo Shohrux ittifoqchilar qo‘shini Nasaf jangida g‘alabaga erishganida yurishga qo‘shilishi mumkin edi. Chunki u o‘z qo‘shinlarining bir qismini Mirzo Pir Muhammad lashkariga qo‘shib Movarounnahrga, yana bir qismini amir Jahonmulk boshchiligida Garmser viloyatiga yuborgan bo‘lib, bir vaqtda o‘z ixtiyorida qolgan qo‘shin bilan tavakkal qila olmasdi.

Movarounnahrning shimoliy chegaralaridan xavotirda bo‘lgan Xalil Sulton Mirzo Shohruxning avval tuzilgan sulhni mustahkamlash va yangilash borasidagi takliflariga rozilik bildirdi. Mirzo Shohruxning Xalil Sulton bilan sulh tuzishga shoshilishiga Xurosonning g‘arbiy chegaralaridagi siyosiy vaziyatning keskinlashganligi ham ta’sir o‘tkazgan. Birinchi bo‘lib, vaziyatni o‘rganish uchun Mirzo Shohrux amir Qanoshirinni Xalil Sulton oldiga yubordi. Xalil Sulton esa javob sifatida Mirzo Shohrux huzuriga o‘z navkari jo‘natdi. Navkar faqat Xalil Sultonning Nasaf jangidagi g‘alabasi haqida xabarni rasman yetkazish bilan

birgalikda avvalgi sulhga rioya etayotganligi haqidagi so‘zlarini yetkazdi, xolos. Xalil Sultonning maktubida Mirzo Pir Muhammadning suvdan o‘tib viloyatga bostirib kirganligi va mag‘lub bo‘lganligi qayd etilgani holda, Mirzo Ulug‘bek, amir Shohmalik, amir Nushervon barloslar borasida so‘z yuritilmagan. Ya’ni u o‘zining g‘alabasi haqida xabar yetkazish bilan cheklangan. Mirzo Shohrux esa o‘zining javobida Xalil Sulton qo‘shinlarining Shibirg‘on va Andxudga bostirib kirganligiga biroz e’tiroz bildirib, sulh shartlarini qaytadan mustahkamlashni taklif qilgan. Bu takliflar bilan amir Mazid Joniqurboniy Xalil Sulton huzuriga jo‘natilgan. Lekin Xalil Sulton sulh shartlari nufuzli amirlar ishtirokida yangilanishi zarur, deb hisoblagan. U amir Davlatxoja chingiziyni Mirzo Shohrux huzuriga jo‘natib, o‘zi tomonidan sulh shartlarini imzolash uchun amir Ollohdod va amir Arg‘unshohlar vakil etib tayinlanganligi bildiradi. Natijada Mirzo Shohrux ham o‘zining nufuzli amirlaridan amir Mizrob va qozi Qutbuddin Abdullohni sulh imzolash uchun yuboradi. Ushbu sulh shartlariga ko‘ra Xalil Sulton va Mirzo Shohrux mulklari o‘rtasidagi chegaralar o‘zgarishsiz qolishi mo‘ljallangan edi. Ammo sulh shartnomasi imzolanmaydi. Abdurazzoq Samarqandiyning ta’kidlashicha, bunga Xalil Sulton aybdor bo‘lgan. Amir Mizrob boshchiligidagi Mirzo Shohruxning elchilari Amudaryo bo‘yiga borgan bo‘lsalarda, Movarounnahr tomondan Xalil Sulton odamlari sulh shartnomasini imzolash uchun yetib kelmaydi. Natijada Mirzo Shohrux ularning ortga qaytishiga ruxsat bergan.

E’tiborlisi, sulh muzokaralari Mirzo Shohrux bilan olib borildi. Bu bilan Mirzo Pir Muhammadning siyosiy va harbiy mavqeini e’tiborsiz qoldirilishi hamda bunga Mirzo Shohruxning ham e’tiroz bildirmaganligi ittifoqchilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va hamjihatlikni buzishga urinish edi. Ayni vaziyatda Mirzo Shohrux go‘yoki bu yurishga o‘zining aloqasi bo‘lmaganligini ko‘rsatishga majbur bo‘ldi. Bu esa Xalil Sulton uchun ham ma’qul bo‘lgan. X.Fayziyev Mirzo Shohruxning Mirzo Pir Muhammad boshchiligidagi yurishida ishtirok etmasligiga Xalil Sulton bilan tuzilgan avvalgi bitimni buzmaslikka intilganligi ham ta’sir qilganligini ta’kidlagan.

Xalil Sulton ittifoqchilarni bo‘lib tashlash uchun bo‘lsa kerak, Mirzo Pir Muhammad bilan alohida sulh muzokaralarini olib borgan. Sulh tuzish taklifi Balx hukmdori tomonidan berilgan bo‘lib, Xalil Sulton unga rozilik bildirgan. Bu haqida ibn Arabshoh ma’lumot beradi. Ular o‘rtasida mazkur sulh muzokaralari va uning natijasi xususida boshqa manbalarda ma’lumot uchramadi. Lekin shunisi e’tiborga molikki, chindan ham Nasaf jangidan keyin ikki shahzoda o‘rtasida boshqa kelishmovchilik va nizolar yuz bermagan.

Nasaf jangidagi mag‘lubiyat Mirzo Shohruxning ham, Mirzo Pir Muhammadning ham saroyidagi vaziyatga salbiy ta’sir o‘tkazdi. Dastlab Mirzo Shohrux bilan uning eng nufuzli amiri, Mirzo Ulug‘bekning otalig‘i amir Shohmalik o‘rtasida nizo kelib chiqdi. X.Fayziyev Mirzo Shohrux amir Shohmalikni Mirzo Pir Muhammad huzuriga jo‘natib, o‘rtadagi ittifoqchilikni mustahkamlashga uringanligini ta’kidlasa ham manbalar bu fikrni tasdiqlamaydi.

Fasih Xavofiy Mirzo Shohrux va amir Shohmalik o‘rtasidagi nizo haqida so‘z yuritmasdan, u topshiriq bo‘yicha Balxga, Mirzo Pir Muhammad huzuriga jo‘natilganligini ta’kidlagan. Bizningcha, Nasaf jangidagi mag‘lubiyat uchun

aybdorlik ma’lum ma’noda amir Shohmalikka ham qo‘yilgan bo‘lsa kerakki, u Mirzo Shohruxdan ranjigan. Abdurazzoq Samarqandiy asarida ikki o‘rtadagi nizoning batafsil bayoni berilgan uchun ham ushbu ma’lumotni haqiqatga yaqin, deb hisoblaymiz. Amir Shohmalik 1406-yilning avgust oyida Mirzo Shohrux huzuriga qaytib kelgan. Nasaf jangidagi mag‘lubiyatning Mirzo Shohrux saroyiga salbiy ta’siri yana shunda ham ko‘rinadiki, ko‘p o‘tmay uning eng ishonchli amirlaridan biri amir ul-umaro Sayyidxoja ham isyon ko‘targan. Umuman olgan ushbu mag‘lubiyatdan so‘ng Mirzo Shohrux to‘liq Xurosondagi o‘z hokimiyatini mustahkamlash bilan band bo‘lishga majbur bo‘ldi.

Nasaf jangidagi mag‘lubiyatdan keyin Mirzo Pir Muhammad faoliyatida keskin pasayish kuzatildi. Uning shundan keyin biror bir yirik siyosiy va harbiy tadbir olib borganligi manbalarda aks etmagan. Aksincha, Abdurazzoq Samarqandiy Mirzo Pir Muhammad “jang maydonini bazm ayvoniga almashtirganligini” ta’kidlagan. Bu esa uni halokatga olib bordi. Mirzo Pir Muhammad Pir Ali Tozni o‘z saroyida sohib ixtiyor etib tayinlagan edi. Sekin asta butun davlat ishlari uning qo‘liga o‘tib bordi. Lekin Pir Ali Toz bu bilan qanoatlanmasdan hokimiyatning to‘liq o‘z ixtiyorida bo‘lishini istadi va 1407-yil 22-fevral kuni Mirzo Pir Muhammadning hayotiga xiyonatkorona suiqasd qildi.

Mirzo Pir Muhammadning o‘ldirilishi Mirzo Shohrux uchun ham, Xalil Sulton uchun ham o‘z mulklarini marhumning viloyatlari hisobiga kengaytirib olish uchun yaxshigina imkoniyat edi. Bu imkoniyatdan Xuroson hukmdori samarali foydalandi. U o‘zini Mirzo Pir Muhammad uchun qasos oluvchi sifatida ko‘rsatadi va ko‘p o‘tmay uning mulklarini amalda o‘z ixtiyoriga kiritib oladi.

Pir Ali Toz tomonidan amalga oshirilgan suiqasd xorijlik tarixchilar tomonidan ham o‘rganilgan. Turkiyalik tarixchi Ismoil aka Pir Ali Toz Xalil Sulton topshirig‘i bilan ish ko‘rganligini, unga Mirzo Pir Muhammadga tegishli viloyatlar berilishi va’da qilinganligini ta’kidlagan. Muallifning bunday fikr bildirishiga 1405-yili Pir Ali Tozning Xalil Sulton qo‘li ostidan Mirzo Pir Muhammad tomonga qochib o‘tganligi sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Manbalarda Ismoil Akaning fikrlarini tasdiqlaydigan ma’lumotlar mavjud emasligi X.Fayziyev tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan. Bu o‘rinda X.Fayziyevning fikrini qo‘llab quvvatlaymiz.

Xalil Sulton Movarounahr shimolidagi amirlar bilan xavfsiz munosabatlarni o‘rnata olmaganligi uchun hamda uning davlatchilik faoliyatida yo‘l qo‘ygan qator kamchiliklarining ta’sirida bu imkoniyatdan foydalana olmadi va ko‘p o‘tmay o‘zaro kurashda ustunlikni, tashabbusni to‘liq Mirzo Shohruxga topshirib qo‘ydi.

### *Movarounnahrda Mirzo Shohrux hokimiyatining o‘rnatilishi*

1407-yili Xalil Sulton Amudaryo bo‘ylarida o‘z davlatining janubiy sarhadlarini mustahkamlash bilan band bo‘lganligidan foydalangan Amir Xudoydod Husayniy Shayx Nuriddin bilan birgalikda Samarqand shahriga yurish qiladi. Garchi amirlar boshchiligidagi Farg‘ona va Turkiston qo‘shini shaharni egallay olmagan bo‘lsa-da, ular katta o‘ljani qo‘lga kiritgan. Lekin ko‘p o‘tmay, Mirzo Shohruxga qarshi Xurosonda navbatdagi isyonlarning boshlanishi Xalil Sultonga Movarounnahrdagi isyonchi amirlarni bo‘ysundirish uchun asosiy harbiy kuchlarni safarbar etish

imkonini berdi. U Shohruxiya, Xo‘jand va Toshkent shaharlarini o‘ziga bo‘ysundirdi. Ibn Arabshohning ma’lumotiga ko‘ra, Xalil Sulton hiyla ishlatib, chekinayotgan amirlarni o‘ziga hujum qilishiga erishdi va ularni mag‘lubiyatga uchratdi.

Ushbu mag‘lubiyatdan so‘ng Shayx Nuriddin Xalil Sulton bilan sulh tuzishga majbur bo‘ldi. Lekin o‘z ittifoqchisidan, shuningdek, Shohruxiya va Farg‘ona vodiysining muhim shaharlaridan biri Xo‘janddan mahrum bo‘lgan amir Xudoydod Husayniy unga qarshi kurashni davom ettirdi.

Xudoydod Husayniyning Xalil Sultonga qarshi navbatdagi yurishi 1409-yilda boshlangan. Ibn Arabshoh bu yurishning boshlanishiga Xalil Sulton olib borayotgan siyosatdan norozilikning kuchayib borayotganligi, jumladan, uning yirik amirlari Ollohdod va Arg‘unshohlarning Xudoydod Husayniyni Samarqand yurishiga chorlaganligi sabab qilib ko‘rsatadi. X.Fayziyev esa bu nizoda Shohrux mirzoning qo‘li borligini yozadi. Bu vaqtda Xurosonning Bodg‘is yaylovida qo‘shin to‘playotgan Mirzo Shohruxdan cho‘chib, o‘z qo‘shinlari bilan Keshda turgan Xalil Sulton Xudoydod Husayniyga qarshi amirlar Ollohdod va Arg‘unshohni 3 ming kishilik lashkar bilan jo‘natdi. Ushbu yurishga qadar Xudoydod Husayniy Xo‘jand, O‘ratepa va Shohruxiya shaharlarini qo‘lga kiritib olgan bo‘lsa kerak-ki, tarixiy manbalarda har ikki tomon qo‘shinlari Jizzax yaqinida to‘qnashganliklari ta’kidlanadi. Ollohdod va Arg‘unshoh Xudoydodga qarshi jang qilishga jur’at etmay, Xalil Sultondan yordam so‘raydilar. Xalil Sulton 4 ming askar bilan Keshdan Jizzax tomon yo‘lga chiqadi. Ibn Arabshohning bergan ma’lumotiga ko‘ra, aynan Ollohdod va Arg‘unshohlarning xoinligi natijasida Xalil Sultonning yordam uchun kelayotganidan xabar topgan Xudoydod Husayniy Jizzaxdan zudlik bilan yo‘lga chiqib, to‘satdan unga hujum qilgan. Hofizi Abru boshqa mualliflardan farqli ravishda Xudoydod Oq Ko‘tal yo‘lidan kelganligi haqida ma’lumot bergan. Abdurazzoq Samarqandiy Xalil Sulton Samarqand yaqinidagi Sheroz qo‘rg‘onida asir olinganligini ta’kidaydi, Ibn Arabshoh esa bu voqea Sultoniya qo‘rg‘onida yuz berganligini qayd etgan. V.V. Bartold ushbu voqea sanasini 1409-yil 30-mart, deb yozadi.

Amir Xudoydod Husayniy Xalil Sulton nomidan farmon berish yo‘li bilan tezda butun Movarounnahrni o‘ziga bo‘ysundirdi. Bu esa Mirzo Shohruxning butun Temuriylar mulklarini o‘z qo‘li ostida birlashtirish orzusiga to‘g‘ri kelmasdi. Shuning uchun ham u tezda katta lashkar bilan Movarounnahr tomon yurish boshladi. Garchi Xalil Sultonni nomigagina hukmdor sifatida saqlab turgan bo‘lsa-da, amir Xudoydod Husayniy Mirzo Shohruxga maktub jo‘natib, unga bo‘ysunishga tayyor ekanligini ma’lum qiladi. Bu bilan Xudoydod Husayniy Shohruxning noibi sifatida Movarounnahrni boshqarishga umid qilgan edi. Ammo Mirzo Shohruxga uning bu rejalari ma’qul kelmadi.

Mirzo Shohruxning Movarounnahr kelayotganligidan xabar topgan amir Shayx Nuriddin Xuroson qo‘shiniga yordam berish maqsadida Buxoro shahriga yurish qildi. Buxoro yonidagi jangda Shayx Nuriddin qo‘shinlari Xudoydod Husayniy tomonidan tor-mor keltirildi. Ammo Hisor viloyatini egallash uchun yuborilgan amir Xudoydod Husayniyning lashkarboshilari Amirak Mirzo Ahmad va Saydi Mirzo Ahmadlarning Mirzo Shohrux tomoniga o‘tib ketishi vaziyatni

tubdan oʻzgartirib yubordi. Mirzo Shohruxning behisob lashkariga qarshi chiqa olmasligini, uning Movarounnahrda tarafdorlari koʻpligini tushunib etgan Xudoydod Husayniy Fargʻona tomon chekinishga majbur boʻldi.

Asir olingan Xalil Sultonni oʻzi bilan Andijonga olib ketgan Xudoydod Husayniy hech boʻlmaganda vodiyni oʻz qoʻlida saqlab qolish maqsadida Moʻgʻuliston xonlaridan yordam soʻraydi. Movarounnahrda yagona davlatning qayta tiklanishidan manfaatdor boʻlmagan Moʻgʻuliston hukmdorlari unga yordam berishlari mumkin edi. Bundan xavfsiragan Mirzo Shohrux Xudoydod Husayniyni oʻz tomoniga ogʻdirishga harakat qildi. U shu maqsadda Laduniyo tarxon orqali amir Hudoydod Husayniyga maktub yoʻllaydi. Lekin Xudoydod Husayniy Mirzo Shohruxga bajarilishi mumkin boʻlmagan shart qoʻydi. U Shayx Nuriddinni bandi etishni talab qilgan edi. Shundan soʻnggina Mirzo Shohrux Movarounnahrning sharqiy hududlari tomon yurish boshlashga qaror qildi.

Yuzaga kelgan qaltis siyosiy vaziyatda amir Xudoydod Husayniy Moʻgʻuliston qoʻshini yetib kelguncha vaqtdan yutish maqsadida Mirzo Shohruxga “agar Amir Shayx Nuriddin bu tarafga kelsa, har nimaiki maslahatdan koʻrilsa, shunga kelishamiz”, deb xabar yubordi. Bu vaqtda Xudoydod Husayniyni oʻzi Toshkentda boʻlsa, uning oʻgʻli Ollohdod Shohruxiya qal’asida, yana bir oʻgʻli Abduholiq Xoʻjand togʻlaridagi A’lo qal’asida edi. V.V. Bartold ushbu qal’ani Oloy togʻlarida joylashganligini, B.Ahmedov esa Xoʻjand yaqinida ekanligini yozgan. Fargʻona vodiysini zabt etish, amir Abduholiqqa qarshi kurashish uchun Mirzo Amirak Ahmad boshchiligida qoʻshin joʻnatgan Shohruxning oʻzi Oʻratepaga kelib joylashdi. Shohruxiyani zabt etish esa amir Shohmalik boshchiligidagi lashkarga yuklatildi. Xudoydod Husayniyning moʻgʻullar bilan birlashishi katta xavf tugʻdirishini hisobga olgan Mirzo Shohrux amir Shayx Nuriddinni u bilan muzokara olib borish uchun Toshkentga joʻnatdi. Shayx Nuriddindan avval Toshkentga yetib kelgan moʻgʻul shahzodasi Sham’i Jahon Mirzo Shohrux qoʻshini qudratini hisobga olgan holda, Temuriylar davlati bilan vaziyatni keskinlashtirishni istamay, Xudoydod Husayniyni qatl etib, ortiga qaytib ketdi. Natijada koʻp oʻtmay, Shohruxiya qal’asi taslim boʻlib, Toshkent va Turkiston shaharlarida ham Mirzo Shohrux hukmronligi oʻrnatildi.

Bu vaqtda Andijon shahrida turgan Xalil Sultonda Fargʻona vodiysini oʻz tasarrufiga olish uchun hech qanday kuch yoʻq edi. U dastlab A’lo qal’asida turgan amir Abduholiqqa borib qoʻshildi. Vaziyatni toʻgʻri baholagan Mirzo Shohruxning oʻzi Xoʻjandga yetib keldi va A’lo qal’asini zabt etish uchun amir Shohmalikni yubordi. A’lo qal’asi ancha mustahkam va yaxshigina harbiy kuchga ega boʻlsa kerak-ki, amir Shohmalik qal’ani kuch bilan zabt eta olmaydi. Ikki oʻrtada tuzilgan ahdnomaga koʻra, himoyachilar qal’ani topshirib, oʻzlari xohlagan tarafga ketishga ruxsat oldilar. Dastlab amir Shayx Nuriddin yordamidan umid qilib, Turkiston viloyatiga borgan Xalil Sulton undan oʻzi xohlagan koʻmakni ololmaydi. Natijada koʻp oʻtmay, u Mirzo Shohruxga taslim boʻldi. Shu tariqa Fargʻona vodiysida Mirzo Shohrux hukmronligi oʻrnatiladi. Mirzo Shohrux vodiyni Amir Temur tomonidan 1376-yili Fargʻona mulkining hukmdori etib tayinlangan Mirzo Umarshayxning oʻgʻli Mirzo Amirak Ahmadga suyurgʻol qilib bergan.

Shu tariqa 1409-yili Movarounnahrda to‘liq Mirzo Shohruxning hukmronligi o‘rnatildi. Movarounnahr va Xurosonni bir hukmdor qo‘li ostida birlashtirilgani temuriylarning qolgan mulklarini ham yagona davlat tarkibiga kiritilishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

***Ta’lim texnologiyalari:*** *aqliy hujum, insert, SWOT, "bumerang", muammoli ta’lim, keys-stadi, vizual materiallar, xotira mashqi.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar:***

*1. Amir Temurning Xitoyga yurishi haqida nimalarni bilasiz?*

*2. Mirzo Pir Muhammad ibn Jahongir mirzoning valiahd qilinishi sabalarini aytib o‘ting*

*4. Shohrux mirzo 1404-yilda o‘tkazilgan qurultoyga nima sababdan chaqirilmagan?*

*4. Amir Temurning Xitoy yurishida nima uchun Xalil sultonni asosiy qo‘shini bilan olib ketdi?*

*5. Hudaydod Husayniyning Xalil sultonga qarshi chiqishining asosiy sabablari nimalarda iborat edi?*

*6. Xalil Sulton nima uchun Movarounnahrda mustahkamlana olmadi?*

*7. Nima uchun Shohrux mirzo 1409-yilga qadar Movarounnahrni egallab olishga shiddatli harakat qilmadi?*

*8. Shohrux mirzo davrida Farg‘ona vodiysi boshqaruvi kimning qo‘lida edi?*

## MAVZU: 1405-1409-YILLARDA XUROSONDA MIRZO SHOHRUX HOKIMIYATINING MUSTAHKAMLANISHI.

**Reja:**

*1. Amir Temur vafotidan keyin Xurosondagi siyosiy vaziyat.*

*2. Mirzo Shohrux hokimiyatining mustahkamlanishi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Shohrux mirzo, Shayx Nuriddin, Amir Xudoydod Husayniy, Amir Shohmalik, Ahmad mirzo, Farg‘ona, Ibrohim mirzo, Boysung‘ur mirzo, Oltin O‘rda, Misr sultoni Barsboy, Kaba kisvasi, Muhammad Sulton mirzo, Alouddavla mirzo, Qizilrabod mavzesi, Mo‘g‘uliston.*

### *Amir Temur vafotidan keyin Xurosondagi siyosiy vaziyat*

Amir Temurning vafot etganligi haqidagi xabar Hirotga 1405-yilning 1-mart kuni yetib keldi. Shohrux mirzo vaziyatni qo‘ldan chiqarmaslik, Xurosonda boshboshdoqlik yuz berishini oldini olish maqsadida Xuroson taxtiga chiqishga qaror qildi. U keyingi maqsadlarini amalga oshira olishi uchun ham dastlab o‘z mulkida hokimiyatini mustahkamlab olishi zarur edi. Abdurazzoq Samarqandiyning ta’kidlashiga ko‘ra Shohrux mirzoning taxtga chiqishi hijriy 807-yilning muqaddas ramazon oyiga, ya’ni melodiy 1405-yilning 3-mart – 1-aprel to‘g‘ri kelgan. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Shohrux mirzoning o‘zini hukmdor deb e’lon qilishi ramazon oyining birinchi kuniga, 1405-yilning 3-mart kuniga to‘g‘ri kelishi e’timoli katta.

Abdurazzoq Samarqandiy ko‘p o‘tmay Samarqand Xalil Sulton mirzo qo‘liga o‘tganligi haqidagi xabarlar kela boshlagach, Shohrux mirzo qo‘shinlarini yig‘ib Samarqand tomon yo‘lga chiqqanligini ta’kidlaydi. Bizningcha esa Shohrux

mirzo Amir Temur harami va yirik amirlar chorlagani uchun Samarqand tomon yo‘lga chiqishga qaror qilgan bo‘lishi kerak. Xalil Sulton avvalgi ma’ruzalarimizda ko‘rganimizdek, 1405-yilning 7-8-martidan avval Samarqandga kelmagan edi.

Shohrux mirzo Amir Mizrob, amir So‘fi tarxon, amir Aliko ko‘kaltosh va amir Xoja Rostiylarni Xurosonni boshqarib turish uchun qoldirishga qaror qildi. Ulardan ikkisi Shohrux mirzo uchun juda ishonchli insonlar edi. Ya’ni, amir So‘fi Tarxon qaynog‘asi (xotini Gavharshodbegimning og‘asi), amir Aliko esa ko‘kaldoshi (emikdoshi) edi.

Shohrux mirzo To‘qqizrabot mavzesiga yetkanda amir Abdusamatni Bodg‘is yaylovidagi lashkarni to‘plab, olib kelishga jo‘natdi. Xizrxoja va Shayx Qavchin esa Samarqanddagi vaziyatni o‘rganish uchun yuborildi. Hirotning shimoldagi Darayi Zangi (bu shimoliy Xurosondagi manzil, uni Surxon va Qarshi vohasining chegarasidagi Darayi Zangi bilan adashtirmang) manzilida Shohrux mirzo huzuriga Samarqanddan amir Sayyidxoja yetib keldi va Samarqand amalda Xalil Sulton qo‘liga o‘tib bo‘lganligini bildirdi. Xalil Sulton qo‘li ostida katta lashkar borligini yaxshi tushungan Shohrux Samarqand yurishini shu yerda to‘xtatishga qaror qildi. Samarqandan kelgan xabarlardan xulosa chiqarib, taxt uchun og‘ir kurashlar davri kelayotganligi his qildi va Hirot shahri qal’asini qayta tiklash to‘g‘risida farmon berdi. 1381-yili Amir Temur farmoni bilan vayron qilingan Hirot qal’asining devorlari Amir Feruzshoh rahbarligida 1405-yili qayta tiklandi. Shu tariqa bu shahar mustahkam qal’aga, Shohrux mirzo qayta markazlashtirgan temuriylar saltanatining markaziga aylana boshladi. Ko‘p o‘tmay saltanat poytaxti sifatida o‘z davrining eng yirik shahriga, siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga aylandi.

Shohrux mirzo Xurosondagi o‘z mulklarini mustahkamlash va o‘z lashkarini ko‘paytirish zarurligini tushungan holda, amir Sayyidxojani Tus, Mashhad, Niso, Abivard, Nishopur va Sabzavor viloyatlaridan xabardor bo‘lib turish hamda Tus qal’asini mustahkamlash uchun yuborildi. Shundan so‘ng Murg‘ob daryosidan kechib o‘tib, Samarqand tomon yo‘lni juda sekinlik bilan davom ettirdi. Shu vaqtda dastlab Samarqand taxtini qo‘lga kiritish harakati chippakka chiqan Mirzo Sulton Husayn tog‘asi Shohrux mirzo qo‘shiniga yetib kelib, xizmat kirdi. Samarqand tomon jo‘natilgan Xizrxoja va Shayx Hasan qavchinlar qaytib kelib, Xalil Sultonning taxtga o‘tirganligi xabarini yetkazdilar. Shohrux mirzo amir Hamza qatuquni Samarqandga elchi sifatida jo‘natib, Xalil Sulton bilan muzokara boshladi va uni o‘ziga bo‘ysunishga chaqirdi. O‘zi ham lashkari bilan yurishni davom ettirib, Andxud orqali Amudaryo bo‘yiga chiqdi va ko‘prik qurdirdi. Bu orada amir Shohmalik Buxorodan yetib kelib, Mirzo Ulug‘bek va Ibrohimlar xabarini yetkazdi va Movarounahrdagi vaziyatni batafsil yoritib berdi. Shohrux mirzoning elchisiga javoban Xalil Sulton tomonidan yuborilgan elchi ham maktub bilan kelib keldi. Maktubda Shohruxning o‘z mulki Xurosonda turishi buning evaziga, Xalil Sulton noib sifatida unga xazina va mol yuborishga tayyorligi bildirilgan edi.

Vaziyatni chuqur tahlil qilgan Shohrux mirzo katta xazinani qo‘lga kiritgan, o‘z lashkarini yanada ko‘paytirib borayotgan Xalil Sulton bilan kurashish vaqti emasligini his etib, Hirot tomon qaytishga qaror qildi. Bu esa o‘zining ta’sirini

yaqqol sezdirdi. Sulton Husayn mirzo Shohrux lashkari safini tark etib, Xalil Sulton xizmatiga kirdi. Bu vaqtda amir Abdusamat ham Bodg‘isdan lashkar to‘plab yetib keldi. Natijada Shohrux mirzo qo‘shini biroz bo‘lsa-da mustahkamlandi. Bu orada Xalil Sulton bilan muzokaralar davom etdi va har ikki tomon sulhga kelishdilar. Shohrux mirzoning Xalil sulton bilan sulh tuzishga moyilligining sabablaridan biri Xuroson erlaridan kelayotgan tashvishli xabarlar edi.

Ko‘p o‘tmay Xurosonda birin-ketin Shohrux mirzoning o‘ziga qarshi isyonlar boshlanib ketdi. Dastlab, 1405-yilning may oyida Xoja Mas’ud Sabzavoriyning o‘g‘li Xoja Sulton Ali Sabzavoriy o‘z sarbadorlariga tayangan holda Sabzavorda isyon ko‘tardi. Tajribali sarbadorlar temuriylarning 600 kishilik ilg‘orini o‘zlarining 100 kishilik kichik guruhi bilan mag‘lubiyatga uchratdilar. Shundan so‘ng temuriylar sarkardasi amir Sayyidxoja asosiy kuchlar bilan Jojarm qal’asini zabt etdi. Shundan so‘ng og‘ir janglar bilan Faryumad qal’asi bo‘ysundirildi. Shundan so‘ng amir Sayyidxoja lashkari Sabzavor qamaliga kirishdi. Bu vaqtda Mazondaron hokimi Pirak podshoh ham isyon ko‘tarib, o‘z lashkari bilan Sabzavorga yetib keldi. Sarbadorlar ham shahardan chiqib, Pirak podshoh lashkariga qo‘shildi. Amir Sayyidxoja shahar tashqarisidagi jangda isyonchilarni tor-mor keltirishga erishdi. Mag‘lubiyatga uchragan isyonchilar bu vaqtda Xuroson tomon yo‘lga chiqqan Mironshoh mirzo huzuriga qochib bordilar. Olib borilgan muzokaralardan so‘ng Mironshoh mirzo Sulton Ali Sabzavoriy va Pirak podshohning o‘g‘li Sulton Hasanni amir Sayyidxojaga topshirdi. Bu g‘alaba Shohrux mirzoning Xurosondagi mavqeyini mustahkamlashda muhim qadam bo‘ldi.

Amir Temur yetti yillik yurishda qaytayotgan vaqtda Ray viloyatiga amir Sulaymonshohni hokim etib qoldirgan edi. Sohibqiron vafoti haqidagi xabar kelishi bilan Mironshoh mirzo va uning o‘g‘illaridan cho‘chigan amir Sulaymonshoh o‘z viloyatini tashlab Shohrux mirzo xizmatiga kelgan edi. Shohrux mirzo uni yaxshi kutib oldi va ko‘p o‘tmay unga Saraxs viloyatini in’om etdi. Bu vaqtda Amir Temurning nabiralaridan biri (qizining o‘g‘li) Sulton Husayn mirzo Xalil Sultondan mag‘lub bo‘lgach, Sulaymonshoh oldiga qochib kelgan edi. Ular birgalikda Shohrux mirzo huzuriga tashrif buyuradilar. Lekin Shohrux mirzo arkoni davlatning maslahati bilan Sulton Husayn mirzoni qatl ettiradi. Bu esa amir Sulaymonshohni ranjitadi. U o‘z viloyatiga qaytgach, Amir Temur buzdirgan Kalot qal’asini qayta tiklattiradi va Shohrux mirzodan amir Shohmalikni davlat ishlaridan chetlashtirishni, amir Nushervon barlosni (Sulton Husayn mirzoni qatl etish vazifasini bajargan edi)esa qatl etishni talab qiladi. U o‘z talablari bajarilmagach, 1405-yilning oktyabrida esa Kalot qal’asida isyon ko‘taradi. Shohrux mirzo amir Sulaymonshoh huzuriga bir necha bor amirlarni jo‘natib isyonni tinch yo‘l bilan bartaraf etishga harakat qildi. Ammo amir Sulaymonshoh itoatdan bo‘yin tovlashda davom etaverdi.

Bu vaqtda Amir Temur farmoni bilan 1404-yili Kichik Osiyodan Mo‘g‘uliston chegaralariga ko‘chirilgan qaro totor turkmanlari Xuroson mulklari orqali vatanlariga qaytish uchun kelayotgani to‘g‘risida Moxondan amir Cherkasning elchisi xabar yetkazdi. Qaro totorlarning Xuroson mulkiga kirishi

hududning tolon taroj boʻlishiga olib kelishiga sabab boʻlishini yaxshi tushungan Shohrux mirzo shoshilinch choralar koʻrib, amirlar Sayyidxoja, Shohmalik va Jahonmulklarni ularga qarshi yubordi. Ularning vazifasi qaro totorlarni oʻtroq hududlarga kirib kelishigsha yoʻl qoʻymasdan choʻl hududlari orqali oʻtkazib yuborish edi. Bu vazifani bajarish chogʻida amir Sayyidxoja Astrobob hokimi Pir podshohning Samarqandda saqlab turilgan oʻgʻli Sulton Alini qoʻlga kiritishga erishdi. U oʻz ukasi bilan Samarqanddan vatani tomon qaytayotgan edi. Shohrux mirzo Sulton Alini Astrobodga joʻnatib yuborgan boʻlsa ham uning ukasini Hirotda olib qoldi va bu bilan oʻzining Astroboddagi taʼsirini mustahkamlashga intildi.

Qaro totorlar masalasi har etilgach, lashkar Shohrux mirzo rahbarligida Kalotdagi Sulaymonshoh isyonini bostirish uchun yoʻl oldi. Xuroson lashkariga qarshi tura olmasligi sezgan isyonchilar Samarqandga qochib ketishga majbur boʻldi. Xurosonning shimolida tinchlik oʻrnatishga erishgan Shohrux mirzo 1405-yilning 31-oktyabri kuni Hirotga yetib keldi.

Seyistondagi voqealar Shohrux mirzoni Hirotga qaytishini va Xuroson janubidagi vaqelar bilan shugʻullanishini taqazo qilayotgan edi. Amir Temur Seyistonning zabt etganidan soʻng u yerning mahalliy hokimlarini oʻz oʻrnila saqlab qolgan edi. Bu vaqtda Seyiston hokimi Shoh Qutbiddin boʻlib qoʻshnisi boʻlmish Faroh shohlari Shoh Ali va Shoh Gʻiyosuddinlar isyon koʻtarganligini bildirdi. Natijada Farohda amir Hasan Jondor boshchiligida qoʻshin joʻnatildi. Amir Hasan isyonni bostirib, u yerlarda Shohrux mirzo hokimiyatini qayta tiklashga erishdi. Ammo mazkur viloyatlarni boshqarish mahalliy hokimlar qoʻlida qolaverdi.

Shohrux mirzo Movarounnahrga yaqin boʻlgan Andxud va Shibirgʻon viloyatlarini Mirzo Ulugʻbekka hadya etib, Amir Shohmalikni uning otaligʻi qilib yubordi. U Movarounnahr masalasi bilan Mirzo Ulugʻbek va Shohmalik shugʻullanishini oʻzi esa ularni qoʻllab-quvvatlashni rejalashtirgan edi.

Xurosonda Shohrux mirzo hokimiyatining mustahkamlanishiga katta hissa qoʻshgan Amir Sayyidxojani esa amir ul umaro lavozimiga tayinladi. Shundan soʻng Shohruxning hokimiyatini eʼtirof etmagan Gʻur va Garmser hududlarining hokimi Mahmud Garmseriyga qoʻshin yuborildi. Bu qoʻshinga amir Jahonmulk boshchilik qilgan. Jangda magʻlub boʻlgan Mahmud Garmseriy Xuroson hududlarini tark etdi. Amir Jahonmulk esa Durfishoy qalʼasini tiklab, bu viloyatda ham Mirzo Shohrux hokimiyatini mustahkamladi.

***Mirzo Shohrux hokimiyatining mustahkamlanishi***

Bu vaqtda taxt merosxoʻri Mirzo Pir Muhammad Movarounnahrni Shohrux mirzo yordamida zabt etmoqchi boʻldi. 1406-yilning qishida Pirmuhammad Mirzo va mirzo Ulugʻbeklar Movarounnahrga bostirib kirdilar. Shohrux mirzoning roziligi bilan Amir Shohmalik 1406-yilning fevralida Pir Muhammad mirzo bilan birgalikda Samarqand tomon yurish qildilar va magʻlub boʻldilar. Bu yurishda Mirzo Shohruxning asosiy kuchlari Garmserda band boʻlganligi uchun qatnasha olmadi.

Bu magʻlubiyat biroz boʻlsa-da, Shohrux mirzoning obroʻyiga salbiy taʼsir etdi. Bu safar uning amirlari oʻzaro nizolashib qolishdi. Movarounnahrdan

mag‘lub bo‘lib qaytgan amir Shohmalik amir Sayyidxojaning nufuzi oshib ketganligiga norozilik bildirdi. Olib borilgan muzokaralar samara bermagach u Mirzo Shohruxni tark etib, Mirzo Pirmuhammadga borib qo‘shildi.

Amir Shohmalikni ketishi Amir Sayyidxojaning nufuzini oshirib yubordi va 1406-yilning may oyida u ham isyon ko‘tardi. Eng tashvishlisi shu ediki, Abdusamad, Tohir, Fozil, Shamsiddin, Shayx Ali, Abu Muslim va boshqa bir necha yosh amirlar Sayyidxoja xizmati kirishni ma’qul ko‘rdilar. Shohrux mirzoning amir-ul-umarosiga aylangan Sayyidxoja Tus va Jom viloyatlarini egallab oldi va Umarshayx mizoning avlodlarini Xuroson taxtiga chiqarmoqchi bo‘ldi. Bu Shohrux mirzo uchun katta yo‘qotish edi. Shuning uchun uning o‘zi bu harbiy yurishga boshchilik qildi. Amir Sayyidxojaning isyoni haqida xabar topgan Mahmud Garmseriy yana G‘ur chegaralarida paydo bo‘lib, viloyatni talon-taroj qila boshladi. Unga qarshi amir Uvays va Tag‘oy merganlar boshchiligida qo‘shin jo‘natildi. Shuningdek, Xoja Ali Nasrulloh Turshiziy Pajvorud qal’asida isyon olovini yoqa boshladi. Bu qo‘zg‘olon amir Mizrob tomonidan bostirildi.

Amir Sayyidxoja Shohrux mirzo lashkariga qarshilik qilishga jur’at etmay Mozandaronga chekindi. Uning isyoni esa amir Shohmalikni yana Shohrux mirzo xizmatiga qaytishiga imkon berdi. Shuningdek, G‘arbiy Eronda o‘zaro urushlarda yengilgan Mirzo Umarning Xuroson lashkariga qo‘shilishi Shohrux mirzo lashkarini mustahkamladi. 1406-yilning yozi Amir Sayyidxoja va unga yordamlashgan Mazondaron hukmdori Pir podshohga qarshi kurash bilan o‘tdi. 1406-yilning 29-sentyabrida itifoqchi amirlar qo‘shini Shohrux mirzo bilan janga kirdi. Jang Shohrux mirzoning to‘la g‘alabasi bilan yakunlandi. Natijada Shohrux mirzo qo‘shinlari Gurgon, Dehiston, Astrobod va Damg‘on viloyatlari qo‘lga kiritdilar. Bu viloyatlar Mironshoh mirzoning o‘g‘li Mirzo Umarga topshirildi. E’tiborli jihati shuki, shu bilan Shohrux mirzo Mozondaron va Astroboddagi mahalliy hokimlik sulolalarini tugatdi va u yerda temuriylarning hukmronligini mustahkamladi. Xabushon, Kalot, Board, Niso, Yozir, Sabzavor va Nishopur viloyatlarini boshqarish esa Mirzo Ulug‘bek orqali Amir Shohmalikka taqdim etildi. Aynan shu g‘alaba Shohruxning Xurosondagi hokimiyatini ancha mustahkamladi.

1407-yil esa Shohrux mirzo hududlarini kengayishiga sabab bo‘lgan kutilmagan voqealar bilan boshlandi. 1407-yili 22-fevral kuni Pir Muhamad mirzo o‘z amiri Pir Ali Toz tomonidan o‘ldirildi. Mirzo Sayyid Ahmad Mirak Shibirg‘on viloyatidan Shohrux mirzo oldiga qochib keldi va yordam so‘radi. Shohrux mirzo Mizrob, Hasan So‘fi tarxon, Nushirvon kabi amirlarning bir guruhini yordamga yubordi.

Lekin Pir Muhammad Mirzo yerlarini tezda, to‘liq qo‘shib olish uchun bir necha voqealar halaqit berdi. Dastlab Ispandi G‘uriy isyon ko‘tardi. Shohrux mirzoning o‘zi 1407-yil 1-mart kuni Isfizorga yetib keldi va amir Hasan Jondor va amir Jahonmulkni G‘ur viloyatiga jo‘natib, isyonni bartaraf etdi.

Eng asosiysi esa yaqindagi Mozandaron hokimi etib tayinlangan Mirzo Umarning Shohrux mirzoga qarshi yurish boshlaganligi edi. Mirzo Umar Mozondaron va uning atrofidagi erlar hokimiga aylangach, o‘z mulklarini askarlarga iqto qilib berish orqali katta lashkar to‘pladi. Ray viloyatida

yashayotgan ikki ming mo‘g‘ul xonadonini ham ko‘chirib kelib, o‘z lashkari safiga qo‘shdi. Mirzo Umarning Xurosonda amir Shohmalik boshchiligidagi amirlar guruhi bilan Shohrux o‘rtasida nizo chiqishiga umid qilgan holda isyon boshlagan edi. Uning bu umidi o‘zini oqlamadi. Shohrux mirzo o‘z amirlarini atrofida birlashtira oldi va Mirzo Umarga qarshi shaxsan o‘zi igtirokida qo‘shin tortdi. 1407-yilning 17-aprelida Jomning Bardaviya qishlog‘i yaqinida Shohrux mirzo Mirzo Umar qo‘shinlarini to‘la tor-mor etdi. Unga berilgan erlarni ham Mirzo Ulug‘bekning mulklariga qo‘shib berishga qaror qildi.

G‘ur viloyatidagi notinchliklar to‘liq bartaraf etilmagan edi. Chunki bu viloyatdagi mahalliy hokimlar o‘z vaqtida Amir Temur hokimiyatini tan olgan bo‘lsalar-da, uning vafotidan keyin boshlangan o‘zaro urushlardan foydalanib mustaqillikka intila boshladilar. Har safar Shohrux mirzo yuborgan qo‘shin kelishi bilan G‘urning mahalliy hokimlari ularga bo‘ysunar, qo‘shin qaytishi bilan yana istiqlolchilik harakatini boshlar elilar. O‘z vaqtida Hindistonga qochib ketgan mahalliy hukmdorlardan birining o‘g‘li Malik Solih G‘ur viloyatiga qaytganida bu yerning hokimi Muhammad Sipahbadi G‘uriy ham unga qo‘shildi. Ular birgalikda Shohrux mirzo yuborgan soliqchilarni qatl etib, boyliklarni musodara etdilar. Bu safar Shohrux mirzoning o‘zi bu viloyatga yurish qilishni lozim topdi. Lekin amirlar bu notinch viloyatga hukmdorning kelishi xavfli deb topdilar va amir Shayx Luqmon Barlos hamda amir Hasan Jondor boshchiligida lashkar jo‘natildi. Lekin bu qo‘shin ham vazifani bajara olmadi. Isyon kengayib ular safiga Garmser viloyatining noiblaridan Mavdudi Garmseriy ham qo‘shilganligi bo‘ldi. Shundan so‘ng Hirotdan amir Jahonmulk, amir Sayyid Ahmad tarxon va amir Farmonshayxlar boshchiligida katta lashkar G‘ur viloyatiga yuborildi. Natijada isyon bostirilib, Malik Solih asir olindi. Ammo G‘ur viloyati mahalliy hokimlar qo‘lida qolaverdi. Ulardan boju xiroj olish bilan cheklanildi.

Shundan so‘nggina 1407-yilning 8-yun kuni Shohrux mirzo barcha kuchlari bilan Pir Ali Toz ustiga yurish boshladi. Dastlab isyonchilar egallab olgan Andxud dushmanlardan ozod qilindi. Dastlab lashkar to‘plab Mirzo Shohrux peshvoz chiqib kelayotgan Pir Ali Toz Puli Xatabgacha yetib keldi. Shohrux mirzo Duka manziliga yetib kelgan vaqtda Pir Ali Toz chekinishni ma’qul ko‘rdi. Xuroson lashkari qarshiliksiz Balx shahrini qo‘lga kiritdi. Pir Ali Toz esa bor mulki va boyliklaridan ayrilib, tog‘lar orasida yashirindi. Xuttalon hokimi Sulton Mahmud va Soli Saroy hokimi Xoja Alilar ham Shohrux mirzo hokimiyatini tan oldi. Amir Temur farmoni bilan 1370-yili vayron qilingan Balxning Hinduvon qal’asi qayta tiklandi va Shohrux mulklarining shimoliy chegaralaridagi mustahkam qal’aga aylantirildi. Balx viloyatini (Kobul, G‘azni, Qandahor hududlari bilan birgalikda) boshqarishni marhum Pir Muhamad Mirzoning o‘g‘li Mirzo Qayduga topshirildi. 11 yoshli shahzodaga viloyatni boshqarishda ko‘maklashish uchun Shohrux mirzo o‘z navkarlarini ham u yerda qoldiradi. Natijada Amir Temurning ikki ulusi Xuroson va Balx, Kobul, G‘azni, Qunduz viloyatlari Shohrux mirzo qo‘li ostida birlashtirildi.

Amir Temur vafot etganidan so‘ng Xurosondagi mahalliy hokimlik sulolalari o‘z mustaqilliklari uchun kurash olib borganliklari haqida yuqorida to‘xtalgan edik. Bunga qarshi kurash olib borgan Shohrux mirzo Mozondaron va

Astroboddagi mahalliy hokimlik sulolalarini tugatgan edi. Lekin ular o‘z hokimiyatlarini qayta tiklash uchun kurashni to‘xtatmadilar. 1407-yilning yozida bu yerlarning sobiq hokimi Pir podshoh joniy qurboniy va tukaliy nomli turkman urug‘laridan qo‘shin to‘plab, Mozandaronga bostirib keldi hamda Astrobodni qamal qildi. Shohrux mirzo amir Mizrobni Seyiston va Garmser viloyatlari tomon yuborib, o‘sha tomonda qishlashni buyurdi. Ya’ni, unga Xurosonning markaziy hududlarini Seyiston va Garmserdagi ko‘chmanchi qabilalarning hujumlaridan qish davomida himoya qilish topshirildi. O‘zi esa qo‘shinni ikkiga bo‘lib, Jom va Mashhad yo‘li bilan Astrobod tomon yo‘lga chiqdi. Pir podshoh katta lashkarga dosh berolmasligini anglab cho‘lga chekindi. Xuroson qo‘shini o‘lkani ozod etgach, mavjud qal’alarni mustahkamlashga kirishdi. Jumladan, Astrobod va Shasmon qal’alari ta’mirlandi. 1407-1408-yil qishini Shohrux mirzo Mozandaronda o‘tkazdi. Bu bilan ko‘chmanchilarning qishgi hujumlarining oldi olindi.

Amir Sayyidxoja isyoni bostirilganidan keyin amir ul-umaro lavozimi va mulklari amir Jahonmulk qo‘liga o‘tgan edi. U qavchin qabilasidan bo‘lib, yoshligidan Shohrux mirzoga xizmat qilib kelgandi. Devondagi moliyaviy qing‘irlik sababli amir Jahonmulk va uning yaqinlari aybdor bo‘lib qolishdan cho‘chib, Shohrux mirzoga qarshi til biriktirdilar. Aslida bu moliyaviy qalloblikda ular aybdor bo‘lmasa ham jazoga yo‘liqish xavfidan cho‘chidilar. Bir necha yirik amirlar ham ular tomoniga o‘tdilar. Natijada 1408-yilning 27-aprel kuni kutilmaganda isyon boshlandi. O‘ziga qarshi suiqasd tayyorlanganligidan xabardor bo‘lib qolgan Shohrux mirzo Seyistondan qaytgan amir Mizrob yordamida isyonni bartaraf qila oldi. Shohrux mirzo isyonchilarning ba’zilarini qatlga yetkazdi, bir qismini esa avf etdi.

1408-yili amir Pir Ali Toz badaxshonliklardan va tog‘lardagi hazoralardan tarafdor yig‘ib yana Balx viloyatiga bostirib kirdi. Dastlabki jangdayoq Xuroson lashkari isyonchilarni tor-mor keltirdi. Shundan so‘ng hazoralarning sardorlari o‘zaro maslahat qilib Pir Ali Tozni qatl etdilar va Shohrux mirzoga topshirdilar. Shu orqali o‘zlari ham uning hokimiyatini e’tirof qildilar.

G‘arbiy Erondagi o‘zaro urushlarda mag‘lub bo‘lgan Mirzo Abubakr Seyistonga keldi va uning hokimi Shoh Qutbiddin bilan hududni birgalikda boshqarishga ahdu paymon qildi. Mirzo Abubakrni qo‘lash orqali Seyiston hukmdori o‘ziga qo‘shni hududlarni bo‘ysundirishni mo‘ljallagan edi. Qolaversa, uning Mirzo Abubakr hokimiyatini tan olishi bundan keyin Shohrux mirzoga bo‘ysunmasligini ham bildirardi. Shuning uchun ham Shohrux mirzo 1408-yilning 1-oktyabr kuni katta lashkar bilan Hirotdan Seyiston tomon yo‘lga chiqdi. Dastlab Faroh viloyatidagi qal’alar bo‘ysundirildi. Bu tog‘li hududdagi istehkomlar juda mustahkam bo‘lib, ularni zabt etish katta kuch va mashaqqat talab qildi. 10 kunlik janglardan so‘ng viloyatning bosh istehkomi bo‘lgan Faroh qal’asi zabt etildi. Shundan so‘ng O‘q qal’asini egallashga kirishildi va u ham qamal janglari bilan bo‘ysundirildi. Korunak va Guyin qal’alari esa jangsiz taslim bo‘ldi. Shundan so‘ng temuriylar qo‘shini Seyistonning Zarah hududi tomon yo‘l oldi. Seyiston hokimi Shoh Qutbiddin esa Shohrux mirzo huzuriga o‘zining elchisini ham jo‘natmadi yoki o‘zi ham kelib bo‘ysunish izhor etmadi. Farohni bo‘ysundirish

davomida kata kuch yo‘qotgan Shohrux mirzo Seyistondagi tog‘ qal’alarini bo‘ysundirish va uning cho‘llaridan o‘tish naqadar mashaqqatligini tushungan holda yurishni to‘xtatishga majbur bo‘ldi. Ammo hududni suv bilan ta’minlovchi Roshkak, Shahr va Bulg‘og‘oniy to‘g‘onlarini buzdirib yubordi. Natijada mazkur hududda qahatchilik boshlandi. Seyistonga chegaradosh Vaytan va Zarah viloyatlari ham shu tarzda vayron qilindi. Noiloj ortga qaytgan Shohrux mirzo O‘q va Faroh viloyatlariga yana mahalliy hokimlarni tayinladi. O‘q viloyatini boshqarish Pahlavon Jamol Yakkam, Faroh viloyatini hokimligi esa Shoh Iskandarga topshirildi. Shohrux mirzo hududlarni parchalab, ularni har biriga alohida hokim tayinlagan bo‘lsa-da, u yerlarga o‘zining amaldorlarini tayinlashga jazm etmadi. Chunki buyerlarda o‘z harbiy kuchlarini qoldirish uchun Shohrux mirzo yetarli resurslarga ega emas edi.

Umuman olganda Shohrux mirzo 1405-1408-yillar davomida Xuroson mulkidagi o‘z hokimiyatini mustahkamlay oldi. Shimoliy Xurosondagi mahalliy hokimliklar sulolasini tugatdi va u yerlarda temuriylarning boshqaruv tizimini to‘liq joriy qildi. Qolaversa, marhum Mirzo Pirmuhammadga qarashli mulklarda ham o‘z hokimiyatini o‘rnatishga erishdi. 1408-yilga kelib uning qo‘li ostida Astrobod, Durun, Niso, Abivard, Sabzavor, Nishopur, Tus, Jom, Mashhad, Saraxs, Marv, Andxuy, Shibirg‘on, Balx, Qunduz, Kobul, G‘azni, Qandahor, Hirot viloyatlaridan iborat katta hudud birlashgan edi.

***Ta’lim texnologiyalari:*** *insert, Venn diagrammasi, SWOT, "bumerang", muammoli ta’lim, keys-stadi, vizual materiallar, zig-zag.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar:***

*1. Shohrux mirzo nima sababdan Samarqand yurishini kechiktirgan ?*

*2. Pir Muhammad mirzo va Shohrux mirzolar o‘rtasidagi ittifoq xususida fikr yuriting.*

*3. Shohrux mirzoning 1406-yildagi Movarounnahr yurishida ishtirok etmaganini tushuntiring.*

*4. Amir Sayyidxojani Shohrux mirzoga qarshi chiqishining sabablari nimada?*

*5. Shohruh mirzo qanday yo‘l orqali Mirzo Pirmuhammadga qarshli mulklarni o‘ziga qo‘shib oldi?*

*6. 1407-yildagi Astrobod yurishi haqida nimalarni bilasiz?*

*7. Shimoliy Xurosonda Shohrux mirzo tomonidan mahalliy hokimliklarning tugatilishi xususida fikr yuriting?*

*8. Qanday omillar Shohrux mirzo hokimiyatini mustahkamlashga sabab bo‘ldi?*

## MAVZU: 1405-1412 YILLARDA TEMURIYLARNING G‘ARBIY MULKLARIDAGI SIYOSIY VAZIYAT.

### Reja:

*1. Mirzo Mironshoh ulusidagi siyosiy jarayonlar.*

*2. Mirzo Umarshayx suyurg‘olidagi siyosiy vaziyat.*

***Kalit so‘zlar:*** *“yetti yillik” yurish, Mironshoh mirzo, Abubakr mirzo, Umar mirzo, Iroq, Ozarbayjon, Arron, Mug‘on, Armaniston, Gurjiston, Shirvon, Qora*

*Yusuf, turkmanlar, suyurg'ol, Olinjaq qal'asi, Shayx Ibrohim, Bistom, Shohruh mirzo, Fors viloyati, Usmonli turklar, amir Jahonshoh, amir Bistom, Sovuqbuloq, Isfahon, Mirzo Pir Muhammad, Mirzo Iskandar.*

***Mirzo Mironshoh ulusidagi siyosiy jarayonlar***

Amir Temur "Yetti yillik" yurishdan qaytish chog'ida Iroq, Ozarbayjon, Arron, Mug'on, Gurjiston, Shirvon mamlakatlarini Mirzo Umarga suyurg'ol qilgan edi. Sharofuddin Ali Yazdiy bu hududlar chegarasini Rum va Istanbulgacha, Misr va Shomgacha deb ta'riflagan. Shuningdek, Fors viloyatini boshqarishga qo'yilgan marhum Mirzo Umarshayxning farzandlari ham Mirzo Umarga bo'ysunishlari belgilangan edi.

Aslida Mirzo Umarning shaxsiy boshqaruvidagi erlar Ozarbayjon (hozirgi Eron Ozarbayjoni), Arron va Mug'on hududlari bilan cheklangan edi. Arron va Mug'on ham nisbatan notinch o'lkalar bo'lib, bu yerdagi ko'chmanchi oq quyunli va qora quyunli turkmanlar doimo o'z istiqlollari uchun kurash olib borishga tayyor edilar. Ularning bir qismi Ozarbayjondan Arron va Mug'onga surib chiqarilgandi. O'troq aholi arman va islom dinini qabul qilgan arablashgan mahalliy aholidan iborat bo'lib, ular ustun kelgan ko'chmanchilarga yoki davlatga o'lpon to'lab siyosiy hayotga ko'p ham aralashmas edilar. O'troq aholi asosan mustahkamlangan istehkomlarda yashagani ham bu hududlarda siyosiy vaziyat doimo beqaror bo'lganligini ko'rsatadi.

Iroq esa Mirzo Umarning akasi Mirzo Abubakrga in'om etilgan edi. Shirvon va Gurjiston yarim qaram hududlar bo'lib, bu o'lkalarning o'z hukmdorlar boshqarar, ularning qaramligi asosan o'lpon to'lash bilan cheklangan. Faqat Shirvon hokimi ba'zi vaqtlarda temuriylar lashkarida xizmat qilish uchun qo'shin jo'natganligi ham ma'lum.

Qolaversa, Sharofuddin Ali Yazdiy keltirgan ushbu ma'lumot ham kimlar temuriylarga yarim qaram shaklida bo'ysunganligiga aniqlik kiritadi: "amir Shayx Ibrohim (Shirvon hokimi), Mardinning hokimi Sulton Isa va Malik Izzuddin va Kustandil Gurji va Tizak va Joliq va Bistom barchani xil'atlar berib va oltin kamarlar in'om qilib, barchani shahzoda Umarga mulozim qildi". Bu parchada Mirzo Umarga qaram bo'lgan mahalliy hokimlar nomlari keltirilgan bo'lib, ular imkon bo'lishi bilan mustaqil bo'lishga intilishlari tabiiy edi.

Bu vaqtda Armaniston davlati mavjud emas edi. Armanlar yashagan erlarning bir qismi Gurjiston tarkibida bo'lsa, asosiy qismi oq va qora quyunli turkmanlar tomonidan egallangandi. Armanniston yaylovlarida bu ko'chmanchi qabilalar chorvachilik bilan shug'ullanar, o'troq armanlar esa ularga o'lpon to'lardilar. Temuriylar davlati bu yerlarni zabt etgan davrlarda esa armanlar o'lponni ko'chmanchilarga emas, davlatga to'laganlar. Ammo ko'chmanchi turkmanlar Amir Temur bu yerdan uzoqlashishi bilan armanlari o'zlari uchun o'lpon to'lashga majbur qilishga harakat qilishgan. Armanlar yashagan yerlarning bir qismi esa Usmonli turklar ta'sirida bo'lib, u yerda ham turkmanlar xo'jayin edi. Bu turkmanlar usmonli turklarni oliy hukmdorlari sifatida tan olishga majbur edilar.

Usmonli turklarning tor-mor keltirilishi mazkur hududlarda temuriylar davlatining ta’sirini kuchaytirgan bo‘lsa-da, ular bu yerlarda mustahkam o‘rnashish uchun yetarli resursga (ko‘chirib keltirilgan aholi va qo‘shin, Amir Temur Mirzo Umar ixtiyorida 10 ming kishilik qo‘shin hamda Jahonshoh, Rustam, Musa, Tukal Yodgor barlos, Junayd burilday kabi beklarni qoldirgan) ega emas edilar. Shuning uchun ham temuriylar mahalliy amirlarning bir qismini o‘z xizmatlariga olishga hamda ular boshqaruvidagi lashkarga tayanishga majbur bo‘lganlar. Bu lashkar esa birinchi imkoniyatdayoq temuriylarning dushmaniga aylananishga tayyor edi. Temuriylar bu viloyatlarda asosan o‘troq aholi vakillariga, ya’ni hunarmandlar, savdogarlar va boshqa shahar aholisi hamda dehqonlarga tayanishi mumkin edi. Buning uchun esa ularning manfaatiga mos zukko siyosat olib borib, o‘z ta’sirlarini oshirishlari kerak bo‘lardi. Afsuski, asosan lashkarning yirik amirlari ta’sirida bo‘lgan temuriy shahzodalar o‘troq aholini soliq to‘lovchi ob’ekt sifatida qabul qildi, xolos. Ularni siyosiy va harbiy kuchga aylantirishga urinmadi. Buning uchun ularda vaqt ham bo‘lmagan edi, aslida.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, temuriylar mazkur hududlarda o‘zlarining hokimiyatlarini faqat harbiy kuch evaziga ushlab turar edilar. Amir Temur davrida shahar aholisi bilan paydo bo‘lgan ittifoq (o‘z vaqtida tabrizlik savdogardar Amir Temurni Tabrizni qo‘lga kiritishidan manfaatdor bo‘lib, uni chorlagan edilar. Shu holatni Bog‘dod misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Bu haqida rus tarixchisi A.Y. Yakubovskiyning fikrlari, muarrix ibn Arabshohning ma’lumotlari mavjud) uning avlodlari davrida mustahkamlanmadi, aksincha buzildi. Natijada temuriylar g‘arbiy mulklarida ularning hokimiyati yanada zaiflashdi.

Amir Temur 1404-yilning may oyida Ozarbayjonni tark etdi va shu vatdan boshlab bu hududlarda Mirzo Umarning faoliyati boshlandi. Mirzo Abubakr Bog‘doddan ukasi mirzo Umar huzuriga kelib uning xizmatida ekanligini bildirdi va ruxsat olib viloyatiga qaytdi. Shirvon hokimi Shayx Ibrohim ham shu tarzda uning xizmatida ekanligini bildirdi. Naxchevonning Olinjaq qal’asi zabt etilmagan bo‘lib, shu istehkom ichidagi isyonchilar atrofdagi aholini talash bilan shug‘ullanardi. Mirzo Umar o‘zining bosh amiri Jahonshohbekni ushbu qal’ani egallash va buzish uchun jo‘natdi. O‘zi esa avval Tabriz so‘ngra Qorabog‘da turib hududni boshqara boshladi.

1405-yilning mart oyida Amir Temur vafoti to‘g‘risidagi xabar yetib keldi. Sohibqiron o‘zining do‘sti va ko‘p yillik hamrohi amir Jahonshohbekni Mirzo Umarning bosh amiri lavozimiga tayinlab ketgan va unga nabirasini omonat topshirgan edi. Mirzo Umarga ham Jahonshohbekning maslahati bilan ish ko‘rish topshirilgan edi. Ammo shahzoda va amir o‘zaro birlasha olmadilar. Amir Temur vafoti to‘g‘risidagi xabar kelishi bilan bir guruh fitnachilar Mirzo Umarning yonidagi unga ta’sir etayotgan bir necha xos navkarlar yo‘qotilsa, uning ixtiyorini o‘z izmimizga olishimiz mumkin, deya amir Jahonshohni yo‘ldan urdilar. 1405-yilning 24 mart kuni amir Jahonshoh Mirzo Umarning qarorgohiga bostirib kirdi va uning bir necha yaqin amirlarini qatl etdi. Lekin fitna Mirzo Umarning favqulodda botirligi bilan bostirildi. Shu jarayonda amir Jahonshoh ham xun talabgorlari tomonidan qatl etildi. Natijada temuriylarning kuchlari o‘rtasidagi nizo kuchayib ketdi. Iroq hokimi Mirzo Abubakr amir Jahonshohning qatl etilganini

ma’qullamadi va qo‘shin tortib Ozarbayjonga yaqinlashdi. U Mirzo Umarga itoatda ekanligi bildirdi. Ammo o‘z akasi taxtni undan tortib olishidan cho‘chigan Mirzo Umar muzokara paytida Mirzo Abubakrni asirga oldi. Mirzo Abubakrning qo‘lga olinganligidan xabar topgan Mirzo Mironshoh farzandi Mirzo Umardan cho‘chib Xuroson tomon yo‘l oldi.

1405-yilning 15-iyulida Sultoniya shahrida hibsda bo‘lgan Mirzo Abubakr soqchilarni o‘z tomoniga og‘dirib, ozodlikka erishdi. O‘ziga qarshi chiqqan bir necha amirlarni qatl etib, Sultoniya shahrini qo‘lga kiritishga erishdi. Mirzo Abubakr hibsga olingandan keyin boshsiz qolgan o‘z lashkarining bir qismini qayta yig‘ishga erishdi. Ammo ukasiga qarshi chiqish uchun kuchi yetmasligini tushunib, otasi izidan Xuroson tomon yo‘l oldi. Mirzo Umarning ta’qib uchun yuborgan qo‘shini Qazvin yaqinida bo‘lib o‘tgan jangda Mirzo Abubakrni qo‘lga tushira olmadi va ortga qaytdi.

Temuriylar o‘rtasidagi nizoning kuchayib borishi mahalliy hokimlarni rag‘batlantirdi. Amir Bistom Mirzo Umarga bo‘ysunishdan tortdi va o‘zini jazolash uchun kelgan temuriy qo‘shinidan panoh izlab amir Shayx Ibrohim huzuriga chekindi. Shirvon hokim uni topshirish to‘g‘risidagi Mirzo Umarning farmonini e’tiborsiz qoldirdi. Natijada Mirzo Umar Shirvonga yurish boshladi. Amir Shayx Ibrohim amir Bistom, Qaramonning o‘g‘illari (Kichik Osiyoning sharqiy chekkalaridagi turkiy qabila, usmonli turklarning raqobatchisi, Amir Temurning Sulton Boyazidga qarshi kurashida temuriylar tomonida bo‘lgan), Seydi Ahmad Shakiylar bilan ittifoqlikda Kura daryosi bo‘yida mustahkam himoya tashkil etdi. Mirzo Umar daryodan kechib o‘tishga jur’at etmadi. Bir hafta suv bo‘yida turgan temuriy qo‘shini Mirzo Mironshoh va Mirzo Abubakrning Mirzo Shohruxning qarshiligi bilan Xurosonga kirolmasdan ortga qaytganligini eshitgach, Shayx Ibrohim bilan sulh tuzishga majbur bo‘ldi. Shirvon hokimi amalda mustaqil harakat qilishda davom etdi.

Mirzo Abubakr o‘z otasi bilan Xurosonga o‘ta olmagach, ortga qaytib Damg‘onga keldi. Damg‘on aholisi sovg‘a va peshkashlar berdiyu, shaharga lashkarni kiritmadi. Temuriylarda esa shaharni bo‘ysundirish uchun kuch ham yo‘q edi. Simnon aholisi esa temuriy qo‘shin talon tarojidan qo‘rqib qo‘lga ilingan mulkini olib, tog‘larga chiqib ketdi. Chunki Xurosonga ketayotgan vaqtda Simnonni temuriy qo‘shin talagan edi. Bu harakatlar mahalliy aholi orasida temuriylar nufuzining pasayishiga katta ta’sir qilgan. Mirzo Abubakr yurishda davom etib, Sultoniyani zabt etdi va Mirzo Umarning bir qator amirlarini o‘z tomoniga og‘dirib olishga erishdi.

Mirzo Umar esa o‘z lashkarini mustahkamlash ularni o‘z atrofida jipslashtirish uchun amirlar maslahati bilan Tabriz aholisidan ikki yuz tuman iroqiy mablag‘ni borot (muddatidan avvaldan undiriladigan soliq, ya’ni, kelgusi-yillar solig‘i) undirdi. Natijada Tabriz aholisi juda katta zarar ko‘rdi. Mirzo Umar katta mablag‘ sarf qilgani bilan Sultoniya shahri Mirzo Abubakr ixtiyoriga o‘tganini eshitgan Umar Tobon, Sulton Sanjar, Abdurazzoq kabi amirlar xiyonat yo‘liga kirdilar va o‘z asakarlari bilan Sultoniyaga yo‘l oldilar. Mirzo Abubakr Umar Tobonga shafqat qilgani holda akasini ko‘p marta ichki nizo va talon tarojlarga boshlagan Sulton Sanjar, Abdurazzoq, Shayx Xisrav Shohiylarni qatl ettirdi. Mirzo

Abubakr otasi Mirzo Mironshohni Holokuxon taxtiga chiqarib, davlatni o‘zi boshqarishga kirishdi.

Mirzo Umar amir Holiq turkman, Soliq barlos va sulduz qabilasining shu yerga ko‘chirilgan vakillaridan qo‘shin yig‘ib Tabrizda mustahkamlanishga harakat qildi. Yaqindagi Tabrizni xonavayron qilgan shahzodani poytaxti bu safar qabul qilmadi, uning yuborgan vakili Xoliqning o‘g‘li Alikani shaharga kiritmadi va avvalgi borot solig‘ini yig‘ib olgan Xoja Pir Alini o‘ldirdi. Tabriz aholisi ular shahzodaga qarshi emasliklarini ammo uning atrofidagi turkmanlarni shaharga qo‘ymasliklarini bildirishdi. Bundan ko‘rinadiki, shahar aholisi Mirzo Umar o‘z atrofidagi ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi amirlar manfaatlari bilan cheklanmay, shahar aholisi manfaatlarini ham himoya qilsa unga bo‘ysunishga tayyor ekanliklarini bildirgan edilar. Ammo Mirzo Umar o‘z inon ixtiyorini lashkar amirlariga topshirib qo‘ygan edi. U Marog‘a qal’asi tomon chekinishga majbur bo‘ldi.

Mirzo Abubakr Tabrizni egallash uchun amir Bayon boshchiligida qo‘shin jo‘natdi. Ammo shahar aholisi amirlarga ishonchini yo‘qotgani uchun ularga shahar darvozalarini ochmadi. Mirzo Umarning o‘zi yetib kelishi bilan 1405-yilning dekabr oyida shahar aholisi shahzodani hurmat e’tirof bilan shaharga olib kirdi. Ular Mirzo Abubakr siymosida barqarorlik o‘rnatuvchi markaziy hokimiyatni tiklovchi siyosiy va harbiy arbobni kutishayotgan edi.

Mirzo Umar akasiga qarshi tura olmasligi Ozarbayjondagi o‘z tarafdorlarini yo‘qotib bo‘lganligini tushundi va Forsga yo‘l oldi. Amir Temurning Forsdagi Mirzo Umarshayxning farzandlari Mirzo Umarga bo‘ysunishi lozimligi to‘g‘risidagi farmoni yuzidan ulardan yordam so‘radi. Bu viloyatdagi Mirzo Pirmuhammad, Mirzo Rustam, Mirzo Iskandarlarni o‘ziga madad berishga ko‘ndirdi. Mirzo Abubakr Xurosonga o‘ta olmay Ozarbayjonga qaytarkan, o‘zining oilasini ug‘ruq (asosan xo‘jalik kishilari va ayollardan iborat guruh, oziq ovqat va boshqa zahiralar ham ko‘p hollarda shu joyda saqlangan) bilan Ray yaqinidagi Sovuqbuloqda qoldirgan edi. Ittifoqchi shahzodalar 1406-yilning fevral oyida Mirzo Abubakrning ug‘rug‘ini to‘satdan hujum bilan egallab oldilar.

Mirzo Abubakr Muhamad Davotiy va Zayniddin Qazviniylarni Tabrizni himoya qilish uchun qoldirib, o‘zi lashkari bilan Isfahon tomon yo‘l oldi. Darguzin yaqinidagi Xarbura manzilida itifoqchi shahzodalar bilan Mirzo Abubakr lashkari o‘rtasida dahshatli jang bo‘lib o‘tdi. Har ikki tomondan to‘rt mingdan ortiq askar halok bo‘lgan jangda Mirzo Abubakrning qo‘li baland keldi. Ittifoqchi shahzodalar Isfahon tomon chekindi. Ozarbayjondagi temuriylar qo‘shinida imkon bo‘lsa o‘z vatanlariga qaytish fikri doimo bor edi. Avval Mirzo Abubakr va Mirzo Mironshoh misolida ham buni ko‘rgan edik. Ular shahzoda bo‘lganliklari uchun taxtga da’vogar sifatida o‘z vatanlariga qaytishlari xavfli edi. Shuning uchun ham ular Movarounnahr va Xuroson tomonga o‘ta olmaganlar. Ammo amirlar Xuroson yoki Movarounnahrdagi shahzodalar xizmati kirishlari uchun to‘siq mavjud emasdi. Mirzo Abubakr o‘z lashkaridagi amir Ziyrak va amir Umar Tobonlarda vatanga qaytish fikri borligidan shubhalanib, boshqalarni bu fikrdan qaytarish uchun ularni qatl ettiradi. Lekin bu tadbir aks ta’sir berib, o‘z taqdiridan cho‘chigan amir Pir Husayn Barlos Isfahonga qochib ketadi.

Mirzo Abubakr Tabrizda yuz berayotgan noxushliklar sababli Isfahonni zabt eta olmadi. Ikki oʻrtada 1406-yilning yozida tuzilgan sulhga koʻra Forsdagi shahzodalar Mirzo Mironshoh nomiga xutba oʻqitib, tanga zarb qilishga rozi boʻldilar, Sovuqbuloqda qoʻlga kiritgan barcha oʻljalarini qaytarib berdilar. Mirzo Umar Xurosonga ketib, Gʻarbiy Erondagi siyosiy faoliyatiga barham berdi. Bu gʻalaba natijasida Ozarbayjonda Mirzo Abubakrning temuriylardan raqobatchisi qolmadi.

Mirzo Abubakrning Isfahon tomon yoʻl olib, Ozarbayjonni tark etishi bu yerdagi mahalliy hokimlarning isyoniga sabab boʻldi. Dastlab amir Bistom bosh koʻtardi va lashkar bilan kelib 1406-yil 10-aprel kuni Tabrizni qoʻlga kiritdi. Bu vaqtda Shirvon hokimi Shayx Ibrohim ham oʻz qoʻshini bilan shahar atrofiga kelib joylashdi. 1406-yilning may va iyun oylari amir Bistom va Shayx Ibrohim oʻrtasida Tabriz uchun nizolar davom etdi. Bu vaqtda Bogʻdodni qoʻlga kiritib olgan Sulton Ahmad Jaloyir ham Tabriz sari lashkar tortib keldi va 1406-yil 1-iyul kuni shaharni qoʻlga kiritdi. Amir Bistom ham amir Shayx Ibrohim ham unga qarshilik koʻrsatish jur’at etmadilar.

Isfahon yurishidan qaytgan Mirzo Abubakr Ozarbayjonga qaytib 1406-yilning 23-avgustida Tabrizga keldi. Sulton Ahmad Jaloyir Iroq lashkari bilan Bogʻdodga qaytib ketdi, uning xizmatiga toʻplangan Ozarbayjon lashkari (turkmanlar) esa har tomonga tarqaldi. Tabrizda toun (oʻlat) kasalligi tarqalganligi uchun Shanbi Gʻazonga oʻrnashdi. Bu vaqtda Ozarbayjonga qaytib kelgan Qora Yusuf turkmanlini oʻz tomoniga ogʻdirib lashkar toʻplay boshlagan edi. Sulton Ahmad Jaloyir qaytganidan keyin koʻpgina turkman lashkari tarqali, Qora Yusuf xizmatiga borgan edi. 1406-yil 14-oktyabr kuni boʻlib oʻtgan jangda Mirzo Abubakr mardonavor kurashgan boʻlsa-da, magʻlubiyatga uchradi. Bu jangdan soʻng Sultoniyaga chekinib, uni mustahkamlashga kirishdi.

Mirzo Abubakrning Qora Yusuf bilan boʻlgan jangdagi magʻlubiyati, uning amirlari orasidagi obroʻyiga ma’lum darajala ta’sir qildi. Shahriyor qal’asini hokimi amir Bayon qavchin bu vaqtda Shohrux mirzo tomonidan Mozandaronga noib qilib qoʻyilgan Mirzo Umarni chaqirib, uning oldida oʻz mavqeyini oshirib olishni koʻzladi va Mirzo Abubakrga qarshi isyon boshladi. Isyon bostirilib, amir Bayon qatl etildi, ammo Mirzo Umar qulay vaqtdan foydalanib Ray viloyatida turgan Mirzo Abubakr boshqaruvidagi ikki moʻgʻul xonadonini oʻzi bilan Mozandaronga koʻchirib ketishga erishdi. Bu ham Mirzo Abubakrning harbiy kuchlari salohiyatiga salbiy ta’sir etuvchi bir voqea edi.

Mirzo Abubakr Qora Yusufga qarshi kurashish, Ozarbayjondagi temuriylar hokimiyatini saqlab qolish uchun Ray, Qazvin, Hamadon, Sultoniya viloyatlarida oʻz hokimiyatini mustahkamlashga e’tibor qaratdi. Lekin Mirzo Abubakr lashkari safida Movarounnahr va Xurosonga qaytish kayfiyati yana vaziyatni oʻzgartirib yubordi. Bir guruh amirlar Mirzo Mironshohni podshoh koʻtargan holda Xurosonga qaytish fikrida birlasha boshladilar. Bundan xabar topgan Mirzo Abubakr fitnani bartaraf etdi va ularning qatlga etkazildi, boshqa bir qismi esa qochib ketdi. Bu temuriylar lashkarini yanada kuchsizlantirdi. Uning lashkarida umidsizlik kuchayib bordi.

1407-yilning yozida Qora Yusuf Sultoniyani ham qo‘lga kiritdi. Bu yerni aholisini tolon taroj qilib, ularni Tabriz, Marog‘a va Ardabilga ko‘chirdi. Mirzo Abubakr 1407-yil 18-oktyabrda Sultoniyani qaytarib olishga erishdi va shahar tolon taroj qilingani uchun Qora Yusuf xizmatiga o‘tib ketgan amir Bistom hokimlik qilayotgan Ardabilga hujum uyushtirdi. Shuningdek, Marog‘aga ham hujum qilindi. 1407-yilning kuzi davomida Mirzo Abubakr Kurdistonni ham o‘z qo‘liga kiritishga harakat qilib ko‘rdi. Bu g‘alabalar lashkar orasida Mirzo Abubakrning mavqeyini ancha mustahkamladi. Lekin urushlar vaqtida Ardabil, Marog‘a va Kurdistonning talanishi mahalliy aholini temuriylardan ixlosini qaytardi.

Amir Temur farmoni bilan Movarounnahrga ko‘chirilgan joniy qurboniylarlar o‘z amirlari Navro‘z va Abdurahmonlar boshchiligida Xorazm va Mozandaron yo‘li bilan qaytib, Ray viloyatiga kirib keldilar. Mirzo Abubakr ularni o‘z tomoniga og‘dirishga erishdi va lashkarini bir muncha kuchaytirishga erishdi. Shundan so‘ng Tabrizni Qora Yusufdan qaytarib olish maqsadida yurish boshladi. 1408-yil 21-aprel kuni bo‘lib o‘tgan shiddatli jangda Qora Yusuf qo‘li ostida 20 000 kishilik lashkar ishtirok etganligi manbalardan ma’lum. Temuriylar lashkarining adadi xususida ma’lumot qoldirilmagan bo‘lsa-da, ularning soni raqibdan birmuncha kam bo‘lganligini taxmin qilishimiz mumkin. Mirzo Abubakr doimgidek shiddatli jang olib borgan bo‘lsa-da, lashkarining boshqa qismlari mag‘lubiyatga uchraganligi uchun ham chekinishga majbur bo‘ldi. Shu jangda Mirzo Mironshoh ham halokatga uchradi.

Ushbu jang Iroq, Gurjiston, Armaniston, Kurdiston, Ozarbayjon va Shirvonda temuriylar hukmronligining amalda hal qildi. Keyinchalik Shohrux mirzo Ozarbiyjonga bir necha bor yurish qilgan bo‘lsa-da, u yerda o‘z hukmronligini butkul o‘rnata olmadi. Shirvon rasmangina uning hukmronligini tan olar edi. Iroq, Gurjiston, Armaniston, Kurdiston hududlarida esa temuriylar hokimiyati 1408-yildan so‘ng umuman qayta tiklanmadi.

Shanbi G‘ozon yaqinidagi mag‘lubiyatdan so‘ng Mirzo Abubakr Kirmonga chekindi. Kirmonga Amir Temur Idiku barlosni hokim etib tayinlagan edi. Keyinchalik Idiku vafot etgach, boshqaruv uning katta o‘g‘li qo‘liga o‘tdi. Mirzo Abubakr Kirmonga kelgan vaqtda esa akasi vafotidan so‘ng Kirmonni Sulton Uvays barlos boshqarayotgandi. Sulton Uvays barlos shahzodani dabdaba bilan kutib olgan bo‘lsa-da, uni o‘zining amaldagi dushmani sifatida ko‘rdi. Chunki Amir Temur vafotidan so‘ng temuriylar o‘rtasida boshlangan o‘zaro urushlar davrida Sulton Uvays Kirmonni mustaqil boshqarayotgan edi. Manbalarda uni qaysi shahzodaga rasman bo‘lsa-da, bo‘ysunganligi haqida ma’lumot mavjud emas. Mirzo Abubakr ham temuriylar saltanatiga qarashli bir o‘lkada o‘zini bir mustaqil podshoh kabi ko‘rayotgan Sulton Uvaysga nisbatan norozilik yo‘q emasdi. Shahzoda o‘zining bu yerda mustahkamlanishiga ko‘zi yetmadi va Seyiston tomon ketishga qaror qildi. Bu vaqtda Shohrux mirzo bilan munosabatlari murakablashib borayotgan Seyistonning mahalliy hokimi Shoh Qutdiddin uchun bu ayni muddao edi. Lekin Seyistonda mustahkam o‘rnashib olgan Shoh Qutbiddin Mirzo Abubakrni faol siyosat olib borishiga yo‘l bermadi. Natijada shahzoda siyosiy faoliyatdan chetlashdi.

Shunday qilib temuriylar saltanati Iroq, Ozarbayjon, Kurdiston, Armaniston, Gurjiston va Shirvon hududlaridagi hukmronligini boy berdi. Buning bir necha sabablari bor edi.

Birinchidan, temuriy shahzodalar Amir Temur vafotidan so‘ng birlasha olmadilar. Natijada Movarounnahrdan uzoqda bo‘lgan bu hududlarga temuriylar hukmronligini qo‘llab quvvatlash uchun hech qanday yordam yetib kelmadi.

Ikkinchidan, bu hududni boshqarish uchun qo‘yilgan temuriyzodalarning o‘zlari ham o‘zaro birlashmadi. Aksincha, ularning o‘zlari bir birlariga qarshi shafqatsiz kurash olib bordilar va o‘z mavqelarini raqiblari oldida tushirib yubordilar.

Uchinchidan, mazkur hududlarning juda oz qismida hokimiyat to‘liq temuriylar boshqaruvida edi. Aksariyat joylarda mahalliy hokimlik sulolalari o‘z mavqelarini saqlab qolishgan bo‘lib, ular temuriylarga sodiqlik izhor etsalar-da, imkon bo‘lishi bilan mustaqillik uchun kurashishga tayyor turardilar. Amir Temur vafotidan keyin Gurjiston amalda to‘la mustaqilligini tiklab oldi. Iroqda esa Sulton Ahmad Jaloyir hokimiyatni qaytarib olishga erishdi. Ardabil hokimi amir Bistom, Shirvon hokimi amir Shayx Ibrohim, Mordin hokimi Sulton Isa va boshqalar o‘z yerlarini mustaqil boshqarishga kirishdilar.

To‘rtinchidan, temuriylar maxkur hududlarda o‘z hokimiyatlarini saqlab qolish uchun yetarli resurslarga ega emasdilar. Movarounnahr va Xurosondan bu yerga ko‘chib kelgan va lashkar hamda davlat ishlarida faoliyat olib borayotganlar nufuzi juda oz edi. Amir Temur Mirzo Umar ixtiyorida 10 ming kishilik lashkar qoldirgan bo‘lib, ularning hammasi ham Movarounnahr va Xurosondan ekanligiga biror bir asosimiz yo‘q.

Beshinchidan, temuriy shahzodalar va ularning xizmatidagi Movarounnahr hamda xurosonlik amirlar mahalliy aholini, hech bo‘lmaganda hunarmandlar, savdogarlar, dehqonlar va ruhoniylarni o‘z tomoniga og‘diruvchi to‘g‘ri siyosat olib bora olmadilar. Aksincha, o‘zlari barot kabi o‘rinsiz soliq solishlari, Tabriz va boshqa yirik shaharlarni turli bahonalar bilan talon-taroj qilishlari orqali ularni o‘zlaridan uzoqlashtirdilar. Bu noto‘g‘ri siyosatlari bilan Ozarbayjonda temuriylargacha hukmronlik qilgan ko‘chmanchi turkman qabilalari hokimiyatini tiklanishiga o‘zlari ko‘maklashdilar.

### *Mirzo Umarshayx suyurg‘olidagi siyosiy vaziyat*

Amir Temur vafot etgan vaqtida Forsning poytaxti hisoblanmish Sherozni marhum Umarshayx mirzoning katta o‘g‘li Mirzo Pir Muhammad Sheroziy, ukasi Mirzo Rustam Isfahonni, yana bir ukasi Mirzo Iskandar Hamadonni boshqarishardi. Sohibqironning vafoti xabari kelganidan so‘ng Mirzo Pir Muhammad huzuridagi movarounnahrlik va mahalliy amirlar tomonidan kimni hukmdor sifatida tan olish borasida ixtiloflar boshlandi. Bir guruh amirlar Amir Temurgacha Forsda hukmronlik qilgan Muzaffariylar kabi Misrdagi Baniy Abbos xalifalaridan birini olib kelib taxtga chiqarishni, ba’zilar Sohibqironning 1404-yildagi farmonida “Fors shahzodalari Mirzo Umar qurultoyida hozir bo‘lsin” degan topshirig‘iga ko‘ra unga bo‘ysunishni, ba’zilar esa Mirzo Mironshohga taxtni topshirish haqida taklif bildirdilar. Bu takliflarning mohiyati shunday ediki, Mirzo Pir Muhammad shu takliflardan birini qabul qilgan

holda, ularning nomini xutbada o‘qitib, ularni nomidan tanga pullar zarb ettirib, amalda davlatni o‘zi boshqarishi nazarda tutilgan. Abdurazzoq Samarqandiyning ta’kidlashicha, Mirzo Pir Muhammad Xuroson hukmdori bo‘lgan amakisi Mirzo Shohrux nomini xutbada o‘qitib, uning ismi bilan tangalar zarb etishni buyurdi. Manbalarda ta’kidlanishicha, Mirzo Pir Muhammad onasi Milkat og‘a bu vaqtda Mirzo Shohrux nikohida bo‘lganligi uchun shunday qarorga kelgan ekan.

Kermon viloyatini boshqarayotgan amir Idiku barlos ham Mirzo Shohruxni oliy hukmdor sifatida tan oldi va o‘z mulkini amalda mustaqil boshqarishda davom etdi. Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkin-ki, bu vaqtda Markaziy Eronda yirik to‘rt mulk, ya’ni Sheroz, Isfahon, Hamadon va Kermon viloyatlari mavjud bo‘lib, ulardan Sheroz va Kermon viloyatlari Mirzo Shohrux hukmronligini rasmiy tan olgan holda, amalda mustaqil edilar. Isfahon va Hamadondagi mirzolar esa akalari Mirzo Pir Muhammadga bo‘ysungan holda o‘z viloyatlari hokim edilar.

Mirzo Pir Muhammad o‘z hokimiyatini mustahkamlash yo‘lida bir qator ishlarni amalga oshirdi. Birinchidan, Yazd hokimi va Abdurkuh dorug‘asini Sherozga o‘z xizmatiga chaqirib, ularning o‘rniga ishonchli vakillarini tayinladi. Uning Kermonni o‘ziga bo‘ysundirish niyatidagi diplomatik harakatlari esa samara bermadi. Ikkinchidan, Fors viloyatlaridagi har xil yumushlar bilan band bo‘lgan sobiq sipohiylarni yig‘ib, ularni maosh bilan ta’minlagan holda harbiy xizmatga jalb qildi. Viloyatdagi davlat tomonidan in’om etilgan yangi va eski ulufa (yer-mulk va boshqa in’omlar)larni ro‘yxatga oldirib, tartib keltirdi. Viloyatdagi soliq tartibi va boshqaruv ustidan nazoratni kuchaytirib, uning qonun qoidalar asosida olib borilishiga e’tibor qaratdi, har bir hudud va qishloqqa amin (shu qishloqni boshqaruvchisi, ko‘p hollarda soliq yig‘uvchi ham, ma’nosi ishonchli) tayinladi. Bu islohotlardan ko‘zlangan maqsad Muzaffariylar davridan keyin e’tibordan chetda qolgan eski amaldor va harbiylarni o‘z tomoniga jalb etish, ularni davlat tomonidan ta’minlanadigan maoshli ishlarga jalb etish orqali mavqeyini mustahkamlash edi. U shunday qattiq tartib o‘rnatdiki, amaldorlar aholining bir man (og‘irlik o‘lchovi, hamma hududda har hil. Abdurazzoq Samarqandiy davrida Hirotda bir man 250 misqol, bir misqol 4.25 gr bo‘lgan. Shunday bo‘lsa bir man 1 kgdan sal ko‘proq bo‘ladi.) somonini ham hukmsiz, hujjatsiz ololmaganlar, davlat amaldorlarining safar harajatlari davlat tomonidan qorlangan. Odatda, bu harajatllar uchun aholidan qo‘shimcha yig‘imlar olinar, yoki majburiy yom xizmati yuklanardi.

Mirzo Rustam akasi Mirzo Pirmuhammadning hokimiyatini tan olib, u bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatdi. Mirzo Iskandar esa Hamadonda o‘z hokimiyatini saqlab qola olmadi. U Amir Temur tomonidan o‘ziga xizmat qilish uchun qoldirilgan amirlar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnata olmagan ko‘rinadi. Dastlab Ozarbayjonda Mirzo Umar tomonidan amir Jahonshohning qatl etilib, Mirzo Mironshohga Ozarbayjonni tark etish taklif qilingani haqidagi mish-mishlar natijasida Hamadonga hujum bo‘lishidan cho‘chigan Mirzo Iskandar akasining ruxsatisiz lashkari bilan Sheroz tomon yo‘lga chiqdi. Mirzo Pir Muhammad Mirzo Iskandarning Sherozga kelayotganligi haqidagi xabariga javob berarkan, tezda ortga qaytib o‘z o‘rnida mustahkam turishni buyurdi. Lekin bu vaqtda Hamadonni

tark etib bo‘lgan Mirzo Iskandar yo‘lda davom etishga majbur bo‘ldi. Uning amirlari esa Mirzo Pir Muhammad saroyida obro‘ topolmasliklarini tushungach, xiyonat yo‘liga kirib barcha xazinani qo‘lga kiritdilar va bir qismi Mirzo Umar, boshqa bir qismi Mirzo Mironshoh huzuriga yo‘l oldilar. Mirzo Iskandar esa o‘ziga sodiq qolgan ozgina odamlari bilan Isfahonga borib, Mirzo Rustam mulkida bir oycha yashadi. Shundan so‘ng Mirzo Pir Muhammad Mirzo Iskandarni Sherozga chaqirib, unga Yazd viloyatini topshirdi. Shundan so‘ng Mirzo Pir Muhammad va Mirzo Iskandar birgalikda Kermon viloyati ustiga yurish boshladilar. Ular bir necha g‘alabalarga erishib, katta o‘ljalarni qo‘lga kiritgan bo‘lsalar-da, amir Idiku barlosni o‘zlariga to‘liq bo‘ysundirishga yoki uning qo‘lidan viloyatni tortib olishga erisha olmadilar.

Ozarbayjondagi hokimiyat uchun kurashda o‘z akasi Mirzo Abubakrga yengilgan Mirzo Umar Forsdagi shahzodalardan yordam so‘radi. Bu voqealar haqida yuqorida, shu mavzudagi Mirzo Abubakr faoliyatiga bag‘ishlangan qismida batafsil to‘xtaldik.

1406-yili Kermon hokimi amir Idikuning vafotidan foydalanib, Mirzo Iskandar bu viloyatni zabt etishga harakat qildi, lekin uning harakati muvaffaqiyat keltirmadi. Ko‘p o‘tmay Mirzo Iskandar bilan Mirzo Pir Muhammad o‘rtasida nizo kelib chiqdi. Manbalarda nizoning kelib chiqish sabablari haqida ma’lumot uchramaydi. Mirzo Iskandarning ruxsatsiz Kermon tomon yurish qilishi Mirzo Pir Muhammadga yoqmagan bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, Mirzo Pir Muhammad ukalariga tegishli mulklarni o‘z qo‘li ostida birlashtirishga qaror qilgan ko‘rinadi.

Sheroz hokimining farmoni bilan Mirzo Iskandar hibsga olindi va Yazdning barcha dorug‘alari Mirzo Pir Muhammadga itoat qildilar, faqatgina Noin doruhasi Umar qo‘rchi bo‘ysunishdan bosh tortdi. Shundan so‘ng Isfahon ustiga yurish qilgan Mirzo Pir Muhammad shaharni qo‘lga kirita olmay ortga qaytdi. Ukasi Mirzo Iskandarni Xurosonga jo‘natib, uni Fors viloyatidan chetlashtirishga qaror qildi. Ammo Mirzo Iskandar Xuroson yo‘lida hibsdan qochishga erishdi va Isfahonga kelib, Mirzo Rustam bilan birlashdi. Ittifoqchi shahzodalarning o‘z akalari Mirzo Pir Muhammad ustiga yurishi natijasiz yakunlandi. Ularning lashkari bir necha janglarda g‘olib chiqqan bo‘lsalar-da, 40 kunlik qamal qilinganiga qaramay Sherozni zabt etishga erisha olmadilar. Mirzo Pir Muhammad Sheroz va Yazdni o‘z qo‘lida saqlab qolishga erishdi.

1408-yili Mirzo Pir Muhammad katta lashkar to‘plab Isfahon ustiga yurish qildi. Bu vaqtda Isfahon vabo kasalligini boshdan kechirgan bo‘lib, ko‘p aholi halok bo‘lgan edi. Avvalgi yildagi g‘alabadan mag‘rurlangan Mirzo Rustam Isfahon yaqinidagi jangda mag‘lubiyatga uchradi va Xurosonga chekindi. Mirzo Iskandar ham Fors viloyatini tark etib, Xurosonning shimoliy hududlariga jo‘nab ketdi. Mirzo Pir Muhammad o‘z lashkariga Isfahon viloyati aholisini talon-taroj qilmaslikni buyurdi. Viloyatni tartibga keltirib, uni boshqarishni o‘g‘li Mirzo Umarshayxga topshirdi. 1409-yili Mirzo Pir Muhammad Huvayza, Shustar, Dizful shaharlarini, ya’ni Xuziston viloyatini bo‘ysundirdi va u yerdagi shahar va qal’alarni o‘zining ishonchli kishilari boshqaruviga topshirdi. Natijada Mirzo Pir Muhammad Xuziston, Isfahon, Sheroz, Yazd viloyatlarining yagona hukmdoriga

aylandi. Lekin ko‘p o‘tmay Xuziston viloyatini Bog‘dod hukmdori Sulton Ahmad jaloyir o‘z mulklari qatoriga qo‘shib olishga erishdi.

Shimoliy Xuroson orqali Farg‘ona vodiysiga o‘tib ketmoqchi bo‘lgan Mirzo Iskandar biroz muddat ushlab qolindi. Ko‘p o‘tmay Mirzo Shohruxning ishonch xati bilan yana Sherozga qaytishga majbur bo‘ldi va akasi Mirzo Pir Muhammadning xizmatiga kirdi. 1410-yili yana bir bor Kermon viloyatini zabt etishga urinib ko‘rish maqsadida yurish boshladi. Lekin yurish davomida kutilmaganda Mirzo Pir Muhammad o‘z vaziri Xoja Husayn sharbatdor tomonidan o‘ldirildi. Natijada marhum mirzoning amirlari Mirzo Iskandarni taxtga chiqardilar. Xoja Husayn sharbatdor boshchiligidagi isyonchilarning Sherozni egallash maqsadidagi urinishlari mag‘lubiyat bilan tugadi. Mirzo Iskandar akasining qotillarini jazolab, Sheroz viloyatida tartibni tikladi. Mirzo Iskandar ham akasi Mirzo Pir Muhammad kabi Mirzo Shohrux nomiga xutba o‘qitib, uning ismi bilan tangalar zarb ettirdi.

Shu yili Muzaffariylar sulolasining Shomga qochib omon qolgan vakili Sulton Mu’tasim Fors viloyatiga qaytib keldi va katta lashkar to‘plashga erishdi. Ko‘pgina mahalliy amirlar uning lashkariga borib qo‘shildilar. Ammo Mirzo Iskandar Sulton Mu’tasimni tor-mor keltirib, o‘zini qatl etishga erishdi.

Mirzo Shohrux butun Fors viloyatini Mirzo Iskandar qo‘li ostida birlashtirilishidan manfaatdor emas edi. Uning ruxsati bilan avval Mirzo Rustam Forsga qaytdi va Isfahonda o‘z hokimiyatini tikladi. Ko‘p o‘tmay Mirzo Shohrux Mirzo Boyqaroni ham Forsga jo‘natdi. Ular birgalashib, Isfahonni o‘z qo‘llarida tutib turishga harakat qildilar. Ammo shahar yaqinidagi jang Mirzo Iskandarning g‘alabasi bilan yakunlandi. Bu vaqtda Mirzo Xalil Sulton Mirzo Shohruxning farmoni bilan 10 ming kishilik lashkarni boshqarib, Ray shahriga yetib kelgan edi. Unga imkon qadar Amir Temur tomonidan Mirzo Mironshohning farzandlariga berilgan yerlarni Qora Yusufdan qaytarib olish topshirilgandi. Mirzo Rustam va Mirzo Boyqaro Xalil Sultondan yordam so‘radilar. Xalil Sultonning yordamga kelishi ham Isfahonni qamaldan ozod qilish imkonini bermadi. Uzoq davom etgan qamaldan so‘ng Mirzo Rustam shaharni tark etib, Qora Yusuf huzuriga jo‘nab ketdi. Isfahonda qahatchilik boshlanganidan so‘ng Mirzo Iskandar ham Sherozga qaytishga majbur bo‘ldi. Xalil Sulton esa o‘z lashkari bilan Rayga qaytdi.

1411-yili Mirzo Iskandar avval Kermonni keyin esa Isfahonni ham o‘z mulkiga qo‘shib olishga erishdi. U birin-ketin Fors viloyatining barcha shaharu qal’alarini o‘z izmiga kiritishga erishdi. 1412-yili Qum viloyatida ham Mirzo Iskandarning hukmronligi o‘rnatildi. Shundan so‘ng u vayron bo‘lgan Isfahon shahrini qaytadan obod qilib, uni o‘z poytaxtiga aylantirdi. Umuman olganda Mirzo Iskandar Amir Temur tomonidan Mirzo Umarshayxning farzandlariga berilgan hududlarning barchasini o‘z qo‘li ostida birlashtira oldi.

***Ta’lim texnologiyalari:*** *"baliq skeleti", Venn diagrammasi, T-sxema, "bumerang", muammoli ta’lim, keys-stadi, vizual materiallar, blits-so‘rov.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar:***

*1. XV asr boshlarida saltanatning g‘arbiy viloyatlarida siyosiy vaziya qanday edi?*
*2. Umar mirzoning Ozarbayjonda nima sababdan mustahkamlana olmadi?*
*3. Abu Bakr mizroning Tabrizga qaytib ketish sabablarini tushuntiring?*

*4. Mahalliy aholi temuriy shazodalarni nima sababdan qo'llab-quvvatlamagan?*
*5. Amir Temur vafoti vaqtida Markaziy Eron boshqaruvidagi vaziyat qanday edi?*
*6. Mirzo Pirmuhammad o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun qanday tadbirlarni amalga oshirdi?*
*7. Mirzo Iskandarning Forsda hukmronligini o'rnatilishiga qanday omillar sabab bo'ldi?*
*8. Iroq, Ozarbayjon, Kurdiston, Armaniston, Gurjiston hududlarining temuriylar tasarrufidan chiqishi haqida nimalar deya olasiz?*

## MAVZU: MIRZO SHOHRUX TOMONIDAN TEMURIYLAR MULKLARINING BIRLASHTIRILISHI.

### Reja:

*1. Movarounnahrda Mirzo Shohrux hukmronligining mustahkamlanishi.*
*2. Xorazmning temuriylar mulklari tarkibiga qaytarilishi.*
*3. 1413-1416 yillarda Markaziy Eron va Movarounnahrning shimoli-sharqiy hududlaridagi siyosiy vaziyat.*
*4. Mirzo Shohruxning Ozarbayjon yurishlari.*
*5. Temuriylar saltanatining shimoliy chegaralarida siyosiy vaziyatning keskinlashib borishi.*
*6. Mirzo Shohrux davrida Temuriylar saltanatining xalqaro aloqalari*.

***Movarounnahrda Mirzo Shohrux hukmronligining mustahkamlanishi***

Shohrux mirzo barcha temuriylar qo'li ostidagi mulklarni birlashtirish orzusida edi. Lekin u o'z hokimiyatini avvalo Movarounnahrda mustahkamlashga bo'ldi. Chunki Turkiston, Sig'noq, Sayram va boshqa Sirdaryo bo'yidagi shaharlar hokimi Shayx Nuriddin amalda mustaqillikka intilardi. U 1410-yili Oltin O'rdalik shahzoda Chingiz o'g'lon, Amir Xudoydod Husayniyning o'g'li Amir Abduholiq bilan birgalikda Samarqandga yurish boshladi. Samarqand yonidagi Qizilrabod mavzeyida bo'lib o'tgan jangda Mirzo Ulug'bek va Amir Shohmaliklar mag'lubiyatga uchradilar. Samarqand shahri aholisi shaharni dushmanga bermaslikka qaror qildi va Shohrux mirzodan yordam so'radi. Shayx Nuriddin o'z qo'shinlarini buxoro, Kesh shaharlarini egallash va Shohrux mirzo o'tishi mumkin bo'lgan Amudaryodagi kechuvlarni to'sish uchun yubordi. Bu orada Amir Abduholiqning o'z viloyatiga qaytib ketishi Shayx Nuriddin uchun kutilmagan zarba bo'ldi. Shunda Shayx Nuriddin Hisori Shadmon hukmdori Mirzo Muhammad Jahongirni taxtga chiqarishga vada berib uni Samarqandga taklif etdi. U shu yo'l bilan o'z tarafdorlari sonini oshirimoqchi edi. Lekin Samarqand aholisi Mirzo Muhammad Jahongirni ham qabul qilmadi. Bu vaqtda Samarqandga qaytgan Amir Shohmalik Shohrux mirzo kelguncha vaziyatni o'nglash maqsadida ikkinchi marta Qizilrabodda jang maydoniga chiqdi va yana mag'lubiyatga uchradi. Yaxshiki, bu vaqtda Shohrux mirzo Amudaryoni kechib o'tgan edi. Mirzo Ulug'bek va Amir Shohmaliklar Shohrux mirzo qo'shiniga kelib qo'shildilar. 1410-yilning yozida Qizilrabodda bo'lgan uchinchi jangda nihoyat Shayx Nuriddin yengildi. Lekin shu yili Shayx Nuriddinning yerlari tortib olinmadi. Shohrux mirzo Samarqanddan orqaga qaytib ketdi. Natijada Movarounnahdagi nizolar kelasi yili ham davom etdi.

Amir Shayx Nuriddin Mo‘g‘uliston yordamida o‘z mustaqilligini saqlab qolmoqchi bo‘ldi va ulardan yordam so‘radi. Bu voqea 1411-yili ham Shohrux mirzoni Movarounnahrga kelishiga sabab bo‘ldi. Lekin Shohrux urush masalalariga aralashmadi. Amir Shohmalik o‘z qo‘shinlarining bir qismini Mo‘g‘ulistonni bosqin qilish uchun yubordi. Natijada Shayx Nuriddinga yordamga kelib Sayram shahrini qamal qilayotgan mo‘g‘ullar esa ortga qaytishga majbur bo‘ldi. Ko‘p O‘tmay Amir Shohmalik Shayx Nuriddinni hiyla bilan qatl etdi va uning mulki bo‘lgan Sabron shahrini qo‘lga kiritdi. Natijada Sirdaryo bo‘yidagi shaharlar ham Shohrux mirzo humronligini to‘la tan oldi.

Shu o‘rinda Farg‘ona vodiysida kechgan jarayonlarga ham to‘xtalib o‘tsak. Mo‘g‘uliston davlati bilan chegaradosh bo‘lgan Farg‘ona o‘zaro urushlar va mo‘g‘ul amirlarining talonchilik hujumlaridan bir muncha aziyat chekkan edi. Mirzo Shohrux jiyaniga vodiy hukmdorligini topshirar ekan, chegaralarni mustahkamlash, xalqning ahvolini yaxshilash chora-tadbirlarni ko‘rishni muhim vazifa etib tayinladi. Bu vazifalarni bajarish uchun yordam sifatida bir necha yirik amirlar vodiyga jo‘natilgan.

1409-yilgi Movarounnahr yurishi tugallanganidan so‘ng oliy hukmdorning farzandlari va jiyanlariga yangi suyurg‘ollar in’om etildi. E’tiborli jihati boshqa shahzodalarga suyurg‘ollar berilishidan avval Mirzo Ahmadga Farg‘ona mulki taqdim etilgan edi. F. Manz sharqiy chegaralardagi strategik muhim va boy viloyat aynan ushbu shahzoda in’om etilishiga Shohruxning Amir Temur siyosatini davom ettirish niyati, Mirzo Ahmadning shahzodalar ichida nisbatan yoshi kattasi va tajribalisi bo‘lganligini qayd etadi.

Movarounnahr temuriy shahzodalar va yirik amirlarga suyurg‘ol tarzida bo‘lib berilib, Mirzo Shohrux hukmronligi o‘rnatilgan bo‘lsa-da, 1410-yili Turkiston hokimi amir Shayx Nuriddinning Oq O‘rda hukmdorlari yordamida isyon ko‘tarishi yangi nizolarni boshlab berdi. Bu isyonni bartaraf etishda Mirzo Ahmad ham Shohrux qo‘shini safida ishtirok etdi. Mirzo Ahmad 500 nafar navkari bilan amir Shohmalik qo‘shinlari amir Shayx Nuriddin lashkaridan Samarqand yonida ikkinchi marotaba yengilganidan keyin yetib kelganligini Fasih Xavofiy va Abdurazzoq Samarqandiylar ham qayd etgan. Bundan Mirzo Ahmadga amakisi Shohruxning Movarounnahr tomon yo‘lga chiqqanligi xabari ma’lum bo‘lganidan keyingina yordamga yetib kelishga qaror qilganligi ko‘rinadi. Shuningdek, uning faqatgina 500 nafar navkar bilan kelganligini Farg‘ona vodiysiga mo‘g‘ul talonchilarining hujumi xavfi mavjudligi bilan izohlash mumkin. Manbalarda Mirzo Ahmadning qo‘li ostida aslida qancha askar bo‘lganligi xususida aniq ma’lumotlar uchramaydi. Lekin Farg‘onaning avvalgi hokimlari Mirzo Umarshayx, Mirzo Iskandar, Xudoydod Husayniylarning faoliyatidan kelib chiqib, mulohaza yuritsak, uning ixtiyorida kamida 5-10 ming atrofida qo‘shin bo‘lganligini taxmin qilishimiz mumkin.

1410-yilning 12-iyul kuni Samarqand yonida bo‘lib o‘tgan uchinchi jangda amir Shohmalik rahbarligidagi Mirzo Shohrux qo‘shini amir Shayx Nuriddin lashkarini to‘la tor-mor etishga erishadi. Ushbu jangdagi g‘alabaning sababchilaridan biri Mirzo Shohrux qo‘shinining o‘ng qanot kanbulini boshqargan Mirzo Ahmad ekanligi tarixiy manbalarda bayon etilgan. G‘alabadan so‘ng amir

Shayx Nuriddinning mavqei keskin pasaydi va ko‘p o‘tmay uning o‘zi ham qatl etildi. Natijada Movarounnahrning shimoliy hududlari ham mirzo Ulug‘bek hukmronligi ostiga o‘tdi. Shundan so‘ng Movarounnahrda, jumladan, Farg‘ona vodiysida bir muncha vaqt tinchlik o‘rnatildi.

Ahmad mirzo davrida Koshg‘ar shahri Farg‘onaga bo‘ysunganligi haqida so‘z yuritgan edik. Amir Xudoydod davrida Koshg‘arning unga bo‘ysunganligi to‘g‘risida tarixiy manbalarda ma’lumotlar mavjud emas. Faqatgina Amir Temur tomonidan Xitoy yurishi arafasida Koshg‘arning Farg‘ona vodiysi shaharlari bilan birgalikda Amir Temurning nabirasi Ibrohim Sultonga suyurg‘ol etib berilganligi ma’lum. Amir Temur vafotidan keyin esa Koshg‘arda yana mo‘g‘ullar ta’siri kuchaygan bo‘lsa kerak. Chunki yuqorida aytganimizdek, tarixiy manbalarda Ahmad mirzo hukmronligi boshlangunga qadar Koshg‘arning temuriylar qo‘lida bo‘lganligiga oid ma’lumotlar uchramaydi. Mirzo Shohrux tomonidan Mirzo Ahmadga in’om etilgan mulklar qatorida Koshg‘ar tilga olinmagan. Uning keyingi faoliyatida esa Koshg‘ar Farg‘ona hokimiga bo‘ysunganligini ko‘ramiz. Bu Koshg‘arni Mirzo Ahmad temuriylar mulklari qatoriga qaytara olganligi xususida xulosa chiqarishga asos bo‘ladi.

Mirzo Shohruxning Farg‘ona vodiysidagi noibi sifatida Ahmad o‘ziga yuklatilgan noiblik vazifalarini to‘liq bajarishga harakat qilgan. 1411-yili Shohrux Movarounnahrga tashrif buyurganda Farg‘ona hokimi Samarqandga kelib yana bir bor itoat va sodiqlik izhor etdi.

Mirzo Ahmad hokimligi davrida qo‘shni Mo‘g‘uliston davlati bilan yaxshi qo‘shnichilik aloqalarini o‘rnatib, ularning Farg‘ona vodiysiga bosqinchilik yurishlarini amalga oshirishiga yo‘l qo‘ymadi. Aksincha, temuriylarning Sharqiy Turkistondagi mavqeini kuchaytirib, Koshg‘ar viloyatida ham o‘z hukmronligini mustahkamlashga erishadi. Xususan, Muiniddin Natanziy Mo‘g‘uliston hukmdori Muhammadxon haqida so‘z yuritar ekan, uni “sultonzoda Ahmad bahodirga nisbatan ixlos va hamjihatlik yo‘lini tutmoqda...”, – deb alohida qayd etgan. Umuman olganda, Mirzo Ahmad temuriylar mulkini sharqqa tomon kengaytirish bilan birgalikda, uning sharqiy chegaralari xavfsizligini ta’minlashda ham samarali faoliyat olib borgan. Lekin Farg‘ona vodiysida Mirzo Ahmadning hukmronlik yillari uzoqqa cho‘zilmadi.

***Xorazmning temuriylar mulklari tarkibiga qaytarilishi***

Amir Temurning 1405-yil 18-fevralda vafot etishi Xorazmning yana Oltin O‘rda hukmdorlari tomonidan istilo qilinishiga olib keldi. Bunga asosan temuriy shahzodalarning o‘zaro urushlar bilan band bo‘lib, Xorazmni o‘z qo‘llarida saqlab qolishga intilmaganliklari ham sabab bo‘ldi, deyish mumkin. 1406-yil boshida Xorazmni Oltin O‘rda xoni Shodibek (1401-1407)ning oliy qo‘mondoni Idiku O‘zbek (Yedigey) bosib oldi. Iduku Oltin O‘rdaning amiri Ikka ismli bir shaxsni Xorazmga noib etib tayinladi. Fo‘lodxon hukmroklik qilgan yillari (1407/08-1410) Inkaning o‘rniga Qalju o‘ltirdi. 1410/11-yillarda Idiku O‘zbekning o‘g‘li Muborakshoh Xorazmga hukmron bo‘lib qoldi.

Ma’lumki, 1409-yili temuriy hukmdorlardan Shohrux Xalil Sulton ustidan g‘olib kelib, Movarounnahrda ham o‘z hokimiyatini barkaror etdi. Ushbu voqea

munosabati bilan avval Samarqandda soʻngra Hirotda katta tantanalar oʻtkazildi. Oʻsha tantanalarda Idikubiy bilan Foʻlodxon tarafidan yuborilgan Xorazm elchilari ham ishtirok etdilar. Elchilar Shohrux tarafidan yaxshi kutib olindi va, Abdurazzoq Samarqandiyning soʻzlariga qaraganda, ular bilan birga Shohruxning elchisi amir Hasan Dashti Qipchoq va Xorazmga yuborilgan. Shohrux elchilari Foʻlodxonga, Idiku Uzbek hamda uning akasi amir Isabekka podshohlarga loyiq sovgʻalar olib borganlar. Jumladan, elchilarga Idikubiyning qizini shahzoda Muhammad Joʻqiyga xotinlikka berish toʻgʻrisida Shohruxning iltimosini yetkazish vazifasi ham yuklatilgan edi. Bu fakt har ikkala davlatning oʻzaro yaxshi koʻshnichilik bilan yashash uchun intilganliklarini, bundan tashqari Shohruxning endi Amir Temurning ilgarigi qudratini tiklay olmasligiga koʻzi yetib, Xorazmning qoʻldan ketganligini tan olganligini koʻrsatib turibdi.

1411-yilning bahorida Bodhizda hordiq chiqarib turgan Shohruxning huzuriga yuqorida nomi zikr etilgan Hirotdan Oltin Oʻrdaga joʻnatilgan elchisi Oboi tavochi qaytib keldi. Elchi Shohruxga Idikubiyning maktubi hamda sovgʻa-salomlarini topshirdi. Shunisi diqqatga sazovorki, Idikubiy oʻz maktubida Shohruxni hukmdorim deb atagan edi, Bu tushunarli hol, albatta. Ma’lumki, Foʻlodxon vafot etgach, Oltin Oʻrda taxtini Qutlugʻ Temurning oʻgʻli Temurxon (1410— 1412) egalladi va shu paytdan boshlab Idikubiy bilan uning oʻrtasida hokimiyat uchun kurash kuchayib ketdi. Oqibatda Idikubiy magʻlub boʻlib, Xorazmga qochib ketishga majbur boʻldi.

Temurxon tomonidan uni ta’qib qilish uchun yuborilgan Ujuq bahodir bilan Qozonlar Som degan joyda unga yetib oldilar. Idikubiy jang qilishga botinolmay, Urganch tarafga qarab qochdi va yetti oy mobaynida qamalda turdi. Ammo, aynan shu paytda, Oltin Oʻrdada davlat toʻntarishi sodir boʻldi. Toʻxtamishning oʻgʻli Jaloliddin tomonidan taxtdan agʻdirib tashlangan Temurxon ham, Idiku Uzbekga oʻxshab, Xorazm tarafga qarab qochdi. Ammo u yoʻlda Jaloliddin va uning kuyovi Qozonning koʻrsatmasiga binoan Jonxoʻja degan kishi tomonidan oʻldirildi.

Jaloliddinning (1412-yili xon qilib koʻtarilgan) topshirigʻiga binoan Ujuk bahodir bilan Qozon Idikubiy bilan muzokaralar olib bordilar. Natijada Idikubiy yarashish haqidagi taklifga va qoʻyilgan shartlarni qabul qilishga majbur boʻldi. Chunonchi, U Jaloliddinga soʻzsiz itoat etish hamda oʻz ugʻillaridan birini saroyga joʻnatishga (aftidan, garovga boʻlsa kerak) rozi boʻldi. Ammo Jalollidin soʻzining ustidan chiqmadi va koʻp oʻtmay tuzilgan sulhdan voz kechib, Idikubiyga qarshi Qujilay bahodirni yubordi, lekin u magʻlubiyatga uchradi. Idikubiy uning 1000 dan ortiq kishisini asir oldi va katta oʻljani qoʻlga kiritdi. Abdurazzoq Samarqandiyning ta’kidlashicha, Idikubiy kishanlangan asirlarni Urganch xalqiga ularni qoʻriqlash hamda boqish sharti bilan tarqatgan. Bu hol busiz ham ezilgan xalqning sabr kosasini toshirib yubordi va Xorazm xalqi 1412-yilda Idiku va uningʻ oʻgʻliga qarshi qoʻzgʻolon koʻtardi. Aftidan, Muborakshoh qoʻzgʻolonni bostirishga muvaffaq boʻlgan, chunki qoʻzgʻolondan keyin yana bir yil u Xorazmda hokimiyat tepasida turgan.

Shohrux Xorazmda boʻlayotgan voqealarni diqqat bilan kuzatib turgan edi. 1412-yili Xorazmga Alayka koʻkaltoshning umumiy rahbarligida amirlardan Sayid Ali tarxon bilan Ilyosxoja boshchiligida katta qoʻshin yubordi. Samarqanddan

Ulug‘bek mirzo tomonidan amir Muso aka boshchiligida xurosonliklarga madad uchun 5000 kishilik qo‘shin yuborildi.

Muborakshoh temuriylar qo‘shinining kelayotganligi to‘g‘risidagi xabarni eshitgani hamono amir va mansabdorlarni yig‘ib kengash o‘tkazdi. Kengashning ayrim ishtirokchilari Shohrux bilan sulh tuzishni, ba’zilari esa Xorazmni tashlab ketishni, boshqa birlari bo‘lsa jang qilishni maslahat berdilar. Shu paytda Alayka ko‘kaltoshdan elchi kelib, Muborakshohdan so‘zsiz taslim bo‘lishni talab qildi. Uzoq fikr almashinuvdai keyin sulh tuzish uchun temuriylarning lashkarboshilari huzuriga vakillar yuborishga qaror qildilar. Lekin Xorazm elchilari Alayka ko‘kaltosh oldiga yetib borolmadilar. Ularni yo‘lda Sayid Ali tarxon va Ilyosxojalarning navkarlari talab, o‘zlarini esa o‘ldirdilar. Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, bundan g‘azablangan Xorazm xalqining kattadan-kichigigacha jangga otlanib, temuriy qo‘shinlarni tor-mor keltirdilar.

Faqat 1413-yildagina Shohruxning noibi amir Shohmalik Xorazm zodagonlarini o‘ziga qaratib, Muborakshohni Xorazmdan quvib chiqarishga muvaffaq bo‘ldi. Shu vaqtdan boshlab Xorazm yana temuriylar saltanati tarkibiga kirdi.

Amir Shohmalik Xorazmga hokim qilib tayinlandi. Uning vafotidan (1425-26) keyin o‘rniga o‘g‘li amir Ibrohim egalladi.

### *1413-1416 yillarda Markaziy Eron va Movarounnahrning shimoli-sharqiy hududlaridagi siyosiy vaziyat*

Xorazm ham temuriylar davlati tarkibiga qaytarilgach, Shohrux mirzo Markaziy Eronni bo‘ysundirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Avval Umarshayx mirzo farzandlari qo‘lida bo‘lgan bu viloyatlar hozirda uning o‘g‘li Iskandar mirzo qo‘lida birlashtirilgan edi. Shohrux mirzo 1413-yili Ozarbayjonga harbiy yurish boshlashga qaror qilib, Mazondoron o‘lkasiga yetib keldi va o‘ziga Iskandar mirzo ham o‘z qo‘shini bilan kelib, qo‘shilishini kutdi. Lekin turli bahonalar bilan Iskandar mirzo oliy O‘rdaga kelib qo‘shilmadi. Aslida Shohruxning bu vaqtda Ozarbayjonga yurish boshlashi dargumon bo‘lib, Iskandar mirzo Shohruxning harakatlarini o‘ziga qarshi qaratilgan harakat deb hisobladi. Iskandar mirzo Shohruxga rad javobi berish bilan cheklanmay, Shohrux qo‘lida bo‘lgan Seyiston, Qandahor, Garmser kabi viloyatlarga choparlar jo‘natib, ularni Hirotga yurish qilishga chaqirdi va ularga umumiy g‘alabadan so‘ng katta suyurg‘ollar va’da qildi. Natijada Shohrux mirzo ham yurishni to‘xtatib, o‘z viloyatlarida tinchlikni ta’minlashga e’tibor qaratdi va o‘g‘li Boysung‘ur mirzoni poytaxtni mustahkamlash uchun Hirotga jo‘natdi.

1414-yilning 5-aprel kuni Shohrux mirzo Iskandar mirzoga qarshi yurishini boshladi. Natijada birin-ketin butun Markaziy Eron shaharlari va viloyatlari Shohrux mirzo qo‘liga o‘tdi. Shohrux Isfahonning Mirzo Rustamga, Hamadon va Luristonni Mirzo Boyqaroga, Sherozni Mirzo Ibrohimga suyurg‘ol qilib berdi. Lekin ko‘p o‘tmay Mirzo Rustam va Mirzo Boyqarolar turli sabablar bilan suyurg‘ollaridan ayrildilar va ularning yerlari ham Shohrux avlodlari qo‘liga o‘tdi.

1413-yil Ozarbayjonga yurish qilish niyatida Mozandaronda qishlayotgan Shohrux bu yurishga Mirzo Ulug‘bek va Mirzo Ahmadni jalb qilmadi. U

Movarounnahr lashkariga Oq O‘rda va Mo‘g‘uliston chegaralaridan xabardor bo‘lib turish vazifasini topshirdi. Lekin shu yili Shohruxning Ozarbayjon yurishi amalga oshmadi. Fors viloyatini boshqarayotgan Mirzo Iskandar ushbu yurishda ishtirok etishdan bosh tortgach, Shohrux mirzo avval uning yerlarini bo‘ysundirishga qaror qildi.

X.Fayziyevning fikriga ko‘ra, Mirzo Shohrux “Movarounnahr lashkarlari u tarafdan xabardor bo‘lib tursinlar”, ko‘rsatmasini berayotganda Farg‘ona hokimi Ahmadning o‘z akasi Fors hokimi Mirzo Iskandarga yordam berishi mumkinligini nazarda tutgan. Muallif shu sababli Ulug‘bek Farg‘ona hokimini o‘z huzuriga chaqirgan, lekin Ahmad kelmagach, uning o‘g‘lini Samarqandga chaqirib garovda saqlashni maqsad qilgan, degan xulosani bildiradi. Shuningdek, muallif Mirzo Ulug‘bekning Farg‘onaga yurishi Shohrux tashabbusi bilan yuz berganligini ta’kidlaydi.

B.Ahmedov esa Mirzo Ulug‘bekning Farg‘ona masalasidagi harbiy tadbirlarini Forsdagi siyosiy voqealarga bog‘liq holda yoritmagan. V.V.Bartold ushbu masalaga munosabat bildirarkan, Mirzo Ulug‘bek o‘z ixtiyori yoki otasi Shohruxning topshirig‘i bilan harakat qilganligi noma’lumligini ta’kidlagan.

Mirzo Shohruxning shimoliy chegaralardan xabardor bo‘lib turish haqidagi farmonidan Movarounnahrda o‘z mavqeini kuchaytirish maqsadida foydalangan Ulug‘bek Farg‘ona hokimi Ahmadni farmon ijrosi bo‘yicha maslahatlashib olish bahonasida Samarqandga chaqirdi. Chunki farmondagi “Movarounnahr lashkarlari” so‘z birikmasida Mirzo Ahmad boshchiligidagi Farg‘ona lashkari ham nazarda tutilgan edi. O‘zini Mirzo Ulug‘bekni emas, balki oliy hukmdor Shohruxning noibi sifatida bilgan Ahmad Samarqandga borishdan bosh tortadi. U imkon qadar muzokaralar o‘tkazib, vaqtdan yutgan holda Forsdagi voqealar nihoyasini kutishni va shu asnoda o‘ziga qo‘shni davlatlardan ittifoqchi topishni maqsad qilgan edi.

Ahmad mirzo bilan olib borilgan muzokaralar samara bermagach, Mirzo Ulug‘bek 1414-yilning bahorida Farg‘ona tomon yurish boshladi. Mirzo Ahmad Axsi va Andijon shaharlarini mustahkamlab, o‘zi vodiyning janubiy-sharqidagi tog‘larga chekindi. Abdurazzoq Samarqandiyning ma’lumotlariga qaraganda, Axsi shahri og‘ir janglardan so‘ng egallangan. Mirxond ham shu voqealar bayonida Axsi Farg‘onaning eng mustahkam qal’asi bo‘lganligini ta’kidlagan.

Mirzo Ahmad asosiy kuchlarini Axsi shahriga joylashtirgan va uni mustahkamlashga katta e’tibor bergan. Shuning uchun ham Axsini qo‘ldan ketishi Andijon taqdirini deyarli hal qilib qo‘yadi. Mirzo Ulug‘bek Axsini boshqarishni Poyanda bakovulga topshirgach, Andijon shahrini jangsiz qo‘lga kiritgan bo‘lishi kerak. Manbada aks etgan ma’lumotlar shunga ishora qiladi. Axsining qo‘ldan ketishi Mirzo Ahmadga katta zarba bo‘lganligidan u tog‘larga chekinishga qaror qilgan. Farg‘ona hokimi to‘liq tor-mor etilib, xavf butkul yo‘qolishini kutmasdan Ulug‘bekning Samarqandga qaytib ketishi esa Oq O‘rda davlati bilan chegaralaridagi vaziyatga bog‘liq bo‘lsa kerak. Shuningdek, Mirzo Shohrux Fors yurishini boshlagan paytda Ulug‘bekning Samarqandda bo‘lishi shimoliy chegaralardagi xavfsizlikni ta’minlash uchun zarur edi.

Hofizi Abru va Abdurazzoq Samarqandiydan farqli ravishda Fasih Xavofiy Mirzo Ulugʻbekning Fargʻona yurishi haqida qisqacha maʼlumot beradi. U Axsi qalʼasidagi janglar haqida umuman soʻz yuritmaydi va Andijon shahrini boshqarish amir Musoko, amir Muhammad Tobon hamda amir Ali Qavchinlarga topshirilganligini, Andijon qalʼasini qutvoli etib Poyanda bakovul tayinlanganligini bayon qiladi. Axsi qalʼasi va uning uchun boʻlib oʻtgan janglar haqida Abdurazzoq Samarqandiyning batafsil tavsifidan kelib chiqib, ularni Fasih Xavofiyning maʼlumotlariga nisbatan ishonchli, degan xulosaga kelish mumkin. Lekin Fasih Xavofiy bergan shu qisqa maʼlumot Andijon shahri Fargʻona vodiysining maʼmuriy markazi boʻlganligidan darak beradi. Chunki shahar qutvoli Poyanda bakovul Amir Musoko, Muhammad Tobon va Ali Qavchinlarga boʻysunganligini Xavofiy ham taʼkidlaydi. Abdurazzoq Samarqandiy Andijonni boshqarishni Amir Musoko va Muhammad Tobonlarga topshirilganligi, Axsiga esa Poyanda bakovul qutvol etib tayinlanganligini bayon qilgan edi. Xavofiy Poyanda bakovulni aslida Axsi shahri qutvoli sifatida Andijonni boshqarayotgan amirlarga boʻysunganligi uchun ham Andijon shahrining qutvoli, deb adashtirgan. Keyinchalik Oʻsh shahri yaqinida boʻlib oʻtgan jangda ishtirok etgan Andijon amirlari safida Poyanda bakovulning qayd etilmagan. Bu ham uni Axsida boʻlganligidan dalolat beradi.

Movarounnahrning sharqiy chegara viloyatining Mirzo Ulugʻbek qoʻliga oʻtishi Moʻgʻuliston hukmdorlari manfaatlariga zid edi. Shuning uchun Mirzo Ahmad moʻgʻullardan yordam soʻrashga qaror qildi. Fikrimizcha, hali Andijon qalʼasi zabt etilmasdan avval u moʻgʻullarga yordam soʻrab murojaat qilgan. Chunki 1414-yilning iyulida Isfahon shahrini qamal qilayotgan Shohrux qarorgohiga Ulugʻbekning navkari Shayxuyi Qoraunos kelib, Movarounnahr hokimi Samarqandga qaytganidan soʻng Ahmad moʻgʻullar yordamida Fargʻona vodiysiga bostirib kirganligini xabar qilgan. Agar voqealar ketma-ketligini tahlil qiladigan boʻlsak, kechi bilan 1414-yil aprel oyining oxiri may oyining boshlarida Mirzo Ahmad moʻgʻullardan yordam soʻragan. Uning maqsadi Ulugʻbek qoʻshinlari Fargʻona vodiysi qalʼalarini zabt etgunga qadar moʻgʻullar yordamini olish edi. Ahmadning otasi Mirzo Umarshayx vodiyga moʻgʻullar bostirib kirganida, Andijon qalʼasini mustahkamlab, oʻzi togʻlarga chiqib ketgan va Amir Temurning yordamga yetib kelishini kutgan edi.

Ulugʻbekning qaytib ketishi Ahmad va unga yordam berishga qaror qilgan moʻgʻullar uchun juda qoʻl keldi. Fargʻona masalasi toʻla hal etilmaganligini yaxshi tushungan Ulugʻbek Andijonda katta qoʻshin qoldirib ketgan edi. Shu qoʻshinga tayangan holda, oʻz kuchlariga ortiqcha baho bergan Amir Musoko, Muhammad Tobon va Ali qavchinlar yaxshi tayyorgarlik koʻrmasdan Ahmad va uning ittifoqchisi boʻlgan moʻgʻullar bilan “masof urushi” olib borishga qaror qilishdi. Ahmad toʻsatdan qilingan hujum natijasida Ulugʻbek amirlarini tor-mor etgan boʻlsa-da, Andijonni zabt eta olmadi. Oʻsh yonidagi jangda omon qolgan amir Rustam Andijongacha jang qilib chekindi va Andijon qalʼasini qoʻlida saqlab qolishga erishdi. Mirzo Bobur Andijon qalʼasining mustahkamligini taʼriflar ekan, “Movarounnahrda Samarqand va Kesh qoʻrgʻonidan soʻngra mundin ulugʻroq qoʻrgʻon yoʻqtur”, – deb bejiz taʼkidlamagandi. Andijonni uzoq vaqt qamal qilib turish moʻgʻul amirlarining manfaatlariga zid edi. Ular uchun qalʼani katta

qurbonlar evaziga qamal qilgandan ko‘ra, himoyalanmagan aholi yashash joylarini talon-taroj qilish qulay edi. Shuning uchun mo‘g‘ul amirlari atrofni talon-taroj etib bo‘lgach, o‘ljalar bilan Mo‘g‘ulistonga qaytdilar.

Garchi ba’zi tarixiy adabiyotlarda Ulug‘bekning katta qo‘shin bilan Farg‘ona tomon ikkinchi marta yurishi natijasida Mirzo Ahmadning Koshg‘arga chekinganligi ta’kidlangan bo‘lsa-da, tarixiy manbalarda bu to‘g‘risida ma’lumot uchratmadik. Shundan kelib chiqqan holda, mo‘g‘ul qo‘shinlarining qaytib ketishi sababli tushkunlikka tushgan Mirzo Ahmad Farg‘onani tark etishni ma’qul ko‘rgan, degan xulosa haqiqatga yaqindir. V.V.Bartold ham mo‘g‘ullar qaytib ketgach, Mirzo Ahmad Koshg‘arga chekinganligini ta’kidlagan.

Mirzo Ahmad Mo‘g‘uliston xoni Muhammadxondan ikkinchi marta yordam so‘rashga qaror qildi. Uning bunday qarorga kelishiga xizmatidagi bir guruh amirlarning ta’siri kuchli bo‘lgan. Chunki Shohrux tomonidan 1415-yilning 25-mayida Mirzo Ahmadga yuborilgan yupanchnomada shunga ishora bor.

Mirzo Ahmad Farg‘ona masalasida Shohruxga murojaat qilgan bo‘lishi ham mumkin. Shohrux yupanchnomani Ahmadning o‘sha paytda Hirotda bo‘lgan navkari Tukaldan yuborganligi bizni shunday mulohaza yuritishimizga imkon beradi. Farg‘ona hokimi Tukalni Xuroson hukmdori huzuriga Mirzo Ulug‘bek bilan bo‘lib o‘tgan voqealar bo‘yicha tushuntirish berish asnosida yordam so‘rash uchun jo‘natgan bo‘lsa kerak. U esa Mirzo Shohruxdan aniq javob bo‘lmaganligi uchun Hirotda bir muddat qolib ketgan. Tukal Hirotga 1414-yilning kech kuzida jo‘natilganligini taxmin qilish mumkin. Chunki eng qulay payt ham shu vaqt edi. Mirzo Shohrux Hirotga qaytib kelganidan so‘ng 1414-yilning 25-noyabrida Mirzo Ulug‘bek ham Xurosonga tashrif buyurib, otasini g‘alaba bilan muborakbod etadi va Farg‘ona voqealari bo‘yicha hisobot bergan. Boshqa temuriyzodalar kabi Mirzo Ahmad ham Hirotga o‘z odamini jo‘natib, Mirzo Shohruxni tabriklash bahonasida uning Farg‘ona masalasidagi fikrini bilmoqchi bo‘lganligi tabiiy. Lekin aslida aynan mana shu vaqtda Farg‘ona masalasi bo‘yicha Mirzo Shohrux o‘zining aniq fikrini bildirgan, ya’ni vodiyni Mirzo Ulug‘bek ixtiyoriga o‘tishini ma’qullagan. Bu Mirzo Ahmadning navkari Tukalni o‘z huzurida olib qolib, unga aniq javob bermaganligidan ko‘rinib turibdi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Tukalga 1415-yilning 25-mayida yupanchnomani olib qaytishga ruxsat berilgan.

Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki, V.V.Bartold Tukalni Farg‘onadagi janglarda asir tushib qolgan bo‘lsa kerak, degan taxminni ilgari suradi. Biz manbalarda Tukalning Mirzo Ahmadning navkari sifatida ta’riflanishidan uni maxsus vazifalarni bajaruvchi xos navkar bo‘lgan, degan xulosa keldik. Agar Tukal asir bo‘lganida, O‘sh yonidagi jangda qatl etilgan Mirzo Ulug‘bekning nomdor amirlari va bahodirlari xuni uchun jazolanishi ehtimoli katta edi. Shuningdek, Fasih Xavofiy uni “Mirzo Ahmadning navkari amir Tukal”, deb atagani ham bejiz bo‘lmasa kerak. Keyinchalik amir Tukalning yirik sarkardalardan biri sifatida Mirzo Ulug‘bek qo‘shini safida Mo‘g‘uliston chegaralarida xizmat qilganligi ma’lum.

Mirzo Ulug‘bekning 1414-yil 25-noyabrdan to 1415-yil martga qadar Xurosonda qolib ketganligi bir necha mulohazalarni keltirib chiqaradi. Mirzo Shohrux Movarounnahrning shimoliy va sharqiy chegaralarida biror bir jiddiy xavf

yo‘qligi uchun o‘g‘lini uzoq muddat Xurosonda ushlab turgan bo‘lishi ehtimolga yaqin. Balki, bu orqali Shohrux Forsdagi muhim ishlar bilan band bo‘lgan vaqtda mamlakatning sharqiy chegaralarida xavfli vaziyatning kelib chiqishiga sababchi bo‘lgan Mirzo Ulug‘bekni jazolagandir. Chunki shu vaziyat sababli mo‘g‘ullar Farg‘ona vodiysiga bostirib kirdilar va O‘sh yonida temuriylar qo‘shinini tor-mor etdilar. 1414-yilning kech kuziga kelib, Movarounnahrga tashqi xavf kamaygan. Mirzo Ahmad Andijonni qamal qilib turganda yoki boshqa xavf bo‘lganida Shohrux Ulug‘bekni Xurosonga kelishiga izn bermagan, yoki uni chaqirtirib, o‘rniga boshqa shahzodani yuborgan bo‘lardi.

Albatta, Mirzo Ahmadning yordam istab Mo‘g‘ulistonga kelishi mo‘g‘ul amirlari uchun temuriylarning ichki ishlariga aralashishga imkon berishi bilan manfaatli edi. Mo‘g‘ulistonda Mirzo Ahmadni yaxshi kutib oladilar. Uning singlisini eng obro‘li dug‘lat qabilasining sardorlaridan biri Amir Said Ali nikohiga so‘ratish orqali, ittifoqni mustahkamlamoqchi bo‘ldilar.

Mirzo Ahmad yana Mo‘g‘ulistondan yordam olmoqchi edi. Uning Mo‘g‘ulistonda ekanligi Shohruxni ham tashvishga solmay qolmasdi. Uning uchun Markaziy Eronda o‘z hukmronligini mustahkamlab, G‘arbiy Eron va Ozarbayjonni qayta temuriylar saltanati tarkibiga kiritish uchun kurashayotgan bir paytda davlatning shimoli-sharqiy chegaralarida tinchlik o‘rnatilishi juda muhim zaruriyat edi. Shu sababdan Mirzo Shohrux yupanchnomani yuborib, Ahmadni o‘z huzuriga taklif etdi. Fasih Xavofiy ushbu masala bo‘yicha yana bir muhim ma’lumot taqdim etadi. Unga ko‘ra, Mirzo Shohrux tomonidan Mirzo Ahmad huzuriga Mo‘g‘ulistonga ketmasdan oldin ham elchi yuborilgan. Lekin shunga qaramay, Mirzo Ahmad Mo‘g‘ulistonga ketishga qaror qilgach, unga ikkinchi marotaba taklifnoma-yupanchnoma yuborilgan.

1415-yilning yozida Mo‘g‘ulistonda yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar Mirzo Shohruxning ishini yengillashtirdi. Chunki kutilmaganda Mo‘g‘uliston xoni Muhammadxon vafot etib, taxt uchun uning vorislari o‘rtasida kurash boshlandi. Muiniddin Natanziy Muhammadxon vafotidan so‘ng taxt masalasida juda ko‘p kurashlar bo‘lganligi va oxir-oqibat dug‘lat qabilasidan bo‘lgan amir Xudoydodning sa’y-harakatlari bilan Naqshi Jahonning taxtni egallaganligini bayon qiladi. O‘zaro kurashlar bilan band bo‘lgan mo‘g‘ul hukmdorlarining Mirzo Ahmadga yordam berishi amri mahol edi. Shu sababli Mirzo Ahmad mo‘g‘ullar yordamidan umidini uzishga majbur bo‘lgan. Hofizi Abruning ta’kidlashicha, Mirzo Ahmad Mo‘g‘ulistondan Koshg‘arga qaytgan va ma’lum vaqt shu yerda bo‘lgan.

Mo‘g‘ulistonda siyosiy beqarorlik boshlangach va yupanchnoma ta’sirida Mirzo Ahmad Farg‘ona hokimligidan umidini uzib, Hirotga jo‘nab ketdi. Lekin u Hirotda uzoq turmadi. 1416-yili bir necha shahzodalar bilan birgalikda Mirzo Shohruxga qarshi fitnada ayblangan Mirzo Ahmad hajga jo‘natildi va 1425-yili o‘sha yerda vafot etdi.

Mirzo Ahmad siyosat maydonidan butkul chetlatilgach, uning Koshg‘arda qolgan noibi Shayx Ali Tag‘oyi ham Mirzo Ulug‘bekga murojaat qilib, Koshg‘arni o‘z mulkiga qo‘shib olishini so‘radi. Shu tariqa, Koshg‘ar Movarounnahr tarkibiga kiritildi.

Shunday qilib, Mirzo Shohruxning aralashuvi natijasida yangi urushlarning oldi olindi va Movarounnahrning sharqiy chegaralarida ham Mirzo Ulug‘bek boshqaruvining o‘rnatilganligi o‘z tasdig‘ini topdi. Bu esa mamlakat sharqiy chegaralarining mustahkamlanishida hamda o‘zaro urushlar, shuningdek, mo‘g‘ul qabilalarining talonchilik hujumlarini oldini olinishida muhim qadam bo‘ldi.

Mirzo Ulug‘bek Mo‘g‘uliston bilan chegaradosh bo‘lgan bu viloyatning harbiy-strategik o‘rnini hisobga olgan holda uni mustahkamlashga katta ahamiyat berdi. 1416-yili Koshg‘arning ham Mirzo Ulug‘bek boshqaruviga o‘tishi mamlakatning sharqiy chegaralari xavfsizligini ta’minlashda navbatdagi yirik qadam bo‘ldi. Natijada Farg‘ona vodiysiga mo‘g‘ul amirlarining bostirib kirish imkoniyatlari yanada qisqardi.

***Mirzo Shohruxning Ozarbayjon yurishlari***

Shohrux mirzoning bosh maqsadi Amir Temur davlati tarkibiga kiritilgan barcha erlarni o‘z qo‘li ostida birlashtirish edi. Shu nuqtai nazardan G‘arbiy Eronni zabt etish uning o‘z maqsadida to‘la erishishi yo‘lidagi oxirgi qadam bo‘lardi. 1420-yili Shohrux mirzo G‘arbiy Eron, Iroq va Ozarbayjonni zabt etish uchun yurish boshladi. Uning farmoniga binoan 200 ming kishilik qo‘shin jamlangan edi. Qora Yusuf ham katta miqdorda qo‘shin to‘plab urushga hozirlik ko‘ra boshladi. Shohrux mirzoning Qazvin va Sultoniya viloyatlarini o‘ziga topshirish hamda o‘zini vassal deb tan olish haqidagi talabi rad etilgach, hamma jangga hozirlik ko‘rayotgan vaqtda 1420-yilning 13-oktyabrida Qora Yusufning vafot etishi temuriylarning ishini biroz yengillashtirdi. Temuriylar qo‘shini tezda Qazvin, Sultoniya, Tarbiz viloyatlarini egalladilar. Shirvonshoh Xalilulloh ham Shohrux mirzo hukmronligini tan oldi. Ozarbayjondan 1421-yili qaytgan Shohrux mirzo u yerda o‘z hukmronligini to‘la o‘rnata olmagan bo‘lsa-da, G‘arbiy Eronning katta qismini bo‘ysundirishga erishdi.

Mirzo Ulug‘bek Shohrux mirzoning topshirig‘iga ko‘ra Oq O‘rda va Mo‘g‘ulistondagi vaziyatni doimiy ravishda kuzatib bordi, zarur hollarda u yerdagi voqealarning borishiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Aynan Mirzo Ulug‘bekning yordami bilan Sher Muhammad o‘g‘lon Mo‘g‘uliston, Baroq o‘g‘lon esa Oq O‘rda taxtini egalladilar. Lekin ularning har ikkalasi ham o‘z valine’matlariga xiyonat qildilar. Natijada Mirzo Ulug‘bek 1425-yili Mo‘g‘ulistonga harbiy yurish uyushtirdi va katta g‘alabalarga erishdi. Lekin baribir Mo‘g‘ulistonni to‘liq bo‘ysundirish ishi oxiriga yetmadi.

1427-yili Oq O‘rda hukmdori Baroq o‘g‘lonning Sirdaryo bo‘yidagi shaharlarga da’vo qilishi natijasida Mirzo Ulug‘bek Oq O‘rdaga qarshi yurish boshladi. Lekin harbiy ehtiyotkorlikka e’tibor qilinmaganligi oqibatida Mirzo Ulug‘bek qo‘shini to‘la mag‘lubiyatga uchradi. Shundan so‘ng Dashti Qipchoq ko‘chmanchilarining Movarounnahr va Xurosonning shimoliy chegaralariga bosqinlari ko‘payib bordi.

1421-yili Shohrux mirzo Ozarbayjondan qaytganidan so‘ng bu yerda hokimiyat Qora Yusufning o‘g‘li Amir Iskandar qo‘liga o‘tdi. U o‘z hokimiyatini mustahkamlab olgach, 1428-29-yillarda temuriylar davlatiga qarashli bo‘lgan Sultoniya shahrini ham tortib oldi. Natijada 1429-yili Shohrux mirzoning Ozarbayjonga ikkinchi yurishi boshlandi. 1429-yilning 18-sentyabrida Salmos

dashtida bo‘lib o‘tgan jangda yana turkman lashkari tor-mor keltirildi. Sultoniya, Ozarbayjonning poytaxti Tabriz shaharlari egallandi. Shundan so‘ng Shohrux mirzo Ozarbayjonni boshqarishni Qora Yusufning boshqa o‘g‘li amir Abu Saidga topshirib 1431-yili Hirotga qaytdi.

Lekin amir Abu Saidning hukmronligi uzoqqa bormadi. Bu yerda hokimiyat yana amir Iskandar qo‘liga o‘tgach, u temuriylar davlatining doimiy ittifoqchisi va vassali bo‘lgan Shirvon mamlakatiga hujum qila boshladi.

Natijada Shohrux mirzo uchinchi marta Ozarboyjon yurishini boshlashga qaror qildi. Bu yurish 1434-yilning 5-noyabridan boshlandi. Rayda qishlovni o‘tkazgan lashkar 1435-yilning bahorida Ozarbayjon yurti tomon harakatni davom ettirdi. Bu vaqtda Shirvon hokimi Xaliluloh, amir Qora Yusufning farzandlaridan Jahonshoh kabi yirik sarkarda va hokimlar Shohrux mirzoga kelib qo‘shildi hamda itoat izhor etdi. Bu vaqtda Shohruxning o‘g‘li Ibrohim mirzoning to‘satdan vafot etishi yurishni biroz kechiktirdi. Bu safar deyarli yirik janglar bo‘lmadi. Amir Iskandar qochib ketgach, Shohrux qo‘shini butun Ozarbayjonni egalladi. Shohrux turk sultoni Murodga elchi yuborib, agar Iskandar qochib borsa, tutib o‘ziga yuborishni so‘radi. Gruziya podshosi Aleksandr bo‘ysunganligini bildirib, boj va xiroj to‘ladi va o‘z o‘g‘li Dimitriyni Gruziyadagi asir musulmonlar ozod etilgunga qadar Shohrux mirzo huzuriga jo‘natdi. 1436-yili Hirot qaytish oldidan Ozarbayjonni boshqarish Qora Yusufning o‘g‘li Amir Jahonshohga topshirildi. Shunday qilib Ozarbayjon Shohrux mirzo tomonidan uchinchi marta bo‘ysundirildi.

***Temuriylar saltanatining shimoliy chegaralarida siyosiy vaziyatning keskinlashib borishi***

1427-yilgi mag‘lubiyatdan so‘ng Mirzo Ulug‘bek Dashti Qipchoqdagi vaziyatga o‘z ta’sirini keskin kamaytirib yubordi. 1428-yili Dashti Qipchoqda hokimiyatni egallagan Abulayrxon ko‘cmanchi o‘zbeklar davlatiga asos soldi. Tez orada bu davlat lashkarlari Movarounnahr, Xorazm va Xurosonning shimoliy chegaralarida paydo bo‘la boshladi.

Dastlab 1341-yili ko‘chmanchi o‘zbeklar Xorazmga bostirib kirib uni qattiq talon-taroj qildilar. Xorazm hokimi mashhur amir Shohmalikning o‘g‘li Ibrohim Urganchni tashlab, Kot va Xiva shaharlariga qochdi. Uning vaziri Xoja Asiluddin Urganch himoyasini tashkil etdi. Lekin Urganch egallanib, o‘zi qatl etildi. Temuriylar qo‘shini yordamga yetib kelgan paytda talonchilar qaytib ketgan edi. Bunga qarshi temuriylar tomonidan jiddiy chora ko‘rilmadi, ya’ni Dashtga javob yurishi qilinmadi. Aksincha ushbu yilda boshlab, Mozandaron va Buxoroda temuriylar qo‘shini qish ichi doimiy himoyada turishi odatga aylandi. Chunki, ko‘chmanchilar asosan shu hududlar orqali o‘troq dehqonchilik hududlariga bostirib kirar edi.

1435-yili Abulxayrxon yana Xorazmga bostirib kirdi va uni to‘liq talon-taroj qildi. Bu safar ham jiddiy javob yurishi amalga oshirilmadi. Natijada temuriylar ko‘chmanchi o‘zbeklarga qarshi faqat mudofaa xarakterida siyosat olib borishlari oydinlashib qoldi. Bu ko‘proq temuriylar davlatining kuchsizlanib borayotganligi,

ko‘chmanchilarning jangovar harbiy qismlari bilan jang qilishdan o‘zlarini chetga olayotganliklaridan dalolat berardi.

Yuqoridagi holatni Movarounnahrning shimoliy-sharqiy chegaralari bo‘yicha ham kuzatish mumkin edi. Tarixiy manbalarda Mirzo Ulug‘bek Farg‘ona vodiysini boshqarishni kimga topshirganligi haqida so‘z yuritilmasa-da, quyida keltiriladigan ba’zi ma’lumotlar muayyan xulosalarga kelishga yordam beradi. 1419-yili Mirzo Ulug‘bekka “Andijon tomondan Abu-l-lays kelib, Sher Bahromning o‘g‘li Jatadan qochib, Koshg‘arga kelganligi va uning ketidan boshqa bir guruh izma-iz yaqinlab kelayotganligi xabarini arzga yetkazdi.” 1421-yilning 5-oktyabrigacha huddi shu mazmundagi ma’lumotlar, ya’ni Abu-l-laysning Andijondan kelib Farg‘ona va Mo‘g‘uliston ahvolini arzga yetkazgani hamda hurmatga sazovor bo‘lib, Andijonga qaytib ketganligi yoki uning navkari kelib, yuqoridagi kabi xabarlarni yetkazganligi Abdurazzoq Samarqandiy tomonidan qayd etiladi. Ushbu qisqa satrlarning o‘zidan ham 1419-1421-yillarda, ayniqsa 1421-yili Farg‘ona vodiysining Mo‘g‘uliston bilan chegaradosh hududlarida notinchlik hukm surganligi, buning asosiy sababi Mo‘g‘ulistondagi siyosiy nizolar ekanligi sezilib turadi. Misol uchun, 1421-yili Abul-l-lays kelib, Samarqandda ikki oy (1421-yil 10-maydan to 13-iyulgacha) turadi va Ali Makrit bilan birga ortga qaytadi. Ali Makrit 1416-yili Koshg‘arni boshqarish uchun Amir Siddiq bilan birga yuborilgan edi. Uning ham Andijonga jo‘natilganligi sababi faoliyati asosan mamlakatning sharqiy qismida kechganligi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Bu ikki amir nima uchun Samarqandda ikki oy ushlanib qoldi? Bizningcha, ular Mo‘g‘ulistondagi siyosiy beqarorlikdan foydalanib, u yerga yurish uyushtirish masalasini muhokama qilishgan. Lekin Mirzo Shohrux Ozarbayjonda katta yurish bilan band bo‘lgan bir vaqtda mirzo Ulug‘bek Mo‘g‘ulistondagi siyosiy jarayonga aralashishga jur’at etmay, uni kuzatish bilan cheklandi. 1421-yilning 5-oktyabrida Abul-l-laysning navkari Samarqandga kelib, Mo‘g‘ulistonda o‘zaro urushlarning navbatdagi natijalari haqida ma’lumot beradi. Bu ham Mo‘g‘ulistonda o‘zaro nizolar uzoq davom etganligidan dalolatdir.

Yuqoridagi ma’lumotlardan Farg‘onani 1419-1421-yillarda Abu-l-lays ismli shaxs boshqarganligi va unga nafaqat vodiyni boshqarish, shuningdek, Mo‘g‘ulistondagi siyosiy va harbiy harakatlarni diqqat bilan kuzatib borish vazifasi ham yuklatilganligi ko‘rinib turibdi. Chunki Farg‘ona vodiysida tinchlikning hukm surishi ko‘p jihatdan qo‘shni ko‘chmanchi davlat Mo‘g‘ulistondagi siyosiy va harbiy vaziyatga ham bog‘liq edi.

Mirzo Ulug‘bek Mo‘g‘uliston taxtiga o‘z tarafdorini o‘tqazish niyatida qattiq kurash olib bordi. 1420-yili nihoyat uning urinishlari samara berib, taxtga Sher Muhammad o‘g‘lon o‘tirdi. Lekin yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, uning Mo‘g‘ulistonda tartib o‘rnatishi oson kechmadi va o‘zaro urushlar bir necha yil davom etdi. Shermuhammad o‘g‘lon o‘z yurtida mustahkamlanib olgach, Movarounnahr va Koshg‘ardan qochib borgan kishilarga huzuridan joy berib, ikki o‘rtadagi do‘stona munosabatlarga putur yetkazdi. Natijada Mirzo Ulug‘bek 1425-yili Mo‘g‘ulistonga katta yurish uyushtirishga majbur bo‘ldi. Yurish boshlanishi arafasida lashkarning katta qismi Farg‘ona vodiysida to‘plandi. Lekin janglarning asosan Shimoliy Mo‘g‘ulistonda olib borilgani va unda Farg‘onada jamlangan

qo‘shin sarkardalarining ham ishtirok etganligi ma’lum. Bundan ko‘rinadiki, yurish boshlanishi bilan vodiydagi qo‘shin ham Toshkent atrofida turgan asosiy kuchlarga borib qo‘shilgan va harbiy yurish shimoliy hududlar orqali amalga oshirilgan.

1425-yil fevralida boshlangan yurish Mirzo Ulug‘bekning g‘alabasi bilan tugadi. Katta talofotga uchragan Mo‘g‘uliston esa bir necha yillar davomida temuriylar boshqaruvidagi davlat chegaralariga xavf sola olmadi.

1427-yili Oq O‘rda xoni Baroq o‘g‘londan mag‘lubiyatga uchragan Mirzo Ulug‘bek ko‘p o‘tmay, tashqi siyosatda shimoliy chegaralardagi ustunlikni Dashti Qipchoq va Mo‘g‘uliston hukmdorlariga boy berdi. Temuriy hukmdorlarning Dashti Qipchoq va Mo‘g‘ulistonni o‘z ta’sirida tutib tura olmaganligi keyinchalik Movarounnahr, jumladan, Farg‘ona vodiysi uchun og‘ir oqibatlarga olib keldi. Bu aslida Mirzo Shohrux boshchiligidagi temuriylarning mamlakat shimoli va sharqidagi ikki yirik ko‘chmanchi davlat – Oq O‘rda va Mo‘g‘uliston davlatlariga nisbatan XV asrning 30-yillaridan boshlab faqat mudofaa xarakterida tashqi siyosat olib borganligining ta’siri edi. Xuddi shu yillardan boshlab Mirzo Shohrux har yili qish faslida Mozandoron va Astrobodga, Mirzo Ulug‘bek esa Buxoro va Toshkent atroflariga katta qo‘shin yuborib, ko‘chmanchilarning talonchilik hujumlarini oldini olishga harakat qilgan. 1433-yilning 20-dekabrda Mirzo Ulug‘bekning ukasi Boysung‘ur mirzo vafoti munosabati bilan ta’ziya bildirish maqsadida Hirotga borishi kechiktirilgan. Bunga aynan mo‘g‘ul amirlarining Movarounnahrga bostirib kirish xavfi kuchliligi sabab bo‘lgan edi. Hujumning oldini olish maqsadida Mirzo Ulug‘bek qo‘shinning bir qismi bilan qishni Buxoroda o‘tkazgan bo‘lsa, qolgan qismini Mo‘g‘uliston chegaralariga yuborgan. Ko‘chmanchilarning qish faslida Movarounnahr o‘troq dehqonchilik hududlariga qiladigan talonchilik yurishlariga to‘siq bo‘lishga mo‘ljallangan faqat mudofaadan iborat bo‘lgan bu harakatlar yetarli natija bermadi. Aksincha, bu kabi hujumlarini har yili takrorlanishiga olib keldi.

Shu bilan birgalikda Mirzo Ulug‘bek Mo‘g‘ulistondagi siyosiy voqealarga nisbatan ham faqat kuzatish maqomida siyosat olib bordi. 1434-yili Mo‘g‘ulistonda toj-taxt uchun yangidan kurash boshlandi. Bu kurashda Esan Bug‘axondan yengilgan Yunusxon boshchiligida mo‘g‘ullarning katta bir guruhi Mirzo Ulug‘bekdan yordam olish maqsadida Movarounnahrga chekindi. Zahiriddin Muhammad Bobur bu voqeani quyidagicha qayd etadi: “Vaysxon voqeasida mo‘g‘ul ulusi ikki fariq bo‘lur. Bir pora Yunusxon sari va ko‘progi Esan Bug‘axon sari bo‘lur. Burunroq Yunusxonning egachisini Mirzo Ulug‘bek Abdulaziz mirzog‘a olib edi. Ul munosabat bila Erzan borin tuman beklaridin Mirak turkmankim, Charos tuman beklaridin edi, xonni uch-to‘rt ming uyluq mo‘g‘ul ulusi bilan Mirzo Ulug‘bekg‘a kelturdilarkim, ko‘mak olib yana mo‘g‘ul ulusini olg‘aylar, mirzo muruvvat qilmadi, ba’zisini asir qildi, ba’zilarini birin-sirin viloyatqa pereshon qildi. Erzan buzug‘lig‘i mo‘g‘ul ulusida bir tarix bo‘lubtur.” Mazkur voqeani shunga yaqin mazmunda Mirzo Haydar ham “Tarixi Rashidiy” asarida qayd etgan. Yunusxonni keyinchalik Iroqqa jo‘natib yuborilishi, uning hamrohlarini asir olinishi Mo‘g‘ulistonda temuriylarga nisbatan ishonchsizlikni kuchayishiga olib keldi. Ushbu voqeadan so‘ng o‘zaro urushlarda yengilgan biror

mo‘g‘ul shahzodasining Movarounnahrga panoh so‘rab kelganligi kuzatilmagan. Natijada temuriylarning Mo‘g‘ulistondagi siyosiy vaziyatga ta’sir o‘tkazish imkoniyati keskin pasaydi. Bularning barchasi Farg‘ona vodiysi himoyasini ma’lum darajada kuchsizlanishiga ta’sir qildi.

Aslida Mirzo Ulug‘bekning Yunusxonga yordam bermaganligi Esan Bug‘axonni qo‘llab-quvvatlaganligini bildirar edi. Esan Bug‘axon taxtga chiqqandan so‘ng mamlakatda tartib o‘rnata olmadi. Mo‘g‘ulistonning yirik amirlari nafaqat ichki siyosatda balki tashqi siyosatda ham mustaqil harakat qila boshladilar. Aralashmaslik siyosati orqali Esan Bug‘axonning taxtga chiqishiga yo‘l qo‘yib bergan Mirzo Ulug‘bekning bu xatti-harakati xato ekanligini keyingi voqealar yaqqol ko‘rsatib berdi. Mo‘g‘ulistondagi tartibsizlikning oqibatlari temuriylar uchun salbiy ta’sir qildi. 1435-yili Koshg‘ar viloyati Mo‘g‘ulistonning yirik amirlaridan biri Said Ali tomonidan bosib olinishi ham buni isbotlaydi. Garchi amir Said Alining Koshg‘arga yurishi 1433-yildan boshlangan bo‘lsa-da, mirzo Ulug‘bek Koshg‘arni o‘z qo‘lida saqlab qolish uchun yetarli darajada choralar ko‘ra olmadi. Uning bu yerdagi rahbarlarni almashtirish siyosati natija bermaganligini Mirzo Haydar ham ta’kidlaydi. O‘sha vaqtda temuriylarning oliy hukmdori Mirzo Shohruxning Ozarbayjon yurishida ekanligi hamda ko‘chmanchi o‘zbeklarning Xorazmni bosib olishi Ulug‘bekka Koshg‘ar viloyatini qaytarib olish imkonini bermadi. Natijada Farg‘ona vodiysi nafaqat shimoliy, endi sharqiy tomondan ham Mo‘g‘uliston bilan qo‘shni bo‘lib qoldi. Bu esa mo‘g‘ul amirlari tomonidan Movarounnahrning sharqiy chegaralarini doimiy talon-taroj etilishiga yo‘l ochdi.

Shu o‘rinda qayd etib o‘tish kerakki, X.Fayziyev XV asrning 30-va 40-yillarida Movarounnahr shimoliy va sharqiy chegaralarida temuriylarning nufuzini tushib ketganligini haqli ravishda ta’kidlagan. Shuningdek, u Dashti Qipchoq va Mo‘g‘ulistonda temuriylar boshqaruvidagi viloyatlarga nisbatan muayyan xavf saqlanib qolganligini ushbu hududlarning geografik jihatdan noqulay joylashganligi va yuqori harbiy salohiyatga ega o‘nlab turk-mo‘g‘ul ko‘chmanchi qabilalari mavjudligi bilan izohlaydi. Ushbu fikrlarni inkor etmagan holda, asosiy muammo temuriylar boshqarayotgan davlatning o‘zida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar natijasida saltanatning kuchsizlanayotganligida edi, deb o‘ylaymiz.

Manbalarda Movarounnahrning sharqiy viloyatlarini mo‘g‘ul amirlari boshchiligidagi harbiy kuchlar tomonidan talon-taroj qilinishi Mirzo Ulug‘bek hukmronligining so‘nggi yillarida avjga chiqqanligi ta’kidlanadi. Misol uchun, Mirzo Haydar Esan Bug‘axon davrida yirik amirlar o‘z holicha mustaqil hukm surganliklari haqida so‘z yuritarkan, quyidagilarni ta’kidlaydi: “Yana bir amir Karimberdi do‘g‘lat Mo‘g‘uliston chegarasida, Andijon va Farg‘ona tarafidagi Olabug‘a degan mavzeda tepalik ustiga bir qal’a qurdi. Shu yerdan u Andijon musulmonlari ustiga yurishlar qilib turdi. Amir Haqberdi bekchik Issiqko‘ldagi Qo‘ysuvi degan erda qal’a qurdi. U ahli ayolini qalmoqlar zarar yetkazmasin, deb Issiqko‘ldagi orolda qoldirib, o‘zi Turkiston va Sayramni talon-taroj qilish bilan mashg‘ul bo‘ldi.”

Keyinchalik Esan Bug'axonning o'zi ham Movarounnahrga bostirib kira boshladi. 1447-yili Mirzo Shohrux vafoti natijasida temuriylar sulolasi vakillari o'rtasida boshlanib ketgan o'zaro taxt talashuvlar chegara viloyatlarni ko'chmanchilar tomonidan qiyinchiliksiz talon-taroj qilinishiga olib keldi. Endi ular shaharlar atroflari va qishloqlarni talon-taroj qilish bilan cheklanmay, shahar va qal'alarni qamal bilan egallashga ham jur'at qila boshladi.

Mirzo Ulug'bek hukmronlik yillarini so'nggiga kelib butun Movarounnahrga ko'chmanchilarning talonchilik hujumlari kuchaydi. Ayniqsa, uning sharqiy chegaralaridagi viloyat bo'lgan Farg'ona mo'g'ulistonlik ko'chmanchilarning bosqinlaridan juda katta zarar ko'rdi.

***Mirzo Shohrux davrida Temuriylar saltanatining xalqaro aloqalari***

Shohrux temuriylar davlatining yagona hukmdori sifatida faol tashqi siyosat olibborishga harakat qildi. Bu borada qo'shni yirik davlatlarning ham temuriylar davlatiga katta qiziqish bilan qaraganligini ham ta'kidlash kerak. Xitoy solnomalarida ta'kidlanishicha, 1405-1449-yillarda Xitoyga Samarqanddan 33 marta, Hirotdan 14 marta elchilar tashrif buyurgan. Bu elchilik aloqalarini aslida Xitoyliklar boshlab berganlar. 1409-yili birinchi marta Hirotga Xitoy elchilari tashrif buyurgan edi. Bu aloqalar keyinchalik doimiy ravishda olib borildi.

Shohrux mirzoning Misr bilan elchilik aloqalari 1429-yili boshlangan. Shohrux mirzo elchilari orqali Ka'ba kisvasini (yopinchig'ini) yuborishga ijozat so'ragan. Bu orqali u butun islom olamiga rahnomalikni da'vo qilayotgan edi. 1250-yildan beri kisva tayyorlash huquqi Misrga tegishli bo'lib, ular bu huquqdan mahrum bo'lishni hohlamas edilar. 1430-yilgi elchilik ham asosan shu masala bilan shug'ullandi. Misr sultoni Barsboy turli bahonalar bilan bu taklifni rad etishga majbur bo'ldi. 1435-yili Ozarbayjonga qilingan 3-yurish davrida yana Misrga elchi yuborildi va bu safar Shohrux mirzo Quddus shahrini ziyorat qilmoqchi ekanligini bildirdi. Bu to'g'ridan-to'g'ri harbiy tahdid edi. Misr sultoni Barsboy ham harbiy tayyorgarlik ko'ra boshladi. Lekin uning harbiy tayyorgarlik paytida yangi soliqlar solishi xalq orasida norozilik keltirib chiqardi. 1436-yili Shohrux 4 marta Misrga elchi yuborib, Barsboydan o'z nomiga xutba o'qitish va tanga zarb qilishni talab qildi. Shohrux mirzo Zulqadir amirini Barsboyning ashaddiy dushmani Amir Jonibekni ozod etishga majbur qilishiga, Barsboy Murod II bilan harbiy ittifoq tuzish orqali javob qildi. 1438-yili Barsboyning vafot ettishi bilan dushmanlik aloqalari do'stlikka almashtirdi. Yangi Misr sultoni Chaqmoq Shohrux mirzoga yon berishga majbur bo'ldi. 1443-yili u Shohrux mirzoning kisvasi Ka'baga yopilishiga rozilik bildirdi. Natijada, Misr sultonining Ka'bapo'shi ostidan Shohrux kisvasi yopildi. Keyinchalik bu yopinchiq "Shohrux kisvasi" nomi bilan 1452-yilgacha yopib kelindi. Shu yili temuriylar davlatining bu vaqtdagi qudratini hisobga olgan Chaqmoq Shohrux kisvasini olib tashlashni buyurishga jazm etdi.

***Ta'lim texnologiyalari:*** *"baliq skeleti", Venn diagrammasi, T-sxema, "bumerang", muammoli ta'lim, keys-stadi, vizual materiallar, blits-so'rov.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar***

*1. XV asr o'rtalarida temuriylar saltanatida siyosiy vaziyat qanday edi?*

*2. Shohrih mirzoning Ozarbayjon yurishlari xususida fikr yuriting.*
*3. Mirzo Ulug'bekning Mo'g'ulistonga harbiy yurishlari haqida aytib o'ting.*
*4. Ko'chmanchi o'zbeklarning Movarounnahrga doimiy hujumlariga temuriylar qanday chora ko'rishdi?*
*5. Mirzo Shohrux qanday qilib Xorazmda temuriylarning mavqeyini tikladi?*
*6. XV asrning 30- va 40-yillarida Mo'g'ulistonda temuriylarning nufuzi tushib ketishiga nima sabab bo'ldi?*
*7. Nima uchun Mirzo Shohrux Ka'baga kisva yopish masalasida Misr bilan qarama qarshilikka bordi?*
*8. Shohruh mirzoning tashqi siyosati haqida nimalar deya olasiz?*

## MAVZU: 1447-1456-YILLARDA TEMURIYLAR DAVLATINING SIYOSIY AHVOLI.

### Reja:

*1. Mirzo Shohrux vafotidan so'ng Xurosondagi siyosiy ahvol.*

*2. Movarounnahrda sulton Mirzo Sulton Abu Sa'id hukmronligining o'rnatilishi.*

*3. Mirzo Abulqosim Boburning davlatchilik faoliyati.*

***Kalit so'zlar:*** *Mirzo Ulug'bek, Sulton Muhammad mirzo, Abdulatif mirzo, Fors viloyati, Abdullo mirzo, Abulqosim Bobur, Sultoniya, Mirzo Abdulaziz, 1447-yil, Sharofuddin Ali Yazdiy, Mazondoron, Astrobod, Sultoniya, Qazvin, Luriston viloyati, Tarnob mavzesi, Ixtiyoriddin qa'asi, Shohruxiya, Samarqand, Damashq qishlog'i, 1449-yil, 1450-yil.*

***Mirzo Shohrux vafotidan so'ng Xurosondagi siyosiy ahvol***

1442-yili Shohrux mirzo o'z mamlakatining g'arbiy chegaralaridagi Sultoniya, Qazvin, Ray va Qum viloyatlarini Boysung'ur mirzoning o'g'li Sulton Muhammad mirzoga in'om etdi. Lekin yosh shahzoda belgilangandan ortiq soliq yig'ib olayotganligi o'ziga suyurg'ol etib berilgan yerlardan boshqa yerlarni ham ko'zlayotganligi haqidagi xabarlar kela boshlagach, 1443-yili Ray va Qum viloyatlarini shahzodadan tortib olish bu viloyatlarni boshqarishni Xoja Shamsuddin Muhammad Buxoriyga topshirish to'g'risida farmon berildi. Shohruxning kasalligi haqidagi xabarlar keng tarqali boshlashini o'zi mamlakatda notinchlikka olib kela boshladi. Sulton Muhammad mirzo Shohrux mirzodan ruxsat so'ramay Hamadon viloyatini o'z mulkiga qo'shib oldi va uning hokimini qatl etdi. Bu voqea Shohrux mirzoga qattiq ta'sir etdi va shahzolaning ishini qoraladi. Tez orada Sulton Muhammad Isfahonni ham bosib olib, Sheroz tomon yurish boshladi. Sheroz hukmdori mirzo Abdullo Shohruxdan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Shohrux mirzo itoatsiz nabirasini jazolash uchun kasal ekanligiga ham qaramay 1446-yilning kech kuzida Iroq tomon yurish boshladi.

Sulton Muhammad bobosi kelayotganini eshitib, Sherozni qamaldan bo'shatdi va Luriston viloyatiga chekindi. Uning qo'shini tarqab ketdi va o'zi ham

ojiz ahvolga tushdi. Shohrux mirzo Isfahonga yetib kelib u yerdagi Sulton Muhammad mirzo tarafdorlarini qatl etdi. Hukm etiluvchilar orasida mashhur tarixchi Sharofuddin Ali Yazdiy ham bor edi. Lekin u Abdulatif mirzoning aralashuvi bilan omon qoldi va Hirotga surgun qilindi. O‘z amirlarini Sulton Muhammad mirzoni olib kelish uchun yuborgan Shohrux mirzo qishni Ray viloyatida o‘tkazdi. Lekin hali isyonkor nabirasi yetib kelmasdan 1447-yilni 14-mart kuni 72 yoshida vafot etdi.

Gavharshod begim Mirzo Ulug‘bekning kuch qudratini hisobga olgan holda tezda Mirzo Abdulatifga xabar berdi va lashkarni boshqarishni so‘radi. Lekin Shohrux mirzoning vafoti xabari tarqalishi bilan Lashkarda bo‘lgan shahzodalardan Abulqosim Bobur va Xalil mirzolar o‘z qo‘shinlarini olib Xurosonga qarab yo‘lga chiqdilar. Mirzo Abdulatif lashkarda biroz tartibn o‘rnatib olgach bobosi jasadini olib Hirot tomon yo‘l oldi. Lekin 1447-yilning 18-mart kuni Hirotni boshqarayotgan Mirzo Allouddavla bilan aloqa bog‘layotganligini gumon qilib Mirzo Abdulatif o‘z buvisini hibsga olishga farmon berdi. Bu vaqtda mirzo Abulqosim Bobur Mazondoron va Astrobod viloyatini egallab oldi. Mirzo Allouddavla o‘zini Hirot hukmdori deb, e’lon qildi. Shu voqealar ta’sirida o‘z otasi huzuriga bormoqchi bo‘lgan shahzoda o‘z niyatidan qaytib Sabzavordan Nishopur tomon yo‘lga chiqdi. Mirzo Abdulatif o‘zining g‘oyat qattiqqo‘lligi va dag‘alligi bilan ko‘pchilikni o‘zidan bezdirib qo‘ydi. Mirzo Allouddavlaning odamlari uni Nishopurda hibsga olishga erishdilar. Mirzo Ulug‘bek Xuroson taxti uchun da’vogar bo‘lib turgan bir vaqtda bu voqea Mizo Alouddavlaga katta ustunlik berar edi.

O‘z otasining vafoti haqidagi xabarni eshitishi bilan Mirzo Ulug‘bek ham Hirot tomon lashkar tortdi. Lekin u dastlab Balx, Shibirg‘on, Qunduz, Bavlon va Badaxshon viloyatlarining hokimi Mirzo Abobakr bilan to‘qnashdi. Olib borilgan muzokaralar natijasida Mirzo Abobakr Ulug‘bekning kuyovi bo‘lishi va unga bo‘ysunishiga kelishib olindi. Lekin Mirzo Abobakrning fitnalarni rejalashtirayotganligi ma’lum bo‘lib qolgach u hibsga olindi va Samarqandga jo‘natildi. Uning mulklari Movarounnahr tarkibiga qo‘shib olindi. Bu vaqtda o‘g‘li Abdulatifning hibsga olinganini eshitgan Mirzo Ulug‘bek Hirotga yurishni to‘xtatishga va Alouddavla bilan muzokara boshlashga majbur bo‘ldi. Mirzo Alouddavla dastlab sulhga uncha moyil emas edi. Lekin Mirzo Abul qosim Boburning Astrobod va Mozondarondan chiqib Xurosonga kelayotganligi, Jom viloyatidagi jangda esa Mirzo Abulqosim Bobur qo‘shinlari Mirzo Alouddavlaning askarlarini tor-mor etganligi ma’lum bo‘ldi. Shunday sharoitda Mirzo Alouddavla o‘z amakisi bilan sulh tuzishni lozim deb topdi va Mirzo Abdulatifni banddan ozod qildi. Sulhga ko‘ra Mirzo Ulug‘bek Alouddavlani Hirot hukmdori deb tan oldi, Balx va Hitrot orasidagi Jijiktu nohiyasi har ikki mulkning chegarasi etib belgilandi .

Shundan so‘ng Mirzo Alouddavla barcha kuchlarini yig‘ib Mirzo Abulqosim Bobur tomon yurish boshladi. Lekin vaziyat urushga yetib bormadi. Har ikki amirzoda sulh tuzib, Xabushon viloyatini chegara etib belgiladilar.

Mirzo Ulug‘bek va Alouddavla o‘rtasidagi sulh shartlariga ko‘ra Mirzo Abdulatifning askarlari ham ozod qilinishi kerak edi. Lekin bir necha bor mirzo

Abdulatif iltimos qilganiga qaramay Alouddavla uning askarlarini ozod qilishni istamadi. Aksincha Mirzo Solihni Balx tarafiga yuborib Abdulatifni kuzatishni buyurdi. Aynan Shishopurda Mirzo Abdulatifni asir olishga erishgan Mirzo Solih edi. Abdulatif qasd olish uchun qulay fursat etganligini tushunib etdi va Mirzo Solih ustiga yurish boshlab uni to‘la tor-mor etdi. Faqatgina Mirzo Ulug‘bekning aralashuvi natijasidagina har ikki tomon o‘rtasidagi katta urushning oldi olindi. Lekin bu vaqtinchalik holat edi.

1448-yili Mirzo Ulug‘bek Xurosonni zabt etish uchun yurish boshladi. Alouddavla tomonidan sulh shartlariga rioya etilmay Shohrux mirzoning xazinasidagi merosidan Ulug‘bek va uning o‘g‘illariga tegishli qismi berilmaganligi, Mirzo Abdulatifning askarlarini ozod etilmay qatl etilganligi, Balx atroflarining talon-taroj etilganligi bu yurishga bahona bo‘ldi. Har ikki tomon qo‘shini Hirot va Balx oralig‘idagi Tarnob manzilida to‘qnashdi. Jang boshlanishi oldidan Mirzo Abdulloh Sheroziyning o‘z qo‘shini bilan amakisi tomoniga o‘tib ketishi Mirzo Ulug‘bekning 90 ming kishilik qo‘shinining ustunligini yanada oshirdi. Jang Alouddavla qo‘shinlarini to‘la tor-mor etilishi bilan tugadi. Mag‘lub shahzoda Hirotga ham bormay to‘g‘ri ukasi Mirzo Abulqosim Bobur oldiga qochdi. Gavharshod begim boshchiligidagi saroy ayonlari ham Hirotdan chiqib Iroq tomon yo‘lga chiqdilar.

Mirzo Ulug‘bek ushbu g‘alaba haqida fathnomalar yozishni buyurdi. Lekin bu fathnomalarda jangda qahramonlik ko‘rsatgan Mirzo Abdulatifning emas, balki uning ukasi Mirzo Abdulazizning nomi zikr etilgan edi. Bu ota-bola o‘rtasida nizoning boshlanishiga sabab bo‘ldi.

Hirotni zabt etgan Mirzo Ulug‘bek Mirzo Abulqosim Bobur va Mirzo Alouddavlalarning birlashgan qo‘shinlarini tor-mor keltirish uchun Mashhad sari yurish boshladi. O‘z amakilariga qarshi tura olmasliklarini tushungan birodarlar chekina boshladilar. Mirzo Ulug‘bek Mirzo Abdulatifni Bistom, Mirzo Abdulloh Sheroziyni esa Astrobodni egallash uchun jo‘natdi. Ular bu viloyatlarni deyarli qarshiliksiz egalladilar, Butun Xuroson Mirzo Ulug‘bek qo‘liga o‘tgan edi. Lekin shu vaqtda Mirzo Ulug‘bekning Puli Abrishimdan Mashhadga qaytganligi uning lashkariga salbiy ta’sir qildi. Abdulatif o‘z otasining ortga qaytganligini eshitgach shoshilinch ortga qaytdi va Nishopurga yetib kelgacha qattiq kasal bo‘lib qoldi. Uning kasalligiga ishonmagan Ulug‘bek farzandini tezda keltirishni buyurgach, taxtirovonda Mashhadga keltirilgan Abdulatifning qattiq kasalligi ikki o‘rtadagi sovuqchilikni kuchaytirdi. Agar Mirzo Ulug‘bek Puli Abrishimdan ortga qaytmaganda Mirzo Bobur va Mirzo Abdulatiflar Iroqqa mirzo Sulton Muhammad huzuriga qochib ketishga majbur bo‘lishar va Ulug‘bek Butun Movarounnahr, Xorazm, Xurosonning yagona hukmdoriga aylanar edi. Ulug‘bek Mashhadda ham uzoq ushlanib qolmadi. Hirot atrofida yuz bergan fitnalarni daf etish uchun Hirotga qaytishga majbur bo‘ldi va ushbu shahar atroflarini qattiq talon-taroj qildirdi. Bu vaqtda Mirzo Abulqosim Bobur o‘z kuchlarini qayta tiklab olib Mashhadga yetib keldi. Abdulatif esa Mashhadni jangsiz tashlab chiqib, Hirot tomon chekindi. Ulukbek Hirotni Abdulatifga in’om etib Samarqandga qaytishga qaror qildi. Chunki Abulhayrxon boshchiligidagi ko‘chmanchi o‘zbeklar Samarqand atroflarini talon-taroj qilayotgan edilar.

Mirzo Abdulatif 15 kungina Hirotda turdi. Abulqosim Bobur qo‘shinlarining yaqinlashayotganligi va amirzoda Yor Ali boshchiligidagi bir guruh harbiy qismlarning tahdididan cho‘chigan amirzoda Samarqand tomon chekinishni ma’qul ko‘rdi. Hirotni esa amirzoda Yoli Ali turkmon egallab olib 20 kun podsholik qildi. Abulqosim Bobur o‘zining asosiy kuchlari bilan yetib kelgach, Yor Ali turkmon asir olinib, qatl etildi va Hirot Abulqosim Bobur qo‘liga o‘tdi.

***Movarounnahrda sulton Mirzo Sulton Abu Sa’id hukmronligining o‘rnatilishi***

Mirzo Ulug‘bek Hirotdan Samarqandga chekinayotgan o‘g‘li Abdulatifni Balx viloyati hokimi etib tayinladi. Abdulatif esa otasidan beruxsat tamg‘a solig‘ini bekor qildi. Savdodan olinadigan bu soliqni bekor qilinishi uning tarafdorlarini ko‘paytirdi. Mirzo Ulug‘bek zudlik bilan Balx sari qo‘shin tortdi. Abdulatif mirzo esa daryo bo‘yidagi barcha kemalarni bir joyga yig‘dirib, daryo bo‘yida qatiq mudofaada turdi. Daryo bo‘yida bo‘lib o‘tgan bir necha janglarda ko‘proq farzand qo‘shinlari g‘olib chiqdi. Bir gal Mirzo Ulug‘bekning kuyovi Abdullo mirzo ham asir olindi. Samarqandda esa Mirzo Ulug‘bekdan norozilik kuchayib ketdi. Buning sababi esa uning ikkinchi o‘g‘li Abdulazizning zo‘ravonliklari edi. Hatto Ulug‘bekni hibsga olib, o‘z o‘g‘liga topshirish tarafdorlari ham paydo bo‘ldi. Shu vaqtda Ulug‘bek mirzo qo‘shini safida bo‘lgan Sulton Abusaid mirzo arg‘un qabilasi vakillarini o‘z tomoniga og‘dirib, Samarqandga yurish boshladi. Samarqandda bo‘lgan Abdulaziz mirzo esa ko‘p sonli qo‘shini bo‘lishiga qaramay shaharga qamalib oldi. Natijada Mirzo Ulug‘bek Samarqand tomon qaytishga majbur bo‘ldi. Uning kelayotganini eshitgan Sulton Abusaid mirzo Samarqandni tashlab, arg‘un eli ichiga ketdi. Mirzo Abulatif ham otasining ortidan yo‘lga tushdi va Shahrisabzni egalladi. Ko‘p o‘tmay Samarqand yaqinidagi Dimishq qishlog‘i yonida ota bola o‘rtasidagi jangda o‘g‘ilning lashkari g‘alabaga erishdi. Samarqandga chekingan otani esa o‘z amiri Mironshoh qavchin shaharga kiritmadi. Mirzo Ulug‘bek Shohruxiya shahriga chekindi. Shohruxiya hokimi amir Ibrohim ham bir necha kun o‘tgach, unga xiyonat qilish yo‘liga o‘ta boshladi. Natijada Mirzo Ulug‘bek Samarqandga qaytdi va o‘zini bu vaqtda shaharni egallab taxtga chiqqan o‘g‘li Mirzo Abdulatif qo‘liga topshirdi. Mirzo Abdulatif esa o‘z ukasi va otasini qatl ettirdi. Mirzo Ulug‘bekning qatl etilishi voqeasi 1449-yilning noyabr oyida sodir bo‘ldi. 1449-yili Movarounnahr taxtini Abdulatif mirzo egallab olgan paytda mamlakatning shimoliy va sharqiy chegaralarida vaziyat anchagina tahlikali edi. Mirzo Ulug‘bekning dastlab Xurosonni ham o‘ziga bo‘ysundirib, temuriylar davlatining yagona hukmdoriga aylanish maqsadida, keyinchalik o‘z o‘g‘li Abdulatif mirzo bilan o‘z taxtini saqlab qolish maqsadida olib borgan kurashlari davrida mamlakat chegaralarining mustahkamligiga yanada darz ketdi.

O‘zining qattiqqo‘lligi va shafqatsizligi bilan nom qozongan mirzo Abdulatif Movarounnahrda qattiq tartib o‘rnatishga kirishgan. Uning tomonidan olib borilgan siyosat haqida tarixchilar ham qiziqarli ma’lumotlar qoldirishgan. Abdurazzoq Samarqandiy uning hukmronlik davri haqida quyidagicha hikoya qiladi: “Mirzo Abdulatif Movarounnahr va Turkiston mamlakatini shunday qo‘lga oldiki, har qishda Samarqand va Buxoroga besh farsax masofa qolguncha chopqin

yasab, ko‘p mollaru behisob asirlar olib ketadigan o‘zbek lashkari u qish (Abdulatifning) siyosat haybati va davlat qudratidan (cho‘chib), u viloyatga yuz farsangdan kam masofaga yaqin kelmadilar.”

Lekin Abdulatif mirzoning hukmronligi uzoqqa cho‘zilmadi. U 1450-yilning 9-may kuni Mirzo Ulug‘bek tarafdorlari tomonidan qatl etildi. Samarqand taxtiga esa Abdullo mirzo o‘tqaziladi. Abdullo mirzo hukmronligi ham mustahkam emasdi. U taxtga chiqishi bilan Buxoro shahrida hibsda saqlanayotgan Sulton Abusaid mirzo ham ozodlikka chiqdi va Samarqand taxti uchun kurash boshladi. Samarqand yonida mag‘lubiyatga uchragan Abusaid Turkiston viloyatiga chekinadi. Bu vaqtda Hisori Shadmonda lashkar to‘plashga ulgurgan Mirzo Allouddavla Samarqand tomon yurish boshladi. Mirzo Abdullo ham zudlik bilan Shahrizabzga yetib kelib, uni mustahkamladi. Natijada Mirzo Allouddavla Balx tomon chekinishni ma’qul ko‘rdi.

Shundan so‘ng Mirzo Abdullo Sulton Abusaid mirzoni bartaraf etish uchun kurash boshladi. Uning qo‘shinlari Yassi shahrini qamal qilsalar-da, g‘alabaga erisha olmadilar va Samarqandga natijasiz qaytishga majbur bo‘ldilar.

Ko‘chmanchi o‘zbeklar xoni Abulxayrxoni bilan ittifoq tuzishga erishgan Sulton Abu Said mirzo xon bilan birgalikda 1451-yili Toshkent va Xo‘jand shaharlarini qo‘lga kiritdi. Asosiy jang esa 1451-yil 22-iyun kuni Samarqand yonidagi Sheroz qo‘rg‘oni yonida bo‘lib o‘tdi. Bu jangda itifoqchilar to‘la g‘alaba qozondilar. Mirzo Abdullo esa jang paytida halok bo‘ladi. Abulxayrxon katta savg‘a salomlar bilan ortga qaytdi. Shuningdek, u Mirzo Ulug‘bekning qiziga uylanadi. Keyinchalik ushbu nikohdan tug‘ilgan Ko‘chkunchixon Samarqand taxtini boshqaradi. 1451-yili Abusaid mirzo Samarqand taxtini egallagan bo‘lsa-da, bu vaqtda Abusaid mirzo hokimiyati hali Movarounnahrning o‘zida ham mustahkam emas edi. Shuningdek, 1454-yili Xuroson hukmdori Abulqosim Boburning Samarqandga yurish qilib kelib, uni qamal qilishi Abusaid mirzoning ahvolini yanada og‘irlashtirdi. Bunday vaziyatda u mamlakatning shimoliy va sharqiy chegaralarini mustahkamlay olmas ham edi.

Abdulatif o‘ldirilgach, Mirzo Abdullo va Mirzo Sulton Abu Sa’id o‘rtasida boshlangan taxt uchun kurash yangi bosqinlarga yo‘l ochib berdi. Mirzo Sulton Abu Sa’id taxtga o‘tirgandan keyin ham mo‘g‘ul amirlarining Farg‘ona vodiysi va Toshkent atroflariga talonchilik hujumlari davom etdi.

Mirzo Haydar Mo‘g‘uliston xoni Esan Bug‘axonning Toshkent atroflariga bosqin uyushtirganligini ta’kidlaydi: “Ammo Esan Bug‘axon Oqsuvda qaror topdi, uning xizmatiga birinchi bo‘lib Amir Muhammadshoh keldi, keyin barcha odamlari tag‘in uning yoniga qaytishdi. Xon ham bo‘lib o‘tgan ishlardan pushaymon bo‘lib, odamlariga yaxshi muomala qila boshladi. U kuch-quvvatga erishgach, ilk marta Sayram, Turkiston va Toshkandga yurish qildi. U to‘satdan hujum qilib, bu joylarni tamoman vayron qilib qaytdi. Bu hujum 855(1451)-yildan ilgari bo‘lgan. Yana bir marta xuddi shu taxlit o‘sha joylarga hujum qildi”.

Lekin Hasan Rumli mo‘g‘ul xonining 1452-yili Farg‘ona vodiysiga qilgan hujumi va unga qarshi Sulton Abu Sa’id tomonidan ko‘rilgan chora haqida ham ma’lumot beradi. Bu ma’lumot boshqa manbalarda uchramasa-da, voqeaning batafsil bayon etilgani bilan ajralib turadi.

Ilmiy adabiyotlarda Esan Bug‘axon yurishlarining sanalari xususida fikr bildirilmagan. Shuning uchun biz o‘z mulohazalarimizni bildirishni lozim topdik.

Ma’lumki, 1450-yil 9-may kuni Abdulatif o‘ldirilib, Samarqand taxtiga Mirzo Abdullo chiqarilgan edi. Shundan so‘ng Buxoroda joylashib olgan Mirzo Sulton Abu Sa’id bilan Abdullo o‘rtasida o‘zaro kurash boshlanib ketadi. Esan Bug‘axonning dastlabki yurishi aynan shu vaqtga, ya’ni 1450-yilga to‘g‘ri keladi. Sababi – 1450-yilning oxirlariga kelib, Yassi shahrini Mirzo Sulton Abu Sa’id egallab oldi va 1451-yilning yoziga qadar Turkiston hamda Toshkent viloyatlari ikki temuriyzoda o‘rtasida kurash maydoniga aylandi. Esan Bug‘axonning bosqini ushbu vaqtda yuz berganida aynan shu joydagi ikki temuriyzoda o‘rtasidagi kurashni bayon etgan Abdurazzoq Samarqandiy mo‘g‘ul xoni yurishini ham tilga olgan bo‘lar edi.

Mirzo Haydar Esan Bug‘axonning ikkinchi yurishi sanasini ham aniq yozmasdan, “Yana bir marta xuddi shu taxlit o‘sha joylarga hujum qildi” so‘zlari bilan cheklangan. Hasan Rumlida keltirilgan yurish bilan Mirzo Haydar ta’kidlagan yurish bir bo‘lishi mumkin. Unda, ikkinchi bosqin ham Farg‘onada amalga oshirilgan bo‘lib, uni 1452-yilda yuz bergan. Mirzo Haydar ta’kidlagan ikkinchi yurish va Hasan Rumli bayon qilgan bosqinning aynan bir yurish sifatida ko‘rishimizning sababi shundaki, boshqa manbalarda 1452-1453-yillari Movarounnahrda yuz bergan voqealar tarixiy manbalarda tilga olinmagan. Qolaversa, 1454-yilning bahorida esa Mirzo Sulton Abu Sa’id Balx viloyatiga bostirib kirgan. Buning natijasida Xuroson hukmdori Abulqosim Bobir shu yilning yozida Samarqandga yurish qilib, shaharni qamal qilgan.

Tarixiy manbalar Mirzo Sulton Abu Sa’idning Esan Bug‘axonga qarshi javob yurishi haqida ham ma’lumot beradi. “O‘sha davrda, – deb yozadi Mirzo Haydar, – Movarounnahrda Mirzo Sulton Abu Sa’id podshoh bo‘lgan. U Esan Bug‘axonni quvib, Yongigacha bordi, bu joy tarixiy kitoblarda Toroz deyiladi. Mo‘g‘ullar jang qilmay qochishdi, Mirzo Sulton Abu Sa’id o‘z viloyatiga qaytib ketdi”.

Zahriddin Muhammad Bobur esa Mirzo Haydardan farqli o‘laroq, Mirzo Sulton Abu Sa’id ushbu yurishida Mo‘g‘uliston hududiga bir muncha ichkari kirib borganligini hamda Esan Bug‘axon qo‘shinlari tor-mor keltirilganligini ta’kidlaydi. “Mirzo Sulton Abu Sa’id taxt olganda, – deb yozadi Mirzo Bobur, – cherik tortib borib Yangidan nari Isparada, Mo‘g‘ulistonda Esan Bug‘axonni yaxshi bosdi”.

Hasan Rumlining ta’kidlashiga ko‘ra asli Xuttalon hokimi bo‘lgan Ali barlos Sulton Abu Sa’idga qarshi isyon ko‘tarib Mo‘g‘ulistonga qochib borgandi. Aynan uning yordamida Esan Bug‘axon 1452-yilning fevralida Farg‘onaga bosqin uyushtiradi. 1452-yilning fevral oyining oxirida Sulton Abu Sa’id vodiy tomon qo‘shin tortadi. Movarounnahr qo‘shini Axsiga yetib kelgach, Esan Bug‘axon jang qilmay o‘z yurtiga qaytib ketishni ma’qul ko‘radi. Ali barlos esa bir guruh mo‘g‘ul amirlari bilan Andijon qal’asiga yashirinadi. 1452-aprel va may oylarida Andijon shahri ham mo‘g‘ullardan ozod qilinadi.

Hasan Rumlining ma’lumotini istisno qilganda, boshqa manbalar va ilmiy adabiyotlarda bu yurishlarning sanasi berilmagan. O‘sha vaqtda yuz bergan voqealardan kelib chiqib, mazkur masalada ba’zi taxminlarni oldinga surish

mumkin. Boburning “Mirzo Sulton Abu Sa’id taxt olganda”, deb qayd etishiga qaraganda, fikrimizcha, bu yurish 1453-yilda boʻlib oʻtgan. Chunki Sunton Abu Sa’id 1452-yili Fargʻonada edi. U 1453-yili oʻzining Esan Bugʻaga qarshi ikkinchi yurishini uyushtirgan koʻrinadi. Moʻgʻulistonga qilingan gʻolibona yurishdan soʻng shimoli-sharqiy chegaralardan xotirjam boʻlgan boʻlsa kerakki, yuqorida aytganimizdek, Mirzo Sulton Abu Sa’id 1454-yili Balxga yurish boshlaydi. Unda Esan Bugʻaxonning birinchi va ikkinchi bosqinlariga qarshi Mirzo Sulton Abu Sa’id ketma ket ikki yurish bilan muvaffaqiyatli chora koʻrgan boʻlib chiqadi.

Mirzo Sulton Abu Sa’idning Esan Bugʻaxonga qarshi olib borgan ikkinchi yurishining sanasi boʻyicha yana bir taxmin 1455-yildir. Chunki shu yili Oʻtror hokimi Pir Ahmad tarxon temuriyzodalardan biri Mirzo Sulton Uvays nomidan isyon koʻtaradi. 1455-yili Mirzo Sulton Abu Sa’id va uning amirlari toʻrt marta Oʻtrorga yurish qilib, toʻrtinchi yurishda Oʻtrorni ham egallaydilar. Abdurazzoq Samarqandiy toʻrtinchi yurish vaqtida isyonchilar baland togʻlarni oʻzlariga panoh qilish uchun chekka hududlarga qochganliklari, lekin oxir-oqibat taslim boʻlganliklarini bildiradi. Mana shu yurishlar vaqtida Oʻtrorni qamal qilgan Abu Sa’id unga chegaradosh boʻlgan Moʻgʻuliston hududlariga ham kirib borib, moʻgʻullarni tor-mor keltirgan boʻlishi mumkin.

Abu Sa’id mirzoning Moʻgʻulistonga qilingan ushbu gʻolibona yurishi ham Esan Bugʻaxonning talonchilik hujumlariga chek qoʻya olmadi. Koʻp oʻtmay, Mirzo Sulton Abu Sa’idning Movarounnahrda emasligidan foydalangan Esan Bugʻaxon yana temuriylar hududlariga bostirib kirdi. Bu safar moʻgʻul qoʻshinlari Fargʻona vodiysiga bosqin uyushtirdilar. Hujum keng koʻlamda va juda shiddatli olib borilgan. Bosqinchilar vodiyning sharqidan kirib kelganligini e’tiborga oladigan boʻlsak, ularning eng oldingi qismlari Fargʻona gʻarbidagi Konibodom qasabasigacha yetib borganligi ham talon-taroj naqadar keng koʻlamli boʻlganligidan dalolat beradi. Bosqinchilar mustahkamlanmagan qishloq, mayda qoʻrgʻonlarni talon-taroj qilish bilan cheklanmay, yirik shahar va qal’alarni shturm bilan egallashga ham jur’at etdilar. Eng asosiy janglar Andijon shahri uchun olib borildi. Bu vaqtda shahar hokimi boʻlgan Ali Kuchak mudofaani yetarlicha mustahkamlashga erishgan edi. Esan Bugʻaxonning koʻp sonli lashkari Andijonni oʻrab olib, lahm qazish yoʻli bilan qal’a devorlarini qulatishga erishdilar. Natijada janglardan soʻng tashqi qal’a va undagi shahar mahallalari bosqinchilar qoʻliga oʻtdi. Arkni oʻz qoʻlida saqlab qolib kurashni davom ettirgan Mirzo Ali Kuchak koʻp safdoshlari halok boʻlganligi, ba’zilarining esa moʻgʻullarga taslim boʻlganligi sababli sulh tuzishga majbur boʻlgan. Ushbu bosqinchilik yurishi butun dahshati bilan Mirzo Haydar tomonidan batafsil yoritilgan.

Esan Bugʻaxonning mazkur hujumida Moʻgʻulistondagi deyarli barcha harbiy kuchlar ishtirok etganligini bosqinning koʻlamidan ham taxmin qilish mumkin. Yana bir e’tiborga molik tomoni, koʻp hollarda xonni ham tan olmagan va moʻgʻul amirlari orasida eng kuchlisi boʻlgan Koshgʻar hokimi Amir Said Ali bu yurishda ishtirok etgan boʻlsa kerak-ki, asirlarning katta qismi Koshgʻarga olib ketilgan.

Mirzo Bobur Esan Bugʻaxonning ushbu yurishini Mirzo Sulton Abu Sa’id taxtga chiqmasdan avval boʻlib oʻtgan, deb hisoblaydi. “Boburnoma”da bu

voqealar quyidagicha hikoya etilgan: “Mirzo Ulug‘bekning va o‘g‘ullarining g‘avg‘osida, – deb yozadi Mirzo Bobur, – Esan Bug‘axon fursat topib kelib, Farg‘ona viloyatini Kandibodomgacha chopib, kelib Andijonni olib, elini tamom asir qildi”.

Aslida bu voqea qachon bo‘lib o‘tganligi haqida tarixiy adabiyotlarda aniq bir fikr berilmagan. Bizningcha, Mirzo Haydar tomonidan hikoya etilgan voqealar ketma-ketligi haqiqatga yaqin tuyuladi. Ya’ni, yuqorida to‘xtalganimizdek, Esan Bug‘axon dastlab Mirzo Sulton Abu Sa’id Samarqand taxtini egallamasdan avval (Mirzo Haydar 1451-yildan avval, deb alohida ta’kidlaydi), keyin esa Mirzo Sulton Abu Sa’id hukmronligi o‘rnatilgan davrda Farg‘onaga bostirib kirdi. Bunga javoban Mirzo Sulton Abu Sa’id Mo‘g‘ulistonga yurish qilib, mo‘g‘ullarni to Ashparagacha quvib bordi. Keyinchalik, aniqrog‘i, 1457-yili Mirzo Sulton Abu Sa’id Abulqosim Boburning vafot etishi natijasida Xurosonda boshlangan o‘zaro nizolardan foydalanib, uni zabt etish maqsadida yurish boshlaydi. Esan Bug‘axonning Farg‘ona vodiysiga yurish qilishi, bizningcha, ayni shu yilga to‘g‘ri keladi. Chunki, Mirzo Haydar bu vaqtda Sulton Abu Sa’idning Xurosonda bo‘lganligini ta’kidlaydi. Mo‘g‘ullarning Farg‘ona vodiysida bu qadar erkin harakat qilishi va Andijon qal’asini shturm bilan egallashi hamda vodiyga amalda hech qanday yordamchi harbiy kuchlarning yetib kelmaganligi Sulton Abu Sa’idning Movarounahrda bo‘lmaganligidan dalolat beradi.

Abdurazzoq Samarqandiyning ta’kidlashicha, 1457-yili Hirotni zabt etgan Mirzo Sulton Abu Sa’id 40 kun o‘tgach (1457-yil 18-iyul – 1457-yil 30-avgust), Balx va Movarounnahrdagi noxush voqealar sababli poytaxtni tashlab, Balx shahri tomon yo‘lga chiqadi. Muarrix Balxdagi noxush voqealarni Mirzo Ulug‘bek nabiralari Muhammad Jo‘kiy va Mirzo Ahmadlarning isyonlari bilan izohlaydi. Bu isyon tez orada bostiriladi. Mirzo Ahmad qatl etilgan bo‘lsa, Mirzo Muhammad Jo‘kiy qochib qutiladi. Lekin Abdurazzoq Samarqandiy Movarounnahrdagi noxush voqealar nimadan iborat ekanligi haqida hech narsa demaydi. Bizningcha, muarrix Movarounnahrdagi noxush voqealar deganda, aynan Esan Bug‘axonning Farg‘ona vodiysiga qilgan yurishini nazarda tutgan bo‘lsa kerak.

1457-yili mo‘g‘ullarga qo‘shni bo‘lib yashagan va ko‘pincha ularning dushmani bo‘lgan qalmoqlar ko‘chmanchi o‘zbeklar ulusiga bostirib kiradi. Sig‘noq atrofidagi Nurto‘qay degan joyda ko‘chmanchi o‘zbeklarni tor-mor etgan qalmoqlar Yassi, Toshkent va Shohruxiya atroflarini talon-taroj qilib o‘z yurtlariga qaytib ketadilar. Ko‘chmanchi o‘zbeklar va qalmoqlar o‘rtasidagi urush Esan Bug‘axonga Farg‘ona vodiysiga katta qo‘shin bilan bostirib kirishga imkon yaratgan. Yana bir qiziqarli tomoni, Esan Bug‘axon avval ikki marta Movarounnahrga bostirib kirganda asosan Turkiston, Toshkent va Sayram atroflarini talon-taroj qilgan, Farg‘ona vodiysiga esa ko‘pincha uning amirlari hujum qilgan edi. Bu safar mazkur hududlar qalmoqlar hujumiga uchraganligi sababli Esan Bug‘axon barcha kuchlari bilan Farg‘ona vodiysiga bostirib kirgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Esan Bug‘axonning Movarounnahrga qilgan harbiy bosqinlari sanasini quyidagicha belgilash mumkin:

Birinchi yurish, Mirzo Sulton Abu Sa’id Samarqand taxtini egallamasdan avval 1450-yili yuz bergan va Toshkent, Sayram viloyatlari talon-taroj qilingan.

Ikkinchi yurish, 1452-yilda amalga oshirilgan hamda Farg‘ona vodiysi jabr ko‘rgan. Bunga javoban esa Mirzo Sulton Abu Sa’id Farg‘onaga yurish qilib Axsi va Andijondan mo‘g‘ullarni quvib yuborgan.

Uchinchi yurish, 1457-yili bo‘lib o‘tgan va yana Farg‘ona vodiysi talon-taroj qilingan.

Mirzo Sulton Abu Sa’idning birinchi javob yurishi 1452-yil bo‘lib o‘tgan. Ikkinchi javob yurishi esa 1453-yoki 1455-yillari amalga oshirilgan.

### *Mirzo Abulqosim Boburning davlatchilik faoliyati*

1449-yili Hirotda hokimiyatni qo‘lga kiritgan Abulqosim Bobur uchun o‘z hokimiyatini mustahkamlash ham oson kechmadi. Birinchi bo‘lib unga qarshi Seyiston hokimi Shoh Husayn isyon ko‘tardi. Lekin nizo urushgacha yetib bormadi. Abulqosim Bobur qo‘shinlari Seyistonga yetib kelishi bilan Shoh Husayn sulh so‘radi va itoat izhor etdi. Hirot qo‘shini ham urushga tayyor emasdi. Chunki Balx chegarasida turgan yirik amirlardan biri Amir Hinduka o‘z qo‘shinlarini ruxsatsiz Astrobod sari boshladi. Bu esa ochiqdan ochiq isyon edi. Lekin Amir Hindukaning lashkari Amir Temurning eng yaqin sarkardalaridan biri bo‘lgan mashhur Shayx Ali Bahodirning nabirasi Shayx Ali Bahodir tomonidan tor-mor keltirildi. Isyonchi amir ham jang vaqtida halok bo‘ldi. Lekin taxt uchun kurash amirlarning qo‘llab-quvvatlashi sabab davom etaverdi. Hirotda hibsda turgan Mirzo Alloudavla u yerdan qochishga erishdi va G‘ur viloyatiga borib isyon boshladi. Abulqosim Bobur G‘urga qo‘shin jo‘natgach esa Fors viloyati tomon chekindi. Forsda o‘z hokimiyatini mustahkamlab olgan Sulton Muhammad mirzo esa bu vaqtda Xuroson tomon lashkar tortgan edi. Uning qo‘li ostidagi erlar sifatida tarixiy manbalarda Sheroz, Isfahon, Luriston, Shuliston, Yazd, Kermon, Qum, Kashon, Ova, Sova, Ray, Simnon va Damg‘on viloyatlari sanab o‘tiladi. Har ikki tomon qo‘shinlari Jom viloyatida to‘qnashdi va jangda Sulton Muhammad mirzo qo‘shini g‘alaba qozondi. Abulqosim Bobur Imod qal’asiga yashirindi.

1449-yilning oxiriga kelib Samarqand taxti Mirzo Abdulatif tomonidan egallangan vaqtda, Hirot taxti Sulton Muhammad mirzo tomonidan zabt etildi. Sulton Muhamad mirzo Hirotda mustahkamlana olmadi. Bunga ko‘proq u tomonidan tayinlangan devonbegilarning xalqdan oshiqcha soliq yig‘ishlari va zo‘ravonliklari sabab bo‘ldi. Shuningdek, Xuroson amirlari ham bundan zarar ko‘ra boshladi. Bu vaqtda esa Imod qal’asidan chiqib avval Abivardga, so‘ngra Astrobodga kelib o‘ziga tarafdorlar yig‘a boshlagan Abulqosim Boburning ham lashkari qayta tiklana boshladi. Mirzo Allouddavlaga Zamindovar viloyatini suyurg‘ol qilib berib, uni Hirotdan uzoqlashtirgan Sulton Muhammad mirzo Astrabod tomon yurish boshladi. Mashhadi Roz yaqinida bo‘lib o‘tgan jangda Abluqosim Bobur g‘alaba qozondi. Natijada Sulton Muhammad mirzo yana fors viloyatiga qaytib ketdi. Abulqosim Bobur mirzo esa 1450-yili yana bir bor Hirot taxtini egalladi.

Mirzo Allouddavla Zamindovarda uzoq qolmadi. Sulton Muhammad mirzoning Abulqosim Boburga qarshi kurashish uchun Mashhadi Rozga ketishi bilan u Hirot tomon qo‘shin tortib keldi. Hirotni egallay olmagach, Abulqosim Boburning yaqinlashayotganidan xabar topib, Balx tomon jo‘nab ketdi. Bu vaqtda

Samarqand taxtiga boʻysungan Balxni qiyinchiliksiz zabt etdi va Badaxshonni ham boʻysundirishga harakat qila boshladi.

Mirzo Allouddavlaning nufuzini oshib ketishini hohlamagan Abulqosim Bobur 1450-yilning oxirlarida Balx va Badaxshon sari yurish boshladi. Mirzo Allouddavlani tor-mor keltirib, oʻz hokimiyatini anchagina mustahkamlab oldi.

1451-yili Fors viloyati hokimi Sulton Muhamad mirzo yana bir bor Xuroson taxtini egallash uchun yurish boshladi. Bu safar ikki tomon qoʻshinlari Astrobod yoʻlidagi Chinoron mavzeyida toʻqnashdilar. Jangda asir olingan Sulton Muhammad mirzo qatl etildi. Bu gʻalaba Abulqosim Boburning nufuzini keskin oshirib yubordi. Natijada u 1452-yili Fors viloyatini zabt etish uchun yurish boshladi. Tez orada Eron Ozarbayjonidan tashqari barcha hududlar Abulqosim Bobur lashkari tomonidan egallandi. Bu bilan temuriylar mulklarini birlashtirishda katta yutuqqa erishilgandek edi. Lekin Abulqosim Bobur ham bir qator xatolarga yoʻl qoʻydi. U oʻz lashkariga zabt etilgan hududni talon-taroj qilishga ruxsat berdi. Bu esa Ozarbayjon bilan chegaradosh viloyatlarda, ayniqsa, avjiga chiqdi. Natija shunga olib bordiki, Sova shahri aholisi turkmanlar bilan aloqa bogʻlab, oʻz hokimlari Shayx Ali Bahodirni asir oldilar va Ozarbayjon hukmdori amir Jahonshoh huzuriga joʻnatdilar. Soʻngra turkmanlar lashkari Qum shahrini zabt etish harakatini boshladi. Abulqosim Bobur Qum tomon yordam yuborishga ulgurmadi. Mirzo Allouddavlaning Hirotni qamalga olganligi toʻgʻrisidagi xabar kelishi natijasida 1452-yilning avgust oyida Xurosonga qaytishga qaror qildi. Abulqosim Bobur Xurosonga qaytishi bilan Qum, Yazd, Isfahon, Sheroz, Ray va Kermon viloyatlari birin-ketin qora quyunli turkmanlar tomonidan zabt etildi. Temuriy mirzolarning oʻzaro urushlari natijasida Eronning markaziy va gʻarbiy oʻlkalari temuriylar sulolasi qoʻlidan chiqdi.

Albatta, Abulqosim Bobur Gʻarbiy va Markaziy Eronni yana temuriylar davlati tarkibiga kiritishga urinib koʻrdi. Lekin unga temuriylar davlati ichidagi nizolar yana halaqit berdi. 1453-yilning 30 iyulidan boshlab Abulqosim Bobur Astrabodda qoʻshin yigʻa boshladi. Lekin barcha kuchlarning toʻplanmaganligi va qoʻshni hududlarda qulay siyosiy vaziyatning yuzaga kelishini kutish lozimligi sababli boʻlsa kerak lashkar juda sekinlik bilan Astrabodga yaqinlasha boshladi. Faqat 1453-yilning 17-noyabrdagina qoʻshin Mozandaron viloyatiga kirib keldi va Astrabod yaqinidagi Sultonobod mavzeyiga joylashdi. Lekin 1454-yilning bahorida Movarounnahr hukmdori Sulton Abusaid mirzoning Balx va Qunduz viloyatlarida Xuroson lashkarini tor-mor keltirib, bu hududlarni zabt etganligi Abulqosim Boburning Movarounnahr tomon yurish qilishga majbur qildi. Movarounnahr yurishi hkam juda sekinlik bilan amalga oshirildi. Xuroson qoʻshini 1454-yilning-7 oktyabr kuni Samarqand yaqiniga yetib keldi va shaharni qamal qila boshladi. Samarqandni asosan shahar aholisi himoya qildi. Chunki Balx yurishidan gʻolibona qaytib kelgan Movarounnahr qoʻshini oʻz amirlari boshchiligida viloyatlarga tarqalib ketgan edi. Xuroson qoʻshini Movarounnahr tomon yurish boshlaganligi xabari yetib kelgach esa amirlarning Sulton Abusaid mirzo xizmati yetib kelishlari qiyinlashdi. Ularning koʻplari vaziyatni chetdan kuzatishni lozim topishdi. Lekin Samarqand uchun janglarda Xuroson qoʻshini gʻalabaga erisha olmadi va sulh tuzib ortga qaytishga majbur boʻldi. Abulqosim

Bobur Movarounnahr va Eronda oʻz hukmronligini oʻrnata olmagan boʻlsa-da, Xuroson va Xorazmni oʻz qoʻli ostida birlashtirishga erishdi.

***Ta'lim texnologiyalari:*** *insert, aqliy hujum, T-sxema, "bumerang", muammoli ta'lim, keys-stadi, xotira mashqi, blits-soʻrov.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar***

*1. Shohruh mirzo vafotidan keyin Xurosonda qanday siyosiy vaziyat yuzaga keldi?*

*2. Nima uchun Gavharshod begim dastlab Hirot taxtiga Abdulatif mirzoni oʻtkazishga harakat qilgan?*

*3. Tarnob jangi nimasi bilan ahamiyatli hisoblanadi?*

*4. Qanday sabablar tufayli Gʻarbiy Eron temuriylar qoʻlidan chiqib ketdi?*

*5. Mirzo Ulugʻbek va Abdulatif mirzo oʻrtasidagi munosabatlar xususida fikr yuriting.*

*6. Shohruh mirzo avlodlari nima sababdan Xurosonda hokimiyatni saqlab qola olmaganini tushuntiring.*

*7. Abdullo mirzoning Movarounnahrdagi faoliyati haqida nimalarni bilasiz?*

*8. Chinoron jangi xususida haqida aytib bering.*

## MAVZU: MIRZO SULTON ABU SA'ID TOMONIDAN TEMURIYLAR MULKLARINING BIRLASHTIRILISHI.

**Reja:**

*1. Mirzo Abulqosim Bobur vafotidan keyingi Xurosondagi vaziyat.*

*2. Xurosonda Mirzo Sulton Abu Said hokimiyatining oʻrnatilishi.*

*3. Mirzo Sulton Abu Sa'id davrida Movarounnahrning shimoliy-sharqiy chegaralarining mustahkamlanishi.*

***Kalit soʻzlar:*** *Abulqosim Bobur, Sulton Abu Said mirzo, Shoh Mahmud, Mirzo Sulton Ibrohim,1457-yil, Gavharshodbegim, Allouddavla mirzo, Astrobod, Xoja Ahror Valiy, Shimoliy Xuroson, Marv, Sultonobod toʻgʻoni, saroshumor, 1458-yil, Hirot, Sulton Husayn mirzo, Muhammad Joʻqiy, 1461-1462-yil, Mirzo Sulton Sanjar.*

***Mirzo Abulqosim Bobur vafotidan keyingi Xurosondagi vaziyat***

1457-yilning 21-martida Abulqosim Boburning vafot etishi Temuriylar davlatida yangi nizolarning avj olishiga olib keldi. Hirot taxtiga Abulqosim Boburning 11 yoshli yagona oʻgʻli Shoh Mahmud mirzo chiqarildi. Uning hokimiyatini ba'zi viloyat hokimlari tan olgan boʻlsalar, ba'zilari umuman mustaqil boʻlishga harakat qila boshladi yoki oʻzlariga biror bir yosh qoʻgʻirchoq shahzoda qidira boshladi. Hokimiyatda yuz bergan tartibsizlik xalqning ahvolini ogʻirlashtirdi. Hirotda turgan amirlar Shoh Mahmudning Mashhadda toʻxtab qolganligidan unumli foydalanishga urindilar. Shoh Mahmudning amirlaridan biri Shayx Abu Sa'id Hirot shahridagi har bir uyga navbatdan tashqari soliq solish (saroshumor) taklifini kiritdi. 1457-yilning 2-may kuni Shaharning yarmini amir Shayx Hoji, yarmini amir Shayx Abu Sa'idlar boʻlib olib, ikki uch kunda katta miqdordagi mablagʻni xalqdan yigʻishtirib oldilar. Shundan soʻng Amir Shayx Abu Sa'idning hohishi bilan Xoja Kalon Buzkush va Xoja Ali Hirot devoniga rahbar etib tayinlandi. Ular

ham o‘z homiysini yanada ko‘proq maqblag‘ bilan xursand qilishga kirishdilar. Birinchidan, ular masjid, madrasa, xonaqo va boshqa ezgu joylarga tegishli vaqflarga ham bir marotabalik to‘lov uchun mablag‘ belgiladilar. Ikkinchidan har bir uydan oldin yig‘ib olingan mablag‘dan kelib chiqib, ularga ikki barobardan to‘qqiz barobargacha oshirib yangi to‘lov rasmiylashtirdilar va muhassillar (soliq yig‘uvchilar) yordamida zo‘ravonlik bilan ularni undira boshladilar. Tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy kuyinib yozganiga ko‘ra “har bir kishining hayolida mustaqillik savdosi qaror topdi, har bir kishining xayolida bosqinchilik va zo‘rlik fikri o‘rnashdi, haro bir kaltabin bir qal’a yoki devorga ega chiqib, har bir mag‘lub ham piyodaga botirligu g‘oliblik ko‘rsatdi va o‘zini malik ham podshoh deb tanitdi, har bir fitnachi bir vayrona kunjida yoki biyobon chegarasida kuch-qudrat hosil qilib, o‘zidan no‘yon va xon taroshladi, har bir gado podshohu, har bir asir bir amir bo‘ldi, har bir pastkash bir rais bo‘lib oldi, salomatligu xotirjamlik kamon ipidek o‘zini burchakka olib, fitnayu g‘alayon markaz nuqtasidek o‘rtaga tushdi”. Soliqlar shunchalik shafqatsizlik bilan yig‘ildiki. Ko‘p xotinlar boshyalang, sochlarini yoygan holda devonga kelib, adolat tilab faryod qildilar, ammo ularni eshitguvchi yo‘q edi. Navbatdan tashqari to‘lovni yig‘ish ishlari boshlanganiga rosa ikki hafta bo‘lganida, ya’ni 1457-yili 16-may kuni Amir Sher Hoji boshchiligida Mirzo Shoh Mahmud Hirotga kirib keldi. Amir Sher Hoji buyrug‘i bilan xalqqa saroshumor to‘lovini to‘lamaslik, kimki to‘lagan bo‘lsa amir Shayx Abu Sa’iddan qaytarib olishi zarurligi haqida e’lon berildi. Amir Shayx Abu Sa’id qo‘lga tushgan mablag‘ni olib o‘z askarlari bilan Hirotdan qochdi. Ammo qo‘zg‘algan xalq uning ortidan tushdi va Muxtor tog‘ining shimolida qochayotganlarga yetib oldi. Bo‘lib o‘tgan jangda Amir Shayx Abu Sa’id o‘ldirildi. Xalq imkon qadar o‘z mablag‘ini qaytarib olishga erishdi.

Mirzo Abulqosim Bobur Mashhadda vafot etib, uning o‘rniga o‘g‘li Shoh Mahmud taxtga chiqarilgan kunlarda Hirotdagi ba’zi bir amirlar hibsda saqlanayotgan Mirzo Sulton Ibrohimni ozodlikka qo‘yib yubordilar. Allouddavla mirzoning o‘g‘li bu shahzoda ham Hirotdan chetga chiqib kuch yig‘a boshladi va ko‘p o‘tmay taxt uchun kurash boshlab yubordi. Mirzo Shoh Mahmudga homiylik qilayotgan amir Sher Hoji Gavharshodbegim Mirzo Allouddavlani juda yaxshi ko‘rganligidan uning o‘g‘li Mirzo Sulton Ibrohimga yordam berishi mumkin degan shubhaga bordi. U Gavharshodbegimni kuchsizlantirish uchun bir guruh tarxon amirlarini hiyla bilan qo‘lga tushirib qatlga yetkazdi. Ularning omon qolgan ba’zilari esa Hirot tashqarisidagi Mirzo Sulton Ibrohim huzuriga qochib bordi. Hirotdagi nizodan xabar topgan va Gavharshodbegimning yordamidan umidvor bo‘lgan Mirzo Ibrohim sulton 1457-yilning 31-may kuni Hirot yonidagi Bog‘i Muxtorga yetib keldi. Atigi 15 kun Hirotda podshohlik qilgan 11 yoshli Mirzo Shoh Mahmud ba’zi amirlari bilan Mashhadga qochdi. Uning homiysi amir Sher Hoji esa Hirot yaqinidagi Niratu qal’asiga yashirindi.

Shaharni qo‘lga kiritgan Mirzo Sulton Ibrohim o‘z amirlarini mablag‘ bilan ko‘nglini olish uchun harakat boshladi. Xoja Shamsiddin Muhammad Buxoriy va Xoja Sa’uddin Muhammadlarni Hirot devoniga tayin qildi. Ular tez orada Hirot aholisidan lashkar uchun qadag‘an to‘lovini yig‘ib oldilar. Moliyaviy jihatdan ta’minlangan qo‘shin bilan Mirzo Sulton Ibrohim 1457-yilning 7-yulida Mashhad

tomon yurish boshladi. Mirzo Sulton Ibrohim va Mirzo Shoh Muhmudlar lashkari o‘rtasidagi jang Kusiya nohiyasidagi amir Shohmalik raboti yaqinida bo‘lib o‘tdi. Jangning avvalida Mirzo Shoh Mahmud g‘olib kelgan bo‘lsa-da, oxir-oqibat u mag‘lubiyatga uchradi.

1457-yilning 18-iyul kuni Hirot tarixida kam uchraydigan hodisalardan biri yuz berdi. Shu kuni ertalab Mirzo Shoh Mahmud g‘olib bo‘lganligi xususida xabar yetib keldi. Biroz o‘tgach Mirzo Sulton Ibrohimning g‘alabaga erishganligi oydinlashdi. Kunning ikkinchi yarmida Mirzo Sulton Abu Sa’idning elchisi kelib ertaga tongda Movarounnahr lashkari shaharga kirishini e’lon qildi. Ertasi kuni Samarqand hukmdori o‘z lashkari bilan qarshiliksiz shaharga kirib keldi.

Lekin unga bu yerda mustahkamlanib olish nasib etmadi. Xurosonda, shu jumladan Hirotda Shohrux mirzo avlodlarining tarafdorlari juda ko‘p edi. Sulton Abusaid mirzoning o‘ta qattiqqo‘llik bilan raqiblariga qarshi kurash olib borishi, jumladan, 1457-yilning 31-iyul kuni Gavharshodbegimning qatl etilishi ham unga yordam bermadi. Buning ustiga Balx shahrida Abdulatif mirzoning o‘g‘illari Ahmad Mirzo va Muhammad Jo‘gi mirzolarning isyonlari, Movarounnahrning shimoliy chegaralaridagi og‘ir vaziyat natijasida u 1457-yilning 30-avgust kuni Hirotni tark etdi.

Bu vaqtda Boxarz va Xavof viloyatlarida turgan Mirzo Sulton Ibrohim amiri Nizomuddin Ahmad tarxonni Hirotni boshqarish uchun yubordi. Shunday qilib Mirzo Sulton Abu Sa’idning Hirotdagi birinchi hukmronligi 40 kun davom etdi. Undan avval Mirzo Sulton Ibrohim ham 48 kun bu yerda hukm surgandi. Mirzo Shoh Mahmud esa 1457-yil 22-martda Xuroson taxtiga chiqqan vaqtida Hirot uning boshqaruviga o‘tgan bo‘lsa ham, uning o‘zi Hirotda faqat 1457-yilning 16-31-may kunlari bo‘lgan edi. Bo‘lib o‘tayotgan bu siyosiy beqarorliklar xalqning ahvolini nihoyat darajada og‘irlashtirib yubordi.

Mashhadga chekingan Mirzo Shoh Mahmud Mozandaronga jo‘nadi va u yerda hokimlik qilayotgan amir Bobo Husaynning homiyligini qabul qildi. Mazkur amir Mirzo Abulqosim Boburning taniqli amirlaridan bo‘lib, uning vafotidan so‘ng Jurjon (Astrobod, Mozandaron) viloyatini amalda mustaqil boshqarayotgan edi. Mirzo Sulton Ibrohim Xuroson markazidagi ishlarini biroz tartibga keltirgach, Mozandaronni qo‘lga kiritish maqsadida yo‘lga tushdi. Bu vaqtda Astrobodni o‘z qo‘lida saqlab qolgan Shoh Mahmud mirzo ustiga Ozarbayjon hukmdori amir Jahonshoh bostirib keldi. Na Shoh Mahmud mirzo, na bu yerga yetib kelgan Sulton Ibrohim mirzo unga qarshilik qila olmadilar. 1457-yilning 13-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan jangda ozarbayjon turkmanlaridan mag‘lubiyatga uchragan Sulton Ibrohim mirzo 1457-yilning 25-dekabrda Hirotga yetib keldi.

Bu vaqtga kelib har bir amir o‘z mulkida mustaqil hukmdor sifatida bosh ko‘tara boshladi. Mirzo Sulton Sanjar Marv viloyatida, mirzo Shoh Mahmud Tus viloyatida, Amir Xalil Seyiston viloyatida, mavlono Ahmad Yasovul Ixtiyoruddin qal’asida, amir Pirka mo‘g‘ul Niratu qal’asida, amir Abdulloh Pirzod Saraxs qal’asida, amir Muhammad Xudoydod Sa’luk qal’asida, amir Bobo Hasan Imod qal’asida, amir Hasan Shayx Temur Xabushon viloyatida, amir Uvays Tabas qal’asida, Sulton Ibrohim mirzo esa Hirot viloyatida mustaqil hukmronlik qila boshladilar. O‘zaro urushlarda mag‘lub bo‘lgach Dashti Qipchoqqa ketib qolgan

Allouddavla mirzo ham Xurosonga kirib keladi. Sulton Ibrohim mirzo 1458-yilning 22-aprelida Hirotga yetib kelgan o‘z otasi Allouddavlaga taxtni bo‘shatib berdi. Ota va o‘g‘il 1458-yilning 14-iyunga qadar birgalikda Hirotda bo‘ldilar. Ozarbayjon qo‘shini kelayotganligi xabari yetishi bilan ular ham shaharni o‘z holiga tashlab chekka hududlarga chiqib ketdilar. Natijada turkman lashkari 1458-yilning 29-iyun kuni shaharni jangsiz qo‘lga kiritdi.

Hirotni tashlab chiqqan mirzolar esa G‘ur viloyatida o‘zaro nizoloshib qoldilar va bu nizoda ota g‘olib keldi. Ushbu nizodan so‘ng dushmanga qarshi kurashish o‘rniga Allouddavla mirzo amir Jahonshohning taklifiga ko‘ra uning yordamida taxtga chiqish umidida Hirotga yetib keldi va deyarli tutqinga aylandi.

***Xurosonda Mirzo Sulton Abu Sa’id hokimiyatining mustahkamlanishi***

Hirotni tark etganidan beri Balx viloyatida Xurosondagi vaziyatni kuzatib turgan Sulton Abusaid mirzo 1458-yilning noyabr oyida Hirotni ozod qilish uchun yurish boshladi. Hirot yaqinidagi dastlabki jangda Ozarbayjon hukmdori amir Jahonshohning o‘g‘li Pirbudoq boshchiligidagi harbiy qismning mag‘lub bo‘lishi vaziyatni butunlay o‘zgartirib yubordi. Natijada amir Jahonshoh sulh tuzib Ozarbayjonga qaytib ketdi. 1458-yilning dekabrida Hirotda yana Sulton Abusaid mirzoning hukmronligi o‘rnatildi.

Lekin bu bilan Xurosonda tinchlik o‘rnatilmadi. Marv hokimi Mirzo Sulton Sanjar, Mirzo Sulton Ibrohim va Mirzo Allouddavla birgalikda Sulton Abusaid mirzoga qarshi kurash boshladilar. 1459-yilning 19-aprel kuni ittifoqchi mirzolar qo‘shini tor-mor keltirildi.

Xuddi shu vaqtda Mirzo Sulton Husayn Boyqaro o‘zining siyosiy va harbiy faoliyatini boshladi. U Mirzo Abulqosim Bobur vafotidan keyin Marv hokimi mirzo Sulton Sanjar xizmatiga kirgan edi. O‘zini mustaqil podshoh kabi tuta boshlagan Marv hokimi yosh shahzodani o‘ziga bo‘lajak dushman fahmladi va unga nisbatan munosabatini o‘zgartirdi. Natijada Sulton Husayn Boyqaro Marvdan chiqib ketdi va yo‘lda Mirzo Sulton Sanjar xizmatiga kelayotgan amir Bobo Hasanning ko‘p sonli lashkariga duch keldi. Shahzoda dadil hujum bilan amirning qo‘lga tushirdi va uni qatl etib, lashkarini o‘ziga qo‘shib oldi. U o‘zining mustaqil faoliyatini Ozarbayjon turkmanlari qo‘lida qolayotgan Astrobodni ozod qilishdan boshladi. 1459-yilning bahorida to‘satdan hujum bilan turkman lashkari tor-mor etdi va Mozandaron o‘lkasini qo‘lga kiritdi. Bu voqeadan xabar topgan Mirzo Sulton Abu Sa’idning Astrobodga yuborilgan elchisi Abdurazzoq Samarqandiyni yaxshi kutib oldi va Hirot hukmdoriga bo‘ysunishga tayyorligini bildirdi.

Mirzo Sulton Abu Sa’id o‘zaro urushlarda vayron bo‘lgan Hirot va uning atroflarini tiklashga kirishdi. Birinchi navbatda Hirotning nomozgohi obod qilindi. So‘ngra obodonchilik ishlari butun shahar bo‘ylab olib borildi. Shuningdek, sug‘orish inshoatlarini tiklash, ularni kengaytirish, zarur bo‘lgan holda dehqonlari urug‘lik va mehnat qurollari, ish hayvonlari bilan ta’minlash chora tadbirlari ko‘rildi. Soliqlar tartibga keltirildi. Bir necha yangi paydo bo‘lgan to‘lovlar va soliqlar bekor qilindi. Bu ishlarning tepasida Mirzo Sulton Abu Sa’id tomonidan devon vazirligiga tayinlangan Xoja Shamsuddin Muhammad turdi. Tarixchi Abdurazoq Samarqandiy ushbu vazirning vazifaga tayinlanishi haqida so‘z yuritar

ekan, vazirda bo‘lishi zarur bo‘lgan sifatlar haqida to‘xtaladi: “vazirlikdan mushkulroq biror bir ish yo‘q, bu mansabga mutasaddiy bo‘lgan kishi oliy himmat, o‘zi adolatli, tug‘ma insofli, aqli komil, fazilatli, yaxshi xulqli, saxiy tabiatli, sog‘lom ko‘rinishli, to‘la ma’lumotli, o‘tkir fahmli, chuqur fikrli, ochiq so‘zli, boshqalarni og‘rinmay eshituvchi, munofiqliksiz, odamlarga kamsitmay lutf ko‘rsatuvchi, g‘azabsiz talab qilguvchi, tavo‘zuda ulug‘vor, hisob va kitobda iste’dodli, oliyjanoblik va to‘g‘rilikda ishonchi komil bo‘lmog‘i lozim”. Mirzo Sulton Abu Sa’id mirzoning qo‘llashi bilan ushbu vazir ko‘p obodonchiliklarni amalga oshiradi.

Shu bilan birgalikda Hirot atrofidagi bir necha hali ham ito‘atdan bosh tortayotgan mustahkam qal’alar, jumladan Niratu va Imod qal’alari ham bo‘ysundirildi. Shuningdek, Seyiston hokimi amir Xalil oliy hukmdor nomini xutbada o‘qitib, boju o‘lpon to‘lashni zimmasiga oldi va o‘g‘lini Hirotga xizmat uchun jo‘natdi. 1459-yilning 26-dekabr kuni Dashti Qipchoq va Qalmoqdan ham elchilar kelib, Mirzo Sulton Abu Sa’idni Hirot fathi bilan tabrikladilar.

Mozandaronda o‘z hokimiyatini mustahkamlab olgan Mirzo Sulton Husayn Boyqaro Sabzavor va Nishopur viloyatlariga hujum qildi. 1460-yilning 26-fevral kuni ko‘p o‘tmay Mirzo Sulton Abu Sa’id katta lashkar bilan Astrobod yurishiga otlandi. Hukmdor shoshilmay yo‘l bo‘yicha bir qator ulug‘ alloma va ulamolar qabrlarini ziyorat va obod qilib bordi. Uning maqsadida Shimoliy Xurosondagi mulklarda hokimiyatini mustahkamlash, bu yerlarda boshqaruvni tartibga solish buzilgan shahar va qal’alarni tiklash, obod qilish ham da shu orqali xalq orasida o‘z ta’sirini oshirish edi. Sultonobod sahrosida bo‘lgan jangda Mirzo Sulton Husayn mag‘lubiyatga uchradi va Xorazm tomon chekindi. Mirzo Sulton Abu Sa’id Mozandaron viloyatini o‘g‘li Mirzo Sulton Mahmudga suyurg‘ol tarzida in’om etdi.

Bu vaqtda Seyiston hokimi amir Xalil Mirzo Sulton Abu Sa’idga bo‘ysunganligini bildirib, Hirotga o‘g‘lini jo‘natgan bo‘lsa ham, poytaxtni lashkardan holi ekanligini bilgach, uni zabt etish maqsadida qo‘shin tortib keldi. Uning Hirotni egallash maqsadidagi urinishlari natija bermadi, aksincha o‘zi mag‘lubiyatga uchrab ortga qaytdi. Hukmdor ham uning bu xiyonatini jazosiz qoldirmadi va Seyistonga lashkar yubordi. Viloyat zabt etilib, uni boshqarish amir Nizomiddin Shoh Yahyoga topshirildi.

1460-1461-yilning qishida mirzo Muhammad Jo‘qiy isyon ko‘tarib, Toshkent, Shohruxiya, Axsikat shaharlarini egallab oldi. Uning qo‘shinlari ko‘chmanchi o‘zbeklar xoni Abulxayrxonning yordamga yuborilgan kuchlari bilan birgalikda yirik shaharlarni hisobga olmaganda deyarli butun Movarounnahrni qo‘lga kiritishadi. Tarixchi olim va hukmdor Abulg‘ozi Bahodirxon ham o‘z asarida Movarounnahrning deyarli barcha shaharlari isyonchilar qo‘liga o‘tganligini qayd etagan edi. Abusaid mirzoga yordam berish uchun 1451-yili Abulxayrxonning shaxsan o‘zi kelgan bo‘lsa, 1461-yili mirzo Muhammad Jo‘qiyga yordam berish uchun Abulxayrxon Burka sulton va Peshkada o‘g‘lon rahbarligida katta qo‘shin jo‘natish bilan cheklandi.

Bu vaqtda Mazondaronda bo‘lgan Abusaid mirzo tezda Hirotga yetib keladi va qo‘shin to‘plab 1461-yil 3-mart kuni Hirotdan Movarounnahrni ozod qilish

uchun yurish boshlaydi. Abusaid mirzoning lashkari Movarounnahrga kirishi bilan ko‘chmanchi o‘zbeklar o‘z qo‘shinlari bilan Dashti Qipchoqqa qaytib ketadilar. Mirzo Muhammad Jo‘qiy esa Shohruxiyada o‘z qo‘shinlarini to‘plab jangga hozirlanadi. Abusaid mirzo Shohruxiyani to‘liq bo‘ysundirishga erisholmay, yana bir taxt da’vogari Sulton Husayn Boyqaro Hirotni qamal qilganligi sababli sulh tuzib, Hirotga qaytib ketadi.

Mirzo Sulton Abu Sa’idning Movarounahrda ekanligidan foydalangan Mirzo Sulton Husayn turkman cho‘llarida to‘plagan lashkari bilan to‘satdan Astrobodga bostirib kirdi va egallab oldi. So‘ngra Hirotni ham qo‘lga kiriish uchun lashkar tortdi. Nishopur, Sabzavor va boshqa shaharlardagi amirlar unga qarshilik ko‘rsatish o‘rniga Hirotga chekinib, poytaxtni himoya qilishni ma’qul ko‘rishdi. Xabushon hokimi amir Shayx Hasan Temur va Abivard hokimi amir Sulton Muhammad G‘iyosbeklar esa uning xizmatiga o‘tishdi. Ularning ba’zilari vaziyat taqazosiga ko‘ra Sulton Husayn xizmatiga kirgsha bo‘lishi mumkin, chunki Hirot qamali boshlanishi bilan amir Shayx Hasan Temur yana Mirzo Sulton Abu Sa’id lashkari safiga o‘tish uchun qamalda bo‘lgan shaharga kirib, uning himoyachilari safidan o‘rin oladi. Shaharni qamal qilib turgan Sulton Husayn uni zabt eta olmasligiga ishonch hosil qilgach, Mozandaronga qaytdi. Lekin u yerda ham mustahkamlanib ololmay yana turkman cho‘llariga yashirindi. Movarounnahrdan shoshilinch qaytgan Mirzo Sulton Abu Sa’id ham uni Astrobodgacha ta’qib etib bordi hamda Shimoliy Xuroson va Mozandaronda davlat tartibini tiklab, ortga qaytdi.

Bir guruh amaldorlar Sulton Husayn Boyqaroning hujumi qaytarilgach Movarounnahr qo‘shining moliyaviy ahvolini yaxshilash bahonasida Mirzo Sulton Abu Sa’idning roziligi bilan lashkari zarb, nombardor, jihodiy yig‘imlari joriy qildilar va uni qarz rasmida yig‘ib ola boshladilar. Lekin bu jarayondagi nohaqliklardan tijorat ahli katta zarar ko‘rdi. Mirzo Sulton Abu Sa’id Mozandaron yurishidan qaytayotganida unga Hirot shahri va viloyatidagi xalqning arzi unga yetkazildi. Hukmdor tezda taftish o‘tkazishni buyurdi va bu ishni shaxsan o‘zi nazoratga oldi. Xalqni shilishni tepasida turgan Xoja Mu’izzuddin, Shayx Ahmad sarroflar dahshatli tarzda jazolandi. Devon rahbari Xoja Muzaffari Xoj Muxtor esa bu ishlarni oldini ola bilmagani uchun vazifasidan bo‘shatildi va o‘zlashtirgan mablag‘lari hisob kitob qilinib, undirib olindi. Xalqdan nohaq olingan barcha mablag‘ egallariga qaytarildi va lashkari zarb, nombardor, jihodiy yig‘imlarini yig‘ish butunlay ta’qiqlanganligi katta bir toshga yozilib, jome masjidiga o‘rnatildi.

Hirot masalasi ijobiy hal etilgach, 1362-yilning mart oyida Abusaid mirzo yana Movarounnahr tomon yurish boshladi. U dastlab 1362-yilning aprel oyidan boshlab Shohruxiyani yana qamal qilishni boshladi. Nihoyat, 1363-yilning yanvarida, Abusaid mirzo lashkari Shohruxiyani qamal qilib turgan vaqtda Muhamad Jo‘qiy mirzo tasarrufidagi shaharlar, jumladan Farg‘ona vodiysi shaharlari ham birin-ketin yana Abusaid mirzoga bo‘ysunganliklarini bildira boshladilar. Shunday bo‘lsada Shohruxiya qamali uzoq davom etib, 1463-yilning 22-sentyabr kunigina shahar egallanib, Muhammad Jo‘qiy mirzo taslim bo‘ldi. Abusaid mirzo shu yurish davomida Farg‘ona vodiysi tarkibida bo‘lgan Xo‘jandga

ham tashrif buyurib, urushdan keyingi ahvolni tartibga keltirishda o‘z o‘g‘li Umarshayx mirzoga ko‘maklashdi va 1463-yilning oktyabridan ortga, Samarqandga, so‘ngra Hirotga qaytdi.

***Mirzo Sulton Abu Sa’id davrida Movarounnahrning shimoliy-sharqiy chegaralarining mustahkamlanishi***

Mirzo Haydar Esan Bug‘axonning talonchilik yurishlariga nisbatan Sulton Abu Sa’id tomonidan muvaffaqqiyatli chora ko‘rilmaganligini ta’kidlab, quyidagilarni bayon qiladi: “Mirzo Sulton Abu Sa’idga bu haqda xabar etgan paytda Esan Bug‘axonni qaytarish uning qo‘lidan kelmadi, chunki agar u Mo‘g‘ulistonga jo‘naganida ham Esan Bug‘axon Mo‘g‘ulistonning chekka o‘lkalariga ketib qolgan va Samarqand lashkari u yoqlarga borolmagan bo‘lardi. Bordi-yu, u yoqlarga borolgan taqdirda ham, Esan Bug‘axon (Samarqand lashkari) ortiga qaytganida yana uning izidan tushar va bu hol uzluksiz davom etgan bo‘lardi. Unga qarshi biror kishini tayinlab ham bo‘lmasdi, Esan Bug‘axonning kuchli va ko‘p sonli lashkariga amirliklar bas kelolmasdi. Shu bilan birga Mirzo Sulton Abu Sa’idning Iroqqa lashkar tortish niyati bo‘lgan, ammo Esan Bug‘axon tufayli bunga jur’at qilolmagan. Keyin u Iroqqa kishi yuborib, Esan Bug‘axonning Iroqqa borib qolgan akasi Yunusxonni olib keltirdi”.

Chindan ham Amir Temur va Mirzo Ulug‘beklargina Mo‘g‘uliston hududida yirik g‘alabaga erisha olgan edilar. Bu o‘rinda Amir Temurning Mo‘g‘ulistonga qarshi etti marta yirik yurishni amalga oshirishga majbur bo‘lganligini yodga olishning o‘zi kifoya. Shuning uchun ham, Sulton Abu Sa’id Mo‘g‘uliston taxtiga Amir Temur va Mirzo Ulug‘beklar singari o‘z odamini o‘tkazishdan boshqa iloj topa olmaganligini Bobur ta’kidlaydi.

Mirzo Sulton Abu Sa’id tomonidan mo‘g‘ul xonlari taxtiga da’vogar sifatida Yunusxonning Iroqdan olib kelinishi aynan shu yillarga to‘g‘ri keladi. Mirzo Bobur bobosi Yunusxonning Samarqandga keltirilishi va avval Xurosonga, so‘ngra Iroqqa jo‘natilishi haqida bir muncha kengroq to‘xtalgan: “Xonni Iroq sari o‘tkazib yubordilar. Borib bir yildan ortuqroq Tabrizda bo‘ldi. Ul mahalda Tabriz podshosi Jahonshoh Boroniy Qoraqo‘yluq edi. Andin Sheroz keldi. Sherozda Mirzo Shohruxning ikkinchi o‘g‘li Ibrohim Sulton mirzo edi. Besh-olti oydan so‘ng Ibrohim mirzo o‘lub, o‘g‘li Abdullo mirzo aning erida o‘lturdi. Abdullo mirzoga xon navkar edi, mulozamat qilur edi. O‘n etti, o‘n sekkiz-yil xon Sherozda va ul viloyatlarda bo‘ldi”. Garchi Mirzo Haydar Movarounnahrga yosh Yunusxonning olib kelinishini 1428-1429-yillar bilan belgilagan bo‘lsa-da, B.Ahmedov Mirzo Boburga tayanib, bu voqeani 1434-yili sodir bo‘lgan, deb hisoblaydi. Yunusxonning bir yildan ortiqroq Tabrizda bo‘lib so‘ngra Sherozga kelganligini va oradan besh-olti oy o‘tib, 1435-yil 3-may kuni Ibrohim mirzoning vafot etganligini inobatga oladigan bo‘lsak, Boburning bobosi 1433-1434-yillarda Samarqandga keltirilganligi haqiqatga yaqin. Mirzo Haydar va Mirzo Boburlarning yozishicha Yunusxon Iroqda o‘n to‘qqiz, yigirma-yil yashagan. Shundan kelib chiqib, Yunusxonni Mirzo Sulton Abu Sa’id oldiga 1457-yilda olib kelinganligini ta’kidlash mumkin. Garchi Mirzo Haydar Yunusxon 41 yoshida 1455-1456-yillarda Mo‘g‘ulistonga qaytganligini yozgan bo‘lsa-da, aslida Sulton Abu Sa’id

Xurosonga yurish boshlagan paytda Yunusxonni olib kelishga qaror qilganligini muarrixning oʻzi bir necha bor takrorlagan. V.V.Bartold ham Mirzo Haydarning Yunusxonning 41 yoshida Iroqdan keltirilganligi xususidagi maʼlumotiga tayanib, asarlarida 1456-yil sanasini keltirgan.

Mirzo Haydar Sulton Abu Saʼid tomonidan Yunusxonning Hirotda kutib olinishi va oʻzaro shartnomalar tuzilishi masalasini ham eʼtibordan chetda qoldirmagan. Ushbu qabul marosimi tasviridan maʼlum boʻlmoqdaki, Sulton Abu Saʼid Yunusxonni 1457-yilning yozida (iyul-avgust oylarida), Hirot shahrida bir oydan oshiqroq boʻlgan vaqtda qabul qilgan va unga yordamchi kuchlar berib, Moʻgʻulistonga joʻnatgan. Chunki Sulton Abu Saʼid shundan keyin faqat 1458-yilning dekabridagina Hirotga kira olgan. 1457-yilning yozidan to 1458-yilning dekabriga qadar u Balxda turganligi ham Yunusxonning Moʻgʻulistonga joʻnatilganligi natijasida, u yerda boshlangan oʻzaro taxt uchun kurashlar sababli Movarounnahr chegaralariga hech qanday xavf boʻlmaganligini koʻrsatadi.

Yunusxonning 1457-yili Iroqdan olib kelinib, Moʻgʻulistonga joʻnatilganligini Moʻgʻulistondagi voqealar isbotlaydi. Moʻgʻulistonga yetib borgan Yunusxon Mirzo Haydarning taʼkidlashicha, bir necha yil qoʻshin toʻplaydi. Aslida esa lashkar yigʻish 1457-yilning kuzidan 1458-yilning yozigacha boʻlgan vaqtni oʻz ichiga oladi. Chunki Moʻgʻulistonda bir muncha lashkar toʻplay olgan Yunusxon Oqsuv atrofidagi Xonsolor degan joyda Esan Bugʻaxon bilan jangga kirishadi. Bu jangda Koshgʻar hokimi amir Said Ali ham oʻttiz ming kishilik katta qoʻshini bilan Esan Bugʻaxon tomonida ishtirok etadi. Jangda Esan Bugʻaxonning gʻolib chiqishini aslida amir Said Alining lashkari taʼminlaydi. Chunki bu jangda Esan Bugʻaxonning oʻzida faqatgina olti ming kishilik qoʻshin bor edi, xolos. Amir Said Alining 1458-yili vafot etganligini nazarda tutsak, ushbu jang 1458-yilning yozida Amir Said Ali vafotidan avval boʻlib oʻtganligi maʼlum boʻladi.

Mirzo Haydar tomonidan Sulton Abu Saʼid Iroqqa yurish qilish niyatida boʻlganligi uchun Yunusxonni olib keltirganligi bir necha bor taʼkidlangan boʻlsa-da, bu fikrga qoʻshilib boʻlmaydi. Sababi bu vaqtda, yaʼni 1457-yili, Sulton Abu Saʼid hali Xurosonda mustahkamlanib ulgurmagan boʻlib, Iroqqa yurish qilishi imkonsiz edi. U 1464-65-yillardan boshlab Iroqqa yurish qilishni rejalashtira boshlagan.

Xonsolor jangida magʻlub boʻlgan Yunusxon 1458-1459-yillari Sulton Abu Saʼidning huzuriga yordam soʻrab keladi. Barcha lashkaridan ayrilgan Yunusxonda Moʻgʻulistonga qayta yurish boshlash uchun imkon yoʻq edi. Shu sababli Mirzo Sulton Abu Saʼid unga Fargʻonaning Moʻgʻuliston bilan chegaradosh hududlarida joylashgan Yettikandni inʼom etgan.

Yunusxon Yettikanddan turib Moʻgʻuliston taxti uchun uzoq vaqt kurash olib bordi. Lekin biror-bir yirik natijaga erisha olmadi. Bu vaqtda hali katta qudratga ega boʻlmagan Sulton Abu Saʼidning bergan yordami butun Moʻgʻuliston ustidan hukmronlikni qoʻlga kiritish uchun yetarli emasdi. Yunusxon tomonidan Moʻgʻulistonning toʻliq boʻysundirilishi emas, balki ularning oʻzaro urush bilan band boʻlib, Movarounnahrga nisbatan xavf solmasliklari temuriy hukmdor uchun eng muhim natija edi.

V.V.Bartold Yunusxonning 1456-1462-yillari Yettikandda yashaganligi va shu yerdan turib, Mo‘g‘uliston taxti uchun kurash olib borganligini ta’kidlaydi. Lekin Yunusxon ikkinchi marta yordam so‘rab kelganidan so‘ng unga Yettikand in’om etilganini nazarda tutsak, uning Yettikanddagi hayoti 1459-1460-yillardan boshlangan bo‘lib chiqadi. B.Ahmedov ham biror sanani keltirmagan holda, Yunusxon Esan Bug‘axondan mag‘lubiyatga uchraganidan so‘ng Yettikandga joylashganligini qayd etgan.

Yunusxon bu safar ham biror bir natijaga erisha olmaganligini Mirzo Haydar ta’kidlaydi. Esan Bug‘axonning 1462-yili vafot etganligidan kelib chiqsak, bu vaqtda Mirzo Sulton Abu Sa’id Yunusxonga yangi xon Do‘st Muhammadxon hamda Koshg‘arning yangi hokimi Sonsiz mirzoga qarshi kurashida yordam bera olmas edi. Chunki uning o‘zi Mirzo Muhammad Jo‘kiyning Dashti Qipchoq hukmdori Abulhayrxon tomonidan qo‘llab quvvatlangan isyonini bostirish bilan band bo‘lib, Farg‘ona Mirzo Muhammad Jo‘kiy tasarrufiga o‘tib qolgan edi. Lekin ko‘p o‘tmay, yuqorida ta’kidlangan isyon bartaraf etilib, Movarounnahrda tinchlik o‘rnatilgach, Yunusxonga yordam berish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Yunusxon 1464-yili yana bir bor Mirzo Sulton Abu Sa’iddan yordam so‘rab Hirotga keladi. Abdurazzoq Samarqandiy Yunusxon avvallari bir necha bor ko‘mak olib o‘z mamlakatida podshohlikka erishganligini, bu gal ham ko‘pgina mol-mulkdan tashqari bir necha tuman lashkar bilan qo‘llab quvvatlanganligini alohida ta’kidlaydi. Aynan mana shu ko‘makdan so‘ng Yunusxon bir necha yillar davomida Mo‘g‘ulistondagi tarafdorlarini ko‘paytirib bordi. Bu borada Koshg‘ar hokimi Sonsiz mirzo va Mo‘g‘uliston xoni Do‘st Muhammadning birin-ketin vafot etishi uning Mo‘g‘ulistonda to‘liq hukmronlik o‘rnatishiga qulay sharoit yaratdi. Yunusxon 1468-1469-yillarga kelib, butun Mo‘g‘ulistonda hukmronlikni qo‘lga kiritdi.

Umuman olganda, Yunusxonning Mo‘g‘ulistonga kirib borishi u yerda o‘zaro urushlar boshlanishiga olib keldi. Bir necha yil davom etgan kurashlar oqibatida Yunusxon Mo‘g‘uliston taxtiga ega chiqdi. Bu esa Farg‘ona vodiysi xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutdi.

Mo‘g‘uliston tomondan xavfning bartaraf etilishi Farg‘ona vodiysida to‘la tinchlik o‘rnatilganligini bildirmas edi. Ko‘chmanchi o‘zbeklarning Movarounnahrdagi ichki urushlarga aralashuvi vodiysida navbatdagi siyosiy beqarorlikni keltirib chiqardi. 1461-yili mirzo Muhammad Jo‘kiyga yordam berish uchun Abulxayrxon Burka sulton va Peshkada o‘g‘lon rahbarligida katta qo‘shin jo‘natdi.

Farg‘ona vodiysining qay tarzda Mirzo Muhammad Jo‘kiy qo‘li ostiga o‘tib qolganligi haqida manbalarda aniq ma’lumot uchramaydi. Faqatgina Abdurazzoq Samarqandiy 1462-yilning dekabrida Shohruxiya shahrini qamal qilib turgan Mirzo Sulton Abu Sa’id huzuriga Mirzo Muhammad Jo‘kiyning Axsikent shahridagi noibi jo‘natgan vakil kelib taslim bo‘lganligini bildirgan.

Abdurazzoq Samarqandiy tomonidan Axsikentning Mirzo Muhammad Jo‘kiy tasarrufidagi shaharlar qatorida sanalishi ham bizga bir qator xulosalar chiqarish imkonini beradi:

Birinchidan, 1460-1461-yilning qish oylarida boshlangan isyon natijasida butun Farg‘ona vodiysi hududi Mirzo Muhammad Jo‘kiy tasarrufiga o‘tgan. Chunki vodiy shaharlaridan faqat Axsikentning nomini isyonchi temuriyzodaga bo‘ysungan shaharlar qatorida tilga olinishi, boshqa vodiy shaharlarini Mirzo Sulton Abu Sa’id tasarrufida qolganligini bildirmaydi. 1461-1463-yillarda Movarounnahrning shimoli-sharqiy qismida hukmronlik qilgan Mirzo Muhammad Jo‘kiyga vodiydagi eng mustahkam qal’alaridan biri Axsikent bo‘ysungani holda qolgan shahar va hududlarning unga qarshi chiqishi amri mahol edi.

Ikkinchidan, yuqoridagi ma’lumot, ya’ni Mirzo Muhammad Jo‘kiyga bo‘ysungan hududlar ichida vodiy shaharlaridan faqat Axsikent nomini keltirilishi esa, Farg‘ona hokimi bu yerdan turib vodiyni boshqarganligini ko‘rsatadi. S.Azimjonova ham ushbu voqealar bayonida Axsikentni Farg‘ona hokimining qarorgohi, deb hisoblagan. Mo‘g‘uliston xoni Esan Bug‘axonning 1457-yili Farg‘onaga qilgan bosqindan Andijon shahri katta talafot ko‘rgan edi. Bu davr siyosiy voqealarida Axsikentning faolligi ushbu bosqin natijasida Andijon shahri o‘z nufuzini hali tiklab olmaganligidan dalolat beradi.

Mirzo Muhammad Jo‘kiy isyoni boshlangan vaqtda Mozandaronda bo‘lgan Mirzo Sulton Abu Sa’id tezda Hirotga yetib keldi va 1461-yil 3-mart kuni Movarounnahrni ozod qilish uchun yurish boshladi. Mirzo Sulton Abu Sa’idning lashkari Movarounnahrga kirishi bilan ko‘chmanchi o‘zbeklar Dashti Qipchoqqa qaytib ketdilar. Mirzo Muhammad Jo‘kiy esa Shohruxiyada o‘z qo‘shinlarini to‘plab jangga hozirlandi. Sulton Abu Sa’id yana bir taxt da’vogari Husayn Boyqaro Hirotni qamal qilganligi sababli Muhammad Jo‘kiy bilan sulh tuzib, Xurosonga qaytib ketdi.

Garchi manbalarda ushbu sulh mazmuni to‘liq berilmagan bo‘lsa-da, keyingi tarixiy voqealar amalda Mirzo Muhammad Jo‘kiy o‘z mulklari mustaqilligini saqlab qolganligini, jumladan, Farg‘ona vodiysi ham uning tasarrufida bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Hirot masalasi ijobiy hal etilgach, 1462-yilning mart oyida Sulton Abu Sa’id yana Movarounnahr tomon yurish boshladi. U 1462-yil aprel oyidan boshlab, Shohruxiyani ikkinchi marta qamal qilishga kirishdi. Qamal cho‘zilib ketgach, qo‘shinning asosiy qismini Shohruxiyada qoldirib, oktyabr oyida Samarqandga qaytdi va katta to‘y o‘tkazdi. Ushbu to‘y bahonasida Kobul hokimi Mirzo Umarshayxni Samarqandga chaqirtirdi. To‘ydan so‘ng hali Mirzo Muhammad Jo‘kiy tasarrufida bo‘lgan Farg‘ona vodiysiga Umarshayx hokim etib tayinlandi. Sulton Abu Sa’id farzandini o‘zi bilan Shohruxiyaga olib ketdi.

Aftidan, Mirzo Muhammad Jo‘kiy isyoni boshlanishidayoq mamlakatning shimoliy va sharqiy hududlarini osonlik bilan isyonchilar tomoniga o‘tib ketishi Sulton Abu Sa’idda ushbu hududda Amir Temur davridagi kabi mustahkam bir mulk barpo etish g‘oyasini vujudga keltirgan bo‘lsa kerak. Amir Temur Xo‘jand va Andijon hokimlarining isyonlaridan keyin vodiyni boshqarishni o‘g‘li Mirzo Umarshayxga topshirgan edi. Sulton Abu Sa’id tomonidan Farg‘ona vodiysi hokimligiga Umarshayxning tanlanishi esa Amir Temurga taqlid qilishi natijasidir. Buni Boburning ushbu so‘zlari ham tasdiqlaydi: “To‘ydin so‘ngra ul munosabat bilakim, Temurbek ulug‘ Mirzo Umarshayxg‘a Farg‘ona viloyatini bergandur...”.

1463-yil yanvar oyida Shohruxiyani qamal qilib turgan Sulton Abu Sa'id huzuriga Muhammad Jo'kiy tasarrufidagi Axsikent shahri hokimi vakilini jo'natib, bo'ysunganligini bildiradi. Shohruxiya qamali esa uzoq davom etdi. 1463-yilning 22-sentyabrida shahar egallanib, Mirzo Muhammad Jo'kiy taslim bo'ldi. Sulton Abu Sa'id shu yurish davomida Farg'ona vodiysi tarkibida bo'lgan Xo'jandga ham tashrif buyurib, urushdan keyingi ahvolni tartibga keltirishda o'g'li Umarshayxga ko'maklashdi. 1463-yil oktyabr oyida Samarqandga, so'ngra Hirotga qaytdi.

Mirzo Sulton Abu Sa'id tomonidan olib borilgan tashqi siyosat va harbiy harakatlar natijasida Movarounnahrning sharqiy chegaralaridagi vaziyat nisbatan barqarorlashdi. Mo'g'uliston taxtiga Sulton Abu Sa'idning yordami bilan Yunusxon chiqarilishi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilanishiga olib keldi va chegara viloyatlar xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

***Mirzo Sulton Abu Sa'id halokati***

Movarounnahr, Xuroson, Kobul, G'azni, Qandahor va Xorazmda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgan Sulton Abusaid mirzo Fors, Iroq va Ozarbayjonda temuriylar hukmronligini tiklashni orzu qilardi. Amir Jahonshohning o'z o'g'li Pirbudoq bilan nizolashib qolishi natijasida Ozarbayjonda ham porakandalik yuz berdi. Ko'p o'tmay Amir Jahonshoh o'zining ashaddiy raqibi yana bir tukrman amiri Hasanbek tomonidan tor-mor keltirildi.

Ozarbayjondagi vaziyatni kuzatib borayotgan Sulton Abusaid mirzo G'arb tomon yurish qilish uchun qulay vaziyatdan foydalanib qolishga qaror qildi. Chunki 1468-yili Abulxayrxonning vafot etishi natijasida ko'chmanchi o'zbeklar davlatida ham inqiroz boshlangan, Mo'g'ulistonda esa Sulton Abusaid mirzo yordamida hokimiyatni egallagan Yunusxon hukmronlik qilayotgan edi.

1468-yilning 24-mart kuni Ozarbayjon yurishi boshlandi. Amir Nizomiddin Ahmad barlos boshchiligidagi qo'shin Forsni egallash uchun, amir Jaloluddin Mahmud barlos yetakchiligidagi lashkar esa Kirmonni zabt etish uchun yuborildi. Amir Sayyid Muhammadga esa Qazvin va Sultoniya shaharlari tomon yurish topshirildi. Shu vaqtda oq quyunli turkmanlar sardori Amir Hasanbek (Uzun Hasan)dan elchi kelib, Qora Yusuf avlodlariga qarshi birgalikda kurashish va ularni butunlay hokimiyatdan yo'qotish uchun birgalikda kurashishni taklif qildi. Uning elchisi rozilik javobi va katta sovg'a-salomlar bilan qaytarildi. Ko'p o'tmay Mirzo Jahonshohning o'g'li Husayn Alining elchisi yetib kelib, Ozarbayjondagi hokimiyatni o'z qo'liga olganligini va unga sodiq xizmat qilishga bel bog'laganligini bildirdi. Husayn Alining maqsadi vaziyat nochor bo'lgan vaqtda Mirzo Sulton Husaynga bo'ysunish orqali, uning yurishini oldini olish va o'z hokimiyatini saqlab qolish edi. Mirzo Sulton Abu Sa'id o'zi shaxsan yo'lga chiqqanligini va nimaiki maslahat bo'lsa, joyida ko'rilishini bildirdi. Dastlab Soriy viloyatining hokimi amir Sayid Abdulloh o'zining bo'ysunganligini bildirib, katta o'lpon bilan o'zining o'g'li va onasini oliy ostonaga yubordi. Kaspiyning janubidagi Gilonot viloyatlari ham o'z itoatlarini bildirib, peshkash va o'lponlar yubordilar va xutbaga Mirzo Sulton Abu Sa'id nomini qo'shdilar va uning nomi bilan tangalar zarb etdilar. Tez orada Ray viloyati, butun Fors, jumladan Isfahon va Sheroz shaharlari, Kermon viloyatida ham temuriylar hukmronligi tiklandi. Sulton

Abusaid mirzo qo‘shinlari birin-ketin Ray, Sultoniya va Tabriz shaharlarini ham qo‘lga kiritdilar.

Bu vaqtda amir Husayn Alining lashkari tarqab ketdi. Uning katta qismi yana bir turkman sarkardasi amir Hasanbek qo‘shiniga borib qo‘shildi. Natijada Amir Hasanbek o‘zini butun Ozarbayjonning egasi sifatida ko‘rdi va kechagi ittifoqchisi Mirzo Sulton Abu Sa’id amirlarining Tabrizga kirishiga qarshilik qilishga kirishdi. U Tabriz hokimiga maktub jo‘natib, shaharni o‘z o‘g‘liga topshirishni talab qildi. Tabriz yaqinida har ikki tomonning, ya’ni amir Hasanbek va Mirzo Sulton Abu Sa’id amirlari o‘zaro uchrashdilar va shaharga kirib savdo qildilar, ammo bir birlariga daxl qilmadilar. Vaziyatni tahlil qilgan amir Hasanbek Tabriz uchun kurashishni kech deb bildi va Qorabog‘ tomon chekindi.

Ozarbayjonning sobiq hukmdori amir Husayn Ali o‘zining qolgan lashkari, qarindosh urug‘i bilan (Abdurazzoq ularning sonini 50 mingligini bildiradi) temuriy hukmdor lashkariga qo‘shildi. Mirzo Sulton Abu Sa’id mirzo ularning barchasini yaxshi kutib oldi va ularga munosib o‘rin, mulk va erlar ajratdi. Ularning kelishi ham temuriy hukmdorni katta orzularga berilishiga sabab bo‘ldi. Aslida esa ular amir Hasanbekka qarshi kurashda deyarli yordam bermadilar, o‘z jonlarini omon saqlab vaziyatni chetdan kuzatish bilan cheklandilar, amaliy yordam bermadilar. Shu vaqtda Qarobog‘ turgan amir Hasanbek elchi yuborib, Ozarbayjonni o‘ziga qoldirsa, bo‘ysunishga tayyorligi bildirdi. Ammo Sulton Abu Sa’id mirzo vaziyatni to‘g‘ri baholay olmadi. Shu kunga qadar egallangan hududlarda mustahkamlanib olish uchun sulh tuzish zarur bo‘lgan holatda, yurishni davom ettirdi

Lekin qo‘lga kiritilgan hududlarning nihoyatda kengligi, u yerlarni saqlab turish uchun ham kattagina lashkar lozimligi vaziyatni murakkablashtirdi. Buning ustiga qo‘shin uchun oziq ovqat va em-xashak topish juda mushkullik tug‘dirdi. Chunki Qorabog‘ga chekinayotgan amir Hasanbek imkon qadar hamma narsa tashib ketishga harakat qilayotgan edi.

Qorabog‘ tomon yo‘l olgan lashkar oziq ovqat va em hashak kamligi sababli Mahmudobod tomon yurishni boshladi. Ularning maqsadi tinimsiz elchi yuborib, yordam va’da qilayotgan Shirvon hokimi bilan uchrashish edi. Lekin Mahmulobod sahrosining o‘ti zaharli bo‘lganligi sababli, yuk hayvonlari va otlar tinimsiz o‘la boshladi. Tez orada lashkar suvsiz va emishsiz qoldi. Natijada Sulton Abusaid mirzo qo‘shini juda og‘ir ahvolga tushib qoldi.

Sulton Abu Sa’id mirzo Ozarbayjon sari juda tez harakat qilgani uchun yo‘ldagi ko‘pgina qal’a va istehkomlarni bo‘ysunish haqidagi ahdnomalari bilan qanoatlanib, ularni zabt etmagan va o‘z kishilarini tayinlamagan edi. Natijada shu vaqtda Movarounnahr va Xurosondan yordam yetib kelishi ham qiyinlasha boshladi. Vaziyat o‘zgarganligini bilgan amir Husayn Ali boshchiligidagi ozarbayjon qora turkmanlari o‘zlarini chekkaga oldilar. Yo‘llardagi qal’alar va istehkomlar esa Movarounnahr va Xurosondan kelayotgan kichikroq guruhlarni talay boshladilar.

Amir Hasanbek Amir Jahonshoh saroyida yashayotgan Shohrux mirzoning avlodining so‘nggi vakili Yodgor mirzoni o‘z qarorgohiga keltirdi va undan Sulton Abusaid mirzo qo‘shinidagi Xuroson amirlarini o‘z tomoniga og‘dirib olishda

foydalandi. Oziq ovqat etishmovchiligidan qiynalayotgan temuriylar qo'shini safini birin-ketin Xuroson amirlari boshchiligidagi harbiy qismlar tark etib, Yodgor mirzo qo'li ostiga o'ta boshladi. 1469-yilning yanvar oyida Sulton Abusaid mirzo qo'shini to'liq porakandalikka uchradi. Natijada asir olingan Sulton Abusaid mirzo 1469-yilning 5 fevral kuni Yodgor mirzo tomonidan qatl qilindi. 1468-yili zabt etilgan G'arbiy va Markaziy Eron hududlari yana temuriylar davlati tarkibidan chiqdi

***Ta'lim texnologiyalari:*** *"xotira mashqi", Venn diagrammasi, zig-zag, "bumerang", muammoli ta'lim, keys-stadi, vizual materiallar, blits-so'rov.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar***

*1. Abulqosim Bobur vafotidan keyin Xurosondagi siyosiy vaziyat qanday edi?*

*2. Sulton Mirzo Abu Sa'idning tashqi siyosati xususida fikr yuriting.*

*3. Sulton Mirzo Abu Sa'id sharqiy chegaralarni mustahkamlash uchun qanday choralar ko'rdi?*

*4. Muhammad Jo'qiy mirzo isyoni nima sababdan sodir bo'ldi?*

*5. Qoraquyunli va oqquyunli turkmanlar haqida nimalarni bilasiz*

*6. Ozarbayjon yurishi haqida nimalarni bilib oldingiz.*

*7. Sulton Mirzo Abu Sa'id mirzo halokatining asosiy sabablarini tushuntiring?*

*8. G'arbiy va Markaziy Eron hududlarini temuriylar davlati tarkibidan chiqishi haqida aytib bering?*

## MAVZU: 1470-1504-YILLARDA MOVAROUNNAHRDA TEMURIYLAR DAVLATI INQIROZINING KUCHAYIB BORISHI.

**Reja:**

*1. Sulton Mirzo Ahmad hukmronligi davrida Movarounnahr.*
*2. Movarounnahrdagi temuriylar sulolasining inqirozga yuz tutishi.*

***Kalit so'zlar:*** *1469-yil, Sulton Abu Said mirzo halokati, Ozarbayjon, Hisori Shodmon, Sulton Abu Said mirzo, Sulton Husayn Boyqaro, Suton Ahmad mirzo, Sulton Mahmud mirzo, Hisori Shodmon, Xudoyberdi Temurtosh, Badaxshon, Sulton Mahmud mirzo, Esan Bug'axon, Mirzo Haydar, Yunusxon, Ibrohim bekchik, Hofiz Muhammad do'ldoy, Umarshayx mirzo, Axsi, Andijon.*

### *Sulton Mirzo Ahmad hukmronligi davrida Movarounnahr*

1469-yilning 17-mart kuni Abu Sa'id mirzoning halok bo'lganligi bo'lganligi xabari Hirot shahriga ham yetib keldi. Shu kuni Ozarbayjonda mag'lub bo'lgan qo'shin bilan Hirotga yetib kelgan Abu Sa'id mirzoning o'g'li Sulton Mahmud mirzo va uning akasi Samarhand hokimi Sulton Ahmad mirzolar nomiga xutba o'qildi. Abu Sa'id mirzoning topshirig'i ko'ra Hisori Shodmon viloyatidan o'z qo'shini bilan Ozarbayjonga ketayotgan amir Qanbar Ali ham Hirotga yetib kelib, shu yerda turgan edi. Marhum hukmdor farzandlari nomiga xutba o'qilishida ushbu amirning xizmati katta edi. Lekin hirotliklar Movarounnahrlik amirlar qo'li ostida qolishni hohlamadilar. Sulton Husayn Boyqaroning yetib kelayotganligi xabari kelishi bilan 1469-yilning 18-mart kuni Ixtiyoriddin qal'asi hokimi qal'a darvozalarini berkitib,

isyon boshladi. Shahar amaldorlari va obro‘li kishilarning aksariyati shahardan chiqib, yaqinlashib kelayotgan Sulton Husayn Boyqaro lashkariga borib qo‘shila boshladilar. Bunday sharoitda Hirotda qolishni ma’qul topmagan samarqandlik amirlar Hirotni tark etishga qaror qildilar. Ularning shaharni tark etishiga 50 ming kishilik qo‘shin bilan Amudaryoni kechib o‘tib, Murg‘ob daryosi bo‘yiga yetib kelgan Sulton Ahmad mirzoning kutilmaganda Samarqandga qaytishga qaror qilganligi ham ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin. Sulton Abu Sa’id mirzo Ozarbayjon yurishini boshlashi oldidan agarda Xurosonga Sulton Husayn Boyqaro hujum qiladigan bo‘lsa, Sulton Ahmad mirzo o‘z qo‘shini bilan Hirotga yetib kelishi kerakligini ta’kidlagan edi. 1469-yilning bahorida Sulton Husayn Boyqaroning Xurosonga bostirib kirish xavfi paydo bo‘lganini eshitgach, Samarqand lashkari Xuroson tomon yo‘lga chiqadi. Lekin Amudaryodan kechib o‘tganlaridan so‘ng Sulton Abu Sa’id mirzoning halokati xabarini eshitgach, Murg‘ob daryosibo‘yida bir necha kun to‘xtab turadi. Xuroson xalqining Sulton Husayn Boyqaro kutayotganligi ma’lum bo‘lgan, Sulton Ahmad mirzo ortga qaytish qaror qiladi. Shundan keyin temuriylar davlati Xuroson va Movarounnahr mulklariga bo‘linib ketdi va qayta birlashmadi.

Sulton Ahmad mirzo butun Movarounnahr hokimi hisoblansa-da, aslida faqat Samarqand va Buxorogina unga to‘liq bo‘ysundi. Birinchi bo‘lib Sulton Mahmud mirzo o‘z aksiga qarshi isyon boshladi. Xurosondan kelganidan so‘ng Samarqan devonini boshqarayotgan Sulton Mahmud mirzo Hisori Shadmon hokimi amir Qanbar Alining taklifiga ko‘ra Ahmad Mushtoq va Xisravshoh kabi amirlar bilan poytaxtni tark etdi va o‘zini Hisori Shadmonning mustaqil hokimi deb e’lon qildi. Garchi ko‘p o‘tmay Sulton Mahmud mirzoning isyonkor lashkari Sulton Ahmad mirzoning qo‘shini tomonidan tor-mor keltirilgan, Sulton Mahmud mirzoning o‘zi Amudaryo bo‘yiga qochgan bo‘lsa-da, Hisori Shadmonni o‘z qo‘lida saqlab qolishga erishdi. Xondamir uning hukmi ostidagi mulklar qatorida Hisor, Xatlon, Termiz, Chag‘oniyon, Qunduz, Balqon, Badaxshon viloyatlarini sanab o‘tadi. U Badaxshonni ham keyinchalik o‘z mulklari qatoriga qo‘shib olgan. Bu vaqtda Badaxshonda Sulton Abusaid mirzoning boshqa bir o‘g‘li Abobakr mirzoning qo‘lida edi. Sulton Mahmud mirzo Badaxshonning Katvar va Siyohpushon hududlariga yashovchi islom dinini qabul qilmagan aholi ustiga bir necha bor g‘olibona yurish qilganligi uchun tarixiy manbalarda “g‘oziy” unvoniga sazovor bo‘lganligi ta’kidlanadi.

Mirzo Umarshayxning Farg‘ona vodiysidagi hukmdorligi 1462-yilning oktyabridan boshlangan. Bu vaqtda Umarshayx 6-7 yoshda bo‘lganligi uchun ham, viloyatni uning nomidan Sulton Abu Sa’idning yirik amirlaridan biri hisoblanmish bek atkasi, ya’ni otalig‘i Xudoyberdi Temurtosh boshqargan.

Xudoyberdi Temurtosh to‘g‘risida “Boburnoma”da qisqa, lekin qimmatli ma’lumotlar mavjud: “Xudoyberdi Temurtosh erdi. Xiriy hokimi Oqbug‘abekning og‘asining nasildindur. Mirzo Sulton Abu Sa’id Jo‘gi mirzoni Shohruxiyada qabag‘onda, Farg‘ona viloyatini Mirzo Umarshayxga berib, eshikni bu Xudoyberdi Temurtoshga boshlatib yiborib erdi. U mahalda bu Xudoyberdi Temurtosh yigirma besh yoshda erdi, agarchi yoshda kichik erdi, tuzuki va zabtu rabti bisyor yaxshi erdi. Bir-ikki-yildin so‘ngra Ibrohim Bekchik O‘sh navohisini chopqonda,

Xudoyberdi Temurtosh keyinicha borib, urushib, bosilib, shahid bo‘ldi. Ul fursatta Mirzo Sulton Ahmad O‘ratepaning Oqqachg‘ay degan yaylog‘ida edikim, Samarqanddin o‘n sakkiz yig‘och sharq jonibidir, Mirzo Sulton Abu Sa’id Bobo Xokiyda erdikim, Hiriydin o‘n ikki yig‘och sharq soridur, bu xabarni Abdulvahhob shig‘ovuldin arza dosht qilib, mirzog‘a chopturdilar, bu yuz yigirma olti yig‘och yo‘lni to‘rt kunda chopar”.

Ushbu ma’lumot muhim xulosalar chiqarishga yordam beradi. Ibrohim bekchik mo‘g‘ul ulusining eng yirik amirlaridan biri edi. Mirzo Haydar ma’lumotiga ko‘ra, Ibrohim Bekchik Esan Bug‘axon hukmronligini tan olmay, Issiqko‘lda qal’a qurib, asosan Turkiston, Sayram shaharlarini doimiy talon-taroj qilgan amir Pir Haqberdining jiyanidir. U Pir Haqberdi vafot etgach, Issiqko‘lda hokimiyatni qo‘lga olgan va Yunusxon Mo‘g‘ulistonga kelganda uning xizmatiga kirgan. Amir Ibrohim bekchik boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shini 1464-1465-yillarda ham O‘sh atrofini talon-taroj qilishi Yunusxon hokimiyatining kuchsiz bo‘lganligini ko‘rsatadi. Chunki Yunusxon o‘ziga katta yordam berayotgan temuriy hukmdorga qarashli mulklarga Ibrohim Bekchikning hujum qilishiga to‘sqinlik qilolmagan. 1464-yili Yunusxon Mo‘g‘ulistonda muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Sulton Abu Sa’id oldiga yordam so‘rab boradi. Tegishli yordam olib, Mo‘g‘ulistonga qaytgan Yunusxon 1465-yili hukmronlikni to‘la qo‘lga kirita olmagan edi.

Xuddi shu yillari qalmoqlarning Movarounnahrga bostirib kirganligi ham Ibrohim bekchik uchun qo‘l kelgan. Bu vaqtda Sulton Ahmadning O‘ratepada ekanligi bejiz emas edi. Odatda Samarqand hukmdorlari mamlakatning shimoli va sharqiy hududlariga xavf tug‘ilsa, O‘ratepa yoki Shohruxiya atrofini o‘zlariga lashkargoh qilib olganlar. Shohrux va Mirzo Ulug‘beklarning faoliyatida ham bunga guvoh bo‘lish mumkin.

Shuningdek, Abdurazzoq Samarqandiy 1465-yili qalmoq qabilalari Movarounnahr shaharlariga hujum qilganligini xabar qilgan. Qalmoqlarning bu bosqinida o‘zaro nizolar natijasida ular xizmatiga o‘tib ketgan mo‘g‘ul qabilalari ham qatnashgan. Hujum asosan Turkiston shaharlariga uyushtirilgan bo‘lib, temuriylar qo‘shini tomonidan muvaffaqiyatli qaytarilgan. Sulton Ahmadning O‘ratepa yaqinida turganligi sababini qalmoqlarning shu bosqini bilan izohlash mumkin.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Ibrohim bekchikning O‘sh atroflariga mazkur hujumi, qalmoqlarning Turkiston shaharlari tomon uyushtirgan bosqinlari bilan bir vaqtda 1465-yili sodir bo‘lgan. Bu hujum natijasida 1462-yilning oxirlaridan vodiyni Mirzo Umarshayx nomidan boshqarib kelgan Xudoyberdi Temurtosh halok bo‘lib, uning o‘rniga yangi otaliq tayinlanadi.

Xudoyberdi Temurtosh vafotidan so‘ng Mirzo Umarshayxning otalig‘i vazifasiga Hofiz Muhammadbek do‘ldoy tayinlangan. U 1465-yildan taxminan 1470-71-yillarga qadar Mirzo Umarshayxning otalig‘i sifatida Farg‘ona vodiysini boshqardi. Lekin Mirzo Boburning so‘zlariga qaraganda, Sulton Abu Sa’id vafotidan keyin Andijonning mahalliy beklari bilan til topisha olmagan Hofiz Muhammad do‘ldoy Samarqandga Sulton Ahmad huzuriga ketadi: “Yana bir Hofiz Muhammad do‘ldoy erdi. Sulton Malik Koshg‘ariyning o‘g‘li Ahmad Hojibekning

inisi erdi. Xudoyberdibek o‘lgandan so‘ngra muni eshik ixtiyori qilib yiborib erdilar. Mirzo Sulton Abu Sa’idning voqeasidin so‘ngra Andijon beklari aning bila yaxshi chiqishmag‘on jihatidin Samarqandg‘a Mirzo Sulton Ahmad mulozamatig‘a bordi”. Chunki uning amakisi Jonibek Samarqandda Sulton Ahmadning otalig‘i, inisi Ahmad Hojibek esa Hirot hokimi vazifasida faoliyat olib borgan. Amir Jonibek vafotidan so‘ng otaliq lavozimi Ahmad Hojibek zimmasiga yuklatilgan. Shuning uchun ham Hofiz Muhammad do‘ldoy inisi huzuriga borishni ma’qul ko‘rgan.

Hofiz Muhammad do‘ldoydan so‘ng otaliq vazifasini bajargan shaxslar haqida ma’lumotlar uchramaydi. Bu hol keyingi otaliqlarning katta obro‘ga ega bo‘lmaganligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Chunki bu vaqtda Mirzo Umarshayx 14-15 yoshlarda bo‘lib, viloyatni shaxsan o‘zi boshqarishni xohlagan va Hofiz Muhammad do‘ldoyning ketishi shu istak bilan ham bog‘liq, deb o‘ylaymiz.

Umuman olganda, Mirzo Umarshayxning mustaqil hokimlik davrini 1469-yildan belgilash har jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi.

Mirzo Umarshayx davrida ham Farg‘onadagi asosiy siyosiy voqealar Movarounnahr va unga qo‘shni bo‘lgan Mo‘g‘ulistondagi vaziyatga bog‘liq holda kechdi. Bu vaqtda Samarqand va Buxoro shaharlari Sulton Ahmad, Hisor va Badaxshon Sulton Mahmud, Farg‘ona vodiysida Mirzo Umarshayx, Toshkent, Sayram, Shohruxiya shaharlari esa amir Shayx Jamol qo‘li ostida bo‘lib, ularning birortasi bir-biridan yaqqol ustunlikka ega emas edi. Samarqand hukmdori Sulton Ahmad ukasi Mirzo Umarshayxni o‘zining vassali sifatida bilar, Umarshayx esa o‘zini mustaqil hukmdor, deb hisoblar va hatto Samarqand taxtini egallash orzusi ham yo‘q emasdi. Bu esa ko‘p o‘tmay, ular o‘rtasida o‘zaro kurashning boshlanishiga olib keldi. “Chun Mirzo Umarshayx, – deb yozadi Mirzo Bobur, – baland himmatlik va ulug‘ doiyaliq podshoh erdi. Hamisha mulkgirlik dag‘dag‘asi bor erdi, necha navbat Samarqand ustiga cherik tortdi, ba’zi mahal shikast topti, ba’zi mahal bemurod yondi”.

Xondamir Mirzo Umarshayx o‘z mulklarini doimiy ravishda kengaytirib borishga uringanligini, shu maqsadda Samarqand va Mo‘g‘ulistonga ham yurishlar qilganligini ta’kidlaydi. Lekin Umarshayx Mo‘g‘uliston hududiga qo‘shin tortib borganligi, Yunusxon esa unga mulklar in’om etganligi haqidagi ma’lumotlar boshqa tarixiy manbalarda uchramaydi. Yunusxon va Mirzo Umarshayx o‘rtasidagi yagona jang Farg‘ona vodiysida bo‘lib o‘tgan. Bu haqda keyinroq to‘xtalamiz. Yunusxon emas, aksincha Mirzo Umarshayx Sulton Ahmad hujumlaridan himoyalanish uchun unga bir necha bor mulklar in’om etganligi tarixdan ma’lum. Shu nuqtai nazardan Xondamirning ushbu ma’lumotini to‘g‘ri, deb bo‘lmaydi.

Mazkur ma’lumotining qanday darajada asosli ekanligini mulohaza qilib ko‘rish joiz. Albatta, Xondamirda Mirzo Umarshayxning Mo‘g‘ulistonga borganligi haqida bizga ma’lum bo‘lmagan faktlar bo‘lishi mumkin. Mirzo Haydarning quyidagi satrlari e’tiborimizni jalb etadi: “Mirzo Umarshayx bir necha marta Mo‘g‘ulistonga borib, u yerda bir-ikki oylab qolgan. Ba’zan u xonni Andijonga chorlar, xon ham bir-ikki oylab Mirzo Umarshayx xonadonida turgan”. Demak, Mirzo Haydar biror-bir sanani keltirmasa-da, Umarshayx mehmon sifatida

Mo‘g‘ulistonga bir necha marta borganligini qayd etgan. Bu holatda Mirzo Haydar tashriflarni mehmon sifatida borish, Xondamir esa siyosiy-harbiy yurish sifatida baholagan bo‘lib chiqadi. Bizning fikrimizcha, Xondamirning ushbu fikri mubolag‘ali. Mirzo Umarshayx Mo‘g‘ulistonni zabt etish yoki talon-taroj qilish uchun yurish qilganida, bu urush boshqa tarixiy manbalar sahifalaridan o‘rin olgan bo‘lardi. Bundan tashqari, Shayx Jamol vafotidan keyin Movarounnahrda vujudga kelgan siyosiy vaziyat Umarshayxning Mo‘g‘ulistonga yurish qilishiga imkon bermas edi.

Sulton Ahmad va Umarshayx o‘rtasidagi nizolar aslida Toshkent hokimi Shayx Jamolning Abdulqundus tomonidan o‘ldirilishidan boshlandi. Rasman Samarqand hukmdori Sulton Ahmadga bo‘ysungan, amalda esa Toshkent, Sayram va Shohruxiyani mustaqil boshqargan Shayx Jamol 1472-1473-yillari o‘ldirilgan. Uning katta siyosiy mavqega ega bo‘lganligi Mo‘g‘uliston xoni Yunusxonni bir yilga yaqin asirlikda ushlab turganligida ham ko‘rinadi. Shayx Jamol o‘ldirilgach, Yunusxon asirlikdan ozod bo‘ldi. Amalda Shayx Jamolning mustaqil faoliyat olib borgan bo‘lsa-da, rasman uning oliy hukmdori hisoblangan Sulton Ahmad Toshkent, Sayram va Shohruxiyani o‘z mulklari qatoriga qo‘shib oldi. Natijada Samarqand hukmdorining mavqei keskin oshib ketganligini hisobga olgan Yunusxon u bilan yaqin munosabatda bo‘lishni ma’qul ko‘rdi. Qalmoqlarning hujumlari sababli Mo‘g‘ulistonda ta’siri kuchsizlanib qolgan xon katta qizi Mehr Nigor xonimni Sulton Ahmadga turmushga berish orqali qarindoshlik aloqalarini o‘rnatib, temuriylar bilan munosabatlarni mustahkamlashga harakat qildi. Garchi Mirzo Haydar tomonidan Yunusxon 1472-yili Burunj o‘g‘lonni o‘ldirganidan so‘ng qizini turmushga berganligi ta’kidlansa-da, bizningcha, bu nikoh Shayx Jamol voqeasidan keyin amalga oshganligi haqiqatga yaqin.

Bir qator ilmiy asarlarda Mirzo Umarshayx Toshkent viloyati va uning tarkibida bo‘lgan Sayram, Shohruxiya shaharlarini ma’lum bir vaqt davomida o‘z boshqaruvi ostiga kiritganligi qayd etilgan. Lekin ularda mazkur hududlar qachon va qay tarzda Mirzo Umarshayx qo‘li ostiga o‘tganligi borasida yakdil xulosa mavjud emas. Mirzo Bobur va Mirzo Haydarlar tomonidan ushbu viloyatlar Farg‘ona hokimi ixtiyoriga o‘tishining turlicha talqin etilgani buning asosiy sababidir.

Avvalo, ilmiy adabiyotlarda mazkur masala qanday yoritilganligiga to‘xtalsak. V.V. Bartold Yunusxonning Toshkentdagi sarguzashtlari va keyinchalik Toshkent hamda Sayram shaharlarini Mo‘g‘ulistonga qo‘shib olinishi haqida so‘z yuritgan. Lekin u mazkur hududlarning Mirzo Umarshayx tasarrufiga o‘tishiga to‘xtalmaydi. S.Azimjonova Shayx Jamol o‘ldirilgandan keyin hokimsiz qolgan Toshkent va Sayram shaharlari Sulton Ahmad tomonidan Umarshayxga in’om etilganligini ta’kidlaydi. B.Ahmedovning “Temur va Qamariddin” asarida Shayx Jamol o‘ldirilgandan keyin Sulton Ahmad Toshkent viloyati Umarshayxga berilganligi qayd etilgan. Ushbu muallif qalamiga mansub yana bir maqolada mazkur masalasi yoritilmagan. Lekin bu hududlar turli siyosiy o‘yinlar natijasida Farg‘ona hokimi tasarrufidan chiqib, mo‘g‘ul xoni Yunusxon ixtiyoriga o‘tganligi bayon qilingan. Hofiz Tanish Buxoriy tomonidan bitilgan “Abdullanoma”

asarining 1999-yilgi nashri izohlarida Toshkent va Shohruxiya shaharlari 1469-yildan Mirzo Umarshayxga qaraganligini ta'kidlanadi.

Mirzo Bobur amakisi Sulton Ahmadning mulklari borasida so'z yuritar ekan, "Samarqand va Buxoro erdikim, otasi berib edi. Shayx Jamolni Abdulquddus o'lturganidan so'ng Toshkand va Shohruxiya va Sayramni olib edi, necha mahal tasarrufida edi. So'ngra Toshkent bila Sayramni inisi Mirzo Umarshayxga berib edi", – deb ma'lumot beradi. Shuningdek, u otasi Mirzo Umarshayxning mulklari haqida yozar ekan, masalaga yanada aniqlik kiritadi: "Otasi Farg'ona viloyatini berib edi. Necha mahal Toshkand va Sayrom ham mirzoning tasarrufida edikim, og'asi Mirzo Sulton Ahmad berib edi. Shohruxiyani firib bila olib, necha mahal mutasarrif bo'lur edi. Oxir chog'larda Toshkent va Shohruxiya ilikdin chiqib edi".

Mirzo Haydar esa mazkur masala bo'yicha boshqacha ma'lumot bergan. "Shayx Jamol Xardan keyin, – deb yozadi Mirzo Haydar, – Toshkand hukmronligi Mirzo Umarshayx qo'liga o'tdi, kuchli Shohruxiya qal'asi ham Mirzo Umarshayx qo'liga o'tdi. Mana shu ikki mulk uchun Mirzo Sulton Ahmad Mirzo Umarshayxga qarshi ko'tarildi va ish juda katta janjalgacha yetib bordi".

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, V.V.Bartold ushbu masalani ochiq qoldirgan, S.Azimjonova va B.Ahmedovlar esa Mirzo Haydar ma'lumotlariga tayanib, Toshkent va Sayram viloyatlarini Shayx Jamol o'limidan so'ng (1472-1473-yillar) Umarshayxga o'tganligini ta'kidlagan. "Abdullanoma" noshirlarining bu boradagi fikrlari tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga zid. Bizning fikrimizcha, ushbu masala yuzasidan Mirzo Bobur keltirgan ma'lumotlarga tayanish to'g'ri bo'ladi. Mirzo Bobur "Boburnoma"ning ikki joyida amir Shayx Jamol o'limidan so'ng bu hududlar Sulton Ahmadga o'tgani, keyinchalik Toshkent va Sayram uning tomonidan ukasi Mirzo Umarshayxga in'om etilgani, Shohruxiyani esa Mirzo Umarshayx kurashib egallab olganligini bejiz qayd etmagan.

Toshkent, Sayram va Shohruxiya uchun ikki temuriyzoda o'rtasidagi nizo aynan XV asrning 70-yillari o'rtalaridan keskinlashgan. S.Azimjonova Sulton Ahmad va Mirzo Umarshayx o'rtasidagi kurash 1475-yil boshlanganligini ta'kidlagan. Bundan esa ushbu hududlar dastlab Mirzo Sulton Ahmad qo'lida bo'lganligi, keyinchalik XV asrning 70-yillari o'rtalaridan, taxminan 1475-1477-yillari Mirzo Umarshayx qo'liga o'tganligi haqida xulosa qilish mumkin. Agar 1472-1473-yillardayoq Toshkent, Shohruxiya va Sayram viloyatlari Farg'ona hokimi tasarrufida bo'lganida edi, bu hududlar uchun o'zaro kurash avvalroq boshlanib ketardi. Shuningdek, Samarqandni bo'ysundirish orzusida bo'lgan Mirzo Umarshayx mazkur viloyatlarning imkoniyatlaridan foydalangan holda temuriylar poytaxtini egallash uchun yirik harbiy yurishlar uyushtirgan bo'lar edi.

Sulton Ahmad tomonidan berilgan Toshkent va Sayram viloyatlari bilan cheklanmagan Mirzo Umarshayx Shohruxiya shahrini ham egallab oladi. Mirzo Bobur Shohruxiya jang bilan qo'lga kiritilganligi, ushbu jangda birinchi bo'lib Mirzo Umarshayxning o'zi dushman safiga yetib borib, qilich urganligini ta'kidlab o'tgan. Shohruxiyaning zabt etilishiga Sulton Ahmadning ko'chmanchi o'zbek qabilalari hujumlarini qaytarish bilan band bo'lganligi yordam bergan. Bu vaqtda ko'chmanchi o'zbeklar Zarafshon vohasiga, jumladan, Samarqand atroflariga talon-taroj hujumlarini uyushtirib turganlar. Mirzo Bobur va Xondamir o'z

asarlarida Mirzo Umarshayx Samarqandni talon-taroj qilib qaytayotgan ko‘chmanchi o‘zbek qo‘shinlarini Turkiston shahri yaqinidagi Ars daryosi bo‘yicha tor-mor keltirganligini, bosqinchilardan qaytarib olingan barcha o‘ljalar egallariga yetkazilganligini yozib qoldirganlar. Ko‘chmanchi o‘zbeklarga Turkistonda zarba berilishi mazkur voqea Toshkent va Sayram hududlari Mirzo Umarshayx qo‘lida bo‘lgan davrda yuz berganligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, 1472-1473-yillarda Sulton Ahmad Toshkent, Sayram va Shohruxiyani to‘liq o‘ziga bo‘ysundirib, hokimiyatini yanada mustahkamladi. Bu esa Movarounnahrda kuchlar nisbatining keskin o‘zgarishiga olib keldi. Avval faqat Zarafshon va Qashqadaryo vohalari ustidan hukmronlik qilayotgan Sulton Ahmadning mulklari keskin kengayib, Mo‘g‘uliston va Farg‘ona bilan chegaradosh bo‘lib qoldi. Natijada Yunusxon Sulton Ahmad bilan yaqinlashib uni o‘ziga kuyov qilib oldi. Bu vaziyat o‘z navbatida Mirzo Umarshayxni Yunusxon bilan yaqinlashishga majbur qildi, bu hamkorlik ham nikoh bilan mustahkamlandi.

Mazkur nikohdan Yunusxon o‘ziga xos maqsadlarni ko‘zlagan. S.Jalilov Sulton Ahmadga qarshi kurashda Mirzo Umarshayxni qo‘llab quvvatlagan Yunusxon avval Farg‘onani, kichik kuyovining qo‘li orqali Samarqandni egallashni maqsad qilgan edi, deb hisoblaydi. Bizningcha, xonning birinchi maqsadi Sulton Ahmad Farg‘ona vodiysini ham bo‘ysundirib olishiga yo‘l qo‘ymaslik edi. Movarounnahrning Sulton Ahmad qo‘li ostida yagona davlatga birlashishi Mo‘g‘uliston manfaatlariga mos kelmasdi. Lekin shu bilan birgalikda Mirzo Umarshayxning o‘z mulklarini kengaytirib, Samarqand va Buxoroni bo‘ysundirib olishi ham uning manfaatlariga zid edi. Shuning uchun Yunusxon Mirzo Umarshayxga faqat Sulton Ahmadning hujumlarini bartaraf etishda, ya’ni, mudofaa urushlarida yordam berdi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, Toshkent va Sayram viloyatlari, ko‘p o‘tmay Shohruxiya shahri 1475-1477-yillar oralig‘ida Mirzo Umarshayx qo‘liga o‘tdi. Mirzo Sulton Ahmad ushbu viloyatlar ukasi ixtiyorida qolib ketishini istamas edi. U Toshkent, Sayram viloyatlarini qaytarib olish maqsadida o‘zi Farg‘ona tomon qo‘shin tortadi. Lekin vaziyat urushgacha yetib bormaydi. Yunusxonning katta lashkar bilan Farg‘onaga yetib kelganidan xabar topgan Samarqand hukmdori yurishni to‘xtatib, ortga qaytib ketdi. Akasining navbatdagi hujumidan xavfsiragan Mirzo Umarshayx Yunusxonni Farg‘onada olib qolish maqsadida unga Axsi viloyatini in’om etgan. Aynan shu voqea keyinchalik Yunusxon va Mirzo Umarshayx o‘rtasida urush boshlanishiga sabab bo‘ldi.

Ikki o‘rtada nizoning kelib chiqish sabablari to‘g‘risida Mirzo Bobur va Mirzo Haydarlarning fikrlari bir-biriga juda yaqin. “Necha navbat qoyin otasi Yunusxonnikim, Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyxon naslidindur, Chig‘atoyxonning yurtida mo‘g‘ul ulusining xoni ul fursatta ul erdikim, mening ulug‘ otam bo‘lg‘ay, istid’o qilib kelturdi. Har qatla kelturganda viloyatlar berur erdi. Chun Mirzo Umarshayxning muddaosidek bo‘lmas erdi, gohi Mirzo Umarshayxning badmaoshlig‘idin, gohi mo‘g‘ul ulusining muxolafatidin viloyatga tura olmay yana Mo‘g‘ulistonga chiqar erdi”, – deb yozgan edi Mirzo Bobur. Mirzo Umarshayx xavf bartaraf etilganidan so‘ng mo‘g‘ullarni bu yerda qolishini

xohlamasligi tushunarli, albatta. Shuningdek, mo‘g‘ul qabilalari ham qish faslini vodiyda o‘tkazishga moyil bo‘lsa-da, yoz kelishi bilan o‘z yaylovlariga qaytishni ma’qul ko‘rishardi. Aynan shu masalada yoshligi Eronning shaharu qishloqlarida o‘tgan Yunusxon bilan mo‘g‘ul qabila boshliqlari o‘rtasida ko‘p bora kelishmovchiliklar chiqqanligi ma’lum.

Mirzo Haydar esa Yunusxon va Mirzo Umarshayx o‘rtasidagi nizoning kelib chiqish sabablariga to‘xtalarkan, Axsi shahrini Yunusxon qo‘liga o‘tib qolishi Farg‘ona hokimiga ma’qul bo‘lmaganligini ta’kidlaydi. Farg‘onalik amirlar vodiyning eng yirik shaharlaridan biri va mustahkam qal’asi bo‘lgan Axsini mo‘g‘ullarga berilishidan norozi bo‘lganlar. Mirzo Umarshayx o‘z davlati manfaatlaridan kelib chiqib, faoliyat olib borgan.

“Takasekretku” jangi Mirzo Umarshayxning birinchi mustaqil masof jangi edi. Mirzo Bobur ushbu voqea mazkur viloyatga alohida tarix bo‘lib qolganligini ta’kidlaydi. Muarrixlardan Xondamir va Mirzo Haydar ham shu kabi ma’lumot qoldirgan. Jangda to‘la g‘alaba qozongan Yunusxon asir olingan Mirzo Umarshayxni ozod etib, vodiyni tark etadi.

Yunusxon bilan Mirzo Umarshayx o‘rtasidagi kelishmovchiliklar haqida Abdurazzoq Samarqandiy aniq voqealarni bayon qilmasa-da, shunga ishora qilib o‘tadi. “Shahzoda ul viloyatning, – deb yozadi muarrix, – Mo‘g‘uliston chegarasida bo‘lgan qal’a-yu shaharlarini shunday mustahkamladiki, u viloyatga kirishu chiqish majoli mo‘g‘ul lashkarining xotiridan ham kechmay qoldi. Bir qancha vaqtgacha jahonpano podshohning davlat quvvati tufayli u mamlakatning raiyyati muxoliflar zarar-zahmatidan emin bo‘lib, u viloyatning barcha erlari shahzoda adolati ko‘magida ma’mur va obodon bo‘ldi. Yunusxon qanchalik hiylayu tadbir atrofida aylanmasin, u viloyatga ega chiqolmadi va oqibat, noumid bo‘lib, jo‘nash jilovini Mo‘g‘uliston tomon bo‘shatdi”. V.V.Bartold Abdurazzoq Samarqandiyning mazkur ma’lumotiga tayanib, Yunusxon Farg‘onani egallab olishga harakat qilganligini, lekin uning harakatlari besamar ketganligini ta’kidlaydi.

Shu o‘rinda Takasekretku jangi haqidagi ba’zi mulohazalarni bildirib o‘tish o‘rinlidir. Tarixiy manbalarga suyansak, bu jangni Axsi uchun bo‘lganligi oydinlashadi. Jangning o‘rni S.Jalilov tadqiqotlarida aniq ko‘rsatib o‘tilgan. Muallifning ta’kidlashicha, “Takasekretku” jangi Norin daryosining Andijondan 60-70 kilometr shimoldagi Ketmontepa (Qadimiy Xaylam) atrofidagi tor tog‘ daralaridan oqib o‘tgan qismida bo‘lib o‘tgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, Yunusxon bu vaqtda Axsidan Mo‘g‘ulistonga qaytayotgan edi. U o‘zi bilan birga bo‘lgan harbiy kuchlar ozligi sababli, Mo‘g‘ulistondan yordamga keladigan qo‘shinga yaqin bo‘lish maqsadida shimol tomon chekingan bo‘lishi mumkin. Takasekretku jangidan so‘ng Yunusxon va Mirzo Umarshayx Farg‘ona vodiysi masalasida boshqa nizolashmagan.

Ilmiy adabiyotlarda Sulton Ahmadning ukasiga qarshi birinchi yurishi hamda uning oqibatida kelib chiqqan Takasekretku jangi sanasi aniqlanmagan. Movarounnahrning shimoli-sharqiy qismida, Mo‘g‘uliston va Sharqiy Turkistonda kechgan tarixiy jarayonlar tahlili yuqoridagi voqealar 1477-yili bo‘lib o‘tganligini taxmin qilish imkonini beradi. Chunki 1479, 1480-yillari va 1481-yilning ko‘klam

oxiriga qadar Yunusxon Mo‘g‘ulistondagi ichki urushlar bilan band bo‘lgan va o‘z yurtini tark etmagan.

Dastlabki yurish natijasiz tugagach, Sulton Ahmad Toshkent va Shohruxiyani qaytarib olish uchun 1478-yili katta qo‘shin bilan yana Mirzo Umarshayxga qarshi lashkar tortadi. Aka uka o‘rtasidagi eng yirik jang O‘ratepa va Shohruxiya orasida joylashgan Xavos kentida bo‘lib o‘tgan. Ushbu jangda Sulton Ahmadning ko‘p sonli qo‘shini g‘olib chiqqanligini Xondamir ham ta’kidlagan. Mag‘lubiyatga uchragan Mirzo Umarshayx yana qaynotasi Yunusxonga yordam so‘rab murojaat qilgan. Bu safar Yunusxonga Marg‘ilon viloyati in’om etilgan. Mo‘g‘ul xonining yordamga yetib kelishi tufayli vaziyat o‘zgarib, Sulton Ahmad yurishni to‘xtatgan. U ittifoqchilarning Samarqand sari yurish boshlashidan cho‘chib, Xoja Ahror valiydan sulh tuzish uchun yordam berishni so‘raydi. Vaziyatning jiddiyligini hisobga olib, Xojaning o‘zi Marg‘ilonga yetib kelgan hamda Mirzo Umarshayx va Yunusxon bilan uchrashgach, ikki o‘rtada sulh tuzilib, urush harakatlari to‘xtatilgan. Qishni Marg‘ilonda o‘tkazgan Yunusxon, bahor kelishi bilan Mo‘g‘ulistonga qaytib ketadi. Z. Qutiboyev tomonidan “Xoja Ahror Valiy ma’naviyati” asarida muarrix Mir Said Sharif Roqimdan keltirilgan quyidagi parcha fikrimizni quvvatlaydi: “Ulug‘larning ulug‘i... Xoja Ahror Andijon (bu o‘rinda muallif Farg‘onani nazarda tutgan, deb o‘ylaymiz – U.B.)da sulh barpo qilib, og‘a-inilar Mirzo Sulton Ahmad bilan Mirzo Umarshayx o‘rtasidagi nizoni bartaraf qildilar. ... Bu voqea hijriy 883 (milodiy 1480)-yilda sodir bo‘ldi”. Bu yerda hijriy 883-yil aslida milodiy 1478-1479-yilga to‘g‘ri kelishini e’tiborga olish lozim.

1481-yilning bahorida Sulton Ahmad yana Mirzo Umarshayxga qarshi yurish boshlagan. Mirzo Haydarning ma’lumotlariga qaraganda, 1481-yil ko‘klamining oxirlarida Koshg‘arga qo‘shin tortmoqchi bo‘lgan Yunusxonga Umarshayx yordam so‘rab murojaat qilgan. Bu safar mo‘g‘ul xoniga O‘sh viloyati in’om etiladi. Sulton Ahmad Yunusxonning yordamga yetib kelganini eshitgach, yurishni bekor qildi. Yunusxon qishni O‘shda o‘tkazib, bahorda Mo‘g‘ulistonga ketarkan bu yerni o‘z qo‘lida saqlab qolish uchun noibi Mirzo Muhammad Haydarni O‘sh viloyatida qoldirdi. “Sulton Yunusxon Mo‘g‘ulistonga jo‘nab ketganidanoq, – deb yozadi Mirzo Haydar, – Mirzo Umarshayx O‘shga darug‘a jo‘natdi va Mirzo Muhammad Haydardan uzr so‘radi. Mirzo Muhammad Haydar va uning odamlarida Mo‘g‘ulistonga ketish uchun kuchlari yo‘q edi, bu yerda qolish imkoni ham bo‘lmadi. U o‘g‘illari Muhammad Husayn mirzo bilan Said Muhammad mirzoni Mirzo Umarshayxga qoldirib, o‘zi Koshg‘arga yo‘l oldi”. Shunday qilib, bu safar ham Farg‘ona vodiysining barcha hududlari, shuningdek, Toshkent, Sayram va Shohruxiya viloyatlarini Mirzo Umarshayx o‘z qo‘lida saqlab qolishga erishdi. Shu o‘rinda aytib o‘tish zarurki, S.Azimjonova va S. Jalilovlar yuqoridagi voqealarni 1483-yili bo‘lib o‘tganligini ta’kidlagan bo‘lsalar-da, tarixiy manbalardagi ma’lumotlar ushbu sanani tasdiqlamaydi.

Lekin Sulton Ahmad Toshkent, Sayram va Shohruxiya viloyatlarini qaytarib olish fikridan qaytmadi. U 1482-yilning kuzida Toshkentga yurish qildi. Sulton Ahmad qo‘shinining Toshkentga yetib kelganligi Samarqand lashkari Shohruxiyani osonlik bilan egallab olganligini bildiradi. Chunki manbalarda

Shohruxiya shahrining taqdiri haqida so‘z yuritilmagan. Mirzo Umarshayx yana Yunusxonga murojaat qilgan va unga bu safar Sayramni topshirgan. Mo‘g‘uliston xonining Sayramga yetib kelishi bilan Sulton Ahmad urushni to‘xtatib, Samarqandga qaytib ketgan. V.V.Bartold ham Sayramni Yunusxon ixtiyoriga 1482-yili o‘tganligini ta’kidlagan.

1485-yili Mirzo Umarshayx 15 ming kishilik lashkari bilan Shohruxiyani qaytarib olish uchun yurish boshlaydi. Unga Yunusxonning katta o‘g‘li Sulton Mahmudxon Sayramdan 30 ming kishilik qo‘shin bilan yordamga yetib keladi. Sulton Ahmad ham Toshkentni qo‘lga kiritish maqsadida Shohruxiyada katta lashkar to‘playdi. Lekin yana Xoja Ahror Valiyning aralashuvi bilan sulh tuzilib, Toshkent Mo‘g‘uliston xoni Yunusxon ixtiyoriga o‘tadi.

1482-yili Sayram Mo‘g‘uliston davlati tarkibiga, Shohruxiya esa Sulton Ahmad mulklari qatoriga o‘tishi hisobiga Mirzo Umarshayx katta yo‘qotishga uchragan edi. 1485-yili Toshkent viloyatining ham Yunusxon ixtiyoriga o‘tishi Farg‘ona hokimi mavqeini keskin pasaytirdi. Mirzo Umarshayx uzoq davom etgan kurashdan so‘ng faqat Farg‘ona vodiysi bilan cheklanishga majbur bo‘ldi.

Mirzo Bobur Toshkent shahri Yunusxonga 1485-yilgi Shohruxiyadagi sulh natijalari bo‘yicha emas, balki undan avval Mirzo Umarshayx tomonidan in’om etilganligiga ishora qiladi. “Oxir navbat kelaturgandakim (muallif Mirzo Umarshayxning Yunusxondan yordam so‘rab uni o‘z mulkiga olib kelishi haqida so‘z yuritayotir – U.B.), – deb yozadi Mirzo Bobur, – ul fursatga Toshkand viloyati Mirzo Umarshayx tasarrufida edikim, kitoblarda Shosh bitirlar, ba’zi Choch bitirlarkim, “kamoni chochiy” andin iborattur, berdi”. Bu yerda Mirzo Bobur Sayramni Yunusxonga berilganligini nazarda tutgan bo‘lishi kerak. Chunki Mirzo Haydar Umarshayx Toshkandni o‘z akasi Sulton Ahmaddan himoya qilishda Yunusxondan yordam so‘rab, unga Sayram viloyatini topshirganligini alohida ta’kidlagan. Xoja Ahror Valiy tarixiga oid manbalarda ham sulh natijasida Toshkentning Yunusxon qo‘liga o‘tganligi qayd etilgan.

1487-yili Yunusxonning vafot etishi Mirzo Umarshayxda Toshkent viloyatini qaytarib olish umidini uyg‘otadi. U Toshkentni mo‘g‘ullardan tortib olish uchun maxsus saralangan harbiy qism jo‘natdi. Mazkur yurishning asosiy janglari Ushtur qal’asida bo‘lib o‘tgan va unda temuriylar qo‘shini yengilgan. Hofiz Tanish Buxoriy Yunusxon vafotidan so‘ng Toshkentning yaxshi himoyalangan qal’alaridan birini egallab olgan Mirzo Umarshayxning qo‘shini Sulton Mahmudxon tomonidan tor-mor keltirilganligini qayd etadi. Lekin “Abdullanoma” asarining noshirlari bu jangni Sulton Ahmad va Mirzo Umarshayxlar o‘rtasida Xavosda bo‘lib o‘tgan jang bilan adashtirganlar.

Mirzo Haydar va Hofiz Tanish Buxoriylar ushbu mag‘lubiyatdan so‘ng Mirzo Umarshayx “o‘zini nizo yo‘lidan tortgan”ligini, ya’ni tashqi siyosatda faollikni yo‘qotganligini ta’kidlaydilar. Aslida esa Mirzo Umarshayx qo‘ldan chiqqan mulklarni qaytarish yoki o‘rnini boshqasi bilan to‘ldirish fikridan qaytmagan edi. Tez orada bunga imkon ham topiladi. Sulton Ahmad Toshkentni temuriylar tasarrufiga qaytarish maqsadida Sulton Mahmudxonga qarshi qo‘shin tortgan. Lekin Chirchiq daryosi bo‘yida uning lashkari mag‘lubiyatga uchraydi. Garchi Mirzo Haydar va Mirzo Boburlar o‘z asarlarida ushbu jang tafsilotiga keng

to‘xtalgan bo‘lsalar-da, uning sanasi haqida aniq ma’lumot bermaganlar. Hofiz Tanish Buxoriy bu voqea 1487-1488-yili sodir bo‘lganligini ta’kidlagan. Sulton Ahmadning mag‘lubiyatidan so‘ng Mirzo Umarshayx Samarqand tomon yurish boshlab O‘ratepani qamal qiladi. Bu vaqtda O‘ratepa hokimi 1465-1469-yillari Mirzo Umarshayxning otalig‘i bo‘lgan Hofiz Muhammad do‘ldoy edi. U O‘ratepa shahrini Mirzo Umarshayxga topshirgan, buning evaziga Andijon hokimi etib tayinlangan. Mirzo Umarshayx Samarqand tomon yurishni davom ettirmay, ortga qaytgan. 1487-yildan to Mirzo Umarshayx vafotiga qadar O‘ratepa viloyati Farg‘ona ulusi tarkibida qolgan.

Sulton Ahmadning 1487-yilgi Toshkent yurishi mag‘lubiyat bilan tugagach, Xoja Ubaydulloh Ahror vositachiligida Sulton Mahmudxon bilan qaytadan sulh tuzildi. Ushbu sulh Sulton Mahmudxon va Samarqand hukmdorining qizi Qorako‘zbegim o‘rtasidagi nikoh bilan mustahkamlandi. 1494-yili o‘zaro ittifoqchilikda Sulton Ahmad mirzo va Sulton Mahmudxonlar Farg‘ona vodiysi tomon yurish boshlaydilar. Sulton Ahmad mirzo O‘ratepa, Xo‘jand, Marg‘ilonni egallab, Quboga yetib kelgan vaqtda Umarshayx mirzoning halok bo‘lganligi xabarini eshitadi. Bu vaqtda Sulton Mahmudxon ham o‘z qo‘shinlari bilan Farg‘ona vodiysi hududida bo‘lib, Sirdaryoning shimoliy qismidagi shaharlarni bo‘ysundirish maqsadida jang boshlayotgan edi. Bobur mirzoning taxtga o‘tirishi juda tahlikali kunlarga to‘g‘ri keladi. Lekin, Farg‘ona amirlarining tadbirkorligi, qolaversa Qubo suvidan o‘tish jarayonida Sulton Ahmad qo‘shinining zarar topishi va lashkarda taqalgan ot o‘lati kasalligi vaziyatni tubdan o‘zgartirdi. Sulton Ahmad mirzo sulh tuzib, O‘ratepa va Xo‘jandni o‘z ixtiyoriga o‘tishi bilan cheklanib, Marg‘ilonni Bobur mirzo ixtiyoriga qoldirib ortga qaytishga rozi bo‘ladi. Mirzo Haydar bunga Sulton Ahmad mirzoning kasallanib qolganligi sabbab bo‘lganligini ta’kidlaydi. Chindan ham ko‘p o‘tmay, aniqrog‘i 40 kun o‘tib, Samarqandga qaytayotgan Sulton Ahmad mirzo O‘ratepa viloyatida vafot etadi. Sulton Mahmudxon esa Axsini qamal qilib egallay olmaydi. Garchi ayrim xoin amirlar Kasonni xonga topshirgan bo‘lsalar-da, Axsini qo‘lga kirita olmagan va Sulton Ahmadxonni sulh tuzganligini eshitgan Sulton Mahmudxon ham Kasonni ham tashlab ortga qaytishga majbur bo‘ladi.

### *Movarounnahrdagi temuriylar sulolasining inqirozga yuz tutishi*

1494-yili Sulton Ahmad mirzoning vafot etishi tashqaridan qaraganda Movarounnahrdagi temuriylar davlatini birlashishi uchun qulay sharoit yaratgandek ko‘rindi. Sulton Ahmad mirzoning o‘g‘il merosxo‘ri bo‘lmagani uchun taxt uning ukasi Surxondaryo, Hisor, Badaxshon, Qunduz viloyatlarining hokimi Sulton Mahmud mirzo qo‘liga o‘tdi. Lekin 1495-yili Sulton Mahmud mirzo ham vafot etadi. Samarqand taxtiga esa Sulton Mahmud mirzoning o‘g‘li Boysung‘ur mirzo chiqariladi. Sulton Ali mirzo esa O‘ratepa, Sulton Mas’ud mirzo esa Hisori Shadmon hokimiga aylanadi. 1495-yili Sulton Mahmudxon katta lashkar bilan Samarqand ustiga yurish boshlaydi. Samarqand yaqinidagi Kanboy nohiyasida mo‘g‘ul lashkari tor-mor keltirildi. Movarounnahrdagi o‘zaro nizolardan foydalangan Sulton Husayn Boyqaro 1495-1496-yilning qishida Termiz, Hisor, Qunduz shaharlarini zabt etish uchun yurish boshlaydi. Lekin yurish

muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Ushbu yurish vaqtida Sulton Mas'ud mirzo Samarqand chekinadi. Hokimiyat esa amalda Marhum Sulton Mahmud mirzoning yirik amirlaridan Xisravshohning qo'liga o'tadi. U o'z ukalari amir Valibek va amir Boqi Chag'oniyoniylar bilan birgalikda Sulton Mahmud mirzo mulkini boshqara boshlaydi. Bu davrda yirik amirlarning hokimiyati shu darajada kuchayib boradiki, hatto Xisravshoh qo'shinlarining soni 30 mingdan oshadi. Vaholanki, uning askarlari Sulton Mahmud mirzo davrida besh olti ming atrofida edi.

1496-yili Samarqandda tarxon amirlarining fitnasi bo'lib o'tadi. Boysung'ur mirzoning hisorlik beklar bilan yaqinligidan norozi bo'lgan Samarqand beklari to'ntarish uyushtirib, uning o'rniga Sulton Ali mirzoni taxtga chiqaradilar. Lekin bir necha kun o'tgach Xo'ja Ahror valiyning katta o'g'li Xojago Xojaning yordami bilan taxt yana Boysung'ur mirzo qo'liga o'tadi. Sulton Ali mirzo esa Xoja Ahror valiyning kichik o'g'li Xoja Yahyo yordamida Buxoroga qochib borib, u yerda hokimiyatni qo'lga kiritadi. Aslida esa Buxoroda hokimiyat Abduvali tarxon qo'lida bo'lib, u Sulton Ali mirzoni doimiy nazoratda ushlab turadi. 1496-yili Boysung'ur mirzo Buxoroga yurish qiladi, lekin bu yurish uning to'la mag'lubiyati bilan tugaydi. 1496-yilning kech kuzida Sulton Ali mirzo Buxorodan, Bobur mirzo Andijondan, Sulton Mas'ud mirzo Hisordan (u Samarqanddan yana Hisorga qaytib borgan bo'lsa-da, u ham Xisrafshoh qo'lida qo'g'irchoq edi) Samarqand taxti uchun yurish boshlaydilar. Lekin ittifoqchilar yozda yangi yurish boshlashga kelishib ortga qaytadilar. 1497-yilning yozida esa Bobur mirzo yana Samarqand tomon yurish boshladi va 7 oylik qamaldan so'ng Samarqand shahrini zabt etishga erishdi. Lekin u atigi 100 kun o'tgach Samarqandni tashlab Andijon tomon qaytishga majbur bo'ldi. Samarqand esa 1498-yili Sulton Ali mirzo qo'liga o'tadi.

Umuman olganda XIV asrning so'nggi choragida Movarounnahrda yirik amirlarning mavqeyi juda kuchayib ketdi. Ba'zi yirik amirlar hukmdorlarga nomigagina bo'ysunib ba'zi viloyatlarni amalda mustaqil boshqardilar. Toshkent hokimi Shayx Jamol, Turkiston hokimi Muhammad Mazid tarxon, Buxoro hokimi Abuali tarxon, uning o'g'li Boqi tarxon, Sulton Mahmud mirzo vafotidan so'ng Hisor, Chag'oniyon, Qunduz, Xatlon, Badaxshonni egallab olgan Xisrafshohlarning faoliyati so'zimizning yaqqol tasdig'idir. Bu esa markaziy hokimiyatni kuchsizlantirdi va mamlakatning siyosiy jihatdan parchalanishiga olib keldi.

***Ta'lim texnologiyalari:*** *insert, Venn diagrammasi, T-sxema, "bumerang", muammoli ta'lim, keys-stadi, vizual materiallar, xotira mashqi.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar***

*1. Sulton Abu Said o'g'li Umarshayx mirzoni Farg'ona hokimi qilib tayinlanishi sabablarini tushuntiring?*

*2. Badaxshondagi temuriylar haqida nimalar deya olasiz?*

*3. Ko'chmanchilarning Movarounnahrning shimolidan bosqini vaqtida hukmdorlar nima sababdan O'ratepada turishini izohlang?*

*4. Qanday sabablarga ko'ra Toshkent hududi mo'g'ullar qo'liga o'tib ketdi?*

*5. Sulton Ahmad mirzo vafotidan keyin Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat xususida mulohaza yuriting?*

*6. Temuriylar davri siyosiy va ma'naviy hayotida Xoja Muhammd Porso qanday o'rin tutadi?*

*7. Sulton Abu Said mirzoning o'g'illari Sulton Ahmad mirzo, Sulton Mahmud mirzo va Umarshayx mirzolar o'rtasidagi o'zaro totuvlik ahdnomasi qanday ahamiyatga ega?*

*8. XV asrning oxirlaridagi o'zaro kurashlarda diniy ruhoniylar qanday o'rin tutuishgan?*

## MAVZU: 1470-1507-YILLARDA XUROSONDA TEMURIYLAR DAVLATINING SIYOSIY INQIROZI VA TUGATILISHI.

**Reja:**

*1. Sulton Husayn Boyqaroning hokimiyat tepasiga kelishi.*
*2. Xurosonda temuriylar davlatining zaiflashuvi.*
*3. Xurosonda Muhammad Shayboniyxon hukmronligining o'rnatilishi.*

***Kalit so'zlar:*** *Suton Abu Said mirzo, Sulton Ahmad mirzo, Sulton Mahmud mirzo, Umarshayx mirzo, Husayn Boyqaro, Yodgor mirzo, Amir Hasanbek, Pulichirog', Chakman jangi, 1471-1472-yil, Bobur mirzo, Badiuzzamon mirzo, Muzaffar mirzo, Mo'min mirzo, Hirot, Samarqand, Maral jangi, Shayboniyxon.*

***Sulton Husayn Boyqaroning hokimiyat tepasiga kelishi***

1469-yilning 17-mart kuni Abusaid mirzoning halok bo'lganligi bo'lganligi xabari Hirot shahriga ham yetib keldi. Shu kuni Ozarbayjonda mag'lub bo'lgan qo'shin bilan Hirotga yetib kelgan Abusaid mirzoning o'g'li Sulton Mahmud mirzo va uning akasi Samarhand hokimi Sulton Ahmad mirzolar nomiga xutba o'qildi. Abusaid mirzoning topshirig'i ko'ra Hisori Shodmon viloyatidan o'z qo'shini bilan Ozarbayjonga ketayotgan amir Qanbar Ali ham Hirotga yetib kelib, shu yerda turgan edi. Marhum hukmdor farzandlari nomiga xutba o'qilishida ushbu amirning xizmati katta edi. Lekin hirotliklar Movarounnahrlik amirlar qo'li ostida qolishni hohlamadilar. Sulton Husayn Boyqaroning yetib kelayotganligi xabari kelishi bilan 1469-yilning 18-mart kuni Ixtiyoriddin qal'asi hokimi qal'a darvozalarini berkitib, isyon boshladi. Shahar amaldorlari va obro'li kishilarning aksariyati shahardan chiqib, yaqinlashib kelayotgan Sulton Husayn Boyqaro lashkariga borib qo'shila boshladilar. Bunday sharoitda Hirotda qolishni ma'qul topmagan samarqandlik amirlar Hirotni tark etishga qaror qildilar. Ularning shaharni tark etishiga 50 ming kishilik qo'shin bilan Amudaryoni kechib o'tib, Murg'ob daryosi bo'yiga yetib kelgan Sulton Ahmad mirzoning kutilmaganda Samarqandga qaytishga qaror qilganligi ham ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Sulton Abusaid mirzo Ozarbayjon yurishini boshlashi oldidan agarda Xurosonga Sulton Husayn Boyqaro hujum qiladigan bo'lsa, Sulton Ahmad mirzo o'z qo'shini bilan Hirotga yetib kelishi kerakligini ta'kidlagan edi. 1469-yilning bahorida Sulton Husayn Boyqaroning Xurosonga bostirib kirish xavfi paydo bo'lganini eshitgach, Samarqand lashkari Xuroson tomon yo'lga chiqadi. Lekin Amudaryodan kechib o'tganlaridan so'ng Sulton Abusaid mirzoning halokati xabarini eshitgach, Murg'ob daryosibo'yida bir necha kun to'xtab turadi. Xuroson xalqining Sulton Husayn Boyqaro kutayotganligi ma'lum bo'lgach, Sulton Ahmad mirzo ortga qaytish uchun qaror qiladi. Shundan

keyin temuriylar davlati Xuroson va Movarounnahr mulklariga bo‘linib ketdi va qayta birlashmadi.

Sulton Abusaid mirzoning Ozarbayjon yurishi davom etayotgan vaqtda Sulton Husayn Boyqaro turkman cho‘llari va Dashti Qipchoqning ushbu cho‘llar bilan chegaradosh hududlarida yashiringan edi. 1468-yilning noyabr oylaridan boshlab Xorazm, Niso va Obivard viloyatlarida Sulton Husayn mirzoning hujum qilish xavfi paydo bo‘ldi. Abusaid mirzoning amirlari tashkiliy ravishda viloyatlardagi qal’alar va shaharlar himoyasini tashkil qildilar. Bunday tashkiliy himoyalanish avvalgi davrlarda uchramagini bilan ham e’tiborlidir. Shahar va qal’alarga atrofdagi qishloqlarning aholisi ko‘chirildi. Shaharlardagi har o‘n uyning to‘rttasi ko‘chirib keltirilgan aholiga bo‘lib berildi. Barcha shahar-qal’alarning mudofaa istehkomlari ta’mirlandi, zarur holatda yangidan qurildi va domiy qo‘riqchilik joriy etildi. Bu ishlarda butun xalq ommasi faol qatnashdi. Lekin hosilni yig‘ib olishda qiyinchilik tug‘ilganligi, aholisi shaharga ko‘chirilgan hududlarning beboshlar tomonidan talon-taroj etilishi ma’lum darajada xalqning ahvoliga salbiy ta’sir etdi.

Sulton Husayn mirzo 1469-yilning yanvar oyida Sulton Abusaid mirzoning ahvoli mushkullashib qolganini eshitishi bilan Niso va Obivard viloyatlari chegaralarida paydo bo‘ldi. Bu vaqtda Xurosonni himoya qilish uchun Samarqanddan 50 ming kishilik qo‘shin bilan Sulton Ahmad mirzo ham kelayotgan edi. Husayn Boyqaro Sulton Abusaid mirzoning halokati haqidagi xabar kelishi bilan bu xabarni amudaryoni kechib o‘tib Hirotga yaqinlashayotgan Sulton Ahmad mirzoga yetkazdi. Natijada Sulton Ahmad mirzo Hirot tomon yurishni to‘xtatdi va vaziyatni kuzata boshladi. Bu vaqtda Ozarbayjondan qaytib kelayotgan Sulton Mahmud mirzo Hirotga yaqinlashib kelayotgan edi. Sulton Husayn Boyqaro Hirotni zabt etish uchun ilg‘or qilib amir Valibekni jo‘natgan edi. Amir Valibek Sulton Mahmud mirzo lashkariga hujum qildi. Jangga tayyor bo‘lmagan va o‘ta tushkun holatda bo‘lgan Sulton Mahmud mirzo lashkari jang qilmay Hirot tomon chekindi. U 1469-yil 16-mart kuni shaharga kirib keldi, lekin, avval ham ta’kidlagan sabablarga ko‘ra 18-mart kunishaharni tark etishga qaror qildi. Sulton Husayn mirzo esa 22-mart kuni Hirotga yetib keldi va 24-mart kuni taxtga o‘tirdi. U chekinayotgan Sulton Mahmud mirzoni taqib etish va Balxni zabt etish uchun Amir Zaynulobiddin arlot blshchiligida qo‘shin jo‘natdi. Bu lashkar Sulton Mahmud mirzo qo‘shinlarini tor-mor etish bilan birgalikda Shibirg‘on va Balx shaharlarini ham egallab oldi. Shu vaqtda Sulton husayn Boyqaro qo‘li ostiga Astraboddan to Balxgacha, Seyistondan to Xorazmgacha bo‘lgan viloyatlar bitrlashtirildi.

Lekin toj-taxt uchun kurash tugamagan edi. Garchi Sulton Ahmad mirzo, Sulton Mahmud mirzo kabi marhum Sulton Abusaid mirzoning farzandlari Xuroson mulkiga da’vogarlik qilmayotgan bo‘lsalarda, Xuroson taxti talabgorlari oz emas edi. Ularning ichida eng xavflisi Ozarbayjonning yangi hukmdori amir Hasanbek tomonidan qo‘llab quvvatlanayotgan Mirzo Yodgor edi. Yodgor mirzo Shohrux mirzoning o‘sha vaqtda tirik bo‘lgan yagona avlodi edi. U 1469-yilning avgustida Mozandaronga bostirib kirdi. Astrabod hokimi amir Toramiy raqib hujumiga dosh berolmay, Hirotga chekinadi. Sulton Husayn mirzo ham imkon

qadar ko‘proq lashkar yig‘ishga intildi. Qo‘shinni ta’minlash uchun Hirot shahri aholisiga katta miqdorda qo‘shimcha soliq solindi. Bu esa katta norozilikni keltirib chiqardi. Shunga qaramay 30 ming kishilik lashkar to‘play olgan Sulton Husayn mirzo 1469-yili 15-oktyabr kuni Yodgor mirzo lashkarini Astrobod yo‘lidagi Chinoron mavzeyida tor-mor keltirdi. Astrabod viloyati hokimligini amir Shayx Temurga topshirgan Sulton Husayn Boyqaro Hirotga qaytishga qaror qildi. Yodgor mirzo esa Domg‘on va Simnon viloyatlariga chekindi va Ozarbayjon hukmdori amir Hasanbekdan yordam so‘radi. Amir Hasanbek temuriy shahzodalar o‘rtasidagi nizolarni yanada kuchaytirish uchun Yodgor mirzoga ko‘mak uchun ikki ming kishilik harbiy qismni yubordi. Yordamchi qo‘shinning kam sonliligi amir Hasanbek biror bir tomonning yaqqol g‘olibligidan ko‘ra ular o‘rtasidagi urushning uzoqroq cho‘zilishini istaganligini ko‘rsatadi. Ozarbayjon qo‘shini dastlab Jom viloyatini qo‘lga kiritadi. Bu vaqtda amir Hasanbekning o‘g‘li Kermon hokimi amir Zaynalbek ham ming kishilik qo‘shin bilan to‘satdan Ko‘histon viloyatiga hujum qiladi va yaqindagina Astrobod hokimligidan olinib, Ko‘histonga tayinlangan amir Toramiyni qatl etadi. Bu vaqtda Yodgor mirzoning o‘zi esa Sabzavorni egallab oladi. 1470-yilning 4-mart kuni Sulton Husayn Boyqaro ham lashkar tortib, Nishopur orqali Sabzavorga yetib keldi. Yodgor mirzo askari kam bo‘lganligi uchun ham Bistom viloyatiga chekinishga qaror qildi. Sabzavorni himoya qilishni esa amir Qozibekka topshirdi. Lekin ko‘p o‘tmay Xuroson lashkari tomonidan Sabzavor egallanib, amir Qozibek esa qatl etildi. Lekin bu g‘alaba Sulton Husayn mirzoning mavqeyini yaxshilamadi. Amir Hasanbek Yodgor mirzoga yordam berish uchun o‘g‘li Sulton Xalil boshchiligida katta lashkar jo‘natganligi va Hirotda xalq g‘alayoni boshlanganligi xabari Xuroson lashkari ichida porakandalik boshlanishiga sabab bo‘ldi. Bir guruh amirlar Yodgor mirzo tomoniga qochib o‘ta boshladilar. Jumladan Astrobod hokimi amir Shayx Temur ham bir necha janglardan so‘ng Yodgor mirzo tomoniga o‘tib ketdi.

Murakkab vaziyatda qolgan Sulton Husayn Boyqaro Hirotga Alisher Navoiyni jo‘natdi va xalqning talablarini bajarib, g‘alayonni tinch yo‘l bilan to‘xtata oldi. Hirotdagi xalq g‘alayoniga yangidan “tutun puli” solig‘ini olinishi va undagi zo‘ravonliklar sabab bo‘lgan edi.

Husayn Boyqaro Hirot tomon chekinishni ma’qul ko‘rdi. Lekin qo‘shinning Yodgor mirzo tomonga o‘tib ketishini to‘xtatib bo‘lmadi. 1470-yilning 19-iyun kuni esa Sulton Husayn mirzoninglashkari diyarli tarqalib ketdi. Uning o‘zi esa kam sonli askarlari bilan arlot ulusi (ushbu qabila yashayotgan dasht)ga borib joylashdi. Ushbu qabilaning yirik amirlari amir Pir Muhammad, amir Ja’far va amir Zaynulobiddinlar uning Sulton Husayn mirzoni qo‘llashda davom etdilar.

Hirotda Shohrux mirzoning avlodi bo‘lgan Yodgor mirzoning ham tarafdorlari anchagina edi. Ularning ko‘magida 1470-yilning 5-iyul kuni Yodgor mirzo nomiga xutba o‘qildi va uning o‘zi 8-iyul kuni Hirotga yetib kelib, shahar tashqarisidagi Bog‘i Chag‘on nomli qasrga joylashdi. Yodgor mirzo bilan birgalikdap Hirotga yetib kelgan turkman lashkari Hirotni talon-taroj qila boshladi. Garchi Yodgor mirzo ham imkon qadar turkmanlar beboshligini oldini olishga harakat qilgan bo‘lsada, bunga to‘liq erisha olmadi. Buning ustiga amir

Hasanbekning o‘g‘li Sulton Xalil turkman lagkari bilan Mashhadgacha bo‘lgan erlarni zabt etdi. Yodgor mirzo Amir Hasanbekka murojat qilib, amir Xalilni Mashhadda to‘xtatishga erishdi. Ko‘histon ham amir Hasanbekning yana bir o‘g‘li Zaynalbekning qo‘lida edi. Ular Yodgor mirzoni qo‘llab quvatlash bahonasida bu yerlarni tark etishni hohlamasdilar.

Sulton Husayn Boyqaro arlot ulusida ham uzoq qola olmadi. Unga bu safar Sulton Abusaid mirzoning uch o‘g‘li Sulton Mahmud, Abobakr va Ulug‘bek mirzolar birgalikda hujum qildilar. Arlotlarning yirik amirlari Jafar va Zaynulobiddinlar ham unga xiyonat qiladilar. Lekin Sulton Husayn mirzo bu to‘qnashuvdan g‘olib chiqishga erishadi. Ushbu g‘alabadan ruhlangan mirzo 1470-yilning 21-avgusti kuni to‘satdan yarim kechasi Bog‘i Zag‘onga hujum qiladi va Yodgor mirzoni asir olib, qatl etishga erishadi.

Shunday qilib Sulton Husayn Boyqaro 1470-yilning 21-avgusti kuni yana Hirot taxtini egallaydi va vafotiga qadar boshqa qo‘ldan chiqarmaydi.

***Xurosonda temuriylar davlatining zaiflashuvi***

Yodgor mirzoning qatl etilishi bilan Hirot taxti uchun yirik da’vogarlar deyarli qolmaydi. Sulton Husayn Boyqaro Mozandaron(Astrobod), Niso, Obivard, Nishopur, Sabzavor, Mashhad, Marv, Xorazm, Balx, Shibirg‘on, Hirot, Seyiston viloyatlarining o‘z qo‘li ostida birlashtirib, temuriylarning yirik hukmdorlaridan biriga aylandi.

U o‘z davlati hududlarini kengaytirish uchun intilmadi. G‘arbdagi viloyatlar, jumladan, Fors o‘lkasi turkmanlar tomonidan egallangan bo‘lib, Sulton Husayn mirzo ushbu yerlarni qaytarib olishga urinmadi ham. Buning asosiy sababi kuchayib borayotgan turkmanlar qudratini his etish bilan birgalikda o‘z atrofidagi temuriylarga qarashli yerlarni birlashtira olmaganligi ham edi.

Kobul, G‘azni viloyatlari esa Sulton Abusaid mirzoning o‘g‘li Ulug‘bek mirzo qo‘li ostida edi. Bu hududda arg‘un beklarining mavqeyi kuchayib bordi. Ulug‘bek mirzo vafot etib taxt uning o‘g‘li Abdurazzoq mirzoga o‘tganida 1503-yili viloyatni Muqim arg‘un egallab olib, Abdurazzoq mirzoni ham Kobuldan chiqarib yuboradi. 1504-yili Bobur mirzo Kobulni shu Muqim arg‘undan tortib olgan edi.

Yodgor mirzo taxtni egallagan vaqtda Balx shahrini Mirzo Sulton Mahmud qo‘lga kiritib olgan edi. Sulton Husayn mirzo bu shaharni qaytarib olish uchun 1471-yilning bahorida yurish boshladi. Chakman jangida Mirzo Sulton Mahmud qo‘shinlari tor-mor keltirildi va Balxda ham Sulton Husayn mirzo hukmronligi o‘rnatildi. Sulton Abusaid vafotidan so‘ng bo‘lgan siyosiy boshboshdoqliq vaqtida Muhammad Umar mirzo Qandahorni qo‘lga kiritib olgan edi. Bunda Sulton Abu said mirzo nomidan Qandahorni boshqarayotgan Amir Nizomiddin Ahmad muhim rol o‘ynadi. U Qandahor va Garmsir viloyatlari chegarasida bir guruh askarlari bilan qulay vaqtni kutib yurgan Muhammad Umar mirzoga Qandahor hokimiyatini topshirdi. Muhammad Umar mirzo Qandahor bilan cheklanishni istamay Sulton Husayn Boyqaro hududlariga da’vo qila boshladi. Natijada yuz bergan to‘qnashuvda Muhammad Umar mirzo o‘ldirilib, Qandahor viloyati ham Sulton Husayn mirzo tasarrufiga kirdi.

Lekin amirlarning turli isyon va fitnalari davom etaverdi. 1471-yili Balx qo‘lga kiritilganida shaharni boshqarish uchun qoldirilgan amir Mushtoq ko‘p o‘tmay isyon ko‘tardi. Uning maqsadi Mirzo Sulton Ahmad va Mirzo Sulton Mahmudlar hokimiyatini rasman tan olish evaziga amalda mustaqil bo‘lish edi. Sulton Husayn mirzoning Balxni qamal qilib, shaharni qo‘lga kiritish maqsadidagi urinishlari samara bermadi. Natijada u Amudaryo bo‘yida turgan Mirzo Sulton Ahmad va Mirzo Sulton Mahmudlardan cho‘chigan holda Balxni tark etib, Bodg‘isga chekindi. Amir Mushtoq Balx ostonasiga yetib kelgan Movarounnahr qo‘shinini ham shaharga kiritmadi. Bu vaqtda Badaxshon hokimi Abobakr mirzoning Hisorga yurish qilganligini eshitgan aka-uka mirzolar Movarounnahrga qaytishni ma’qul ko‘rishdi. Natijada, yana Balxni qamal qilishga kirishgan Sulton Husayn mirzo uni o‘z hokimiyati ostiga qaytarishga erishdi.

Sulton Mahmud mirzo Hisorga qaytib kelib, bu yerdan Mirzo Abobakrni quvib chiqardi. Hisorni qo‘lga kirita olmagan Mirzo Abobakr Badaxshonda ham saqlanib qololmadi. U o‘z askarlari bilan Seyiston, Kirmon viloyatlarida janglar olib bordi. Hatto Kirmon viyaloyatini turkmanlardan ozod qilishga ham erishdi. Ammo uni o‘z qo‘lida saqlab qola olmadi. Uning Xurosonga kirib kelishi o‘zi uchun fojeali tugadi.

Sulton Husayn Boyqaro davlati vaqt o‘tgani sari kuchsizlanib bordi. Yirik amirlar mavqeyining oshib borishi, ularning separatistik harakatlarini hukmdorning o‘g‘illari tomonidan qo‘llab quvvatlanishi markaziy hokimiyat kuchsizlanishining asosiy sabablaridan biri edi.

Rasman Sulton Husayn mirzo tasarrufida bo‘lgan G‘ur, Zamindovar viloyatlarida hazora va nikudariy qabilalari istiqomat qilib, ular amalda hech kimga bo‘ysunmay qo‘ygan edilar. Bir vaqtlar Sulton Abu Sa’id mirzoga, so‘ngra Sulton Ahmad mirzoga xizmat qilgan, o‘zining boshqaruvchanlik jangovarlik sifatlari bilan ajralib turadigan Amir Zunun XV asrning 70-yillari oxiriga kelib Sulton Husayn mirzo xizmatiga o‘tdi. Samarqanddagi tarxoniy va arg‘uniy amirlar o‘rtasidagi nizolar natijasida Amir Zunun arg‘un Xurosonga qaytishga majbur bo‘lgan edi. Bu amir haqida yaxshi ma’lumotga ega bo‘lgan Hirot hukmdori uni 1479-1480-yillari G‘ur va Zamindovar viloyatlariga hokim etib tayinladi. Amir Zunnun bir necha yil davomida sabot bilan kurash olib borib bu yerdagi hazora va nikudariy qabilalarini to‘liq bo‘ysundirdi hamda bu yerdagi davlatchilik tartibini mustahkamladi. Sulton Husayn mirzoga saroyiga doimiy ravishda katta miqdorda soliqlarni jo‘natib turishi, katta lashkar bilan xizmatga yetib borishi oqibatida uning hukmdor oldida ham obro‘yi oshib bordi. Sulton Husayn Boyqaro ko‘proq daromad olish umidida o‘ziga rasman bo‘ysunib, amalda deyarli mustaqil bo‘lib ketgan, soliqlarni turli bahonalar bilan oz miqdorda yuboradigan, lashkar bilan xizmatga kelmaydigan Qandahor, Fahor, Tulak, Soxar viloyatlarini boshqarishni ham Amir Zunnunga topshirdi. Iqtidorli amir bu viloyatlarda ham tartib o‘rnatib, davlatchilikni mustahkamladi. Sulton Husayn xazinasini boyitish bilan birgalikda o‘zi ham katta boylikka ega bo‘ldi. Qo‘l ostigagi viloyatlarni boshqarish uchun o‘zining ishonchli odamlarini va farzandlarini tayinladi. Shu tariqa uning ta’siri tobora oshib bordi. Sulton Husayn mirzo o‘zining oldida katta xavf yuksalib borayotganligini kech angladi. Hukmdorning o‘zi haqidagi fikri

o‘zgarayotganligini sezgan Amir Zunnunbek Mirzo Badiuzzamon bilan yaqinlashdi va mamlakatni o‘zaro urushlar qa’riga torta boshladi.

1487-yili Xurosonning shimoliy-g‘arbiy chegarasi bo‘lgan Astrobod viloyatini boshqarish Amir Alisher Navoiyga topshiriladi. Viloyat Sulton Husayn mirzoning ishonchli kishisi bo‘lgan Amir Valibek tomonidan boshqarilgan edi. Turkmanlar tomonidan egallangan Mozondaron, Gilon, Rustamdor viloyatlari bilan chegaradosh bu viloyatni idora etish uning vafotidan so‘ng Alisher Navoiyga topshirilishidan maqsad chegaralarni mustahkamlash ham edi. Alisher Navoiy Astroboddagi deyarli ikki-yillik faoliyati davomida viloyatda obodonchilik rivoj topdi. 1388-1389-yillari Navoiyning qat’iy talabiga ko‘ra u maxkur vazifadan ozod qilindi va Hirotga qaytdi. Astrobodni boshqarish esa amir Mo‘g‘ul ixtiyoriga berildi. Astrobodning yangi hokimi viloyatning siyosiy va iqtisodiy salohiyatidan ilhomlanib, 1389-1390-yillari markaziy hokimiyatga qarshi isyon ko‘tardi. Sulton Husayn mirzo isyonni bostirish uchun katta o‘g‘li Badiuzzamon mirzo boshchiligida qo‘shin jo‘natdi. Isyon bostirilib, amir Mo‘g‘ul qatl etildi va viloyatni boshqarish shahzoda ixtiyoriga berildi. Badiuzzamon Astrobod viloyatini boshqarish jarayonida bir qator yaxshi ishlarni amalga oshirib, viloyatning iqtisodiy ahvolini yaxshilashga erishdi. Moliyaviy holatning yaxshilanganligi va Oqquyunli turkmanlar davlatida o‘zaro nizolar boshlanganligi sababli shahzodada temuriylar mulklarini g‘arb tomon kengaytirish fikri tug‘ildi. Lekin uning Ray viloyatini egallash maqsadidagi urinishi samara bermadi. Sulton Husayn mirzo ham shahzodaning bu yo‘nalishdagi faoliyatini qo‘llab quvvatlamadi, aksincha, o‘z saroyidagi nizolar ta’sirida Badiuzzamon mirzoning bir necha yirik amirlarini ham qatlga yetkazib, uning faoliyatiga halaqit berdi.

Xurosonning yirik viloyatlaridan biri bo‘lgan Balx Sulton Husayn mirzo davrida ko‘p bora siyosiy voqealarning markazida qolib ketdi. Ularning bir qismi xususida yuqorida ham so‘z yuritdik. Bu viloyatga o‘z vaqtida amir Nizomiddin Alisher Navoiyning ukasi amir Darvesh Ali ham hokimlik qildi. Lekin u ham Sulton Husayn mirzo bilan muammolarga uchradi. Bu ko‘proq Hirot saroyidagi fitnalar va hukmdorning fitnachilar ta’siriga tushib qolganligi (Amir Nizomiddin Alisher Navoiy bilan vazir Xoja Majiddin o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, bu vaqtda Xoja Majiddinning yana saroy ishlariga qaytarilishi) bilan bog‘liq edi. Natijada Xoja Majiddinning ta’siridan cho‘chigan Amir Darvesh Ali Hisori hukmdori Mirzo Sulton Mahmud bilan aloqa o‘rnatishga kirishdi. Sulton Husayn mirzo esa vaziyatni keskinlashtirmaslik uchun yana Xoja Majiddinni barcha lavozimlaridan ozod qildi va o‘zi ham lashkar bilan Balx tomon yurish boshladi. Saroydagi vaziyat o‘zgarganligidan xabar topgan amir Darvesh Ali yana Sulton Husayn mirzoga sodiqligini bildirdi. Sulton Husayn Boyqaro Balx masalasi hal etilganch Hisor ustiga yurish qilishga qaror qildi. Lekin Sulton Husayn Boyqaroning Hisorni zabt etish maqsadidagi urinishi samara bermadi. Bir necha kichik janglarda har ikki tomon ham katta yutuqlarga erisha olmagach, urush sulh bilan yakuniga etdi. Yurishdan qaytish chog‘ida Sulton Husayn mirzo Balxni boshqarishni Haydar Muhammad mirzo va uning otalig‘i amir Muhammad Valibek ixtiyoriga topshirdi.

1494-yili Movarounnahrda Sulton Ahmad mirzoning, 1495-yili esa Sulton Mahmud mirzoning vafot etishi Sulton Husayn Boyqaro uchun qulay siyosiy vaziyatni yaratib berdi. 1496-yili Xuroson lashkari Hisorni zabt etish uchun yurish boshladi. Sulton Mas'ud mirzo Termizni mustahkamlab olgach, Xuroson qo'shini Kelif kechuvi orqali daryodan o'tishga erishdi. Natijada Sulton Mas'ud mirzo qo'shinida porakandalik boshlandi. Uning o'zi Hisorni tashlab Samarqandga chekindi. Lekin Xisravshoh va uning ukalari amir Vali va Boqi Chag'oniyoniylar Sulton Husayn mirzoga qarshi kurashni davom ettirdilar. O'z o'g'illari Badiuzzamon mirzo, Ibrohim Husayn mirzoni yirik amirlardan Valibek va Zunnun arg'unlar bilan birgalikda Qunduzni zabt etish uchun jo'natdi. Yana bir farzandi Muzaffar mirzoni esa Muhammad Burunduq Barlos bilan Xatlon viloyati ustiga yubordi. O'zi esa asosiy lashkar bilan Hisorni qamal qildi. Boqi Chag'oniyoniy Hisorni, amir Valibek (Xisravshohning ukasi) Xatlonni, Xisravshoh esa Qunduzni himoya qildi. Bir necha oy davom etgan urush natijasida Xuroson lashkari sulh tuzib, hech narsaga erisha olmay ortga qaytdi. Aynan shu muvaffaqiyatsizlik Sulton Husayn Boyqaro davlatida yangi nizolar boshlanishiga katta turtki bo'ldi. Keyinchalik yana Movarounnahrga yurish qilib, uni zabt etish niyatida bo'lgan Sulton Husayn Boyqaro Astrobod hokimi Badiuzzamon mirzoni Balx viloyatiga hokim etib tayinladi. Astrobodni esa boshqa o'g'li Muzaffar mirzoga taqdim etdi. Badiuzzamon mirzo Astrobodni ham o'z qo'lida saqlab qolishga intilib, u yerda qolgan o'g'li Mo'min mirzoga shaharni qo'ldan bermaslik haqida topshiriq beradi. Natijada 1497-yili Sulton Husayn Boyqaro bilan Badiuzzamon mirzo o'rtasida o'zaro kurash boshlanadi. Bu kurashning zamirida G'ur, Zamindovar, Faroh, Tulak va Qandahor hududlariga egalik qilayotgan arg'un qabilasining yirik amirlaridan biri amir Zunnunning (amir Muqim arg'unning otasi) hokimiyat uchun kurashi yotardi, aslida. Sulton Husayn Boyqaro Badiuzzamon mirzo turgan Balx ustiga, Muzaffar mirzo esa Astrobod ustiga yurish boshlaydilar. 1497-yili 2-may kuni Balx yaqinidagi Pulichirog' (Chirog' ko'prigi)mavzeyidagi jangda mag'lubiyatga uchragan Badiuzzamon mirzo, Qunduzda turgan amir Xisravshoh huzuriga chekindi. U yerda tuzilgan rejaga ko'ra Badiuzzamon Qandahor va Zamindovar viloyatlarida hokimlik qilayotgan amir Zunnun va uning o'g'li Shoh Shujo (Qandahor hokimi, Bobur mirzo Qandahorni aynan shu amirdan tortib olgan) huzuriga borib, uning qo'shini bilan Hirot tomon yurish boshlashga, shu vaqtda Xisravshoh ham Balx ustiga qo'shin tortishi haqida kelishib olinadi. Lekin amir Xisravshoh o'z va'dalarini bajarmadi, u ko'proq Mirzo Sulton Mahmudning o'g'illaridan Hisorni ham tortib olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi.

Pulichirog' jangining ertasi kuni, ya'ni, 1497-yil 3-mayda esa Astrobod yaqinidagi jangda Muzaffar mirzoning qo'li baland kelib, Mo'min mirzo asrga olinib, Hirotga yuborildi. Qunduzdan Amir Zunnunbek huzuriga yetib kelgan Badiuzzamon mirzo Qandahor viloyatida tantana bilan kutib olindi. Amir Zununbek shahzodani o'z qiziga uylantirib, ikki o'rtadagi kelishuvni mustahkamladi va Hirot shahriga yurish qilish uchun katta tayyorgarlik ko'ra boshladi.

Astrobabodda asir olingan Mo'min mirzo 1497-yilning oktyabr oyida Hirotga olib kelinganidan so'ng, bir muncha vaqt Ixtiyoriddin qal'asida hibsda

saqlandi. Ko‘p o‘tmay (oktyabr oyida) bir guruh fitnachilar tashabbusi (Muzaffar mirzoning onasi Hadicha begim va vazir Xoja Nizomulmulk) bilan Hirotda yosh shahzoda qatl etildi. Natijada Badiuzzamon mirzo bilan Sulton Husayn Boyqaro o‘rtasidagi nizo yanada keskinlashib ketdi.

1497-yilning 28-oktyabr kuni Balx yurishidan Hirotga qaytib kelgan Sulton Husayn mirzo, 1497-yilning 26-dekabr kuni Qandahor tomon lashkar tortdi. Isyonchilar ham Hirot lashkarining yurishiga qarshi jiddiy tayyorgarlik ko‘rgan edi. Ular barcha qishloqlardagi oziq ovqat va g‘allani yaqinda hashar yo‘li bilan mustahkamlangan qal’alarga olib kirishga erishdilar. Shuningdek, Farohning Boshlang qal’asini himoya qilish amir Zunnun, bu hududdagi boshqa qal’alarni saqlab turish Badiuzzamon, Zamindovar mudofaasi Muqim arg‘un, Qandahorni qo‘riqlash esa Shoh Shu’jo arg‘un zimmasiga olishi kelishildi. Sulton Husayn mirzo ulardan qay biriga hujum qilsa boshqalar hukmdor lashkariga orqadan zarba berishi rejalashtirildi. Ammo Sulton Husayn mirzoning yurishi janglarga qadar yetib bormadi. Bu viloyatlarga kirib kelgan Hirot lashkari oziq ovqat etishmasligidan tang ahvolda qoldi va faqatgina kichikroq Pasht qal’asini egallash bilan chekoanib, u yerda qo‘lga kiritilgan oziq ovqat bilan ortga qaytib olishga erishdi. 1498-yilning 8-mart kuni Sulton Husayn mirzo Hirot shahriga yetib keldi. Otasining Hirotga chekinishi Badiuzzamon mirzoni dadillantirdi va u Shoh Shu’jo arg‘un hamrohligida Hirot tomon yurish boshladi. Lekin 1498-yil 15-iyun kuni bo‘lib o‘tgan jangda Sulton Husayn mirzo lashkari g‘alaba qozondi va shahzoda yana Zamindovar tomon chekinishga majbur bo‘ldi. Shundan so‘ng, 1498-yilning avgust oyida ota va o‘g‘il o‘rtasida Amir Nizomiddin Alisher Navoiy vositachiligida sulh tuzildi. Sulhga ko‘ra Badiuzzamon mirzoga faroh va Seyiston viloyatlarini boshqarish topshirildi.

1498-yilning yoz faslida Sulton Husayn mirzoning boshqa o‘g‘illari ham taxt uchun kurashni boshlab yubordilar. Hukmdorning o‘g‘illaridan biri Muhammad Husayn mirzo bin necha yil ilgari (Xondamir aniq sana ko‘rsatmagan) otasining kasalligi vaqtida o‘zining hayotidan xavfsirab Abu Turob mirzo ismli ukasi bilan Ozarbayjonga qochib ketgan edi. U yerda ham o‘zaro urushlar kuchayib ketganidan so‘ng u Xurosonga qaytishga qaror qildi. Ammo Sulton Husayn mirzo Muhammad Husayn mirzoning qarshisiga qo‘shin yuborib, uni xavfsiz holda olib kelishni buyurdi. O‘zarpo jangda mag‘lub Muhammad Husayn mirzo, Astrobodga chekindi, lekin u yerdagi akasi Muzaffar mirzo tomonidan ta’qibga uchrab Atrek daryosi bo‘yidagi turkmanlarning Sayinxon ulusiga yashirindi. Ko‘p o‘tmay shu yerdan turib yana lashkar to‘plashga erishdi va 1498-yilning iyul va avgust oylarida Astrobodga qo‘shin tortdi. Bu safargi jangda Muzaffar mirzo mag‘lubiyatga uchrab, Sabzavorga chekindi. Muhammad Husayn mirzo esa Astrobbod viloyatini qo‘lga kiritib oldi. 1498-yilning oktyabr oyida Sulton Husayn mirzo sevimli o‘g‘li Muzaffar mirzoga Astrobodni qaytarib berish maqsadida o‘z sarkardalari boshchiligida lashkar yubordi. Ammo Marv hokimi Abulmuhsin mirzo va Obivard hokimi Muhamad Muhsin mirzolar ittifoqlikda otalariga qarshi isyon boshlaganligi sababli Astrobod yurishi qoldirildi. Muhammad Mo‘min mirzoning o‘ldirilishi boshqa shahzodalarni Hirot saroyidan, ayniqsa, Hadicha begimning fitnalaridan cho‘chitib qo‘ydi va ular o‘zlarining

xavfsizliklarini ta’minlash choralarini izlay boshladilar. Ularning maqsadi otalariga qarshi chiqish yo‘li bilan hukmdorni Hadicha begim ta’siridan holi qilish edi. Olib borilgan muzokaralar samar bermagach, 1498-yilning 19-dekabr kuni Sulton Husayn Mirzo Marv tomon yurish boshladi. Obivard tomon borgan kichikroq lashkar mag‘lubiyatga uchragan bo‘lsa-da, hukmlor boshchiligidagi asosiy qo‘shin Marvni 3-4 oy qamal qilib turdi. Sulton Husayn mirzoning Marvdaligidan foydalangan Xisravshoh fursatdan foydalanib Balxni egallab olish maqsadida yurish boshladi. Natijada Sulton Husayn mirzo Marv qamalini bo‘shatib, Balx tomon yurishga majbur bo‘ldi. Ammo Xisravshoh ham asosiy lashkar Balxni himoya qilish uchun kelayotganini eshitgach, Qunduzga qaytib ketdi. Sulton Husayn Boyqaro ham Balx yurishini to‘xtatib, o‘z e’tiborini isyonkor o‘g‘illariga qaratdi. 1499-yili bo‘lib o‘tgan jangda shahzodalar mag‘lubiyatga uchrab, Muhammad Muhsin mirzo (Kepak mirzo deb ham atalgan) Astrobodga, Abulmuhsin mirzo esa Marvga chekindi. Bu g‘alabadan ruhlangan Sulton Husayn mirzo Astrobodni ham egallashni niyat qilib, yurishni davom ettirdi. Hukmdor Astrobodga yetib kelishi bilan Muhamad Husayn mirzo yana turkman qabilalari ichiga chekindi, Muhammad Muhsin mirzo esa Marv shahriga qochib ketdi. Ammo Sulton Husayn mirzo Astrobodda uzoq qola olmadi. Badiuzzamonning Hirot tomon kelayotganligi to‘g‘risida xabar olganidan so‘ng yurishni to‘xtatdi. Astrobod viloyatini farmon bilan yana Muhammad Husayn mirzoga o‘tganligini tasdiqladi. Muhammad Muhsin mirzoga esa Mashhad viloyatini topshirishga qaror qilib, uni ham o‘z huzuriga qaytardi. Astrobodni ukasiga oldirib viloyatsiz qolgan sevimli o‘g‘li Muzaffar mirzoga esa Sabzavor viloyati topshirildi.

Otasining Hirotda emasligidan foydalangan Badiuzzamon mirzo shaharni qamal qilishga ham erishdi. Lekin shaharni zabt etishga muvaffaq bo‘la olmadi. 1499-yili Sulton Husayn Boyqaro baribir Badiuzzamonga yon berishga majbur bo‘ldi. Balx, Shibirg‘on, Andxud viloyatlari Badiuzzamon mirzo ixtiyoriga o‘tdi. Bu sulhdan yana uning homiysi amir Zunnun yutdi. Seyiston viloyati ham uning ukasi Amir Sulton Ali Arg‘unga topshirildi. Natijada, esa Amir Zunnun arg‘un qo‘lida juda kattaududlar to‘plandi. Yuqloida aytganimizdek, Amir Zunnun Zamindovar viloyatida sohibi ixtiyor edi. Amir Zununning bir o‘g‘li amir Muqim Garmsir viloyatni, yana bir o‘g‘li Shoh Shujo‘ esa Qandahor viloyatini boshqarardilar. Ular Kobul va G‘azni viloyatlarining hukmdorlari bo‘lgan Ulug‘bek mirzo avlodlarini ham, Sulton Husayn Boyqaroni ham o‘z hukmdorlari deb tan olmasdilar.

Garchi Badiuzzamon mirzo va Sulton Husayn Boyqaro o‘rtasidagi nizolar rasman bartaraf etilgan bo‘lsa-da, amalda Xurosondagi temuriylar davlati ichdan emirilib bormoqda edi. Astrobod viloyati hokimligi qayta qo‘lga kiritib olgan Muhammad Husayn mirzo yana isyon kshtarib o‘z hududlarini kengaytira boshladi. U dastlab Isfaroinda Amir Badriddinni, Sabzavorda esa Muzaffar mirzoni tor-mor keltirdi. Mashhad hokimi Muhammad Muhsin mirzo bu voqealardan xabar topishi o‘z viloyatini tashlab, Obivard va Niso tomon chekindi. Natijada Muhamad Husayn mirzo Isfaroin, Nishopur, Sabzafor va Mashhad viloyatlarini qo‘lga kiritib oldi. Bu urushlar qarib qolgan Sulton Husayn mirzo yana lashkar tortishga majbur qildi. U 1500-yilning avgust oyida Astrobod tomon katta yurish boshladi.

Muhamad Husayn mirzo otasining kelayotganini bilgach, o‘z qo‘shini bilan cho‘l ichiga chekindi va qulay fursatni kutishga qaror qildi. Bo‘lib o‘tgan mayda to‘qnashuvlarda Astrobod qo‘shinlarining qo‘li baland kelib turgach, Sulton Husayn mirzo bu viloyatni yana Muhammad Husayn mirzo in’om etganligi borasida yorliq chiqarishga majbur bo‘ldi. Astroboddan ortga qaytish vaqtida Muhammad Muhsin mirzoni o‘z huzuriga chaqirib, boshqa shahzodalarga qarshi tura olishi uchun uning mavqeyini kuchaytirishga qaror qildi. Unga Tus, Mashhad, Niso, Obivard, Durun, Yozir viloyatlari in’om etildi. Ushbu yurish davomida o‘zi istagan natijalarni qo‘lga kirita olmagan hukmdorni 1501-yili 3-yanvar kuni Hirot yana bir qayg‘uli xabar bilan kutib oldi. Shu kuni Amir Nizomiddin Alisher Navoiy vafot etgan edi.

***Xurosonda Muhammad Shayboniyxon hukmronligining o‘rnatilishi***

1503-yili mirzo Sulton Abu Sa’idning yana bir o‘g‘li Kobul va G‘azni viloyatlarini boshqargan Mirzo Ulug‘bek vafot etdi. Uning yosh mirzo Abdurazzoq ismli o‘g‘li esa hokimiyatni saqlab qola olmay, uni Garmsir viloyatining hokimi Muqim arg‘unga topshirishga majbur bo‘ldi. Bu esa arg‘unlarning ta’sirini kuchayib borayotganligidan yana bir dalolat edi.

1503-yilga kelib Movarounnahrning Buxoro, Samarqand, Jizzax, O‘ratepa, Xo‘jand, Toshkent viloyatlari Shayboniyxon boshliq ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati tomonidan zabt etib bo‘lingan edi. Sulton Husayn mirzo o‘g‘illari o‘rtasidagi nizoga barham berish, Shayboniyxonning kelajakda Xurosonga ham hujum qilishining oldini olish maqsadida Badiuzzamon mirzoni Movarounnahr tomon yurish qilishga undadi. Badiuzzamon mirzo asosan amir Zununbek va amir Xisravshohlarga umid bog‘lagan edi. Shuningdek, u o‘z otasidan ham ko‘mak so‘radi. Ulardan faqat amir Zununbek 2-3 ming askari bilan yetib keldi. Hisori Shodmon, Badaxshon, Qunduz, Xatlon va Bog‘lon viloyatlarining askari bilan yetib kelishga va’da bergan amir Xisravshoh esa yurishda ishtirok etishdan butkul bosh tortdi. Sulton Husayn mirzo ham Badiuzzamonning Movarounnahr yurishiga yordam berish uchun askar jo‘natmadi. 1503-yil 28-may kuni boshlangan Badiuzzamon mirzoning Movarounnahr yurishi Amudaryoni kechib o‘tmasdanoq Termiz ostonasida o‘z yakuniga etdi. Xuroson qo‘shini bu vaziyatni daryoni kechib o‘tishga jur’at etmadi.

1503-yilning oktyabrida esa Shayboniyxonning o‘zi lashkari bilan Amudaryoni kechib o‘tib, Xuroson tomon ilk yurishini boshladi. Dastlab Andxud hududini zabt etgan o‘zbek lashkari Balx shahrini ham qamal qildi. Balxni himoya qilishni o‘g‘li Muhammad Zamon mirzoga topshirgan Badiuzzamon mirzo tog‘larga chekindi. Ko‘chmanchi o‘zbek lashkarining Balxni egallash uchun olib bir necha hujumlari samara bermagach, shahar to‘rt oy qamal qilindi. Qamal ham o‘zi kutgan natijani bermasligiga amin bo‘lgan Shayboniyxon 1504-yilning boshlarida Movarounnahrga qaytishga qaror qildi.

Badiuzzamonning otasi bilan munosabatlarini keskinlashganligi shunda ham ko‘rinadiki, u Shayboniyxon hujum qilgan vaqtda yordam so‘rab Sulton Husayn

mirzo qoshiga borishga jur’at etolmadi. Hukmdor ham Balx Shayboniyxon qo‘liga o‘tib ketishi mumkinligini bilsa-da, o‘z o‘g‘liga yordam qo‘lini cho‘zmadi.

Shunday sharoitda Badiuzzamon mirzo Amir Zunnun bilan kengashib, Xisravshohni o‘z tomonlariga ag‘dargan holda yana bir bor Movarounnahrga qo‘shin tortishga urinib ko‘rdi. U Amir Zunnunni Qunduzga – Amir Xisravshoh huzuriga jo‘natib, Shayboniyxonga qarshi ittifoqqa ko‘ndirmoqni niyat qildi. 1504-yili Shayboniyxon ukasi Mahmud Sultonni qo‘shin bilan Hisori Shodmon, Qunduz, Xatlon, Badaxshon viloyatlarini zabt etish uchun jo‘natdi. Dushmanning kelayotganidan voqif bo‘lgan Xisravshoh qarindoshi Abdurahmonbekni ozgina askar bilan “til” ushlash uchun jo‘natdi. Dastlabki kichik to‘qnashuvda mag‘lub bo‘lgan Xisravshoh askarlari to‘g‘ri Qunduz shahriga qochib kelib, bu yerda ham katta vahima ko‘tardilar. Natijada 20 mingga yaqin askarga ega bo‘lgan Xisravshoh qo‘shinni va shaharni o‘z holiga tashlab qochishni ma’qul ko‘rdi. Shaharda katta nufuzga ega bo‘lgan Mavlono Muhammad Turkistoniy esa vahimada qolgan aholini Shayboniyxonga bo‘ysunishga chaqirdi. Aynan shu vaqtda Qunduzga yaqinlashib kelgan Amir Zunnun fursatdan foydalanib shaharni qo‘lga kiritishga va Xisravshoh ochko‘zlik bilan uzoq yillardan beri saqlab kelgan qurol-yarog‘ zahiralari va boyliklarga tayanib, Shayboniyxonga qarshi kurashishga urindi. Lekin shahar ahli va mavlono Muhammad Turkistoniy Amir Zunnunbek uchun shahar darvozalarini ochmadi. Natijada Hisori Shodmon, Qunduz, Xatlon viloyatlari jangsiz ko‘chmanchi o‘zbeklar ixtiyoriga o‘tdi. Badaxshonning mahallliy beklari esa ko‘chmanchi o‘zbeklarga bo‘ysunmasdan o‘z mustaqilliklarini saqlab qolish uchun kurashdilar.

Xisravshohning bu tarzdagi halokati Badiuzzamon mirzoning ham ruhiyatini tushurib yubordi. U Movarounnahrga yurish qilish fikridan butunlay voz kechdi va otasi bilan yaqinlashish choralarini qidira boshladi. Olib borilgan muzokaralardan so‘ng ular o‘rtasida yarash sulhi tuzildi va 1504-yilning oxirida Badiuzzamon Hirotga ko‘chib o‘tdi.

1505-yili Badiuzzamon mirzo Amudaryo bo‘ylariga borib chegaralarni himoya qilish maqsadida o‘z lashkari bilan Hirotdan yo‘lga chiqdi. Unga amir Xisravshoh va amir Zunnunbek hamrohlik qildilar. Amir Xisravshoh Qunduz viloyatiga borib, o‘z tarafdorlarini yig‘ishga va ko‘chmanchi o‘zbeklarga qarshi kurash olib borish qaror qildi. Garchi uning Qunduz viloyatiga kelishi bilan atrofida bir muncha tarafdorlar yig‘ilgan bo‘lsa-da, birinchi jangdayoq Xisravshoh mag‘lubiyatga uchradi va asir olinib, qatl etildi. Amir Zunnunbek esa Kobulni qo‘lga kiritgan Zahiriddin Muhammad Bobir mirzo Qandahorga yurish qilib qolishi mumkinliginidan cho‘chib, o‘z viloyatiga qaytib ketdi. Badiuzzamon mirzo Amudaryo sohillarini bir o‘zi himoyalashga majbur bo‘ldi. Ammo, ko‘p o‘tmay, Amir Zununbek Qandahorni egallash uchun Bobur mirzo qo‘shin tortib kelayotganligi sababli Badiuzzamon mirzodan yordam so‘radi va shahzoda ham qo‘shini bilan Qandahor tomon yo‘l oldi. Natijada Xurosonning shimoliy chegaralari yana himoyasiz qoldi. Badiuzzamonning Qandahorga kelganligi natijasida Bobir mirzo ham Qandahor da’vosidan voz kechdi.

Bu vaqtda, ya’ni 1506-yili Shayboniyxon qo‘shinlari Balx viloyatiga bostirib kirdi va u yerdagi temuriylarning uncha katta bo‘lmagan lashkarini to‘la tor-mor

etdi. Sulton Husayn mirzo yana bir bor Badiuzzamon mirzoni Hirotga chaqirib oldi va uni Shayboniyxonga qarshi yurishga yubordi. O‘zi ham uning ortidan yo‘lga chiqqan vaqtida vafot etdi. Yurish ham shu yerda to‘xtab qoldi. 1506-yilning may oyida amirlar ittifoqi bilan Hirot taxtiga Badiuzzamon mirzo va Muzaffar mirzolar chiqarildi. Taxtning sherikli bo‘lishi vaziyatni yanada murakkablashtirdi va Hirot hukumatining obro‘yini tushurib yubordi. Natijada Xurosonning viloyatlarida hukmronlik qiluvchi shahzodalar, ularning oliy hokimiyatini tan oldishdan voz kechdilar va xutbani o‘z nomlariga o‘qitdilar.

1506-yili Shayboniyxon Hirotga elchi yuborib, Hirot hukmdorlarini o‘ziga bo‘ysunishga chaqirdi. Bu vaqtda o‘zi katta lashkar bilan Balxni qamal qilishga kirishdi. Hirot mirzolari atrofga chopar jo‘natib barcha temuriylarni Shayboniyxonga qarshi kurash uchun birlashishga chaqirdilar. Natijada Marvdan Abulmuhsin mirzo, Qoindan Ibn Husayn mirzo, Kobul va G‘aznidan Bobir mirzo, Seyistondan Amir Sulton Ali Arg‘un va boshqa amirlar o‘z lashkarlari bilan Hirotda yig‘ilib, Balx sari yo‘l oldilar. Lekin amirlarning bir qismi Mashhad hokimi Kepak mirzo bu ittifoqqa qo‘shilmaganligi, shu sababli asosiy qo‘shinlar Hirotdan uzoqlashishi bilan uning poytaxtga hujum qilishi mumkinligi vaji bilan bu yurishni paysalga sola boshladilar. Bu orada Shayboniyxon Balx shahrini qo‘lga kiritganligi haqida xabar kelgach esa yurishdan bosh tortish tarafdorlari ko‘payib ketdi. Amir Zunnunning katta qo‘shin to‘planganda yurishni to‘xtatmay jangga kirish kerak, keyin qachon bunday ulkan lashkarni to‘play olamiz, mazmunidagi murojatlari ham naf bermadi. Oxir-oqibat yurish to‘xtatilib, lashkarlar o‘z viloyatlariga jo‘nadi.

1507-yil 10-aprel kuni Samarqanddan yo‘lga chiqqan Shayboniyxon boshchiligidagi ko‘chmanchi o‘zbek lashkari Karki kechuvi orqali Amudaryodan o‘tib, dastlab Andxudni qamal qildi. Shahar hokimi Amir Shohmansur jangsiz shaharni topshirdi. So‘ngra Marvchoq qal’asi ham jangsiz taslim bo‘ldi. Shunday keyingina Badiuzzammon mirzo va Muzaffar mirzolar dushman kelganligidan xabar topdilar. Bodg‘iz viloyatining Maral mavzesi yaqinida to‘plangan lashkar bilan Amir Zunnun taklifiga ko‘ra dashtda jang qilish yoki amir Muhammad Burunduq barlos taklifiga ko‘ra shahar qal’asida mudofaa jangini olib borish masalasi bo‘yicha kelishuvga ulgurmaslaridan, 1507-yilning 19-may kuni Movarounnahr qo‘shinining manglay qismi yetib keldi. Ular bilan jangga kirgan amir Zunnunbek mardanavor jang qilsa-da, qo‘shini son jihatdan juda ozligi sababli qurshab olindi. Ammo shijoatli amir asir tushish taklifini rab etib, so‘nggi nafasigacha jang qilib halok bo‘ldi. Badiuzzamon mirzo, Muzaffar mirzo hamda boshqa amirlar har tomonga qochishni lozim topishdi. Himoyasiz qolgan shahar jangsiz taslim bo‘ldi va 120 ming tanga “moli omon” solig‘ini to‘lashga kelishildi. Bu soliq va boshqa alohida to‘lovlar bir hafta ichida zo‘ravonlik bilan undirildi.

Maral jangidan keyin tarqalib ketgan Xuroson lashkarining bir qismi Abulmuhsir mirzo va Kepak mirzolar rahbarligida Mashhadda to‘plandi. Shayboniy sultonlardan Muhammad Temur va Ubaydullo boshchiligidagi lashkar tomonidan ular ham Turuq jangida tor-mor keltirildi. Sabzavor yaqinida esa Ibn Husayn mirzo boshchiligidagi temuriylar lashkari tor-mor keltirildi. Natijada Sabzavor, Nishopur, Mashhad, Tus, Marv, Saraxs hududlari ham Shayboniylar

davlati tarkibiga kiritildi. Qandahor, Zamindovar, Seyiston, Faroh va Tulakdagi marhum amir Zununbekning farzandlari ham o‘z viloyatlarini Shayboniyxon itoatida ekanligini bildirib, boju xiroj to‘lab, bu yerda ham xutbani uning nomiga o‘qitdilar.

1507-yilning dekabri oyida Shayboniyxon Movarounnahrga qaytib ketgach, Sulton Husayn mirzoning eng kichik o‘g‘li Qosim mirzo Durun va Niso viloyatlaridan qo‘shin yig‘ib Mashhadga hujum qildi va uni egallab oldi. Shayboniyxonning topshirig‘iga ko‘ra Buxoro hokimi Ubaydullaxon Marv hokimi Qanbarbiy bilan birgalikda Mashhadga qo‘shin tortdi. Tengsiz jangda temuriylar qo‘shini yengildi va Qosim mirzo asir olinib, qatl etildi. Kobul va G‘aznida temuriylar davlatini saqlab turgan Bobir mirzo esa Qandahorga hujum qildi. Shahar yaqinidagi jangda amir Shujo arg‘un va amir Muqim arg‘unni tor-mor etgan temuriy shahzoda Qandahor va Zamindovarni temuriylar davlati tarkibiga qaytardi.

Maral jangidan so‘ng avval Qandahor va Zamindovarga borgan Badiuzzamon mirzo bu yerdagi arg‘un beklari yordam bermasligini anglab etgach, Astrobod viloyati tomon yo‘l oldi. Muzaffar mirzo ham G‘irotdan Astrobodga qochib borgan edi. Astrobod hokimi Fariuddin mirzo akalariga viloyat boshqaruvini topshirib, o‘z qo‘li ostida bo‘lgan Domg‘on viloyati bilan cheklanishga qaror qildi. Kutilmaganda Muzaffar mirzoning kasallanib vafot etishi sababli Astrobodda Hirotdagi kabi ikki hokimiyatchilik yuz bermadi. Badiuzzamon mirzo atigi bir yil Astrobod viloyaitini o‘z qo‘lida ushlab tura oldi. Xurosonning omon qolgan harbiy kuchlar Astrobodda yig‘ilib, katta lashkar to‘planganiga qaramay Badiuzzamon mirzo o‘z hududlarini vaytarib olish uchun intilmadi va vaqtini kayfu safo bilan o‘tkazishda davom etdi.

1508-yili Shayboniyxon katta lashkar bilan Astrobod tomon yurish boshladi. Dushman yaqinlashayotganligidan xabar topgan Badiuzzamon mirzo lashkarni boshqaruvsiz qoldirib, Ozarbayjonga qochib ketdi. Damg‘on viloyatida Fariuddin mirzo va Muhammad Zamon mirzolar qarshilik ko‘rsatishga urindilar. Ammo qamalda qolgan Damg‘on shahrini uzoq saqlab qalish uchun kuchlar etishmaganligi sababli taslim bo‘lishga maьbur bo‘ldilar. Muhammad Zamon mirzo Ozarbayjonga Fariuddin mirzo esa Atrek turkmanlari huzuriga ketdi. Shu tariqa Xurosondagi temuriylar davlati to‘liq tugatilib, Shayboniylar sulolasi hukmronligi o‘rnatildi.

***Ta’lim texnologiyalari:*** *aqliy hujum, Venn diagrammasi, T-sxema, "bumerang", muammoli ta’lim, keys-stadi, vizual materiallar, blits-so‘rov.*

***Nazorat savollari va topshiriqlar***

*1. Sulton Abu Said mirzo vafotidan keyingi siyosiy vaziyat xususida fikr yuriting?*

*2. Sulton Husayn mirzoning hokimiyat tepasiga kelishi haqida so‘zlab bering.*

*3. Temuriylar davlati siyosiy-ijtimoiy hayotida Navoiyning o‘rni qanday bo‘lganini aytib o‘ting.*

*4. Sulton Husayn mirzoning o‘g‘li Mirzo Baddiuzzamon bilan munosabatlariga sovuqchilik tushishining omillari nimada edi?*

*5. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Farg‘ona vodiysidagi siyosiy vaziyat qanday edi?*

*6. Amir Xisravshohning Muhammad Shayboniyxondan mag‘lub bo‘lishiga nima sabab bo‘ldi?*

*7. Hirotda Shayboniyxonga qarshi birlashgan temuriylar nima uchun tarqalib ketdi?*

*8. Amir Temur va temuriylar davlati inqirozining asosiy sabablari nimalar bo‘lgan?*

## TESTLAR.

1. Amir Temur tarixidan hikoya qiluvchi ilk tarixiy manba qaysi va kim tomonidan yozilagan?
A. Xoja Tojuddin as-Salmoniy “Tarixnoma”
B. G‘iyossidin Ali “Ro‘znoma-ye g‘azavot-e Hiniston”
C. Davlatshox Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro”
D. Xondamir “Habib bus siyar fi axbori afrodi bashar”
2. Suriyaning Halab, Gruziyaning Birtis kabi bir necha qal’alarni Amir Temur qo‘shinlari tomonidan zabt etilishini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan tarixchi kim?
A. Sharofuddin ali Yazdiy
B. Nizomiddin Shomiy
C. Muiniddin Natanziy
D. Xurdaki Buxoriy
3. Amir Temurning farmoni bilan 1370-yili Balxning qaysi qal’asi vayron qilingan
A. Tus qal’asi
B. Kalot qal’asi
C. Hinduvon qal’asi
D. Faroh qal’asi
4. 1360-1361-yillarda Mirzo Muhammad jo‘qi isyon ko‘tarib qaysi shaharlar egallab oldi.
A. Hirot Seyiston
B. Balx, Hirot
C. Toshkent, Shohruxiya, Axsikent
D. Seyiston, Mozondaron, Tabriz
5. Mirzo Shomaxmud Hirotda necha kun hukmronlik qilgan?
A. 20 kun
B. 15 kun
C. 25 kun
D. 20 kun

6. 1457- yildagi qaysi voqea Temuriylar davlatidagi yangi nizolaarning avj olishiga sabab bo‘ldi?
A. Abdulqosim Boburning vafoti
B. Mirzo Sulton Ibroximning g‘alabasi
C. Xo‘ja ali Hirotning devonga rahbar bo‘lishi
D. Shohmahmudning Hirotga kirib kelishi
7. Amir Temur Anqara jangidan so‘ng qaysi davlatga yurish tayyorgarliklarini boshlaydi?
A. Xitoyga
B. Hindistonga
C. Turkiyaga
D. G‘arbiy Eronga
8. Manbalarda ta’kidlanishicha Xitoy yurishiga qancha safarbar etilgan?
A. 250 ming

B. 160 ming
C. 200 ming
D. 220 ming
9. Amir Temur vafot etgan vaqtda mirzo Shohrux necha yoshda bo‘lgan?
A. 27 yoshda
B. 25 yoshda
C. 24 yoshda
D. 26 yoshda
10. Amir Temur qachon Xorazmga qarshi yurish boshladi?
A. 1385-yilda
B. 1388-yilda
C. 1389-yilda
D. 1384-yilda
11. 1395-yil boshlarida Amir Temur Dashti Qipchoqqa qaysi davlat orqali yurish qilgan?
A. Anqara
B. Turkiya
C. Eron
D. Ozarboyjon
12. Amir Temurning Rossiyaning janubiy hududlariga qilingan yurishlari bilan bog‘liq voqealarga kim keng to‘xtalgan?
A. B.L.Grekov
B. N.M.Karamzin
C. A.Y.Yakubovskiy
D. V.V.Bartold

13. Mirzo Ahmad asosiy kuchlarni qaysi shaxarga joylashtirgan?
A. Axsi
B. Isfaxon
C. Qoshg‘ar
D. Hirot
14. 1414-yilning 25-noyabrida Mirzo Ulug‘bek xurosonga tashrif buyurib otasiga qaysi voqeasi bo‘yicha xisobot bergan.?
A. Farg‘ona voqeasi
B. Quddus shaxri ziyorati
C. Xitoy elchilari tashrifi
D. Urganch isyoni

15. Mirzo Ulug‘bek Shohrux Mirzoning topshirig‘iga ko‘ra qaysi hududlardagi vaziyatni doimiy ravishda kuzatib bordi?
A. Oq O‘rda va Mog‘uliston
B. Axsi va Farg‘ona
C. Samarqand va Xorazm
D. Ozarbayjon va Eron

16. Qora Yusufning o‘g‘li Amir Jaxonshohga Ozarbayjon boshqaruvi nechanchi yili topshirildi?
A. 1438-yilda
B. 1435-yilda
C. 1436- yilda.
D. 1440-yilda
17. Dug‘lat mog‘ulcha so‘z bolib qanday ma’noni anglatadi?
A. buyuk
B. cho‘loq
C. boy
D. o‘rta asrlaradagi lavozim
18. Dug‘latlardan coiqqan birinchi mashxur davlat arbobi?
A. Amir Boydarxon
B. Amir Qaydu
C. Amir Duva Chechenxon
D. Amir po‘lodchi
19. O‘rta asr hunarmandchiligida “naddof” qanday hunar turi sanalgan?
A. ip yigiruvchi
B. paxta tituvchi
C. temirchilikning bir turi
D. matoga rang beruchi
20. Samarqandda qancha muddat sarbadorlar hokimyati mavjud bo‘lib turgan?
A. bir qish yani 3 oy
B. 4 oy
C. 45 kun
D. 5oy
21. Amir Temur amir Muso va Zinda Chashmlarning isyonini bostirgach,1371-yili o‘zining birinchi harbiy yurishini qayerga qarata boshladi.
A. Mo‘g‘ulistonga
B. Xorazmga
C. Toshkent va Xo‘jandga
D. Oq O‘rdaga
22. Amir Temur Movarounnaxrda hokimiyatni egallagach Xorazm sari birinchi yurish dastlab qachondan boshlandi?
A. 1372-yilning bahorida
B. 1372- yilning kuzida
C. 1373-yilning bahorida
D. 1373-yilning kuzida
23. 1334-yili davlat to‘ntarishi natijasida Chig‘atoy ulusi taxtidan kim ag‘darildi?
A. Kebekxon
B. Qozonxon
C. Munqe xoqon
D. Tarmashirin
24. Amir Temur 1405-yil 18-fevralda qaysi shaharda vafot etdi?
A. Sayram

B. Sabron
C. Samarqand
D. O‘tror
25. 1376-yil To‘xtamish Amir Temur tomonidan berilgan qo‘shin bilan qaysi shaxarlarga yetib borgan va shu shaharlarga tayangan xolda o‘z hokimyatini barpo etishi kerak edi.
A. Toshkent va Farg‘ona
b. O‘tror va Toshkent
S. Farg‘ona va Andijon
D. Sabron va Signoq
26. Xitoy yurishidan oldin Temur Andijon, Axsi, Koshg‘ar, Xo‘tan va Tarozni kimga suyurg‘ol etadi?
A. Sulton Muhammadga
B. Abubakr mirzoga
C. Amirak Ahmadga
D. Ulug‘bek mirzoga
27. Amir Temur Xitoy yurishidan oldin 1398-yil 40.000 qo‘shinni Muhammad Sulton boshchiligida Mo‘g‘uliston chegarasiga yuborib, qayerda qal’a solishni va hududlarni o‘rganishni buyuradi?
A. Oqsuv
B. Alonquva
C. Taroz
D. Ashpara
28. 1401-yilda Ashpara hokimi etib tayinlangan Ollohdodga Temur qanday vazifa yuklagan edi?
A. Hududdagi karvon yo‘llari xavfsizligi ta’minlash
B. Ko‘chmanchi mo‘g‘ullar hujumiga chek qo‘yish
C. Oltin O‘rda va Mo‘g‘ulistondagi vaziyatni o‘rganish va ularning ichki ishlariga aralashish
D. Xitoyga boradigan hududlar geografiyasini o‘rganish, iqtisodiy resurslar resurslarni aniqlash
29.1338-yili Oltin O‘rda taxtini ham qo‘lga kiritib Jo‘ji ulusini qayta tiklagan shaxs kim edi?
A. To‘xtamishxon
B. Ilyosxoja
C. Barakaxon
D. Berkaxon
30. Amir Temur davlati va Oltin O‘rda davlati o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvida asosan qaysi hududlar ro‘l o‘ynagan?
A. Ozarbayjon, Xorazm, Sirdaryo
B. Farg‘ona, Toshkent
C. Janubiy Eron, Xorazm, Farg‘ona
D. Sirdaryo, Farg‘ona, Shimoliy Eron
31. Qaysi rus tarixchisining fikricha Amir Temurning jang oldi tayyorgarligi Anqara jangi taqdirini uning foydasiga hal etgan edi.?

A. Yakubovskiy
B. Grekov
C. Karamzin
D. Ivanin
32.Usmoniylarga qarshi yurishga tayyorgarlik davomida Temur 10 yil davomida qamal qilinayotgan qaysi qal'ani egallaydi?
A. Sivos
B. Xalab
C. Kemox
D. Alanchuq
33. Amir Temur To'xtamishga qarshi kurashda qo'ldan boy bergan Iroq hududida tashkil topgan Jaloyiriylar davlatiga moddiy va harbiy yordam bergan davlat qaysi edi?
A. Oltin O'rda
B. Vizantiya
C. Eron
D. Misr
34.Mordin shahrini zabt etishni Temur kimga topshiradi?
A. Taxurtanga
B. Shayx Nuriddin
C Shohruh mirzo
D. Qora Usmonga
35. Amir Temur hujumi paytida Jaloyiriylar davlati hukmdori kim edi?
A. Shoh Mansur
B. Qora Yusuf
C. Taxurtan
D. Ahmad
36. Amir Temur davrida Misrda kimlar hukmronlik qilishar edi?
A. saljuqiylar
B. ayyubiylar
C. mamluklar
D. haddodiylar
37. Suriyadagi ko'plab shahar amirlari o'z qo'shinlari bilan Amir Temurga qarshi qayerda to'planishadi?
A. Bixishti
B. Baolbek
C. Damashq
D. Xalab
38. Amir Qazag'an davrida taxtga chiqqan Donishmandchaxon (1346-1348) taxt kimning avlodi edi?
A. O'qtoy
B. Chig'atoy
C. Xulokuxon
D. Jo'jixon

39. Oltin O‘rdada Temirxo‘janing taxtdan tushurilishi natijasida hokimiyat amalda xonlardan yirik amirlardan biri kimning qo‘liga o‘tdi.
A. Mamay
B. Idiku o‘zbek
C. Sulaymon So‘fi
D. To‘xtamishxon
40. 1386-yildan to 1405-yilgacha Amir Temur hamda Misr Sultoni Barquq va Faraj, shuningdek, ularning Suriyadagi noiblari o‘rtasida taxminan necha marta maktub va elchilar almashuvi bo‘lgan.
A. 15
B. 25
C. 10
D. 5
41. Amir Temur qo‘shinlari Kichik Osiyoning barcha shahar qal’alarini birin ketin zabt etdilar. Bular ichida ayniqsa, salibchilarning Kichik Osiyodagi so‘nggi qarorgohlari .......qal’asining egallanishi eng muhim voqealardan biri bo‘ldi.
A. Sivas
B. Anqara
C. Izmir
D. Sinop.
42. Movarounnahrning so‘nggi amirlaridan biri bo‘lgan amir Abdullohga qarshi qaysi amirlar birlashib uni mag‘lubiyatga uchratishdi?
A. Hoji Barlos va Bayon Sulduz
B. Zinda Chashm va Xizr Yasavuriy
C. Kayxusrav va Sayfuddin
D. Hoji Barlos va Xizr Yasavuriy
43. Qozonxon davrida (1343-1346) u mamlakatni boshqarish uchun qaysi qasrni qurdiradi?
A. Solisaroy
B. Zanjirsaroy
C. Qarshi
D. Qasri Hinduvon
44. 1361-yili Tug‘luq Temur Movarounnahrni egallagach, hokimyatni o‘g‘li Ilyosxo‘jaga, ulusbegi qilib kimni tayinlab o‘zi Mo‘g‘ulistonga qaytadi?
A. Amir Hamdi
B. amir Bekkichik
C. Shingan no‘yon
D. Odilshoh jaloyir
45. 1364-yili Amir Temur mo‘g‘ullarning 20 ming kishilik qo‘shinini qayerda ustamonlik bilan yengadi?
A. Toshko‘priqda
B. Toshkentda
C. Balxda
D. Samarqandda
46. 1379-80 yillarda Tabriz shahri kimga bo‘ysunar edi?

A. sulton Ahmad Jaloyirga
B. Suton Mahmud jaloyirga
C. amir Bekkichikka
D. Odilshox jaloyirga
47. 1364-yili Amir Temur mo‘g‘ullarning 20 ming kishilik qo‘shinini qayerda ustamonlik bilan yengadi?
A. Toshko‘priqda
B. Toshkentda
C. Balxda
D. Samarqandda
48. “Loy jangi” qachon bo‘lib o‘tdi
A. 1363-yil
B. 1364-yil
C. 1365-yil
D. 1366-yil
49. XIV asrning 50-60-yillarida Movarounnahr nechta mustaqil bekliklarga bo‘linib ketgan?
A. 10 ga yaqin
B. 15 ga yaqin
C. 20 ga yaqin
D. 8 g a yaqin
50. Tug‘luq Temurning yorlig‘i bilan Amir Temur o‘z viloyatining dorug‘asi etib tayinlanganda Amir Temur necha yoshda edi?
A. 18 yosh
B. 20 yosh
C. 24 yosh
D. 22 yosh
51. Temur qo‘shinida ayollardan iborat harbiy bo‘linma borligini kim yozib qoldirgan?
A. Narshaxiy
B. Xondamir
C. Ibn Arabshox
D. Yazdiy
52. Chukalak mavzesi qayerda joylashgan.
A. O‘tror yaqinida
B. Farg‘ona yaqinida
C. Samarqand yaqinida
D. Ozarbayjonda
53. Amir Temur qayerga yoki kimga qarshi yurish qilish asnosida qo‘shinni ruxan qo‘llash maqsadida tog‘ yonbag‘rida tosh minora qurdiradi va unga ushbu yurish tarixini yozdiradi?
A. To‘xtamishga
B. Xorazmga
C. Ozarbayjonga
D. Tug‘luq Temurga

54. Qaysi jangda Amir Temur qo‘shinni 7 qo‘lga bo‘lish taktikasini birinchi marta qo‘llagan?
A. Qunduzcha jangida
B. Loy jangida
C. Anqara jangida
D. Xorazmga qarshi yurishda
55. Qunduzcha jangida lashkarning chap qanoti kimga topshirilgan?
A. Umarshayx mirzoga
B. amir Berdibekka
C. Xoji Sayfuddinga
D. Muhammad sulton mirzoga
56. Sarhadlar va tobe mamlakatlarning boshqaruvi bilan shug‘ullanuvchi 3 ta vazir kimga hisobot berib turgan ?
A. devonbegi
B. hukmdorga
C. moliya vaziriga
D. valiahdga
57. Ma’lumki, Amir Temur nafaqat Movarounnahr va Turkistonni obod qildi, balki bo‘ysundirilgan mamlakatlarning shaharlarini ham qayta qurdirdi. Quyidagi ko‘rsatilgan shaharlardan qay birlarini qayta qurdirgan?
A. Isfahon, Anqara, Istambul
B. Bag‘dod, Darband va Baylakon
C. Bag‘dod, Sheroz, Marv
D. Balx, Darband, Hirot
58. O‘lpon ma’nosini anglatuvchi so‘zni aniqlang.
A. boj
B. xiroj
C. moli omon
D. yasoq
59. Ozarbayjon, G‘arbiy Eron, Iroq, Armaniston, Gurjistonni Amir Temur kimga suyurg‘ol qilib beradi?
A. Mironshohga
B. Pirmuhammad ibn Umar Shayxga
C. Shohruh Mirzoga
D. Pirmuhammad Jahongirga
60. Amir Temur qo‘shining jangga kirish usulini ketma-ketlikda aniqlang?
A. yasovul, xabarchi, manglay
B. xabarchi, yasovul, manglay
C. manglay, yasovul,xabarchi
D. xabarchi, manglay, yasovul
61. Amir Temur davlatida askariy qismlarni viloyatlardan to‘plash bilan qaysi mansabdagi amaldorlar shug‘ullanar edi?
A. bosh hojib
B. tavochi
C. dorug‘achi

D. bosqoq
62. Amir Temur o‘z davlatining shon-shuhrati uchun qaysi shaharning obodonligiga alohida ahamiyat beradi?
A. Samarqand
B. Kesh
C. Buxoro
D. Urganch
63. Amir Temurga qarshi kim qoraqo‘yunli, muzaffariylar, jaloyirlarni qo‘llab-quvvatlagan?
A. To‘xtamishxon
B. Husayn mirzo
C. Yevropa qirollari
D. B.Yildirim
64. Amir Temur Xitoy yurishiga tayyorgarlik korishuchun 1397-yili nabirasi Muhammad sultonni qancha qo‘shin bilan Mo‘g‘uliston chegaralariga yuboradi
A. 30 ming
B. 50 ming
C. 60 ming
D. 80 ming
65. Klavixo 800 tuyalik savdo karvoni qayerdan kelganini o‘z kundaligida qayd etgan?
A. Hindiston poytaxti Dehlidan
B. Xuroson poytaxti Hirotdan
C. Usmoniylar poytaxti Anqaradan
D. Xitoy poytaxti Xonbaliqdan
66. Temur qo‘shining zahira( rezerv) qismi nima deyilgan?
A. izofa
B. qanbul.
C. avangard
D. manglay
67. Kim Amir Temurning keksayib qolgan davrida G‘arbiy Yevropa hukmdorlarining diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etadi?
A. Shohruh Mirzo
B. Mironshoh
C. Ulug‘bek
D. Pirmuhammad
68. Nima sababdan Klavixo boshliq Ispaniya elchilari Samarqanddan jo‘natib yuboriladi?
A. o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishganligi uchun
B. Amir Temurning Xitoyga tomon yurishi munosabati bilan
C. Amir Temur maktubini zudlik bilan G‘arbiy Yevropa hukmdorlariga yetkazishi zarurligidan
D. do‘stona munosabatlarni mustahkamlash va o‘zaro savdo-sotiq aloqalarini yo‘lga qo‘yish zarurligidan

69. Fors, ya’ni Eronning janubiy qismi Umarshayxga beriladi. Ushbu hududning markazi qayer edi?
A. Sheroz
B. Balx
C. Tabriz
D. Tehron
70. 1381-yilda qaysi hududlar egallandi?
A. Hirot,Seiston, Mozandaron
B. Saraxs, Jom,Qavsiya
C. Shiburg‘on, Hisori Shodmon, Balx
D. Marv, balx, Hirot
71. Amir Temurning o‘rtaga tushishi natijasida qatldan saqlanib qolingan sarbadorlar yetakchisini ko`rsating?
A. Abu Bakr Kuluiy
B. Xurdaki Buxoriy
C. Mavlonzoda Samarqandiy
D. Amir Yasovuriy
72. Xorazm nechanchi yillarda egallangan.
A. 1370-1382
B. 1371-1383
C. 1372-1384
D. 1372-1388
73. A.Temur To‘xtamishga qarshi yurish bilan band bo‘lgan paytda 1395-96 yillarda turk qo‘shinlari qaysi hududlargacha yetib kelgan edi ?
A. Bag‘dodgacha
B. Mosulgacha
C. Misrgacha
D. Iroqgacha
74. Amir Temur Hindiston yurishini qachon boshlagan?
A. 1398-yil bahorida
B. 1398-yil yozida
C. 1398-yil kuzida
D. 1398-yil qishida
75. A.Temur 1398-yil Dehli sultoni Maxmudxon Dehlaviyning qancha qo‘shinini tor-mor etgan?
A. 170 ming
B. 150 ming
C. 160 ming
D. 120 ming
76. Yetti yillik yurish qachon boshlangan?
A. 1399-yil
B. 1398-yil
C. 1388-yil
D. 1389-yil
77. Yetti yillik yurishning dastlabki hujumi qayerga qaratilgan edi?

A. Sivosga
B. Gurjistonga
C. Suriyaga
D. Malatiyaga
78. Alanchuq qal’asi necha yillik qamaldan so‘ng taslim bo‘lgan?
A. 5 yillik
B. 10 yillik
C. 8 yillik
D. 11 yillik
79. A.Temur Iroqni zabt etish uchun 2-yurishi qachin amalga ishirilgan?
A. 1401 yil
B. 1393 yil
C. 1399 yil
D. 1400 yil
80. Shohrux mirzo Movarounnaxrga yaqin bolgan Andxud va Shibirg‘on viloyatlarini mirzo Ulug‘bekka xadya etadi va unga kimni otaliq qilib yuboradi?
A. Amir Shoxmalikni
B. Amir Sayyidxo‘jani
C. Amir Jaxonmulkmni
D. Amir Maxmudni

## GLOSSARIY.

**Arkoni davlat** – toju-taxt va davlat ustunlari, davlatning yirik mansabdorlari hamda davlatga ta’siri kuchli ulamolar

**Axtachi** – podshohning otlariga qarab turuvchi xodim.

**Amir ul umaro** – Bosh vazir vazifasini bajargan, barcha amirlar va beklar faoliyatini nazoratda tutib turuvchi, hukmdordan keyingi shaxs hisoblangan. Amir Temur davrida bu lavozim e’tiboran tilga olinmagan bo‘lsa-da, temuriylar o‘zlarini taxt sohibi hisoblay boshlaganlaridan keyin amir ul-umaro lavozimining o‘rni yana shakllana boshlagan. “Qo‘g‘irchoq” xonlar nomidan odatda davlatni amir ul-umaro boshqargan.

**Devonbegi** – bu atamani ikki xil ma’noda tushunish lozim, bir devonning boshlig‘i ham devonbegi hisoblanadi. Shuningdek, barcha devonlarni ustidan nazorat olib bruvchi devonbegi lavozimi faoliyat olib borgan bo‘lib, tarixiy manbalarda ko‘proq shu devonbegilar haqida ma’lumotlar uchraydi. Ular asosan davlatning moliyaviy masalalarini ham o‘z nazoratida tutib turganlar.

**Arzbegi** – oliy hukmdorning huzuriga arz-shikoyat bilan kelgan kishilarni qabul qilib, ularning shikoyatini unga yetkazib turuvchi va uhkmdorning javobidan kelib chiqib, ularga javob xatlarini tayyorlovchi, unga muhr bostirib yuborilishini nazorat qiluvchi mansabdor.

**A’lam** – fiqh (musulmon qonunshunosligi) va boshqa ilmlardan keng ma’lumotga ega bo‘lgan bu mansabdor qozilarning faoliyatini nazorat qilgan. Qozi qabul qilgan qaror yoki ajrim faqat a’lamning tasdig‘idan o‘tgandan keyin kuchga kirgan.

**Barong‘or** – qo‘shinning o‘ng qanoti.

**Baqovulboshi** – Hukmdor oshxonasida xizmat qilib turgan va ovqat pishiruvchilarni nazoratqilgan mansabdor. Eng ishonchli, har tomonlama zukko, yuksak didli, tibbiy bilim egallari bo‘lgan harbiy kishilar orasidan saralab olingan. Doimo hukmdor bilan birga yurganligi sababli, zarur bo‘lganda shaxsiy qo‘riqchilar safini ham to‘ldira oladigan shaxslar hisoblangan.

**Bitikchi** – devonlarning yozish-chizish ishlariga mutasaddi bo‘lgan mansabdor va uning qo‘l ostidagi kotiblar. Bu mansabdor ham hukmdor bilan ko‘p holda shaxsan muloqot qilganligi uchun eng ishonchli, sinalgan hamda harbiy ishdan ham xabardor ziyolilar orasidan tayinlangan. Shuningdek, mashhur olimlardan saralab olingan ziyolilar ham kotib vazifasida faoliyat olib borgan. Ular hukmdor bilan ko‘p hollarda suhbatda bo‘lganlar, zarur bo‘lganda muhim farmonlar, diplomatik maktublar matnini yuqori saviyada tayyorlash aynan ularning zimmasida bo‘lgan.

**Daftardor** – Devoni mustavfiy (moliya vazirligi) da soliq to‘lovchilar ro‘yxati, soliqlar daftarini yurituvchi, xarajatlarni qayd etib boruvchi, ularning hisobini yurutuvchi mansabdor va uning qo‘li ostidagi xodimlar.

**Javong‘or** – qo‘shinning so‘l qanoti.

**Javshan** – temir sovut. U odatda mayda, qattiq simdan to‘qilgan, urush kiyimi.

**Jalol ul-islom** – oliy hukmdorning buyrug‘i bilan ulus va viloyat hukmdorlarining devonini taftish qilib turuvchi oliy mansabdor.

**Jarchi** – hukmdorning farmonlari va buyruqlarini (masalan, qo‘shinga safarbarlik haqidagi buyruqlarini) aholiga yetkazib turuvchi mansabdor.

**Zinbardor** – hukmdor otiga egar-jabduq urib, uni minishga tayyorlovchi xizmatkor. Yurish vaqtida hukmdorning zahiradagi otini o‘zi bilan birga yetaklab yurgan. Eng ishonchli va sinalgan kishilardan, odatda hukmdorning yaqin kishilaridan biri, eng ishonchli qo‘riqchilaridan biri sifatida qaralgan.

**Kadxudo** – qishloq oqsoqoli. Odatda shu qishloqni boshqarish, yig‘iladigan soliqlarni undirishda hokimiyat ularga tayangan. Shuningdek, ular hokimiyat oldida qishloq manfaatlarini himoya qiluvchi sifatida ham namoyon bo‘lganlar.

**Kepakiy** – Chig‘atoy xonlaridan Kepakxon (1318-1326) zamonida chiqarilgan oltin va kumush tanga.

**Kutvol -** qal’a hokimi. Zimmasiga uni doim mudofaaga tayyor holda tutish, u yerdagi qo‘shinga mutasaddilik qilish vazifasi yuklatilgan. Qutvollar ba’zi holatlarda o‘zlari boshqarayotgan shahar-qal’a atrofidagi hududni hokimi vazifasini ham bajargan.

**Majlisnavis** – oliy hukmdorning maxsus va maxfiy yig‘ilishlarida bo‘lgan gaplarni daftarga tushirib boruvchi maxsus kotib. Bu o‘rinda birinchi navbatda uning sohadagi salohiyatiga emas, ishonchli shaxs ekanligiga e’tibor qaratilgan. Bu vazifani ba’zan hukmdorning yaqin kishilari bajargan.

**Manjaniq** – ichiga tosh solib otadigan moslama, urush quroli, palaxmon.

**Mang‘lay (mang‘uloy)** – qo‘shinning markaziy qismi oldida boruvchi maxsus bo‘linma.

**Miroxur** – podshoh (xon) otxonalariga qarab turuvchi mansabdor. U oliy hukmdorga tegishli barcha chorpo va otxonalarga mutasaddi bo‘lgan. Miroxur oliy hukmdorning topshirig‘i bilan urush paytida qo‘shinga boshchilik qilgan; elchilik va boshqa vazifalarni ham bajargan.

**Munshiy** – Hukmdorning shaxsiy kotibi, ko‘p hollarda yaqin suhbatdoshi, Asosan, mamlakatning eng nufuzli olimu ulamolari bu ishni o‘z zimmasiga olganlar.

**Muftiy** – musulmon qonunshunoslarining boshlig‘i. Shariat qoidalari asosida chiqarilgan hukm )fatvo) faqat uning tasdig‘idan keyin kuchga kirgan.

**Muxtasib** – musulmonlar tarafidan islom va shariat ahkomlari qanday bajarilishini nazorat qilib turuvchi diniy mansabdor. Bu lavozim egasi Rais deb ham atalgan.

**Mushrif** – bosh nazoratchi. Shahzodalar va mansabdorlar tepasiga qo‘yilgan nazoratchi. Ular mamlakatning barcha hududlari, viloyatlari bo‘ylab topshiriq bo‘yicha maxsus nazoratlar o‘tkazish huquqiga ega bo‘lgan. Asosan, moliyaviy jinoyatlar ular tomonidan kshrib chiqilgan.

**Muhandis** – oliy hukmdorning amri bilan qurilayotgan binoning shakli va qanday qurilishi kerakligini aniqlab beruvchi mutaxassis.

**Muhosil** – bo‘ysundirilgan shahar xalqidan o‘lpon undiruvchi mansabdor. Odatda, viloyatlarning soliq to‘lash qobilyatini, imkoniyatini ko‘rib chiqib, soliq

miqdorini hukmdorga taklif etuvchi va belgilangan soliqni markaziy hukumat xazinasiga topshirilishiga mas’ul mansabdor.

**Naftandoz** – neftni yondirib otuvchi, qamaldagi qal’aga neft otuvchi maxsus qurilma, harbiy qurol.

**No‘yon** – mo‘g‘ul ko‘chmanchi feodallariga, xususan qo‘shin tepasida turgan vakillariga berilgan unvon.

**Filbon** – podshoh (xon) ning urushga o‘rgatilgan va og‘ir yuklarni tashuvchi fillarga qarab turuvchi xizmatkor

**Sadr a’zam** – sadrlar boshlig‘i, zimmasiga vaqf bilan bog‘liq ishlarni nazorat qilib turish yuklatilgan oliy mansabdor.

**Tavochi** – harbiy yurish oldidan barcha viloyat, tuman va uluslardan belgilangan yerga, belgilangan miqdorda lashkar yig‘ib keluvchi harbiy mansabdor. Odatda, u bu ishga jarchi bilan birga borgan. Tavochilar shu qo‘shinlarning ta’minoti va harbiy tayyorgarligini ham nazorat qilishi, bu bo‘yicha hukmdorga shaxsan muroja qilishi lozim bo‘lgan. Ya’ni, qo‘shin boshlig‘i bo‘lgan sarkardalar va amirlarning o‘z ishiga mas’ulliyatini ham nazorat qilishgan. Markaziy hukumatdan qo‘shin ta’minoti uchun ajratilgan moddiy qiymatliliklarni o‘z vaqtida va to‘liq yetkazilishiga javobgan shaxs.

**Farrosh** – hukmdor turgan joylarni supurib-sidirib turuvchi, oliy hukmdor oldiga mehmon kelganda to‘shak to‘shovchi kichik xizmatkor. Hukmdorning eng ishonchli kishilaridan saralangan va keyinchalik boshqa mansablarga o‘tkazilib borilgan. Zarur hollarda hukmdorning shaxsiy qo‘riqchilari safini to‘ldirgan.

**Faqih** – fiqh (musulmon qonunshunosligi) ilmining bilimdoni. Amir Temur saroyida yetuk faqihlarini tutgan. Aftida ushbu lavozim egasi davlatda qozilar ishini nazorat qilgan va qonun ustuvorligini ta’minlagan.

**Xazinador** – davlat xazinasi ishlarining tasarrufi bilan mashg‘ul bo‘lgan yirik moliya mansabdori.

**Xonsolor** – oliy hukmdor va uning mehmonlari oldiga dasturxon yozuvchi saroy xizmatchisi, dasturxonchi. Odatda eng ishonchli va sinalgan, zukko, so‘zamol harbiylardan saralangan. Chunki hukmdor bilan doimo safarlarni birga o‘tkazgan.

**Chuhra og‘asi** – oliy hukmdorning shaxsiy qo‘riqchilari (chuhralari) boshlig‘i. Chuhralar odatda hukmdorning yaqin kishilarining farzandlaridan shakllantirilgan. Ular hukmdor bilan yaqin munosabatda bo‘lishgan, uning uchun har qanday xavf xatarga tayyor turishgan.

**Shayxulislom** – musulmonlar jamoasining boshlig‘i.

**Eshik og‘a boshi** – qabul marosimlarini tashkil qiluvchi mansabdor, saroy vaziri

**Yurtchi** – harbiy yurishlar paytida oldindan borib, podshohning chodirini tikishga rahbarlik qiluvchi mansabdor. Qo‘shin joylashadigan joylarni to‘g‘ri belgilashda harbiy xavfsizlik, tabiiy xavfsizlik, tibbiy va oziq ovqat xavfsizligini hisobga ola biluvchi kishilar yurtchi lavozimiga tayinlangan. Juda muhim va mas’uliyatli lavozim hisoblangan. Ichki va tashqi xavfsizlik tizimlari bilan birgalikda, hamkorlikda faoliyat olib borgan.

**Qozi askar** – harbiy sudya.

**Qozi ahdos** – jinoiy ishni qadimdan kelgan urf-odatlar va tartib asosida ko‘rib hal qiluvchi sudya.

**Shariat qozisi** – shariat ko‘rsatmalari asosida ish yurituvchi sudya.

**Chopavul** – yo‘l ustidagi qishloq va ovullarni to‘satdan bosqin qiluvchi harbiy bo‘linma.

**Shabixun** – harbiy yurish vaqtida tunda yo‘l ustidagi, yoki qamal paytida qal’a atrofida turgan qo‘shin ustiga to‘satdan qilingan bosqin. U odatda yarim kechada yoki saharda o‘tkazilgan.

**Yasol** – qo‘shinni harbiy yurish yoki jang oldidan safga tortib, ko‘rikdan o‘tkazish; qo‘shinning jangovar safi.

# FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR

## Huquqiy me'yoriy xujjatlar:


1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “1996 йилни “Амир Темур йили” деб эълон қилиш тўғрисида”ги фармони. – Тошкент. 1995. 26 декабрь// Халқ сўзи. – 1995 йил 27 декабрь.
2. “Амир Темур таваллудининг 660 йиллигини нишонлаш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил 29 декабрь қарори // Халқ сўзи. – 1994 йил 30 декабрь.
3. “Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 27 июн қарори. // Халқ сўзи. – 1998 йил 28 июнь.
4. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси президентининг ПФ-4749-сонли фармони. Тошкент шаҳри, 2017 йил 7 февраль. // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари. / Нашрга тайёрловчилар М. Бекмуродов, Қ, Қуронбоев, Л. Тангриев. – Т.: Ғафур Ғулом, 2017. – Б.38-77.
5. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston NMIU. 2017. – 488 b.
6. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 502 б.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Ислом ҳамкорлик ташкилотининг фан ва технологиялар бўйича I саммитидаги нутқи. http: //president.uz/uz/lists/view/1018. – 10.09.2017.
8. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – 508 б.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 28 июндаги ПҚ-4375 сонли “Ўсмирларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ҳамда Ўзбекистон Республикаси Қуролли кучлари ва давлат хизмати учун кадрлар заҳирасини тайёрлаш тизимини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори. https://lex.uz/docs/4417961.


## Manbalar


1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи садъайн ва мажмаи бахрайн. Қўлёзма. عبدالرزاق سمرقندوى مطلع السعدين و مجمع البحرين АҚШнинг Мичиган университети кутубхонасидан олинган электрон нусха.
2. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс – тожик тилидан таржима, кириш сўз ва изоҳи луғатлар А. Ўринбоевники. – Т.: Фан. 1969. – 464 б.
3. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев. Ж. II. Қ. I. 1405 – 1429 йил воқеалари. – Т. : «O‘zbekiston». 2008. – 632 б.

4. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / Форс тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи А. Ўринбоев. Ж. II. Қ. II-III. 1429 – 1470 йил воқеалари. – Т. : «O‘zbekiston». 2008. – 832 б.

5. Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. Т. 12. Мажолисун-нафоис. Нашрга тайёрловчи С. Ғаниева. – Т.: Ғафур Ғулом,1966. – 216 б.

6. Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. / Б. Аҳмедов, У Уватов, Ғ. Каримов ва бошқалар. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 312 б.

7. Баҳодирхон Абулғозий. Шажарайи турк / Масъул муҳаррир ва сўз боши муаллифи Б.А.Аҳмедов. – Т: Чўлпон, 1990. – 192 б.

8. Восифий, Зайниддин Маҳмуд. Бадоеъул вақоеъ – Нодир воқеалар. / Форсийдан Н. Норқулов таржимаси. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 216 б.

9. Гийасаддин Али. Дневник похода Тимура в Индию / Пер. с перс., предис. и примеч. А.А.Семенова. – М.: Вост., 1958. – 206 с.

10. Гулбаданбегим Заҳириддин Муҳаммад Бобур қизи. Ҳумоюннома: Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ўғли – Ҳумоюн подшоҳнинг аҳволи. // Форс тилидан С. Азимжонова таржимаси. – Т.: “Маънавият”, 1998. – 104 б.

11. Жувонмардиев А. XVI – XIX асрларда Фарғонада ер-сув масалаларига доир – Т.: Фан, 1965. – 182 б;

12. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома / Нашрга тайёрловчи П. Шамшиев – Т.: Юлдузча. 1989. – 368 б.

13. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. / П.Шамсиев, С.Мирзаев, Э.Мано, С. Ҳасановлар нашрга тайёрлаган. В. Раҳмонов, К. Муллахўжаевалар ҳозирги ўзбек тилига тадбил қилган. – Т.: «O‘qituvchi» НМИУ, 2008. – 288 б.

14. Ибн Араб Қатаған, Муҳаммадёр. Мусаххир ал-билод (“Мамлакатларнинг эгалланиши”). / Форс тилидан таржима, изоҳлар ва кўрсатгичлар муаллифлари: И. Бекжонов, Д. Сангирова. Кириш муаллифлари Ш. Воҳидов, И. Бекжонов, Д. Сангирова. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2009. – 410 б.

15. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари. /Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У. Уватов тайёрлаган. К. I. –Т.: Меҳнат, 1991. – 328 б.

16. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур: Темур тарихида тақдир ажойиботлари. /Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни У. Уватов тайёрлаган. К. II. –Т.: Меҳнат, 1991. – 192 б.

17. Ибн Хавқал. Китоб сурат ал-ард. Мовароуннаҳр. / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011. – 400 б.

18. Клавихо, Руи Гонсалес де. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406). / Пер. со староиспанского, предисл. и коммент. И.С. Мираковой. – М.: Наука,1990. – 211 с.

19. Руи Гонсалес де Клавихо. Буюк Амир Темур тарихи (1403-1406). / Испан тилидан Улуғбек Жўраев таржимаси. // Амир Темур Европа элчилари

нигоҳида . – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007. – 208 б.

20. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благорожных. (География)./ Введения, пер., прим., указ. Б.А. Ахмедова. – Т.: “Фан”, 1977. – С. 168.

21. Матла ас-саъдайн ва маджма ал-бахрайн Абд ар-Раззака Самарканди / пер. с персидского О.Ф. Акимушкина. // Материалы по истории Киргизов и Киргизии. Отв. Редактор В.А. Ромодин – М.:Наука,1973. – С. 150-153.

22. Мақомоти Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. // Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Табаррук рисолалар. / Нашрга тайёрловчи, таржимон, сўз боши ва изоҳ муаллифлари – Маҳмуд Ҳасаний, Баҳриддин Умрзоқ, Ҳамидиллоҳ Амин. Т.: Адолат, 2004. – Б. 156 – 195.

23. Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий / Таржимонлар Ваҳоб Раҳмон, Янглиш Эгамова, масъул муҳаррир академик А. Қаюмов. – Т.: «SHARQ». 2010. – 720 б. + 32 зарв.

24. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий / Нашрга тайёрловчи, сўз боши, тадбил изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи О.Ё.Жалилов. – Т.: «O‘zbekiston», 2011. – 704 б.

25. Мирза Мухаммад Хайдар. Тарих-и Рашиди / Введение, перевод с персидского А. Урунбаева, Р.П. Джалиловой, Л.М. Епифановой, примечания и указатели Р.П. Джалиловой и Л.М. Епифановой – Т.: Фан, 1996. – 727 с.

26. Мирхонд. Равзат ал-сафо фи сийрат ал-анбиё вал мулук вал хулофо. Қўлёзма. میرخواند ورالصفا فئ سئره الانبیائ و الملوک و الخلفا АҚШнинг Мичиган университети кутубхонасидан олинган электрон нусха .

27. Мирхонд. Равзат ус-сафо.// Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида / Б. Аҳмедов, У. Уватов, Ғ. Каримов ва бошқалар. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 100-135.

28. Муиниддин Натанзий . Мунтахаб ут-таворихи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи-Ғулом Каримий-Т.: Ўзбекистон. 2011. – 264 б.

29. Муҳаммад Муфти Оҳангароний. Мавлоно Лутфуллоҳ Маноқиби / Форс тилидан таржима Абдуллоҳхўжа Маъруфхўжа ўғли ва Шуҳрат Сирожиддинов – Т.: Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси. 2002. – 142 б.

30. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. / Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Э. Шодиев. – Т.: Ғафур Ғулом, 1989. – 336 б;

31. Муҳаммад Қози. Силсилат ул-орифийн. // Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Табаррук рисолалар. / Нашрга тайёрловчи, таржимон, сўз боши ва изоҳ муаллифлари – Маҳмуд Ҳасаний, Бахриддин Умрзоқ, Ҳамидиллоҳ Амин. Т.: Адолат, 2004. – Б. 143-156.

32. Муҳаммад Мирзо Ҳайдар. Тарихи Рашидий/ Сўз боши ва изоҳлар муаллифи ҳамда таржимонлар В. Раҳмонов ва Я. Эгамова – Т.: Шарқ. 2010. – 720 б.

33. Навоий замондошлари хотирасида. / Тузувчи Б. Аҳмедов. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 224 б.

34. Наршахий. Бухоро тарихи – Т.: Шарқ баёзи, 1993. – 128 б.

35. Низомиддин Шомий. Зафарнома /Форс тилидан ўгирувчи – Ю. Ҳакимжонов, таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва маъсул муҳаррир – А. Ўринбоев, изоҳлар ва луғатларни тузувчи – Ҳ. Кароматов (жуғрофий номлар изоҳи – О. Бўриевники), Ҳофизу Абруни «Зафарнома»га ёзган «Зайл»и(«Илова»)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларини тузувчи – О. Бўриев-Т.: Ўзбекистон, 1996;

36. Нисорий, Ҳасанхожа. Музаккири аҳбоб (Дўстлар ёдномаси). / Таржимон ҳамда сўз боши ва изоҳлар муаллифи Исмоил Бекжон. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 343 б.

37. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История. / Составители: Д.Ю. Юсуова, Р.П. Жалилова. – Т: «Фан», 1998. – 534 с.

38. Таворихи гузида – Нусрат-наме. / Исследование, критический текст, аннотированное оглавление и таблица сводных оглавлений А.М. Акромова. Т.: «Фан», 1967.

39. Таворихи гузида” – “Нусратнома” // Ўзбекистон тарихи. Хрестоматия. 3-жилд. XVI – XIX асрлар. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2014. – Б. 132 – 148.

40. Темур тузуклари. / Таҳрир ҳайъати: Б. Абдуҳалимов ва бошқ. Форсча матндан А. Соғуний ва Ҳ. Кароматов тарж. – Т.: «O‘zbekiston», 2012. – 184 б.

41. Амир Темур Кўрагон. Темур тузуклари. / сўз боши, тадбил, изоҳ муаллифлари Ҳ.Н. Бобобеков, А. Қурбонбеков, И. Сулаймонов. – Т.: «Fan va texnologiya», 2014. – 196 б.

